



ISSN 2181-3787
E-ISSN 2181-3795

“PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA”
xalqaro ilmiy-metodik jurnal

«ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ»
международный научно-методический журнал

“PEDAGOGICAL ACMEOLOGY”
international scientific-methodical journal

№5(7) 2023

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi OAK Rayosatining 2023-yil 5-maydagi 337-qarori bilan **07.00.00 -
tarix, 13.00.00 - pedagogika, 19.00.00 - psixologiya** fanlari bo‘yicha
dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan
zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.



Jurnal haqida
Jurnalga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida 1672 raqamli guvohnoma berilgan.

"Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnali

"Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnaliga taqdim etilgan ilmiy maqolalarga qo'yiladigan asosiy talablar falsafa doktori (PhD), fan doktori (DSc) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini xalqaro standartlar va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Oliy attestatsiya komissiyasi to'g'risidagi Nizom talablari, shu jumladan elektron ilmiy-texnik jurnallarga qo'yiladigan talablar tizimi hisoblanadi.

«Педагогическая акмеология» международный научно-методический журнал

Основные требования к научным статьям, представляемым в международном научно-методическом журнале «Педагогическая акмеология» являются научные труды, рекомендованные для публикации основных научных результатов докторских (PhD), (DSc) диссертаций в соответствии с международными стандартами и «Положением о Высшей аттестационной комиссии» при Кабинете Министров Республики Узбекистан, в частности требования к электронным научно-техническим журналам.

About the magazine

"Pedagogical akmeology" international scientific-metodical journal

The main requirements for scientific articles submitted to the international scientific-metodical journal "Pedagogical akmeology" are scientific publications recommended for the publication of the main scientific results of doctoral (PhD), (DSc) dissertations in accordance with international standards and the "Regulation on the Higher Attestation Commission" Under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, including from templates in the system of requirements for electronic scientific and technical journals.

Muassislar: "Sadridin Salim Buxoriy" MCHJ "Durdona" nashriyoti,
Buxoro davlat pedagogika instituti

Tahririyat manzili: O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy

Web-sayt: www.paresearchjournal.uz

Bosh muharrir:

Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Husenova Aziza Sharipovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Mas'ul kotib:

Bafayev Muhiddin Muhammadovich, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIR HAY'ATI:

Muqimov Komil Muqimovich, O'zR FA akademigi, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abdullayeva Barno Sayfiddinovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G'arbiy Universitet, Bolgariya)

Madzigon Vasiliy Nikolayevich, akademik, pedagogika fanlari doktori, professor (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Kiyev)

Maksimenko Sergey Dmitriyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Kiyev)

Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)

Kozubsov Igor Nikolayevich, pedagogika fanlari doktori, dotsent (Kiyev, Ukraina)

Mustafa Said Arslon, filologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

To'xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori, dotsent

Muhitdinova Xadicha Sobirovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Niyozmetova Roza Hasanovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Sobirova Maxbuba Yusupdjanovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

O'rayeva Darmonoy Saidaxmedovna, filologiya fanlari doktori, professor

Raximov Sharof Amonovich, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Rasulov To'liq Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Axmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ibragimova Gulsanam Nematovna, pedagogika fanlari doktori, dotsent

Kadirov Xayot Sharipovich, pedagogika fanlari doktori, dotsent

Jalilova Saboxat Xalilovna, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Atabayeva Nargis Batirovna, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muxtorov Erkin Mustafoyevich, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Jumaniyozova Muhabbat Husenovna, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Farmonova Shabon Muhamadovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qo'ldoshev Rustambek Avezmurodovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Abdullayev Mehriddin Junaydullayevich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Klichov Oybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori (DSc)

Qodirov Rashid Hamidovich, pedagogika fanlari nomzodi, professor

Toshtemirov Otabek Abidovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MUNDARIJA**07.00.00 - TARIX 6**

Baxtiyor Nazarboyevich Rizayev. Qurdoba shahri shakllanishi jarayonida migratsiya omilining ta'siri.....	6
Ergashev Jahongir Yunus o'g'li. Sharqiy turk xoqonligining tanazzuli va uning qayta rivojlanish jarayonlari xususida	10
Shodiyeva Shahlo Soliyevna. Buxoro xonligi (amirligi)da taxt va vorislik masalalariga doir ayrim mulohazalar	13

13.00.00 - PEDAGOGIKA FANLARI 18

Sobirova Maxbuba Yusupdjanovna, Toshnazarova Aziza Xoshimjanovna. Til to'garagi mashg'ulotlari mazmuni va uning ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati.....	18
Yusupova Shohidaxon Jaloliddinovna, Odilova Hamida Ulug'bek qizi. Maqsud Shayxzoda ijodida tabiat tasviri va unda o'quvchi ruhiyatining ifodalanishi.....	24
Xasanov Ilyos To'ychiyevich. Kurash mashg'ulotlari jarayonlarida talaba yoshlar (o'g'il bolalar)ning o'zlashtirish ko'rsatkichlari dinamikasi.....	29
Kamolov Ixtiyor Ramazonovich. Astronomiya darslarida quyoshning energetik quvvatini kundalik turmush bilan bog'lab o'qitish metodikasi.....	36
Abdullayeva Feruza Nurilloevna. Sinergetik yondashuv asosida o'qish savodxonligi darslarida badiiy asarlarni o'rgatishda fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirish	42
Saidova Muhabbat Shukrullayevna. Yangi avlod ona tili darsliklaridan samarali foydalanishning didaktik yechimlari	46
Xo'jayev Alijon Atabekovich. Oliy ta'lim muassasalarida ta'limiy natijalarga erishishga qaratilgan harakatlarni prognozlash mexanizmlari	51
To'rayev Rasul Norto'jiyevich. Interfaol metodlar asosida integrallarning kimyoga tatbiqlarini o'rganish.....	56
Olimov Temir Hasanovich. Ilmiy tadqiqot ishi bilan shug'ullanuvchilarda tadqiqotning konsepsiyasi, maqsadi va vazifalarini shakllantirish ko'nikmalarini hosil qilish	64
Кучимов Маъруф Кучимович. Повышение конкурентоспособности выпускников вузов на региональном рынке труда.....	70
Abdullayeva Maryambibi Djumaniyazovna. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijtimoiy-huquqiy me'yorlar bilan tanishtirish	75
Azimov Sanjar Samadovich. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining badiiy va ijodiy faoliyatida estetik ehtiyojlarni shakllantirish metodikasi.....	81
Kuchkarov Bahodir Tashmurodovich. Harbiy ta'lim muassasalari kursantlarida umummadaniy kompetentlik tuzilmasi va uni rivojlantirish texnologiyasi	84
Toshev Salimjon Nurboboyevich. Fizika fanining o'qitishda talabalarning evristik faolligini oshirishning usullari	89
Nuriddin Olimjonovich Qirg'izov. Loyihaviy ta'lim vositasida ona tili darslarida ta'lim subyektlari faoliyatini modellashtirish yo'llari	95
Xudoyberdiyev Eliboy Norboyevich, Hamroyeva Sevara Nasriddinovna. Yulduzlar evolyutsiyasini kvant tasavvurlar nazariyasi asosida o'qitish uslubi.....	100
Kadirov Rashid Xamidovich. Jismoniy tarbiya jarayonida diagnostik usullar amaliyoti.....	103
X.Y.Mirzakarimov. Akademik litseylarda yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini takomillashtirishga zamonaviy yondashuv (harbiy akademik litseylar misolida).....	107
Raximova Gulora. Shaxobiddin Suxravardiy axloqiy qarashlarida vatanga muhabbat tushunchasi talqini.....	112
Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich. Boshlang'ich sinflarda kreativ fikrlashga doir fanlararo absessial va ordinal bog'lab masalalar yechish.....	115

Zaripova Gulbahor Komilovna. Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarini ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasida sinf rahbarining shaxsiy va kasbiy namunasi	120
Ҳазратов Ўткир Ҳайдарович, Нарзиев Шамсидин Сайпиллоевич. Амалий машғулотларни ўтишда интерфаол усулларнинг самарадорлигини баҳолаш.....	130
Камилова Гулмира Алимовна. Мактабгача ёшдаги болаларда паремик жанрлар воситасида экологик маданиятни ривожлантириш модели.....	135
Tkacheva Anastasiya Aleksandrovna. Talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish uchun oliy ta'lim tizimida o'yin elementlari va geymifikatsiyadan foydalanish (ispan tili misolida)	139
Karimova Gulhayo Botirjon qizi. Oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida faol innovatsion o'qitish usullari.....	148
Po'latova Shahnoza Ikrom qizi. Kasb-hunar maktablarida voleybol seksiyasi ishini rejalashtirish	152
Anvar Ergashovich Sattorov. Mashg'ulotlarda yosh voleybolchilarni tayyorlashning pedagogik - psixologik jihatlarini	155
Muxamedov Shavkat Madjitovich. Oliy ta'limda mutaxassislik fanlarning elektron-dasturiy va metodik ta'minotini takomillashtirish.....	160
Samiyeva Surayyo Oripovna. Tabu va evfemizm o'zbek va tojik tillarida	166
Olloqova O'g'iljon Mamanazarovna. O'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini shakllantirishda yangi avlod darsliklarining ahamiyati	171
Jumayeva Habiba G'aforovna. Boshlang'ich sinflarda o'qitishning zamonaviy metodikasi .	176
19.00.00 - PSIXOLOGIYA FANLARI	181

Элов Зиёдулло Сатторович. Рухий-жинсий бузилишлар шахсда ижтимоий психологик муаммо сифатида	181
Qodirov Obid Safarovich. O'zbekistonda tarbiyasi qiyin o'smirlarga e'tiborni kuchaytirishning psixologik muammosi	186
Olimov Laziz Yarashovich. Sud-psixolog eksperti kompetentligini takomillashtirishniing psixologik mexanizmlari.....	192
Boltayev Sardor Ibodovich. Zamonaviy psixologiya fanida qarish muammosining o'rganilishi	202

Baxtiyor Nazarboyevich Rizayev

Buxoro davlat universiteti

tarix va yuridik fakulteti “Jahon tarixi” kafedrası

tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

QURDOBA SHAHRI SHAKLLANISHI JARAYONIDA MIGRATSIYA OMILINING TA'SIRI

Annotatsiya: YUNESKO butun jahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan Ispaniyaning Qurdoba tarixiy shahrini shakllanish jarayoniga migratsiya omilining ta'sirida hosil bo'lgan moddiy madaniyat, e'tiqod, etnokomponentlar va shahar demografiyasining o'ziga xos jihatlari tarixiy adabiyotlar tahlili orqali ochib berilgan.

Kalit so'zlar: migratsiya, shahar, ko'chish, madaniyat, markaz, migrant, poytaxt.

ВЛИЯНИЕ ФАКТОРА МИГРАЦИИ НА ПРОЦЕСС ФОРМИРОВАНИЯ ГОРОДА КУРДОБА

Аннотация: рассмотрены материальная культура, верования, этнокомпоненты и специфические аспекты демографии города, сформировавшиеся под влиянием миграционного фактора в процессе формирования исторического города Кордова, входящего в список всемирного культурного наследия ЮНЕСКО раскрывается посредством анализа исторической литературы.

Ключевые слова: миграция, город, перемещение, культура, центр, migrant, столица.

INFLUENCE OF MIGRATION FACTOR ON THE PROCESS OF FORMATION OF THE CITY OF KURDOBA

Abstract: the material culture, beliefs, ethnocomponents, and specific aspects of the city's demography formed under the influence of the migration factor in the formation process of the historical city of Cordoba, Spain, which is included in the UNESCO world cultural heritage list, are revealed through the analysis of historical literature.

Key words: migration, city, displacement, culture, center, migrant, capital.

Jahon tarixi ilk o'rta asrlar davrining o'ziga xos xususiyatlaridan biri yangi shaharlar vujudga kelishi bilan izohlanadi. O'rta asr shaharlari savdo-huramandchilik markazlari sifatida jamiyat taraqqiyotida tub burilishga olib keldi. Xususan, feodal tuzum inqirozi jadallashib, inson manfaatlari va kapitalizm uchun zamin hozirladi. Ayniqsa, shaharlar rivojlanishi barobarida insonparvarlik va gumanizm tomoyillarini yuzaga qalqib chiqishi yuz berdi. O'rta asr tarixiy shaharlari hamjihatlik, bag'rikenglik, vijdon erkinligi, ahillik va inoqlik prinslarini mujassamlashtirgan o'ziga xos laborotoriya vazifasini bajargandi.

XXI asrda olib borilayotgan tarixiy tadqiqotlar asosan shahar boshqaruvi, hunarmandchilik, savdo-sotiq, madaniy meros va aholi maishiy turmushi masalalariga bag'ishlanadi. Shuningdek, tarixiy shaharlarning shakllanishiga ta'sir qiluvchi ekologik, tabiiy-geografik, siyosiy, harbiy omillar ham atroflicha tadqiq etilmoqda. Lekin, uzoq vaqt davomida poytaxt bo'lib kelgan tarixiy shaharlarning shakllanish jarayoniga ta'sir qilgan migratsiya omili - shahar axolisi salmog'i, etnik tarkibi, migrantlarni shahar hududida joylashuvi kabi masalalarni tadqiq etish e'tibordan chetda qolgan. Holbuki, dunyoning turli mintaqalaridagi urbanizatsiya, transmilliy va umuminsoniy

qadriyatlar shakllanishida migratsiya beqiyos ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazarda, Qurdoba tarixiy markazi shakllanishida migratsiya omilini ta'siri masalalari tahlilga olindi.

Tarixi tadrijiy rivojlanish bosqichlari tahliliga ko'ra o'rta asr shaharlarining o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi. Jumladan:

- tarixiy shaharlarda inson tafakkuri mahsuli o'laroq noyob me'moriy, san'at va tarixiy yodgorliklar bir butun kompozitsiyada namoyon bo'ladi;

- shahar moddiy-madaniy merosi transmilliy xarakterga ega bo'lib, o'z davri uchun ideal hisoblanadi;

- tarixiy markazda turli etnokomponentlar o'zaro hamjihatlikda, shu bilan birga urf-odat va an'analarini saqlagan holda yashaydilar;

- shaharlar mavjud bo'lgan davrda savdo-sotiq, hunarmandchilik, hamda madaniy-ma'rifiy markaz sifatida namoyon bo'ladi;

Qurdoba shahriga Rim imperiyasining Priney yarim oroliga harbiy yurishlari davrida asos solindi [1]. Aholisi turli xaqlardan tashkil topgan manzilgoh, Ispaniya janubidagi sersuv Gvadilupa daryosi o'rta oqimida joylashgan bo'lib, imperiya davrida tom ma'nodagi shahar maqomini oldi.

Avgust imperatorlik davrida Piriney yarim oroli 3 provinsiyaga ajratildi. Xususan, janubiy-sharqda Betika provinsiyasi tashkil etilib, Qurdoba uning markaziga aylantiriladi. Rim ma'muriyati shaharni strategik qulay joylashuvi va tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda, bu yerda mustahkamlangan harbiy hamda savdo-hunarmandchilik markazini tashkil etdi. Shu maqsad yo'lida ko'p sonli rim migrantlari (legionlar, quldorlar, qullar, ruhoniylar) Qurdobaga ko'chirildi. Migrantlar tomonidan amalga oshirilgan qurilish-ta'mirlash ishlari natijasida shahar qiyofasi tubdan o'zgara boshladi. Antik madaniyat namunasidagi binolar, ko'priklar, yo'llar, vodoprovod, shahar arxitekturasi-cherkov, teatr, va boshqa binolar qisqa muddatlarda barpo etiladi [2].

Tashqi migratsiya evaziga Qurdoba aholisi salmog'i sezilarli o'sib bordi. O'rta yer dengizi savdosi bilan bog'langan shaharlar, shu jumladan endilikda Qurdoba shahrida ham ko'plab sayyor savdogarlar – suriyalik, misrlik va yahudiylarni uchratish mumkin edi. Tashqi savdodan manfaatdor shahar ma'muriyati sayyor savdogarlar uchun shahar hududidan maxsus yer ajratib, alohida koloniyalar tashkil etishga e'tibor qaratdi. Natijada, shaharda turli ko'rinish va uslubdagi binolarning o'zaro uyg'unlikda namoyon bo'ldi.

Imperiya inqirozi davrida Ispaniyaga german - got varvar qabilari hujumlari avj oldi. Varvarlar ko'chmanchi turmush kechirib, buyuk ko'chishlar davrida turli omillar (iqlimni nihoyatda sovub ketishi, o'zaro urushlar, oziq-ovqat tanqisligi) ta'sirida yarim orolga yoppasiga ko'chib o'ta boshladi. Varvarlar, dastlab, qishloq joylariga o'mashib, shahar hayotiga aralashmaslikni ma'qul ko'rdilar. Biroq, keyinchalik shaharlarda istilochilar o'z yer – mulk va uy-joylariga ega bo'lishdi [3]. Chunonchi, Qurdoba shahri Rim provinsiyasi markazlaridan biri sifatida antik madaniyatni ko'chmanchilar an'analari bilan uyg'unlashtirgan markaziga aylandi. Vestgotlar katolik bo'lishlari bilan xristianlashtirish siyosati kuchaydi. Ular tomonidan shaharda Palensiya, Samora, Orenas va Toledo kabi bir necha cherkov binolari qurildi. Cherkovlar binolari qurulish uslubi va bezaklarida Vizantiya ta'siri yaqqol sezilib turadi. Ayniqsa, tasviriy san'at va maishiy binolarida sharqiy imperiya namunalari ustuvorlik qiladi. Yuqoridagi fikrlar Vestgot qirolligi mavjud bo'lgan davrda (418-718- yilla) vaskon, farnk hamda vizantiyaliklar Qurdobaga ko'chganidan dalolat beradi [4].

Imperator Yustinian tomonidan 559-yilda Priney yarim orolini janubiy-sharqiy qismi egallandi. Harbiy harakatlar davrida Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikada yashovchi ko'plab xalq va elatlar Ispaniyaga ko'chirildi. Xususan, Vizantiya hukmdori Qurdobani yarim orol markazi qilib belgilashi shaharni barqaror rivojlanishini ta'minladi. Lotinlarni Ispaniyadagi ma'muriy markazi borasida ikki variant Karategen va Qurdoba shaharlari ilgari surilgan tadqiqotlar borligini ham unutmaslik lozim.

Istilolar davri qo'shin tarkibida ko'chgan yunonlar, illiriyaliklar, fikiniyaliklar va Misr xristianlari shahar hududini kengayishiga olib keldi, shuningdek, etnokomponentlar tarkibi

8 qorishib murakkab ko'rinish hosil qildi. Migrantlar o'zlari bilan yuksak Sharq sivilizatsiyasi tajribalarini Qurdobaga olib kirdi. Qurdoba shu davrdan e'tiboran Sharq va G'arb madaniyatini o'zida mujassamlashtirgan tarqatilmagan madaniy makon timsoliga aylangan edi. Shahar hududi yon-atrofdagi qishloqlar hisobiga shiddat bilan kengayib, o'z davrda yirik savdo-hunarmandchilik hamda –madaniyat - ma'rifat o'chog'i sifatida shuhrat qozondi.

VII asrda Arabiston yarim orolida tashkil topgan arab xalifaligi qisqa fursatlarda Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika hududlarini bosib olib, Gibraltar orqal Ispaniyaning Janubiy-sharqiga hujum boshladi. Xususan, 714-yilga qadar Yarim orolning shimoliy-g'arbidagi Asturiyadan tashqari barcha hududlarda arablar o'z hukmronliklarini o'rnatdilar. Xalifalikning arablashtirish siyosati ta'sirida minglab musulmonlar Ispaniyaga ko'chirilgandi. Jumladan, 711-yilda Jabal Tarik qo'mondonigidagi 7000 ming nafar barbar qo'shini Priney yarim oroliga hujum boshladi. 714-yilga qadar davom etgan harbiy harakatlar chog'ida jami: 40 ming nafar aholi yarim orol janubiga ko'chib o'tdi. Misol uchun, 711-yilning kuzida 5000 ming nafar barbar, 713-yil 18 ming arab (Shimoliy va Markaziy Arabiston hamdan Yamandan) ko'chirilib joylashtirildi.

716-yilda Al-Andaluzaga tayinlangan hukmdor Sulaymon o'zi bilan 400 nafar arab muhojirlarini Seviliyaga olib keladi va poytaxtni Qurdoba shahriga ko'chiradi.

Arablar davrida Priney yarim oroli aholisi shimolga surilib, tabiiy - iqlim sharoiti qulay, serunum tuproq va daryolarga boy janub va janubiy-sharqda arablar o'rnatilgan oladi. Arablar, joylashgan viloyat Andaluziya, uning poytaxti Qurdoba arablar davrida Yevropaning yirik shaharlaridan biriga aylandi. Arablar Qurdobaning tub yerli aholisi urf-odat va ananalarini antik Yunon va Sharq sivilizatsiyasi namunalari bilan boyitishda muhim rol o'ynadi. Bag'doddan tortib Mag'ribga qadar bo'lgan musulmon ispan shaharlari, shu jumladan Qurdoba, o'rta asr islom sivilizatsiyasi markazlari qatorida ko'rildi.

Arablar davrida Qurdoba aholisi 200-300 ming kishini tashkil etib, shaharda 1600 ta masjid, 900 ta hammom, 80 mingga yaqin do'konlar mavjud bo'lgan. Ispaniyaning boshqa shaharlarida bo'lgani kabi Qurdoba shahri ham vodoprovodlar bilan ta'minlangan, uy-joylar uzoq masofalardan tortib kelingan quvurlar yordamida isitilardi. Arablashtirish siyosati shahar ma'naviy muhitiga o'ziga xos ta'sir ko'rsata boshladi. Chunonchi, arab tili boshqa mahalliy tillarni siqib chiqardi, hatto X asrda Toledoda "Injilni" arab tiliga tarjima qilishga to'ri keldi.

Ta'kidlash joizki, XI asrda boshlangan salib yurishlari tarixda islom-xristian to'qnashuv sifatida talqin etilgan konflikt aslida VIII asr Priney yarim orolida sodir bo'lgandi. Ammo, bu keng ko'lamda harbiy to'qnashuv bo'lmasdan, aksincha savdo-iqtisodiy, ma'daniy-ma'rifiy hamda e'tiqodlar uchrashuv edi.

Arab muhojirlari Qurdoba shahrida vijdon erkinligi masalasida demokratik tamoyillariga qat'iy amal qiladilar. Binobarin, yarim orolning markazi, janub va janubiy-sharqida arab me'moriy uslubidagi uy-joy binolar, ijtimoiy ob'ektlar va turli ishlab chiqarish infratuzilmasini mustahkamlashga katta e'tibor beradilar. Islom dinining targ'iboti tadbirlari doirasida masjid, madrasa hamda xonaqolar arab me'morchiligi uslubida qad rostladi. Ya'ni arab me'morchiligi uslubi Yevropaga kerib kela boshladi. Dastlab, arablar mahalliy aholi shu jumladan, shahar aholisi maishiy turmushiga aralashmasdan, alohida koloniya bo'lib yashab, vijdon erkinligiga imkon bergandi. Masalan, Qurdobada boshlang'ich maktablar – musulmonlar, yahudiylar va xristianlar uchun alohida-alohida tashkil etilgan bo'lsa, oliy maktabda e'tiqodidan qat'iy nazar barcha birga tahsil olishi yoxud muassasada talabalarga dars berishi mumkin bo'lgan. Ayni paytda, mosarablar (islomni qabul qilgan ispanlar) musulmon aholi bilan bir masjidda, diniy amallarini ado etishlariga ruxsat etildi. Bir so'z bilan aytganda, Qurdoba shahri diniy murosasozlik timsoli bo'lib, undagi turli etnokomponentlar hamda konfessiyalar o'zaro hamjihatligi jahon tarixida kamdan kam uchraydigan fenomen bo'lib qoldi. Ammo, keyinchalik xalifalikni feodallashtirib borishi, mahalliy aholiga nisbatan tayziq o'tkazilishiga olib kelgandi.

Xulosa, o'rinda bugungi kunda jahon madaniy merosi sifatida e'tirof etilayotgan tarixiy shaharlar aksariyati o'rta asrlarda paydo bo'lganini ta'kidlash o'rinli bo'ladi. YuNESKO tomonidan tuzilgan jahon madaniy merosi ro'yxatida ja'mi: 1154 obyekt bo'lib, shundan 145 tasi tarixiy markaz (shahar) hisoblanadi. Tarixiy shaharlar har bir taraqqiyot bosqichida, nafaqat shu

hududda istiqomat qiluvchi aholi, balki, mintaqadagi boshqa xalqlarning xo'jalik-madaniy sohasidagi tajribalari ta'sirida sayqallanib boradi. Darhaqiqat, aholini bir nuqtaga to'planishida migratsiya katta rol o'ynadi. O'zining qulay tabiiy-geografik joylashuviga ega bo'lgan Qurdoba tarixiy markazi shakllanishida ham migratsiya omili ta'siri yaqqol namoyon bo'ladi. Qolaversa, Qurdoba nafaqat mintaq, balki, butun Yevropani savdo-hunarmandchilik va madaniy markaz yoxud 500 yil mobaynida turli davlatlar poytaxti bo'lib kelgan. Qurdoba, tarixiy shaharlar uchun xos bo'lgan turli xalq va elatlar yashovchi, izolatsiyalangan koloniyalar, ko'chalari tuzilish (tor, berk va labirint), me'moriy uslubi kabi muhim belgilarga ega.

Qurdoba shahrida dunyoni boshqa shaharlarida uchratish qiyin bo'lgan xristian, islom va iudaizm e'tiqodi vakillari ahil va inoqligi manzarasini kuzatish mumkin. Diniy bag'rikenglik timsoli hisoblangan shaharda xristianlar cherkovini, musulmonlar masjidi bilan bir devor ajratib turgani tahsinga loyiqdir.

Adabiyotlar

1. Вся Кордова. Editorial fisa escudo de, S.A. –P. 2.
2. История Кордовы (Cordoba) Андалусия, Испания <http://selfgude.ru.s.infor.history>. (мурожаат қилинди 12.06.2021 йил.)
3. Лалагу Хуан. Испания. История страны. -ЭКСМО: МИДГАРД, 2009. –С. 25., 36.
4. Рюкун А. Средневековая Испания. –М.: Воече, 2006. –С. 12-13.
5. Rmalo Asensio. S. Ruir Valderas. E. Benocal Caparros. M.C. Contexto sceramo cjsdelossigljs. V-VII en caratagena // AEArg. 1996. Vol. 69. –P. 150
6. История от античности к Средневековью/ Ю.Б.Циркин. –Спб.: Нестор-История, 2010. –С.116.
7. А.Н.Логинов. История стран Азии и Африки в средних веках: краткий курс лекций. –Волгоград: Издательство ВолГУ, 2002.–С. 65
8. Город в Средневековой цивилизации Западной Европы. Т. 1. Фенмен средневекового урбанизма. –М.: 1999. –С. 121.
9. В.Семёнов. Ўрта асрлар тарихи. –Т.: Ўқитувчи, 1973. –Б.16.
10. Всемирное культурное наследие. Учебное пособие для ВУЗов. Под ред. к.и.н. Ж.Мирзаахмедова. Термез, "ТерДУ", 2021. –С. 18.
11. <https://ru.unesco.org> (Мурожаат қилинди 9.02.2022 йил)

Ergashev Jahongir Yunus o'g'li
Buxoro davlat universiteti
tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent
j.y.ergashev@buxdu.uz

SHARQIY TURK XOQONLIGINING TANAZZULI VA UNING QAYTA RIVOJLANISH JARAYONLARI XUSUSIDA

Annotatsiya. Maqolada Turk xoqonligining tashkil topishi, uning ikkiga bo'linishi natijasida sharqiy hududlarda shaklangan Sharqiy xoqonlik, Sharqiy Turk xoqonligining Xitoy sulolalari bilan diplomatik aloqalari, davlatning zaiflashuvi, qulashi va Ikkinchi Turk xoqonligining tashkil topishi uchun ichki hamda tashqi omillarning vujudga elishi xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Sharqiy Turk xoqonligi, turklar, Xitoy, xalqaro savdo, diplomatik munosabatlar, Tang imperiyasi, O'tukan, Ikkinchi Turk xoqonligi.

ОБ УПАДКЕ ВОСТОЧНО-ТЮРКСКИЙ КАГАНАТ И ПРОЦЕССАХ ЕЕ ПРОГРЕСС

Аннотация. В статье говорится о создании Турецкого ханства, Восточного ханства, образовавшегося в восточных областях в результате его разделения, дипломатических отношениях Восточно-Тюркского ханства с китайскими династиями, ослаблении и распаде государства, а также возникновении внутренних и внешних факторов создания Второго тюркского ханства.

Ключевые слова: Восточно-Тюркский каганат, тюрки, Китай, международная торговля, дипломатические отношения, Танская империя, Отукан, Второе Тюркский каганат.

ON THE DECLINE OF THE EASTERN TURKISH KHAGANATE AND ITS RE- DEVELOPMENT PROCESSES

Summary. The article talks about the establishment of the Turkish khanate, the Eastern khanate formed in the eastern regions as a result of its division, the diplomatic relations of the Eastern Turkish khanate with the Chinese dynasties, the weakening and collapse of the state, and the emergence of internal and external factors for the establishment of the Second Turkish khanate.

Key words: East Turcic Khaghanate, Turks, China, international trade, diplomatic relations, Tang Empire, Otukan, Second Turcic Khaghanate.

Kirish. Sharqiy Turk xoqonligi tarixi dunyoning eng kam o'rganilgan sahifalaridan biri bo'lgan tarixiy jarayondir. Ilk o'rta asrlarda hozirgi Mo'g'uliston, Tuva, Oltoy va Xitoyning Shimoliy viloyatlari hududida sodir bo'lgan murakkab etno-konfessional, etno-madaniy va etnopolitik keng siyosiy jarayonlar natijasida yuzaga kelgan jarayonlar o'z harbiy kuchiga tayanadigan ko'chmanchi birlashmalar qudrati nafaqat qo'shni xalqlarga, balki butun Yevrosiyaning keyingi tarixiga ham ta'sir qilishi mumkin edi.

Ushbu siyosiy birlashmalardan biri Turk xoqonligi edi. Turk xoqonligi tarixi bilan bog'liq bir qator munozarali muammolar mavjud bo'lib, ulardan biri uni davriylashtirish masalasidir. Dastlab yagona Turk xoqonligi tarixini ko'plab tadqiqotchilar 545-yildan boshlab, turklar birinchi marta Xitoy yilnomalarida paydo bo'lgan paytdan boshlab hisoblashadi. Sharqiy xoqonlik Taspar xoqon (573-581) hukmronligi davridan g'arbiy va Sharqiy qismlarga bo'linishi sodir bo'lganda boshlanishi taxmin qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Tanlangan mavzuni o'rganishda asosan qator tarixiy adabiyotlar va keyingi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlar doirasidagi ma'lumotlar atroflicha o'rganilgan.

Mavzuni yoritishda diskurs tahlil, davriy-xronologik izchillik, komparativ yondashuv kabi metodlardan foydalanilgan.

Natijalar va muhokama. Sharqiy turklarning nafaqat o'zlarining qudratli davlatlarini yaratishda, balki ushbu davrda Xitoy davlatchiligini yaratishda, xususan Shimoliy Chjou (556-581) va Suy (581-617) sulolalari hokimiyatga ko'tarilishda muhim rol o'ynagan. Sharqiy turkiy xoqonligi va Xitoy bir-biriga siyosiy va iqtisodiy jihatdan zarur edi. Ikki o'rtada o'sha vaqtda kuchlarning teng munosabatlari shakllangan. Tinch muvozanat o'zgarganda harbiy mojarolar yuzaga kelgan. Dastlab Shimoliy Chjou (556-581), Shimoliy Si va Turk xoqonligi o'rtasida shu kabi muvozanat shakllangan edi. Biz ushbu ishimizda Sharqiy Turk xoqonligining zaiflashuvi va tanazzuli hamda Ikkinchi tur xoqonligining tashkil topishi jarayonlari masalasiga alohida to'xtalmoqchimiz. Bu davr borasida ko'pgina tadqiqotchilar Sharqiy turkiy davlatning rivojlanishining to'xtaganligini asos qilib, belgilangan davrda sodir bo'lgan voqealarga e'tibor bermaydilar [1. 500, 2. 346].

Dastlabki davrlarda Ashina xonadoni hokimiyatni markazga, sharqiy (chap) va g'arbiy (o'ng) qanotlarga bo'lish, har qanday hududni alohida mavqega ajratish prinsiplarini saqlaganlar. Bu Janubiy Sibir va O'rta Osiyoning cho'l davlatlaridagi an'anaviy boshqaruv usuli edi. Ushbu boshqaruv tartibi ikki tomonlama samara bergan bo'lib, davlatda ko'chmanchi chorvachilik hukmronligi sharoitida boshqaruv va mudofaa barqarorligi, shu bilan birga hukmron sulolada nisbiy barqarorlik ta'minlangan.

Sharqiy Turk xoqonligida 573-581-yillarda yuz bergan siyosiy kurashlarning oqibatlaridan biri Sharqiy va G'arbiy Turk xoqonliklariga bo'linishi edi. Umuman olganda, Turk xoqonligining Sharq va G'arbiga siyosiy bo'linishiga bir qancha omillar – ma'muriy islohotlar oqibatlari, xoqonlik ichidagi ichki nizolar, shuningdek, davlatning xalqaro siyosati ta'sir ko'rsatdi. Biz 581-yilni islohot natijasi sifatida qabul qilamiz va shuning uchun uni Sharqiy Turk xoqonligi tarixining boshlanishi sanasi deb belgilaymiz. Sharqiy Turk xoqonligi tarixini keyingi davrlashtirishni Xitoy yozma manbalarida aniq kuzatish mumkin. Birinchi mustahkamlanish davri 581-yildan 630-yilgacha bo'lgan davrda Sharqiy Turk xoqonligining zaiflashishi kuzatiladi, bu davrda Xitoy bilan munosabatlar tinch xarakterga ega edi. Xitoy bosqini natijasida Sharqiy Turk xoqonligi mustaqilligining tugatilishi natijasida uzoq yillar davomida shimoliy mintaqalarda ma'lum ma'nodagi siyosiy bo'shliq mavjud bo'lgan.

Turk xoqonlarining dastlabki siyosati strategik muhim yo'nalishlarini shakllantirishdan iborat bo'lgan. Buning umumiy yo'nalishini barqaror siyosat uchun kurash sifatida tavsiflash mumkin. Sharqiy turklarining Xitoy davlatchiligini yaratishdagi roli xitoy yozma manbalarida aniq ko'rinadi. Turk xoqonligi hujumi ta'sirida markazlashishga o'tish davrida Shimoliy Chjou (556-581), Shimoliy Si (549-577) va Suy sulolasi davlatlari (581-617)dagi fuqarolik nizolari tartibsizlik va beqarorlikni keltirib chiqardi. Sharqiy turklar harbiy mojarolardan jiddiyroq maqsadlarni ko'zlaganlar. Sharqiy Turk xoqonligi va Xitoy siyosiy va iqtisodiy jihatdan bir-biriga zarur edi. Shuning uchun turklar oxirgi lahzada Shimoliy Chjouni qo'llab-quvvatlaydilar.

Aslini olganda, Sharqiy Turk xoqonligining zaiflashuvi Xitoyda Tang imperiyasi shakllanishi va uning yuksala boshlashi davriga to'g'ri keladi. Taxtga o'tirgandan so'ng Xitoy imperatori Tayszung (626-649) darhol Xitoy iqtisodiyotini tiklash va aholi sonini ko'paytirish siyosatni e'lon qilgan. Ma'lumki, so'nggi yillarda Suy sulolasi ko'plab xitoylarni Sharqiy turk xoqonligi hududlariga ko'chirgan. Xitoy manbalarining xabar berishicha 630-yilda xoqonlik qo'shinlari mag'lubiyatga uchraganidan so'ng, ko'plab turklar Xitoy hududlariga olib kelingan[3. 208]. Xoqonning raqiblari davlatdan o'z ulushlarini oladilar. Tang imperatori ramziy jihatdan boshqa hukmdorlar ustidan to'liq hokimiyatga ega edi. Ba'zi tarixiy adabiyotlarda boshqa xalqlarning og'ir zulm sababli turklardan yuz o'girib Xitoy tomoniga o'tganligi haqida ma'lumotlar beriladi. Jumladan, Seyanto, qiton va si qabilalari Xitoyga bo'ysunadilar. Ammo, Sharqiy turk xoqonligi hali ham o'ziga xos raqobatchi sifatida Tang imperiyasi qudratiga qarshi turishi mumkin edi. Sharqiy turklar harbiy zaiflashuvdan keyin Xitoy tashabbusni qo'lga olishga va xalqaro savdo ustidan nazoratni o'z qo'lga olishga harakat qila boshlagan. Bu borada imperator

- 12 Tayszung bir muncha vaqt muvaffaqiyatga erishdi. Xitoy ishlab chiqarishdan transportgacha bo'lgan butun savdo jarayonini nazorat qildi va o'z mahsulotlarini g'arbda sotishni tashkil eta boshlagan. Bu jarayon savdo yo'lining xavfsizligini ta'minlash uchun juda ko'p kuch va xarajatlarni talab qilgan. Tang imperiyasi uchun ushbu masalalarda Sharqiy turklardan foydalanish qulayroq edi. Shuningdek, Xitoy uchun yana bir muammo turkiy hududlar va uning aholisini imperiyaga kiritish vazifasi edi. Tayszung Sharqiy turklardan o'n ming oilani Xitoy hududiga joylashtirishga qaror qildi. Sharqiy xoqonlik hududida imperator Shunchjou, Dingsyang, Yunchjung gubernatorliklarini tashkil etgan. Ammo, A.G. Malyavkin tomonidan ushbu tadbir faqat nominal xarakterga ega ekanligi ta'kidlangan[4. 105-106, 119]. 639-yilda Xitoy saroyida harbiy lavozimlarga ega bo'lgan xoqonlik shahzodalari tomonidan imperator Tayszung hayotiga suiqasd uyushtirilgan. Shundan keyin imperator u o'zining tashqi siyosatining muvaffaqiyatsiz chiqqanligini tan olib, turklarga asl yashash joylariga qaytarishga buyurgan[5. 200]. Aslini olganda esa, 639-yilga kelib hamma narsa o'z joyiga qaytdi. Sharqiy turklar ular yana o'z hududlariga egalik qila boshlashdi. Ayni vaqtda Sharqiy turk xoqonligining rahbari Ashina Simo bo'lib, uning davrida faol tashqi siyosat olib borilmagan. Bu davr Xitoy bilan munosabatlarda tenglik davri sanalib, Tang imperiyasi faol harbiy kompaniyalar tashkil etgan hamda Koreyaga qarshi urushda unga dushman emas, shimolda sherik kerak bo'lganligi sababli xoqonlikka yumshoq munosabatda bo'lishga majbur edi. Keyingi yillarda Sir-Tardush qabila ittifoqi (Tang imperiyasidan mustaqillikka intilgan turkiylar) tanazzulga yuz tutdi. Natijada dasht hududlarida Xitoyning ta'siri ham sust holatda saqlanib qolgan. Ushbu davr manbalarida 647-yili ba'zi qabila rahbarlarining Tang imperiyasi poytaxtiga kelish uchun, janubdagi uyg'urlardan va shimoldagi turklardan yo'l ochishni so'rashganligi haqida ma'lumotlar mavjud[5. 236]. Boshqacha qilib aytganda, Sharqiy turklar hali ham Xitoyga boradigan yo'llar nazorat qilish kuchiga ega edilar. 650-yilda turklarning hukmdori xitoyliklar tomonidan qo'lga olindi va qatl qilish o'rniga O'tukanga qaytarib yuborilgan. Xuddi shu hududlarda Xitoy ikkita gubernatorlik – Shanyuy-duxfu va Xanxay-duxfuni tashkil etgan. Keyinchalik Shanyu-duxfuda 679-yildan boshlab Sharqiy turklarning notinchligi boshlanib, asta-sekin kuchaya boshlagan.

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, 650-yildan 679-yilgacha bo'lgan davr Sharqiy turk xoqonligi va Tang imperiyasi o'rtasidagi munosabatlarda nisbiy barqarorlik davri edi. Manbalarda bu haqda "taxminan 30-yil shimolda harbiy bo'lmagan xavf" deya baho berilgan[6. 46]. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu bosqich (630-679) Sharqiy turk xoqonligining zaiflashuv davri edi. Ikkala davlatning siyosiy taktikasi bu vaqtda mudofaa sifatida belgilanishi mumkin va tashqi munosabatlarning tabiati tinch-totuv yashash tamoyillariga mos keladi. Shuning uchun ushbu siyosiy tenglik davrida, ehtimol, 679-yilga qadar Sharqiy turk xoqonligini mustahkamlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan. Uning natijalari esa Eltarish xoqon tomonidan Ikkinchi Turk xoqonligining shakllanishida ko'zga tashlanadi.

Adabiyotlar

1. Гумилев Л.Н. Қадимги турклар. Таржима, кириш сўз муаллифлари ва нашрга тайёрловчилар: Бахтиёр Ўрдабекли, Абдуқаюм Айритомий. – Т.: Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси "Фан" нашриёти, 2007.
2. Кляшторный С.Г, Савинов Д.Г. Степные империи древней Евразии. – СПб.: Филологический факультет СПбГУ, 2005.
3. Wechsler H.J. T'ai-tsung (reign 626-49) the consolidator // The Cambridge History of China. Vol. 3, Sui and T'ang China, 589-906, Part I. – Cambridge: Cambridge University Press, 1979.
4. Малявкин А.Г. Тактика Тайского государства в борьбе за гегемонию в восточной части Центральной Азии // Дальний Восток и соседние территории в средние века. – Новосибирск: Издательство "Наука" Сибирское отделение, 1980.
5. Попова И.Ф. Политическая практика и идеология раннетанского Китая. – М.: Издательская фирма "Восточная литература" РАН, 1999.
6. Ганиев Р.Т. Периодизация "эпохи Тюркского каганата" (545-745 гг.) // Китай: история и современность: материалы науч.-практ. конф., Екатеринбург, 17 ноября 2010 г. – Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2011.

Shodiyeva Shahlo Soliyevna 13

Buxoro davlat universiteti
tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent
s.s.shodieva@buxdu.uz

BUXORO XONLIGI (AMIRLIGI)DA TAXT VA VORISLIK MASALALARIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

Annotatsiya. Tarixda hukmronlik qilgan sulolalar va ularning hokimiyat terasiga kelishi haqida so'z borar ekan, hukmdorlarning taxtga o'tirish udumlari yoxud xon ko'tarish marosimlari ko'pchilik uchun juda qiziq. O'zbekiston tarixida, ayniqsa, Buxoro tarixida katta ahamiyatga ega bo'lgan hukmron sulolalar faoliyatini manba va adabiyotlar orqali tahlil etish shuni ko'rsatadiki, ularning taxtga chiqishi, shuningdek, valiahdlilik masalalari o'ziga xos an'anaga ega.

Kalit so'zlar: Buxoro, Shayboniylar, Ashtarxoniylar, xon ko'tarish, taxt, Yaso, xon, amir, valiahd, voris.

К ВОПРОСУ О ПРЕСТОЛОНАСЛЕДИИ И ПРЕСТОЛОНАСЛЕДИИ В БУХАРСКОМ ХАНСТВЕ (ЭМИРАТЕ).

Аннотация. Когда речь идет о правящих в истории династиях и их приходе к власти, многих интересуют церемонии коронации правителей. Анализ деятельности правящих династий, имеющей большое значение в истории Узбекистана, особенно в истории Бухары, через источники и литературу показывает, что их восшествие на престол, а также вопросы наследного княжества имели большое значение. уникальная традиция.

Ключевые слова: Бухара, Шайбани, Аштархани, возведение хана, престол, Ясо, хан, эмир, князь, преемник.

ON THE ISSUE OF SUCCESSION TO THE THRONE AND SUCCESSION TO THE THRONE IN THE BUKHARA KHANATE (EMIRATE).

Summary. When it comes to the ruling dynasties in history and their rise to power, many are interested in the coronation ceremonies of the rulers. Analysis of the activities of the ruling dynasties, which are of great importance in the history of Uzbekistan, especially in the history of Bukhara, through sources and literature shows that their accession to the throne, as well as issues of the hereditary principality, were of great importance. unique tradition.

Key words: Bukhara, Shaibani, Ashtarkhan, the rise of the khan, throne, Yaso, khan, emir, prince, successor.

Kirish. Ma'lumki, XIV asrning boshlariga kelib, 1236-yilda Botuxon tomonidan asos solingan Oltin O'rda davlati ikki qismga bo'linib ketadi va uning sharqiy qismida Oq O'rda davlati tashkil topadi. Uning tarkibiga Shaybon ulusi ham kirgan. Tarixchi Abulg'ozining yozishicha Shaybon bu ulusni Botuxon (laqabi Sayinxon) dan olgan[1.112]. Ayrim tarixiy manbalarda bu hududlar "O'zbeklar mamlakati" deb ham eslatiladi. XV asr o'rtalariga kelib, Sharqiy Dashti Qipchoq hududlarida Shaybon urug'idan bo'lgan Abulxayrxon ko'chmanchi o'zbeklar davlatiga asos soldi. Keyinchalik uning nabirasi Muhammad Shohbaxt XV asr so'nggigi choragiga kelib temuriy shahzodalar o'rtasidagi toj-taxt uchun o'zaro kurashlar natijasida zaiflashib qolgan temuriylar saltanatiga barham berib, Shayboniylar davlatiga asos soldi [13.370].

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Tanlangan mavzuni o'rganishda asosan birlamchi manba sifatida ko'plab tarixiy manbalar tahlilga tortilgan bo'lib, shuningdek, bir qator tarixiy adabiyotlar

14 va keyingi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlar doirasidagi ma'lumotlar ham atroflicha o'rganilgan.

Mavzuni yoritishda diskurs tahlil, davriy-xronologik izchillik, komparativ yondashuv kabi metodlardan foydalanilgan.

Natijalar va muhokama. Shayboniylar ham o'zlarigacha bo'lgan turk-mo'g'ul an'analariga amal qilgan holda davlatni idora etganlar. Ular avvalambor, o'rnatilgag shariat va odat qoidalari, qolaversa, Yaso va Yunusga amal qilishga qarakat qilganlar. Sulolaning taxtga o'tirgan vakili hokimiyatining tan olinishi uchun Yaso, to'ra va odatga ko'ra bir necha talablari bo'lgan.

- Chingizxon naslidan bo'lishi

- Urug'da yoshi eng ulug'i va tajribali bo'lishi

- Xon ko'tarish udumining bajarilishi

- Shariat arboblarning roziligini olish

Yuqoridagi talablarga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, birinchi va yeng asosiy talab Chingizxon naslidan bo'lishi. Mo'g'ullarning Yaso qonuniga ko'ra taxtga Chingizxon vorislari va avlodlari egalik qilar edilar [6.-p.38]. 1346-yili Amir ul-umaro Qazag'on Chig'atoy ulusining xoni bo'lmish Qozonxonni o'ldirib, butun ulus ixtiyorini o'z qo'liga olganiga qaramay u o'zini xon deb elon qilolmadi. Turk-mo'g'ul qavmlari o'rtasida hukm surib kelayotgan Yaso va yunusga ko'ra chingiziy avlodiga mansub bo'lmagan kishi xonlik rutbasiga ega bo'lolmaydi. Shuning uchun u O'gaday avlodidan bo'lgan Donishmandcha (1346-1348) ni xon qilib ko'tardi [2.26]. "Zafarnoma"da yozilishicha, "...shunga binoan Amir Sohibqiron mamlakat va davlat qonun-qoidalarini mardonalik bilak kuchi, saodatli tole'i barakati, taqdirga muvofiq tadbiri va yaxshi kechmishlar bilan mustahkam qilgach, (bir vaqtlar) Chig'atoyxonni Amir Sohibqironning buzurgvor bobosi bo'lmish Qorachor barlosga topshirgan ulug' podshoh Chingizxonning uzoqni ko'ruvchi nazari to'g'ri ekanligini asrlar o'tgandan keyin olam ahliga ravshan qilmoqchi bo'ldi, amirlar va no'yonlar bilan mashvarat tuzib, u ulug' xonadon (a'zolari) dan saltanatga mutaayyin bo'lgan podshoh Suyurg'atmishxonni baxtli bir tole', muborak bir kun va saodatli bir soatda O'rpo'z mavzeida mamlakat podshohligi taxtiga o'tqazdi..." [12.82].

Bundan ko'rinib turibdiki, jamiyatda qadimgi urf-odat va an'analarning o'z o'rnini bo'lib, ularga imkon qadar har doim amal qilib kelingan. Shayboniylar sulolasi a'zolari Jo'ji avlodidan bo'lganliklari bois bevosita "ulug' xonadon" vakillari edilar. Shuning uchun ham ular mamlakatni xon unvoni bilan boshqarganlar.

Hukmdor bo'lish uchun qo'yilgan keyingi talab, urug'da yoshi eng ulug'i va tajribali bo'lishi. Shayboniylar sulolasining aksariyat hukmdorlari bu qoidaga amal qilganlar. Mirzo Muhammad Haydarning yozishicha, "xonlik qadimiy odatga ko'ra, yeng katta sultonga ya'ni Ko'chumxon sultonga topshirildi. Uning vorisi Suyunjik sulton edi, biroq u Ko'chum sultondan oldin vafot etgach, taxt vorisi Jonibek sulton bo'ldi, lekin u ham ko'p o'tmay Suyunjik sulton ketidan ravona bo'ldi, undan keyin ko'chumxon ham u dunyoga rixlat qildi. Xonlikni boshqarish Ko'chumxonning o'g'li Abu Saidga topshirildi. U ham xonlik taxtini bo'shatgach o'rniga Ubaydullaxon o'tirdi. Garchi 911 (1505-1506) yildan boshlab yuqorida ko'rsatilgan xonlar hukmronligining oxirigacha shayboniylarning barcha ishlarini u boshqargan bo'lsada, qadimiy odatga rioya qilib, xonlikni o'zidpn yoshi ulug'roq kishiga topshirib keldi, bordi-yu u xonlik yorlig'ini qabul qilgan taqdirda ham, vijdonan aytganda, hech kim unga qarshilik qilmagan bo'lar edi. Abu Saidxondan keyin yoshi Ubaydullaxondan kattaroq bo'lgan biror kishi qolmaguncha shu ahvol davom etaverdi. U xonlik taxtiga o'tirdi va 946 (1539-1540) yilda tabarruk ruhi bu o'tkinchi dunyo bilan vidolashib, jannat bog'tga ravona bo'lgunga qadar olam elining sezgilariniadolat va yaxshilik nasimi bilan yayratib yashadi (Alloh undan rozi bo'lsin)" [7.399]. Bu kabi holatni Abdullaxon II hukmronlik faoliyatida ham ko'rishimiz mumkin. 1556-yilda Navro'z Ahmadxon (Baroqxon) vafot etganidan so'ng taxtga Pirmuhammad o'tirgan bo'lsada, amalda Abdullaxon II Movarounnahr va Xurosonni birlashtirish yo'lida tinimsiz sa'y - harakatlar olib bordi. Bu haqida "Sharafnomayi shohiy" asarida shunday yoziladi: "Navro'z Ahmadxon bu omonat saroydan abadiy dunyoga ko'chgandan keyin, o'sha vaqt Abulxayrxon xonadonida ul hazratning

(Abdullaxonning) valine'mat amakisi Pirmuhammadxondan (yoshi) kattaroq, saltanat ishiga kafil bo'luvchi, yuqori martabali va hashamatga tomom berilgan kishi yo'q edi. Shuning uchun (ham) Movarounnahrning Bahrom qahrli sultonlari birlashib xutbani ul Qutli podshohning laqabi barakotidan ovoza qildilar, sukkani uning muborak nomi husni bilan bezadilar" [14.133-134]. XVI asr 40 yillarida hukmdor xonadoni vakillari o'rtasida Buxoro va Samarqand uchun kurash kuchayadi. Bu davrda Samarqandda Ko'chkunchixonning uchinchi o'g'li Abdulatif, Buxoroda esa Ubaydullaxonning o'g'li Abdulaziz hukmronlik qilib har ikkalasi ham o'zini rasmiy xon deb hisoblar edi [13.373]. Bu o'rinda toj-u taxt uchun kurash avj olgan bir paytda Yaso va odatga amal qilinmaganini ko'rish mumkin.

Hukmdorlik, taxt marosimlari haqida so'z borar ekan, valiahdlik masalalari ham bevosila shular bilan bog'liq jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Har bir hukmdor taxtga chiqar ekan, sulola vakillari orasidan davlat ishlariga layoqati baland, har tomonlama hukmrodlik sifatlariga ega bo'lgan nomzodni tanlab o'zining valiahdi sifatida e'lon qilgan. Bu holat ham turk-mo'g'ul an'analari asosida davom etib kelayotgan edi. "Taxt vorisini tanlashda Chingizxon, katta harbiy talantga ega Tuluydan ham ko'ra, hech narsadan qaytmas xarakteri va zo'rovonlik siyosati bilan otasining ishini davom ettirayotgan Chig'atoydan ham ko'ra tanlovini sahiy, samimiy yumshoq tabiat bo'lgan Ugedeyda to'xtatdi. Chingizxondagi barcha sifatlar bir vaqtning o'zida biror bir o'g'lida jamlanmagan edi. Uning xar bir o'g'lida o'zining faqatgina ma'lum bir xarakteri shakllangan bo'lib, ulardan birortasini voris sifatida tanlashni xoxlamadi. Uning fikricha, o'zidan keyin xokimiyat va saltanat barcha farzandlar tomonidan birgalikda boshqarilib, ularni o'zining Chingizxonday aqli, shijoati, irodasi uyg'unlashgan shaxs bo'lmasa ham jozibali axloqiy xarakteri bilan birlashtirishi mumkin bo'lgan shaxs bu - Ugedey deb tan olgan. Ugedey hali Chingizxon tirik bo'lgan vaqtdayok voris deb e'lon qilingan. Bu karor barcha ishtirokchilar tomonidan katta yakdillik bilan qabul qilingan bo'lib, bu xolat Chingizxonning qarori to'g'riligidan, Ugedey ham otasining ishonchini oqlaganligidan darak beradi"[5.529]. Chingizxon o'limidan oldin o'z o'rniga Ugedeyni tayinlaganda, saylov bilan xon tanlash usulining zararli ekanini bilgani holda, mana shu urf-odatni yo'qotmoqchi bo'lgan bo'lishi ehtimol. Ammo uning imperiyasi rivojlana borgan sari ortib borgan va kuchli bo'lgan aslzodalarni(yoki qabila oqsoqollarini) u xon saylovini bekor qilishga majbur qila olarmidi? Mo'g'ul Qonunlariga ko'ra Qurultoyda hokimlar, lashkarboshilar va boshqalar tomonidan saylanmasdan o'zini xon deb e'lon qilgan kishi o'lim jazosi bilan jazolanadi. Agar xonni davlat qonunlari bilan hisoblashmagani uchun taxtdan olsalar, unda uni darhol o'z qarindoshlari bilan va atrofidagi yaqin kishilari bilan qal'aga qamash darkor. Oila a'zolarining qamash kerakligining sababi – ular baxtsizlik alomati bo'lib, qasos olish uchun harakat qilishlari mumkin. taxtdan olib tashlangan xon va uning baxtsizligiga sherik bo'lganlarni hamma kerakli narsalar bilan ta'minlab turish kerak. Lekin hech kim bu davlat jinoyatchilari bilan aloqa qilmasligi kerak. Yuqorida tahlil qilganimiz Shayboniylar sulolasi vakillari qadimgi udumga qattiq amal qilnag holda taxtga chiqqan hukmdor sulolaning o'zidan keyingi yoshi katta vakilini valiahd sifatida e'lon qilgan. Biroq o'zbek xonlari mo'g'ul qonun qoidalarining ancha yengillashgan, reformaga uchragan shaklini qabul qilib unga amal qilganlar. Taxtga chiqish yoki valiahdlik masalalari ham ijtimoiy hayotning o'zgarib borgan sari jamiyat talablariga moslashib, mo'tadillashib borgan. Keyingi sulolalar davrida bu masalalar anchayin o'zgarishga uchradi. Ayniqsa, Mang'it amirlari davriga kelib taxt otadan o'g'ilga meros sifatida o'tadigan bo'lib qoldi. Bunday holat Xiva va Qo'kon xonliklarida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Shayboniylardan Abdullaxon II zamonidan boshlab valiahdni mamlakatning strategik jihatdan muhim hisoblangan viloyati - Balxga hokim qilib tayinlash an'ana sifatida boshlab berildi.

"...Oliy asos Balxni to'belari va keng atrofi bilan janob farzandimiz Jonibiy (Abdulmo'min)ga topshirdik...va u viloyat a'yonlari, vatandoshlari muomala arboblari va qolgan ziroat ahillari va sanoat egalari ul saltanat tojining durrasi va mamlakat ko'zining kurrasi farzandimizni o'zlariga istiqloqlik xokim va voliy bilsinlar. Molu dunyo, xosilot va muammolarini uning omillariga tamom va kamol bilan yetkazsinlar va viloyat mutavajjhotlarining adosida hech bir uzru bahona keltirmasinlar. Va o'zlarini yaxshi adolikda ojiz va mollarni tamoman yetkazishda

16 o'zlarini kam tutmasinlar. Bizning amru farmonimizni farmonbardorlik bilan qabul qilsinlar, toki marhamatning ziyodatiga va otifatning kamoliga munosib bo'lsalar agar xudo xoxlasa[14.136]".

Shayboniylar davrida boshlangan bu an'ana ashtarxoniylar davriga kelib rasmiy odatga aylanib qoldi. Ashtarxoniylar hukmdor Boqimuhammad 1602-yilda Balxni qo'lga kiritib, uni ukasi Valimuhammadga hadya qilgan. 1605-yilda Boqimuhammadxon vafot etgach taxtga uning ukasi Balx hokimi Valimuhammad o'tiradi. Yana bir hukmdor Imomqulixon mamlakatni boshqarayotgan vaqtda uning ukasi Nodirmuhammad Balx hokimi ayni vaqtda esa uning valiaxti edi. Nodirmuhammad taxtga chiqqanida Balx viloyati hokimligiga o'g'li Subxonqulixonni tayinladi. Garchi Nodirmuhammadni katta o'g'li Abdulaziz otasidan so'ng xonlik taxtini egallagan bo'lsada, balxda hukmronlik qilayotgan Subxonquli Sulton Abdulazizxon hokimiyatiga bo'ysunmaydi, amalda Balxni mustaqil boshqaradi [14.390-392]. 1861-yilda Abdulazizxon taxtni ukasi Subxonqulixonga topshirib o'zi haj safariga jo'naydi. Subxonqulixon davrida ham uning o'g'illari o'rtasida Balx hokimiyati uchun kurash yanada avj oladi. Hukmdor o'z valiaxtini rasman e'lon qilmasada qaysidir bir shahzodani Balx viloyati hokimligiga tayinlash orqali uni o'z valiaxti deb tanlaganligidan darak berar edi. Subxonqulixon hokimiyat tepasiga kelgach o'g'illari orasida o'zining adalotparvarligi, oqilligi bilan ajralib turadigan to'ng'ich farzandi bo'lmish Iskandar Muhammadxonni taxt vorisi sifatida islom dini gumbazi bo'lmish Balx viloyati hokimligiga tayinladi. Ammo Subxonqulixonning boshqa bir o'g'li Abulmansurxon o'z akasi Iskandar Muhammad Muqimxonni zaxarlab, o'zi Balx viloyati hokimligi taxtini egallaydi [11.101-103]. Subxonqulixon Abulmansurxonning o'ziga bino qo'ygan, tajang, qo'pol fe'lini bilgan holda o'zining valiaxti sifatida Ibodulla Sultonni Balx viloyati hokimligiga tayinlashga qaror qiladi. Bundan xabar topgan bir guruh muxolifatchi mahalliy amaldorlar "Biz Abulmansurxondan o'zgasini Balx viloyati hokimi sifatida ko'rishni istamaymiz". 1683-yil Balxlik amirlar yordamida Abulmansurxon Balx taxtini egalladi, ammo uning hukmdorligi uzoqqa cho'zilmadi. Turkman urug'idan bo'lgan Xoja Kesh – Nodir mirob tomonidan uyuushtirilgan fitna qurboni bo'ldi. Balxlik amirlar bu gal Siddiq Muhammad Sultonnni Balx hokimi qilib ko'tardilar [11.106]. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Balx viloyati nafaqat geostrategik jihatdan, balki, valiaxtlar boshqaradigan hudud bo'lganligi uchun ham hukmdorning barcha o'g'illari Balx viloyati taxtini ko'zlaganlar. Balxni boshqarib turgan shahzoda alaloqibat mamlakat hukmdorligi taxtiga chiqishi ma'lum edi.

Mang'it hukmdorlari davriga kelib valiaxtlik masalalarida ham bir qator yangilanishlar bo'lganini kuzatish mumkin. Ashtarxoniylar hukmronligining so'ngi yillarida o'zaro ziddiyatlar va taxt uchun kurashlar avj olgan bir paytda mamlaktning ko'pgina bekliliklari markaziy hokimiyatdan mustaqil ravishda faoliyat yurita boshladi. Balx viloyati ham shular jumlasidan edi. Mang'it amirlari hokimiyatni egallagan vaqtda Balx viloyati amirlik tasarrufida emas edi. 1758-yilda Toshkent, Qo'qon, Marv, Balx, Qunduzdan elchilar kelib, Muhammad Rahimxon hokimiyatini tan olganliklarini bildirganlar [14.404-405]. Bu esa ayni vaqtda Balxning mustaqil hudud ekanligidan dalolat beradi. Endilikda valiahdlar boshqaradigan hudud maqomi Qarshi bekliligiga o'tdi. Mang'it amirlari Qarshi bekliligiga otameros mulk sifatida qaraganlar. Qachonlardir sulola asoschisi bo'lmish Muhammad Rahim va uning otasi Muhammad Hokimbiy (Hakimbiy) ham qarshi shahri hokimi bo'lgan edi [3.179]. Ushbu hudud amirlikda katta nufuzga ega bo'lib borayotgan bekliliklardan biri bo'lib, Buxoro taxti vorislarining Qarshida hokimlik qilishi odat tusiga aylanganligini ko'rish mumkin. Amir Shohmurod o'g'li amir Haydarni o'zining vorisi sifatida Qarshi hokimligiga tayinlaydi. XVIII asr oxiri XIX asr boshlariga kelib Karmana bekligining nufuzi ham Qarshi bekligidan kam bo'lmagan ravishda ortib bordi. Ehtimol, Karmananing yerosti va yerusti tabiiy boyliklarga serob ekanligi bunga sabab bo'lgan bo'lishi mumkin (SH.SH.). Shohmurodning vafotidan so'ng taxtga o'tirgan amir Haydar shahzoda Umarni valiahd sifatida Karmana hokimi etib tayinlagan.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatda qadimgi urf-odat va an'analarning o'z o'rni bo'lib, ularga imkon qadar har doim amal qilib kelingan. Jamiyatda, avvalambor, sulolaning taxtga o'tirgan vakili hokimiyatining tan olinishi uchun o'rnatilgan shariat va odat qoidalari, qolaversa, Yaso va Yunusga amal qilish majburiy bo'lgan. Har bir hukmdor taxtga chiqar ekan, sulola vakillari

orasidan davlat ishlariga layoqati baland, har tomonlama hukmrodlik sifatlariga ega bo'lgan nomzodni tanlab o'zining valiahdi sifatida e'lon qilgan. Bu holat ham turk-mo'g'ul an'analari asosida davom etib kelayotgan edi.

Adabiyotlar

1. Абулғозий. Шажарайи турк. Т.: Чўлпон, 1992. -192 б.
2. Аҳмедов Б. Амир Темур дарслари. Т.: Шарқ, 2001. -144 б.
3. Анатолий Сагдуллаев ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. 1 қисм. Т.: Академия, 2000. -272 б.
4. Абдуррахман-и Тали. История Абулфейз-хана. Т.: 2009.— 180с.
5. Бартольд В.В. Сочинения. Том I. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Москва. 1963. -765 с.
6. Зиёдулла Муқимов. Шайбонийлар давлати ва ҳуқуқи. Т.: Адолат, 2007. -156 б.
7. Иванин М. Икки буюк саркарда: Чингизхон ва Амир Темур. Т.: Фан, 1994. -240 б.
8. Муҳаммад Ҳайдар Мирзо. Тарихи Рашидий. Т.: Шарқ, 2010. -720 б.
9. Мирза Олим Маҳдум ҳожи. Тарихи Туркистон. Т.: Янги аср авлоди, 2008. -244 б.
10. Муҳаммад Толиб. Матлаб ут-Толибин. Т.: Мовароуннаҳр, 2016. -384 б.
11. Мухаммед Юсуф Мунши. Муқим –ханская история “тарих-и Муқим –хани”. Т.: 2010. – 296 с.
12. Мирзы-Шамса Бухари. О некоторых событиях в Бухаре, Коканде и Кашгаре. Записки Мирзы-Шамса Бухари. Казань 1861. -169с.
13. Низомиддин Шомий. Зафарнома. Т.: Ўзбекистон, 1996 -528 б.
14. Эшов Б.Ж, Одилов А.А. Ўзбекистон тарихи. I жилд. Т.: -2014, -490 б.
15. Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдуллонома. 1 китоб. Т.: Шарқ, 1999. -416 б.

Sobirova Maxbuba Yusupdjanovna
Namangan davlat universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori (DSc)
maxbubaxonsobirova@gmail.com

Toshnazarova Aziza Xoshimjanovna
Namangan davlat universiteti magistri.

TIL TO'GARAGI MASHG'ULOTLARI MAZMUNI VA UNING TA'LIMIY-TARBIYAVIY AHAMIYATI

Annotatsiya: maqolada til to'garaklarining ham ta'limiy, ham tarbiyaviy maqsadlarni ko'zlashi xususida so'z boradi. Tarbiyaviy ahamiyati nutq odobini tarbiyalash, zukkolik, tezkorlik va hozirjavoblik singari fazilatlarni shakllantirish singarilarda o'z ifodasini topishi; ta'limiy maqsadi esa o'quvchilarda o'zini nazorat qilish, bilimlarga tanqidiy ko'z bilan qarashni tarbiyalash, mustaqil fikrlash, ijodiy faoliyat ko'rsatish kabi masalalar turli ko'rinishlarda yoritiladi.

Kalit so'zlar: til to'garagi, ta'limiy va tarbiyaviy maqsad, nutq odobi, zukkolik, mustaqil fikrlash, ijodiy faoliyat, yozma ishlar ko'rgazmasi, adabiy-badiiy kechalar, o'tkir zehnlilar mushoirasi, ko'rik-tanlovlar, sayohatlar.

СОДЕРЖАНИЕ ЯЗЫКОВЫХ КУРСОВ И ЕГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ

Аннотация: в статье говорится о языковых кружках, преследующих как образовательные, так и воспитательные цели. Воспитательное значение выражается в таких вещах, как обучение манере речи, формирование таких качеств, как сообразительность, расторопность и расторопность; а воспитательная цель - приучить учащихся к самоконтролю, критическому взгляду на знания, самостоятельному мышлению, проявлению творческой активности.

Ключевые слова: языковой клуб, воспитательная и воспитательная цель, речевой этикет, сообразительность, самостоятельное мышление, творческая деятельность, выставка письменных работ, литературно-художественные вечера, встречи острого ума, прослушивания, экскурсии.

THE CONTENT OF LANGUAGE COURSES AND ITS EDUCATIONAL SIGNIFICANCE

Annotation: the article talks about language circles pursuing both educational and educational goals. The educational importance is expressed in such things as training manners of speech, formation of qualities such as intelligence, promptness and promptness; and the educational goal is to educate students to self-control, to look at knowledge with a critical eye, to think independently, and to show creative activity.

Keywords: language club, educational and educational purpose, speech etiquette, ingenuity, independent thinking, creative activity, exhibition of written works, literary and artistic evenings, meeting of sharp minds, auditions, trips.

Kirish. Ma'lumki, o'rta umumta'lim muassasalaridagi sinfdan tashqari ishlar ta'lim tizimida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning bir bo'g'ini hisoblanadi. Ona tilidan sinfdan tashqari olib boriladigan ishlar ham ta'limiy, ham tarbiyaviy maqsadlarni ko'zlaydi.

Adabiyotlar tahlili. Ona tili fani o'rta ta'lim maktablarida asosiy fanlardan bo'lganligi sababli katta soatlarda o'qitiladi va uning mamlakatimizda til siyosatini takomillashtirish, o'zbek tilini yanada rivojlantirish [1, 2] ga yoshlar e'tibori tortiladi. Mustaqillik davrida ona tili o'qitish metodikasi yangilanish davriga o'tdi. A.G'ulomov, R.Safarova, B.Qobilova, M.Rixsiyeva, H.Muhitdinova, R.Yo'ldoshev, T.Ziyodovalarning ilmiy tadqiqotlari o'zbek tili o'qitish metodikasi fani rivojiga samarali ta'sir ko'rsatdi. O'zbek tili o'qitish metodikasi fanining taraqqiyot sari yuz tutishida N.M.Mahmudov, H.G'Ne'matov, A.Nurmonov, R.Rasulov, A.Sobirov, A.Rafiyev, B.Mengliyev kabi tilshunos olimlarning, Q.Yo'ldoshev, B.To'xliyev, A.Q.G'ulomov, A.Hamroyev[14], M.Sobirova[3-10], K.Mavlonova [11] kabi pedagog olimlarning izlanishlari muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ularning tadqiqotlarida ona tili ta'limi mazmunini yangilash, ta'limni takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish masalalari yoritildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada til to'garaklarining ham ta'limiy, ham tarbiyaviy maqsadlarni ko'zlashi xususida so'z boradi. Tarbiyaviy ahamiyati nutq odobini tarbiyalash, zukkolik, tezkorlik va hozirjavoblik singari fazilatlarini shakllantirish singarilarda o'z ifodasini topishi; ta'limiy maqsadi esa o'quvchilarda o'zini nazorat qilish, bilimlarga tanqidiy ko'z bilan qarashni tarbiyalash, mustaqil fikrlash, ijodiy faoliyat ko'rsatish kabi masalalar turli ko'rinishlarda yoritiladi.

Tahlillar va natijalar. Tahlillar to'garaklarning ta'lim sifatini oshirishda ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatga egaligini ko'rsatdi. Uning ta'limiy ahamiyati shundaki, o'quvchi bu jarayonda qo'shimcha bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'ladi. Tarbiyaviy ahamiyati nutq odobini tarbiyalash, zukkolik, tezkorlik va hozirjavoblik singari fazilatlarini shakllantirish, mustaqil fikrlash, ijodiy faoliyat ko'rsatish, nutq odobini tarbiyalash singarilarda o'z ifodasini topadi.

Maktab ta'limida ona tili asosiy fanlardan hisoblangani sababli til to'garaklarini tashkil etishga har doim ehtiyoj katta bo'lgan. Til to'garagi odatda o'quvchilarning doimiy barqaror tarkibi bilan ish ko'radi. To'garakka a'zo bo'lish ixtiyoriy, ammo uning mashg'ulotlarida ishtirok etish majburiy hisoblanadi. To'garakning a'zolari 12–15 o'quvchidan oshmasligi lozim. Ular parallel sinflardan iborat bo'lsa, mashg'ulotlarni samarali va qiziqarli tashkil etish imkoniyatlari kengayadi. Agar maktabda parallel sinflar bo'lmasa, to'garak a'zolari bitta sinfdan iborat bo'lishi ham mumkin. Til to'garagini o'quvchilar bilan maslahatlashgan holda har xil nomlar bilan atash mumkin. Masalan, "Ona tilim – jonu dilim", "Til – dil kaliti", "O'zbek tili – davlat tili", "Kichik suhandonlar", "Til ilmi bilimdonlari" va h.k. To'garak a'zolari bilan birgalikda sinf xonasida "Kitoblar burchagi"ni tashkil qilish, o'quvchilar o'rtasida "Kitobxonlik haftaligi" loyihalarini o'tkazish yoshlarning kitobxonlik madaniyatini yanada rivojlantiradi.

Til to'garagi a'zolari bilan imkoniyat doirasida "Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablari"ga sayohatlar tashkil etish, o'quvchilarning ishlab chiqarish korxonalariga, muzey va turistik zonalarga sayohatlarini uyushtirish; oliy ta'lim muassasalariga borish va borilgan ta'lim muassasalari haqida taqdimotlar, videoroliklar tayyorlash va o'quvchilar uchun ularning namoyishini tashkil etish; ta'lim muassasalarida o'quvchi-yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida turkum loyihalar o'tkazish kabi bir qancha ishlarni rejalashtirish mumkin. Masalan, "9-may Xotira va qadrlash kuni" munosabati bilan "E'zoz" loyihasini amalga oshirish; "Bag'rikenglik mening nazdimda" mavzusidagi "Eng yaxshi insho" ko'rik-tanlovini tashkil etish va o'tkazish o'quvchilar bo'sh vaqtlarining mazmunli tashkil etilishini ta'minlaydi va o'quv dasturlaridan olgan bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi.

O'quvchilar til to'garagida tayyorlagan ilmiy ma'ruzalarini yoki ijod namunalarini tengdoshlari hukmiga havola etar ekanlar, bu o'rinda ularning ota-onalarini ham tadbirlarga jalb qilish, to'garak a'zolari ham uning muhokamasida faol ishtirok etishlarini ta'minlash to'garak samaradorligini ta'minlaydi. To'garak a'zolarining soni, muhokama qilinadigan masalalar, mavzularning mazmunini, to'garak o'tadigan kunlar va boshqalarni to'garak rahbari a'zolar, ya'ni qatnashchilar bilan maslahatlashgan holda tashkil qilsa, qiziqish yanada oshadi. Eng yaxshi baho berilgan ilmiy ma'ruzalar, maqolalar ommaviy axborot vositalarida nashr etilishiga tavsiya etiladi.

To'garak ishini muntazam tashkil etish, o'quvchilarning ijodiy kunlari, ilmiy davralari, anjumanlari, konkursdori, olimpiada va ko'rgazmalarini vaqti-vaqti bilan o'tkazib turish, tabiiyki, bilim oluvchilar faolligini oshiradi. Ularni fanni o'rganishga rag'batlantiradi.

Hozirgi kunda ta'lim maskanlarida shu ta'lim muassasasining o'ziga xos jihatlari, maqsadi va qator boshqa talablarni hisobga olgan holda barcha to'garaklarning Nizomlari ishlab chiqilgan hamda ular yuz berayotgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda takomillashtirilmoqda.

Ma'lumki, to'garak faoliyatining samaradorligi to'garak rahbarining tashkilotchiligiga, o'z fanini, kasbini, o'quvchilarini qay darajada sevishi va ularni tushunishiga bog'liq.

Ona tilidan tashkil qilingan to'garak mashg'ulotlarida turli mavzulardagi savol-javob kechalari, uchrashuvlar, o'tkir zehnlilar mushoirasi, so'zlar olamiga sayohat, zukkolar musobaqasi, ko'rik-tanlovlar o'tkazish, olimpiadalarga tayyorgarlik ko'rish, konferensiyalar tashkillash, yozma ishlar ko'rgazmasini tayyorlash, albom va devoriy gazeta chiqarish kabilarga tayyorgarlik qilish mumkin.

Odatda, yozma ishlar ko'rgazmasi o'quvchilarni rag'batlantirishning bir shaklidir. Bunda eng yaxshi o'quvchilarning uy ishlari daftari, turli yozma ishlari ko'rgazmasi uyushtiriladi. O'quvchilar tomonidan tuzilgan turli sxema va jadvallarning eng yaxshilarini to'garak mashg'ulotlarida tanlab, ko'rgazma tashkil qilish ham mumkin. Shunga erishish kerakki, ko'rgazma bilan tanishgan har bir o'quvchi o'z yozma ishlarining mana shunday bo'lishini orzu qiladigan bo'lsin.

Ona tili va adabiyotdan o'tkaziladigan adabiy-badiiy kechalar ham o'quvchilardan ko'p mustaqil ishlashlarini talab qiladi. Bunday kechalarga to'garak mashg'ulotlarida tayyorlanish borasidagi ishlar dars jarayonida o'tilgan materiallarni mustahkamlash, o'quvchilarning bilim darajalarini oshirish, ularning dunyoqarashlarini kengaytirish va ijodkorlik qobiliyatlarini o'stirishga hamda o'zidagi qobiliyatni namoyon qilishga yordam beradi.

Ko'pincha til va adabiyot kechalari o'zining ommaviyligi bilan ajralib turadi va uni tayyorlash hamda o'tkazishda o'quvchilarning katta jamoasi ishtirok etadi. Odatda, o'tkaziladigan kechalar kecha ishtirokchisi bo'lgan o'quvchining yodida bir umr saqlanib qoladi.

O'quvchilar bunday tadbirlar uchun astoydil harakat qilishadi, kecha uchun materiallarni vatanimiz va chet ellarda nashr etiladigan gazeta, jurnal va boshqa adabiyotlardan hamda internet manbalaridan oladilar. O'zlaridan oldin esda qolarli tadbirlar uyushtirganlar bilan maslahatlashadilar. To'plangan materiallarni kecha qatnashchilari o'rtasida qizg'in muhokama qiladilar. Kechaning qiziqarli va mazmunli o'tishida tadbir o'tkaziladigan joyning mavzuga mos jixozlanishi ham muhim ahamiyatga egadir. O'quvchilar kecha o'tkaziladigan joyni shiorlar bilan bezashadi, unga atab stend, albomlar tayyorlashadi, devoriy gazetalar chikarishadi. Kechada qilinadigan ma'ruzalar, rollar faol va qiziquvchi o'quvchilarga oldindan bo'lib beriladi. Tabiiyki, bunday kechalar o'quvchilardan chuqur bilimga ega bo'lishni, keng dunyoqarashni, vatanparvarlikni, fidoyilikni, jonkuyarlik va jonbozlikni talab qiladi.

Maktab o'quv rejasi turli fakultativ va to'garak tanlovi bo'yicha kurslarni tashkil etishni ko'zda tutadi. Ular o'quvchilar, ularning ota-onalari istak va qiziqishlarini hisobga olish bilan ishlab chiqiladi. Amaliyotda bugungi kunda repetitorlik faoliyati ham fakultativ sifatida qaraladi. Fakultativ va fanlarni ro'yxatini aniqlashda faqat o'quvchilar istaklari emas, balki ijtimoiy talablar va maktab imkoniyatidan kelib chiqiladi. Fakultativ va tanlov bo'yicha mashg'ulotlar majburiy va umumiy o'rta ta'lim fanlari bilan uzviy bog'liqlikda o'tkazilishi kerak.

Savol-javob tarzida o'tkaziladigan badiiy kechalarga ham o'quvchilar qiziqishadi. To'garak mashg'ulotlarida tayyorgarlik qilingan savol-javob kechasida o'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan savollargajavoblar olishadi. Kechaga tayyorgarlik 1–1,5 oy oldin boshlanadi.

O'tkir zehnlilar mushoirasining mavzusi ham 1–1,5 oy oldin e'lonqilinadi. Bellashadigan guruhlar o'zlariga sardor belgilaydilar. Mushoira shartlari asosida har bir guruh mustaqil tayyorgarlik ko'radi. Mushoira odatda guruhlarning o'zaro tabrigi bilan boshlanadi. Asosiy qism savol-javobdan ham iborat bo'lishi mumkin. Bunda savollar o'qituvchi yoki bellashayotgan guruhlar tomonidan tuzilishi maqsadga muvofiq sanaladi. Hakamlar tabrik so'zi va har bir savol-javobga tegishli ballarni qo'yishadi hamda

ular e'lon qilib boriladi.

Mushoira ona tilining muayyan bir bo'limi yoki bir necha kichikmavzularni o'z ichiga olishi mumkin. Masalan, "Orfografiya", "To'g'ri talaffuz me'yorlari", "So'zning shakl va ma'no munosabatlari", "So'zlarning o'zaro birikishi", "Sodda gap turlari", "Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning o'zaro birikish usullari" kabi.

To'garak mashg'ulotlarida turli ko'rik-tanlovlarga ham e'tibor qaratiladi. Chunki bu tadbir ham ham sinfdan tashqari ishlarning muhim turlaridan biri hisoblanadi. Bu tadbir vaqt-vaqti bilan o'tkaziladigan tadbir bo'lib, uni tashkil etishda o'quvchilarning yoshi, bilim saviyasi hisobga olinadi. Agar boshlang'ich sinflarda "Kimning xati chiroyli?", "Matn mazmunini kim tez va to'g'ri tushunadi?" kabi mavzular tanlansa, 5–6-sinflarda "Namunali mashq daftari", "Badiiy (yoki ilmiy) mavzuda yozilgan eng yaxshi insho", "Eng yaxshi yozilgan maqola" singarilar tanlanishi mumkin. 8–9-sinflarda esa erkin mavzuda yozilgan insholar, ramziy insholar bo'yicha shunday tanlovlar o'gkazilsa bo'ladi.

Odatda, o'quvchilarning ma'lum o'quv material yoki topshirig'i ustida mustaqil ishlashlari ularda maslahat (konsultatsiya)ga nisbatan ehtiyojni yuzaga keltiradi. Maslahatni tashkil etish vaqtida, asosan, o'quvchi savol beradi. To'g'ri tashkil etilgan konsultatsiya o'quvchilarga o'quv materialini egallashda qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Maslahat davomida o'qituvchi o'quvchilar faoliyatini u yoki bu masalani to'g'ri tushunishga mustaqil keladigan, ular uchun qiyin topshiriqni tushunib oladigan qilib, o'rganilayotgan materialni mohiyatini ochishga o'rganadigan qilib yo'naltiradi. Ta'limning mazkur turi o'qituvchiga o'quvchilar bilimlaridagi kamchiliklarni aniqlash, alohida e'tibor berishni talab etuvchi vaziyatlarga ularning diqqatini jalb etishga imkon beradi. To'g'ri tashkil etilgan konsultatsiya o'quvchilarda o'zini nazorat qilish, bilimlarga tanqidiy ko'z bilan qarashni tarbiyalaydi. O'qimishlilik darajasini to'g'ri aniqlashga yordam beradi.

To'garak mashg'ulotlari o'quvchini o'qish malakasi bilan qurollantirish jarayonida tavsiya qilingan kitoblarni mustaqil o'qiy oladigan, uni tushunadigan, ma'lum bir mavzuga oid kitoblarni tanlay oladigan, gazeta va jurnallarni ham mustaqil o'qiydigan faol kitobxonni tarbiyalaydi. Shuni e'tiborga olib, to'garak mashg'ulotlari ta'sirchanligini oshirish maqsadini ko'zlab tashkil qilingan interfaol metodlar ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi. Dars mobaynida ma'lum nazariy bilimlarni o'quvchiga yetkazish, unda ayrim faoliyat yuzasidan ko'nikma va malaka hosil qilish, milliy ma'naviy sifatlarni shakllantirish, o'quvchi bilimini nazorat qilish hamda baholash o'qituvchidan yuksak mahorat va tezkorlik talab qiladi. Bu borada o'qituvchi darslarda foydalanishi mumkin bo'lgan ayrim pedagogik vositalar: ta'kidlovchi savollar bunda o'quvchining bergan savollariga qarab, uning fikrlash darajasini aniqlash mumkin. O'qituvchi alternativ, o'quvchini faollikka chorlovchi savollar orqali to'garak mashg'ulotida ijodkorlik, izlanuvchanlik, qiyoslash, o'xshashlik va farqini topish singari xususiyatlarni rivojlantiruvchi muhitni yaratadi. Savollar berish bilan birgalikda o'quvchilarda, fikrlashga majbur qiluvchi savollar tuzish qobiliyatini ham shakllantirib boradi.

Sayohat o'quv jarayonini tashkil etishning tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u bilim olish, ko'nikma va malakani shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Sayohat: a) o'qish, o'rganish; b) ko'rish-tanishish; d) aniq maqsad, mavzu bo'yicha bo'lishi mumkin. Ular odatda jamoa bo'lib, guruh bilan o'qituvchi yoki maxsus mutaxassis, ekskursovod boshchiligida amalga oshiriladi. Ta'limning yordamchi shakllaridan biri bo'lgan sayohatlar to'garak a'zolari ishtirokida ommaviy, guruhli va kichik guruhli bo'lishi mumkin. O'quv sayohatlari alohida fanlar hamda bir qancha fanlar bo'yicha ham rejalashtiriladi. Sayohatni muvaffaqiyatli o'tkazish uchun o'qituvchi unga puxta tayyorlanishi: obyekt va mashrut bilan oldindan tanishib chiqishi, to'la rejani ishlab chiqishi, o'quvchilarni bo'lajak topshiriqlarni bajarishga jalb eta olishi kerak. Sayohat rejasida mavzu va maqsad, obyekt, u bilan tanishish tartibi, o'quvchilar idrok etish faoliyatlarini tashkil etish, topshiriqni bajarish uchun zarur bo'lgan vositalar va uskunalar, yakun yasash ko'rsatiladi. Sayohatni o'tkazish metodikasi mavzu, didaktik maqsad, o'quvchilarning yoshi, ularning rivojlanishi hamda ekskursiya obyektiga bog'liq bo'ladi.

Sayohatlar o'rganishning samarali metodi bo'lib, u o'quvchi-talabalarda kuzatuvchanlik, yangi ma'lumotlar to'plash, vizual taassurotlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Sayohat ta'limni

22 tashkil etishning shunday shakli, u orqali o'quvchilar bevosita ishlab chiqarish sharoitida jihozlar bilan tanishib, texnologik va mehnat jarayonlarini tashkil etishni kuzatib boradi. O'quv-o'rganishga qaratilgan sayohatlar ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish obektlari bilan tanishishga qaratiladi. Bunda o'quvchi-talabalar alohida texnologik jarayonlar, asbob-uskunalar, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turi, uning nomi, sifati, mehnat sharoitlari bilan tanishadilar. Mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish uchun sarflangan resurslar ishlab chiqarilgan mahsulot, ko'rsatilgan xizmatda qanday aks etishi, bu korxonalarda buxgalteriya hisobi qanday tashkil etilishi, uning bo'limlari (bor bo'lsa) faoliyati, ish haqi uni tashkil etish shakllarini o'rganadilar. Banklar, sug'urta kompaniyalari, tovar-xomashyo, moliya birjalari, savdo-sanoat palatasi, tuman moliya bo'limlari, ofis va boshqa shu kabi muassasa, tashkilotlarga qilingan sayohatlar yoshlarni kasbga yo'naltirish, tanlagan kasbga muhabbat uyg'otishda katta ahamiyatga ega. O'quvchi-talabalar ishlab chiqarish holati, korxonalarni texnik jihatdan qurollangani, zamonaviy ishlab chiqarish ishchi, xodimlarga qanday talablar qo'yishi, ularning hammasi qanday iqtisodiy ko'rsatkichlarda aks etishi haqida aniq tasavvurga ega bo'ladilar.

Sayohatga chiqishdan oldin o'quvchilar tegishli manbalarni, ayniqsa badiiy asarlarni, darslikning ma'lum paragrafini o'qib chiqadilar; ekskursiya rejasini tuzadilar; lug'atlardan biror korxona yoki mutaxassislikka oid so'z-terminlarni topib, ma'nosi bilan tanishadilar. Sayohat ko'proq insho yozish uchun material beradi, shuning uchun o'quvchi, masalan, muzeyda insho mazmuniga mos bo'lgan narsa va uning belgilariga alohida e'tibor berishi, ana shu tushunchalarni ifodalovchi so'zlarni yozib olishi lozim. Sayohat taassurotlari to'garak mashg'ulotida muhokama qilinadi, o'qituvchi boshqa muzeylardan o'zi olgan taassurotlarini hikoya qilib berishi mumkin. O'quvchilar boshqa muzeylar haqida o'zi eshitgan yoki o'qib bilganlarini ham eslaydilar, shu esdaliklar asosida ijodiy diktant yozishlari ham mumkin. Bularning hammasi o'quvchini inshoga tayyorlash uchun xizmat qiladi.

Insho tarixiy mavzu bo'yicha o'tkazilsa, (masalan, tarix muzeyiga ekskursiya qilingach), o'quvchilarga ayrim arxaik va tarixiy so'zlar ro'yxati beriladi yoki ularga ham shunday so'zlarni sanash topshiriladi: *eshon, imom, qarol, a'lam, qozi, arkon, ulamo, dodxoh, tasbeh, firqa, kashshof, shuro, qo'shchi* kabilar.

To'garak a'zolari bilan bosmaxona va redaksiyalarga, radiouzel va nashriyotlarga sayohat uyushtirish natijasida o'quvchilar ona tilini mukammal bilgan shaxslar bilan uchrashadilar; kitob nashr etishning sharaflari ekanligini ko'radilar, uning sirlari bilan tanishadilar. Bu ishlar ularda ona tiliga, so'zga, kitobga bo'lgan muhabbatni yana ham oshiradi.

So'zlar olamiga sayohat. Bu tadbir o'quvchilarning so'z zaxirasini oshirishga qaratilgan tadbirdir. O'quvchilar to'garak mashg'ulotlarida so'zlarning etimologiyasi, ularning leksik ma'nosi olamiga sayohat qilishadi. Tilimizdagi so'zlar juda katta xazina bo'lganligi sababli o'qituvchi qaysi uyadagi so'zlar (har bir tadbirda taxminan 50–60so'z) yuzasidan o'quvchilarning tayyorgarlik ko'rishlari lozimligini 10–15 kun oldin ma'lum qiladi va qanday manbalardan foydalanish lozimligini uqtiradi.

To'garak mashg'ulotlaridagi topshiriqlar fanning o'ziga xos xususiyatini hisobga olgan holda:

- og'zaki, yozma, testlar va boshqalarni o'z ichiga olgan holda ularni ijodiy tafakkurga yo'naltirishi hamda o'quvchi-talabalarning qobiliyatini har tomonlama baholashga imkon berishi kerak;

- topshiriqlar tayyorlashda ularni o'ta murakkab yoki sodda bo'lmashligiga e'tibor berish zarur, chunki unisi ham, bunisi ham o'quvchilarning o'z bilim darajalarini baholashlariga ta'sir ko'rsatadi;

- topshiriqlar ularni fanga taalluqli bo'lgan axborotlardan har tomonlama xabardorligini, ijodkorligini aks ettirishga yordam berishi kerak.

Xulosalar. Sinfdan tashqari ishlardan biri hisoblanuvchi til to'garaklari o'quvchilarning ona tili faniga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning bo'sh vaqtlarini qiziqarli va maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etish vositasidir. Bunday to'garaklar o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini

oqilona tashkil etish, ularning chuqur bilimga ega bo'lish, kasbiy va intellektual salohiyatlarini rivojlantirish maqsadini ko'zda tutadi. Bunda o'quvchilarning mashg'ulotda olgan bilimlarini mustahkamlash, mustaqil ishlash, ijodiy tafakkur, qobiliyatlarini hamda amaliy ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, ayniqsa, mutaxassislik fanlariga bo'lgan qiziqishlarini oshirish nazarda tutiladi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni qabul qilinganining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi PQ-4479-sonli qarori. 2019-yil 4-oktabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6084-son Farmoni. 2020- yil 20-oktabr.
3. Sobirova M. Matn tahlili asosida o'quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash. "Pedagogik mahorat" jurnali. – Buxoro. 2021. 4-son. 147-149-betlar.
4. Sobirova M. The use of integrated technology in the teaching of humanism in language education. POLISH SCIENCE JOURNAL (ISSUE 1(34) - Warsaw: Sp. z o. o. "iScience", 2021. Part 3 – 234 p. <https://sciencecentrum.pl/wp-content/uploads/2021/01/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20%E2%84%9634%20-%203%20%28web%29.pdf> str. 98-105
5. Sobirova M. In imparting humane education use of integrated technology. In Volume 8, Issue 1, of JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, ISSN No: 2581 – 4230. Impact factor 8.155. VOLUME 8, ISSUE 1, January 2022, Published by Novateur Publication, M.S. India. – P. 151-158. <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/3880/3718>
6. Sobirova M. Innovative Technologies of Teaching in the Field of Higher Education Techniques. [Design Engineering](http://thedesignengineering.com/index.php/DE/issue/view/31). International Research Journal of Advanced Engineering and Science (IRJAES) SKOPUS 5288-5295 <http://thedesignengineering.com/index.php/DE/issue/view/31>.
7. Sobirova M. Anthropocentric approach to language. ISJ Theoretical & Applied Science, 07 (111), <http://t-science.org/arxivDOI/2022/07-111.html> – P. 36-39.
8. Sobirova M. **Teaching language phenomena on the basis of anthropocentric approach.** <https://www.int-jecse.net/abstract.php?id=5377> International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) OI:10.9756/INTJECSE /V14I7.91 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 07 2022.
9. Sobirova M. Antroposentrik yondashuv asosida ona tili o'qitish. Monografiya. – Namangan: Arjumand media. 2022 y. – B.175.
10. Mavlonova K. O'quvchilarda matnni o'qib tushunish malakasini shakllantirish. Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2020. – B.149-150.
11. Sobirova M. Antroposentrik yondashuv asosida o'qituvchi faoliyatini rivojlantirish. – Toshkent, "Pedagogika" jurnali. 2022 y. № 4. – B.19-24.
12. O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jild. – Toshkent: O'zbekiston. 2020.
13. Hamroyev A.R. Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish. Monografiya. – Toshkent: Durdona. 2018. 187 b.

Yusupova Shohidaxon Jaloliddinovna
Andijon davlat pedagogika instituti professori,
Pedagogika fanlari doktori

Odilova Hamida Ulug'bek qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
katta o'qituvchisi

MAQSUD SHAYXZODA IJODIDA TABIAT TASVIRI VA UNDA O'QUVCHI RUHIYATINING IFODALANISHI

Annotatsiya: Badiiy adabiyotda inson va tabiat tasviri muammosini o'rganish har qaysi zamonda dolzarb masala bo'lib kelgan. Chunki, yozuvchi o'z g'oyaviy maqsadlarini nafaqat qahramonlarning xatti-harakatlari, yoki voqelikning real holati orqaligina yemas, balki ularni o'rab turgan tabiat manzaralarini tasvirlash, ularni tashbeh san'ati orqali mazmunan bog'lash orqali ham amalga oshiradi. Peyzaj tasviri orqali o'quvchiga ta'sir yetish, undagi go'zallik tuyg'ularini tarbiyalashni ham ko'zda tutadi.

Kalit so'zlar: peyzaj, lirika, badiiy mahorat, badiiy obraz, qahramon ruhiyati, erkinlik.

ИЗОБРАЖЕНИЕ ПРИРОДЫ В ТВОРЧЕСТВЕ МАКСУДА ШАЙХЗАДЕ И ВЫРАЖЕНИЕ В НЁМ ДУШЕВНОГО СОСТОЯНИЕ УЧАЩИХСЯ

Аннотация: Исследование проблемы образа человека и природы в художественной литературе было актуальным вопросом во все времена. Потому что свои идейные цели писатель реализует не только через действия персонажей или реальное состояние действительности, но и через описание окружающих их природных сцен, осмысленно связывая их посредством искусства аллегории. Произвести впечатление на ученика через изображение пейзажа значит и воспитать в нем чувство прекрасного.

Ключевые слова: пейзаж, лирика, художественное мастерство, художественный образ, мышление героя, свобода.

THE DEPICTION OF NATURE IN THE WORKS OF MAKSUD SHAYKHADEH AND THE EXPRESSION IN IT OF THE STUDENTS' STATE OF MIND

Abstract: The study of the problem of the image of man and nature in fiction has been a relevant issue in all times. Because the writer realizes his ideological goals not only through the actions of the characters or the real state of reality, but also by describing the natural scenes that surround them, connecting them meaningfully through the art of allegory. Affecting the student through the image of the landscape also involves educating the feelings of beauty in him.

Key words: landscape, lyrics, artistic skill, artistic image, hero mentality, freedom.

Olam go'zalliklari va tabiat hodisalari, unga muhabbat haqida she'r bitmagan shoir topilmasa kerak. Tabiatni kuylash, uning go'zalliklaridan bahra olish qadim zamonlardan buyon adabiyot va san'atning bosh mavzularidan biri bo'lib kelgan.

Ma'lumki, tabiatni poetik anglash, uni boshqalarga yetkazib berish katta mahorat talab etadi. Adabiy ta'lim jarayonida ushbu mahorat asosida olam va odam dardlarining mushtarak jihatlarini uyg'unlashtirish kutilgan natijani beradi.

Umumta'lim o'rta maktablarining 10-11-sinflarida [1] adabiy ta'lim tizimli kurs shaklida tashkil qilinishi ko'zda tutilgan. O'quvchilarda milliy va jahon adabiyotining ko'lami haqida umumiy tasavvur paydo qilishga ham ye'tibor qaratilgan. Dasturda adabiyot o'qitishdagi ikki bosqich orasida mantiqiy izchillik, davomiylik va uzluksizlik bo'lishini ta'minlashga ye'tibor qaratildi. Ushbu bosqich o'quvchilarda badiiy asar o'qishga barqaror qiziqish uyg'otib, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish va adabiy asarni chuqurroq tushunishga yordam beradigan darajadagi nazariy bilimlar berishga qaratilgani bilan o'spirinlarda yezgu ma'naviy sifatlar va

kreativlik xususiyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi [2]. Ana shularni hisobga olib akademik litseylar o'quv dasturida Maqsud Shayxzoda lirikasiga 4 soat vaqt ajratilgan bo'lib, unda M.Shayxzoda she'rlariga xos lirik qamrovning kengligi, falsafiy mushohadaning chuqurligi. "She'r chin go'zallik singlisi yekani", "Ayriliq" she'rlarining badiiy tahlili. Shayxzoda she'rlarida Vatan timsoli. "Toshkentnoma" – falsafiy-lirik poema ekanligi. Shayxzodaning XX asr o'zbek adabiyoti tarixida tutgan o'rni. kabi masalarga keng o'rin berilgan. Shu bilan birga, O'zbek adabiyoti fani dasturida ham shoir asarlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilgan. Bu bejiz emas, albatta. Chunki o'rta maktab bosqichda asosiy ye'tibor o'quvchilarda milliy va jahon adabiyotining yaxlit yestetik hodisa yekani haqida muayyan tasavvur hosil yetishga etibor qaratilgan bo'lib, estetik qimmat, ham o'quvchilarda ijobiy axloqiy sifatlar shakllantirishga qaratilgani, ham qabul qilinishi osonroq yekani bilan ajralib turadigan asarlar dasturdan joy olgan. Unda turli davrlarda yaratilgan badiiy matnlardan foydalanilgan.

Ma'lumki, biz adabiy ta'lim jarayonida turli matnlardan foydalanamiz. Chunki matn kommunikativ maqsadga xizmat qilib, ob'ektiv va sub'ektiv mazmunni ifodalaydi hamda ma'lum bir lisoniy shaklga ega bo'ladi. Har qanday matn til birliklariga ega bo'ladi. Ayniqsa, emotsional –ekspressivlik xususiyatiga ega bo'lgan matnlar alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Zero, tabiatga bo'lgan muhabbatni his qilishda ham o'sha ruhiy holatni namoyon qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki : "badiiy matn stilida til, obraz, xarakter va manzaralar yaratish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Badiiy nutq o'zining obrazlilik bilan adabiy tilning boshqa funksional stillaridan ajratib turadi".

O'quvchilarni bilim olishga qiziqtirish uchun kognitiv ta'lim metodidan, ya'ni ongli verbal ta'lim metodidan foydalanishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bunday usullar o'quvchilarni o'z fikrlarini asoslashga o'rgatadi, munozara va muhokama uchun qiziqarli vaziyatlarni keltirib chiqaradi, savollar to'g'ri yo'naltiriladi, o'zgalarning fikrlari, javoblariga munosabat bildirishga imkon yaratiladi.

Bunday faollikni amalga oshirish uchun kognitiv faollikning uch xil yo'nalishidan foydalanish mumkin bo'ladi: situatsion faol, kognitiv faoliyatga faol hamda ijodiy faol. Situatsion faol ma'lum vaziyatlarda qiziqish va faollikni namoyon qiladi. Interaktiv usul va metodlardan foydalanadi, hissiy qo'zg'aluvchanlik paydo bo'ladi. Kognitiv faoliyatning ijodiy turiga moyil o'quvchilar kreativ, nostandart, fikrlaydilar, idrok etishning yorqin tasviri, sof individual tasavvur va atrofdagi dunyoga o'ziga xos munosabatda bo'ladi, tasavvur qiladi, o'zini namoyon qilishga intiladi. Jumladan :

***Quyunning bo'lagi, ulkan miqyosda
Bepoyon cho'llarda qumlar sovurgan.
Yoki oqshom payti shabboda bilan,
Chinorlar tagida qizlarni o'pgan.
Daraxtlar ichida yonganda gulxan,
Biroz isingani olovga chopgan.***

Mazkur she'r shoir ijodining 1960-yillarida yozilgan bo'lib, butun insoniyatga tahdid solgan fashizmni yo'q qilish, hayotni, yerkinlik va tinchlikni saqlash, xalqni ruhan yengilmaslikka, matonatga da'vat yetgan. Tabiat tasviri vositasida, uning predmetlari orqali xalqning uzoq tarixiylik ifodalangan. Aynan chinor (uzoq yillik o'simlik turi. Namangan va Samarqand viloyatlarida 600-800 yoshli chinorlar uchraydi) daraxtining timsolida ozar va o'zbek xalqining ildiz jihatdan birligi-yu, ularning qanchalar qudratli yekanligi chiroyli tashbeh orqali ifodalangan. Yerkinlikning "havo" orqali ifodalanishi yesa, doimiy yerkinlikda bo'lgan, hurlikka ko'ngan xalq uchun "sandiq"da bo'g'ilib qolishi va bunga ko'nishida ijodkor haqsizlikni ko'radi.

O'quvchi yoshlarni tafakkur va tasavvurlari rivojlantirish masalasi, uning usul va yo'llarini o'rganish muammosi pedagogikaning muhim muammolaridan biridir. Tasavvurning rivojlanishini, albatta, o'quvchida tabiatga mehr qo'yish bilan shakllanadi. Jean Piagetning ta'kidlaganidek, bolalar o'zining kognitiv qobiliyatlarini atrof-muhitda o'z harakatlari yordamida mustaqil hal qiladi va tuzadi. Bu orqali bolalarda atrof-muhitdagi biror hodisa yoki buyumni: baholash (tushunish, baho berish, o'lchash, taqqoslash, xulosa qilish), tahlil qilish (farqlash,

26 differensiyalash, umid bog'lash, birinchilik uchun kurashish, sabab topish, taqqoslash, tajriba o'tkazish, o'rganib chiqish), sintez qilish (shakllantirish, ta'lim berish, ishlab chiqish, rivojlantirish, qayta aniqlash, taklif etish, yaratish), bilimlarni qo'llash (namoyish etish, tayinlash, bajarish, chizib ko'rish, qo'llab ko'rish, ishlatish, shug'ullanish), mavzuni tushunish (qayta ko'rib chiqish, identifikatsiyalash, muhokama qilish, o'ziga qaratish, tan olish, tushuntirish, gapirib berish, aniqlik kiritish), mavzuni bilish (eslash, aniqlik kiritish, tasdiqlash, aytib o'tish, takrorlash, atash, gapirib berish, tasavvur etish, topish) rivojlanadi. Shunday ekan, har bir fan o'qituvchisi, jumladan, adabiyot o'qituvchisi har bir mavzuni o'rganish jarayonida o'quvchini tabiatga, olamga mehr muhabbat bilan munosabatda bo'lish ruhini ingdirish zarur. Chunki, odamzod yaratilibdi-ki, tabiat bilan doimiy ruhiy aloqada. Badiiy adabiyotdan yiroq inson bo'lsa ham-ki, yomg'ir yog'adimi, mayin shabbodani his yetadimi ko'nglining tub-tubidan allanechuk hislar o'tadi. Kimnidir chuqur o'yg'a toldirsa, kimnidir ko'nglini shodlikka to'ldiradi. Badiiy asarlarda yesa tabiat tasviri ijodkor badiiy mahoratini aks yettiradi. Chunki, avvalo ijodkor o'zi qalamga olayotgan voqelikka shaxsiy yondashuvi, qahramonlarga munosabati va ularning holatini qay darajada his yeta olishi namoyon bo'ladi. Bular bilan bir qatorda ijodkordagi so'z qo'llay olish mahoratini, badiiy-falsafiy qarashlarini ham aks yettiradi. Badiiy adabiyotda she'riyatning bu turiga murojaat qilgan ijodkorlar soni salmoqli. Bulardan biri o'zbek va ozarbayjon adabiyotining zabardast vakillaridan biri Maqsud Shayxzoda betakror iste'dodi bilan o'z safdoshlaridan alohida ajralib turadi. U rang-barang janrlarda ijod qildi, she'r va dostonlarida voqelikka faol munosabatda bo'lishga intilib, xalq va mamlakat hayotida ro'y bergan muhim voqealarni tasvirlashga, mehnat va kurash qahramonlari obrazini yaratishga alohida ye'tibor berdi. Uning o'zga tillar adabiyotidan qilgan tarjimalari ijodkor adabiy mahoratining oshishiga, she'riy tushunchalari boyishiga sabab bo'ldi. Natijada shoir jahon adabiyotining ko'zga ko'ringan ijod namunalari bilan hozirgi o'zbek she'riyatining mavzu mundariyasi, poetik olami, obrazlar tizimi, hamda rang-barangligi xususiyatlarini boyitdi. Shoir dostonlari tarixiy va ma'rifiy mavzudagi badiiyligi istiqbol davri adabiy tafakkuri rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Uning ijodida tabiat tasviri alohida o'rin tutadi. Har qanday muammoni, o'zi mansub odamlar orzu-armonlarini tabiat tasvirlari bilan omuxta ko'rish, his qilish Maqsud Shayxzoda she'riyatining o'ziga xos xususiyatini belgilab beradi. Shoir ko'z o'ngimizda sodir bo'layotgan voqealarni o'zgacha kuzatadi va uni ta'sirli misralarda chizib ko'rsatadi:

Biz yuborgan har o'rik

Janubdan oltin tabrik!

Daraxtlarda butoqlar

Mevalardan bukilgan,

Qars-qurs bilan yong'oqlar

Do'lday yerga to'kilgan.

Asl, qizil olmalar,

Uni qizim tilmalar,

Nega ariq labida

Tutzorlarga xushtorman?

Go'yo daraxt qalbida

Bir hisdan xabardorman.

Ko'rinib turibdiki, shoir tabiat hodisalarini, manzara va holatlarini, undagi mevalarni inson ruhiy holati bilan ifoda etmoqda.

Ma'lumki, tabiatni sevish, uni ardoqlash ota-bobolarimizdan meros. Biz tabiatni sevamiz, uni ardoqlaymiz, parvarishlaymiz. Chunki u bizga go'zallik baxsh etish bilan birga rizqu nasiba ham ulashadi. Biz esa tabiat bergan ne'matlardan iloji boricha foydalanamiz. Bu ne'matlardan kim qanday foydalanyapti, degan savolga javobni izlash uchun shoir she'rlariga murojaat qilish to'g'riroq, deb o'ylaymiz. Chunki muayyan tabiat hodisasi yoki undagi go'zal manzara har bir ijodkorda o'ziga xos turtki beradi. Professor S. Mamajonov bu haqda shunday degan edi: "Ilhom ufqning kengligi, tematik rang-baranglik, hozirjavoblikning o'zi, ya'ni temaning quruq ko'tarib chiqishning o'zi shoir talantining yuksakligidan dalolat bera olmaydi. Ilhom ufqi, mahorat ufqi bilan chambarchas qo'shilib, olingan yangi temaning mohiyati chuqur va haqqoniy ochilgan taqdiridagina yozuvchining yuksak talanti haqida so'z borish mumkin".

Ushbu berilgan ta'rif, nazarimda, ulug' shoir Maqsud Shayxzodaga tegishlidir. Chunki shoir asli ozar yurtining farzandi bo'lsa ham, go'zal O'zbekistonimiz, uning qiru adirlari, dalayu qirlari, shaharu qishloqlari bilan o'zida faxr tuyg'usini his qilganligini ko'rishimiz mumkin. Rahmatli dadamiz Muhammadjon Saidxonov u insonni bilar, tanir, uning asarlari to'g'risida bizga

jo'shib gapirib berar edi. Yillar o'tdi. Ammo biz hozirda ham uning asarlarini o'qir ekanmiz, o'sha jo'shqinlik yana paydo bo'ladi va hislarimizni uyg'otadi. Mana 60 yillardan ham ko'p vaqt o'tibdi, uning ta'rif va tavsiflarga boy bo'lgan "Toshkentnoma"si hali ham qo'llarda, dillarda yangramoqda. Olamning go'zalligini, eng nozik tomonlarini tushunish, undagi dardni his qilish, anglab yetish har kimga ham nasib etmaydigan go'zal bir tuyg'udir. Aytish joizki, Maqsud Shayxzoda she'rlarini o'qigan kitobxon nafis tuyg'ular ichida qoladi:

Toshkentning vohasini	"Jannat shunda ekan-da"
Men bog'iston degandim,	Deyilsa kim ishonmas?!
Bog'u bo'ston degandim.	Shakar angur deganda
Shu ta'rifni shu zamon,	Ayting-chi kim tamshanmas!?
Qaytaraman uch chandon.	Husayni uzumimiz
Yozning kelishi ila	Ittifoqda mo'tabar,
Tokning tomirida may,	U – sovg'a, u- xushxabar,
Yoyma savatlar to'la	O'zi shirin so'zimiz.
Marjon kabi qulupnay.	

Adabiy ta'lim jarayonida shoir asarlarini o'rganir ekanmiz, unda nafosat, go'zallik, hayot zavqi hukmron bo'lib, jonajon o'lkamiz kuz fasliga katta urg'u berganligining guvohi bo'lamiz. Hayotga, go'zallikka, nafosatga bo'lgan jo'shqin muhabbatini his etamiz. She'rda ta'rif etilgan detallar (tok, qulupnay, angur, husayni uzum,), shuningdek, tabiat lavhalarini so'zlar bilan chizish orqali o'zining tabiatga munosabatini ifodalaydi; tabiat go'zalligi, boyligi va qudratini ta'rif va tavsif yetadi, qalamga olingan joylar tabiatining o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradi.

Umuman, badiiy adabiyotning lirik janrida tabiat tasviridan foydalanish haqida quyidagi fikrlar aytilganligini guvohi bo'lamiz: "Peyzaj lirikasida tasvirlangan tabiat manzarasida lirik sub'ekt qalbi suratlanadi. Lirik sub'ekt qalbidan o'tkazib berilgan manzara oniy kayfiyatning obraziga aylanadi. Shu ma'noda peyzaj lirikasida tabiatni tasvirlash maqsad yemas, balki bir vositadir... Ko'p hollarda she'rda tasvirlangan manzara ramziy obrazga aylanadi. Va mavjudlikning mangu muammolari ijtimoiy hayot, inson fe'l-atvori, hayotning mazmuni va shakllar mohiyatini obrazli tarzda ochib berishga qaratiladi"[3], -deb ta'kidlaydilar. Maqsud Shayxzodaning "Tovushlar" she'rda ham aynan tabiat tasviri vositasida ijodkor borliq hamda ichki kechinmalarini ifodalaydi:

Sho'rtepaning alohida bir gashti bor,
Kechasi oy suzilib kularkan,
Go'yo asal dengizida butun vodiy,
Tog' va yo'llar nur ichida cho'milar.

Shoir hech qachon, kitobiy, sun'iy muammolarni izlamadi. U, yeng avvalo, o'zini hayajonga solgan, o'zidagi poetik qarashlarini jumbushga keltira olgan masalalarga murojaat yetadi. Shoir uyg'otgan yog'dular o'quvchi qalbiga ham ko'chib o'tadi, xuddi yuqoridagi she'r misolida. Tundagi sokinlik, tabiatning holati shoirona mohirlik bilan bir qatorda soda tilda go'zal namuna yaratgan. Shayxzoda shoirning asosiy vazifasini «inson ruhini tarbiyalash, odamda yaxshilik unsurlarini ko'paytirish, xalqqa go'zallik va nafosat tuyg'usini yanada baland darajada ko'tarishda» deb bilgan yedi. Uning she'rlarida, ayniqsa, chiroyli badiiy obrazlar mo'ldir. Buni yuqoridagi she'r misolida ham ko'rishimiz mumkin. Oyning suzilishi, vodiyni asal dengiziga qiyoslanishi, oy shulasida yorishib turgan tog' yo'llarining "nur ichida cho'milishi", bulbul va gullarning sohildagi ziyofati – barcha-barchasida shoirlarga xos juda go'zal badiiy obrazlilikni kuzatishimiz mumkin.

Maqsud Shayxzoda fikricha, hayotdagi buyuk ne'matlardan biri she'riyat, tengsiz go'zalliklardan biri she'rdir. U she'riyatning shaxsga cheksiz go'zallik, ruhiy tovlanish in'om yetuvchi mohiyatini kuylaydi, uning yangidan-yangi qirralarini ochishga intiladi. She'riyat asarga turtki bo'lgan fikr va ifodalanayotgan ma'nodagina yemas, balki ularning badiiy namoyon yetilish tarzi, o'quvchi ruhiyatida yangi tuyg'ularni uyg'ota bilish san'atidir. She'riyat, kishi tabiati va umrini yashnatib turuvchi ulug' xosiyatlardan biri sifatida ulug'lanadi. She'r bilan oshno bo'lish, muallif fikricha, inson fe'l-atvorini, ma'naviyatini sermazmun qiladi, ruhiyati barkamol bo'lishiga

28 ta'sir ko'rsatdi. Insonni qadrlash, har bir qalbning izzat nafsiga xolis munosabat muammolarni badiiy yoritish Shayxzoda she'riyatining yetakchi yo'nalishini tashkil yetadi.

Shu o'rinda shoir qalamiga mansub "Toshkentnoma" liro-yepik asariga nazar tashlar ekanmiz, unda shoir shaharning go'zalligi, me'morchiligi, ko'chalari, bog'lari va yodgorliklarini tasvirlaydi. She'r shahar va uning aholisi hayotini tasvirlaydigan iliq va yorqin tasvirlar bilan to'ldirilgan. She'rda ijodkor o'quvchini Toshkent bo'ylab sayohat qilishga undaydi va shaharga qaraganingizda paydo bo'ladigan birinchi taassurotni tasvirlaydi. Shoir Toshkent atrofidagi tabiatning xilma-xilligi va bog'larining go'zalligini yanada tasvirlaydi. She'rda shahar aholisi - ularning obrazlari va hayotiga alohida ye'tibor qaratilgan.

— Nima ko'rding Toshkentda? Mevalarning aslini,
Doim quyosh faslini, Quyosh bunda izzatda.
Terakzorlar xushbichim, Bog'larda hamma yoq jim.
Yer ham, ko'k ham moviy rang, Havoning yuzi tiniq,
Shuncha tiniqki qarang: Gullarning atri aniq —
Havoda bilinadi, Ko'zlarga chalinadi.
Anu daroz chinorlar - O'tgan kuzni va qishni,
Bahorda kelgan qushni, Tinmay-sinmay sanarlar.
Bulut osiq Chotqolga, Bulut o'xshar soqolga,
— Bulutlar, hay bulutlar, Sizda bormi burgutlar.
— Burgutlarni bilmaymiz, Ammo bor samolyotlar.

Satrlarda ifodalangan joyga xos xususiyatlar tasviriga ye'tiborimizni qaratamiz. O'zbekistonning quyoshli havosi, unga xos mevalar, xushbichim terakzorlar, sokinlikdagi bog'lar, tiniq havo, gullarning xushbo'y atri, daroz chinorlar, moviy bulutlar - bularning barida shoirona mohirlik bilan yoritilgan tasvir ifodasini kuzatishimiz mumkin. Shoir ijodida mazkur asar alohida o'rin yegallaydi. Chunki, asarni unga yeng og'ir kunlarida, yurtidan haydalgan kezlarda boshpana bo'lgan shaharga cheksiz hurmati va muhabbati o'laroq yaratilgan. Adabiy jamoatchilik ham davrida asarni juda iliq qabul qildi va uning yirik muvaffaqiyati sifatida baholadi.

Ma'lumki, poetik mushohadaning mazmundorligi va tiniqligini belgilovchi mezon shoirning badiiy mahoratidir. "Haqiqiy she'r nimasi bilandir musiqaga o'xshaydi – unda mazmun teranligi bilan irga kitobxon qalbiga ta'sir ko'rsata oladigan yuksak nafosat bo'lishi kerak". Ana shu kuchli ehtirosiga ega bo'lgan shoir hech kimning xayoliga kelmagan xulosalar chiqaradi. Agar uning mohiyatini anglab yetsangiz, unda olam- olam ma'no borligini his qilasisiz.

Xulosa qilib aytganda, mavzu ko'lami va ayniqsa, lirik janrlarda tabiat tasviridan unumli foydalana olgan shoir, yozuvchi Maqsud Shayxzoda ijodi har bir o'quvchi qalbida betakror iz qoldiradi. Uning ijodidan nafaqat o'zbek yoki ozarbayjon adabiyotinigina yemas, balki jahon adabiyoti namunalari orqali ham ko'p ma'naviy ozuqa olishimiz mumkin. Undagi Shekspirga xos ijod yo'nalishida tasviriylik orqali badiiy kechinmalarni bevosita va bilvosita his yetamiz. Ijodkorning siymosi O'zbekiston va Ozarbayjon xalqlari uchun do'stlik, birodarlik, ma'rifat, ma'naviyat, yezgulik ramzi bo'lib qoladi.

Adabiyotlar

1. XX asr ўзбек адабиёти тарихи, Т., 1999.
2. Юсуф Шомансур. Шайхзода – бунёдкор шоир, Т., 1972.
3. Наим Каримов. Мақсуд Шайхзода (маърифий-биографик роман), Шарқ. Т., 2009.
4. Шайхзода М. Чорак аср девони: Танланган асарлар. М.Шайхзода. О'збекистон давлат бадий адабиёт нашриёти. Т., 1958.
5. О'лжабоев, У. Барҳаётлик: [Мақсуд Шайхзода таваллудининг 75 йиллигига]/ У. Ўлжабоев; М. Хўжаев // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1983.
6. Quronov D. va boshq. "Adabiyotshunoslik lug'ati", Akademnashr., T:, 2013.
7. Saul M. "Jean Piaget's theory of cognitive development". Simply Psychology. 2018. – P.

KURASH MASHG'ULOTLARI JARAYONLARIDA TALABA YOSHLAR (O'G'IL BOLALAR)NING O'ZLASHTIRISH KO'RSATKICHLARI DINAMIKASI

Annotatsiya: Mazkur maqolada Kurash sport turi bilan shug'illanuvchi talaba yoshlarning o'ziga xos baholash mezonlariga muvofiq, umumjismoniy va maxsus jismoniy tayyorgarliklaridagi ko'rsatkichlarini aniqlash bo'yicha sinov mashqlar hamda texnik va taktik tayyorgarliklarini ko'rsatadigan kurash usullarini bajarishdagi ko'rsatgan natijalari olindi va mezonda belgilangan tartibda ko'rsatilgan natijalariga mos ravishda baholanganligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: umumiy jismoniy tayyorgarlik, texnika, taktika, tezlik, kuch, chaqqonlik, chidamlilik, egluvchanlik, jismoniy sifatlar.

ДИНАМИКА ПОКАЗАТЕЛЕЙ РАЗВИТИЯ СТУДЕНТОВ (МАЛЬЧИКОВ) В БОРЬБОЧНОЙ ПОДГОТОВКЕ

Аннотация: В данной статье в соответствии с конкретными критериями оценки получены результаты проверочных упражнений для определения показателей общей и специальной физической подготовки студентов-борцов, а также результаты приемов борьбы, показывающие их технико-тактическую подготовленность. и показано, что оценивается в соответствии с результатами, указанными в критериях.

Ключевые слова: общая подготовленность, техника, тактика, скорость, сила, ловкость, выносливость, гибкость, физические качества.

DYNAMICS OF DEVELOPMENT INDICATORS OF STUDENTS (BOYS) IN WRESTLING TRAINING

Abstract: In this article, in accordance with specific evaluation criteria, the results of test exercises were obtained to determine the indicators of general and special physical training of student wrestlers, as well as the results of wrestling techniques, showing their technical and tactical readiness. and is shown to be assessed according to the results specified in the criteria.

Key words: general preparedness, technique, tactics, speed, strength, agility, endurance, flexibility, physical qualities.

Kirish. Dunyodagi barcha sport turlari shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda milliy sport turimiz deb e'tirof etilayotgan kurash sport turi ham misli ko'rilmagan darajada ommalashib bormoqda. Kurash musobaqalari ko'plab xalq bayramlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Shuning uchun aholini jismoniy tarbiya va sport bilan doimiy tarzda shug'ullanishga jalb qilishdagi asosiy vazifalaridan biri kurash sport turlarini rivojlantirish hisoblanadi.

Bugungi kunda respublikamizda kurash milliy sport turining rivojlantirish va ommaviylashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-oktabrdagi PQ-3306-sonli "Kurash" milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2018-yil 5-martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5368-sonli Farmoni hamda shu sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

30 Ishning maqsadi - Kurash mashg'ulotlari samaradorligini oshirish va sport turi texnik harakatlarini o'zlashtirishda raqamli texnologiyalarni qo'llash metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- sportchilarda kurash turlari va uning barcha ko'rinishlaridagi dastlabki texnik tayyorgarlik uslubining mazmuni va uslubiy shart-sharoitlarini aniqlash;
- kurash bo'yicha sportchilar musobaqa faoliyati tuzilishining xususiyatlarini o'rganish va o'rgatishda dastlabki ketma-ketlik algoritmini ishlab chiqish;
- dastlabki o'rgatish bosqichida shug'ullanuvchi oliy ta'lim muassasalari talabalarining tanlangan sport turi texnik harakatlarini oqilona shakllantirish metodikasini takomillashtirish;
- jismoniy tarbiyaga ixtisoslashmagan oliy ta'lim muassasalari talabalariga kurashning texnik harakatlarini o'rgatishda raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali dastlabki o'rgatishda ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini tajribada tekshirish.

Tadqiqotni tashkillashtirish: tadqiqotlarda Termiz shahridagi Termiz davlat pedagogika instituti Jismoniy madaniyat fakulteti Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi, Termiz davlat universiteti Sport faoliyati va boshqaruvi fakultetining Sport faoliyati "Kurash" ta'lim yo'nalishi, O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Jismoniy madaniyat va Aniq fanlar fakulteti Sport faoliyati "Kurash" ta'lim yo'nalishi, Buxoro davlat pedagogika instituti Jismoniy madaniyat fakulteti Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishlarida kurash sport turi bilan shug'ullanuvchi 160 nafar talabalar

O'tkazilgan tadqiqot natijalari tahlili:


Mamlakatimizdagi olimlar hamda xorijlik yetuk olimlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqot ishlarini ilmiy-uslubiy jihatlarini tahlil qilish natijalari shundan dalolat beradiki, Oliy ta'lim muassasalarida tahsil oluvchi talaba yoshlarning jismoniy tarbiyasi va kurash sport turi bo'yicha tashkil etiladigan sport mashg'ulotlari borasida qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, K.T.Yusupov, J.T.Toshpo'latov, J.M.Nurshin, A.R.Taymuratov, F.A.Kerimov, N.A.Tastanov T.S.Usmanxodjayev, va boshqalarning ilmiy ishlarini misol tariqasida keltirish mumkin.

Talaba yoshlarning kurash sport turidagi jismoniy tayyorgarliklari bo'yicha tahlil qilish hamda ularga, jismoniy va texnik-taktik tayyorgarlik jarayonlari bo'yicha ilmiy nazariyasi va uslubiy ilar olib borgan V.V.Nelubin, I.R.Rasulov, M.M.Bogen, R.A.Piloyan, L.S.Vigotskiy, L.P.Matveyev, V.V. Davidov, O.A.Sirotn, A.M.Kuzmin, N.G.Ozolin singari olimlar hamda; yakka kurashchilardagi harakat ko'nikmalarini shakllantirish konsepsiyasining asoschilaridan bo'lgan K.T.Yusupov, R.D.Xalmuxamedov, A.A.Karelin kabi olimlar tomonidan yaratilgan fundamental adabiyotlar bu tadqiqotd ishida atroflicha o'rganilgan.

Mamlakatimizda olimpiya sport turlari ustuvor, istiqbolli va rivojlanayotgan turlarga ajratilib, ushbu sport turlarini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rilmoqda. Keyingi davrlarda kurash sport turi bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi yirik xalqaro sport musobaqalarida muvaffaqiyatli ishtirok etib kelmoqda. Kurash sport turi mamlakatimizda milliy sport turlari sifatida alohida e'tibor qaratilib kurash sport turini rivojlantirish borasida davlatimiz va hukumatimiz tomonidan bir qator chora tadbirlar amalga oshirilib kelayotganligi sababli bugungi kunga kelib kurash sport turiga yoshlarning qiziqishlari, ayniqsa maktab, professional ta'lim yoshidagilar va oliy ta'lim talaba yoshlari yoshidagi o'g'il qizlarning dars jarayonlaridan tashqari vaqtlarda ham kurash sport turi bilan muntazam ravishda mashg'ulotlarda qatnashishlari kuzatib kelinmoqda. Talaba yoshlarimiz orasidan iqtidorli sportchi o'g'il-qizlarimizni kelgusida yuqori natijalarni qayd etib mamlakatimiz sharafigini munosib himoya qilishlari hamda jismonan sog'lom va barkamol bo'lib yuqori natijalarga erishishlari uchun ularning mashg'ulot jarayonlari davomida jismoniy yuklamalarning qay darajada to'g'ri berilayotgani va ulardagi jismoniy ko'rsatkichlar dinamikasini aniqlash uchun Oliy o'quv yurtlarida tahsil olib kelayotga o'g'il bolalardan iborat talaba yoshlar tanlab olindi. Ulardan davlat ta'lim standartlari va malka talabalarida ko'zda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarni aniqlash nazorat-sinov mashqlari olindi. Dastlab o'g'il bolalardan iborat talaba yoshlarning kuch jismoniy sifati ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadida baland turnikda tortilish nazorat-sinov mashqi

o'tkazildi. Ushbu nazorat sinovi davomida o'g'il bolalarning 20 % da kuch jismoniy sifati ko'rsatkichlari "qoniqarsiz" darajada ekanligi aniqlandi va baholash mezonlari asosida "2" baho bilan qayd etildi. Talabalarning 30 % da esa "qoniqarli" natijalar qayd etildi va "3" baho bilan baholanib, kuch jismoniy sifati ko'rsatkichlari past darajada ekanligi aniqlandi. Nazorat sinovi davomida talaba (o'g'il bola)larining 30 % da "yaxshi" natijalar qayd etilib, baholash mezonlariga ko'ra "4" baho bilan baholandi va 20 % o'g'il bolalarning kuch jismoniy sifati ko'rsatkichlari "a'lo" baho bilan baholanib, ushbu nazorat sinovi amaliyoti yakunlandi. Olingan natijalarning 50 % da o'g'il bolalardan iborat talaba yoshlarning kuch jismoniy sifati ko'rsatkichlari past darajada ekanligi aniqlandi (1- rasmga qarang).


Navbatdagi jismoniy tayyorgarlik darajalarini aniqlash uchun o'tkazilgan tadqiqot ishida o'g'il bolalardan iborat talaba yoshlarda arg'amchida 1 daqiqa davomida sakrash nazorat sinovi o'tkazildi. Arg'amchida 1 daqiqa davomida sakrash kuch jismoniy sifati ko'rsatkichlarini aniqlashga moljallangan mashq hisoblanadi. Olingan natijalarga ko'ra talabalarning 20 % da kuch jismoniy sifati ko'rsatkichlari "qoniqarsiz" ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu natija esa baholash mezonlari asosida "2" baho bilan baholanib, bu natijani qayd etgan talabalar nazorat sinov amaliyotidan o'ta olmaganligini anglatadi. Olib borilgan tadqiqotlar davomida "qoniqarli" natijalarni qayd etgan o'quvchilar 35 % ni tashkil etib, "3" baho bilan nazorat sinovidan o'tishdi. "Yaxshi" ko'rsatkichlarni qayd etgan o'g'il bolalardan iborat talaba yoshlar esa 25 % ni va "a'lo" baholar bilan baholanib, yuqori ko'rsatkichlarni qayd etgan talabalar 20 % ni tashkil etdi. (1- rasmga qarang)



1-rasm. O'g'il bolalardan iborat talaba yoshlarning jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari

Jismoniy tayyorgarlik darajalari qay darajada shakllanib kelayotgani navbatdagi nazorat-sinov mashqi orqali aniqlandi. Bu tanlangan nazorat sinov mashqi kuch jismoniy sifati ko'rsatkichlarini aniqlash uchun ko'maklashuvchi amaliyotdir. Kuch jismoniy sifati ko'rsatkichlarini aniqlash uchun polga tayangan holda qo'llarni bukish va yozish amaliy mashqi tanlab olindi. Ushbu nazorat-sinov mashqida o'g'il bolalardan iborat talaba yoshlarning 15 % da kuch jismoniy sifati ko'rsatkichlari "qoniqarsiz" darajada deb topildi va "2" baho bilan baholandi. Talabalarning 20 % da esa bu ko'rsatkich natijalari "qoniqarli" ko'rinishda ekanligi aniqlandi hamda jismoniy sifati darajasini baholash mezonlariga asosan "3" baho bilan baholanib borildi. O'g'il bolalardan iborat talaba yoshlarning 30 % "yaxshi" natijalarni qayd etishdi va baholash mezonlari asosida "4" baho bilan nazorat mashg'ulotini yakunlashgan bo'lsalar, kuch jismoniy sifati ko'rsatkichlari 35 % o'g'il bolalarda "a'lo" darajada ekanligini olingan nazorat sinovi natijalaridan aniqlandi va "5" baho bilan baholandi (1- rasmga qarang).

Joydan balandlikka sakrash, bu nazorat sinovi orqali kuch jismoniy sifati ko'rsatkichlari aniqlanadi va baholash mezonlariga asosan baholanib boriladi.




2-rasm. O'g'il bolalardan iborat talaba yoshlarning jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari

Nazorat sinovi jarayonida aniqlangan ko'rsatkichlar quyidagicha baholandi: unga ko'ra, 30 % talabalarda kuch jismoniy sifati "qoniqarsiz" ekanligi va 35 % talabalarda bu sifat "qoniqarli" darajada shakllanayotganligi aniqlandi. O'z navbatida ushbu ko'rsatkichlar baholash mezonlariga asosan "2" va "3" baholar bilan qayd etildi. Nazorat sinovini 20 % talabalar "yaxshi" ko'rsatkichlar bilan topshirgan bo'lsa 15 % talabalar esa yuqori "a'lo" natijalar bilan yakunlashdi. Bu ko'rsatkichlar ham baholash mezonlariga ko'ra "4" va "5" baholar bilan baholanib borildi. Nazorat sinovi yakunida esa 60 % dan ortiq o'g'il bolalardan iborat talaba yoshlarda kuch jismoniy sifati ko'rsatkichlari pastligi aniqlandi (2- rasmga qarang).

Navbatdagi nazorat sinov mashqi yugurib kelib uzunlikka sakrash amaliy mashg'uloti bo'lib, ushbu mashq talaba yoshlarining tezkor-kuch jismoniy sifati ko'rsatkichlarini aniqlash imkonini beradi. Joydan uzunlikka sakrash nazorat sinovida olingan natijalarga asosan o'g'il bolalardan iborat talaba yoshlarning 25 % da ushbu jismoniy sifat ko'rsatkichlari "qoniqarsiz" darajada ekanligi aniqlandi va baholash mezonlariga asosan "2" baho bilan qayd etildi. "Qoniqarli" natijani qayd etgan o'g'il bolalar 30 % ni tashkil etdi va "3" baho bilan baholandi. Talabalarning 25 % da tezkor-kuch jismoniy sifati ko'rsatkichlari "yaxshi" natija bilan bajarildi va "4" bahoga loyiq topildi. Ijobiy ko'rsatkichlar 20 % o'g'il bolalarda ham aniqlanib "5" baho bilan belgilandi. Ushbu nazorat sinovida olingan natijalar asosida umumiy hulosaga keladigan bo'lsak, o'g'il bolalardan iborat talaba yoshlarning tezkor-kuch jismoniy sifati ko'rsatkichlari 55 % o'quvchilarda past darajada ekanligi aniqlandi va o'sib borish ko'rsatkichlari talab darajasida emasligi o'z isbotini topdi (2- rasmga qarang).

Jismoniy rivojlanish darajalarini aniqlashga yordam beruvchi nazorat mashqi 60 m ga yugurish amaliy sinovidan iborat bo'lib, ushbu berilgan jismoniy yuklama tezkorlik jismoniy sifati ko'rsatkichlarini aniqlashga xizmat qiladi. O'tkazilgan amaliy nazorat natijalariga ko'ra o'g'il bolalardan iborat talaba yoshlarning 30 % da tezkorlik jismoniy sifati ko'rsatkichlari "qoniqarsiz" darajada ekanligi aniqlandi va "2" baho bilan baholanishdi. "Qoniqarli" natijani qayd etgan talabalar 35 % ni tashkil etdilar hamda ular "3" baho bilan baholanib nazorat sinovini yakunlashdi. O'g'il bolalardan iborat talaba yoshlarning 20 % belgilangan nazorat sinovini "yaxshi" ko'rsatkichlar bilan bajarishdi. Ularning natijalari "4" baho bilan baholandi. 15 % talabalarda bu ko'rsatkich "a'lo" darajada bajarildi va "5" bahoga loyiq topildi. Umumiy natija 65 % kurash to'garaklarida mashg'ulotda qatnashayotgan borayotgan talaba (o'g'il bola)larda tezkorlik jismoniy sifati ko'rsatkichlari past darajada ekanligi aniqlandi (2- rasmga qarang).

Jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarining keyingi bosqichi to'pni uzoqqa uloqtirish orqali amalga oshirildi. 3-rasmga berilgan diagrammada to'pni uzoqqa uloqtirish nazorat sinovida o'g'il bolalardan iborat talaba yoshlarning kuch jismoniy sifati ko'rsatkichlari qay darajada rivojlanib borish jarayonlari aks ettirilgan. Ushbu ko'rsatkich natijalariga ko'ra, talabalarning 25 % da kuch jismoniy sifati ko'rsatkichlarining "qoniqarsiz" darajada ekanligi aniqlandi, ushbu ko'rsatkich natijalari "2" baho bilan baholandi. To'pni berilgan masofaga qoniqarli darajada uloqtira olgan o'quvchilar 30 % ni tashkil etib baholash me'zonlariga ko'ra "3" baho bilan berilgan nazorat me'yorini bajarishdi. "Yaxshi" ko'rsatkichlarni qayd etgan talaba (o'g'il bola)lar 25 % ni tashkil etdi hamda "4" baho bilan qayd etildi. Yuqori natijalar esa 20 % talaba (o'g'il bola)larda ijobiy deb topildi va "5" baho bilan belgilab borildi. Yakuniy xulosa 50 % dan ortiq talabalarning kuch jismoniy sifati darajalari pastligi aniqlandi (3- rasmga qarang).



3-rasm. O'g'il bolalardan iborat talaba yoshlarning jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari

Tezkorlik jismoniy sifati ko'rsatkichlari 4x10 m.ga maksimum yugurish amaliy mashg'ulotida yanada aniqroq baholanadi. Jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari ushbu berilgan mashg'ulot davomida o'g'il bolalardan iborat talaba yoshlarning funksional holatlarini inobatga olgan holda shakllanib borishi va tezkorlik jismoniy sifatining shakllanib borishi aniqlandi. Natijalarga ko'ra, talabalarning 30 % belgilangan topshiriqni bajara olishmadi va nazorat sinovidan "2" baho bilan yiqilishdi. 35 % talabalar esa "qoniqarli" natijalar bilan "3" bahoga nazorat sinovini topshirishdi. Past ko'rsatkichlarni hisoblaganda talaba (o'g'il bola)larning 65 % da tezkorlik jismoniy sifati ko'rsatkichlari "qoniqarsiz" darajada ekanligi aniqlandi. Jismoniy sifat ko'rsatkichlarining 20 % ni "yaxshi" natijalar bilan bajargan talabalar "4" baho bilan baholandilar va yana 15 % talaba (o'g'il bola)larda ushbu ko'rsatkich "5" baho bilan "a'lo" darajada baholandi (3- rasmga qarang).

Chidamlilik jismoniy sifati ko'rsatkichlari 2000 m ga yugurish amaliyoti orqali aniqlanadi va talaba (o'g'il bola)larning tayyorgarlik darajasi ham, o'z navbatida, baholash mezonlari asosida munosib baholanib boriladi. 2000 m masofaga yugurishda talaba (o'g'il bola)lardan kuch, tezkorlik va ayniqsa chidamlilik jismoniy sifati ko'rsatkichlari ko'proq talab qilinadi. Agar talaba (o'g'il bola)larning mashg'ulot jarayonlarida olgan ko'nikma va jismoniy yuklamalari no'rin berilgan bo'lsa, talaba (o'g'il bola)larda ushbu jismoniy sifat ko'rsatkichlari "qoniqarsiz" darajada bo'ladi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, talaba (o'g'il bola)larning 25% da belgilangan masofani o'z vaqtida bosib o'ta olishmadi va "qoniqarsiz" natija bilan nazorat sinovini

34 yakunlashdi. Talaba (o'g'il bola)larning 30% da esa chidamlilik jismoniy sifati ko'rsatkichlari "qoniqarli" darajada ekanligi aniqlandi va baholash mezonlariga asosan "3" baho bilan nazorat sinovidan o'tishdi. O'g'il bolalardan iborat talaba yoshlarning 25% da samarali natijalar qayd etildi hamda ushbu natijalar "4" baho bilan baholandi. Nazorat sinovini "5" baho bilan topshirgan talabalar 20 % ni tashkil etdi. Jismoniy tayyorgarlik darajalari turli nazorat me'yorlarida turlicha natijalarni ko'rsatmoqda.

Kurash sport turining mashg'ulotlarida yuqori shiddatli yuklamalarni qo'llash o'sib kelayotgan yosh organizmniki o'ta charchashga bo'lgan extimolini oshiradi. Mashg'ulot davomida talaba yoshlarga yuklamalar hajmini kamaytirish umumiy jismoniy tayyorgarlikning pasayishiga olib keladi va sportchi organizmining mashg'ulot yuklamalariga yuqori moslashuvchanligini oshirish esa yangi sport formasi rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Talaba (o'g'il bola)larning mashg'ulot jarayonlariga individual yondashuv ularning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Oliy o'quv yurtlarida tashkil etilayotgan kurash sport turi to'garaklarining moddiy texnik bazasini yaxshilash orqali, kurash sport turi bilan shug'ullanuvchi sportchilarning, umumiy jismoniy, maxsus jismoniy, hamda texnik va taktik tayyorgarligini yaxshilashga erishish;

Kurashchi talabalarning jismoniy tayyorgarlik darajalari va kurash sport turining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib ularning baholash mezonlariga muvofiq, umumiy tayyorgarliklari va ko'rsatkichlarini aniqlash bo'yicha sinov mashqlari qatoriga kiritilgan barcha harakatlarni aniq bajara olish natijalari olindi va mezonda belgilangan tartibda ko'rsatilgan natijalariga mos ravishda baholandilar.

Qo'lga kiritilgan natijalar asosida kurashchi talabalarning umumiyjismoniy tayyorgarlik, maxsus jismoniy tayyorgarlik hamda texnik va taktik tayyorgarlik darajalarini yaxshilash bo'yicha kerakli taklif va tavsfiyalar ishlab chiqilib xulosalar ishlab chiqildi.

Oliy o'quv yurtlarida tashkil etilgan kurash va uni o'qitish uslubiyoti fani va kurash sport to'garaklarida shug'ullanuvchi talabalarining umumiy jismoniy, maxsus jismoniy, texnik va taktik tayyorgarligini yaxshilashga yordamlashuvchi yangi metod va metodikalarni ishlab chiqish va amalyotga tadbii qilish zarur;

Rivojlangan davlatlarning kurash (dzyudo, sambo va x.k)turlari bo'yicha ularning tajribasini o'rganib kurashchi talaba yoshlarning mashg'ulot dasturlariga, kerakli o'zgarish va tuzatishlar kiritish kerakligi aniqlandi;

Oliy o'quv yurtlarida tashkil etilgan kurash to'garaklarning moddiy texnik bazasini yaxshilash orqali, shug'ullanuvchi sportsilarning, umumiy jismoniy tayyorgarligini yaxshilashga erishishni taminlash zarurati borligi ma'lum bo'ldi;

Bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda kurash sport turi bo'yicha milliy terma jamoamiz tarkibiga kirish imkoniyatiga ega talaba sportchilarimiz safini kengaytirish maqsadida, Oliy o'quv yurtlarining talabalari o'rtasida kurash sport turidan talabalar ishtirokidagi sport musobaqalar sonini yanada oshirish va bu musobaqalarni yuqori saviyyada o'tkazishni tashkillashtirish zarurati bor.

Xulosa. Talaba yoshlarda tashkil etiladigan kurash mashg'ulotlari samaradorligini oshirish va kurash sport turining texnik harakatlarini o'zlashlashtirishlarida raqamli texnologiyalarni qo'llash metodikasini takomillashtirish uchun mashg'ulot dasturlarini tubdan islox qilish zarurati borligi ma'lum bo'ldi;

Talabalar uchun tashkil etiladigan kurash va uni o'qitish uslubiyoti fan dasturlari va to'garaklarining mashg'ulot rejalariga, umumiy jismoniy tayyorgarlik, maxsus jismoniy tayyorgarlik, texnik-taktik tayyorgarlik va induvidual tayyorgarliklarning yaxshilanishiga yordamlashuvchi yangi metod va metodikalarni rivojlangan davlatlardagi kurash turlari tajribasini o'rganib chiqib, yangicha yondashuv dasturini ishlab chiqish va amalyotga tadbii qilish zarur;

Kelgusida talaba yoshlar orasidan kurash sport turi bo'yicha milliy terma jamoa tarkibiga kiritiladigan sportchilar zaxirasini baytish maqsadida, talaba yoshlar orasida kurash sport musobaqalari sonini oshirish va yuqori saviyli musobaqalarni tashkillashtirish zarurati bor.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-oktabrdagi "Kurash" milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3306-sonli Qarori lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-il 5-martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5368-sonli Farmoni lex.uz
3. Абдулхаков М.Р., Трапезников А.А. Боротся, чтобы побеждают! Спорт в твоей жизни. – М.: Просвещение, 1990. – С.144
4. Абдиев А.Н. Борба. Монография. Ташкент, 2004.
5. Аккуин Д.Ю., Романцов О.В., Сыроватский Ф.Ф. – Поуровневая схема овладения техническими действиями в спортивной борьбе //Сборник научных трудов кафедры борьбы. – Челябинск: УралГАФК, 2001г. Вып - IV. С.35-42.
6. Абдуллаев Ш.А. Эркин кураш. Тошкент. Ахборот пресс. 2017.
7. Алиев И.Б. Кураш билан шуг'уланувчи талабаларнинг машғулоти юкламалари. Тошкент. 2012.
8. Астахов Л.М. Новое в методике обучения технике борьбы// Спортивная борьба: Ежегодник. – М, 1976. -С.29-30
9. Арсланов Ш.А. Кураш турлари мусобақа қоидалари. Тошкент, Истикбол. 2016.
10. Абдуллаев Ш.А. Малакали спортчиларни тайёрлашнинг илмий – услубий асослари. Услубий қўлланма. Тошкент, 2015.
11. Абдуллаев Ш.А. Эркин кураш назарияси ва услубиёти. Ўқув – услубий қўлланма. Тошкент, 2016. 25-26-Б.

Kamolov Ixtiyor Ramazonovich
Navoiy davlat pedagogika instituti
fizika va astronomiya kafedrası professori

ASTRONOMIYA DARSLARIDA QUYOSHNING ENERGETIK QUVVATINI KUNDALIK TURMUSH BILAN BOG'LAB O'QITISH METODIKASI

Annotatsiya. Maqolada yurtimizda Quyosh energetikasini rivojlantirishga alohida e'tibor berilayotganligi haqida fikr yuritilib, quyosh energetikasi istiqbollari va afzalliklari, quyosh energiyasidan foydalanishning hozirgi kundagi umumiy energiya iste'molidagi ulushi, shuningdek, muqobil energiya manbalarining umumiy xususiyatlari ochib berilgan. Quyosh energiyasidan foydalanish bo'yicha Navoiy davlat pedagogika institutida amalga oshirilgan ishlar yoritilgan.

Tayanch iboralar: Quyosh, quyosh nurlanishi, yorug'likning yutilishi, quyoshning nurlanish quvvati, quyosh energiyasi, quyosh energetikasi, quyosh panellari, elektr energiyasi, albedo, mavsumiy energiya, absorsiya, Quyoshli kun, $8\div 10$ soat, daromad.

МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ СИЛЫ СОЛНЦА В СОВОКУПНОСТИ ПОВСЕДНЕВНОЙ ЖИЗНЬЮ НА УРОКАХ АСТРОНОМИИ

Аннотация. В данной статье особое внимание уделяется развитию солнечной энергетики в нашей стране, раскрываются перспективы и преимущества солнечной энергетики, объемы использования солнечной энергии, общие характеристики возобновляемых источников энергии. Была отмечена работа, проводимая в Навоийском государственном педагогическом институте по использованию солнечной энергии.

Ключевые слово: Солнца, солнечное излучение, поглощения света, мощность солнечного излучения, солнечная энергия, солнечная энергетика, солнечные панели, электрическая энергия, альbedo, сезонная энергия, абсорбция, солнечные дни, $8\div 10$ часов, прибыль.

METHODOLOGY FOR TEACHING THE ENERGETIC POWER OF THE SUN IN THE AGGREGATE OF EVERYDAY LIFE IN ASTRONOMY LESSONS

Annotation. In this article, special attention is paid to the development of "green" energy in our country, the prospects and advantages of solar energy, the volume of solar energy use, and the general characteristics of renewable energy sources are revealed. The work carried out at the Navoi State Pedagogical Institute on the use of solar energy was noted.

Keywords: Suns, solar radiation, solar radiation power, solar energy, solar energy, solar panels, electrical energy, albedo, seasonal energy, absorption, sunny days, $8\div 10$ hours, profit.

Bugungi kunda Respublikamizda muqobil energiya turlaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda, ayniqsa, Quyosh energiyasidan foydalanish borasida. Ma'lumki, Quyosh energiyasi istiqbolli, qulay va bitmas-tuganmas (agar Quyosh shunday tarzda nurlanib tursa, u o'z massasining atigi 1% ini yo'qotishi uchun milliardlab yillar kerak bo'ladi), cheksiz energiya manbaidir, shuningdek, Quyosh energiyasi an'anaviy energiya resurslariga bo'lgan narx-navoning oshishida ham o'zining me'yoriy qiymatini saqlab qoladi. Quyosh nurlanishlari hisobiga elektr energiyasi hosil qilish uchun quyosh panellaridan tashqari qo'shimcha asbob va jihozlar, maxsus tayyorlangan inshootlar, temir yo'l shaxobchalari yoki katta ishchi kuchi talab etilmaydi. Bizning Yer sayyoramizning butun yuzasiga ($5,1 \cdot 10^8 \text{ km}^2$) kelib tushayotgan Quyosh energiyasini

1 soat to'liq elektr energiyasiga aylantira olsak edi, unda bu energiya dunyo bo'yicha 1 yilda iste'mol etilayotgan energiya miqdoriga teng bo'lardi.


Shunday ekan, bugungi kunga kelib Quyosh energiyasidan foydalanish eng maqbul va ekologik jihatdan toza energiya turlaridan hisoblanadi. Nazariy jihatdan Quyosh energiyasi atrof muhitga nisbatan zararsiz hisoblansa-da, undan foydalanish Yer sirti albedosi (yorug'likning qaytishi) ni o'zgartirish ehtimolligi ham mavjud. Hozirgi kunda Quyosh nurlanishidan olinayotgan energiya (umumiy energiyaning 3%i atrofida) ning salmog'i Yer albedosini o'zgartirish ehtimolligi yo'q, chunki Quyosh energiyasi hisobiga is'temol qilinayotgan energiya miqdori juda oz. Shuningdek, Quyosh energiyasini hosil qilishda mavsum (sutkaning o'zgarishi, yil fasllarining o'zgarishini inobatga olganda)ga qarab uning miqdori o'zgarib turishi bilan ham ajralib turadi, yoz oylarida nisbatan ko'proq, qish oylarida nisbatan kamroq. Shuningdek, quyosh panellarini o'rnatishda ham katta maydon zarur va davriy ravishda panellar yuzasini tozalab turish ham kerak bo'ladi. Masalan, 1 MW·soat quvvatga bo'lgan quyosh panellarini o'rnatish uchun taxminan 1 gektar maydon zarur. Agar panellarning bir-biriga soyasi tushmasligini inobatga oladigan bo'lsak, u holda yana ko'proq maydon kerak bo'ladi. Yuqorida bildirilgan juz'iy nuqsonlar nazariy va amaliy jihatdan hisoblangan bo'lsa-da, inson uchun zarari yo'q.

Yer sayyoramizdan 1 astronomik uzunlik birligi ($150 \cdot 10^6$ km) uzoqlikda turgan Quyosh markazidan kelayotgan yorug'lik oqimining nurlanishi unga perpendikulyar joylashgan 1m^2 yuza (Er atmosferadan tashqarida)ga $1360 \frac{\text{W}}{\text{m}^2}$ ga teng. Agar Quyosh nurlanishining Yer atmosferasi massasiga yutilishini inobatga olsak, u holda yorug'lik oqimi nurlanishi dengiz sathida 1m^2 yuzaga $1020 \frac{\text{W}}{\text{m}^2}$ (ekvator va unga yaqin joylarda) ga teng. O'rtacha yorug'lik oqimi nurlanishining sutkalik qiymati taxminan 3 marta kam bo'ladi, bunda kecha va kunduzning almashinuvi hamda Quyoshning gorizontga nisbatan turli burchak ostida bo'lishi ham sabab bo'ladi. Bundan ko'rinish turibdiki, hozirgi kunda bizda ishlatilayotgan quyosh kremniyli panellarning foydali ish koeffitsienti (F.I.K) $15 \div 20\%$ dan ortmaydi. Shuni ta'kidlashimiz lozimki, quyosh nurlanishi atmosferadan tashqari litosfera va gidrosferada ham yutiladi. Yer atmosferasi, litosferasi va gidrosferasi 1 yil davomida $3,85 \cdot 10^{24}$ Joul yorug'lik energiyasini yutadi yoki biz 3600000 Joulning 1 kW·soat ekanligini e'tiborga olsak, butun Yer shari bo'yicha yutilgan yorug'lik energiyasi $1,07 \cdot 10^{18}$ kW·soatni tashkil etadi. Bu insoniyat uchun juda katta energiya hisoblanadi.

Quyosh nurlanishining atmosferadagi absorpsiya (atmosferaning butun hajmi bo'yicha yorug'lik yutilish jarayoni, buni oddiy holda kun davomida havo haroratining oshishi va pasayishi bilan izohlashimiz mumkin) si unda suvning mutassil ravishda aylanishini ta'minlaydi va suvning aylanishi atmosferada haroratning o'zgarishi natijasida hosil bo'lgan shamol orqali boshqariladi. Shuningdek, atmosferada Quyosh nurlanishining yutilishi natijasida atmosfera haroratining ko'tarilishi va uning asta-sekinlikda sovishi Yerda kecha va kunduzgi haroratlar orasida keskin o'zgarishlar kuzatilmaydi (masalan, Oyda atmosfera qatlami yo'q, shuning uchun kunduzi $+150^\circ\text{S}$ bo'lsa, kechasi -170°S bo'ladi). Quyosh nurlanishining litosfera (quruqlikda) va gidrosfera (asosan, okean va dengizlar) dagi absorbsiyasi esa, Yer yuzasi (atmosfera) dagi o'rtacha yillik havo haroratini muvozanatda saqlaydi, bugungi kunda bu yillik harorat 287 K yoki 14°S ni tashkil etadi.

Quyosh nurlanishi quvvatini elektr energiyasiga aylantiruvchi moslamaning ishlash prinsipi quyidagicha: Quyosh nurlanishlarini elektr energiyasiga aylantirib beruvchi moslama – fotoelementlar (yarim o'tkazgichli uskuna)dan foydalaniladi. Foydalanilayotgan fotoelementlarning 85% kremniyli (Si), 10% ga yaqini kadmiy tellurli (CdTe) kristallar hissasi hisoblaniladi. Shuningdek, qolgan qismi germaniyli (Ge), indiy fosfidli (InP), galliy arsenidli (GaAs) kabi kristallar ulushiga to'g'ri keladi. Fotoelementlar birinchi marta koinotda, ya'ni sun'iy yo'ldoshlarda qo'llanilgan, keyinchalik Yer sharoitida inson ehtiyojlari uchun qo'llanilib kelinmoqda. Sun'iy yo'ldoshlarning butun elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyoji aynan Quyosh energiyasi hisobida ta'minlanadi. Fotoelement o'zida elektr maydonini hosil qiluvchi musbat va manfiy zaryadlangan qatlamlar ega. Fotoelementga tushayotgan yorug'lik oqimi (foton zarralarining oqimi) undan elektronlarni urib chiqaradi va bu elektronlar elektr maydonidan o'tib,

- 38 elektr tokini hosil qiladi. Elektr toki invertorga kelib tushganda, unda elektr energiyasi hosil qilinib manbaga uzatiladi. Manbaga elektr tokining iste'molchilari, ya'ni elektr tokida ishlaydigan barcha jihozlar (lampochna, muzlatkich, chang yutgich, televizor, radio va h.k.) ulanib, undan inson ehtiyoji uchun zarur hollarda foydalanish mumkin.



Fotoelement va unga yorug'likning tushishi

Hududlarning geografik joylashuvi ham energetik potensialga ta'sir etadi, ya'ni Yer ekvatoriga yaqin hududlar Quyosh nurlanishini ko'proq qabul qiladi, chunki bu hududlarda Quyosh nurlarinisbatan tik tushadi. Bizning O'zbekiston sharoitida bir yilga taxminan 260÷270 kun Quyoshli bo'ladi va bu quyoshli kunlar taxminan 8÷10 soatcha davom etishini inobatga olsak, Quyosh energiyasidan maksimal darajada foydalanish imkoniyatlarimiz bor. Dunyo rivojlanishining bugungi kundagi bosqichida elektr energiyasiga bo'lgan talabning ortishi, energiya narxlarining doimiy ravishda oshib borishi tufayli zamonaviy, ekologik toza, energiya tejankor texnologiyalar hamda qayta tiklanuvchi energiyalardan foydalangan holda yashil energetikani rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega. Bu borada Respublikamizda amaliy ishlar olib borilyapti va rivojlantirish borasida sa'y-harakatlar qilinmoqda.

Hukumatimiz tomonidan qabul qilingan Yangi O'zbekistonning 2022÷2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida yurtimiz miqyosida "yashil" energetikani rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilgan.

Buni inobatga olgan mamlakatimiz rahbariyati tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga Quyosh panellarini o'rnatish taklifini hamda uni jadallashtirish uchun ko'mak bermoqda. Ko'plab imtiyoz va subsidiyalar ajratilmoqda. Shuningdek, ortiqcha ishlab chiqarilgan energiya davlat tomonidan yuqori narxlarda sotib olish ishlari ham yo'lga qo'yilgan. Hozirda jismoniy shaxslarga yetkazib berilayotgan 1kW·soat elektr energiyasi 295 so'mga sotilayotgan bo'lsa, jismoniy shaxslardan Quyosh panellari, shamol, mikro GES larda ishlab chiqariladigan ortiqcha 1kW·soat elektr energiyasini davlat tomonidan kamida 10 yil davomida 1000 so'mdan kafolatli sotib olish nazarda tutilgan. Bu ishni amalga oshirish 2022 yil 10 iyundagi Prezidentimizning videoselektor yig'ilishida aytilgan edi. Agarda bitta xonadon o'z uyida 5 kW. lik Quyosh panellarini o'rnatlsa, u holda uning yordamida har sutkada 60 kW·soatgacha elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Shuning 5÷10 kW·soati xonadon ehtiyojlari uchun ishlatilsa, qolgan 50 kW·soatini davlatga sotishi mumkin. Bir yilda bu xonadon ortiqcha ishlab chiqarilgan elektr energiyasidan 18÷20 million so'm atrofida daromad qilishi mumkin va Quyosh panellarini o'rnatish uchun ketgan xarajatlar 3 yilda to'la o'zini qoplaydi (bunda 1m² quyosh panelini o'rnatish uchun zarur bo'ladigan xarajatlarni 10÷12 million so'm deb rejalashtirilgan). Qolgan yillar davomida Quyosh panellarida hosil qilingan elektr energiyasi xonadon byudjetini mustahkamlash uchun xizmat qiladi.

Hozirgi kunda Respublikamizda Quyosh panellari avvalo, yuridik shaxslarga tegishli binolarda o'rnatish ayniqsa, muhimligi va samaradorligi inobatga olingan. Jumladan, umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar maktablari, kasalxonalar, oliy ta'lim

muassasalari, dam olish va ko'ngilochar maskanlar, yoqilg'i qo'yish shahobchalari va shunga o'xshashlar.

Quyosh energiyasidan elektroenergiya hosil qilish borasidagi ishlar Navoiy davlat pedagogika institutida ham jadal olib borildi, natijada 2022 yilning oxiriga qadar mavjud institut binolarining tomlarida 350 kW lik quyosh panellarini o'rnatdi. O'rnatilgan 1 kW. lik Quyosh panellari taxminan $5\div 6$ m² maydonni egallashini inobatga olsak, umumiy holda 2000 m² ga yaqin maydonni egallagan fakultetlar o'quv binolarining, jumladan talabalar turar joylari binolarining ham tom qismlarida Quyosh panellari o'rnatildi. Quyosh panellari o'rnatishda asosan, Quyoshning kun davomida asosiy tushish burchaklari inobatga olingan. Agar bu burchak Quyosh harakatiga moslashtirilsa (harakatdagi Quyosh panellari nazarda tutilganda), yanada ko'proq energiya olish imkoniyatlari mavjud. Bu ishni amalga oshirish uchun ham qo'shimcha uskunarlar zarur bo'ladi. Yana institut bosh binosi, xorijiy tillar, rus va qozoq tillari, tabiatshunoslik fakultetlari va Texnologik ta'lim o'quv ishlab chiqarish ustoxonasining ichki bino atroflarida yoritish tizimlari ham quyosh panellari hisobiga qoplandi.



Quyosh panellari

Navoiy davlat pedagogika institutida o'rnatilgan Quyosh panellari to'g'risida ma'lumot

№	Quyosh paneli o'rnatilgan manzil nomi	Quyosh paneli soni	Quyosh paneli quvvati	Quyosh paneli umumiy yuzasi
1	Institut bosh binosi	94	50	240 m ²
2	Tarix fakulteti binosi	56	30	143 m ²
3	Fizika-texnologiya fakulteti binosi	75	40	191 m ²
4	Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti binosi	93	50	237 m ²
5	Chet tillar fakulteti binosi	94	50	240 m ²
6	Tabiiy fanlar va jismoniy madaniyat fakulteti binosi	75	40	191 m ²
7	1-TTJ binosi	56	30	143 m ²
8	2-TTJ binosi	56	30	143 m ²
9	3-TTJ binosi	56	30	143 m ²
Jami:		655	358	1671 m²

1 dona Quyosh panelining o'lchami (2,25x1,13) metr bo'lsa, uning yuzasi 2,55m² ni tashkil etadi.

Institutda o'rnatilgan 350 kW. lik Quyosh panellari hisobidan 2023-yilning birgina yanvar oyida 32000 kW·soat elektr energiyasi ishlab chiqarildi.

Institut bo'yicha 2023-yil yanvar oyida iste'mol qilingan elektr energiyasi 44000 kW·soat ni tashkil etdi va iste'mol qilingan elektr energiyasining 75% ga yaqini quyosh panellarida olingan energiya hisobiga qoplandi. Bir oy davomida quyosh panellarida olingan energiya, belgilangan me'yorlardan ancha kam. Bunga asosiy sabab, qishda Quyoshli kunlarning kamligi hisoblanadi. Shuningdek, 2 haftalik talabalar ta'tilini inobatga oladigan bo'lsak, iste'mol qilingan elektr

40 energiyasining miqdori ham oz. 2023-yilning fevral oyi davrida esa 31380 kW·soat elektr energiyasi yuqorida aytilgan quyosh panellari hisobida ishlab chiqarildi. Ishlab chiqilgan energiyaning yanvar oyiga nisbatan kamligini, fevral oyining 3 kunga qisqaligi bilan izohlashimiz mumkin. 2023-yilning mart oyi davrida bu Quyosh panellari hisobidan 51000 kW·soat elektr energiyasi ishlab chiqarildi. Bu natijaning yuqoriligi mart oyida quyoshli kunlarning nisbatan ko'p bo'lganligi bilan izohlaymiz, 2023-yilning aprel oyida esa 59000 kW·soat, 2023 yilning may oyi davomida esa 69560 kW·soat, 2023-yilning iyun oyida 64580 kW·soat elektr energiyasi ishlab chiqildi. Iyun oyida o'rnatilgan 40 kW. lik panelning Quyoshga nisbatan aniq burchak ostida joylashtirish ishlari olib borilganligi sabab panelning ishlashi vaqtincha to'xtatilgan edi. Quyosh panellarining amalda ishlab chiqarishi nazarda tutilgan qiymatlarga tobora yaqinlashayotganligidan dalolat beradi. Dastlabki 6 oy davomida minimal yillik energiya ishlab chiqishning 59%i ishlab chiqarilgan. Demak, quyosh panellarida olinishi rejalashtirilgan energiya ishlab chiqarilishi ta'minlangan. Institutda 2023-yilning iyul oyidan qo'shimcha 150 kW. lik panellar ishga tushadi.

Keyingi oylarda panellarning bundan-da ko'proq elektr energiyasi ishlab chiqarishi prognoz qilinyapti. Agar o'tgan 2022-yilda institut bo'yicha 1 million 20 ming kW·soat elektr energiyasi iste'mol qilinganini inobatga olsak, institut bo'yicha yana qo'shimcha ravishda 100 kW.lik quyosh panellarini o'rnatish zarur bo'ladi, shundan so'ng institutning elektr energiyasiga ehtiyoji to'la qoplanadi.

Dastlabki yarim yilda quyosh panellarida olingan real elektr energiyasining hisobotini biz quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin:

№	Elektr energiyasi ishlab chiqarilgan vaqt (oylar)	Oylar kesimida ishlab chiqarilgan elektr energiya (kW·soat)	Yillik elektr ishlab prognozi, (kW·soat)	minimal energiya chiqarish	Reja ijrosi (% da)
1	Yanvar (2023 yil)	32000			6,1
2	Fevral(2023 yil)	31380			6
3	Mart (2023 yil)	51000			9,7
4	Aprel (2023 yil)	59000			11,2
5	May (2023 yil)	69560			13,25
6	Iyun (2023 yil)	64580			12,3
Jami		307520	525000		

Bir yilda O'zbekiston bo'yicha 10 milliard dollarlik elektr energiyasi va gaz iste'mol qilinishini e'tiborga olsak, bu bajarilgan ishlar ilk qadamlar bo'lib, hali rivoj topishi kerak.

Quyidagi jadvalda Quyosh panellari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan:

№	Quyosh paneli quvvati	Quyosh panelining egallagan maydoni, (m ²) larda	Yillik ishlab chiqaradigan elektr energiyasi prognozi
1	5 kW·soat	30÷60	7500÷12500
2	10 kW·soat	60÷120	15000÷25000
3	20 kW·soat	120÷240	30000÷50000
4	30 kW·soat	180÷360	45000÷75000
5	40 kW·soat	240÷480	60000÷100000
6	50 kW·soat	300÷600	75000÷125000
7	100 kW·soat	600÷1200	150000÷250000
8	200 kW·soat	1200÷2400	300000÷500000
9	300 kW·soat	1800÷3600	450000÷750000
10	400 kW·soat	2400÷4800	600000÷1000000
11	500 kW·soat	3000÷6000	750000÷1250000

450 kW.lik quyosh panellarining umumiy yillik elektr energiyasini ishlab chiqarish quvvati 1,1 million kW·soat. ga teng bo'lishini e'tiborga olsak, u holda 2023-yilda institutning elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyoji to'la quyosh panellari hisobida olingan energiya hisobida qoplanadi va orttirilgan energiya institut byudjetiga qo'shimcha mablag' sifatida tushiriladi.

Quyosh energiyasining iste'moli, uni qayta ishlash va tarqatish usullariga ko'ra Quyosh tizimlari ikki turga bo'linadi: faol (Quyosh energiyasini foydali energiyaga aylantiruvchi tizimlar) va passiv (inshoot va binolarning Quyosh tushishiga nisbatan qurilishi, dizayn va h.k.). Faol tizimlar elektr ta'minotini oshirishga xizmat qilsa, passiv tizimlar energiyaga bo'lgan ehtiyojni kamaytirishga xizmat qiladi. Quyosh tizimlarining bu ikki turini bilish insonlar uchun o'ta muhim hisoblandi, chunki uy-joy, issiqxonalar qurishda ular inobatga olinishi zarur bo'ladi. Shu tarzda barpo etilgan bino va inshootlar insoniyatning energiyaga bo'lgan ehtiyojini ma'lum darajada kamaytiradi.

Hozirda zavodlarda ishlab chiqarilayotgan quyosh panellariga berilayotgan 25 yillik kafolat muddatlarini e'tiborga olganda, bu yo'nalishda elektr energiyasi olish ekologik jihatdan zararsizligi bilan birgalikda, yetarlicha istiqbolli ham hisoblaniladi va bu boradagi ishlarni yanada rivojlantirish zarur bo'ladi. Buning uchun biz astronomiya darslarida talabalarga ma'lumotlarni to'g'ri tushuntirishni yo'lga qo'yishimiz va uning afzalliklari amaldagi tadbirga bilan aytilishimiz zarur, shunda darslar yanada mazmunli bo'lib o'tadi.

Adabiyotlar

1. Камолов И.Р., Камалова Д.И., Сайфуллаева Г.И., Сатторов А.Р., Тиллабоев А.М. «Умумий астрономиядан амалий машғулотлар», дарслик. Тилсим нашриёти, Тошкент, 2023.
2. Алексеев В.В., Чекарёв Л.В. Солнечная энергетика. Москва, Знание, 1991.
3. Сибикин Ю.Д., Сибикин М.Ю. Нетрадиционные возобновляемые источники энергии: Учебное издание. – М., 2008.
4. Камолов И.Р., Камалова Д.И., Сайфуллаева Г.И., Баракаева С.Т., Саттарова Б.Д. «Астрономия курсидан амалий машғулотлар» (Астрофизика) ўқув қўлланма. Тилсим нашриёти, Тошкент, 2023.
5. Камолов И.Р., Камалова Д.И., Канатбаев С.С., Бисенова Б.Т., Сайфуллаева Г.И. «Жалпы астрономия», дарслик. Тилсим нашриёти, Тошкент, 2023.
6. Қуёш энергиясидан фойдаланиш имкониятлари. NSPI.UZ сайти.
7. Инновацион ривожланишнинг муҳим омили. Дўстлик байроғи газетаси, 2023 йил 2 март 9-сони (4117).

Abdullayeva Feruza Nurilloevna

Buxoro davlat pedagogika instituti
boshlang'ich ta'lim kafedrası dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA BADIY ASARLARNI O'RGATISHDA FANGA OID KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: Maqolada ona tili va o'qish savodxonligi darslarida badiiy asar o'rgatishda o'quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirish xususida so'z boradi. Butun dunyoda ta'lim sohasida turli xil islohotlar olib borilmoqda. O'z navbatida o'qish savodxonligi darslarida hukumatimiz tomonidan ta'lim sifatini oshirishda sinergetik yondashuvni joriy etilishi ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqolada shu haqda so'z yuritamiz.

Kalit so'zlar: o'qish savodxonligi, sinergetika, ta'lim tizimi, badiiy asar, kompetensiya, pedagogik texnologiya, STEAM.

РАЗВИТИЕ НАУЧНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ИСКУССТВА НА УРОКЕ ПО ГРАМОТНОСТИ ЧТЕНИЯ НА ОСНОВЕ СИНЕРГЕТИЧЕСКОГО ПОДХОДА

Аннотация: В статье говорится о развитии научно-технических компетенций, которые формируются у учащихся в ходе обучения художественным произведениям на занятиях родного языка и читательской грамотности. Во всем мире в сфере образования проводятся различные реформы. С другой стороны, также важно, чтобы наше правительство внедрило синергетический подход к повышению качества образования на уроках грамотности чтения. Об этом мы поговорим в этой статье.

Ключевые слова: читательская грамотность, синергетика, система образования, художественное произведение, компетентность, педагогические технологии, STEAM.

DEVELOPMENT OF SCIENTIFIC COMPETENCIES WHEN TEACHING WORKS OF ART IN A READING LITERACY LESSON BASED ON A SYNERGIC APPROACH

Abstract: The article talks about the development of science-related competencies that are formed in students during the teaching of artistic works in the classes of mother tongue and reading literacy. Various reforms are being carried out in the field of education all over the world. On the other hand, it is also important that our government introduces a synergistic approach to improving the quality of education in reading literacy classes. We will talk about this in this article.

Key words: reading literacy, synergetics, educational system, artwork, competence, pedagogical technology, STEAM.

Yurtimizda turli islohotlar bo'lib o'tdi. Shular qatorida ta'lim tizimimizda ham turli o'zgarishlar bo'ldi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim darsliklarining yangilanishi va ularga yangicha yondashuv yangi ulg'ayib kelayotgan yosh avlodning ongi va dunyoqarashiga keng ta'sir qilishi aniq. O'qish savodxonligi darsliklarining o'zgarishi nafaqat o'quvchilar balki o'qituvchilar uchun ham katta izlanishlarga sabab bo'ldi. Hozirda biz o'qish savodxonligi darslarida berilgan badiiy asarlar ustida ishlash jarayonidamiz. Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darsliklarida badiiy asarlarga keng o'rin ajratilgan.

O'qish darslarining maqsadi o'qish malakalarini takomillashtirish, kitob tanlay oladigan, muntazam kitob o'qiydigan, o'qilgan kitobni to'g'ri baholay oladigan ongli kitobxonni tarbiyalashdir.

2021-2022-o'quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich tajriba sinovdan o'tkazilib, 2026-2027-o'quv yiliga qadar to'liq amaliyotga joriy etilishi rejalashtirilgan Milliy o'quv dasturi asosida boshlang'ich sinflarning ham darsliklari to'liq yangilanmoqda. Avvalgi yillarda o'qitilgan "Ona tili" va "O'qish" fanlari, Ona tili, o'qish savodxonligi deya o'zgartirildi. Bu o'zgarishlar bejizga emas, albatta. Chunki rivojlangan davlatlarning taraqqiyoti faqat ta'limga kuchli e'tibor qaratilganligi uchun yuqorilab bormoqda.

Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqshga tenglanadi. Naqsh mahorat bilan ishlanishi yoki aksincha bo'lishi mumkin. Shu bois oilada farzand dunyoga kelishi hamonoq uning ta'lim-tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratiladi. Mamlakat kelajagining bunyodkori sanalmish yoshlarning ta'lim olishida darsliklarning xizmati beqiyos.

Badiiy asarlar mustaqil ravishda va izchil o'qib borilsagina, o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish va kengaytirishga xizmat qiladi. Atoqli rus yozuvchisi V.A.Suxomlinskiy shunday deb yozgan edi: "Mening pedagogik e'tiqodimning haqiqatlaridan biri bu kitobning tarbiyaviy kuchiga cheksiz ishonchdir. Maktab – bu avvalo kitob. Kitob – kuchli qurol. Ilhomlantiruvchi kitob ko'pincha inson taqdirini hal qiladi. O'qish ta'limning ajoyib vositasi bo'lib xizmat qiladi: u ko'p narsani o'rganish, bilish va bajara olish istagini rivojlantiradi."

O'qish sinf bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanadi. O'qish tanish bo'lmagan mualliflarning kitoblari muqovasi, titul varag'i, kirish so'zi, mundarijasi va suratlariga qarab asarning taxminiy mazmunini aniqlashga o'rgatish vazifasini amalga oshirishga xizmat qiladi. Milliy o'quv dasturida asarni o'qish jarayonida egallanishi lozim bo'lgan kompetensiyalar ko'rsatib o'tilgan. O'quvchilar o'qish savodxonligi darsida asarni quyidagilarga rioya qilib o'qisa anglash ko'nikmasini o'zida jamlaydi:

- matnlarni og'zaki talaffuz me'yorlariga amal qilgan holda to'g'ri, ravon va ifodali o'qish;
 - o'quv dasturida tavsiya qilingan matnlardagi so'z, so'z birikmasi, ibora va sodda gaplarning mohiyatini anglash;
 - matnning ma'lum qismini o'qib, uni mantiqan davom ettirish, matn mazmuniga mos keladigan sarlavha topish;
 - matnning asosiy mohiyatini aniqlay olish, matn yuzasidan savol, taklif va tavsiyalar bera olish;
 - ertak, hikoya, rivoyatlarning asosiy g'oyasini, axloqiy jihatini aniqlash, ertak qahramonlari nutqini obrazga kirib o'qiy olish;
 - tinglangan audiomaterialni og'zaki aytib bera olish va matn ko'rinishida yozib bera olish;
 - tinglangan materialga mos rasm, chizma, belgi va shakllarni tanlash va izohlay olish.
- O'qish darslarining asosiy vazifasi o'quvchida badiiy kitoblarni o'qishga havas uyg'otish, nutq o'stirish, o'qigan kitoblari yuzasidan kundalik yurita olishga o'rgatish, bolalar adabiyotining mashhur adiblari hayoti va ijodi bilan elementar tarzda tanishtirish hisoblanadi.

Bolalarda ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg'otish, ularning bog'lanishli nutqini o'stirish, adabiy-estetik tafakkurini yuksaltirish o'qish darslarining tub mohiyatini tashkil etadi.

Ona tili va o'qish darslarining **muhim vazifalaridan biri mustaqil o'qish malakalarini tarbiyalash** hisoblanadi. Buning uchun mustaqil bajarish uchun topshiriqlar berish, qiziqarli mashq turlaridan foydalanish, eng yaxshi insholarni, taqrizlarni, yozuvchi haqida to'plangan ma'lumotlarni o'qitish, „Tez aytish“, „Topishmoqlar topish“, „Ifodali o'qish“, „Maqollar aytish musobaqasi“, „Ertak to'qish“, „Bilimdonlar anjumani“ kabi ko'rik-tanlovlar tashkil qilish, muayyan mavzular bo'yicha savol-javoblar uyushtirish, o'yin tarzidagi ish turlaridan foydalanish zarur. O'qilgan asarlar yuzasidan suhbatlar o'tkazish, „Kitob haftaligi“ tashkil etish, asarlar asosida kichik insholar yozishni mashq qilish yaxshi samara beradi.

O'quvchilarga badiiy asarlarni o'rgatish, ularda nutq malakalarini shakllantirish, nutq o'stirishni nazarda tutadi.

Sinergetik yondashuv ta'lim faoliyatida o'z-o'zini tarbiyalash, o'zini o'zi tashkil etish va o'zini o'zi boshqarish ustunligiga asoslanadi va o'z-o'zini ochib berish va takomillashtirish, o'z-o'zini anglash maqsadida mavzuga ta'sirni rag'batlantirishdan iborat. Shunday qilib, "pedagogik sinergetika" deb nomlangan pedagogik bilimlarning yangi yo'nalishi paydo bo'ldiki, bu ta'lim

44 tizimlarini o'z-o'zini tashkil etish va rivojlantirish qonuniyatlari bilan asoslanadi. Pedagogik sinergetika o'zini o'zi aniqlash va shaxsni rivojlantirish muammolarini rivojlanishiga ochiqlik, birgalikdagi ijod va o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirilganlik nuqtai nazaridan yangicha yondashishga imkon beradi. Dunyoni sinergetik anglash insonni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega: sinergetik fikrlash usuli ochiqlik, dialogizm va muloqot bilan ajralib turadi. Sinergetika ota-onalarni virtual-pedagogik jarayonning subyekti sifatida inson hayotining eng murakkab ichki qonuniyatlarini o'rganishga yo'naltiradi.

O'qish darslari uzviy bog'liq ravishda uyushtiriladi. Sinfda o'qish sinfdan tashqari o'qish uchun zarur bo'lgan o'qish malakalarini shakllantiradi, o'quvchilarni o'qigan asarini tushunishga o'rgatadi, lug'atini boyitadi. O'qish qiziqarli va o'ziga jalb etadigan faoliyat bo'lib, bolalarning bilim doirasini boyitadi, qiyoslash uchun material beradi. Sinfda o'qish - hayotga tayyorlash vositasi, sinfdan tashqari o'qish esa hayotning o'zidir.

Sinfda o'qishni tashkil qilish o'qituvchining zimasiidagi vazifa hisoblanadi. Bunda o'quvchi uni bosqichlarga ajratib tashkil qiladi. Sinfda o'qish darslari o'quvchilarda mustaqil kitob tanlash va o'qish malakalarini ham shakllantiradi.

"Kompetensiya" so'zi tarjimada "layoqatli", "munosib bo'lmoq" kabi ma'nolarni anglatuvchi lotincha "competere" so'zi asosida hosil bo'lgan. "Kompetensiya" deyilganda, shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi tushuniladi. Ushbu uslubiy qo'llanmani yozishdan maqsad – talabalarni pedagogik kompetentlikning ilmiy-nazariy asoslari, kompetentlik tushunchasining mazmun-mohiyati va ta'limdagi innovatsion jarayonlar tizimida o'qitish va tarbiyalashda kompetentlikka nisbatan chuqur pedagogik-psixologik tayyorgarlikni shakllantirish dan iborat. Boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligi darslarida fanga oid kompetensiyalar quyidagilar:

FK1 – adabiy - nutqiy kompetensiya

Adabiy-nutqiy kompetensiya elementlari (tinglab tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish, o'qish, fikrni yozma bayon qilish) hikmatli gap, hikoya, sher, va ixcha audio matnlarni tinglab tushuna oladi; ularni ongli, ifodali tog'ri o'qiy oladi, o'zbek tilida nutq tovushlarini to'g'ri qo'llay oladi, talaffuz me'yorlariga rioya qila oladi, bo'g'in ko'chirish qoidalariga rioya qila oladi, bo'g'in ko'chirish qoidalariga rioya qila oladi, o'zlashtirgan leksik birliklarni matnda qo'llay oladi, tinish belgilarini to'g'ri qo'llay oladi.

Nodavlat umumta'lim muassasalari, o'quv va o'quv-metodik adabiyotlarni nashr etish hamda boshqa xalq ta'limi sohalari faoliyatini tartibga soluvchi normativ huquqiy baza rivojlantiriladi. Bolalarni umumta'lim muassasalariga qabul qilish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatish reglamenti tasdiqlanishi lozim.

Yangi davlat ta'lim standartlari va umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturlarini, shu jumladan STEAM usulini bosqichma-bosqich joriy etish va takomillashtirish ko'zlangan. Xalq ta'limi muassasalari ilg'or jahon tajribasiga tayanib, ta'lim sifatini takomillashtiradilar.

Ta'lim sifatini oshirish uchun uning holati va rivojlanish tendentsiyalarini uzluksiz monitoringini olib borish va o'quvchilarning o'quv yutuqlarini ob'ektiv va adekvat baholashni amalga oshirish zarur. Bu ayniqsa, o'quvchilarning keyingi shaxsiy va fuqarolik rivojlanishi uchun zamin yaratadigan umumiy o'rta ta'lim darajasida muhim ahamiyatga ega.

Bolaning tafakkuri, ijodiyligi, tanqidiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim tizimida boshlang'ich sinfni tugatayotgan har bir o'quvchi shaxsiga bir qancha zamonaviy, shu jumladan, uning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi nuqtayi nazaridan yangi talablarni qo'yadi. Binobarin, o'qitishning maqsadlari, vazifalari, mazmuni, uslublari va usullarini qayta ko'rib chiqqan holda ishlab chiqilgan yangi milliy dasturning qabul qilinishi bu boradagi ishlarning samarasini oshirishda asosiy dasturulamal bo'lib, o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, aqliy va ijodiy salohiyatining yanada yuqori bo'lishida xizmat qiladi.

Yangi tahrirdagi milliy o'quv dasturga ko'ra nashr qilingan o'qish savodxonligi darsliklarining joriy qilinishi o'quvchi va o'qituvchining faolligini oshirishni, o'z ustida tinimsiz ishlashni, o'quv topshiriqlarni ijodiy yondashgan holda bajaritirish va bajarishni nazarda tutadi.

Shunday ekan, sinergetik yondashuv asosida o'qish savodxonligi darslarida badiiy asarlarni o'qitilishi o'quvchilarning fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan, diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish, to'g'ridan-to'g'ri o'zi mustaqil xulosalar chiqarish, matn elementlarini tanqidiy baholash, g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish malakalarini shakllantiradi. O'quvchilarga badiiy asarlarni o'rgatish, ularda nutq malakalarini shakllantirish, nutq o'stirishni nazarda tutadi.

Adabiyotlar

1. Abdullayeva F. Ta'lim tizimi sifatini oshirishda pisa va timss kabi xalqaro tadqiqotlarning roli //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.
2. Nurillayevna A. F. Teaching Scientific Popular Articles in Mother Nili and Reading Literacy Courses //European journal of innovation in nonformal education. – 2022. – Т. 2. – №. 3. – С. 47-50.
3. Abdullayeva F. Methodological possibilities of organization of primary school technology lessons with pedagogical technologies //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
4. Nurullayevna, A. F. (2022). Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida ilmiy ommabop maqolalarni o'rgatish. *barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali*, 2(4), 406-409.
5. Курбанова, Ш. Н., Абдуллаева, Ф., & Очилова, Г. О. (2021). Педагогическая технология–целостная система образовательного процесса. *новые педагогические исследования: сборник статей IV*, 20.
6. Qurbonova S. N., Abdullayeva F. Tarbiya darslarida interfaol metodlardan foydalanish //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 1030-1035.
7. Абдуллаева, Ф. Н. (2022). Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida ilmiy-ommabop maqolalarni o'rgatishning metodik imkoniyatlari: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.9.09.034> Abdullayeva Feruza Nurilloevna Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (9), 243-246.
8. Abdullayeva Feruza, N. (2022). Start Methodological Options for Teaching Scientific and Popular Articles in First Grade Mother Tongue and Reading Literacy Classes. *International Journal of Trend in Scientific Research and Development*, 6(6), 1433-1436.
9. Nurilloevna, A. F. (2022). General Structure of Teaching Courses of Popular Scientific and Artistic Articles on the Theme of the Seasons of the Year. *Web of Scholars: Multidimensional Research Journal*, 1(6), 1-5
10. Nurillayevna, A. F. (2023). Use of new pedagogical technologies in mother language and reading literacy lessons. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(5), 5-9.
11. Nurillayevna, A. F., & Muhammadjonovna, S. E. (2023). Ona Tili Va O'qish Savodxonligi Darslarida Matn Ustida Ishlashda Pirls Topshiriqlaridan Foydalanish. *Academic Integrity and Lifelong Learning (France)*, 215-219.
12. Nurillayevna, A. F., & G'anijonovna, Q. M. (2023). Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish. *Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects (Spain)*, 181-184.
13. Abdullayeva, F. (2023). Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida ilmiy ommabop maqolalarni o'rgatish. *центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 28(28).
14. Nurillayevna, A. F. (2023). Methodological Basis of Development of Science-Related Competences In Teaching Works of Art in Primary Classes Based On Synergic Approach. *International Journal of Formal Education*, 2(10), 61-66.

Saidova Muhabbat Shukrullayevna
Namangan davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

YANGI AVLOD ONA TILI DARSLIKLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING DIDAKTIK YECHIMLARI

Annotatsiya: maqolada darsliklarning afzalliklari va kamchiliklarini o'qituvchining bilishi, o'quv jarayonida uning yutuqlaridan unumli foydalanib, kamchiliklarini to'ldirishi, darsliklarni takomillashtirish bo'yicha taklif hamda tavsiyalar bera olishi, o'quvchilarni darslik matnidan zarur joyni tez topa bilishga o'rgatishi, darslikning yetakchi komponenti bo'lgan matn xususida, "Ona tili" fani darsligi bilan ishlashda qo'llaniladigan innovatsion ta'lim texnologiyalari, yangi avlod ona tili darsliklaridan samarali foydalanishning didaktik yechimlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: darslik, o'quv jarayoni, darsliklarni takomillashtirish, darslik matni, innovatsion ta'lim texnologiyalari, yangi avlod ona tili darsliklari, didaktik yechimlar.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ РЕШЕНИЯ ДЛЯ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ УЧЕБНИКОВ РОДНОГО ЯЗЫКА НОВОГО ПОКОЛЕНИЯ

Аннотация: в статье будет освещать о учителя которых должен знать достоинства и недостатки учебников, эффективно использовать свои достижения в учебном процессе, восполнять их недостатки, уметь вносить предложения и рекомендации по совершенствованию учебников, учить учащихся быстро находить необходимые место в тексте учебника, о тексте, который является ведущим компонентом учебника, учебнике по науке «Родной язык», выделены инновационные образовательные технологии, используемые в работе, дидактические решения эффективного использования учебников родного языка нового поколения.

Ключевые слова: учебник, учебный процесс, совершенствование учебников, текст учебника, инновационные образовательные технологии, учебники родного языка нового поколения, дидактические решения.

DIDACTIC SOLUTIONS FOR THE EFFECTIVE USE OF NEW GENERATION MOTHER LANGUAGE TEXTBOOKS

Annotation: the article will highlight the teachers whose teachers should know the advantages and disadvantages of textbooks, effectively use their achievements in the educational process, make up for their shortcomings, be able to make suggestions and recommendations for improving textbooks, teach students to quickly find the necessary place in the text of the textbook, about the text that is the leading component of the textbook, the textbook on science "Mother tongue", highlights the innovative educational technologies used in the work, didactic solutions for the effective use of new generation native language textbooks.

Keywords: textbook, educational process, improvement of textbooks, textbook text, innovative educational technologies, new generation native language textbooks, didactic solutions.

Kirish. Ta'limni isloh qilishda boshqa vazifalar qatori ta'lim muassasalarining o'quv-metodik va axborot-adabiyot bazasini yangilash hamda mustahkamlash, xususan, darsliklarning yangi avlodini yaratish talab etiladi. Mamlakatimizda mustaqillik yillarida ta'limdagi islohotlar

qatorida ta'lim muassasalarining o'quv-metodik bazasini yangilash va mustahkamlash bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi.

Adabiyotlar tahlili. Bugungi kundagi ta'lim muassasalarini zarur darsliklar va adabiyotlar bilan ta'minlash, bu ishga yirik olimlar, yuqori malakali mutaxassislarini jalb etish, ta'lim va ilmfan sohasining nashriyot bazasini rivojlantirish vazifasi qo'yildi.

Darslik – muayyan o'quv fani bo'yicha ta'lim maqsadi, o'quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy bilimlar to'g'risida ma'lumot beruvchi manba bo'lganligida milliy ta'lim tizimimizning rivojlanish dinamikasi, taraqqiyot bosqichlari, yutuq va kamchiliklarini aniqlash hamda baholash imkoniyatini beradi. Yaratilayotgan yangi darsliklar millat fikri, millat tafakkuri va millat mafkurasining eng ilg'or namunalarini aks ettirishi kerak. Darslik o'quv fani mazmuninigina emas, balki bilimlarni o'zlashtirish darajasini va tushuntirish metodlarini ham aks ettirishi zarur. Darslik o'quvchilarning tafakkuri va tasavvurini shakllantirishi, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatishi, fan asoslarini real hayot bilan bog'lanishini amalga oshirishi, hozirgi zamonning asosiy muammolarini tushunishida ko'maklashishi kerak. Keyingi paytlarda nafaqat texnik sohasi, balki gumanitar fanlar sohasida ham zamonaviy innovatsiyalar hamda ta'limdagi yondashuvlarning roli va ahamiyati, yondashuvlarning ta'lim sifatini oshirishdagi nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish va undan foydalanishni darslik asosida mukammal yo'lga qo'yish borasida pedagog olimlarimiz ilmiy tavsiyalar berib kelmoqdalar.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada darsliklarning afzalliklari va kamchiliklarini o'qituvchining bilishi, o'quv jarayonida uning yutuqlaridan unumli foydalanib, kamchiliklarini to'ldirishi, darsliklarni takomillashtirish bo'yicha taklif hamda tavsiyalar bera olishi, o'quvchilarni darslik matnidan zarur joyni tez topa bilishga o'rgatishi, darslikning yetakchi komponenti bo'lgan matn xususida, "Ona tili" fani darsligi bilan ishlashda qo'llaniladigan innovatsion ta'lim texnologiyalari, yangi avlod ona tili darsliklaridan samarali foydalanishning didaktik yechimlari yoritiladi.

Tahlillar va natijalar. Tahlillar o'qituvchining darsliklarning afzalliklari va kamchiliklarini bilishi, o'quv jarayonida uning yutuqlaridan unumli foydalanib, kamchiliklarini to'ldirishi, darsliklarni takomillashtirish bo'yicha taklif hamda tavsiyalar bera olishi lozimligini ko'rsatmoqda. Darsliklarni tahlil va taqriz qilish, kamchiliklarini aniqlashdan asosiy maqsad uning ta'lim jarayonini yaxshilash, takomillashtirishga qay darajada ta'sir ko'rsatishi hamda o'qituvchi va o'quvchining darslik bilan ishlashiga yordam berishdir. Chunki, darslik yaratish nazariyasi ayni vaqtda muayyan darajada ta'lim nazariyasi hamdir. U mazmuni, tuzilishiga ko'ra o'quv dasturiga mos keladi. O'qitish vositalaridan biri sifatida darslik ta'lim mazmuniga qo'yiladigan barcha talablarga javob bera olishi, ma'lumotlar o'quvchilar uchun qiziqarli, iloji boricha qisqa, tushunarli, ko'rgazmali, estetik xususiyatga ega bo'lishi bilan birga quyidagi didaktik vazifalarni bajaradi: rag'batlantirish (o'quvchilarni fanni o'rganishga yo'naltirish, ularda fan asoslarini o'zlashtirishga nisbatan ijobiy munosabat va qiziqishni shakllantirish); axborot uzatish (o'quvchilarga axborotlarni yetkazish, samarali usullar yordamida ularning bilimlari hajmini kengaytirish); nazorat-tuzatish (mashq qilish; ta'lim jarayoni, uning natijalarini tekshirish, o'quvchilarda o'zini baholash, tuzatish layoqati va zarur ko'nikma, malakalarni shakllantirish uchun mashqlarini tavsiya etish); muvofiqlashtirish (material ustida ishlash jarayonida ta'limning boshqa vositalari (xaritalar, ko'rgazmali materiallar, diapozitiv va h.k.)ni jalb etish); rivojlantirish-tarbiyalash (darslik mazmunining o'quvchilarga ma'naviy-axloqiy ta'sir ko'rsatishi, kitoblar bilan ishlash jarayonida ulardan mehnatsevarlik, faol fikrlash, ijodiy qobiliyat kabi sifatlarni shakllantirish); o'qitish (darslik bilan ishlashda mustaqil bilim olish uchun zarur bo'lgan konspekt yozish, umumlashtirish, asosiysini ajratib ko'rsatish, mantiqiy eslab qolish kabi malakalarni rivojlantirish). Darslikni yaratishda quyidagi shartlar inobatga olinishi lozim:

1. Har bir o'quv predmeti uchun yaratiladigan darslikda ilmiy bilimlar tizimi, uning hajmi tegishli o'quv dasturi talablariga va u mo'ljallangan o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelishi kerak.

2. Darslikda bayon qilingan ilmiy bilimlar nazariy, g'oyaviy jihatdan tizimli, izchil, keltirilayotgan dalil, isbotlar ishonchli bo'lishi, ular to'g'ri tahlil qilinishi, aniq ta'rif etilishi,

48 mavzular yuzasidan zarur xulosalar chiqarilishi asosida ta'lim oluvchilarda dunyoqarash, ma'naviy-axloqiy sifatlar hamda e'tiqodni tarbiyalay olishi lozim.

3. O'quv darsliklarida bayon etilayotgan bilimlar amaliyot bilan bog'lanishi, jamiyat hayotining barcha – ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy sohalarida erishilgan yutuqlarni tavsiflaydigan dalillar bilan boyitilishi, ularning tahlili bilan asoslanishi zarur.

4. Darsliklarda bayon qilinayotgan mavzular o'quv materialining xarakteriga bog'liq holda tegishli qoida va ta'riflar berilishi, dalillar keltirilishi, ba'zi materiallar rasm, surat, sxema, diagramma va b. tasvirlar bilan boyitilishi maqsadga muvofiqdir.

5. Bayon qilinayotgan materiallar o'quvchilarga tushunarli bo'lishi, lo'nda, ixcham jumlar asosida yoritilishi kerak.

6. Darslikning tashqi ko'rinishi, bezagi muayyan yosh davri ta'lim oluvchilarining estetik didlariga, psixologik xususiyatlariga mos kelishi lozim.

7. O'quv darsliklarining tegishli yosh davri o'quvchilari uchun joriy qilingan gigiyena qoidalariga muvofiq bo'lishi talab qilinadi.

8. Darsliklar fanda isbot qilinmagan, ma'lum ta'rif va qoidalarga ega bo'lmagan, muammoli masalalardan holi bo'lishi zarur.

Namunaviy o'quv dasturlari asosida yaratilgan darsliklar tegishli ravishda Respublika Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi yoki Maktabgacha ta'lim vazirliklari tomonidan muayyan ta'lim muassasalari uchun tavsiya etiladi.

Maktab darsliklari bilan ishlashning dastlabki bosqichida o'quvchilar bob, paragraf va undagi bo'limlarni bir-biridan ajrata bilishga o'rgatiladi. O'qituvchi yangi materialni bayon qilishdan oldin o'quvchilarga shu paragraf ichidagi kichik sarlavhalarni o'qishni tavsiya qiladi va darsni bayon qilish rejasi bilan tanishtiradi, ularning mazmuni va ifodalanishidagi farqlarning sabablarini izohlab beradi. O'qituvchi o'zining bayoni davomida kichik sarlavhalar ichidagi mavzularga takror-takror qaytishi mumkin.

Darslik matni ustida ishlashning muhim jihatlaridan biri - o'quvchilarni uyda ishlash uchun beriladigan vazifani bajarishga o'rgatishdir. O'quvchilar bu vazifani muvaffaqiyatli bajarishi uchun topshirilgan vazifaning mazmunini va uni bajarish yo'lini yaxshi anglab olishlari shart. Binobarin, o'qituvchi uy vazifasini topshirishda va uning xarakterini belgilashda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini e'tiborga olishi, beriladigan vazifa oldingidan ko'ra murakkab bo'lishi va shu bilan ularning bilimlari va malakalari oshib borishiga xizmat qilishi lozim. Reja tuzish, shunga muvofiq hikoya qilishga o'rgatish, matn yuzasidan berilgan savollarga javob topish, jadval, chizma, diagrammalar tuzdirish va boshqa xil grafik ishlarni bajarish uy vazifasini ijodiy va mustaqil bajarish namunalaridan hisoblanadi.

O'quvchilarni darslik matnidan zarur joyni tez topa bilishga o'rgatish ham ta'limning muhim jihatidir. Bu o'rinda o'quvchilarni mundarijani qayta-qayta ko'rishga chorlash va shu asosda darslik mazmuni haqidagi dastlabki tasavvurni hosil qildirish jarayonni birmuncha osonlashtirishga olib keladi.

O'quvchilarning faol aqliy faoliyatining muhim metodlaridan biri ularning o'qituvchi bayon qilgan yangi materialni o'zlashtirishda mavjud bilimlarini ishga sola bilishidir. Har bir darsda o'quvchilarni mavjud bilimlardan foydalana bilishga o'rgatish lozim. O'quvchilar olgan bilimlarini esdan chiqarib yubormasliklari uchun vaqti-vaqti bilan ularning e'tibori darslik matniga qaratiladi hamda uzoq o'tilgan mavzular va yaqin o'tilgan mavzular bo'yicha tez-tez savol-javoblarning tashkil qilib turilishi jarayonning samaradorligini oshiradi.

Maktab tajribalarimiz hamda kuzatishlarimizning ko'rsatishicha, o'quvchilarga ona tili va adabiyot darsliklaridagi ma'lumotlarni kichik guruhlariga bo'lib muhokama qildirish, bahs-munozalar uyushtirish ularning nutqiy kompetentsiyalarini rivojlantirdi.

Bu o'rinda uy vazifasi uchun berilgan topshiriqlarni o'quvchilar qanday bajarganliklarini tekshirishda, og'zaki yoki test javoblaridagi xatolarni, noaniq o'rinlarni to'g'rilash uchun darslik matniga murojaat qilinadi.

O'quv fani mohiyati 50% nazariy, 50% amaliy asosga qo'yilgan. Xususan, "Ona tili" darsliklarida "namuna keltirish" zamonaviy pedagogik metodidan unumli foydalanilgan. Unda milliy va xalqaro miqyosda yuksak natijaga erishgan insonlar hayot tarziga oid matnlarda ularning yutuqlari tahlil qilinadi.

Bilamizki, darslik o'qituvchi uchun emas, avvalo, o'quvchi uchun yoziladi. U o'quvchining dars va uy vazifasini bajarishda foydalanadigan asosiy o'quv kitobidir. Lekin o'quvchining asosiy o'quv quroli va vositasi, bilimlarning asosiy manbai sifatida darslikning roli va ahamiyati hozirgi globallashuv va axborot kommunikatsion texnologiyalar rivojlangan davrda uning ta'siri bir muncha pasayganligi, bu holat tendensiya tarzida bundan buyon yanada davom etib borishi ehtimolini darslik mualliflari ham, uni o'qitayotgan o'qituvchilar ham hisobga olishlari zarur.

Ma'lumki, darslikning yetakchi komponenti matndir. Matnlar asosiy, qo'shimcha va izohlovchi turlarga bo'linadi. Darslik matni axborotlarni shunchaki bayon qilish emas, balki o'quv materialining mazmunini dasturga mos holda tushuntirib berishi lozim.

Darslik matni ustida ishlash o'quvchilarda fanning funktsional ta'limiy vazifalari – bilimlarni o'rganish, o'z fikr va nuqtai nazarlarini og'zaki yoki yozma tarzda tuzish, mustaqil ishlash jarayonida o'zining o'qish va bilish qobiliyatini rivojlantirish, xotirada eslab qolish, ma'lumotni qayta ishlash, bayon qilish, tahlil va tanqid qilish, qo'shimcha adabiyotlardan foydalanib, matnni o'zgartirish yoki to'ldirish kabi ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi.

Darslarda o'quvchi mavzu mazmunini tushunib olishi, voqea-hodisani tasavvur qilishida matn tanlash, uni bayon qilish, tushuntirish, tasvirlash uslubi muhim ahamiyatga ega. Ya'ni, bayon qilinayotgan ma'lumotlar tushunarli bo'lish bilan birga jozibali hamda emotsional ta'sirchan bo'lishi kerak.

Yuqori sinflar darsligida o'quvchilarning bilish faolligini oshirish maqsadida analiz va sintez qilish, qiyoslash va umumlashtirish, mustaqil fikrlash, mulohaza yuritish va baho berishga undovchi materiallar, savol va topshiriqlar berilishi kerak.

Darslikdagi qo'shimcha matnlar asosiy matnda berilgan bilimlarni tezroq va osonroq o'zlashtirish, mustahkamlashga xizmat qiladi, shu bilan birga, emotsional ta'sirni kuchaytiradi. Qo'shimcha matnlar xuddi asosiy matn kabi nafaqat ta'limiy, balki tarbiyaviy yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Shuningdek, ular ta'lim oluvchilarning yoshi, psixofiziologik xususiyatlari, fanning dasturiy maqsadlari, o'quvchilarning ijodiy va o'quv-biluv qiziqishlari hamda intellektual imkoniyatlariga mos bo'lishi zarur.

Darslik matni ustida ishlashning muhim jihatlaridan biri-o'quvchilarni uyda ishlash uchun beriladigan vazifani bajarishga o'rgatishdir. O'quvchilar bu vazifani muvaffaqiyatli bajarishlari uchun topshirilgan vazifaning mazmuni va uni bajarish yo'llarini yaxshi anglab olishlari lozim. Har bir dars yakunida uyga vazifa sifatida mustaqil o'qish uchun mavzuga mos tarzda kitob tavsiya qilish zarur. Xolbuki, dars ham, darslik ham yangi bilimlarni o'quv adabiyotlaridan mustaqil izlab topish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

8-9-sinf o'quvchilarining psixologik xususiyatlari va yosh darajasini hisobga olgan holda ona tili mashg'ulotlarida ularning davlat tiliga oid hujjatlar bilan birinchi marta tanishishlarini e'tiborga olib, darslikka asosan ta'lim oluvchining hayoti davomida tez-tez murojaat qiladigan ish yuritish hujjatlari matni kiritiladi. Yangi avlod darsliklari yorqin, rangli, illustratsiyalarga boy va har bir bo'limi o'ziga xos fon, milliy va umuminsoniy xulq, ijtimoiy malakani ifoda etgan rasmlar bilan ta'minlangan.

O'quvchilarni darslik illustratsiyalari bilan ishlashga o'rgatishda interfaol metodlardan foydalansa ham bo'ladi. "Ona tili" fani o'qituvchisi milliy urf-odat va marosimlar haqidagi masalalarini tushuntirganda "Kichik guruhlarda ishlash" interfaol metodidan foydalansa, yaxshi samara beradi. Bunda sinf o'quvchilar soniga qarab, to'rt yoki besh guruhga ixtiyoriy tarzda bo'linadi. Har bir guruhga urf-odat va marosimlarning qaysidir turini topish va uning ahamiyatini izohlash topshiriladi. Bunda birinchi guruhga yoshlarni Vatanga, o'z xalqiga muhabbat ruhida tarbiyalashni shakllantirishga qaratilgan urf-odat va marosimlar tizimini aniqlash topshiriladi. Ikkinchi guruhga - yoshlarda fuqarolik burchi, tanlagan kasbiga mas'uliyat hissini shakllantiruvchi urf-odat va marosimlarni aytish topshirig'i beriladi. Uchinchi guruhga yoshlarning axloqiy fazilatlarini takomillashtirishga qaratilgan urf-odat va marosimlarni izohlash aytiladi. To'rtinchi guruhga kelgusida urf-odat va marosimga aylanishi mumkin bo'lgan tarbiyaviy tadbirlar tizimini bayon qilishini topshirish mumkin.

Barcha guruhlar o'z taqdimotlarini qilib bo'lgandan so'ng o'qituvchi ularning fikrlarini umumlashtiradi va to'ldiradi. O'quvchilarga taqdimot davrida o'zlariga berilgan topshiriqlarga

50 boshqa guruh a'zolarining munosabat bildirishi, hayotiy misollar keltirishiga, tanqidiy tahlilga ruxsat beriladi. Guruhlarda o'zaro kelishmovchilik kelib chiqmasligi uchun o'qituvchi jarayonni xushyorlik va o'ta sergaklik bilan kuzatib, boshqarib boradi, guruhlarining javoblari o'qituvchi tomonidan rag'batlantirib turiladi.

Ushbu innovatsion ta'lim texnologiyasini qo'llash jarayonida o'quvchilarni hayotda mavjud urf-odat va marsimlar, ularning barkamol inson tarbiyasidagi ahamiyati bilan birgalikda to'rtinchi guruhning javoblari ham qiziqtiradi. Tajribamiz shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar kelgusida urf-odat va marosimga aylanishi mumkin bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tizimiga quyidagilarni kiritadilar:

"Yosh kitobxonlar konferensiyalari", "Yosh kitobxon" ko'rik-tanlovlari, "Tarixiy joylarga ekskursiya", "Men sevgan kasb" festivallarini o'tkazishni taklif etadilar.

Tanlangan innovatsion ta'lim metodining afzalligi shundaki, butun dars davomida o'quvchilar izlanadilar, mustaqil fikrlaydilar va har bir masalaga o'z nuqtai nazarlarini bayon qiladilar. Dars oxirida o'qituvchi mashg'ulotga yakun yasaydi. "Ona tili" fanini o'qitishda ana shunday innovatsion ta'lim texnologiyalarida foydalanib dars o'tish ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Yangi avlod ona tili darsliklaridan samarali foydalanishning didaktik yechimi sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- ona tilidan o'quv fani mavzularining mukammal o'zlashtirilishini ta'minlash;
- asosiy, qo'shimcha va izohlovchi matnlar, matndan tashqari komponentlarni dars maqsadiga muvofiq o'zaro uyg'un o'zlashtirish;
- o'qitishning interfaol usullaridan unumli foydalanish;
- o'quvchilarning yangi avlod ona tili darsliklarini puxta o'zlashtirishi uchun qulay muhit yaratish, o'qish va bilimlarini oshirib borish uchun motivatsiya berib borish;
- bilim, ko'nikma va malakalar hajmi ona tili fanini o'qitish uchun ajratilgan akademik soatlarga mos bo'lishi;
- ona tili mashg'ulotlarida yangi avlod darsliklaridan foydalangan holda o'quvchilarda vatanparvarlik va milliy g'urur hissini shakllantirish.

Xulosalar. Yangi avlod ona tili darsliklari matni mazmunini o'zlashtirishda uning har bir paragrafini tahlil qilish va ular ustida o'quvchilarning mulohazalarini uyushtirish katta ahamiyatga egadir. Dars mashg'ulotining barcha bosqichlarida darslik matniga qayta-qayta murojaat qilish uning ahamiyatini yanada oshiradi.

Adabiyotlar

1. Sobirova M. Ona tili o'qitish metodikasi. Izohli o'quv lug'at. – Toshkent: Mumtoz so'z. 2021-y. – B. 27.
2. Djurayev R.X., Ne'matov Sh.X. Darsliklarning tarixiy taraqqiyot yo'li va bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rni. – T.: Sano-Standart, 2010. – B.25.
3. Barkamol avlod orzusi. / Tuzuvchilar: Qurbonov Sh., Saidov Sh., Axliddinov R. – T.: Sharq, 1999. – B.14.
4. Tursunov Q., Normamatova N. Darslik tuzilishiga qo'yiladigan zamonaviy metodik talablar. //Xalq ta'limi, 2015 yil, 2-son. – B. 83.
5. Safarova R., Musayev U., Musayev P., Yusupova F., Nurjanova R. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim strategiyasi muammolari va ta'lim mazmunining yangi modellari, ularni tatbiq etish yo'llari. – T.: Fan, 2005. – B.89.
6. Hamroyev A.R. Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish. Monografiya. – Toshkent: Durdona. 2018. 187 b.
7. Sobirova M.Y. Ona tili ta'limida antroposentrik yondashuvning ilmiy-metodik asoslari va texnologiyalari: Dis....ped.fan.dokt. – Namangan: 2023. – 256 b.

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIMiy NATIJALARGA ERISHISHGA QARATILGAN HARAKATLARNI PROGNOZlash MEXANIZMLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida o'qitish samaradorligi va ta'lim sifatini oshirish, ta'limdagi muammolarni oldindan ko'ra bilish va risklarni minimallashtirish yo'llarini izlash, o'qituvchining 'atti-harakati tavsifi, risklarga qarshi dastur ishlab chiqish bosqichlari xususida fikr yuritiladi.

Tayanch so'zlar: oliy ta'lim tizimi, ta'lim sifati, davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, innovatsiyalar, risklar, samaradorlik o'zlashtirish, refleksiya.

МЕХАНИЗМЫ ПРОГНОЗИРОВАНИЯ ДЕЙСТВИЙ ПО ДОСТИЖЕНИЮ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Аннотация. В данной статье ведется речь об этапы развития эффективности обучения и качества образования в вузе, заблаговременное выявление проблем в образовании и поиск путей минимизации рисков, описание поведения отсева и разработка антирисковой программы.

Ключевые слова: система высшего образования, качество образования, государственные образовательные стандарты, образовательные программы, инновационная деятельность, риски, самооэффективность, мастерство, рефлексия.

MECHANISMS FOR PREDICTING ACTIONS TO ACHIEVE EDUCATIONAL RESULTS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Annotations. This article discusses the stages of the development of the effectiveness of education and the quality of education in higher education, early identification of problems in education and the search for ways to minimize risks, a description of dropout behavior and the development of an anti-risk program.

Keywords: higher education system, quality of education, state educational standards, educational programs, innovative activities, risks, self-efficacy, mastery, reflection.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini ta'minlash monitoringini o'tkazishning asosiy maqsadi oliy ta'lim muassasalari ta'lim jarayonida o'qitishning kredit-modul tizimining me'yoriy-uslubiy asoslarini takomillashtirishdan iborat. Respublikamizda ta'limning sifati va samaradorligini baholash uchun ko'rsatkichlarni ishlab chiqish, yig'ish, tashish, saqlash, qayta ishlash, tahlil qilish va ma'lumotlarning taqdimoti o'tkazishdan iborat. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini samarali tashkil etishdagi me'yoriy-uslubiy hujjatlarning o'quv jarayonida qo'llanilishida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni pronoz qilish va kamaytirishning zaruriy choralarini belgilashdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida [1]. Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir deya ta'kidlab o'tdilar. Shuningdek, murojaatnoma 2023 yildagi ustuvor yo'nalishlarga to'xtalib, ikkinchi yo'nalishda biz Yangi O'zbekistonni "ijtimoiy davlat" tamoyili asosida qurishni maqsad qilyapmiz. Buni Konstitutsiyada

52 mustahkamlashimiz kerak. ...Shu bois, birinchi navbatda, e'tiborni Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya bo'lgan ta'limni qo'llab-quvvatlashga qaratamiz deb ta'kidladilar.

"Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi". Ma'rifatparvar jadid bobolarimizning bu so'zlari deputat va senatorlarimiz, siyosiy partiyalar, mahalliy kengashlar, butun davlat apparati, keng jamoatchilikning amaliy harakatiga aylanishi kerak. Shu bois, maktablarda ta'lim sifati hamda jamiyatda o'qituvchi kasbining nufuzini oshirish, muallimlarning sharoitlarini yaxshilash 2023-yildagi eng asosiy vazifalarimizdan biri bo'ladi deb qayd etildi. Shu bilan birga murojaatnomada Lekin, ta'lim sifati nima bo'ladi, degan savol hammamizni o'ylantirishi kerak. Avvalambor, bunga har bir oliygoh o'zi harakat qilishi lozim, o'shanda natija bo'ladi. bu so'zlarning negizida oliy ta'lim muassasalari ta'lim sifatni oshirish uchun bor kuch va imkoniyatini safarbar qilishi lozimligini anglatadi.

Doimiy ravishda muvaffaqiyatli innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim muassasalarining ma'muriy guruhlarida davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kutilgan va kutilmagan xavf-xatarlarga qarshi kurashiladi. Bunda ma'lum bir dasturlarga tayaniladi. Bu dasturlar umumiy ta'limning davlat ta'lim standartini joriy etish sharoitida xavflar va salbiy oqibatlarni boshqarishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui hisoblanadi. Risklarga qarshi dastur tashkilotning umumiy maqsadlari uchun ishlab chiqilgan dasturiga ilova shaklida keltirilishi ham mumkin. Doimo asosiy ta'lim dasturini qurish mantiqiy-strukturaviy yondashuvga asoslanadi, bu maqsad va vazifalarni, rejalashtirilgan natijalarni, rejalashtirilgan natijalarga erishishga qaratilgan harakatlarni prognozlash bosqichida xavflarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida risklarni oldini olishga qaratilgan dasturni ishlab chiqish o'z navbatida uch bosqichni o'z ichiga oladi.

Birinchi bosqich. Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklar tahlili. Risk tabiati bo'yicha ichki tahdidlar - ta'lim tashkilotidagi salbiy holatlar, shuningdek, tashqi muhitning mumkin bo'lgan salbiy ta'siri. Ichki tahdidlarga o'qituvchilarning umumiy ta'limga davlat ta'lim standartini joriy etishga tayyor emasligi, ta'lim oluvchilar tomonidan yangi standartlarning maqsadga muvofiqligi va ahamiyatini noto'g'ri tushunishlari natijasida qarshilik ko'rsatishlari ham muammolar tarkibiga kiradi. Buning oqibatlari natijasida yangi ta'lim standartni joriy etish g'oyasini rad etishi ham mumkin. Kutilgan va kutilayotgan risklarni tahlil qilish - bu xavf omillarini aniqlash, ularning ahamiyatini sifat va miqdoriy jihatdan baholashdir. Risklar aniqlangandan so'ng, ular tizimlashtiriladi va tasniflanadi hamda xavf matritsasi ishlab chiqiladi. Masalan, "Kadrlar iste'molchilari tayyorlanayotgan kadrlar amaldagi tegishli sohadagi davlat ta'lim standarti bo'yicha ishlab chiqilgan malaka talabi, o'quv reja va dasturlar asosida ta'lim berish lozim" deya ta'kidlashi mumkin. Ishchi guruh yig'ilishini rejalashtirayotganda, kadrlar iste'molchilarning 50%i unda qatnashishi mumkinligini hisobga olish kerak.

Pedagogik kadrlar tayyorlayotgan oliy ta'lim muassasalari rahbarlari mantiqiy konstruksiyalarga asoslangan holda bo'lajak voqealarni bosqichma-bosqich rejalashtirish, sabab-oqibat munosabatlari va zanjirlarini aniqlash usulidan foydalanadilar. Ushbu usuldan foydalanishning cheklovi shundaki, bir qadamdagi xato butunlay noto'g'ri natijaga, noto'g'ri prognozga olib kelishi mumkin. Mantiqiy tuzilmalar zanjiri qanchalik uzun bo'lsa, prognozning ishonchliligi shunchalik past ko'rsatkichda bo'ladi. Ta'lim amaliyotida ekspert usuli doim eng samarali hisoblanib kelgan. Uning asosiy kamchiliklari mustaqil ekspertlarni jalb qilishdagi qiyinchilik va baholashning sub'ektivligini o'z ichiga oladi. Murakkab va noyob holatlarda bu usul faqat boshqa usullar bilan birgalikda qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Kelajakdagi jarayonlarni kichik miqyosda modellashirish usuli eng ishonchli deb tan olingan. Uzluksiz ta'lim pedagog kadrlarini tayyorlash uchun ishlab chiqilgan davlat ta'lim standartini joriy etishga tayyor ta'lim tashkilotlarini aniqlash o'z-o'zini tekshirish va tashqi ekspertiza usuli bilan amalga oshiriladi. Ammo shuni esda tutish kerakki, ko'plab xavf omillari, shu jumladan davlat ta'lim standarti asosida ishlab chiqilgan malaka talabi, o'quv reja va dasturlar joriy etilganda, miqyosning oshishi bilan ushbu o'quv-me'yoriy hujjatlar asosida kadrlar tayyorlash aniq amalga oshirila boshlaydi.

Pedagogik kadrlar tayyorlashda yangilangan o'quv-me'yoriy hujjatlarni joriy etishga tahdidlar quyidagilar bo'lishi mumkin:

–o'quv-me'yoriy hujjatlarni va o'quv dasturlari modullari va mavzulari katalogini ishlab chiqishni bitta xodimga topshirish natijasida yuzaga kelishi mumkin. Bunda asosiy ta'limni loyihalashni tashkil qilishda, rasmiy ma'muriy jamoada yoki menejerning o'z faoliyatini rejalashtira olmasligi, jamoada ishlash qobiliyati shakllanmaganligini anglatadi. Bunga yechim sifatida jamoaviy ishlashga qodir ma'muriy jamoani shakllantirish taklif qilinadi.

–Pedagog kadrlarning menejment tayyorgarligining past darajasi va imidjini shakllantirishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarga sabablar sifatida quyidagilarni aytish mumkin: rahbar va/yoki soha prorektorining o'z sohasida chuqur tahlillarni amalga oshirgan holda qarorlar qabul qilish kompetentligini yetishmasligi. Bu borada zaruratga ko'ra pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimida zaruriy o'quvlarni amalga oshirish, bashorat qilish va rejalashtirish ko'nikmalarini shakllantirish lozim;

–professor-o'qituvchilarning o'quv jarayonni (model, pedagogik faoliyatni) loyihalash qobiliyatining yetishmasligi sifatida pedagogik xodimlar orasida innovatsion faoliyat motivatsiyasining past daraja bo'lish holatlari; o'qituvchilarning innovatsion jarayonlarga rasmiy munosabatlarini keltirish mumkin. Bunday holatlarda xatarlarni minimallashtirish yo'llari bo'lgan faoliyat shakllari bo'yicha menejerlar va o'qituvchilar malakasini oshirish; innovatsion faoliyatni rag'batlantirish uslublaridan foydalanish; ta'lim tashkilotida innovatsion faoliyatni uslubiy ta'minlash tizimini shakllantirish kerak;

–ilg'or ta'lim shakllaridan foydalanish, yangi kasbiy vakolatlarni rivojlantirishga yo'naltirilmagan ta'lim tashkilotining rahbariyati va professor-o'qituvchilarining yo'qligi ayrim pedagogik kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari tomonidan pedagogik loyihalash, kadrlar iste'molchilaridan iborat ijodiy jamoalarini shakllantirish, innovatsion jarayonlarni psixologik- pedagogik va ilmiy-metodik ta'minlash bo'yicha malaka oshirish kurslarini o'tkazish kerak. Bu yerda minimallashtirish usullari: pedagogik loyihalash dasturlarini ishlab chiqish, kadrlar iste'molchilaridan iborat ijodiy jamoalarini shakllantirish, ta'lim tashkilotidagi innovatsion jarayonlarni psixologik, pedagogik va uslubiy ta'minlash.

–mavjud resurslardan foydalanilmaslik (qisman foydalanish) kadrlar iste'molchilaridan iborat ijodiy jamoalarining o'quv-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda yuzaga keladigan risklarning sabablari sifatida real holatda hamkorlikda ishlash tizimining yo'qligi, boshqaruv (funksionallikni ta'minlovchi) kengashining rasmiy faoliyatining to'laqonli ishlashiga bog'liq. Bunday vaziyatlardan chiqish yo'li: kadrlar iste'molchilarini ta'lim tashkilotida innovatsion jarayonlarni tashkil etishga jalb qilish, davlat va ijtimoiy buyurtmani bajarish nuqtai nazaridan kadrlar iste'molchilari bilan hamkorlikda pedagogik ta'lim, ta'lim tashkilotining ochiq ta'lim tizimini shakllantirish (veb-sayt, konferensiyalar, qo'shma seminarlar, master-klasslar va boshqalar);

–raqobatbardoshlikni ta'minlash, transformatsiya jarayonlarini amalga oshirishda ta'lim tashkilotlarini qo'llab-quvvatlashga qodir bo'lgan muassasalar, tashkilotlar, korxonalar bilan mustahkam va doimiy ishlovchi ijodiy jamoalarning yo'qligi ta'lim sohasidagi hamkorlik yetarli darajada yo'qligini bildiradi. Bunga sabab, boshqaruv xodimlarining hamkorlik aloqalarini mustahkamlay olmasliklari, hamkorlarning doimiy o'zaro manfaatli munosabatlarga qiziqishlarining yo'qligidadir. Shuningdek, ta'lim tashkiloti bilan hamkorlarning ta'lim tizimidagi munosabatlarida risklarni oldindan ko'ra bilish, ularni bartaraf qilish mexanizmlarining mavjud emasligi. Risklarni bartaraf qilish usullari: ochiq institutsional ta'lim tizimini shakllantirish (veb-sayt, konferensiyalar, kadrlar iste'molchilari va ta'lim tashkilotining birgalikdagi harakatlari va boshqalar), qo'shma loyihalar va hamkorlikni amalga oshirish, shu jumladan mustaqil ta'limni samarali tashkil etish.

Ikkinchi bosqich. Xatarlarga qarshi dasturni yaratish. Aniqlangan va bashorat qilingan xavflar maksimal darajada bartaraf qilish yoki kamaytirish kerak. Xatarga qarshi dastur xavfning oldini olish choralari qamrab oladi. Unda tavsiya etilgan qarshi choralar va ushbu qarshi choralarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan resurslar (shartlar) batafsil tavsiflanadi. Xatarga

54 qarshi dasturni amalga oshirish uchun vazifa, rejalashtirilgan natija, harakatlar, muddatlar va mas'ul shaxslar ko'rsatilgan harakatlar rejasini ishlab chiqish talab etiladi.

Uchinchi bosqich. Xatarlarga qarshi kurash dasturini amalga oshirish. Puxta o'ylab, chuqur tahlillarga tayangan holda ishlab chiqilgan dastur va uning rejasi amalga oshirish mumkin bo'lgan xavflarni bartaraf etadi. Masalan, ta'lim tashkilotida o'quv jarayonini tashkil etish, boshqarish, baholashning turli tizimlarini etish jarayonida xavfga qarshi dastur ishlab chiqilgan bo'lib, unda quyidagi bosqichlar ta'kidlanadi:

- pedagog xodimlar bilan tushuntirish ishlari (ularni pedagogik ongda tub o'zgarishlar zarurligiga ishonitirish, kasbiy faoliyatning maqsadlari, mazmuni va uslubini o'zgartirish);

- kadrlar iste'molchilari bo'lgan tashkilot, korxona, ta'lim markazlari hamda qayta tayyorlash va malaka oshirish markaz(lar)i bilan hamkorlikda faoliyat yuritishi;

- Davlat ta'lim standartining maqsad va vazifalariga muvofiq o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etishning uchta yangi nazariy va uslubiy yondashuvini malaka oshirish mazmuni va shakllarini yangilash, pedagog kadrlarni amaliyotga yo'naltirilgan holda qayta tayyorlash etish uchun pedagogik amaliyot monitoringi yuritishi;

- ta'lim yo'nalishi va mutaxassisligini malaka talabalaridagi umumkasbiy va ixtisoslik kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyatni bajarish uchun professor-o'qituvchilarning faoliyatini nazorat qilish va tuzatish;

- talabalar bilan o'quv faoliyati, ta'lim mazmuni va sifati yuzasidan o'tkazilgan so'rovnomalar natijalariga ko'ra ta'lim modelini o'zgartirish, kadrlar iste'molchilarining talab va istaklarini inobatga olish va buning natijasida yangi ta'lim natijalarini olish.

Umuman olganda uzluksiz ta'limning davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq asosiy ta'lim dasturini amalga oshirish xavflarni mazmunli boshqarishni talab qiladi. Ushbu jarayon quyidagilarni o'z ichiga oladi: xavf omillarini aniqlash, xavflarni tahlil qilish, xavflarni baholash, xavfga qarshi dasturni yaratish, xavfga javob berishni rejalashtirish, xavflarni minimallashtirishni nazorat qilish va monitoring qilish, risklarni boshqarishni rejalashtirish.

Jadal suratlar bilan rivojlanayotgan ta'lim tizimida pedagogik tavakkalchilikning oldini olishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Innovatsiyalashgan muhitda pedagogik xatarlarning oldini olish orqali o'qituvchilarni tizimli ravishda tayyorlash, ularning pedagogik faoliyatini doimiy ravishda rag'batlantirib borish amalga oshiriladi. Buning uchun oliy ta'lim muassasasi pedagogik jamoaga uslubiy yordamning keng ko'lamlı shakllarini taklif etishi mumkin. Jumladan, "Pedagogik mahorat maktabi", ilmiy izlanishlar olib borish uchun sharoitlar, kasbiy mahorat tanlovlari, ochiq darslar tanlovlari, ko'rgazmalar, pedagogik mahsulotlar tanlovlarida ishtirok etishlarini tashkil qilish orqali moddiy va ma'naviy rag'batlantirish va boshqalar [2].

Barchamizga ma'lumki, professor-o'qituvchilar bilan ularning kasbiy o'sishiga qaratilgan tizimli uslubiy ishlar ularning tavakkal qilishga tayyorligini shakllantiradi. Xavf omillarining imkoniyatlarini bashorat qilish va amalga oshirish imkonini beradigan kasbiy va shaxsiy xususiyatlar darajasining ortishi kuzatish mumkin. Bu borada L.M.Mitina o'z tadqiqotlarida professor-o'qituvchilarning ayrimlari kasbiy faoliyatida tavakkal qilishga tayyorligining maqbul darajasiga ega bo'lgan o'qituvchilar, past va yuqori darajadagi xavfga tayyor bo'lgan o'qituvchilarga qaraganda yuqori pedagogik malaka ko'rsatkichlarini namoyish etishini bildirgan [3].

O'qituvchilarning xavf-xatarga tayyorligini optimallashtirishning eng muhim sharti ularning o'z-o'zini anglash darajasini, xususan, o'z-o'zini hurmat qilish, manfaatdorlik, o'zini o'zi anglash kabi tarkibiy qismlarini oshirish ekanligini ko'rsatib o'tishimiz mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, o'qituvchilarning xavf-xatarga tayyorlik darajasi noaniq vaziyatlarda pedagogik qarorlarni qabul qilish, amalga oshirish va tuzatish, moslashuvchanligi, muloqot qobiliyatlari, pedagogik o'zaro munosabatlardagi kompetensiya, o'z-o'zini nazorat qilish bilan belgilanadi. Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyat sharoitida ta'lim munosabatlari ishtirokchilarini psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlashni amalga oshirishda yetakchi rolni odatda psixologik-pedagogik xizmat orqali kuzatish mumkindir.

Adabiyotlar**55**

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2022 йил 20 декабрдаги Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси // <https://president.uz/uz/lists/view/5774>
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 26 августдаги “Республика олий таълим муассасаларининг профессор-ўқитувчилари ва бошқа тоифадаги ходимларини бюджетдан ташқари маблағлар ҳисобидан моддий рағбатлантириш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида” 517-сон қарори. // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 27.08.2020 й., 09/20/517/1226-сон; 12.03.2021 й., 09/21/132/0202-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 26.10.2021 й., 09/21/656/0996-сон; 05.04.2022 й., 09/22/153/0266-сон.
3. Митина Л.М. Психология труда и профессионального развития учителя / Л. М. Митина.– М.: Академия, 2004.

To'rayev Rasul Nortoijevich
Termiz davlat universiteti dotsenti,
fizika-matematika fanlari nomzodi
rasul.turaev@mail.ru

INTERFAOL METODLAR ASOSIDA INTEGRALLARNING KIMYOGA TATBIQLARINI O'RGANISH

Annotatsiya. Maqolada muallif interfaol metodlar asosida integrallarning qo'llanilish ketma-ketligi, kimyoga tatbiqlari qoidalarining ta'limiy ahamiyatini yoritib bergan.

Kalit so'zlar va tushunchalar: o'qituvchi, talaba, interfaol, metod, yondoshuv, integrallar, reaksiya, sistema, chiziqli tenglama, kimyo, masala.

ИЗУЧЕНИЕ ПРИМЕНЕНИЯ ИНТЕГРАЛОВ В ХИМИИ НА ОСНОВЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ

Резюме. В статье автор объяснил образовательную значимость правил последовательности использования интегралов и их применения в химии на основе интерактивных методов.

Ключевые слова и понятия: учитель, ученик, интерактив, метод, подход, интегралы, реакция, система, линейное уравнение, химия, задача.

STUDY OF APPLICATIONS OF INTEGRALS TO CHEMISTRY ON THE BASIS OF INTERACTIVE METHODS

Summary. In the article, the author explained the educational importance of the rules of the sequence of use of integrals and their application to chemistry based on interactive methods.

Key words and concepts: teacher, student, interactive, method, approach, integrals, reaction, system, linear equation, chemistry, problem.

Kirish. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish asosida ma'lum faoliyat ko'nikma va malakalarni shakllantirish, faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan nazariy va amaliy bilimlar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni, ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llashga doir katta tajriba to'plangan bo'lib, bu tajriba asosini interfaol metodlar tashkil etmoqda.

Metodlar. Interfaol metodlar o'z mohiyatiga ko'ra ta'limiy yoki tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishda ma'lum darajada samaradorlikka erishishni ta'minlashda, biroq, ularning har biri ta'lim yoki tarbiya jarayonida mahsulдорlikni ta'minlash bo'yicha turli imkoniyatlarga ega. Shu sababli o'qituvchi (pedagog)lar interfaol metodlarni tanlashda o'rganilayotgan mavzu, muammo yoki hal qilinishi lozim bo'lgan masalaga e'tibor qaratishlari maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, interfaol metodlarning samaradorligi yanada oshadi, qachonki, ularni qo'llashda ta'lim oluvchi (o'quvchi, talaba)larning yosh, psixologik xususiyatlari, dunyoqarash darajasi, hayotiy tajribalari inobatga olinsa. Bu o'qituvchi (pedagog)lardan kasbiy mahorat, malaka, bilimdonlik, sezgirlik va intuitsiyaga ega bo'lishni taqozo etadi.


Respublika uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchi (pedagog)lardan har bir interfaol metodning mohiyati, xususiyati, qo'llanilish shartlari

bilan batafsil tanishib chiqish, amaliy ahamiyatini to'g'ri baholay olish talab qilinadi. Mazkur maqola ta'lim sohasida faoliyat olib borayotgan o'qituvchi (pedagog)lar uchun amaliy manba bo'lib xizmat qiladi.

Natijalar va tahlillar. Matritsalaridan foydalanishning qulayligi bu - bir vaqtning o'zida bir nechta tenglamalarning ma'lumotlarini ixcham shaklda ifodalashdir. Bu holatda ular osonlik bilan o'zlashtirishi va yechilishi mumkin. Bu asosan analitik kimyoda keng qo'llaniladi [1].

1. Gaz kengayishi va termodinamik ish.

Masala. Gazlarning hosil bo'lishi, reaksiyaga kirishishi, siqilishi yoki kengayishi kimyoda juda keng tarqalgan. Bunday jarayonni tushunishning oddiy yo'li bu silindr ichida rasmda ko'rsatilgandek porshen yordamida ushlab turilgan gazning holatini tasavvur qilish kifoya (1-rasm).



1-rasm. Silindr ichida porshen yordamida ushlab turilgan gazning holati

Bu gaz termodinamikada "Sistema" deb ataladi va bundan boshqa har bir narsa "muhit" deyiladi. Agar sistemaning bosimi p muhit bilan bir xil, sistemaning hajmi V bo'lsa, bundan keyin sistemada (gazda) bajarilgan ishni w bilan belgilaymiz. Gaz doimiy T haroratda kengayganida, sistemada bajarilgan ish quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$w = - \int p dV$$

Sistema kengayganligi sababli $dV > 0$ va gaz muhit ustida ish bajarganligi ya'ni muhitni ortga surganligi uchun, manfiy ishora hosil bo'ladi. w sistemada bajarilgan ishdur, u holda u ushbu holatdagi kengayishda manfiy bo'ladi, chunki gaz ish bajaryapti. Ma'lum momentda gaz ideal gaz deb faraz qilinadi, u holda ideal gaz qonuniga ko'ra, quyidagi integralga ega bo'lishimiz mumkin.

$$pV = nRT; \quad p = \frac{nRT}{V}; \quad w = - \int \frac{nRT}{V} dV.$$

bu yerda n sistemadagi gazning molekullari soni va R universal gaz doimiysidir ($R = 8.314 \text{ J mol}^{-1} \text{ K}^{-1}$)

Gazning boshlang'ich V_b hajmdan oxirgi V_o hajmgacha kengayishida bajarilgan ishni yuqoridagi tenglamani integrallash orqali toping.

Yechish: Gazning boshlang'ich V_b hajmdan oxirgi V_o hajmgacha kengayishida bajarilgan ishni quyidagi aniq integral orqali topamiz:

$$w = - \int_{V_b}^{V_o} \frac{nRT}{V} dV$$

Aniqlik uchun o'zgarmaslarni integral belgisidan tashqariga chiqarib, (gazning temperaturasi T va sistemaning molekullari soni n o'zgarmasdir (gaz hosil bo'lganida ham yo'qotilganda ham)), so'ngra integrallab, gazning boshlang'ich V_b hajmdan oxirgi V_o hajmgacha kengayishida bajarilgan ish quyidagicha topiladi:

$$w = -nRT \int_{V_b}^{V_o} \frac{1}{V} dV = -nRT [\ln V]_{V_b}^{V_o} = -nRT (\ln V_o - \ln V_b)$$

$$w = -nRT \ln \left(\frac{V_o}{V_b} \right)$$

2. Ideal gazning kengayishi.

Masala. Bizda ideal gazning bitta molekulasini mavjud bo'lib, ideal gaz dastlabki $4.90 \times 10^3 \text{ sm}^3$ hajmdan oxirgi $2.45 \times 10^4 \text{ sm}^3$ hajmgacha o'zgarmas $T=298 \text{ K}$ temperaturada kengaygan bo'lsin. Bu kengayishda gazning bajarilgan ishini 1 masala yechimidan foydalanib hisoblang.

Yechish. Gaz ustida bajarilgan ish quyidagicha hisoblanadi:

$$w = -nRT \ln \left(\frac{V_o}{V_b} \right)$$

$$w = -(1 \text{ mol})(8.314 \text{ J mol}^{-1} \text{ K}^{-1})(298 \text{ K}) \ln \left(\frac{2.45 \times 10^4 \text{ sm}^3}{4.90 \times 10^3 \text{ sm}^3} \right)$$

$$w = -3.99 \times 10^3 \text{ J} = 3.99 \text{ kJ}$$

Gaz ustida bajarilgan ish manfiydir, chunki bu kengayish jarayonida gaz muhit ustida ish bajaryapti, bunda gaz muhitni ortga suradi. Savolda esa bu kengayishda gaz tomonidan bajarilgan ish, ya'ni $-w$ ishni topish so'ralgan edi.

$$-w = +3.99 \text{ kJ}$$

3. Molekula issiqlik miqdori (entalpiyasi) va temperatura o'zgarishi.


Masala. Harorat T , dT orqali o'zgarganda molekula entalpiyasi H , dH orqali o'zgaradi va bu o'zgarish odatda quyidagi tenglama bilan beriladi:

$$dH = (a + bT + cT^2)dT \quad (1)$$

Benzin 298 K dan 398 K gacha qizdirilganda uning issiqlik miqdori o'zgarishi dH ni toping, bu yerda a , b va c o'zgarmaslar quyidagiga teng:

$$a = 1.70 \text{ J mol}^{-1} \text{ K}^{-1} \quad b = 3.25 \times 10^{-1} \text{ J mol}^{-1} \text{ K}^{-2}$$

$$c = 1.11 \times 10^{-4} \text{ J mol}^{-1} \text{ K}^{-3}$$



2-rasm. Molekula issiqlik miqdori

Yechish: Benzin 298 K dan 398 K gacha qizdirilganda uning issiqlik miqdori o'zgarishi (1) tenglamani integrallash orqali topamiz. Umumiy holda (1) tenglikni T_1 dan T_2 gacha integrallaymiz:

$$\int_{H_1}^{H_2} dH = \int_{T_1}^{T_2} (a + bT + cT^2)dT$$

$$[H]_{H_1}^{H_2} = \left[aT + \frac{bT^2}{2} + \frac{cT^3}{3} \right]_{T_1}^{T_2}$$

$$H_2 - H_1 = \Delta H = a(T_2 - T_1) + \frac{b(T_2^2 - T_1^2)}{2} + \frac{c(T_2^3 - T_1^3)}{3}$$

O'zgaruvchilarning mos qiymatlarini yuqoridagi tenglikka, ifodaning qiymatini topamiz:

$$\Delta H = (1.70 \text{ J mol}^{-1} \text{ K}^{-1})(398 \text{ K} - 298 \text{ K}) +$$

$$+ \frac{(3.25 \times 10^{-1} \text{ J mol}^{-1} \text{ K}^{-2})((398 \text{ K})^2 - (298 \text{ K})^2)}{2} +$$

$$+ \frac{(1.11 \times 10^{-4} \text{ J mol}^{-1} \text{ K}^{-3})((398 \text{ K})^3 - (298 \text{ K})^3)}{3}$$

Hisoblashlardan so'ng,

$$\Delta H = (1.70 \times 10^2 \text{ J mol}^{-1}) + (1.1310 \times 10^4 \text{ J mol}^{-1}) + (1.3535 \times 10^3 \text{ J mol}^{-1})$$

$$\Delta H = 1.249 \times 10^4 \text{ J mol}^{-1}$$

$$\Delta H = 1.249 \text{ kJ mol}^{-1}.$$

4. Vodorod atomining 1 s elektroni.


Masala. Elektronning yadrodan r masofada bo'lish ehtimoli P radial taqsimot funksiyasi deyiladi. Vodorod atomining 1s elektron radial taqsimot funksiyasi quyidagichadir:

$$P = \frac{4}{a_0^3} r^2 e^{-\frac{2r}{a_0}}$$

bu yerda a_0 o'zgarmas Bor radiusi deb ataladi,

$$(a_0 = 0.5292 \text{ \AA} \text{ yoki } a_0 = 0.5292 \times 10^{-10} \text{ m})$$

Quyidagi grafik vodorod atomi 1s elektronining radial taqsimot funksiyasining grafisini ifodalaydi, bunda $a_0 = 0.5292 \text{ \AA}$ bo'lgandagi holatini tasvirlaydi.



3-rasm. Diagramma

$2a_0$ masofadan kamroq bo'lgan radiusda elektron topilishining ehtimolini quyidagi integralni 0 dan $2a_0$ gacha bo'lgan oraliqda integrallash orqali toping.

$$dP = \int_{r=0}^{r=2a_0} \frac{4}{a_0^3} r^2 e^{-\frac{2r}{a_0}} dr$$

Yuqoridagi aniq integralni hisoblash uchun quyidagi ma'lum integraldan foydalaning:

$$\int x^2 e^{bx} dx = e^{bx} \left(\frac{x^2}{b} - \frac{2x}{b^2} + \frac{2}{b^3} \right) + C$$

Yechish. So'ralayotgan ehtimollik radial taqsimot funksiyani 0 va $2a_0$ oraliq'ida integrallash orqali topiladi. Dastlab, $\left(\frac{4}{a_0^3}\right)$ o'zgarmasni integral belgisidan tashqariga chiqaramiz:

$$dP = \int_{r=0}^{r=2a_0} \frac{4}{a_0^3} r^2 e^{-\frac{2r}{a_0}} dr \quad dP = \frac{4}{a_0^3} \int_{r=0}^{r=2a_0} r^2 e^{-\frac{2r}{a_0}} dr$$

Bu integral esa quyidagi ma'lum integral ifodaga ekvivalentdir:

$$\int x^2 e^{bx} dx = e^{bx} \left(\frac{x^2}{b} - \frac{2x}{b^2} + \frac{2}{b^3} \right) + C$$

bu yerda $x = r$ va $b = \frac{2}{a_0}$ almashtirish bajaramiz va $\left(\frac{4}{a_0^3}\right)$ o'zgarmasni hisobga olgan holda quyidagi integralni yozamiz:

$$dP = \frac{4}{a_0^3} \left[e^{-\frac{2r}{a_0}} \left(\frac{r^2}{-2/a_0} - \frac{2r}{(-2/a_0)^2} + \frac{2}{(-2/a_0)^3} \right) + C \right]_{r=0}^{r=2a_0}$$

Bu integralni hisoblash uchun maxrajlardagi ifodalarni soddalashtiramiz:

$$dP = \frac{4}{a_0^3} \left[e^{-\frac{2r}{a_0}} \left(-\frac{r^2 a_0}{2} - \frac{r a_0^2}{2} - \frac{a_0^3}{4} \right) + C \right]_{r=0}^{r=2a_0}$$

Endi yuqoridagi ifodada chegaralarni o'rniga qo'yib, uni soddalashtiramiz:

$$dP = \frac{4}{a_0^3} e^{-4} \left(-2a_0^3 - a_0^3 - \frac{a_0^3}{4} \right) - \frac{4}{a_0^3} e^0 (-0 - +0 - \frac{a_0^3}{4})$$


$e^0 = 1$ ekanini hisobga olgan holda yuqoridagi ifodani soddalashtirib, quyidagiga ega bo'lamiz:

$$dP = \frac{4}{a_0^3} e^{-4} \left(-\frac{13a_0^3}{4} \right) - \frac{4}{a_0^3} \left(-\frac{a_0^3}{4} \right)$$

$$dP = -13e^{-4} + 1$$

$$dP = 0,7619$$

Demak, bu yerda 0,7619 ga teng bo'lgan ehtimollik mavjud, ya'ni vodorod atomining 1 s atomli orbitali uchun yadrodan $2a_0$ masofada elektron bo'ladi. Bu yadro va $2a_0$ masofa o'rtasida 1s elektron mavjud bo'lishiga 76.19% imkoniyat mavjud deyish bilan bir xil. Radial taqsimot funksiyasi uchun quyida berilgan 3-rasmga qarang. Ushbu rasm 3 o'lchovli 1s atomli orbital uchun umumiy ehtimollikning 90% ni qamrab oladi.



4-rasm. 1 s atomli orbital

5. Gazda bajarilgan ish.

Masala. 2 mol ideal gaz izotermik ravishda uning boshlang'ich hajmiga nisbatan olganda, boshlang'ich hajmining yarmigacha siqildi. Bu jarayon 300 K (kelvin) da sodir bo'ldi. Gazda bajariladigan ish quyidagi tenglama bilan beriladi:

$$W_{on} = - \int_{V_1}^{V_2} P dV$$

bu yerda V_1 va V_2 lar mos ravishda boshlang'ich va oxirgi hajmlar. Ideal gaz tenglamasi va integraldan foydalanib, gaz ustida bajarilgan ish hajmini toping.

Yechish: Biz ishni boshlang'ich va oxirgi gaz hajmlarini bog'lashdan boshlaymiz. Masala shartiga ko'ra $V_2 = \frac{V_1}{2}$ yoki $V_1 = 2V_2$.

Endi biz integrallash bilan shug'ullanamiz. Integralni ko'rinishidan ma'lumki, integraldagi P ni V bo'yicha integrallaymiz. Buning uchun P ni V orqali ifodasini topamiz. Ideal gaz tenglamasi $PV = nRT$ dan P ni topsak, $= \frac{nRT}{V}$.

Bu ifodani va integrallash chegaralarini integralga qo'yib, quyidagiga ega bo'lamiz

$$W_{on} = - \int_{2V_2}^{V_2} \frac{nRT}{V} dV.$$

Endi yuqoridagi aniq integralni hisoblaymiz. Bu integralda o'zgarmas sonlarni integral belgisidan tashqariga chiqaramiz:

$$W_{on} = -nRT \int_{2V_2}^{V_2} \frac{1}{V} dV.$$

Natural logarifmning integrallash formulasi

$$\int_a^b \frac{1}{x} dx = \ln|x| = \ln|x| \Big|_a^b$$

ga ko'ra

$$W_{on} = -nRT(\ln V|_{2V_2}^{V_2}) = nRT \cdot (\ln V_2 - \ln 2V_2) = nRT \ln \frac{V_2}{2V_2}$$

$$W_{on} = -nRT \ln \frac{1}{2} \quad \text{bundan} \quad W_{on} = nRT \ln 2.$$

Endi berilgan sonlarni ($K=300$, $R=8.31$ —universal gaz doimiysi, $n=2$) qo'yib, W_{on} ning qiymatini hisoblaymiz:

$$W_{on} = 2 \cdot 8.31 \cdot 300 \cdot 0.69 = 3.4 \cdot 10^3 \text{ joul.}$$

6. Kottrell tenglamasi.

Masala. Elektrokimyoda Kottrell tenglamasi

$$I = nFAC \sqrt{\frac{D}{\pi}} t^{-1/2} \quad (1)$$

elektrod eritmaga botirilgandan keyin t vaqtdagi tok oqimi I ni ifodalaydi. Tok oqimi Q zaryadning o'zgarish tezligi sifatida aniqlanadi. Shuning uchun

$$I = \frac{dQ}{dt} \quad (2)$$

Yuqoridagilardan foydalanib, Q zaryadning ifodasini toping.

Yechish: $I = \frac{dQ}{dt}$ tenglikni (1) tenglamaga qo'yamiz:

$$\frac{dQ}{dt} = nFAC \sqrt{\frac{D}{\pi}} t^{-1/2}.$$

Ushbu tenglamada o'zgaruvchilarni ajratamiz:

$$dQ = nFAC \sqrt{\frac{D}{\pi}} t^{-1/2} dt$$

Oxirgi tenglikni integrallaymiz:

$$\int dQ = \int nFAC \sqrt{\frac{D}{\pi}} t^{-1/2} dt$$

n , F , A , C va D lar o'zgarmas sonlar bo'lganligi uchun ularni integral belgisidan tashqariga chiqaramiz integrallaymiz:

$$\int dQ = nFAC \sqrt{\frac{D}{\pi}} \int t^{-1/2} dt$$

$$Q = nFAC \sqrt{\frac{D}{\pi}} \frac{t^{-\frac{1}{2}+1}}{-\frac{1}{2}+1} + C$$

$$Q = nFAC \sqrt{\frac{D}{\pi}} 2\sqrt{t} + C.$$

Demak, Q zaryadning ifodasi $Q = nFAC \sqrt{\frac{D}{\pi}} 2\sqrt{t} + C$ ga teng.

Integrallarning biologiyaga tatbiqlari

1. Populyatsiya soni (miqdori).

Masala. Vaqt o'tishi bilan populyatsiyadagi individlar soni o'zgarib boradi. Agar populyatsiya (turlar) yashashi uchun qulay sharoitlar mavjud bo'lsa, u holda tug'ilish darajasi o'limdan oshib ketadi va populyatsiyadagi individlarning umumiy soni vaqt o'tishi bilan ortadi. Ma'lum vaqt birligida individlar sonining ko'payishini populyatsiyaning o'sish sur'ati (tezligi) deymiz va bu tezlikni $v=v(t)$ deb belgilaymiz. Ma'lum bir hududda uzoq vaqt yashaydigan "eski" populyatsiyalarning o'sish sur'ati $v(t)$ (tezligi) past bo'ladi va nolga sekin intiladi. Biroq, agar populyatsiya yosh bo'lsa, uning boshqa mahalliy populyatsiyalar bilan o'zaro aloqalari hali ham o'rnatilmagan yoki bu munosabatlarni o'zgartiruvchi tashqi sabablar mavjud bo'ladi. Masalan,

62 ongli ravishda inson aralashuvi, bunda $v(t)$ sezilarli darajada kamayib yoki ko'payib o'zgarib turishi mumkin [2].

Agar populyatsiyaning o'sish tezligi $v(t)$ ma'lum bo'lsa, u holda biz t_0 va T vaqt oralig'ida populyatsiya sonining ortishini topishimiz mumkin. $v(t)$ ning ta'rifidan kelib chiqadiki, bu funksiya populyatsiya sonining t vaqtdagi hosilasi bo'ladi. O'z navbatida populyatsiya soni $N(t)$ $v(t)$ uchun boshlang'ich funksiya bo'ladi. Shuning uchun

$$N(t) - N(t_0) = \int_{t_0}^T v(t) dt \quad (1)$$

o'rinli bo'ladi.

Ma'lumki, yetarli miqdorda ozuqa mavjud bo'lgan sharoitda ko'plab populyatsiyalarning o'sish tezligi eksponensial, ya'ni $v(t) = a \cdot e^{kt}$ bo'ladi.

Bu holda populyatsiya go'yoki "qarimaydi". (1) formulani qo'llab, quyidagiga ega bo'lamiz:

$$N(t) = N(t_0) + a \int_{t_0}^T e^{kt} dt = N(t_0) + \frac{a}{k} e^{kt} \Big|_{t_0}^T = N(t_0) + \frac{a}{k} (e^{kT} - e^{kt_0}) \quad (2)$$

2. Populyatsiya biomassasi.

Masala. Butun hayoti davomida individlarning massasi sezilarli o'zgaradigan populyatsiyani qaraymiz va populyatsiyaning umumiy biomassasini hisoblaymiz.

τ - u yoki bu vaqt birligidagi yoshni bildirsin, $N(\tau)$ esa populyatsiyadagi yoshi τ bo'lgan individlar soni bo'lsin. $P(\tau)$ τ yoshdagi individning o'rtacha massasi, $M(\tau)$ esa 0 dan τ yoshgacha bo'lgan barcha individlarning biomassasi bo'lsin.

$M(\tau) \cdot P(\tau)$ ko'paytma τ yoshdagi barcha individlarning biomassasiga tengligini bilgan holda,

$$M(\tau + \Delta\tau) - M(\tau)$$

ayirmani qaraymiz, bu yerda $\Delta\tau > 0$. Ma'lumki, τ dan $\tau + \Delta\tau$ gacha yoshdagi barcha individlarning biomassasiga teng bo'lgan bu ayirma quyidagi tengsizlikni qanoatlantiradi:

$$N(\tau) \cdot P(\tau) \Delta\tau \leq M(\tau + \Delta\tau) - M(\tau) \leq \bar{M}(\tau) \bar{P}(\tau) \Delta\tau \quad (1)$$

bu yerda $\underline{N}(\tau) \cdot \underline{P}(\tau)$, $N(\tau) \cdot P(\tau)$ funksiyaning $[\tau, \tau + \Delta\tau]$ kesmadagi eng kichik qiymati, $\bar{M}(\tau) \bar{P}(\tau)$ esa eng katta qiymati. $\Delta\tau > 0$ ekanligini hisobga olib, (1) tengsizlikdan quyidagini topamiz:

$$\underline{N}(\tau) \underline{P}(\tau) \leq \frac{M(\tau + \Delta\tau) - M(\tau)}{\Delta\tau} \leq \bar{M}(\tau) \bar{P}(\tau).$$

$N(\tau) \cdot P(\tau)$ funksiyaning uzluksizligidan

$$\lim_{\Delta\tau \rightarrow 0} [\underline{N}(\tau) \underline{P}(\tau)] = \lim_{\Delta\tau \rightarrow 0} [\bar{N}(\tau) \bar{P}(\tau)] = N(\tau) \cdot P(\tau)$$

ekanligi kelib chiqadi. Funksiya limitining xossalari ko'ra

$$\lim_{\Delta\tau \rightarrow 0} \frac{M(\tau + \Delta\tau) - M(\tau)}{\Delta\tau} = N(\tau) \cdot P(\tau) \quad (2)$$

ga ega bo'lamiz. (2) tenglikning chap tomoni $M(\tau)$ funksiyaning differensialini ifodalaydi, ya'ni

$$\frac{dM(\tau)}{d\tau} = N(\tau) \cdot P(\tau).$$

Shunday qilib, $M(\tau)$ biomassa $N(\tau) \cdot P(\tau)$ uchun boshlang'ich funksiya bo'ladi. Bundan:


$$M(T) - M(0) = \int_0^T N(\tau) P(\tau) d(\tau),$$

bu yerda T -berilgan populyatsiyadagi individning eng katta yoshi. $M(0)$ nolga teng ekanligidan ohirgi ifodaga ega bo'lamiz:

$$M(\tau) = \int_0^T N(\tau) \cdot P(\tau) d(\tau).$$

3. O'rtacha uchish masofasi.

Masala. Ba'zi masalalarda bosib o'tilgan o'rtacha masofani yoki ma'lum belgilangan uchastkani jonivor tomonidan bosib o'tgan yo'lining o'rtacha uzunligini bilish zarur bo'ladi. Qushlar uchun mos hisoblashlarni keltiramiz. R radiusli doira uchastka bo'lsin (5-rasm).

5-rasm. R radiusli doira uchastkasi

Radius R judayam katta emas deb hisoblaymiz, o'rganilayotgan turga tegishli ko'plab qushlar bu doirani to'g'ri chiziq bo'ylab kesib o'tishi uchun.

Qush ixtiyoriy nuqtada ixtiyoriy burchak ostida aylanani kesib o'tadi. Bunga bog'liq ravishda uning doira ustidan uchish masofasi uzunligi 0 dan $2R$ gacha bo'lgan ixtiyoriy qiymatga teng bo'lishi mumkin. Bizni esa o'rtacha masofa uzunligi qiziqtiradi va uni l deb begilaymiz.

Doira o'zining ixtiyoriy diametriga nisbatan simmetrik bo'lganligi uchun, bizga Oy o'qqa parallel bo'lgan biror bir yo'nalishda uchadigan qushlarni qarash yetarli.

U holda o'rtacha bosib o'tilgan masofa uzunligi bu ACB va AC_1B yoylar orasidagi o'rtacha masofa bilan ustma-ust tushadi. Boshqacha aytganda, bu $f_1(x)-f_2(x)$ funksiyaning o'rtacha qiymati degandir, bu yerda $y=f_1(x)$ -yuqoridagi yoy tenglamasi, $y=f_2(x)$ esa quyidagi yoy tenglamasi, ya'ni

$$l = \frac{\int_a^b [f_1(x) - f_2(x)] dx}{b - a}$$

yoki

$$l = \frac{\int_a^b f_1(x) dx - \int_a^b f_2(x) dx}{b - a} \quad (1)$$

$\int_a^b f_1(x) dx$ integral $aACBb$ egri chiziqli trapetsiyaning yuziga, $\int_a^b f_2(x) dx$ esa aAC_1Bb egri chiziqli trapetsiyaning yuziga tengligidan, ularning ayirmasi doira yuziga tengligi, ya'ni πR^2 ga tengligi kelib chiqadi. Ma'lumki, $b-a$ ayirma $2R$ ga teng. Buni (1) ga qo'yib,

$$l = \frac{\pi R^2}{2R} = \frac{\pi}{2} R$$

ni topamiz.

Xulosa. Mazkur maqolada ko'rsatib o'tilganidek, har bir interfaol metod ta'lim-tarbiya sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, o'qituvchi (pedagog) va ta'lim oluvchi (o'quvchi, talaba)lar, o'quvchi (talaba) va o'quvchi (talaba)lar guruhi, shuningdek, jamoa o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish, g'oyaviy va ruhiy birlikka erishish, yagona maqsad sari intilish, har bir ta'lim oluvchi (o'quvchi, talaba)ning ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, shaxs sifatida namoyon bo'lishi uchun zarur shart-sharoit hamda muhitni yaratishda katta imkoniyatlarga ega.

Adabiyotlar

1. To'rayev R.N., Boytillayev D.A. Oliy matematika. Kimyo va biologiya ta'lim yo'nalishi uchun darslik. T.: - 2023 йил, 365-b.

2. To'rayev R.N. Oliy matematika. Kimyo ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma. T.: - 2023 йил, 263-b.

Olimov Temir Hasanovich

Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ILMIY TADQIQOT ISHI BILAN SHUG'ULLANUVCHILARDA TADQIQOTNING KONSEPSIYASI, MAQSADI VA VAZIFALARINI SHAKLLANTIRISH KO'NIKMALARINI HOSIL QILISH

Annotatsiya: ushbu maqolada tadqiqotning ilmiy-nazariy konsepsiyasi, maqsadi va vazifalari bilan mavzuni tanlash o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligi, ilmiy konsepsiya, maqsad va vazifalar mavzuni belgilash, ilmiy tadqiqot konsepsiyasi, maqsadi va vazifalarini aniqlashtirib borishni haqida fikr yoritilgan.

Kalit so'zlar: ilmiy tadqiqot, ilmiy izlanish, ilmiy metodlar, ijtimoiy taraqqiyot, mavzu, muammo, konsepsiya, maqsad, vazifa, yechim.

ФОРМИРОВАНИЕ НАВЫКОВ ФОРМИРОВАНИЯ ПОНЯТИЯ, ЦЕЛЕЙ И ЗАДАЧ ИССЛЕДОВАНИЯ У ЛИЦ, ЗАНИМАЮЩИХСЯ НАУЧНО- ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ РАБОТОЙ

Аннотация: В данной статье прослеживается неразрывная связь между научно-теоретической концепцией, целями и задачами исследования и выбором темы, научной концепцией, целями и задачами темы, концепцией, целями и задачами научной работы. исследования уточняются.

Ключевые слова: научные исследования, научные исследования, научные методы, общественное развитие, тема, проблема, концепция, цель, задача, решение.

FORMATION OF SKILLS FOR THE FORMATION OF CONCEPTS, GOALS AND OBJECTIVES OF RESEARCH AMONG PERSONS ENGAGED IN SCIENTIFIC RESEARCH WORK

Annotation: This article traces the inextricable link between the scientific and theoretical concept, goals and objectives of the study and the choice of topic, scientific concept, goals and objectives of the topic, concept, goals and objectives of scientific work. research is being updated.

Key words: scientific research, scientific research, scientific methods, social development, topic, problem, concept, goal, task, solution.

Tadqiqot mavzusini tanlash mavzuning ishlanganlik darajasini aniqlashdan boshlanadi. Mantiqan shunday. Ammo ushbu darajani endi ilm sohasiga kirib kelayotgan, mavzu tanlayotgan, hatto o'z mavzusi bo'yicha u yoki bu maqolalar e'lon qilgan izlanuvchi yoritib berolmaydi. Bu o'rinda tadqiqot yakunlangan, izlanuvchi ma'lum bir konseptual ahamiyatga ega pastulatlari va xulosalarga kelgan bo'lishi lozim. Biroq dissertatsiya avtoreferatida ushbu ishlanganlik darajasini ko'rsatish talab etiladi. Demak, avtoreferat ilmiy tadqiqot natijasi bo'lishi darkor.

"Mavzuning ishlanganlik darajasi" tushunchasini qisqacha ta'rifda ifodalash mushkul. Bu ilmiy izlanishlarning plyuralistik xususiyati bilangina emas, ilmiy ijodning immanent xususiyatlari bilan bog'liqdir. Qisqa aytganda, «mavzuning ishlanganlik darajasi» deganda, mavzuni tasdiqlashgacha bo'lgan davrda olib borilgan gnoseologik va empirik-ilmiy izlanishlar, ularning mavzuning real yoki ideal holati haqidagi nazariy, falsafiy-metodologik va pragmatik pastulat (xulosa)lar, tavsiyalar nazarda tutiladi.

Tadqiqotlarda mavzuning ishlanganlik darajasini aniqlashda ma'lum bir ilmiy mezonlar amal qiladi. Ular obektivlik, to'ralik, keng qamrovlilik (komplekslik), zamonaviylik, intensivlik, mobillik va ishonchlilik kabilardir. Ushbu "darajalar"dan ma'lum bo'ladiki, hech bir me'yor, o'lchov ilmiy izlanishga "mutlaq haq" bo'lolmaydi, ular ikki tomonlama bir-biriga muvofiq,

uyg'un tarzda qaralishi darkor. Birinchisi, mavzu ning tanlangani va o'rganilgani pozitiv hodisadir. Mavzuni o'rganish jarayonida tadqiqotchi an'anaviy yondashuvlardan qochib, boshqacha yondashuvga tayangan va noan'anaviy pastulatlarga, xulosalarga kelgan bo'lishi mumkin. Bu ilmiy izlanishga salbiy baho berishga asos bo'lolmaydi. Ikkinchisi, ijtimoiy taraqqiyot dinamik, harakatchan xususiyatga ega. Uning ushbu immanent qonuni hech bir me'yorni, o'lchovni mutlaq haq sifatida qabul qilishga imkon bermaydi. Hatto bugun tan olingan obektivlik ertaga yoki indinga noobektiv narsa sifatida qabul qilinishi mumkin. Demak, mavzu, muammoning ishlanganlik darajasini aniqlash bahslidir.

Ilmiy tadqiqot ma'lum bir konsepsiya, qarash va maqsad bilan o'zini chegaralashi darkor. Aks holda, u cheksiz-chegarasiz, oxir natijada yanada chigal va murakkab muammolarni keltirib chiqaradi, ular ijtimoiy taraqqiyotga hech qanday foyda bermaydigan sxolastik, takror xulosalar bilan yakunlanadi.

Obyektivlikni shu davr, shu hayot, shu tuzum, shu ijtimoiy birlik talabiga muvofiqlik deb tushunish o'rinlidir. Obyektivlik ijtimoiy borliqdan ayricha namoyon bo'ladigan holat emas, u ilmiy ijodning ijtimoiy taraqqiyot talablariga muvofiqligini ifoda-lovchi mezondir.

Tadqiqot konseptual mohiyatiga va ilmiy izlanishlar ko'lamini ilg'ashiga nisbatan hech qachon to'liq bo'lolmaydi. Har qanday tadqiqotda o'rganilmagan yoki e'tibordan chetda qolgan mavzu, masala, jihat bo'ladi. Biroq ijtimoiy-gumanitar sohadagi izlanishlar to'lalikka, barcha muammolarni ilg'ash va ko'rsatib berishga intilishi bilan tor, maxsus (kimyoviy, fizikaviy, biologik, matematik va boshqalar) izlanishlardan kengdir. Shuning uchun ham to'lalikka, keng qamrovlikka, pastulat va xulosalarida ularga intilish ijtimoiy-gumanitar sohalaridagi ilmiy izlanishlarni boshqa, maxsus sohalaridagi ilmiy izlanishlardan farqlab turadi.

Tadqiqotning zamon talablari va muammolari bilan bog'liq bo'lishi ikki bir-biriga qarama-qarshi yondashuvlarni keltirib chiqarishi mumkin. Birinchisi, barcha muammolar, mavzular ham zamon talablariga javob berishga qodir, moyil emas. Masalan, Markaziy Osiyoda IX–XII asrlarda ro'y bergan Uyg'onish davri O'zbekistonning hozirgi milliy Uyg'onish davriga oid muammolarga to'la javob bera oladimi? IX–XII asrlar tarixidan yaxshi xabardor mutaxassis, tadqiqotchi, albatta, yo'q, deb javob beradi. Chunki ijtimoiy hayot, hatto muqaddas hisoblangan aqidalar ham transformatsiyaga uchrashga (o'zgarishga) moyildir. Agar ilmiy tadqiqotlar ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qilishni o'zining tub maqsadi sifatida qabul qilgan ekan, u ijtimoiy hayotning sotsiodinamik xususiyatiga muvofiq o'zgarayotgan davr, zamon, jamiyat talablariga mos kelishi shart. Ya'ni zamonaviylik – ilmiy tadqiqotlar oldiga qo'yiladigan ob'ektiv talab, ijtimoiy zaruriyatdir.

Ilmiy tadqiqotlar tasodif, kutilmaganda paydo bo'ladigan fikrlar chiqariladigan xulosalar natijasi emas. Ular intensiv, bir-biriga bog'liq tarzda, izchil davom ettirilishi zarur. Buni ilm ahlining istak va xohishlari emas, balki ijtimoiy taraqqiyotning uzluksizligi, davomiyligi talab etadi.

Intensivlik (doimiy o'z ustida ishlash, o'zidan qoniqmaslik, ichki salohiyatni ishga solish) tadqiqotlarning bir-biriga bog'liqligini, ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirish yo'lidan borishni taqozo etadi. Umumiy, ijtimoiy-falsafiy xulosalar chiqarish qanchalik muhim bo'lmasin, XX–XXI asrlardagi ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, ilm-fan endi intensiv izlanishlar tufayli rivojlanishi mumkin. Shuning uchun intensiv izlanishga e'tibor bermay, biror yangi fikrga, pastulatga kelish mushkuldir.

Intensiv yondashish:

- tanlangan sohadagi ichki muammolarni;
- shu sohaga oid ilmiy, nazariy-falsafiy va integratsion aloqalarni chuqur bilishni taqozo etadi.

Tadqiqotchi quyidagilarni esida tutishi zarur:

- nazariy-falsafiy yondashish ilmiy izlanishning ijtimoiy ahamiyatini oshiradi;
- har bir ilm sohasining o'ziga xos ijtimoiy-falsafiy muammolarini taraqqiyot nuqtai nazaridan o'rganadi;
- soha bo'yicha chuqur, intensiv izlanishlarni amalga oshirmay, mavzuga oid ichki

66 muammolarning immanent xususiyatlari va permanent aloqalarini ochib berolmaydi.

Intensivlik (doimiy o'z ustida ishlash, o'zidan qoniqmaslik, ichki salohiyatni ishga solish) sohaning talabi, inijligi emas, balki o'z sohasiga oid ta'limotlar va qarashlardan yaxshi xabardor bo'lmagan "olim"dan biror yangi fikr, g'oya kutish qiyin.

Ilm-fan mobil, harakatchan bo'lishi shart. G'arb ilmiy tafak- kuridan o'tgan ushbu tamoyil ilmiy izlanishlarni mobil, harakatchan bo'lishini talab etadi.

Ilm-fanning mobilligi, harakatchanligi ilmiy izlanishlar- ning jahonda ro'y berayotgan o'zgarishlarga, ilmiy-texnik yangiliklarga muvofiq kelishini nazarda tutadi. Jahon hamjamiyati integratsiyaga intilayotgan ekan, ilmiy izlanishlar ham ushbu integratsiyadan turtki oladi. Mobillik o'ziga xos tarzda harakatchanlik emas, umuminsoniy ilmiy qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgani bois, ahamiyatlidir.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi, eng avvalo, muammoga ob'ektiv yondashish orqali aniqlanadi. Obyektiv yondashish qotgan, stagnatsiyaga moyil usullar emas, har bir taraqqiyot bosqichi o'z mezonlariga ega. Obyektiv yondashish – sotsiodinamik yondashuvdir. Davr, taraqqiyot, jamiyat manfaatlariga muvofiqlik obyektiv yondashishning belgilaridir.

Mavzuning o'rganilganlik darajasini aniqlash tadqiqot ishiga:

- davr, jamiyat, sotsium talablarini aks ettirishida;
- obyekt (predmet)ning holati bilan ideal holati o'rtasidagi ziddiyatlarni, qarama-qarshiliklarni obyektiv ochib berishida;
- ilmiy-nazariy maqsad va falsafiy-metodologik g'oyani izchil himoya qilish va ob'ektiv talablarni ilmiy asoslashda;
- shaxsiy ilmiy qarashlar va manfaatlar obyektiv talablarga zid bo'lsa-da, ularning real holat sifatida qarashida namoyon bo'ladi. Ishonchlik dalillarga, hayotiy misollarga, real shaxslar bergan xabarlariga muvofiqlikdir. Mavzu (muammo)ning o'rganilganlik darajasini aniqlashda quyidagilarga e'tibor berish zarur:

–mavzuning nafaqat o'tmishda o'rganilgani, shuningdek, uning tarixiy-madaniy meros sifatida, proektiv xususiyatini;

–tadqiqot obyekt (predmeti)ning real holati bilan ideal holati o'rtasidagi ziddiyatlar, qarama-qarshiliklarning ochib berilganini;

–mavzuga obyektiv va subyektiv yondashishlar tatbiq etilganini;

–tadqiqotning shaxsiy qiziqishlari bilan ijtimoiy taraqqiyot talablarining muvofiqligi;

– haqiqat izlashdek fidoyilikning ilm-fanning ratsional talablariga javob berishini.

Bugun ilm-fan sohasidagi izlanishlar integratsiyaga qurilgan, turli sohalar orasida o'zaro yaqinlashuv, bir-birini to'ldirish, intensiv va ekstensiv aloqalarning kuchayishi kechmoqda. Shunday ekan, har qaysi ilm sohasi boshqa sohalaridagi progressiv, innovation yondashishlardan foydalanishi mumkin. Hatto XX asrning ikkinchi yarmigacha nazariy, metafizik ta'limotlar sifatida rivojlanib kelgan falsafa, ayniqsa, sotsiologiya va ijtimoiy psixologiya keyingi davrda matematik modellashtirish, germeneytika, matematik logika usullaridan foydalanmoqda. Demak, ilmiy tadqiqot ilm sohalaridagi, ayniqsa, turli mamlakatlardagi ilmiy izlanishlardan xabardor bo'lishi darkor. Ilm sohalaridagi xalqaro integratsiya – tadqiqotning ishonchligini oshiradi. Ilm-fan o'zining ijtimoiy mohiyatiga ko'ra internatsional (umuminsoniy) hodisadir, bu esa tadqiqotni xalqaro miqyosda erishilgan ilmiy natijalar bilan qiyoslab borishni taqozo etadi.

Tadqiqotning ilmiy-nazariy konsepsiyasi, maqsadi va vazifalari bilan mavzuni tanlash o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Ilmiy konsepsiya, maqsad va vazifalar mavzuni belgilab kelganidek, mavzu, muammo ham ilmiy tadqiqot konsepsiyasi, maqsadi va vazifalarini aniqlashtirib borishni talab etadi.

Ilmiy-nazariy konsepsiya tadqiqotda asoslanishi zarur bo'lgan ilmiy yangiliklar chiqariladigan pastulatlar, ilgari suriladigan nazarlarning umumiy-falsafiy ifodasidir, konsepsiyaning umumiy- falsafiy xususiyati tadqiqotning fundamental, aniq va boshqa ilmiy sohalaridagi izlanishlardan farqlovchi belgisidir. Ilmiy konsepsiya tadqiqotning qaysi sohaga – falsafa, pedagogika, fizika yoki kimyoga taalluqli ekanini namoyon etadi. Ilmiy konsepsiya ba'zan ilm sohalarining uyg'unlashuvi, birgalikda kelishi mahsuli ham bo'lishi mumkin. Bunday

konsepsiya turli ilm sohalarida o'rtasidagi integratsiyaning chuqurlashuviga xizmat qiladi.

Ilmiy-nazariy konsepsiya tadqiqotning maqsadi, vazifalari va usullari bilan chambarchas bog'liq bo'lsa-da, u mazkur yo'nalishlarga xos usullarni aynan takrorlamaydi. Konsepsiya tadqiqotning umumiy falsafiy ifodasi sifatida maqsad, vazifalar va usullardan kengdir. Bu konsepsiyaga xos xususiyatlar (talablar): ilmiylik, tadqiqot mohiyatiga muvofiqlik, tushunarlik, betakrorlik kabilarda aks etadi. Ilmiylik, o'z navbatida, mantiqiylik, dalillik, tajribaga asoslanish, qayta-qayta sinovlar (eksperimentlar)dan o'tkazish, o'zini o'zi tanqid yoki o'zini o'zi to'ldirish, falsifikatsiya kabi usullar orqali shakllanadi. Ilmiylik dogmaning aksidir, u o'zini o'zi rad, tanqid etishdan to'xtalmaydi, shu tufayli plyuralizmga yo'l ochib beradi. Konsepsiyaning mudom ochiqligi, bahs, munozara va falsifikatsiyaga moyilligi ilm sohasini qiziqarli, maftunkor qiladi, aqlu idrokni tinmay izlanishlarga undaydi.

Konsepsiya tadqiqot mohiyatiga zid kelmasligi kerak, aks holda u tadqiqotni, uning natijalarini rad etishga olib keladi. Konsepsiya ilmiy faraz, gipoteza emas. Ilmiy faraz, gipoteza tadqiqot natijalarini tasdiqlashga xizmat qilmasligi, hatto ular tadqiqot mohiyatiga aks ta'sir etishi mumkin. (ammo bu tadqiqot qimmatini kamaytirmaydi), ammo konsepsiya tadqiqotning pozitiv ahamiyatini tasdiqlashga qaratilishi shart. To'g'ri, ba'zan, ayniqsa, aniq fanlarda, konsepsiya tadqiqotning mohiyatiga, maqsad va vazifalariga zid kelishi mumkin. Ammo ijtimoiy-gumanitar fanlarda konsepsiya tadqiqotning maqsad va vazifalariga muvofiq keladi, hatto maqsad va vazifalarning umumiy falsafiy ifodasi konsepsiya sifatida qaraladi.

Konsepsiya ilmiy tadqiqotning o'zi kabi tushunarli, natijalarni amaliyotga tatbiq etish mumkin bo'lishi lozim. Tushunarlik o'ta soddalik, yetarli asosga ega bo'lmagan qarash, fikr emas, u sog'lom fikrlovchi, ilmiy tasavvurlarga ega har bir shaxsning aqliy quvvatlariga muvofiq keladigan tasvir, ifoda, bayondir. Shunday belgilarga ega bo'lmagan izlanish ilmga zid yoki bilishni inkor qilishga moyil bo'ladi.

Konsepsiya betakror, innovatsion g'oyalarning ifodasi bo'lishi zarur. Sanoxonlik, kompilyatsiyalar to'qish va avtoriniyaga tayanadigan konsepsiyalar ilm-fanga deyarli hech qanday yangi g'oya, nazar, pastulat olib kirmaydi, mavjud muammolarni hal etishga xizmat qilmaydi. Betakror g'oyalarni, qarashlarni ilgari surish tadqiqotlar oldiga qo'yiladigan bosh talablardan biridir.

Konsepsiya dogma emas. Ilmiy izlanishlar jarayonida u yanada aniqlashtirilishi, to'ldirilishi yoki boshqacha ifodalanishi mumkin. Goho ilmiy izlanish jarayonlari konsepsiyani shakllantirishi mumkin. Shuning uchun konsepsiya bilan ilmiy izlanish jarayonlari dialektik bog'liqdir.

Tadqiqot natijalari ba'zan konsepsiyaning to'g'riligini tasdiqlamasligi mumkin. Bu o'rinda konsepsiyaning noto'g'ri, g'ayrihayotiy belgilanganiga yoki tadqiqot ob'ekti holatidagi o'zgarishlar yetarlicha hisobga olinmaganligiga duch kelamiz. Shuning uchun ilmiy konsepsiyani belgilayotganda tadqiqot ob'ekti (predmeti)ning sotsiodinamik xususiyatini hisobga olish lozim.

Tadqiqotning maqsadi nazariy, amaliy va gnoseologik tajribalarni tahlil qilish, umumlashtirishdan iborat bo'lishi mumkin. Nazariy maqsad u yoki bu g'oyani, nazarni asoslashga, isbotlashga qaratiladi. Nazariy maqsadsiz ilmiy tadqiqot yo'q, har qanday izlanishning natijalari pastulat, xulosa tarzidagi nazariyalarga aylanadi.

Ba'zan tadqiqotlarda nazariy maqsad konsepsiya bilan aynanlashtiriladi. To'g'ri, konsepsiya bilan maqsad bir-biriga yaqin, ular bir-biriga xizmat qiladi. Lekin konsepsiya tadqiqotning umumiy falsafiy ifodasi, maqsad esa mudom aniq, u tadqiqotchining "qayerga" borayotganini, qanday muammolarga e'tiborini qaratishi zarurligini ko'rsatib turadi. Ushbu talab buzilgan zahoti, tadqiqot mohiyat mantig'iga putur yetadi, eklektik yondashuv paydo bo'ladi. Tadqiqotdagi sxolastika (safsata), tautologiya (ezmalik) shundandir. Nazariy maqsadni mutlaqlashtirmaslik kerak. Ha, ilm sohalarining falsafiy-metodologik masalalari nazariy maqsad sifatida qo'yiladi, ammo butun soha, shu sohada izlanishlar olib borayotganlarning barchasi faqat nazariy maqsadni tadqiq etish bilan shug'ullanmaydi. Har qanday nazariy maqsadning amaliy, pragmatik tomoni mavjuddir. "Quruq gapdir har qanday g'oya, mangu tirik hayot daraxti" (Gyote). Demak, nazariy maqsadni amaliy maqsadga yo'naltirish "hayot daraxti" talabidir.

Amaliy maqsad ijtimoiy hayotni takomillashtirishga, kundalik hayotda duch kelinayotgan

68 muammolarni hal etishning ilmiy asoslangan, ratsional, samarali yo'llarini topishga qaratiladi. Amaliy maqsad obyekt (predmet)ni kuzatish, u duch kelayotgan muammolarni, ushbu muammolarni hal etishda qatnashadigan faktorlarni (ishtirokchilarni), institutlarni aniqlash, zarur bo'lganida, eksperiment o'tkazish orqali ma'lum bir nazariy modellar yaratish kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Amaliy maqsad ham nazariya tarzida ifodalanadi va erishilgan maqsad ham nazariy xulosalardan iboratdir. Demak, sof "amaliy maqsad" yo'q, nazariy asosi tufayli har qanday ilmiy tadqiqot qimmatlidir.

Tadqiqotda ko'zlangan nazariy yoki amaliy maqsad gipotetik xususiyatga ega. Ilmiy izlanish jarayonida goh unga yetish mumkin, goho esa u boshqa muammolarni keltirib chiqarishi tufayli orqaga surilishi, hatto o'rganilmay qolishi mumkin. Maqsadga yetish jarayonida shakllangan tavsiyalarni ijtimoiy hayotga joriy etish jamiyat, davlat, buyurtmachilar ixtiyoridadir.

Gnoseologik tajribalarni o'rganish, tahlil qilish, umumlashtirish ham ilmiy tadqiqot maqsadi bo'lishi mumkin. Ko'pincha, tarixiy-falsafiy, etnografik izlanishlarda shunday maqsad yetakchi lik qiladi.

Tadqiqotning maqsadi yaxlit, aniq bo'lishi zarur. Bitta tadqiqotda yuqoridagi uchta maqsad ham qatnashishi mumkin, lekin ulardan biri qolgan maqsadlarni o'z atrofida birlashtirishi, ularni o'ziga xizmat qildirishi lozim.

Odatda tadqiqot maqsadi va vazifalari uyg'unlikda, yaxlit qaraladi. Vazifalarni maqsaddan keltirib chiqarish an'anaga aylangan.

Maqsad bitta, ikkita yoki uchta – sanoqli bo'ladi, vazifalar esa ushbu maqsadga yetishga qaratiladi, ularning soni ko'proqdir. Vazifalarning soni paragraflar soniga muvofiq kelgani ma'qul. Har qaysi paragrafda tadqiq etilayotgan muammo, mavzu bir vazifa sifatida qaralishi mumkin. Ammo ba'zi hollarda bitta paragraf ikki, uch muammo, mavzu ham muhokama qilinishi, o'rganilishi uchraydi. Bu holda qaysi muammoni, mavzuni vazifalar qatoriga kiritishni tadqiqotchining o'zi hal etadi.

Vazifalarni juda maydalashtirib, sonsiz-sanoqsiz qilib yubormaslik kerak. Har bir vazifa avvalgi va o'zidan keyingi vazifalar bilan uzviy bog'lanib kelishi maqsadga xizmat qilishi darkor.

Tadqiqotning yaxlitligi qismlari (boblar, paragraflar, xulosa va konseptual g'oyalar) o'rtasidagi uzviy bog'liqlik maqsad va vazifalarning uyg'unligi orqali ta'minlanadi.

Maqsad va vazifalarni aniq belgilab olish tadqiqotni ratsional, rejali olib borishning kafolatidir. Ammo maqsad va vazifalar ilmiy izlanishlar jarayonida qayta ko'rib chiqilishi, aniqlashtirilishi, to'ldirilishi, hatto o'zgartirilishi mumkin. Maqsad va vazifalarni shakllantirish, aniqlashtirish tadqiqotga so'nggi nuqta qo'yguncha davom etadi.

Konsepsiya, maqsad va vazifalarning uyg'unligi ular o'rtasida ma'lum bir ziddiyatlar saqlanib qolishini rad qilmaydi. Bu ziddiyatlar ularning ilmiy mohiyatida emas (mohiyatdagi ziddiyat tadqiqot yaxlitligiga zarar yetkazadi, ratsionallik o'rnini eklektika, dolzarblik o'rnini sayozlik egallaydi), balki tadqiqot o'tkazish usullaridir.

Konsepsiya uchun xayol, tasavvur, universal tushunchalarni qo'llash ilmiy bilish usulidir. U tadqiqot mag'zining umumfalsafiy ifodasi sifatida aniq maqsad va vazifalardan kengdir. Uning ushbu kengligini maqsad va vazifalar mudom o'zlariga bo'ysundirishga intiladi. Konsepsiyaning o'z «meni» bor, u o'z hukmini maqsad va vazifalarga o'tkazish payida bo'ladi. Ular o'rtasida ushbu ziddiyatni tadqiqotchi maqsadni konsepsiya tarzida bayon qilish, shakllantirish orqali hal etmoqchi bo'ladi. Aksariyat tadqiqotlarda shunday qilinadi ham, bunga ekspertlar e'tibor bermaydilar. Aslida esa konsepsiya, maqsad va vazifalar o'rtasida farqlar mavjuddir. Konsepsiyaning to'g'ri shakllantirilmaganlik tadqiqotning falsafiy-metodologik mohiyatini bilmaslik yoki uni asosli tarzda ifodalay olmaslik, maqsad va vazifalarni mavhumlashtirish, chalkashtirish esa tadqiqotga qo'yilayotgan talabni bilmaslik yoki ularni (maqsad va vazifa larni) ilmiy asoslay olmaslik belgisidir.

Konsepsiyada maqsad va ilmiy yangiliklar umumiy falsafiy g'oya, gipoteza (faraz) sifatida keltirilgani ma'qul. Konsepsiya, bizning fikrimizcha, tadqiqotning metodologik asoslari qismida berilishi kerak. Ana shunda konsepsiyaning falsafiy-metodologik ahamiyati to'g'ri tushuniladi.

Konsepsiya maqsad va ilmiy yangiliklarning umumiy falsafiy ifodasi sifatida tadqiqot o'tkazish rejalashtirilayotganda shakllantiriladi, ammo u izlanishlar yakunlangach, aniqlashtirilishi mumkin. Chiqariladigan xulosalar konsepsiyaga ta'sir etmay qolmaydi, demak, konsepsiya o'zgarmas mutlaq (dogma) emas. Umuman olganda, ilmiy izlanishlarda faqat bitta dogma mavjud, u – ob'ekt (predmet)ning real holati bilan ideal holati o'rtasidagi muammolarni izlashdir. Qolgan barcha jarayonlar – maqsad va vazifalar, tadqiqot usullari, gipoteza va xulosalar, mavzu va uning dolzarbligini asoslash o'zgarishi, aniqlashtirilishi va o'zgartirilishi mumkin. Chunki "inson bilimlarining barchasi noaniq, nisbiy, o'zgaruvchidir" (R.Rassel).

Adabiyotlar

1. Olimov Sh.Sh. Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari. - T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2015 y. -228 b
2. Olimov T.H. Bo'lajak oliy ma'lumotli mutaxassislarda fuqarolik madaniyatini pedagogik loyihalashtirish tizimini rivojlantirish. P.f.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozil. Diss. – Buxoro. 2021. – 130 b.
3. Ochilov M. Muallim - qalb me'mori (Saylanma). – T.: O'qituvchi, 2001. – 432 b.
4. Pazilova M. Talaba ma'naviyatini hadislar vositasida shakllantirishning pedagogik asoslari. p.f.n.ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss avtoreferati. - T., 2004. – 22 b.
5. Педагогические основы формирования личности учащегося в средней общеобразовательной школе Республики Узбекистан на современном этапе // Кол. авторов. Под. ред. В.И.Андрияновой. – Т.: Фан, 2005. – 166 с.
6. Подласый И. П. Педагогика. Новый курс. В 2 кн. - М.: Владос, 2001. Кн. 1: Общие основы. Процесс обучения. - 576 с.
7. Ro'ziyeva D.I. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Ped.fan.dok. diss. -T., 2007.-328 b.

ПОВЫШЕНИЕ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ВЫПУСКНИКОВ ВУЗОВ НА РЕГИОНАЛЬНОМ РЫНКЕ ТРУДА

Рассмотрены особенности положения выпускников среднего профессионального образования на рынке труда. Профессиональные ориентации современной молодежи определяются потребностями рыночной экономики, которые связаны со стремлением к профессиям, обеспечивающим быструю финансовую самостоятельность и материальное благосостояние, продвижение и карьеру. Сложившаяся специфическая ситуация отразилась и на профильной структуре подготовки специалистов учреждениями профессионального образования: увеличился прием студентов на экономические и правовые специальности, а на инженерные и сельскохозяйственные сократился.

Ключевые слова: региональный рынок труда, конкурентоспособность, квалифицированные рабочие, среднее профессиональное образование, методы обучения, визуализация информации, государственная поддержка сферы занятости.

INCREASING THE COMPETITIVENESS OF UNIVERSITY GRADUATES IN THE REGIONAL LABOR MARKET

The features of the position of graduates of secondary vocational education in the labor market are considered. The professional orientations of modern youth are determined by the needs of a market economy, which are associated with the desire for professions that provide rapid financial independence and material well-being, promotion and career. The current specific situation was also reflected in the profile structure of training specialists by vocational education institutions: the enrollment of students for economic and legal specialties increased, while for engineering and agricultural specialties it decreased.

Keywords: regional labor market, competitiveness, skilled workers, secondary vocational education, teaching methods, information visualization, state support for employment.

MINTAQAVIY MEHNAT BOZORIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI BITIRUVCHILARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH

O'rta kasb-hunar ta'limi bitiruvchilarining mehnat bozoridagi o'rni xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Zamonaviy yoshlarning kasbiy yo'nalishlari bozor iqtisodiyoti ehtiyojlari bilan belgilanadi, bu esa tez moliyaviy mustaqillik va moddiy farovonlikni ta'minlaydigan kasblarga bo'lgan intilish, ko'tarilish va martaba bilan bog'liq. Mavjud o'ziga xos vaziyat kasb-hunar ta'limi muassasalari tomonidan mutaxassislar tayyorlashning profil tuzilmasida ham o'z aksini topdi: iqtisod va huquq yo'nalishlari bo'yicha talabalarni qabul qilish ko'paydi, muhandislik va qishloq xo'jaligida talabalar soni esa kamaydi.

Kalit so'zlar: hududiy mehnat bozori, raqobatbardoshlik, malakali ishchilar, o'rta kasb-hunar ta'limi, o'qitish metodikasi, axborot vizualizatsiyasi, bandlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash.

Введение. Сложившаяся ситуация на современном рынке труда создает проблему занятости молодых специалистов, выпускников, которые впервые попадают на рынок труда и оказываются в положении одной из самых слабозащищенных в социальном отношении категорий населения.

Профессиональные ориентации современной молодежи отвечают ценностям рыночной экономики, которые выражаются в стремлении к тем видам трудовой деятельности, которые быстро предоставляют финансовую независимость и материальную обеспеченность, а также продвижение и карьеру [1].

Предельно высокий уровень образования рано выходящих на рынок труда молодых людей оказывается одной из причин их попадания на вторичный рынок труда, отличающийся малоквалифицированной, нестабильной, низкооплачиваемой работой.

Профессионально-квалификационная диспропорция спроса и предложения приводит не только к появлению невостребованных работников на рынке труда, но и вызывает кадровый дефицит на квалифицированных рабочих и служащих, создает предпосылки для нарушения обеспечения преемственности кадров главным образом в отраслях материального производства.

Таблица-1

Структура статистической информации для оценки рынка труда и экономики региона

№	Показатели	Период	Выражение	Единица измерения
1	Валовой региональный продукт (ВРП)	2018-2022	$X(t)$	МИЛЛИОНОВ СОМОВ.
2	Индекс физического (физического) объема	2018-2022		%
3	Объем инвестиций в основной капитал	2018-2022	$I(t)$	МИЛЛИОНОВ СОМОВ.
4	Рост FYM в сопоставимых ценах	2018-2022		%
5	Структура МЯМ по видам экономической деятельности	2018-2022	$X_l(t)$	МИЛЛИОНОВ СОМОВ.
6	Структура инвестиций в основной капитал за счет всех источников финансирования по видам экономической деятельности	2018-2022	$I_l(t)$	МИЛЛИОНОВ СОМОВ.
7	Среднесписочная численность работников по видам экономической деятельности	2018-2022	$L_l(t)$	тысяча человек
8	Численность занятого населения на 01.01 рассматриваемого года	2018-2022	$W(t)$	тысяча человек
9	Структура занятых в экономике по уровню образования	2018-2022	$yed_n(t)$	%
10	Миграционный прирост населения трудоспособного возраста, значение показателя в течение года	2018-2022	$\mu(t)$	человек
11	Численность постоянно занятого населения на 01.01 рассматриваемого года	2018-2022	$S(t)$	тысяча человек
12	Сведения о приеме в высшие профессиональные учебные заведения	2018-2022	$R(t)$	человек
13	Сведения о выпускниках высших профессиональных учебных заведений	2018-2022	$V(t)$	человек
14	Информация о выпускниках системы общего образования	2018-2022	$V_{11}(t)$	человек
15	Сведения о студенческом контингенте	2018-2022	$V_i(t)$	человек

72 16	Информация о приеме студентов в основные группы	2018-2022	$R_k(t)$	человек
17	Выпускники расширенных групп специальностей	2018-2022	$V_k(t)$	человек

В расчетах предполагается, что темп роста производительности труда по каждому сценарию с 2021 по 2025 г. будет равен темпу роста за период 2010-2015 гг.

Результаты. Подобная картина складывается и на региональных рынках труда. Проанализируем ситуацию на рынке труда Республики.

Реальное соотношение спроса и предложения на рабочую силу на рынке труда отражает коэффициент напряженности, который выражает соотношение численности незанятого населения к числу имеющихся вакансий. Чем ближе данный коэффициент к единице, тем больше баланс спроса и предложения [2,3].

Для повышения конкурентоспособности и востребованности профессиональных рабочих на современном рынке труда их подготовку необходимо осуществлять в направлении развития способности адаптироваться в коллективе, обладать высоким уровнем мобильности, интеллектуальной активности и самостоятельности.

В силу ограниченности времени на профессиональную подготовку в организациях ВУЗ образования создаётся проблема выбора средств, необходимых для подготовки конкурентоспособных специалистов. В связи с этим возникает потребность в применении более эффективных методов и средств обучения на всех уровнях образовательного процесса, при котором все участники в равной мере были бы задействованы во всех этапах этого процесса и заинтересованы в получении высоких результатов.

В результате ряда исследований, проведенных со студентами ВУЗа, было установлено, что эффективность обучения напрямую зависит от степени привлечения органов чувств обучающихся. В связи с этим при организации учебного процесса необходимым, на наш взгляд, является использование таких методов, которые будут свойственны как природе человека, так и особенностям его психических процессов.

Одним из наиболее эффективных методов совершенствования процесса обучения образовательных организаций мы считаем использование моделей когнитивной визуализации как на занятиях, так и при самостоятельной работе. Данный метод позволит в короткие сроки усвоить необходимые объемы учебной информации, в результате чего повысится качество образования и будет достигнута основная его цель – подготовка высококвалифицированных рабочих и служащих, способных гибко и оперативно оперировать всей необходимой для профессионального развития и роста информацией.

Для соблюдения [4] баланса спроса и предложения рабочей силы на рынке труда региона подготовку специалистов среднего профессионального образования необходимо осуществлять на основе прогноза изменений ситуации в сфере занятости. Организации профессионального образования должны располагать информацией о потребностях рынка труда в тех или иных специалистах, о наличии у выпускников необходимых профессиональных компетенций для повышения их конкурентоспособности.

Обсуждение. Структура, модель и программное обеспечение информационно-методического обеспечения повышения профессиональной компетентности молодых специалистов представлены на рисунке 1. Представлены следующие таблицы компетенций:

- Достигнуть успеха;
- работать с информацией и принимать решения;
- организация и контроль работы;
- мотивация и развитие сотрудников;
- влиять (указывать) на выполнение работы;
- развивать свою деятельность.

Компетенция – это метод оценки навыков, знаний и личностных качеств на основе поведения человека и внешних признаков. Выберите уровень, который подходит

оцениваемому человеку (вы сами или ваш сотрудник) В программном комплексе представлены следующие оценки для определения компетенций: 3 - высокий уровень развития компетенций; 0 — минимум. Стремление к успеху [5].

Структура набора правил базы данных показана на следующем рисунке:




Рисунок 1. Структура модели определения компетенций молодых специалистов.

Система правил знания данных становится:

A ->F1&L1	A->F2&L2	A->F3&L3	A->F4&L4
B->F5&L1	B->F6&L2	B->F7&L3	B->F89&L4
C->F9&L1	C->F10&L2	C->F11&L3	C->F12&L4
D->F13&L1	D->F14&L2	D->F15&L3	D-F16&L4
E->F17&L1	E->F18&L2	E->F19&L3	E->F20&L4
G->F21&L1	G->F22&L2	G->F23&L3	G->F24&L4

При упрощении ряда импликационных операций:

$\neg A \vee F1 \& L1$	$\neg A \vee F2 \& L2$	$\neg A \vee F3 \& L3$	$\neg A \vee F4 \& L4$
$\neg B \vee F5 \& L1$	$\neg B \vee F6 \& L2$	$\neg B \vee F7 \& L3$	$\neg B \vee F89 \& L4$
$\neg C \vee F9 \& L1$	$\neg C \vee F10 \& L2$	$\neg C \vee F11 \& L3$	$\neg C \vee F12 \& L4$
$\neg D \vee F13 \& L1$	$\neg D \vee F14 \& L2$	$\neg D \vee F15 \& L3$	$\neg D \vee F16 \& L4$
$\neg E \vee F17 \& L1$	$\neg E \vee F18 \& L2$	$\neg E \vee F19 \& L3$	$\neg E \vee F20 \& L4$
$\neg G \vee F21 \& L1$	$\neg G \vee F22 \& L2$	$\neg G \vee F23 \& L3$	$\neg G \vee F24 \& L4$

На основе разработанной математической модели и алгоритмов оптимального распределения выпускников разработан программный комплекс в среде объектно-ориентированного программирования Visual C++.

Методика «Определения компетентности» разработана для повышения профессиональной компетентности молодых специалистов. В этой методике вы сможете на

74 основе таблиц оценивать и отслеживать лидерские качества членов команды и кандидатов на руководящие должности.

Заключение. Определять и прогнозировать потребности в кадрах, вырабатывать перечень востребованных специальностей и компетенций с точки зрения работодателей реализует комплексная методика, в задачи которой входит получение оперативных и достоверных показателей, характеризующих степень трудоустройства выпускников профессиональных образовательных организаций. Данная методика позволяет определить эффективность трудоустройства и установить прогнозные параметры занятости с учетом темпов развития экономики.

Эффективное решение задач, направленных на обеспечение потребностей рынка труда в конкурентоспособных выпускниках среднего профессионального образования, невозможно без соответствующей государственной поддержки. Содействие занятости выпускников, прежде всего в рамках экономической политики Республика Узбекистан, должно кардинальным образом изменить сложившийся дисбаланс спроса и предложения на современном рынке труда.

Библиографический список

1. Фазилов А.Ш., Кучимов М.К. Разработка алгоритма визуального программирования бим-моделей с использованием модуля конструкции с использованием модуля динамо.// Бино ва иншотлар зилзилабардошлигининг долзарб муаммолари республика илмий-амалий анжуман материалар тўплами 18-19 март 2020-йил Тошкент.-Б.26-30

2. Кучимов М.К., Жўраев Ш.М. Ахборот хавфсизлиги аудитини ўтказишга ёндошув ва унинг усуллари// Шаҳарларнинг барқарор ривожланиши-Ўзбекистон шаҳарларининг ривожланиш истикболлари. Халқаро илмий-амалий конференция 2019, Тошкент.-Б.194-198.

3. Kuchimov M. K. Myethodology Of Dyevyelopmyent Of Mathyemactical Models Of Information Procyessing Systyems.// Bullyetin of TUIT: Managyemyent and Communication Tyechnologiyes April 2021 Tashkent .№-4(46) -P.19-26

4. Фазилов А.Ш., Кучимов М.К. Разработка алгоритма моделирования параметрических моделей типовых строительных конструкций. // Inshoot mustahkamligi, turgunligi va zilzilabardoshligi muammolarining yechimida geotexnika va poydevorsozlik ilmining zamonaviy usullari va texnologiyalari xalqora konferensiyaning materiallar to'plami II-qism, 2021, Toshkent.-B.216-223

5. Фазилов А.Ш., Кучимов М.К. Разработка математической модели информационной системы обработки данных. // Бизнес-Эксперт Экономический Научно-Практический Журнал 2021, Тошкент № 4.-С. 98-102

Abdullayeva Maryambibi Djumaniyazovna 75
Alfraganus universiteti pedagogika va psixologiya
kafedrası dotsenti, PhD
abdullayeva.maryambibi@gmail.com
ORCID: - 0000-0002-0522-1692.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI IJTIMOY-HUQUQIY ME'YORLAR BILAN TANISHTIRISH

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijtimoiy-huquqiy normalar bilan ularning yaxlit rivojlanishi uchun tanishtirish muhimligi ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda adabiyot tahlilini boshlang'ich maktab sinflaridagi amaliy aralashuvlar bilan birlashtirgan aralash metodlardan foydalaniladi. Natijalar bunday tashabbuslarning talabalarning ijtimoiy qoidalar va huquqiy tushunchalarni tushunishiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich maktab ta'limi, ijtimoiy-huquqiy normalar, huquqiy ong, ta'lim tadbirlari, o'quv dasturlarini takomillashtirish, bola rivojlanishi.

СОЦИАЛЬНО-ПРАВОВОЕ ВОСПИТАНИЕ УЧАЩИХСЯ МЛАДШИХ КЛАССОВ ОЗНАКОМЛЕНИЕ СО СТАНДАРТАМИ

В данной статье рассматривается значение ознакомления учащихся младших классов с социально-правовыми нормами для их всестороннего развития. В исследовании используется смешанный метод, сочетающий анализ литературы с практическими занятиями в классах начальной школы. Результаты показывают положительное влияние таких инициатив на понимание студентами социальных правил и правовых концепций.

Ключевые слова: Начальное школьное образование, социально-правовые нормы, правосознание, образовательная деятельность, совершенствование учебных программ, развитие ребенка.

SOCIAL AND LEGAL EDUCATION OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS FAMILIARIZATION WITH STANDARDS

This article examines the importance of familiarizing elementary school students with socio-legal norms for their holistic development. The research uses a mixed methods approach that combines literature analysis with practical interventions in elementary school classrooms. The results show a positive impact of such initiatives on students' understanding of social rules and legal concepts.

Key words: Primary school education, socio-legal norms, legal awareness, educational activities, curriculum improvement, child development.

Kirish. O'zbekiston demokratik huquqiy davlatni qurish va adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lidan dadil borib, jahon hamjamiyatida mustahkam o'rin egallamokda. Barqarorlik va tartib, millatlararo totuvlik va fuqarolar ahilligi tufayli yosh davlatimiz ishonch va hurmatga sazovor bo'lmoqda. Mamlakatimizda iqtisodiyot, siyosat, davlat qurilishi, huquqiy tizim va jamiyatni ma'naviy o'zgartirish sohasida keng ko'lamli islohotlar o'tkazilmoqda. O'tkazilayotgan islohotlarning qonuniy zamini yaratildi. Ijtimoiy-siyosiy hayotning huquqiy asoslari izchillik bilan mustahkamlanmoqda va takomillashtirilmoqda. Vatanimizning rivojlanishi va islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan xalqning huquqiy ongi hamda huquqiy madaniyati darajasiga bog'likdir. Shaxsning siyosiy faolligi, uning chinakam fuqaroviy munosabati, demokratik islohotlarga intiluvchanligi belgilangan maqsadlarga tezroq erishishning muhim omilidir. Yuksak huquqiy madaniyat demokratik jamiyat poydevori hamda huquqiy tizim

76 etukligining ifodasidir. U jamiyatdagi turli xil hayotiy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatuvchi, fuqarolarning, barcha ijtimoiy guruhlarining jipslashuviga ko'maklashuvchi, jamiyatning yaxlitligi hamda batartibligini ta'minlovchi va mustahkamlovchi omildir. Qonunni hurmat qilish huquqiy jamiyatning, siyosiy va huquqiy tizimlar samarali faoliyat ko'rsatishining asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Huquqiy madaniyat — umumiy madaniyatning ajralmas tarkibiy qismi. Insonlar ongida shunday ishonch qaror topishi kerakki, huquqiy bilimlarga ega bo'lgan va ularni amaliyotda tatbiq eta oladigan kishigina madaniyatli va bilimli deb hisoblanishi mumkin. Jamiyat va davlat taraqqiyotining hozirgi holati huquqiy munosabatlar barcha ishtirokchilarining huquqiy madaniyatini, huquqiy savodxonligini har tomonlama oshirishni talab qilmoqda. Huquqiy madaniyat huquqiy bilim, huquqiy e'tiqod va izchil amaliy faoliyat majmui sifatida jamiyat va davlat oldida turgan vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishini ta'minlaydi. Mamlakatimizda inson huquqlari va manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy hayotni demokratlashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish va huquqiy davlat asoslarini shakllantirish zaruriyatidan kelib chiqqan holda ushbu Milliy dastur qabul qilindi. Milliy dasturning maqsadi aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo'lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishlari uchun huquqiy madaniyatni shakllantirishning keng qamrovli muntazam tizimini yaratishdir.

Ko'rsatilgan maqsadga erishishda asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya tizimini takomillashtirish;
- barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning qonunga hamda huquqqa hurmat bilan munosabatda bo'lishiga erishish;
- aholining huquqiy savodxonligini oshirish; fuqarolarning ijtimoiy-huquqiy faolligini ta'minlash.

Huquqiy madaniyatni shakllantirish va yuksaltirish sohasidagi davlat siyosati quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

- inson huquqlari va erkinliklarining ustuvorligi;
- Konstitutsiya va qonunning ustunligi; demokratiyaga asoslanganlik; ijtimoiy adolat; ilmiylik; uzluksizlik;
- huquqiy tarbiyadagi vorislik hamda umumiylik; huquqiy axborotning hamma uchun ochiqqligi;

-huquqiy tarbiya va huquqiy maorifning birligi hamda ularga tabaqalashtirilgan yondashuv.

Yuksak huquqiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- fuqaro, jamiyat va davlatning o'zaro munosabatlarida aholining huquqiy madaniyati hamda ijtimoiy faolligi yuksalishini ta'minlash;
- aholining huquqiy madaniyatini shakllantirishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish;
- aholini huquqiy axborot bilan ta'minlash, ilmiy-ommabop yuridik adabiyotlar nashr qilinishi va tarqatilishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;
- huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya vositalari va usullarini takomillashtirish;
- yuridik ta'lim, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning zamonaviy tizimini rivojlantirish;
- huquqiy madaniyatning ilmiy asoslarini tadqiq etishni rag'batlantirish, ijtimoiy-huquqiy tadqiqotlarni tashkil etish;
- milliy an'analar hamda jahon tajribasidan foydalanish asosida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirish kabilar.

Yuqorida keltirib o'tilgan huquqiy mezonlarni yoshlar ongida tarkib toptirish, ularda kichik maktab yoshidan boshlab huquqiy madaniyatini shakllantirish kabi masalalar bugungi kunda davlat siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirish maktab ta'lim tizimi zimmasiga katta ma'suliyat yuklaydi.

Davrning ushbu o'ta muhim talabi hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qator qaror va farmoyishlar hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlari mazmunida o'zining yorqin ifodasini topgan.

Respublikada fuqarolik boshqaruviga asoslangan jamiyat qurish yo'lida o'quvchilar, shu jumladan, boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijtimoiy-huquqiy me'yorlar bilan yaqindan tanishtirish, ularga qat'iy amal qilish ko'nikmalarini shakllantirish bugungi kunning dolzarb masalasi, bosh shioriga aylandi. [6]. Zero, "Huquqiy madaniyatning yuqori darajada bo'lishi huquqiy davlatning o'ziga xos xususiyatidir. Bozor iqtisodiyotini shakllantirish sharoitida huquqiy madaniyatni oshirish muhim ish hisoblanadi. Shu bilan birga huquqiy madaniyat saviyasi qabul qilingan qonunlar soni bilan emas, balki ushbu qonunlarning barcha darajalarda ijro etilishi bilan belgilanadi. Ushbu muhim ishda odamlarda qonunlarga va normativ huquqiy hujjatlarga nisbatan chuqur hurmat hissini tarbiyalash alohida ahamiyatga egadir. Zero, huquqiy normalar odamlar ongiga singgan va ular orqali amal qilgan taqdirdagina yashaydi va ro'yobga chiqadi". Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy-huquqiy me'yorlarga hurmat hissini shakllantirish muayyan vaqtni talab etadi. Mazkur vaqt oralig'ida ana shu maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlari hamda bilish darajasini inobatga olgan holda ular tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan ijtimoiy-huquqiy me'yorlarni ajratib olish;

- ko'rsatilgan yosh davri o'quvchilarining hayoti, kundalik faoliyatlarida ahamiyatli bo'lgan ijtimoiy-huquqiy me'yorlarni ular ongiga singdirishning maqbul shakl, metod va vositalarini aniqlash;

- ijtimoiy-huquqiy me'yorlarning ahamiyatini ko'rsatish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida ularni o'zlashtirishga nisbatan ehtiyojni qaror toptirish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan ijtimoiy-huquqiy me'yorlar mohiyat-mazmunining puxta anglanishiga erishish;

- ijtimoiy-huquqiy me'yorlar to'g'risida ma'lumot berishda pedagogik faoliyatning ko'rgazmali-amaliy xususiyat kasb etishiga e'tiborni qaratish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ongiga ijtimoiy-huquqiy me'yorlarning mohiyati to'g'risidagi tushunchalarni singdirish, ularga nisbatan hurmatni qaror toptirish masalalar mazkur yo'nalish doirasida o'z yechimini kutayotgan muammolardan biridir.

Muammoni o'rganishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh, psixologik xususiyatlari va bilish darajasiga muvofiq holda ular tomonidan o'zlashtirish mumkin bo'lgan ijtimoiy-huquqiy me'yorlar ajratib olindi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq deb topilgan ijtimoiy-huquqiy me'yorlar mazmunan ikki: ijtimoiy me'yorlar va huquqiy me'yorlar kabi guruhlariga ajratildi.

Har ikki guruhga kiritilgan me'yorlar o'rtasida muayyan farq mavjudligi (rioya etilishiga ko'ra huquqiy me'yorlarning majburiylik yoki ijtimoiy me'yorlarning ixtiyoriylik xarakterga egaligi)ga qaramay, ular umumiy maqsadga – ijtimoiy munosabatlarni mo'tadil tashkil qilish va tartibga solishga yo'naltiriladi.

Nazariy tahlil va boshlang'ich sinf o'quvchilarining faoliyatlarini kuzatish natijasida ularni quyidagi ijtimoiy me'yorlar bilan tanishtirish pedagogik jihatdan to'g'ri deb topildi: shaxsning oila, jamiyat, davlat, moddiy borliq, ijtimoiy aloqalar va tabiatga bo'lgan munosabati mazmunini ifodalovchi ma'naviy-axloqiy qarashlar, milliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, xalq pedagogikasi g'oyalari.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan huquqiy me'yorlarning o'zlashtirilishi va ularga amal qilinishi ham ahamiyatli bo'lib, turli ko'rinishdagi faoliyatni qonuniy tarzda amalga oshirishga odatlanishlari, qonunlarni hurmat qilish hissiga ega bo'lishlariga yordam beradi. Huquqiy me'yor ijtimoiy me'yorlarning bir turi bo'lib, "ma'lum bir sharoitlarda o'zini qanday tutish haqidagi axborotdan iborat bo'lgan irodaviy tartibga soluvchi ko'rsatma" sifatida aks etadi. "Uning xususiyati shundaki, bu davlat bilan mustahkam bog'langandir. U qonunda yoki boshqa huquqiy aktda aks ettirilgan bo'lishi, davlatning majburlash kuchi bilan ta'minlanishi kerak.

78 Huquqiy me'yor ijtimoiy munosabatlarni davlatning vazifalari va funksiyalari bilan mos kelgan holda tartibga solinishiga qaratilgandir.

Davlat esa huquqiy me'yorlarning amalga oshirilishi shakllarini belgilab beradi".

O'rganish natijalari boshlang'ich sinf o'quvchilari quyidagi huquqiy me'yorlardan xabardor bo'lishlari zarurligini ko'rsatdi: davlat ramzlari (davlat Prezidenti, bayrog'i, gerbi, madhiyasi, pul birligi)ga hurmat ko'rsatish, davlat va fuqarolar mulkiga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, jamoat tartibini saqlash, jamoat transportidan foydalanish, ta'lim muassasasining ichki tartib-qoidalariga rioya qilish, iste'molchi sifatida huquq va burchlarini bilish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini huquqiy me'yorlar bilan tanishtirish chog'ida ularning xarakteriga ko'ra ta'qiqlovchi, majburlovchi va vakolat beruvchi me'yorlarga ajratilishini tushuntirish, ularning mohiyatini ko'rgazmali tarzda, hayotiy (bevosita o'quvchilar faoliyatiga oid) misollar yordamida ochib berish pedagogik faoliyat samaradorligini ta'minlaydi.

Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilari ongiga ijtimoiy-huquqiy me'yorlarning mohiyati to'g'risidagi tushunchalarni singdirish, ularga nisbatan hurmatni qaror toptirish masalalari mazkur yo'nalish doirasida o'z yechimini kutayotgan muammolardan biri hisoblanadi. Bu yo'lda pedagogik faoliyatni tashkil etishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixologiya xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning hayoti, kundalik faoliyatiga aloqador ijtimoiy-me'yorlarni ajratib olish talab etiladi. Ular haqida o'quvchilarga ma'lumot berishda esa pedagogik faoliyatning ko'rgazmali bo'lishiga, hayotiy misollardan o'rinli foydalanishga alohida e'tibor qaratish ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishning kafolati sanaladi. Ijtimoiy mas'uliyatli va qonunga bo'ysunuvchi fuqaroning poydevori bolalikdan boshlanadi. Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarini yoshligidan fuqarolik javobgarligini his qilish uchun ijtimoiy-huquqiy normalar bilan tanishtirishning ahamiyatini o'rganadi. Maqsad bolalarning ijtimoiy qoidalar va huquqiy tushunchalar haqidagi tushunchalarini oshirishda ta'lim tadbirlarining samaradorligini o'rganishdir.

Mavjud adabiyotlarni har tomonlama ko'rib chiqish ijtimoiy-huquqiy ta'limni boshlang'ich maktab o'quv dasturlariga kiritish zarurligini ta'kidlaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, huquqiy tushunchalarga erta ta'sir qilish mas'uliyatli va ma'lumotli fuqarolarning rivojlanishiga yordam beradi. Tahlil shuningdek, turli xil pedagogik yondashuvlar va ularning bolalarning kognitiv va axloqiy rivojlanishiga ta'sirini o'rganadi.

Usullar. Ijtimoiy-huquqiy ta'limning ta'sirini baholash uchun aralash usulli yondashuv qo'llanildi. Sinf tadbirlari yoshga mos materiallar va interfaol tadbirlarni o'z ichiga olgan boshlang'ich maktablarning namunalari o'tkazildi. Talabalarning bilimlari va ijtimoiy-huquqiy normalarga bo'lgan munosabatidagi o'zgarishlarni aniqlash uchun aralashuvdan oldingi va keyingi baholashlar, shu jumladan so'rovlar va intervyular o'tkazildi.

Natijalar. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ijtimoiy-huquqiy normalarni ko'rib chiqishda bolalarga adolat, adolat va mas'uliyatning asosiy tushunchalarini tushunishga yordam beradigan yoshga mos printsiplarga e'tibor qaratish lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos bo'lgan ba'zi ijtimoiy-huquqiy normalar:

Boshqalarga hurmat:

- O'quvchilarni sinfdoshlari, o'qituvchilari va boshqa maktab xodimlarini hurmat qilishga o'rgatish.

- Boshqalarga muomala qilishni xohlagan tarzda munosabatda bo'lish muhimligini ta'kidlang[1].

Bezorilikka Qarshi Normalar:

- Talabalarga bezorilikning zararli ta'siri haqida o'rgatish orqali kuchli bezorilikka qarshi madaniyatni singdirish.

- O'quvchilarni bezorilikka guvoh bo'lsa, gapirishga va o'qituvchilar yoki maktab ma'murlaridan yordam so'rashga undash.

Adolatli O'yin:

- O'yinlar va tadbirlarda adolatli o'yin g'oyasini targ'ib qilish.

- Qoidalariga rioya qilish va aldamaslik muhimligini ta'kidlang.

Javobgarlik:

- Talabalarni o'z harakatlari uchun javobgarlikni olishga o'rgating.
- Ularga xatti-harakatlarining o'zlariga va boshqalarga oqibatlarini tushunishga yordam bering.

Halollik:

- Barcha vaziyatlarda halollikning qadr-qimmatini ta'kidlang.
- Talabalarni xatolarni tan olishga va ulardan saboq olishga undash[2].

Almashish va hamkorlik:

- Talabalar o'rtasida almashish va hamkorlik madaniyatini rivojlantirish.
- Ularga umumiy maqsadlarga erishish uchun birgalikda ishlash muhimligini o'rgating.

Mulklarga zarar yetkazmaslik:

- O'quvchilarga maktab mulkini, shuningdek tengdoshlarining shaxsiy narsalarini hurmat qilish to'g'risida ma'lumot berish.

- Vandalizm va o'g'irlik oqibatlarini muhokama qiling.

Mojarolarni hal qilish:

- Talabalarga nizolarni hal qilishning asosiy ko'nikmalarini taqdim etish.
- Ularga his-tuyg'ularini qanday ifoda etishni va nizolarni tinch yo'l bilan hal qilishni o'rgating.

Hokimiyatni Tushunish:

- Talabalarga o'qituvchilar va boshqa maktab ma'murlarining rolini tushunishga yordam bering.
- Ularni ko'rsatmalarga rioya qilishga va kerak bo'lganda yordam so'rashga o'rgating[3].

Raqamli Fuqarolik:

- Raqamli fuqarolikning yoshga mos tushunchalarini, shu jumladan texnologiyadan mas'uliyatli foydalanish va onlayn xatti-harakatlarni joriy etish.
- Internetda boshqalarning maxfiylikini hurmat qilish muhimligini ta'kidlang.

Fuqarolik Xabardorligi:

- Jamiyat va fuqarolik javobgarligining asosiy tushunchalarini tanishtirish.
- Talabalarni jamoat ishlarida yoki tadbirlarda ishtirok etishga undash.

Inklyuzivlik:

- Inklyuzivlikni targ'ib qiling va talabalarni farqlarni, shu jumladan madaniy, irqiy va diniy xilma-xillikni qabul qilishga o'rgating[4].

Ushbu me'yorlar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun rivojlanish uchun mos keladigan tarzda kiritilishi kerakligini unutmang. Yoshga mos til, misollar va interfaol tadbirlardan foydalanish ushbu ijtimoiy-huquqiy normalarni mazmunli ravishda mustahkamlashga yordam beradi. Bundan tashqari, ushbu munozaralar va tadbirlarga ota-onalarni jalb qilish darslarning ta'sirini kuchaytirishi mumkin.

Munozara. Munozara natijalarni mavjud adabiyotlar kontekstida izohlab, bolaning axloqiy kompasini shakllantirishda boshlang'ich ta'limning rolini ta'kidlaydi. Topilmalar ijtimoiy-huquqiy normalarga erta ta'sir qilish ijtimoiy mas'uliyatli fuqarolarning rivojlanishiga hissa qo'shadi degan dalilni tasdiqlaydi. Bo'lim, shuningdek, potentsial muammolarni hal qiladi va ularni bartaraf etish yo'llarini taklif qiladi.

Xulosalar. Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy-huquqiy ta'limni boshlang'ich maktab o'quv dasturlariga kiritish o'quvchilarning ijtimoiy qoidalar va huquqiy tushunchalarni tushunishiga ijobiy ta'sir qiladi. Topilmalar mas'uliyatli fuqarolarni yoshligidan shakllantirishda proaktiv chora-tadbirlarning muhimligini ta'kidlaydi.

Tadqiqot asosida ta'lim siyosatchilariga boshlang'ich maktablarda ijtimoiy-huquqiy ta'limni kiritish uchun o'quv dasturlarini takomillashtirishni ko'rib chiqish tavsiya etiladi. O'qituvchilarni tayyorlash dasturlari ushbu tushunchalarni berishning samarali pedagogik usullariga qaratilishi kerak. Bundan tashqari, yuridik mutaxassislar va jamoat rahbarlari bilan hamkorlik bunday tashabbuslarning ta'sirini kuchaytirishi mumkin.

80

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida ijtimoiy-huquqiy ongni rivojlantirish mas'uliyatli fuqarolarni tarbiyalashda juda muhimdir. Ushbu tadqiqot ta'lim tadbirlarining samaradorligi to'g'risida qimmatli tushunchalarni beradi va yosh ongda ijtimoiy va huquqiy javobgarlik hissini uyg'otish uchun akademik bilimlardan tashqari boshlang'ich ta'limga yaxlit yondashuvni qo'llab-quvvatlaydi.

Adabiyotlar

1. Каримова О., Ғаффоров З. Давлат ва ҳуқуқ асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 45-346- б.
2. О'zbekiston respublikasi Oliy majlisining 1999-yil 28-avgustdagi jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi to'g'risida" gi 466-i-son qarori.
3. Karimov I.A. Yuksak huquqiy tafakkur – “demokratik jamiyat taqozosi” Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. 6-tom. – Toshkent: O'zbekiston, 1998. – 322-bet.
4. Hakimova N.S. “Kichik yoshdagi o'quvchilarda ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik ahamiyati” Psixologiya. -Buxoro, 2022. №5. -146- 149. (13.00.00; №14).
5. Hakimova N.S. “Boshlang'ich sinf o'quvchilari hayotida ijtimoiy-huquqiy me'yorlarning o'rni” “Pedagogik mahorat” Buxoro, 2022-№5. -98-101. (13.00.00; №23).
6. Amonov U. S. O'qish darslarida maqol janridan foydalanish usullari va ahamiyati: DOI: 10.53885/edinres. 2021.53. 34.

BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING BADIY VA IJODIY FAOLIYATIDA ESTETIK EHTIYOJLARNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Maqola mavzusining dolzarbligi uning amaliy ahamiyati bilan belgilanadi. Maqolada san'atshunoslik fakulteti talabalarining badiiy va ijodiy faoliyati, badiiy va ijodiy jarayonda estetik ehtiyojlarni shakllantirish yo'llari, o'rganish tajribasida shakllar, usullar va vositalar yordamida bir qator vazifalarni bajarish samaralari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: badiiy faoliyat, ijodiy faoliyat, estetik ehtiyoj, ijodiy jarayon, badiiy did, usul, san'atshunoslik.

МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ ЭСТЕТИЧЕСКИХ ПОТРЕБНОСТЕЙ В ХУДОЖЕСТВЕННО-ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА

Актуальность темы статьи определяется ее практической значимостью. В статье показана художественно-творческая деятельность студентов факультета искусств, способы формирования эстетических потребностей в художественно-творческом процессе, последствия выполнения ряда задач с использованием форм, методов и средств в учебном опыте.

Ключевые слова: художественная деятельность, творческая деятельность, эстетическая потребность, творческий процесс, художественный вкус, метод, искусствоведение.

METHODOLOGY FOR THE FORMATION OF AESTHETIC NEEDS IN THE ARTISTIC AND CREATIVE ACTIVITIES OF FUTURE FINE ARTS TEACHERS

The relevance of the topic of the article is determined by its practical importance. The article shows the artistic and creative activities of the students of the faculty of art, the ways of forming aesthetic needs in the artistic and creative process, the results of performing a number of tasks with the help of forms, methods and tools in the learning experience.

Key words: artistic activity, creative activity, aesthetic need, creative process, artistic taste, method, art science.

Kirish. Kasbiy kompetentlik va estetik ehtiyojni shakllantirish talabalarga ta'lim berishda samarali usullarni tanlashni talab qiladi. Bunda talabalarni mustaqil tadqiqotlarga (madaniy, tarixiy, badiiy, amaliy-bezak, etnomadaniy va boshqalar), badiiy-ijodiy faoliyatga (rasm, manzara, kompozitsiya, grafika, amaliy-bezak asarlari, xalq hunarmandchiligi alohida ahamiyat kasb etadi. Estetik ehtiyojlarni shakllantirish maqbul shakllarni tanlashda katta afzalliklarga egaki, san'atshunoslik fakulteti talabalariga o'qitishni tashkil etish alohida ahamiyatga ega bo'la oladi.

Asosiy qism. Talabalarni mustaqil tadqiqotga jalb qilish (madaniy, tarixiy, badiiy, dekorativ-amaliy, etnomadaniy va boshqalar), badiiy-ijodiy faoliyat (ustaxonalarda ishlash, rasm chizish, kompozitsiya, grafika, san'at va hunarmandchilik, xalq hunarmandchiligi va universitetning badiiy fanlari o'qituvchilari va yetakchi ustalari bilan hunarmandchilik), mahorat yangi axborot texnologiyalari (kompyuter grafikasi – Adobe Photosh dasturlari)..., CorelDRAW, Power Point, 3D MAX-studio, Macromedia Flash va boshqalar, kompyuter dizayni, san'at reklama va boshqalar). Ushbu ishning samaradorligi shubhasizdir: U kelajakdagi professional

82 faoliyat uchun san'atshunoslik fakultet talabalarini aniq yo'naltiradi. Bundan tashqari, talaba mustaqil ravishda kognitiv faoliyatni amalga oshiradi.

Ijodiy jarayon ko'p jihatdan ehtiyojlar darajasiga bog'liq. Estetik ehtiyojlar alohida joy chunki ular shaxsning boshqa ehtiyojlari va qiziqishlari bilan uzviy bog'liqdir. Estetik ehtiyojlarni shakllantirish garmonik ta'limda muhim rol o'ynaydi san'atshunoslik fakulteti talabalari va ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, chunki estetik ehtiyojlar va qobiliyatlar bilan, albatta, tabiiy aloqalar mavjud.

Ehtiyojlar har qanday inson faoliyatining boshlang'ich nuqtasidir. "Estetik" tushunchasi keng ma'noga ega bo'lib, badiiy go'zallikka tegishli hamma narsani qamrab oladi. Shuningdek, "ulug'vor", "suluv", "yuksak"; ularning teskarisini tashkil etadigan tushunchalar, "tuban", "xunuk", "past" va boshqalar estetik tushunchalarni anglashga ko'mak beradi. "Estetik" tushunchasi insonning barcha mehnat faoliyati bilan bog'liq, chunki unda badiiy boshlanish keltiriladi. Estetik ehtiyojlarni shakllantirish, olimlarning fikriga ko'ra, turli xil narsalarni tasdiqlashni anglatadi. Shaxsning o'zini o'zi anglash shakllari, uning ijodiy salohiyatini ochib beradi. Estetik ehtiyojni badiiy ijodga bo'lgan ehtiyoj sifatida ko'rib chiqish mumkin. Ta'kidlash kerak, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ehtiyojlar ularning shakllanishi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqilmaydi va rivojlanish, asosan, estetik ehtiyojlarni qondirish jarayoni sifatida, odatda, san'at asarlarini idrok etish orqali mavjud ekanligi o'rganiladi. Biz estetik ehtiyojlar bilan qiziqamiz, pedagogik tartib muammosi, ya'ni talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda, ularning ahamiyati va roli, tasvirning ijodiy fazilatlarini darajasi jiddiy tarzda bog'liqdir.

Badiiy fanlarni o'qitish jarayonida estetik fanlar sezilarli darajada to'ldirilmoqda. Taqdimotlar, estetik qadriyatlar shakllanib, estetik ehtiyojlar tobora ko'proq qondirilmoqda. Shubhasiz, miqdorga va sifatga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Estetik ehtiyojlar va ularni qondirish faoliyatga alohida munosabatni rivojlantiradi, bu juda muhim.

Ta'lim faoliyatida tashqi ko'rinishning rolini oshirish masalasi dolzarbdir. Shuning uchun estetik ehtiyojni shakllantirish san'at va voqelikning estetik va badiiy fazilatlarini rivojlantirish jarayonlarini, shuningdek uni "tasvir va shaklda" yaratishni o'z ichiga olishi kerak. Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda estetik ehtiyojlar shakllanish jarayonining ikkala qismi ham ishtirok etadi. Tabiatdan rasm chizish vizual faoliyatni o'z ichiga oladi, bu faqat tafakkur emas, balki o'zgarish hamdir. Shuning uchun qobiliyat alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Talabalarning o'quv va ijodiy chizmalarining estetik fazilatlarini aniqlash, ularni yuqori darajaga yetkazish qobiliyati mukammallikni yuzaga keltiradi. Estetik ehtiyojlarni shakllantirish qonuniyatlarini ko'rib chiqishda muhim ahamiyatga ega. Buni rassomning estetik qadriyatlarni idrok etish zarurati sifatida hisobga olish zarur. Tabiat va ularni individual idrok asosida tasvirlash, ya'ni iste'mol birligi sifatida o'rganish va yaratilish ekanini bilish muhim. Estetik ehtiyojlarning rivojlanishiga hissiy omil va estetik tushunchalar ta'sir qiladi. Idrok: san'at asarlari (rasm, grafika), adabiyot, arxitektura, musiqa, xalq ijodkorlik, san'at va hunarmandchilik, teatr, kino, televidenie, internet kabi sohalar rivojida alohida o'rin tutadi. Eng muhim joyi shundaki, ular orasida tasviriy san'at asarlari mavjud.

Muhokamalar va natijalar. Grafik varaqlarni idrok etadigan talabalar, rassomlik, haykaltaroshlik, rasmning estetik fazilatlarini ko'ring. Badiiy idrokning o'zida estetik fazilatlarga ega bo'lgan asarlar estetik fazilatlarini shakllantirish imkoniyatini yaratdi. Ehtiyojlar, chunki "...san'at asarini idrok etuvchi estetik obyekt bilan shug'ullanadi, bu hodisaning mohiyatini ta'kidlaydi, ichki, muhim, obyekt bilan, har bir tafsilotni ta'kidlaydi u yoki bu tarzda insonning estetik ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Ehtiyojlar ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, estetik qobiliyatlarni shakllantirish bilan tabiiy bog'liqdir. Estetik ehtiyojlarni shakllantirishning ba'zi vazifalarini ta'kidlash kerak. Bu avvalo, o'quv qo'llanmasining estetik fazilatlarini idrok etish qobiliyati va ehtiyojlarini rivojlantirishga aloqador.

Amaliy ish jarayonida uning estetik, badiiy, hissiy yo'nalishga ega bo'lishiga harakat qilish kerak. Estetik ehtiyojlar "ehtiyoj" deb ta'riflanadi. Bu umumiy tushuncha sifatida ta'riflanganidir.

Aslida bu ko'p qirrali hodisa bo'lib, o'z-o'zidan va hissiy jihatdan to'yingan idrok etish va san'atga aloqadordir.

Badiiy va ijodiy faoliyatda hissiy omil eng muhim omil va estetik ehtiyojlarni shakllantirishning zarur vositasi hisoblanadi. Talaba san'at asarlari yoki hodisalaridan zavq oladi, unda quvonch, zavq, hayrat hosil bo'ladi. Zavqning estetik zavq ko'rinishi bor. Bundan kelib chiqadiki, o'quv jarayonida estetik zavqning paydo bo'lishini ta'minlash muhimdir. Talabaning badiiy, ijodiy va o'quv faoliyatida estetik zavq kerak. Uni hosil qilishning mazmuni, shakllari va usullari bor.

Obyektning mohiyatini bilish va hissiy baholash, ayniqsa, uning organik tarkibida yaqqol namoyon bo'ladi. Ijodiy faoliyat jarayonida birlik va ajralmaslik muhim. Faqat faol ijodiy faoliyat shaxsning o'zini, hissiy va baholovchi munosabatini, darajasini aniq namoyon qilishi mumkinligiga imkoniyat yaratadi, natijada badiiy rivojlanish yuzaga keladi. Agar talabalar faqat ma'lum badiiy asarlarni bilsalar, ayrimlarini bilmasalar estetik ehtiyojlari passiv sanaladi. Ulardagi estetik ehtiyojlarni shakllantirish har qanday badiiy ijodiy faoliyat bilan shug'ullanishga intilishlarini rivojlantiradi.

Xulosa. Shunday qilib, badiiy va ijodiy jarayonda faoliyat, bir tomondan, shakllanishning yaxlit integral jarayoni sifatida ko'rib chiqiladi. Kasbiy kompetentsiya tizimlari, motivatsiya xususiyatlari, talaba shaxsining o'ziga xos xususiyatlarini faollashtirish, boshqa tomondan jarayonni tushunish natijasida umumlashtirishning turli darajalarida (umumiy, maxsus, yagona) amaliy faoliyat tajribasi hosil bo'ladi. Ayni damda, talabalar bir-biriga ta'sir qiladi. Ijtimoiy o'zaro ta'sir sohasi ham zarur, chunki bu holatda kelajakdagi rassom, ijodkorning shaxsiyati shakllanadi. Estetik ehtiyojlarni shakllantirishning yana bir muhim sharti zarurki, bu talabalarni o'qitish va tarbiyalash jarayonida individual yondashuvdir. Shaxsiy o'qitish usuli talabalarning o'quv va ijodiy faoliyatini rag'batlantiradi.

Adabiyotlar

1. B.B. Boymetov, Qalamtasvir. Darslik. – Toshkent: Musiq, 2006.
2. Ерохин СВ. Классификация цифровых направлений изобразительного искусства. Эстетика и этика в изменяющемся мире: Тезисы докл. Межд. научн. конф. (2-3 апреля 2009 г.). СПб., 2009. – С 40. 0,1
3. P.Thomas, A.Taylor Drawing. – London, 2011.

Kuchkarov Bahodir Tashmurodovich
O'zbekiston qurolli kuchlar akademiyasi
mustaqil izlanuvchisi

HARBIY TA'LIM MUASSASALARI KURSANTLARIDA UMUMMADANIY KOMPETENTLIK TUZILMASI VA UNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Maqolada oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlari umummadaniy kompetentligi tuzilmasi, uning asosiy tarkibiy qismlari, ushbu tuzilmani shakllantirish borasidagi pedagogik ishlar tizimi (pedagogik texnologiya) bayon qilingan. Umummadaniy kompetentlik tuzilmasi masalasiga nisbatan turli xil nazariy yondashuvlar tahlil qilingan, ushbu kompetentlikni shakllantirish bo'yicha samarali metodlar tizimlashtirilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, madaniyat, struktura, texnologiya, ijtimoiy tajriba translyatsiyasi

СТРУКТУРА ОБЩЕКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ КУРСАНТОВ ВОЕННО-УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ И ТЕХНОЛОГИЯ ЕЕ РАЗВИТИЯ

В статье изложена структура общекультурной компетентности курсантов высших военно-учебных заведений, ее основные компоненты, система педагогической работы по формированию этой структуры (педагогическая технология). Были проанализированы различные теоретические подходы к вопросу о структуре общекультурной компетентности, систематизированы эффективные методы формирования этой компетентности.

Ключевые слова: компетенция, культура, структура, технологии, передача социального опыта

STRUCTURE OF GENERAL CULTURAL COMPETENCE OF CADETS OF MILITARY EDUCATIONAL INSTITUTIONS AND TECHNOLOGY OF ITS DEVELOPMENT

The article describes the structure of the general cultural competence of cadets of higher military educational institutions, its main components, the system of pedagogical work on the formation of this structure (pedagogical technology). Various theoretical approaches to the issue of the general cultural competence structure have been analyzed, effective methods for the formation of this competence have been systematized.

Keywords: competence, culture, structure, technology, transmission of social experience

Kirish. Daraxtning ildizi qanchalik chuqur va tarmoqlangan bo'lsa, u shunchalik mustahkam, uning umri shunchalik davomli, hosili esa mo'l-ko'l bo'ladi. Insoniyat ko'p ming yillik taraqqiyoti davomida jamiyatni rivojlantirishning ta'lim, ilm va hunardan samaraliroq vositasini kashf qila olgan emas. Shu sababli ham ta'lim, ilm-fan har qanday jamiyat, millat va davlatning kelajagini belgilab beradigan, uning taraqqiyotiga xizmat qiladigan muhim omildir. Mamlakatimizning taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o'rin olishi uchun aholi ta'limini jadallashtirish va uning samaradorligini oshirish maqsadi ham ilg'or pedagogik tadbirlardan, texnologiyalardan keng foydalanishimizni talab etmoqda.

Ma'lumki, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi, Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash

bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi farmon, Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risidagi qaror hamda Oliy ta'lim muassasalarini bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirishga o'tkazish to'g'risidagi qarorda asosiy e'tibor respublika oliy ta'lim muassasalarini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi mingtaligidan o'rin olishini ta'minlashga qaratilgan. Qolgan masalalar shu maqsadga erishish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Tabiiyki, bugungi kunda oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ayni shu maqsadlarga qaratilgan va u zamon bilan hamnafas tarzda takomillashtirib borishni taqozo etadi.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. E. A. Demina ta'kidlashicha, davlat ta'lim standartlari umumiy madaniy kompetentsiyalarni shakllantirishda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Birinchi xususiyat shundaki, kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirish davlat ta'lim standarti tomonidan o'quv fanlari, kasbiy modullar orqali standartlashtirilgan, umumiy madaniy kompetentsiyalarni shakllantirish borasida yondashuvlar esa aniq ko'rsatmalarga ega emas. Ikkinchi xususiyat o'zini shunda namoyon qiladiki, kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirish to'g'risida professional modul dasturini ishlab chiqqandan so'ng aniq qaror qabul qilinadi va umumiy madaniy kompetentsiyalarni shakllantirish faqat butun asosiy kasbiy ta'lim dasturini ishlab chiqqandan keyin baholanishi mumkin. Uchinchi xususiyat shundaki, umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish bosqichlarida aspektlarning shakllanishi umumiy madaniy kompetensiyalar har bir kompetensiyani shakllantirish jarayonida kursantlar faoliyati darajasiga qo'yiladigan talablarga muvofiq baholanishi kerak [4].

M.J.Boltayeva fikricha, umummadaniy kompetentlik bo'lg'usi fani o'qituvchilari uchun juda zarur va kasbiy faoliyatlari uchun ahamiyatli bo'lgan ko'nikma hisoblanadi. Tadqiqotchi umummadaniy kompetentlikka "vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, insoniyat tomonidan e'tirof etilgan madaniy ko'nikmalarga ega bo'lish, umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo'lish, xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashni o'z ichiga oladigan kompetentlik hisoblanadi" – deya ta'rif beradi [3].

Oliy harbiy ta'lim muassasasi kursantlarining kasbiy faoliyati – mashaqqatli va sharaflil kasb sanaladi. Innovatsion rivojlanish jadal sur'atlar bilan amalga oshirilayotgan davrda bu kasb insonni doimiy izlanishda bo'lishga, rivojlanishga, kasbiy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy jihatdan takomillashuvga undaydi. Bunday talab bo'lajak ofitserlarning umummadaniy kompetentligini oshirada muhim o'rin egallaydi.

Birinchi o'rinda, yuqori professional darajaga ega, harbiy mutaxassis sifatida o'z kasbining ustasi bo'lishi kerak. Shunday ekan, undan har ikkala kasbiy sifatlar, bilimlar, ko'nikma va malakalar, qadriyatlar kompleksi mujassam bo'lishi lozim.

"Umumiy madaniy kompetentlik" tushunchasining o'ziga xos xususiyatlari ushbu kompetentlikning pedagogik jarayon va shaxsni rivojlanishining boshqa jihatlari bilan bog'liq mazmun, funktsiyalaridan tarkib topadi.

Ushbu kategoriyaga madaniyat va pedagogik faoliyatning barcha asosiy funktsiyalari kiradi, ammo har biri o'ziga xos xususiyatlarini saqlaydi. Tadqiqotchilar bunday funktsiyalar sirasiga ijtimoiy tajriba translyatsiya, madaniyat yaratish, kommunikativ, tartibga solish, ijodiyot, aksiologik, madaniyatlararo aloqa funktsiyalarini kiritishadi. Ijtimoiy tajribani translyatsiya qilish funktsiyasi tarixiy rivojlanish va madaniy meros asosi bo'lmish kelajak avlodlar uchun faoliyat natijalarining saqlab qolinishini ta'minlaydi. Ammo ijtimoiy tajriba translyatsiyasining tabiati tarixiy jihatdan o'zgaruvchan bo'lib, bu pedagogika fani oldiga unga yangi yondashuvlarni ishlab chiqish talabini qo'yadi. Shaxsning ijtimoiy tajribani o'zlashtirishi va amalda qo'llashini ta'minlash birgalikdagi faoliyat jarayonida, ma'lum bir madaniy muhitda muloqotda sodir bo'ladi va insonning jamiyat hayotiga normal, og'riqsiz kirishishidan dalolat beradi.

L.S. Troyanskoy fikricha umummadaniy kompetensiya strukturasi quyidagi ko'rinish oladi[6]:

- kognitiv komponent;
- qadriyatli- yo 'naltiruvchi komponent;
- kommunikativ-faoliyatga oid komponenti.

O. E. Lebedevning tuzilmasi yuqoridagi tuzilmadan farq qiladi va quyidagicha ko'rinish oladi [5]:

- madaniyatning asosiy manbalariga yo'nalish. Ushbu komponent turli xil san'at turlari bilan tanishishni anglatadi;

- axborot manbalarida yo'l topa olish qobiliyati. Faqat kerakli va tegishli ma'lumotlarni tanlash va tanlash qobiliyati;

- voqelik hodisalarini tushuntirish qobiliyati. O'ziga va boshqalarga kundalik hayot hodisalarini ilmiy nuqtai nazaridan tushuntirish qobiliyati;

- zamonaviy jamiyatning ijtimoiy muammolarida yo'l topa olish qobiliyati. Ushbu muammolarni hal qilishda ishtirok etish istagiga ega bo'lish;

- ijtimoiy, axloqiy va estetik qadriyatlar dunyosida harakat qilish qobiliyati.

Aytish kerakki, oliy ta'lim tizimida umumiy madaniy kompetentsiyalarning ahamiyati anchagina yuqori. Umummadaniy kompetentlik, boshqa kompetensiyalardan farqli ravishda, doimiylik xarakteriga ega. Misol uchun, agar kasbiy kompetentsiyalar qisqa muddatli bo'lishi mumkin bo'lsa, inson butun hayoti davomida bazaviy kompetentsiyalarni qo'llaydi, ushbu kompetentsiyalar mutaxassisga yangi kompetentsiyalarni egallashda yordam beradi, bu esa o'z navbatida uning kasbiy rivojlanishida yangi cho'qqilarni zabt etishga imkon yaratadi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, faoliyat tajribasi va tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, umumiy madaniy kompetentsiyaning tuzilishi uch komponentli bo'lib, kognitiv, qadriyatli-yo'naltiruvchi va kommunikativ -faoliyatga oid tarkibiy qismlarini o'z ichiga oladi. Ular mazmunli tarkibga ega va ularni baholash mumkin. Umummadaniy kompetentsiyalarning bir qismini va ularning tarkibiy qismlarini shakllantirish o'ziga xosliklarini tadqiq qilish uchun real natijadan kerakli natijaga o'tish uchun oliy ta'lim natijalariga qo'yiladigan talablarni o'zgartirish kerak degan fikr muhim ahamiyatga egadir. Ushbu talablar mohiyati rejalashtirilgan natijani tanlash bilan bog'liq bo'lib, u madaniyatning ko'plab asosiy manbalari to'g'risida yuzaki xabardor bo'lish yoki ularning o'z sonini chuqur bilishdan iborat bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, kognitiv komponent madaniyat mahsulotlarini o'rganish, tushunish kabi o'zlashtirish shakliga ko'proq mos keladi. Madaniyatning turli xil ta'riflarida biz uning "bilim" xususiyatini sezamiz: "bilimlar majmuasi", "intellektual elementlar to'plami". Qadriyatli-yo'naltiruvchi komponent ma'naviy aloqa jarayonida qadriyatlarni tajriba orqali yetkazish sifatida madaniyat bilan tanishishni o'z ichiga oladi. Bunday holda, madaniyat "ma'naviy qadriyatlarni ishlab chiqarish tizimi", "fikrlash, his qilishning o'ziga xos usuli", "oliy qadriyatlarni amalga oshirish"-deya ta'riflanadi. Kommunikativ-faoliyatga oid komponent operatsion-xulq-atvor yo'nalishiga va madaniyatni o'rganish va birgalikda yaratish kabi o'zlashtirish usuliga mos keladi.

Umumiy madaniy kompetentsiyalarning yana bir tarkibiy qismi bu axborot manbalarini boshqarish, ularni ma'lum mezonlarga, shu jumladan ma'lumotlarning ishonchliligi mezoniga muvofiq kognitiv muammolarni hal qilish uchun tanlash qobiliyatidir.

Uchinchi komponent-bu voqelik hodisalarini, hech bo'lmaganda odamlar kundalik hayotda uchrashadigan narsalarni fan nuqtai nazaridan tushuntirish qobiliyati. Shu bilan birga, biz nafaqat bunday hodisalarni ilmiy tushunish, balki ularni boshqa odamlarga tushuntirish qobiliyati haqida ham so'z yuritamiz.

To'rtinchi komponent-bu ijtimoiy hayotning dolzarb muammolarida (muammolarning mohiyati, ularning paydo bo'lish sabablari, hal qilish yo'llari haqidagi fikrlar) yo'l topish qobiliyati. Har bir oliy maktab bitiruvchisi jamoatchilik muhokamasiga aylangan muammolarga misollar keltirishi va ushbu muammolarni hal qilishning taklif qilingan usullari borasida o'z nuqtai nazarini belgilashi muhim ahamiyatga ega.

Beshinchi komponent-bu ijtimoiy, axloqiy va estetik qadriyatlar dunyosida harakat qilish

qobiliyati, bu faktlarni, hukmlarni, baholarni farqlash, ularning ma'lum bir qadriyatlar tizimi bilan aloqasini o'rnatish, o'z aksiologik maydonini aniqlash qobiliyatini anglatadi. **87**

Bo'lajak harbiy menejerlarning umummadaniy kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi

Bosqichlari	Operatsion-tashkiliy	Ilmiy-nazariy	Ijtimoiy-psixologik
Shakllari	Individual, guruhli, ommaviy, ekskursiyalar, amaliy ish topshiriqlari, loyihalar	Individual, guruhli, ommaviy, o'quv mashg'ulotlari, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar, to'garaklar, juftliklarda ishlash, treninglar	Individual, guruhli, ommaviy, munozaralar, treninglar, suhbatlar.
Metodlari	Mushohadali tajriba, mashq, real hayotiy vaziyatlar, loyihalar metodi, o'yin texnologiyalari, texnologik jarayonlarni imitatsion-o'yinli modellashtirish	Ma'ruza, tushuntirish, o'quv dialogi va o'quv diskussiyasi, kontekstli ta'lim	Muammoli tavsifdagi suhbat, bahs-munozarali o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, erkin yozish, aqliy hujum, fikrlar hujumi, o'z-o'zini baholash
Vositalari	Videoroliklar, tarqatma materiallar, o'quv amaliyot ustaxonasi jihozlari	Mutaxassislik adabiyotlari, slayd-prezentatsiya, texnik jihozlar, o'quv darsliklari, elektron qo'llanmalar	O'qituvchi nutqi, tarqatma materiallar.

Bo'lajak harbiy menejerlarning umummadaniy kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasining dastlabki bosqichi operativ-tashkiliy bosqich hisoblanadi.

Faoliyat real pedagogik vaziyatlarni yaratish jarayonida tashkil qilinadi hamda motivatsion va mazmunli bosqich imkoniyatlari bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Mazkur bosqichda mashq, namoyish etish, mushohadali tajriba, loyiha, o'yinli vaziyat, texnologik jarayonlarni imitatsion-o'yinli modellashtirish kabi metod va usullaridan foydalanish mumkin.

Loyihalash (lot. projectus – olg'a tashlangan fikr, g'oya, obraz), nomini o'zi aytib turibdiki, kelajakda amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish bo'lib, proyekt ma'lum bir hisob-kitob, chizma va boshqalarga asoslangan holda tavsiflash, bayon qilish shaklida mujassamlashgan g'oya, fikrning ifodasidir.

U bildirilgan fikrni mohiyatini va uni amalga oshirish imkoniyatlarini ochib beradi.

Loyihalash metodi ta'lim jarayonining muhim jihatlaridan biri bo'lib, o'qituvchining kursantlar bilan individual ishlash imkonini beradi. O'qituvchi dars vaqtidan unumli foydalanib, kursantlarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ular bilan yakka tartibda ishlaydi. Bunda ularning kasbiy fanlarni chuqurroq egallashlariga kengroq yo'l ochib beriladi. Loyihalash ishlarini tashkil etishda didaktik vazifaning qo'llanilishi va uni hal etish muammolari ko'rib chiqiladi.

Loyihalash metodi ta'lim oluvchilarni quyidagilarga o'rgatadi:

- fanning turli sohalaridagi bilimlarni bir butun holga keltirib, muammolarni topish va echish, axborotlar oqimida mo'ljal olish;
- faoliyatni tanlash huquqidan foydalanib, turli taxmin, g'oyalarni ilgari surish, tadqiqot

- 88 o'tkazish, tahlil qilish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqqligini aniqlash;
- o'z faoliyati natijasiga mas'ul bo'lish, mustaqil qaror qabul qilish, yutuqlar va kamchiliklarni aniqlash, uning sabablarini qidirish, xatolarni topish va to'g'rilash;
 - turli echim va takliflarning natijalarini ilmiy taxmin qilish (proгноzlash);
 - jamoada ishlash, turli nuqtai nazar, fikrlarning muhokamasida qatnashishga rag'batlantiradi.

Xulosa. Umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish ta'lim jarayoninig barcha bosqichlarida amalga oshirilib, u ta'lim mazmuni bilan bevosita bog'liq. Oliy harbiy bilim yurti kursantlari umummadaniy kompetentligini rivojlantirishda pedagog ta'lim mazmunini loyihalash jarayonida ta'lim oluvchining barcha asosiy faoliyat turlari: kommunikativ faoliyat, intellektual-bilish faoliyati, qadriyatli-yo'naltiruvchi faoliyat, badiiy-estetik, sport-sog'lomlashtiruvchi faoliyatlarga jalb etilishini nazarda tutishi lozim. Mavzu bo'yicha ilmiy adabiyotlar va pedagogik tajribani tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishda pedagogning ijodiy yondashuvi, salohiyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni. 28.01.2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni.
3. M.J.Boltayeva. Bo'lg'usi o'qituvchilarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish(tarixiy ideallar asosida)/ pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiya avtoreferati; T.: 2023-yil. 12-s.
4. Демина Е. А. К вопросу о значимости дисциплины «иностраннй язык» в подготовке специалистов медицинского профиля //Научно-редакционная коллегия: ИН Языкова, к. п. н., доцент, зав. каф. ИЯиФ (ответственный редактор) ЮВ Казанцева, к. п. н., доцент каф. ИЯиФ РИИ (редактор) АН Корниенко, доцент каф. ИЯиФ РИИ (редактор) АВ Орлов, ст. преподаватель каф. ИЯиФ (редактор). – 2013. – Т. 31. – №. 48. – С. 24.
5. Лебедев О. Е. Формирование общекультурной компетентности учащихся как цель и результат школьного образования //Культурологические основы образовательных стандартов современной школы.— Режим доступа: www.gur.ru/pic/site/files/lihcht/2007/sec7/S7_11.pdf. – 2007.
6. Троянская С.Л. Общекультурная компетентность: опыт определения и структурирования // Культурно-историческая психология. 2008. №2. С. 19–23.

FIZIKA FANINING O'QITISHDA TALABALARNING EVRISTIK FAOLLIGINI OSHIRISHNING USULLARI

Annotatsiya. Bugungi kunda dunyoning ko'pgina mamlakatlarida talabalarning evristik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun uslubiy shart-sharoitlarni yaratish muammosi dolzarb bo'lib bormoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, ijodiy moyillik barcha talabaga xosdir, ammo qiyinchilik keyingi hayotda ularni ochish va rivojlantirish uchun to'g'ri yondashuvni tanlash kerakligidadir. Talabalar universitet o'quv dasturining materialini o'zlashtiribgina qolmay, uni ijodiy qo'llay olishi, har qanday muammoning yechimini topa olishi kerak. Bu evristik o'qitish usullari uchun zarur uslubiy shart-sharoitlarni yaratadigan pedagogik faoliyat natijasidagina mumkin bo'ladi. Shu sababli, talabalarni rivojlantirish uchun evristik usullarni qo'llash mumkin bo'lgan uslubiy sharoitlarni ishlab chiqish muammosi eng dolzarb masalalardan biridir.

Tayanch tushunchalar: Motivatsiyani rivojlantirish va evristik usullarni o'zlashtirish, kognitiv, ijodiy, tashkiliy, ilm –fan metodi, intuitiv usuli, talaba metodi, fanlarni o'qitish metodi, algoritmik, o'qituvchi metodi, meta-mavzu metodi, evristik boshqaruvchi metodi

МЕТОДЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭВРИСТИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ФИЗИКИ

Абстрактный. Сегодня во многих странах мира становится актуальной проблема создания методических условий для развития эвристических способностей учащихся. Следует отметить, что творческие задатки свойственны всем учащимся, однако сложность заключается в выборе правильного подхода к их обнаружению и развитию в дальнейшей жизни. Студенты должны не только усваивать материал университетской учебной программы, но и уметь творчески использовать его и находить решение любой проблемы. Это возможно только в результате педагогической деятельности, создающей необходимые методические условия для эвристических методов обучения. Поэтому проблема разработки методических условий, в которых можно использовать эвристические методы развития учащихся, является одной из наиболее актуальных.

Основные понятия: Развитие мотивации и освоение эвристических методов, познавательный, творческий, организационный, научный метод, интуитивный метод, метод ученика, метод преподавания естественных наук, алгоритмический, метод учителя, метапредметный метод, метод эвристического менеджера.

Kirish. Talabalarning evristik faolligini rivojlantirish metodikasi uchun uslubiy shart-sharoitlar yaratish muammosiga bag'ishlangan. Ushbu mavzuning dolzarbligi shundaki, zamonaviy o'quv jarayoni talabalarning evristik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun uslubiy ishlanmalar bilan etarli darajada ta'minlangan, ammo zamonaviy universitetlarda fizika darslarida evristik qobiliyatlarni rivojlantirishga amalda e'tibor berilmaydi. Evristik ta'lim aniq tayyor bilimlarni rad etishni, shuningdek ularni qayta ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi; hamma narsa zamonaviy hayot va ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida tezda eskirib ketadigan har qanday ma'lumotni olish va qidirishga asoslangan. Shunga ko'ra, shaxsga shaxsiy va kasbiy rivojlanish uchun yangi talablar qo'yiladi, shuning uchun talabalar unga jamiyat talablariga javob berishga yordam beradigan fazilatlarini, ya'ni zukkolik, tashabbuskorlik, tez, ammo to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishlari kerak; bu fazilatlarining barchasi ishga ijodiy yondashish qobiliyatisiz mumkin emas. Zamonaviy universitet zamonaviy dunyoning rivojlanish sharoitlarining o'zgaruvchanligiga aniq javob berishi kerak, chunki u talabalarning ijodiy

90 qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan va ularda faol, doimiy pozitsiyani singdirishga yordam beradigan resurslarni yaratishga turtki berishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili Psixologik va pedagogik adabiyotlarni o'rganishda quyidagi qarama-qarshiliklar aniqlandi:

1) ushbu mavzu bo'yicha ilmiy materiallarning ko'pligi va o'quv jarayonida evristik usulga asoslanishiga imkon beradigan aniq faktik materialning yetishmasligi o'rtasida;

2) o'quv jarayonini talabalarning mustaqil bilish qobiliyatini, ijodiy va evristik faolligini rivojlantirishga yo'naltirish zarurligi va tegishli uslubiy shart-sharoitlarning ishlab chiqilmaganligi, shuningdek, o'quv jarayonini nazariy asoslash va uslubiy ta'minlashning etarli emasligi.

Aniqlangan qarama-qarshilik tadqiqot muammosini aniqlashga imkon berdi: fizika darslarida evristik o'qitish usullaridan foydalanish uchun uslubiy shart-sharoitlarni yaratish.

Ushbu muammo tadqiqot mavzusini shakllantirishga imkon berdi: "Fizika darslarida evristik o'qitish usullaridan foydalanishning uslubiy shartlari".

Tadqiqot mavzusi bo'yicha psixologik-pedagogik adabiyotlar o'rganildi, bu quyidagi gipotezani ilgari surishga imkon berdi; o'qitishning evristik usullaridan foydalanganda o'quv jarayoni yanada samaraliroq bo'ladi, deb taxmin qilinadi, ulardan foydalanishning uslubiy shartlari:

1) talabalarda ularga berilgan evristik vazifalarni hal qilish uchun motivatsiyani rivojlantirish va evristik usullarni o'zlashtirish;

2) ta'lim jarayoniga evristik usullar va murakkablikni oshirish vazifalarini bosqichma-bosqich joriy etish;

3) talabalarni o'rganish obyektlaridan kognitiv faoliyat subyektlariga aylantirishga yordam beradigan kursda muvaffaqiyat holatini tizimli ravishda yaratish .

Tadqiqot mazmuni va tuzilishini uning nazariy va eksperimental qismlarida aniqlay oladigan aniq vazifalar qo'yildi:

1) tadqiqot muammosi bo'yicha psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish;

2) psixologik-pedagogik adabiyotlardagi "uslubiy shartlar", shuningdek, "evristik usullar" tushunchalarini ko'rib chiqish;

3) o'quv jarayonida evristik usullardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlarini kashf etish;

4) fizika darslarida evristik usullarni o'quv jarayonida qo'llash shartlarining samaradorligini eksperimental tekshirish.

Muammolarni hal qilish va gipotezani tekshirish uchun quyidagi tadqiqot usullari qo'llanildi.

Nazariy: tadqiqot mavzusi bo'yicha falsafiy, psixologik, pedagogik va ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish; evristik vazifalarni taqqoslash va tasniflash va uslubiy sharoitlarni modellashtirish.

Empirik: pedagogik kuzatish, test qilish, tartiblash, talabalar ishini tahlil qilish, evristik fikrlash darajalarini diagnostika qilish; eksperimental qidiruv ishlari, tadqiqot natijalarini statistik qayta ishlash, ularni tahlil qilish va izohlash .

Tadqiqot metodologiyasi O'qitish usullariga nisbatan "evristik" tushunchasi o'qitish shakllariga nisbatan ko'proq uchraydi. Evristik ta'lim faoliyati turlariga ko'ra, evristik o'qitish usullarini bir xil tarzda tasniflash mumkin-tashkiliy, kognitiv va ijodiy .

Evristik ta'lim usullari		
Kognitiv	Ijodiy	Tashkiliy
Ilm –fan metodi	Inuitiv usuli	Talaba metodi
Fanlarni o'qitish metodi	Algoritmik	O'qituvchi metodi
Meta-mavzu metodi	Evristik	Boshqaruvchi metodi

1. Evristik ta'lim usullari diagrammasi

Kognitiv o'qitish usullari yoki boshqacha qilib aytganda, ta'lim bilish usullari ilmiy usullarga, o'quv predmetlari usullariga va meta-pub'yekt usullariga bo'linadi. Ilmiy usullar - matematika, geografiya, fizika va boshqa fanlar kabi fanlardagi tadqiqot usullari. Bularga taqqoslash, analogiya, sintez, tasniflash va boshqa o'qitish usullari kiradi.

Ta'lim fanlari metodlari fanlardan olingan, lekin ularni ma'lum ta'lim yo'nalishlari va fanlarini bevosita o'rganish bilan ham bog'lash mumkin. Bular fundamental ta'lim ob'yektlarini o'rganish usullari, talabalarning o'quv mahsulotlarini tabiiy fanlar analoglari bilan solishtirish usullari, o'quv fanlarining asosiy masalalari va mavzularini o'rganishning an'anaviy usullari.

Kognitiv o'qitish usullarining maxsus turi mavjud, ya'ni meta-mavzular, ular zamonaviy ta'limning meta-kontentiga mos keladigan meta-uslublar shaklida taqdim etilishi mumkin. Misol tariqasida aytishimiz mumkinki, meta-metod ob'jektning ma'nosini kognitiv ko'rish usuli bo'lishi mumkin. Quyidagi bilish ob'ektlari meta-subyekt mazmuni sifatida tasniflanishi mumkin: element, substansiya, atom, molekula.

O'qitishning ijodiy usullari talabalarga individual ta'lim mahsulotlarini yaratish imkoniyatini berish uchun zarurdir. Intuitiv usullarni ko'pincha ijodiy o'qitish usullariga ajratish mumkin, masalan: empatiya usuli, o'qituvchi rolida bo'lgan talabaning pedagogik usullari, aqliy hujum va boshqa usullar. Qoida tariqasida, bunday usullar talabalarning tabiatan intuitiv bo'lgan mantiqiy bo'lmagan harakatlariga asoslanadi.

Modellashtirish usuli. Bu usulning mohiyati shundan iboratki, uni evristik yondashuv sifatida tasniflash mumkin, shunga mos ravishda uni zamonaviy ta'limda qo'llash mumkin, bu usul ekspert baholariga asoslanadi. Evristik modellar ko'plab usullar uchun asos yaratdi va ko'p sonli muammolarni hal qilish yo'llarini qurdi; bu usul, shuningdek, murakkab muammolarni tizimli tahlil qilish va rejalar va prognozlarni tuzish strategiyalarini yaratish qobiliyatini saqlab qoladi. Yaratilgan usullarning aksariyati ma'lum qiyinchiliklarning shakllanishi bilan paydo bo'lgan.

Barcha usullarning asosiy g'oyasi shundaki, murakkab savollarni loyihalash mutaxassis tomonidan tushunilishi va tushunilishi mumkin bo'lgan bir qator oddiy ketma-ket topshiriqlarga o'tkaziladi. Masalan, yangi tajribalar kuzatib qonuniyatlar hosil bo'lish modelini yaratishni so'rang va bo'linish bosqichlarini ko'rsating.

Ijodiy o'qitish usullarining navbatdagi turi ketma-ket retseptlar va ko'rsatmalarni amalga oshirishga asoslanadi: sinektika usullari, morfologik quti, ularning maqsadi talabalar tomonidan o'quv mahsulotlarini yaratish uchun mantiqiy yordamni yaratishdir.

Evristik o'qitishning ijodiy usullarining navbatdagi turi bu o'quvchilarga muammolarni hal qilishning mumkin bo'lgan usullarini "yo'l-yo'riq ko'rsatish" va bunday yechimlarni sanab o'tish variantlarini qisqartirish orqali hal qilish imkonini beradigan usullardir.

Ta'limning tashkiliy usullari ta'limning yetakchi subyektlari – o'quvchilar, o'qituvchilar va ta'lim menejerlari usullariga bo'linadi. Talabalar metodikasi ta'lim maqsadlarini belgilash, rejalashtirish, nazorat qilish va mulohaza yuritish usullarini o'z ichiga oladi. Ushbu uslublar guruhi maktablar uchun no'an'anaviy bo'lib, o'quvchilar o'zlarining ta'lim tuzilmalarini qurishda deyarli qatnashmaydilar. Talabalarga o'z ta'lim traektoriyasini tashkil etish va qurish usullarini o'rgatish ular o'rganadigan fanlar metodlaridan kam emas.

O'quv jarayonining tegishli darajasida ta'limni boshqarish usullari mavjud bo'lib, ularga pedagogik va ma'muriy usullar kiradi. Bu usullar asosan talabalarning tashkiliy metodlari bilan bir xil, chunki shunga o'xshash tamoyillar o'qituvchiga, alohida ta'lim muassasasiga yoki umuman ta'lim tizimida, alohida talabalarni o'qitishda qo'llanilishi mumkin. Mavjud usullar guruhi ta'lim jarayonini rivojlantirish uchun ham, uni muayyan fanni o'qitishda, kursdan tashqari mashg'ulotlarda yoki butun ta'lim muassasasida rivojlantirish uchun ham qo'llanilishi mumkin.

Keling, allaqachon ma'lum bo'lgan usullar asosida o'zgartirilgan usullarning xususiyatlarini, shuningdek, yangi yaratilgan evristik o'rganish usullarini ko'rib chiqaylik.

Kognitiv usullar. Kognitiv usullarning (tarbiyaviy bilish usullari) asosiy xarakterli xususiyati shundan iboratki, ulardan foydalanish ta'lim mahsulotini shakllantirishga yoki ijodiy natijaga olib keladi. Natijada bilish usullari ham ijodiy hisoblanadi. Biroq, ushbu usullardan

92 foydalanishning asosiy maqsadi obyektni bilish deb hisoblanadi, shuning uchun ularning asosiy o'ziga xosligi ijodiy jarayonlar bilan emas, balki kognitiv jarayonlar bilan bog'liqdir. Masalan, yashash joyi modeli sifatida xona qutisini yaratish. Ushbu usul yordamida talabalarning bilim va ijodiy qobiliyatlari rivojlanadi. Kognitiv usullar darsning turli bosqichlarida, shuningdek, uy vazifasida bo'lishi mumkin.

Empatiya usuli (ko'nikish) talabani boshqa obyekt holatida "his qilish" degan ma'noni anglatadi. Empatiya usuli talabalarning ular o'rganayotgan atrofda dunyo obyektlarida "yashash joyi" dan foydalanish uchun javob beradi. Empatiya usulidan muvaffaqiyatli foydalanishning asosiy talabi o'quvchilarning ma'lum bir holati bo'lib, ularning kayfiyati o'qituvchi tomonidan shakllantiriladi. Bu dastlab o'yin shaklida bo'lishi mumkin, unga talabalar ma'lum darajada o'yin-kulgi bilan javob berishlari mumkin. Ta'lim natijalari to'plangan va amalga oshirilgandan so'ng, talabalar bu usulga yengil qarashni to'xtatadilar va uni o'z o'rganishlarida yordam beradigan ta'lim usuli sifatida qabul qiladilar.

Bu usulni yangi materialni o'rganishda yoki o'rganilayotgan materialni tanlab so'roq qilishda qo'llash mumkin va u darsning turli bosqichlarida ham qo'llanilishi mumkin. Bu usul yordamida talabalar fikr yurita boshlaydilar va mantiqiy zanjirlarni qidira boshlaydilar. Bu usul juda samarali bo'lib chiqdi, chunki u talabalarning odatda foydalanilmaydigan qobiliyatlarini o'z ichiga oladi.

Semantik ko'rish usuli oldingi usulning davomi va chuqurlashishi hisoblanadi. Talabalarning bir vaqtning o'zida o'z qarashlaridagi ta'lim obyektiga jamlanishi va "izlanuvchanlik bilan sozlangan" intellekt ularga ob'ektning asosiy sababini tushunish va farqlash imkonini beradi, unda g'oya, asl ma'no, ya'ni obyektning ichki mohiyati mavjud. Empatiya usuliga o'xshab, talabada intensiv hissiy-aqliy kognitiv ishlardan iborat o'ziga xos kayfiyatni yaratish kerak. Ushbu usuldan maqsadli foydalanish bo'yicha mashqlar talabalarda sezgi, ilhom, idrok kabi kognitiv xususiyatlarni rivojlantirishga olib keladi.

Ma'noli ko'rish usuli empatiya usulini davom ettiradi, shuni ta'kidlash kerakki, talabalar ushbu usuldan foydalangan holda taklif qilingan materialga jiddiy qarashlari kerak. Semantik ko'rish usuli "Linzalarda tasvir hosil qilish" mavzusidagi darsda, fotosuratlar va linzalarda tasviri, tasvir hosil qilishda talabalar inflorescences modellarini yaratishda ishlatiladi.

Majoziy ko'rish usuli obyektni hissiy-majoziy o'rganishga bag'ishlangan. Talabalardan, masalan, raqam, rasm, matn, belgi yoki haqiqiy obyektga qarash, ularda ko'rgan tasvirlarni chizish va ularning aslida qanday ko'rinishini aytib berishni so'rash mumkin. Talabalarning yakuniy ta'lim mahsuloti fikrlarni grafik tasviri shaklida, shuningdek, og'zaki shaklda ifodalashi mumkin, ya'ni talabalar o'z fikrlarini ifoda etadilar, qayd qiladilar yoki o'zlari o'rganish natijalarini o'zlari uchun qulay shaklda tasvirlaydilar.

Ramziy ko'rish usuli talabalarni obyekt va uning belgisi o'rtasidagi aloqalarni topish yoki qurishni o'z ichiga oladi. Ramz va uning obyekti o'rtasidagi munosabatlarning mohiyatini aniqlab bo'lgach (masalan, yorug'lik - ezgulik ramzi, spiral - cheksizlik ramzi, kaptar - tinchlik timsoli), o'qituvchi talabalarni har qanday obyektni kuzatishga taklif qiladi. uning ramzini grafik, ramziy, og'zaki yoki boshqa shaklda ko'rish va tasvirlash uchun. Muhim o'rinni talabalarning o'zlari yaratgan "ramzlar" haqidagi izohlari va tushuntirishlari egallaydi.

Talabalar atom maketini yaratishda ramziy usuldan foydalanildi. Talabalarga obyektning batafsil tavsifi bilan ma'lumot kartasi taklif qilindi, shundan so'ng ular atom qurish uchun uning maketini yaratishlari kerak edi.

Evristik savollar usuli. Turli hodisalar yoki obyektlar haqida ma'lumot qidirish uchun foydalaniladi, odatda quyidagi yettita asosiy savol beriladi: Kim? Nima? Nima uchun? Qayerda? Qanaqasiga? Qanaqasiga? Qachon? Savollarning juft birikmalari yangi savolni hosil qiladi, masalan, qayerda-qanday? Berilgan savollarga javoblar va ularning turli kombinatsiyalari o'rganilayotgan obyektga nisbatan noodatiy g'oyalar va xulosalarni hosil qiladi. Bu usul tarixga oid masalalarni, shu jumladan fizikaning tarixiy jihatlarini o'rganishda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, atomni kim kashf etgan? Bu ilm-fan uchun nima qildi? termometr nima uchun kashf etilgan? Termometr qanday shkalada aniqlangan? Bu kashfiyot fanga qanday yordam

berdi? Bu hozirgi kungacha rivojlanishga qanday ta'sir qildi? Termometrdan qachon foydalanamiz?

Taqqoslash usuli turli o'quvchilarning versiyalarini, ularning tabiiy fanlar bilan variantlarini solishtirish uchun zarurdir.

Qoidalarini qurish usuli. Umumiy fizika kurslarida o'rganiladigan qoidalar talabalar tomonidan yaratilishi va "kashf etilishi" mumkin. Masalan, o'qituvchi tomonidan berilgan matndan talabalar dars mavzusiga mos tushunchalarni topishlari, shundan so'ng talaba ushbu darsning maqsadi va vazifalarini shakllantirishi kerak. O'quv matn turiga va topshirilgan vazifaga bog'liq bo'lgan o'qituvchi tomonidan belgilab qo'yilgan algoritmgga muvofiq kiritiladi. Masalan, mashg'ulot qismida ham qoidalar bo'lishi mumkin.

Gipoteza usuli. O'qituvchi tomonidan qo'yilgan savol yoki muammoga turli xil versiyalar va javoblarni shakllantirish uchun talabalarga topshiriq berish kerak. Dastlabki vazifa gipotezalarni yaratish uchun asosni tanlashdir. Talabalar muammo bo'yicha dastlabki pozitsiyalarni yoki nuqtai nazarlarni taklif qiladilar, gipotezalarni yaratishda ko'p ilmiy, noaniq yondashuvni o'rganadilar. Shundan so'ng, ular mantiq va sezgiga e'tibor qaratib, savolga o'zlarining javoblarini to'liqroq va aniqroq shakllantirishni o'rganadilar.

Gipoteza usuli "agar... nima bo'ladi" tipidagi bashoratli muammolarni hal qilishda ishlab chiqiladi. Kelajakka sayohat usuli har qanday ta'lim sohasida bashorat qilish, bashorat qilish va gipotetiklik ko'nikmalarini rivojlantirish usuli sifatida samarali hisoblanadi. Gipoteza usuli talabalarning tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi va ularning aqliy faoliyatini faollashtiradi.

Prognozlash usuli gipoteza usulidan haqiqatda real yoki rejalashtirilgan jarayon uchun ishlatilishi bilan farq qiladi. Masalan, talabalarga qattiq jismlarda difuziya hodisasining dinamikasini tekshirish taklif etiladi. Talabalar kuzatishlar olib boradilar, eskizlar yaratadilar. O'qituvchi talabalarga vazifani taklif qiladi: 4 kundan keyin, bir haftadan keyin paydo bo'ladigan holatni kuzatish. Talabalar oldingi kuzatishlar, kashf etilgan bilimlar va o'zlarining bashorat qilish qobiliyatlariga tayanib, kuzatishni yakunlaydilar. Belgilangan vaqtdan keyin prognoz haqiqat bilan taqqoslanadi, natijalar muhokama qilinadi va xulosalar chiqariladi.

Xato usuli. Ushbu usul xatolarga nisbatan o'rnatilgan noqulay munosabatni o'zgartirishni, uni o'quv jarayonlarini chuqurlashtirish uchun xatolardan konstruktiv foydalanish bilan almashtirishni o'z ichiga oladi. Xato qarama-qarshiliklar, hodisalar, qoidalaridan istisnalar, umume'tirof etilganlarga zid ravishda paydo bo'ladigan yangi bilimlar manbai sifatida qaraladi. Xatoga e'tibor faqat uni tuzatish uchun emas, balki uning sabablari va uni olish usullarini aniqlash uchun ham ko'rsatilishi mumkin. Xato va "to'g'rilik" o'rtasidagi bog'liqlikni izlash talabalarning evristik ishini boshlaydi, bu ularni har qanday bilimning nisbiyligi va o'zgaruvchanligini anglashga olib keladi. Ushbu usul ma'lumotni yetarli darajada bilmaslik tufayli paydo bo'ldi. Talabalarni tanqid qila olmaslik juda muhim, dialog orqali talabaning dastlabki nuqtai nazarini aniqlashtirish va evristik savollardan foydalanib, talabaga mustaqil ravishda to'g'ri javobga kelishiga yordam berish kerak.

Xulosa va takliflar. Fizika o'qitish metodlarni o'qituvchi va o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi uchun qo'llaniladigan asosiy ish usullari deb ta'riflagan. Usul fizika o'qitishning asosiy usullaridan biri bo'lib, talabalarning fizika fanidan aniq bilimlarni egallashini, amaliy ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan. Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, juda ko'p turli xil o'qitish usullari orasida evristik ta'lim ajralib turadi. Hozirgi kunda pedagogika moslashuvchan tizim sifatida taqdim etilgan bo'lib, o'qituvchilarga ham amaliyotda ko'plab turli xil o'qitish usullaridan foydalanish imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. Andreev, V. I. Ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish uchun pedagogik evristika [Matn] / V. I. Andreev. - Qozon: Innovatsion texnologiyalar markazi, 2015. - 288 p.

2. Xutorskoy, A.V. Talabalarning evristik qobiliyatlari tuzilishi [Matn] / A.V. Xutorskoy // Qobiliyatlar psixologiyasi: Hozirgi holat va tadqiqot istiqbollari: ilmiy materiallar. konf., bag'ishlangan V.N.Drujinin xotirasiga. – M.: “RAS Psixologiya instituti” nashriyoti, 2005. – B.72-75.
3. Xutorskoy, A.V. Talaba bilim manbai sifatida: evristik faoliyatni tashkil etish texnologiyasi [Matn] / A.V. Xutorskoy // Talabalar va maktab o'quvchilarining kognitiv faolligini rag'batlantirish: Universitetlararo ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari / ch. ed. I.P.Andriadi. – M.: MGPU, 2002. – B.12-16.
4. Xutorskoy, A.V. Evristik usullar innovatsion o'qitish vositasi sifatida [Matn] / A.V.Xutorskoy // O'rta maktablarda innovatsiyalar. O'qitish usullari. Ilmiy ishlar to'plami / ch. ed. A. V. Xutorskoy. – M.: GNU ISMO RAO, 2006. – B.108-118.
5. Xutorskoy, A. V. Evristik ta'lim o'quvchilarning ijodiy o'zini-o'zi anglash texnologiyasi va ularning hayotdagi muvaffaqiyatining zaruriy sharti sifatida [Elektron resurs] // "Eidos" Internet jurnali. 2006. URL: <http://www.eidos.ru/journal/2006/0829.htm> (kirish sanasi: 03/18/2018).
6. Xutorskoy, A.V. Evristik ta'lim: nazariya, metodologiya, amaliyot [Matn] / A.V.Xutorskoy. – M.: Xalqaro Pedagogika Akademiyasi, 1998. – 266 b.

Nuriddin Olimjonovich Qirg'izov 95

Namangan davlat pedagogika instituti
 katta o'qituvchisi,
 pedagogika fanlari bo'yicha
 falsafa doktori (PhD)
 nuriddinqirg'izov43 @ gmail.com

LOYIHAVIY TA'LIM VOSITASIDA ONA TILI DARSLARIDA TA'LIM SUBYEKTLARI FAOLIYATINI MODELLASHTIRISH YO'LLARI

Annotasiya: Maqolada boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini o'qitishning maqsad va vazifalar foydalaniladigan usullar haqida fikr yuritiladi

Kalit so'zlar: Maktab, boshlang'ich sinflar, darslarda o'yinlardan unumli foydalanish, o'qituvchi uslubi, ko'rgazmalar, tarqatmalar

ПУТИ МОДЕЛИРОВАНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧЕБНЫХ СУБЪЕКТОВ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА С ПОМОЩЬЮ ПРОЕКТНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: В статье рассматриваются цели и задачи обучения на уроках родного языка в начальной школе.

Ключевые слова: школа, начальные классы, эффективное использование на уроках игровых методов, стиль учителя, выставки, раздаточный материал

WAYS TO MODEL THE ACTIVITIES OF EDUCATIONAL SUBJECTS IN NATIVE LANGUAGE LESSONS USING PROJECT-BASED EDUCATION

Annotation: There is an idea about. Some ways, which is used during the teaching mother tongue lessons for the primary schools in this article.

Key words: Shohool, primary schools, subject, images, adjective, game method, numeral exhibitions.

Boshlang'ich sinflarda loyihaviy ta'lim vositasida ona tili darslarini tashkil qilishda modellashtirish murakkab tizim bo'lib, u maqsadga muvofiq faoliyat, faoliyat vositasi, faoliyat predmetidan iborat. O'quv materialiga metodik ishlov berish u yoki bu mavzuni o'qitishga oid maqsadlar tizimini belgilash va shu maqsadlarga mos vositalarni tanlash, ta'lim jarayonida amalga oshiriladigan ishlarni hisobga olib ta'limni loyihalashtirish jarayonining uch tarkibiy qismini ajratib tahlil qildik.

O'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish jarayonining dastlabki elementi loyihalash faoliyatidir.

Loyihalashga oid faoliyat – o'quv predmetini o'qitish uslubiyatini yaxshi biladigan o'qituvchi, dasturchi, psixolog, dizayner va boshqalarning faoliyatidir.

Loyihaviy ta'lim vositasida boshlang'ich sinf ona tili darslarida ta'lim subyektlari faoliyatini modellashtirishni amalga oshirish bosqichlari o'quvchilar tomonidan hal etiladigan vazifalar murakkabligi darajasi asosida belgilanadi va bu jarayonda o'qituvchi o'qitishning quyidagi shakllari va usullaridan foydalanadi.

1. Qidiruv-izlanish va muammoni tahlil qilish:

- loyiha mavzusini tanlash;
- loyihani rejalashtirish
- bosqich bo'yicha tadbirlar;
- qayta ishlash va tahlil
- loyiha mavzusi haqida ma'lumot
- muammoni muhokama qilish

O'qituvchi va o'quvchilari bilan:

- vazifalarni shakllantirish;
- ma'lumotlarni takomillashtirish va tahlil qilish;
- qo'yilgan maqsadlar va harakat rejasini tanlash;
- izlanish olib borish;
- o'quvchilarni rag'batlantirish;

loyiha maqsadlarini tushuntiradi;

- nazorat qiladi, maslahat beradi
- muammo atrofida suhbat tashkil etiladi;

2. Loyiha yechimni izlash.

- o'quvchilar tomonidan taklif etilgan variantlarini o'rganish;
- muammoni yechish uchun muqobil variantlarni tanlash;
- asosiy yechimni tanlash;
- axborot bilan ishlash;
- suhbatlashish;
- munozara;
- morfologik tahlil;
- rolli o'yin;
- mustaqil ish.

3. Dars davomida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini amalga oshirish rejasini tayyorlash mobaynida loyihani amalga oshirish.

- darsga kerakli jihozlarni tanlash;
- rejalashtirilgan vazifalarni bajarish
- joriy sifat nazorati;
- mashq o'z-o'zini nazorat qilish;

O'quvchilar faoliyatini tashkil etiladi va muvofiqlashtiradi:

- yangi tushunchalar bilan tanishtiradi;
- o'quv materiallariga ishlov berish;
- suhbatlashish;
- mashq qilish;
- amaliy ishlar.

4. Yakuniy sifat baholash bosqichi:

- jarayon tahlili
- loyiha ijrosining natijalari;
- natijalarni baholash;
- muammo bo'yicha himoya tashkil etiladi;
- o'quvchilarning muammo atrofidagi bahs-munozarasida qatnashiladi;
- dars jarayonida rolli o'yin tashkil etiladi;

Boshlang'ich sinf ona tili savodxonligi darslarida o'quvchilar faoliyatini modellashtirish jarayonida o'qituvchi turli xil didaktik qarashlardan kelib chiqib, loyihalash predmeti mazmuniga pedagogik ishlov beradi. "Ma'lumot mazmuniga pedagogik ishlov berish yo'li bilan ta'limning keng qamrovli, katta, universal loyihalari kompetensiya, konsepsiya, dastur, darslik shaklida tayyorlanadi. Katta, universal didaktik loyihalarni amalga oshirishda ikkilamchi loyihalar - dars ishlanmalari, rejalari, konspektlari sifatida ishlab chiqiladi".

"Loyihalash pedagogik faoliyatning murakkab ko'rinishi bo'lib, uni amalga oshirishda ta'lim jarayonining muhim qonuniyatlari inobatga olinishi zarur.

Birinchi bosqichni amalga oshirish uchun fan o'qituvchisi o'quvchilarning nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablarni, o'quv materialini o'rganish maqsadlarini, loyihaning didaktik maqsadlarini aniqlaydi va ularni inobatga olgan holda o'quv materialiga pedagogik ishlov beradi. Bu bosqich fan o'qituvchisi tomonidan pedagogik ssenariy yozish bilan yakunlanadi.

2-bosqichda fan o'qituvchisi tuzib bergan pedagogik ssenariy asosida loyiha yaratiladi.

3-bosqich asosan, fan o'qituvchisining faoliyatidan iborat bo'lib, o'qituvchi tayyor loyiha asosida darslarni tashkil etadi.

Didaktik loyihani bajarish esa ikki bosqichda amalga oshiriladi: loyihani tayyorlash bosqichi; loyihani amalga oshirish bosqichi. Loyihani amalga oshirish bosqichida o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning quyidagi o'quv ishlari tashkil etiladi:

- darsning maqsadi, vazifalari, o'quvchilar bajaradigan muammo, topshiriqlarni ularga yetkazish, qilinadigan ishlar bo'yicha ko'rsatmalar berish;

- o'quvchilarni faol mustaqil faoliyatga yo'llash, o'quvchilar diqqatini mavzuga qaratish, qiziqishlarini oshirish, yangi muammolarni yechishga ehtiyoj va o'qishga havas uyg'otish;

- joriy o'quv ishlarining natijasini nazorat qilish ta'lim jarayonining ajralmas qismi sanaladi. Ta'lim natijalari dasturda ko'zda tutilgan savol, topshiriq, muammo, mashq, test topshiriqlari muayyan mavzu bo'yicha axborotlarni qabul qilish, unga ishlov berish, bilimlar asosida mavzuni to'liq o'zlashtirish masalalarini to'liq qamrab oladi. Demak, loyihada:

- o'qitish mehnatining o'ziga xos xususiyatlari qayd etiladi;


- o'quvchilarning o'quv materialini idrok etish, ularni bilish, tushunish, tatbiq qilish, tahlil qilish va qayta birlashtirish, baholashga oid xatti-harakatlari nazarda tutiladi;

- ta'lim natijalari o'zlashtirishning quyi darajasidan yuqori darajasiga ko'tarilish omillari, mashqlar tizimi, testlar to'plami ko'zda tutiladi. O'quvchi va o'quv materialining o'zaro ta'siri uning faoliyatiga ko'ra tahlil qilinib, bu ta'sirning jarayondagi xususiyatlari tavsiflandi. Endi o'zaro ta'sir o'quv materialiga ko'ra o'rganiladi. Shu yo'l bilan o'zaro ta'sirga vositaviy tavsif berishga harakat qilamiz. O'zaro ta'sirga oldin o'quvchi, keyin o'quv materialini jihatidan tavsif berish yo'li bilan uning mohiyatini anglashimiz osonlashadi.

Masalan, Ona tili va o'qish savodxonligi darsligidagi "Tovush va harf" mavzusini loyihasini yaratamiz.

O'zaro ta'sir yaxlit tizim bo'lib, o'ziga oid maqsad, vosita, natijaga ega. Oldingi bosqichda amalga oshirilgan maqsad, keyingi bosqichda yangi bilimlarni egallash, yangi-yangi muammo, topshiriqlarni bajarish vositasiga aylanadi. Zero, "ijodiy bilishning asosiy belgilaridan biri, insonning o'z ixtiyoridagi bilimlarni yangi bilimlar bilan boyitish sharti sifatida ishlatishdir".

1-sinf ona tili darsida Tovush va harf mavzusini o'qitishda amalga oshiraladigan ta'lim loyihasi



O'quv loyihasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Loyihaga kirish mavzu: muammoli bayon, guruhni shakllantirish.
2. Loyiha rejasini muhokama qilish: ijodiy nom tanlash, rejani yakka tartibda va guruhlarda muhokama qilish, mumkin bo'lgan axborot manbalarini muhokama qilish.
3. O'quvchining mustaqil faoliyati, izlanish materialini umumlashtirish.


4. Loyiha bo'yicha takliflar.

5. Loyihani himoya qilish.

O'zaro ta'sir yaxlit tizim sifatida uch holatga ega:

boshlang'ich, o'rta hamda oxirgisi vujudga keladi:

2-sinf ona tili darsida gap va so'z mavzusini o'qitishda amalga oshiraladigan ta'lim loyihasi



Har bir natijaga eng kamida ikki xil vosita orqali erishiladi: muammo yoki idrok etish usullari, hayotiy tajribani faollashtirish (2); yechimlarni qabul qilish, muloqotdan olingan axborot (1); bilishning psixologik imkoniyatlari – xotira, tafakkur, aqliy faoliyat usullarini ishlatish (2); bajarish, shu hodisaga oid ongdagi tushunchalarni ishlatish (1) mantiqiy usullar – taqqoslash, tanlash, induksiya yoki deduksiya.

O'quvchi o'quv materialining uch holatida uch xil natijaga erishadi:

anglash–bu jarayonda bilishning fiziologik imkoniyatlari va ularga oid vositalar ishtirok etadi;

yechimni qabul qilish – muammolarni bajarishning bu holatida bilishning psixologik imkoniyatlari va ularga oid vositalar ishtirok etadi;

bajarish– keyingi holatda bilishning mantiqiy mexanizmlari va ularga oid vositalar qatnashadi.

Binobarin, o'quv materiallarini, ularning turli shakllari — muammo, topshiriqlarni bajarish uch xil asosga — fiziologik, psixologik, logik mexanizmlarga, ularga oid vosita hamda natijalarga ega”.

Boshlang'ich holat — yangi bilim, yangicha faoliyat usullarini egallash uchun oldin o'zlashtirilgan bilim, malaka, ijodiy faoliyat tajribasi, shakllangan munosabatlarni faollashtirish. Shunday o'quv holati berilgan bo'lsin: 9 ta ikki bo'g'inli so'z berilgan. (olma, anor, amma, behi, xola, kitob, uzum, ota, bola). Bo'g'inlariga ko'ra, shu so'zlarni qanday qilib ikki guruhga ajratib yozish mumkin?

Yuqoridagi topshiriqda yangicha faoliyat usuli, ya'ni so'zlarni bo'g'inlarning ochiq-yopiqligiga qarab guruhlariga ajratib yozish ham mavjud. Berilgan so'zlar orasidan o'qituvchi aytgan topshiriqqa mos keladigan so'zlarni ajratib yozish orqali ochiq va yopiq bo'g'inlarga oid bilimlar mustahkamlanmoqda. Ammo bolalar uchun har bir variant asosida yangi o'quv holati yotadi. O'quvchi o'quv materialidan olingan axborotni tahlil etish, yangi bilim va faoliyat usullarini oldin o'rganilgan bilim, malakalar bilan taqqoslash, bilimlarni yangi-yangi sharoitlarda sinab ko'rish yo'llari bilan o'quv materialini o'zlashtiradi. Ta'lim jarayonida erishilgan natija keyinchalik yangi topshiriqlarni bajarish vositasi ro'lida ishtirok etadi. Agar bolalar topshiriqni asl holida bajara olmasa, uch xil nutqiy instruksiyadan foydalanamiz. Masalan, birinchi nutqiy instruksiyani keltiramiz: o'zingiz topgan otlar orasidan ochiq bo'g'in bilan boshlanib, yopiq bo'g'in bilan tugagan otlarning uchtasini yozing.

Bu ko‘rinishdagi muammolarni hal qilishda oldin erishilgan natija yangi natijani qo‘lga kiritish mumkin bo‘ladi. O‘quvchi va o‘quv materialining o‘zaro ta‘siri natijasida o‘quvchilarda shakllangan shaxsiy sifatlar ikki xil amalga oshiriladi: faoliyat ko‘rsatish va yangi-yangi maqsadlarga erishish.

K.D.Ushinskiy boshlang‘ich maktab o‘quv fanlari tizimida ona tiliga katta ahamiyat berib, uni markaziy va yetakchi fan hisoblaydi. “Ajoyib o‘qituvchi bo‘lgan ona tili bolaga ko‘p narsani o‘rgatadi. Bola ikki-uch yil ichida shuncha ko‘p narsa o‘rganadiki, ko‘p narsa bilib oladiki, yigirma yil qunt bilan metodik jihatdan juda to‘g‘ri o‘qiganda ham uning yarmicha o‘rgana olmaydi. Ona tilini ulug‘ pedagogligi ham ana shundadir”, – deydi. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘rganishga katta ahamiyat beriladi

Ta‘limning eng asosiy tayanch bo‘g‘ini hisoblanuvchi boshlang‘ich ta‘lim tizimida bugungi kungacha ona tili va o‘qish fanlari alohida o‘qitilganligi barchamizga yaxshi ma‘lum. Endilikda esa mazkur fanlar bir-biriga singdirilgan, birlashtirilgan “Ona tili va o‘qish savodxonligi” nomi ostida yagona fan sifatida o‘qitilishi tashkil etilmoqda. Shu kungacha amaliyotimizda o‘qitilib kelingan o‘qish darsligida asosan badiiy mavhum tushunchalardan tarkib topgan matnlarni kuzatishimiz mumkin edi. Yangi avlod darsligi uchun tanlangan matnlar va she‘rlar esa o‘quvchining ijtimoiy hayotga moslasha olishiga, turli nutqiy vaziyatlarga tez kirishib keta olishiga ko‘maklashadigan, ham badiiy, ham ma‘lumotli, ham ilmiy-ommabop uslubdagi matnlar kiritilganligi bilan ahamiyatlidir.

Shu kungacha amaliyotda qo‘llanilgan darsliklarimizda o‘quvchilarning tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishga doir turli topshiriqlarning kiritilmaganligini hech birimiz inkor qila olmaymiz. Yangi avlod darsliklarida esa mazkur kompetensiyani rivojlantirish maqsadida har bir mavzu uchun alohida topshiriqlar ishlab chiqilgan. Amaldagi darsliklarda o‘qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun ajratilgan topshiriqlarda, asosan, matnda ochiq ifodalangan ma‘lumotlar yoki didaktik elementlarga e‘tibor qaratilar edi. Aksincha, yangi avlod darsliklarida esa, o‘quvchilarda o‘qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida, berilgan matnlarning barcha qismlarini qamrab oladigan savollar, rang-barang tasvirlar va qiziqarli topshiriqlarga ko‘proq urg‘u berilgan.

Ona tili va o‘qish savodxonligi darsligidagi mashqlar tahlili, o‘z fikrlarini hech qanday qiyinchiliklarsiz nutqning har ikki ko‘rinishida ifodalay oladilar, loyiha yuzasidan yan bir karra xulosa chiqara oladilar. O‘quvchilarni o‘z fikrlarini ikkilanmay ifodalashlarida ko‘nikma hosil qilar ekanmiz, o‘qituvchi ona tilining boy ifoda imkoniyatlarini tushuntirib boradi.

Adabiyotlar

1. Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. – 163 b.
2. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi. –T.: TDPU, 2009. – 70 b.
3. Qosimova K., Fuzailov S. 2-sinf ona tili darsligi. Toshkent, “Cho‘lpon” nashriyoti. 2019.
4. G‘ulomova X., Yo‘ldasheva Sh. 4-sinf ona tili darsligi. Toshkent, “O‘qituvchi” nashriyoti. 2020.
5. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa‘dullo Quronov, Shokir Tursun, Ona tili va o‘qish savodxonligi 2-sinf. –Toshkent, 2021. –120 b.
6. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa‘dullo Quronov, Shokir Tursun, Ona tili va o‘qish savodxonligi 1-sinf. –Toshkent, 2021. –104 b.
7. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa‘dullo Quronov. Ona tili va o‘qish savodxonligi 3-sinf. –Toshkent, 2022. –144 b.

Xudoyberdiyev Eliboy Norboyevich

Navoiy davlat pedagogika instituti
fizika va astronomiya o'qitish metodikasi
kafedrası dotsenti, fizika-matematika fanlari
nomzodi

Hamroyeva Sevara Nasriddinovna

Navoiy davlat pedagogika instituti
fizika va astronomiya
o'qitish metodikasi
kafedrası o'qituvchisi

YULDUZLAR EVOLYUTSIYASINI KVANT TASAVVURLAR NAZARIYASI ASOSIDA O'QITISH USLUBIYOTI

Annotatsiya. Maqolada bo'lajak fizika o'qituvchilarini tayyorlashda yulduzlar evolyutsiyasi mavzusini kvant tasavvurlar asosida o'qitish metodikasi bayon etiladi.

Tayanch so'zlar. Yulduzlar evolyutsiyasi, statsionar va nostatsionar yulduzlar, oq karliklar, neytron yulduzlar, qizil gigantlar, qora tuynuklar, gravitatsion kollaps.

МЕТОД ОБУЧЕНИЯ ЭВОЛЮЦИИ ЗВЕЗД, ОСНОВАННЫЙ НА ТЕОРИИ КВАНТОВОМ ПРЕДСТАВЛЕНИИ

Резюме. Статья посвящена методике преподавания эволюции звезд на основе квантовых представлений в подготовке преподавателей физики

Ключевые слова. Эволюция звезд, стационарные и нестационарные звезды, белые карлики, нейтронные звезды, красные гиганты, черные дыры, гравитационный коллапс.

METHOD OF TEACHING THE EVOLUTION OF STARS BASED ON THE THEORY OF QUANTUM REPRESENTATION

Summary. The article focuses on the method of teaching quantum theory of the evolution stars in physics teacher training

Base expressions. Stars evolution, stationary and nostalgic stars, white dwarfs, neutron stars, red giants, black holes, gravity collaps.


Insoniyat yulduzlar osmonini va ularning harakatini qadim davrlardan boshlab o'rganib kelayotgan bo'lsada, faqat XX asrga kelib yulduzlarning fizik tabiati, ularda kechayotgan jarayonlar ancha mukammal o'rganildi. Yulduzlarda kechayotgan fizik jarayonlar yadro fizikasi sohasidagi kashfiyotlar, astrofizik kuzatishlar, qurilmalarining takomillashuvi, atom va yadro masshtabidagi hodisalarni tushuntiruvchi kvant tasavvurlar yaratilishi bilan oydinlashdi.

Ushbu maqolada yulduzlar evolyutsiyasining hozirgi zamon kvant tasavvurlari metodik jihatdan tahlil etiladi. Yulduzlar tabiati haqidagi tasavvurlarni umumiy o'rta ta'limdan boshlab o'quvchilar ongiga singdirish ta'limning keyingi bosqichida, ayniqsa bo'lajak fizika va astronomiya o'qituvchilarini tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Yulduzlar o'z hayoti davomida ko'plab bosqichlardan o'tsada, ulardagi evolyutsiya jarayonlarining ma'lum bir qonuniyatlarga bo'ysunishi kuzatiladi. Koinotdagi yulduzlar evolyutsiyasini quyidagi 1-rasmdagi shartli sxema asosida tushuntirish mumkin.

Yulduzlar evolyutsiyasini uning massasiga, o'lchamlariga va boshqa fizik parametrlariga bog'liq. Yulduzlar evolyutsiyasida yulduz turkumlaridagi o'zgaruvchan yulduzlarning nostatsionar yulduzlarga aylanishi kuzatiladi. Nostatsionar yulduzlarning o'zi evolutsiya jarayonida uch bosqichga ajratiladi: 1. Oddiy yulduzlar 2. Neytron yulduzlar 3. Qizil gigantlar.


Yulduzlarning yashash davri davomiyligi ham ularning massasiga bog'liq. Agar yulduz massasi Quyosh massasidan kichik bo'lsa, bunday yulduzlar o'n milliard yillar nurlanishi mumkin. Massasi Quyosh massasidan 1,2 marta katta bo'lgan yulduzlarning tashqi qatlami sekin-asta kengayadi va yulduz yadrosidan ajralib, uning o'rnida kichkina, qaynoq oq mitti yulduz qoladi.



1-rasm. Yulduzlar evolyutsiyasining shartli sxemasi.

Oq karliklar asrtronomiya tarixida eng qiziqarli obyektlardan biridir. Bu yulduzlardagi holat Yer sharida tasavvur etib bo'lmaydigan holatdir. Hozirgi kunda aniqlangan karliklar soni 1500 tadan ortib ketdi. 30 yorug'lik yiliga teng radiusli sferada 100 ga yaqin karlik joylashganligi aniqlangan. Oq karliklar sovuq va issiq turlarga bo'linadi. Sovuq karliklar atmosferasi asosan geliydan iborat bo'lib harorati- 5000K bo'ladi. Issiq karliklar atmosferasida 0.05% vodorod bo'lib asosan geliy, Ca, Fe, Ti dan iborat. Issiq karlik harorati ~ 50000 Kga yetadi. Oq karlik atmosferasi ostida 160 km qalinlikdagi erkin elektronlar qatlami bo'lib yulduz radiusining 1% ini tashkil qiladi. Oq karlikning o'lchami ($d=40000$ km) o'zgarmay qolishi aniqlangan. Bu o'lcham uning massasi bilan aniqlanadi. Karlik massasi qancha katta bo'lsa radiusi shuncha kichik bo'ladi. Oq karlikning minimal radiusi 10 000 km ni tashkil etadi.

Nostatsionar yulduzlarning ikkinchi turi **neytron yulduzlar** bo'lib, ular dastlabki bosqichda, o'zidagi mavjud energiyani chiqarib yuborish tufayli yangi va o'ta yangi yulduzlarga aylanib, keyingi bosqichda gaz tumanligini hosil qiladi. Neytron yulduzning kvant tasavvurlari asosidagi tuzilishi 2-rasmda keltirilgan.



Bu tasavvurlarga ko'ra neytron yulduzlar qalinligi bir necha kilometr bo'lgan atmosfera qatlamiga ega. Neytron yulduzlar kuchli magnitlangan bo'lib, uning magnit induksiyasi 10^6 million Teslaga yetadi. Radiusi 1,5 kilometrli neytron yulduz massasi 0,6 : 0,7 Yer massasiga teng, uning tashqi qatlami siyrak elektron va plazmadan iborat. Neytron yulduzlarning ko'ndalang kesimi iborat magnitosferani tashkil etadi. O'ta tez va zaryadlangan zarrachalar magnit kuch

chiziqlarida spiral bo'ylab harakatlanib, turli chastotali nurlarni hosil qiladi. Magnitosfera ostidagi modda zichligi 1 t/sm^3 , ya'ni temir zichligidan 10^5 marta katta bo'ladi. Keyingi qatlam metal xususiyatiga ega va bu qatlam kristall tuzilishidagi o'ta qattiq moddadan iborat. Kristallar asosan

102 atom massasi 26-39 va 58 -133 bo'lgan elementlardan iborat. Bu qobiqdagi zichlik tashqi qobiqqa qaraganda 1 million marta katta bo'lib, temir zichligidan 400 milliard marta ko'pdir. Markazga yaqinlashib uchinchi-qatlam kadmiy va unga qo'shni elementlarning og'ir izotoplaridan iborat uchinchi qatlamga yetamiz. Bu qatlam avvalgisidan ming marta zichroqdir. Neytron yulduzning to'rtinchi-qatlami 5 marta zichroq bo'lib, bu zichlikda yadro yaxlit qola olmaydi, ya'ni proton, neytron va elektronga ajraladi. Neytronlar soni ortib, bitta elektron va protonga 8 ta neytron to'g'ri keladi. Bu qatlamni asosan neytron suyuqligidan iborat deb qarash mumkin. Bu qatlam markazida neytron yulduz yadrosi joylashgan va uning zichligi 1,5 marta kattaroq bo'lib, yadrodagi zarralar energiyasi juda yuqoriligi tufayli urulishlar natijasida ma'lum bo'lgan barcha rezonanslar va elementar zarrachalar tug'iladi. Neytron yulduzlar harorati nisbatan yuqori bo'lib, dastlabki $10 \div 100$ ming yilda harorat bir necha yuz million gradusgacha tez kamayadi. Keyin esa, yulduz harorati elektromagnit nurlanish hisobiga sekin kamayishi kuzatiladi. Diametri 10-20 km, zichligi 10^{16} kg/m³ bo'lgan neytron yulduz kuchli radio va rentgen nurlari chiqarib o'z o'qi atrofida aylanish davriga mos davr bilan pulsatsiyalanib turadi. Shuning uchun ham bu neytron yulduzlar pulsatsiyalanuvchi yulduzlar - "pulsarlar" deb atalgan. Pulsarlarning radiusi 10 km, zichligi esa 10 kg/m³ gacha bo'ladi.

Nostatsionar yulduzlarning uchinchi turi - **qizil gigantlar** bo'lib, ular o'ta katta o'lchamlarga ega. Evolyutsiya jarayonida bundan chiqayotgan zarrachalar va nurlar kuchli gravitatsiya ta'sirida uning o'ziga qaytib tushadi, ya'ni **"qora tuynuk"** ka aylanadi. Hozirgi tadqiqotlarda qora tuynuklar o'ta zich va kichik o'lchamga ega bo'lishi kerakligi aniqlangan. Masalan: Quyosh massasi va o'lchamidagi yulduz diametri 2 kmlik shar shaklini olib qora tuynukka aylanadi. Qora tuynuk hosil bo'lishini kvant nuqtai nazardan quyidagicha tasavvur qilish mumkin. Biror massali modda shu massa uchun kritik hisoblanadigan tortilish tufayli ichki qarshilik bo'lmaganda, cheksiz siqilishi kerak. Bunday siqilish "gravitatsion kollaps" deb ataladi. Gravitatsion kollaps natijasida modda konsentratsiyasi ortib boradi va ma'lum bir vaqtga kelib uning sirtidagi tortish kuchini yengish uchun yorug'lik tezligidan katta tezlik ham yetarli bo'lmay qoladi. Shuning uchun ham bunday jismdan hech qanday modda uchib chiqmaydi va hech qanday nurlanish aks etmaydi. Ana shunday modda bunday modda qora tuynuk deb ataladi va uni ko'rish mumkin emas. Enshteynning umumiy nisbiylik nazariyasiga ko'ra, qora tuynuk yonida fazoning egrilanishi va vaqtning sekinlanishi kuzatiladi. Agar qora tuynukning siqilishi davom etadigan bo'lsa, ma'lum bir bosqichda uning ichida so'nmas yadroviy reaksiyalar boshlanadi. Bu vaqtda siqilish to'xtaydi va antikollaps portlashi kuzatiladi. Bu portlash ko'zga ko'ringanligi uchun oq tuynuk, deb ham ataladi. Hozirgi kunda galaktikalarning yadrosida o'ta katta quvvatli energiya manbai bo'lgan qora tuynuklar borligi taxmin qilinmoqda. Hisoblashlarga ko'ra, koinot massasining $\frac{9}{10}$ qismi qora tuynuklarga to'g'ri kelishi aniqlangan. Qora tuynukning radiusi 3 km, zichligi esa 10 kg/m³ gacha bo'ladi. Qora tuynuklar tortishuv maydonida gravitatsion kvant effektlari kuzatilishi lozim. Aynan shu gravitatsion kvant effektlari tufayli qora tuynuk ma'lum bir davrdan keyin oq tuynukga aylanishi ya'ni o'zidan kuchsiz yorug'lik yoki nurlanish chiqarishi kuzatiladi.

Yulduzlar evolyutsiyasining yuqorida tahlil qilingan kvant tasavvurlarining ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar asosida qo'llanilishi yetuk mutaxassislar tayyorlashda, ayniqsa bo'lajak fizika va astronomiya o'qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar

1. Г. Фраунфельдер, Э. Хенли "Субатомная физика" (пер. с англ.) М. "Наука".1998.
2. Гинзбург. Н. Л. Pulsars "Soviet Phus"Usp. 1483 (1971)

JISMONIY TARBIYA JARAYONIDA DIAGNOSTIK USULLAR AMALIYOTI

Annotatsiya: Maqolada, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy ta'lim samaradorligini baholash maqsadida qo'llaniladigan maxsus mashqlar, standartlashtirilgan o'lchov, yoki sinov (test)lari orqali diagnostik nazoratlarni o'tkazish va ishonchli xulosa yaratish modeli tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Nazorat sinov, kuzatish, og'zaki so'rov, ekspert baholash, kasbiy kompetensiya, nazorat test, umumiy chidamlilik, dinamik kuch, tezkor kuch qobiliyati, faol egiluvchanlik, koordinatsion qobiliyat, mashg'ulotning umumiy va motor zichligi, qiyosiy farq ishonchligi.

ПРАКТИКА ДИАГНОСТИКИ В ПРОЦЕССЕ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ

Аннотация: В статье анализируется модель диагностического контроля посредством специальных упражнений, стандартизированных измерений или тестов с целью оценки эффективности процесса физического воспитания в дошкольных образовательных организациях.

Ключевые слова: Контрольное испытание, наблюдение, контрольное испытание, общая выносливость, динамическая сила, скоростно-силовая способность, активная гибкость, координационная способность, общая и моторная плотность, достоверность результатов различия.

PRACTICE OF DIAGNOSTICS IN THE PROCESS OF PHYSICAL EDUCATION

Abstract: The article analyzes the model of diagnostic control through special exercises, standardized measurements or tests in order to assess the effectiveness of the physical education process in preschool educational organizations.

Key words: Control test, observation, control test, general endurance, dynamic strength, speed-strength ability, active flexibility, coordination ability, general and motor density, reliability of the difference results.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida malakali kadrlar tayyorlash, ta'lim jarayonini xalqaro standartlarga moslashtirish va boshqaruv tizimini raqamlashtirish, ilg'or xorijiy sport-ta'lim texnologiyalarining transferini amalga oshirish orqali yuqori natijalarga erishish maqsadida ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiyani tashkil etish jarayonida ta'lim oluvchilarning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi bo'yicha har yili monitoring ishlarini olib borishlari talab etiladi [1].

Bolalar jismoniy sifatlarining (harakat qobiliyat) rivojlanish darajasini aniqlash maqsadida, maxsus mashqlar, standartlashtirilgan o'lchov, yoki sinov (test)lar orqali nazorat sinovlari o'tkaziladi. Testlash orqali, jismoniy tarbiya jarayonida qo'llaniladigan vosita va usullarining ijobiy va salbiy tomonlari aniqlanadi.

Nazorat testlarini tanlashning umumiy talablari mavjud [2,4]:

- diagnostik nazoratda qatnashuvchi barcha bolalar uchun standartlashtirilgan sharoitlar (vaqti, ovqatlanishi, yuklama hajmi va h.k.z.)da testlarni o'tkazish;

104

- jismoniy tayyorgarlik darajasidan qat'iy nazar barcha bolalar uchun yengil va tushunarli bo'lishi;
- barcha testlar o'zining miqdoriy ko'rsatkichlariga (soniya, marta, metr) egaligi;
- nazorat mashqlarni o'lchash va baholash amallarining soddaligi.

Taxminiy nazorat mashqlar (testlar)

Harakat qobiliyatlari	Nazorat mashq (test)lari uchun namuna
<i>Chidamlilik jismoniy sifati</i>	
Umumiy chidamlilik	1000 metrga aralash harakatlanish (yurish va yugurishlarning navbatlashuvi)
<i>Kuch jismoniy sifati</i>	
Dinamik kuch	Belda yotgan holatda gavdani ko'tarib-tushirish (bir daqiqada necha marta)
Tezkor kuch qobiliyati	Turgan joydan ikki oyoqda uzunlikka sakrash (sm)
	150 gramm koptokchani masofaga uloqtirish (m)
	Bosh ortidan ikki qo'llab to'ldirma to'pni uloqtirish (m)
<i>Tezkorlik jismoniy sifati</i>	
Tezkorlik qobiliyatlar	30 metrga yugurish
<i>Egiluvchanlik jismoniy sifati</i>	
Faol egiluvchanlik	Gimnastika o'rindig'ida turib oldinga bukilish (o'rindiq qirrasidan – sm)
<i>Epchillik jismoniy sifati</i>	
Koordinatsion qobiliyat	3x10 metr (s) – mokisimon yugurish

Zamonaviy standartlar ham, pedagoglar uchun nazorat sinovlarni bajarishning barcha vaziyatlariga mos etalon me'yorlarini tavsiya eta olmaydi. Hattoki, Alpomish va Barchinoy (I bosqich 6-8 yoshlar uchun) maxsus testlari maktab o'qituvchilari uchun mo'ljallangan va 6 yoshli bilan 8 yoshli bolalar jismoniy rivojlanishini tenglashtirish mumkin emas.

Jismoniy tarbiya ta'limini individuallashtirishning rasional yechimi bu o'quv yili davomida o'lchov natijalarining o'zgarishini qiyoslashda, o'zaro bog'liq tanlanmalarning o'rtacha farq ishonchligini baholash usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ishonchlilikning t-mezonidan foydalangan holda, bola jismoniy rivojlanishining dinamikasi va o'zgarish ko'rsatkichlari dinamikasini baholash ishonchliligini hisoblash tartibi, quyidagicha [3]:

1. Maxsus jadvalning birinchi va ikkinchi ustunlari to'ldiriladi. Misol, maktabga tayyorlov guruh bolalarining o'quv yili boshida (x_1) va o'quv yili oxirida (x_2) qayd etilgan turgan joydan uzunlikka sakrash ko'rsatkichlari (1-jadvalga qarang).

Jadval 1

Maktabga tayyorlov guruh bolalari misolida uzunlikka sakrash natijalarining o'rtacha farq ko'rsatkichlarining ishonchligini hisoblash

O'quv yili boshidagi ko'rsatkichlar x_1	O'quv yili yakunidagi ko'rsatkichlar x_2	Farq $d = x_2 - x_1$	O'rtachadan og'ish $d - \bar{d}$	Og'ish kvadratlari $(d - \bar{d})^2$
1	2	3	4	5
78	112	34	19,3	372,5
94	113	19	4,3	18,5
106	104	-2	-16,7	278,9
83	95	12	- 2,7	7,3
122	140	18	3,3	10,9
103	111	9	5,7	32,5

107	120	13	-1,7	2,9
98	115	17	2,3	5,3
88	106	18	3,3	10,9
76	90	14	-0,7	0,5
108	130	22	7,3	53,3
91	93	2	-12,7	161,3
82	110	28	13,3	176,9
90	93	3	-11,7	136,9
		$\sum d = 206$	$\sum (d - \bar{d})^2 = 1268,6$	

2. Birinchi va ikkinchi qatorlar o'rtasidagi farq ko'rsatkichni uchinchi ustunda hisoblanadi $\sum d = 206$.

3. Farqning o'rtacha qiymati hisoblanadi.

$$\bar{d} = \frac{\sum d}{n} = \frac{206}{14} = 14,7$$

4. Farqning o'rtacha qiymatidan og'ish hisoblanadi $d - \bar{d}$.

5. Hisoblangan og'ish qiymatlarini kvadratga oshiriladi (5-ustun).

6. Formula yordamida standart og'ish hisoblanadi.

$$\sigma_d = \sqrt{\frac{\sum (d - \bar{d})^2}{n-1}} = \sqrt{\frac{1268,6}{14-1}} = 9,88$$

7. Formula yordamida o'rtacha xatolik m_d hisoblanadi.

$$m_d = \frac{\sigma_d}{\sqrt{n-1}} = \frac{9,88}{\sqrt{14-1}} = 2,74$$

8. t qiymati hisoblanadi.

$$t = \frac{\bar{d}}{m_d} = \frac{14,7}{2,74} = 5,36$$

9. Qiyosiy farq haqqoniyliqi 5-jadval bo'yicha aniqlanadi. Buning uchun aniqlangan qiymat ($t=5,36$) maxsus jadvaldagi 5% darajaviy ahamiyat qiymati bilan solishtiriladi ($k = n - 1$ erkinlikning darajaviy qiymati, bunda $n=14$ - sinaluvchilar soni).

Jadval

Erkinlik qiymatiga mos 5% ahamiyat darajasi uchun t- mezon (Student) ko'rsatkichi

Erkinlik darajasi (k)	P < 0,05	Erkinlik darajasi (k)	P < 0,05	Erkinlik darajasi (k)	P < 0,05
1	2,16	13	2,16	27	2,05
2	4,30	14	2,15	28	2,05
3	3,18	15	2,13	29	2,04
4	2,78	16	2,12	30	2,04
5	2,57	17	2,11	40	2,02
6	2,45	18	2,10	50	2,01
7	2,37	21	2,08	60	2,00
8	2,31	22	2,07	80	1,99
9	2,26	23	2,07	100	1,98
10	2,23	24	2,06	120	1,98
11	2,20	25	2,06	200	1,97
12	2,18	26	2,06	500	1,96

Xulosa: Hisoblangan empirik t (**5,36**) qiymat, qiyoslashtiriladigan jadval t 0,05 (**2,16**) qiymatidan katta bo'lganligi, bolalarning o'quv yili boshida va oxirida qayd etilgan uzunlikka sakrash natijalari o'rtasida $r < 0,05$ (5% li ahamiyat darajasida) ishonchli farq mavjudligini ko'rsatadi. O'quv yili davomida bolalarni jismoniy rivojlantirishning pedagogik jarayon

106 samaradorligini yetarlicha asosga ega ekanligi aniqlandi.

Tavsiyalar:

1. Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy rivojlanishini nazorat qilishning quyidagi pedagogik diagnostika yo'nalishlari tavsiya etiladi:

- jismoniy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni bajarish;
- asosiy harakat amallarini bajarish;
- ommalashgan ba'zi sport turlari bo'yicha boshlang'ich tasavvurlarini shakllantirish;
- harakatli o'yinlarni o'zlashtirish;
- harakat faoliyatining maqsadga intilish va o'zini-o'zi boshqarish ko'nikmalarini egallash;
- sog'lom turmush tarzining oddiy qoida va talablarini egallash.

2. Maktabgacha ta'lim yoshida bolaning jismoniy rivojlanishini samarali tashkil etish uchun, inson jismoniy rivojlanishining uning hayotiy davridagi bir qator prinsipial farqlarini e'tiborga olish talab etiladi. Misol, maktabgacha ta'lim yoshida sensitiv davr hisoblanmasligi sababli hamma qobiliyatlar ham nazoratga olinmaydi.

3. Bolalar jismoniy rivojlanishini nazorat qilishda keng ko'lamli pedagogik diagnostika usullari qo'llaniladi: nazorat sinov, kuzatish, og'zaki so'rov, ekspert baholash. Maktabgacha ta'lim muassasalari, o'zlarining mavjud shart-sharoitlariga mos ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirish uchun muhim diagnostik usullarni tanlash mumkin.

4. Diagnostik usullarni tanlashning umumiy shartlari:

- ta'limni individuallashtirish (jumladan, bolani qo'llab-quvvatlash, uning ta'lim traektoriyasi va kasbiy xususiyatlarini rivojlantirish);
- bolalar bilan ishlashni optimallashtirish.

Ushbu tavsiyalarning asosiy farqli tomoni shundaki, bolalarni jismoniy rivojlantirish bo'yicha pedagogik faoliyat samaradorligini ob'ektiv tasdiqlash imkonini beruvchi, natijalar haqqoniyligini matematik hisoblash va statistik tahlil modellari vositasida hisoblash o'rinli.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori, 03.11.2022 yildagi PQ-414-son.

2. Kadirov R.X., Jismoniy tarbiya diagnostikasi va korreksiyasi [Matn]: darslik / R.H. Kadirov. - Buxoro: "Sadridin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2020. - 184 b.

3. Умаров Д.Х. Обработка экспериментальных данных методом математической статистики. //Фан-спортга.-Тошкент, 2009. - № 4. - С. 24-26.

4. <https://studme.org/234653/pedagogika/> Диагностика результатов физического воспитания детей

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha
mutaxassislarni qayta tayyorlash va
malakasini oshirish institutining
Farg'ona filiali o'qituvchisi

AKADEMIK LITSEYLARDA YOSHLARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHGA ZAMONAVIY YONDASHUV (HARBIY AKADEMIK LITSEYLAR MISOLIDA)

Annotatsiya. Ushbu maqolada akademik litsey o'quvchilarida yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini takomillashtirishda axborot va pedagogik texnologiyalari orqali harbiy kompetensiyalarni rivojlantirish doirasida kasbiy faoliyatni amalga oshirish qobiliyati va uni amaliyotga joriy etish bo'yicha fikrlar berilgan.

Kalit so'zlar: Harbiy vatanparvarlik, harbiy kompetensiya, kasbiy faoliyatni, tarbiyalash tizimi, pedagogik texnologiyalar.

СОВРЕМЕННЫЙ ПОДХОД К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ СИСТЕМЫ ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЕЖИ В ДУХЕ ВОЕННОГО ПАТРИОТИЗМА В АКАДЕМИЧЕСКИХ ЛИЦЕЯХ (НА ПРИМЕРЕ ВОЕННО-АКАДЕМИЧЕСКИХ ЛИЦЕЕВ)

Аннотация. В данной статье рассматриваются возможности академических лицейстов осуществлять профессиональную деятельность в рамках развития военных компетенций посредством информационно-педагогических технологий в совершенствовании системы воспитания молодежи в духе военного патриотизма и ее внедрении в практику.

Ключевые слова: Военный патриотизм, военная компетентность, профессиональная деятельность, система образования, педагогические технологии.

A MODERN APPROACH TO IMPROVING THE SYSTEM OF EDUCATING YOUNG PEOPLE IN THE SPIRIT OF MILITARY PATRIOTISM IN ACADEMIC LYCEUMS (AS AN EXAMPLE OF MILITARY ACADEMIC LYCEUMS)

Annotation. This article examines the possibilities of academic lyceum students to carry out professional activities within the framework of developing military competencies through information and pedagogical technologies in improving the system of educating youth in the spirit of military patriotism and its implementation in practice.

Key words: Military patriotism, military competence, professional activity, education system, pedagogical technologies.

Yoshlarni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida xizmat qilish uchun tayyorlash Davlat miqyosidagi vazifa hisoblanadi. Shu vazifani hal qilishda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'quv dasturidagi majburiy fan bo'lib, umumta'lim o'quv muassasalarida, kasb-hunar maktablari va akademik litseylarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik rahbarlari tomonidan bitirish yili arafasida kurslardan yoki sinflardan boshlab o'tilishi O'zbekiston Respublikasi "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi qonunining 13-moddasiga belgilab berilgan. Ushbu masala uning muhimligi e'tiborga olingan holda aniqlab olingan.

Yoshlar – Vatanimizning, millatimizning kelajagidir. Vatanimiz taqdirini ularga ishonib topshirar ekanmiz, avvalo ular zimmalariga yuklatilayotgan murakkab va mas'uliyatli vazifani butun mohiyati bilan chuqur anglashlari, unga o'zlarini hissalarini qo'shishlari talab etiladi. Zero,

108 Vatanni sevish, unga mehr-muhabbat qo'yish har kimning shu yurt ravnaqi yo'lida amalga oshirayotgan bunyodkorona ishlari bilan belgilanadi.

Milliy o'zlikni anglashning rivojlanishida milliy vatanparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan, teran fikrlovchi yoshlarni tarbiyalash katta ahamiyatga egadir. Shuning uchun Vatan himoyasiga tayyorlanayotgan yoshlarimizning har biri yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishi shart. Vatanparvarlik – yuksak insoniy fazilat hisoblanadi.

Vatanparvarlik komillikning yeng yorqin jihatlaridan biridir. Shuning uchun ham Hadisi Sharifda «Vatanni sevmok - iymondandur» deb da'vat qilinadi. Vaholanki, o'tmishda jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan xalqning bugungi avlodlari, o'z meroslarining jahon xalqlari tomonidan ye'tirof yetilishini ta'kidlab o'tish joizdir, zero ularda bu kabi his – tuyg'ular milliy g'urur hamda ruhiy barkamollikka yetaklaydi, milliy o'zligini anglashga intilishini kuchaytiradi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi, tarbiyaning boshqa, mehnat, jismoniy tarbiya, huquqiy, estetik tarbiya, kabi turlari bilan uzviy bog'liq suratda olib borilganidagina yaxshi natija beradi. Shuning uchun harbiy vatanparvarlik tarbiyasini tarbiyaning ta'kidlangan turlarining uzviyligini ta'minlamasdan tasavvur qilib bo'lmaydi. Sovuqqa va issiqqa bardoshli bo'lish, kasalliklarga tezda berilmaslik, qiyinchiliklarni yengish, irodalilik, sabot – matonat, tez va chaqqon harakat bilish, qiyin vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olish, bajarayotgan ishini tahlil qila olish kabi Vatan mudofaachisiga xos fazilatlarini roli benihoyat kattadir.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni Vatan mudofaasiga jismonan va ma'naviy jihatdan tayyorlash zarurligi hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Ta'lim muassasalarida, o'quvchilarni, shu jumladan oliy ta'lim dargohlarida ta'lim olayotgan o'quvchi – yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tayyorlash endilikda ta'lim – tarbiya ishlarining barcha tizimlari orqali amalga oshirilmoqda.

Darhaqiqat, Vatanga nisbatan chinakam sadoqat, uni himoya qilishga ham qodir bo'lishni talab etadi. O'quvchi – yoshlar harbiy vatanparvarlik tarbiyasining nazariy va amaliy bilimlariga ega bo'lishi, ularni har taraflama harbiy xizmatga tayyorlash va O'zbekistonni himoya qilish bo'yicha o'z burchini ado yetishga har tomonlama tayyorlash – o'quv yurtlari pedagogik jamoalarining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining asosiy vazifalari quyidagilar (1-rasm):

Kuzatishlar blankasi-topshiriqlarni bajarishda o'quvchilarning faoliyatini baholash jarayoni mezonlari batafsil usullarini yoritadi.



1-rasm. Vatanparvarlikka–yo'naltirilgan topshiriqlarning tarkibiy tuzilishi.

Vatanparvarlik tarbiyasining muhim xususiyatlari sifatida tadqiqotchilar (L.P.Alekseeva, L.D. Davidov, N.V.Kuzmina, A.K.Markova, L.M.Mitina, L.A.Petrovskaya, N.S.Shablygina va boshqalar) quyidagilarni tavsiflaydi: an'anaviy tarbiya jarayoni "Bilim, ko'nikma, malaka" uchligi ma'nosini ifodalaydi va uning tarkibiy qismlari o'rtasida vosita boglovchi bo'lib xizmat qiladi;

keng ma'noda kompetensiyani fan bo'yicha chuqur bilim yoki o'zlashtirilgan malaka sifatida belgilash mumkin; vatanparvarlik kompetensiya ma'lum vaqt va sharoitlarda kasbiy muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun bilimlarni doimiy ravishda yangilab turish, yangi ma'lumotlarga ega bo'lishni anglatadi; kompetensiya ham mazmun (bilim), ham jarayon (mahorat) komponentlarini o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarni harbiy vatanparvarlik tarbiyasi o'quvchilarni xizmat qilishga ma'naviy – siyosiy, psixologik va jismoniy jihatdan tayyorlashning tashkiliy, mazmuni, shakllari va uslublarni tashkil qiladi.

Birinchidan, o'quv yurtlarida o'rganiladigan boshqa fanlar bilan bog'langan holda talabalarni milliy vatanparvarlik ruhida o'z Vatani himoyasiga doim tayyor bo'lishga tarbiyalash;

Ikkinchidan, talabalarda vatanparvarlik xislatlarni rivojlantirish, yangi jamiyatning faol, ongli quruvchilari, milliy mustaqillik g'oyalariga sadoqatli, mehnatkash, jasoratli va o'z Vatani uchun hayotini beradigan insonlarni yetishtirish;

Uchinchidan, talabalarni "Harbiy vatanparvarlik tarbiya" masalari bo'yicha nazariy va amaliy bilimlari bilan qurollantirish.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi'ni doirasida quyidagi masalalarga e'tibor qaratiladi va o'quvchilar o'rganish jarayonida quyidagilarni bajara olishi zarur:

- o'quvchilar harbiy vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha o'quv yurtlaridagi tadbirlarida follligini oshirish, bundan tashqari halqimizning jangovar va mehnat shuhratiga sazovor bo'lgan joylariga safarlar uyushtirish;

- urush va mehnat faxriylari bilan uchrashuvlar tashkil qilish, Qurolli Kuchlar askarlari bilan uchrashuvlar o'tkazish;

- harbiy vatanparvarlik mavzusi bo'yicha nazariy konferensiyalar o'tkazish,


- harbiy ish asoslarini o'rganish uchun harbiy to'garaklarda qatnashish.

Mazkur jarayonda har bir talaba mustaqil ravishda harbiy vatanparvarlik mavzusida 4-5 ma'ruza tayyorlashi (doklad, referat) shart.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi – yoshlar tarbiyasining samaradorligiga qanday erishiladi? Mamlakatimiz mudofaasini mustahkamlash masalalarini muvaffaqiyatli hal etish yoshlar tarbiyasi, siyosiy ongi, mehnat faoliyati va ilmiy-texnika rivojlanishi tezligi bilan chambarchas bog'liqdir.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining nazariy va amaliy asoslarida O'zbekiston Konstitusiyasi, O'zbekiston Respubikasi Prezidentining Vatanparvarlik va mustaqil Vatan himoyasi haqida g'oyalari, Oliy Majlis qonun va qarorlari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Ichki ishkar vazirligi, Mudofaa vazirligining buyruq va ko'rsatmalari, harbiy pedagogika va psixologiya, harbiy fanlar va boshqa qoida hamda me'yoriy hujjatlar o'rin olgan.


M.V.Shingaryova, A.N.Skoroxodovlar besh qismdan iborat vatanparvarlikka – yo'naltirilgan topshiriqlar modelini ishlab chiqqan (2-rasm)



2-rasm. Vatanparvarlikka –yo‘naltirilgan topshiriqlar tizimining modeli

Vatanparvarlikka – yo‘naltirilgan topshiriqlar quyidagi algoritm asosida tuziladi (3-rasm):


Vatanparvarlikka –yo‘naltirilgan topshiriqlarni tuzish algoritmi



3-rasm. Vatanparvarlikka –yo‘naltirilgan topshiriqlarni tuzish algoritmi

Vatanparvarlikka – yo‘naltirilgan topshiriqlarni bajarishda ham ma’lum algoritmgga amal qilinadi (4-rasm)

4-rasm. Topshiriqlarni bajarish algoritmi.



Vatanparvarlikka – yo‘naltirilgan topshiriqlar bilimlarga tayanadi va egallagan bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llashni talab etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Akademik litsey o‘quvchilarida yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini takomillashtirishda axborot va pedagogik

texnologiyalari orqali harbiy kompetensiyasi akademik litseylarining namunaviy ta'lim dasturi va mutaxassis tayyorlashga qo'yiladigan minimal talablarni belgilaydigan Davlat ta'lim standartiga muvofiq, rivojlantirish doirasida uning kasbiy faoliyatni amalga oshirish qobiliyati va uni amaliyotga joriy etishga tayyorligini tushunamiz.

Adabiyotlar

1. R.Mavlonova va boshqalar. Pedagogika nazariyasi va tarixi. T.: "Fan va texnologiyalar" 2010 yil.
2. A.Minovarov. Pedagogika. T.: "O'qituvchi" 1996 yil.
3. Sh.Tilavoldiyev, A.Akbarov. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi asoslari. Farg'ona. 2003 yil
4. Эгамбердиева, Т. А., and О. А. Тоштемиров. "Талаба-ёшларнинг жисмоний фаоллиги ва маданиятини юксалтиришнинг инновацион-педагогик хусусиятлари." Fan-Sportga 5 (2020): 56-59.
5. Abidovich, T. O., and A. A. Adxamjanovich. "Modern socio-pedagogical necessity of increasing communicative competence of future physical education teachers." *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal* 10.5 (2020): 52-57.
6. Тоштемиров, Отабек Абидович, and Алишер Адхамжанович Аминжонов. "Integration of physical and spiritual education social-pedagogical factors." *Scientific Bulletin of Namangan State University* 1.9 (2019): 244-249.
7. Abidovich, Toshtemirov Otabek. "Modern pedagogical mechanisms of the growth of physical culture among the students trained in the higher education system of uzbekistan." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol 8.7 (2020).
8. Ivanovna, Mixeeva Aleksandra, Toshtemirov Otabek Abidovich Abidovich, and Saidova Aziza Yakubovna. "Strengthening the Health and Spiritual Maturity of Young People through Physical Education and Sports." *Central asian journal of medical and natural sciences* 2.6 (2021): 64-67.
9. Эгамбердиева, Т. А., and О. А. Тоштемиров. "Талабаларнинг жисмоний маданиятини ривожлантиришда инновацион ёндашувнинг зарурияти." Fan-Sportga 2 (2021): 57-59.

Raximova Gulora

Urganch davlat pedagogika instituti
boshlang'ich ta'lim metodikasi
kafedrasi o'qituvchisi
raximovagulora1976@gmail.com

SHAXOBIDDIN SUHRAVARDIY AXLOQIY QARASHLARIDA VATANGA MUHABBAT TUSHUNCHASI TALQINI

Annotatsiya. Maqolada Shihobuddin Suhravardiy ahloqiy qarashlarida vatanga muhabbatning yosh avlod tarbiyasi uchun ahamiyatli jihatlari, islom tasavvufi yo'nalishlaridan biri Shihobuddin Umar Suhravardiy nomi bilan bog'liq "Suhravardiya" tariqatida oila va vatanning o'rni haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: uchinchi renesans, ilmiy-ma'naviy meros, axloq, odob, tafakkur, diniy-falsafiy tafakkur, Avorif al-maorif, ilohiy-falsafa, intellektual qobiliyat, kompetensiya, didaktik asar, uyg'onish davri, YUNESKO.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КОНЦЕПЦИИ ЛЮБВИ К РОДИНЕ В НРАВСТВЕННЫХ ВОЗЗРЕНИЯХ ШАХАБЕДИНА СУХРАВАРДИ

Аннотация. В статье рассматриваются важные аспекты любви к Родине в нравственных воззрениях Шихабуддина Сухраварди на воспитание молодого поколения, роль семьи и Родины в секте «Сухравардия», что связано с именем Шихабуддина Умара Сухраварди, одно из направлений исламского мистицизма.

Ключевые слова: третий ренессанс, научно-духовное наследие, мораль, нравы, мышление, религиозно-философское мышление, авориф аль-маариф, теология-философия, интеллектуальные способности, компетентность, дидактическая работа, ренессанс, ЮНЕСКО

INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF LOVE FOR THE MOTHERLAND IN THE MORAL VIEWS OF SHAHABEDIN SUHRAWARDI

Abstract. The article discusses important aspects of love for the motherland in the moral views of Shihabuddin Suhrawardi on the upbringing of the younger generation, the role of family and homeland in the "Suhrawardiya" sect, which is associated with the name of Shihabuddin Umar Suhrawardi., one of the directions of Islamic mysticism.

Key words: third renaissance, scientific and spiritual heritage, morality, mores, thinking, religious and philosophical thinking, avorif al-maarif, theology-philosophy, intellectual abilities, competence, didactic work, renaissance, unesco

Jamiyatimizda bugungi kunda yangi Uyg'onish davri, ya'ni "Uchinchi Renessans" poydevorini yaratish asosiy maqsad qilib belgilangan bir davrda o'rta asr mutafakkirlarining ma'naviy merosini o'rganishga yanada e'tiborli bo'lish, didaktik asarlarning tarjimalarini amalga oshirib keng ommaga yetkazish, pedagogik tahlillarini yaratib ta'lim jarayonida unumli foydalanish amalga oshirilishi zarur bo'lgan muhim vazifalardir. Chunki, buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o'lmas meros hamisha yonimizda bo'lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag'ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta'lim tizimini ana shunday ruh bilan sug'orishimiz kerak". Ushbu yondashuv ta'lim tizimining yuksak cho'qqilarga chiqishida amaliy dasturdur.

Qadim ul-ayyomdan xalqimizning aziz avliyolarga e'tiqodi baland bo'lib, ularning nomlarini hamisha yuragining to'rida asrab kelgan, sermazmun hayotini ibrat namunasi bilib, hikmatli so'zlarini yod aytib yurgan.

Ma'lumki, Muhammad alayhissalom–Olohning so'nggi rasuli. Payg'ambarimiz olamdan o'tgach, islom dunyosiga u zotning noiblari bo'lmish xalifalar rahnamolik qildilar. Xalifalardan keyin esa odamlarni hidoyat yo'liga boshlash avliyolar zimmasiga tushdi. Bu vazifani ular to qiyomatga qadar bajarishlari lozim bo'ladi.

Olohning do'stlariyu payg'ambarlarning vorislari bo'lmish shayxu avliyolar bizda bir necha o'n yillar mobaynida bir yoqlama talqin et'ib kelingani kabi kishilarni zulm-zo'rlikka bosh egishga, taqdir hukmiga bo'ysunishga targ'ib etmaganlar, balki ular, avvalo, insonning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi uchun qayg'urganlar, jamiyatning pokligi uchun kurashganlar. Xalqni ezgu ishlarga rag'batlantirib, nojo'ya xatti-harakatlardan qaytarganlar. O'z navbatida, hukmdorlarga ham nasihatlar qilib, ular tomonidan sodir etilajak adolatsizliklarni oldini olishga uringanlar.

Ma'lumki, tasavvuf ta'limoti insonning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini asos qilib oldi hamda o'z taraqqiyoti davomida uni oliy mukammallikka yetkazish yo'llari, bosqichlari va qoidalarining butun boshli bir majmuini ishlab chiqdiki, unga amal qilgan sari kishi o'zidagi qusurlardan qutula, yangidan – yangi fazilatlar kasb eta boradi.

Tasavvuf ta'limotining yirik namoyondalaridan biri Shaxobiddin Suhravardiydir. Yirik va mashhur tariqat arbobi, "o'z davrining yagonasi, nurlar matla'i, sirlar manbai, tariqat rahbari, haqiqat tarjimoni, zohir va botin ilmlarida barcha ulug' shayxlarning ustozlari, oriflar yo'lboshchisi, soliklar tayanchi, rabboniy olim Shahobiddin Umar ibn Muhammad Bakriy Suhravardiy" Eronning Zanjon viloyatidagi Suhravard qishlog'ida tug'ilgan. Tasavvufdagi ustozlari amakisi Shayx Abunajib Suhravardiy bo'lgan. O'z ilmini kamolga yetkazish maqsadida Eronning ko'plab shaharlari Shom va Anatoliyaga safar qiladi. Isfahonda Zahridin qo'lida Abu Ali ibn Sino merosini o'rganishga kirishadi. Halab hukmdori Malik Zohir uni o'z saroyiga taklif etadi. Bilim doirasining kengligi, haqiqatparastligi, bahsu – munozaralarda g'olib chiqishi bilan boshqa saroy ayonlaridan ajralib turgan.

Shaxobiddin Suhravardiy axloqiy qarashlarida vatanga muhabbat tuyg'usi bevosita komil inson tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. Komil inson martabasiga yetishish shartlari va yo'llari, uning maqom va darajalari ko'rsatilgan, buning uchun kishi o'zidagi qaysi ijobiy xususiyatlarni rivojlantirib, qaysi salbiy nuqsonlardan xalos bo'lishi lozimligi bayon etilgan, komil insonning hayot va faoliyat tarzi, iymon – e'tiqodi, axloqiy prinsiplari, vatanga muhabbati, o'y-kechinmalari, qisqasi, uning oddiy odamdan komil inson darajasiga yuksalish jarayoni, bu yo'ldagi quvonchu tashvishlari, ranju mashaqqatlari o'z aksini topgan.

Olohgatoat va ibodat, ota-onaga hurmat, suyukli yorga sadoqat, Vatanga, tug'ilgan tuproqqa muhabbat, fuqarolik burchi va mas'uliyatini anglash, diniy va dunyoviy ilmlarni egallash, kasb – hunar o'rganish yaxshi tarbiya olish, umum manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yish, el-yurt xizmatiga hamisha shay turish, xalqning og'irini yengil qilish, beva bechoralarga yordam qilish, halol, pok, to'g'ri bo'lish, harom-xarishdan uzoq yurish, himmat, saxovat, shijoat, matonat, qanoat, mehnatsevarlik, nafsga, hirsu havasga qul bo'lmaslik, beozorlik, xushmuomalalik, xoksorlik, ahdga vafo qilish, odob, hayo, mardlik, oliyjanoblik, rostgo'ylik, insof, adolat, kamtarlik, fidoyilik kabi ezgu insoniy fazilatlar ulug'langan, aksincha, odamiylik sha'n – shavkatini yerga uradigan zulm-zo'rlik, adolatsizlik, birovning haqini yeyish, riyo, kibr, hiyonat, baxillik, hasadgo'ylik, husumat, tuhmat, yolg'onchilik, qo'rqqoqlik e'tiqodsizlik, bekorchilik, tekinko'rlik va boshqa odatlar qoralangan komil insonning axloq kodeksi paydo bo'ladi.

Buyuk mutafakkirlar qatori yurt ishqini, oilaviy qadriyatlarni ilmiy meros sifatida yosh avlodga Shahobiddin Suhravardiy ham "Avorif ul maorif" asari orqali taqdim qilgan. Shahobiddin Suhravardiyning axloqiy qarashlarida oila, Vatan va islomiy qadriyatlarining pedagogik-didaktik tahlili uning ta'limotini, axloqni tarbiyalash va shakllantirishga yondashuvini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Oila jamiyatning asosiy poydevorlaridan biri bo'lib, insonlar birinchi marta axloqiy qadriyatlarga duch keladigan va axloqiy tamoyillarni o'rganadigan joydir. Suhravardiy ta'limotida oilaning axloqni shakllantirishdagi o'rni bilan bog'liq muhim jihatlarni uchratish mumkin. Oilada

114 yaqin rishtalarni rivojlantirishga, o'zaro hurmat va muhabbatga chaqiradi. Oila, uning fikricha, yoshlarni mehr-oqibat, adolat va ijtimoiy mas'uliyat ruhida tarbiyalashning asosi bo'lishi kerak.

Shahobiddin Suhravardiyning axloqiy qarashlarida vatan - inson yashab, o'zini daxldorlik tuyg'usini his qiladigan joy sifatida muhim o'rin tutadi. Vatanga muhabbat va g'amxo'rlik qilishga, jamiyat hayotida faol ishtirok etishga, o'z yurti taraqqiyotiga hissa qo'shishga chaqiradi. Uning ta'limotida vatan farovonligi va ravnaqiga erishishga qaratilgan vatanparvarlik qadriyatlari va g'oyalarini topish mumkin.

Shahobiddin Suhravardiyning axloqiy qarashlarida islomiy qadriyatlar ham muhim o'rin tutadi. Bizga ma'lumki, u faylasuf va tasavvufchi bo'lib, islom ta'limotlari asosida o'zining falsafiy tizimini ishlab chiqqan. Uning falsafasi va tasavvufida imyon, adolat, rahm-shafqat va oliy koinotga nisbatan kamtarlik kabi islom qadriyatlari elementlari aks etgan.

Pedagogik va didaktik tahlil ushbu qadriyatlar va tamoyillarni pedagogika va yoshlarni tarbiyalash usullarida qanday qo'llash mumkinligini o'rgatadi. Masalan, o'quvchilarda o'z oilasiga, vataniga muhabbat va hurmatni rivojlantirish, ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy ongini shakllantirish mumkin. Islom odob-axloqi asoslari bilan ham tanishtirish mumkin, bu esa islomiy qadriyatlarga muvofiq hayotiy qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Biroq shuni unutmaslik kerakki, pedagogik va didaktik yondashuv o'quvchilarning konteksti va madaniyatiga mos kelishi kerak. O'qituvchi va pedagoglar Shahobiddin Suhravardiy ta'limoti va islomiy qadriyatlar asosida yoshlarning o'z ma'naviy salohiyatini rivojlantirish va ro'yobga chiqarish uchun qulay muhit yaratishda o'quvchilarning individual xususiyatlarini, diniy va madaniy farqlarini hisobga olishlari kerak.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev.Sh.M. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". – Toshkent. O'zbekiston: 2017 yil, 1 tom

2. Allport G. The Person in psychology. Boston: Beacon, 1968, pp. 376-409. (Ruse

D.: Olport Gordon V. Lichnost' v psikhologii. Moscow, "KSP+" Publ., St.Petersburg "Iuventa" Publ., 1998. 375 p.)

3. Isayeva, M. A. (2014). Religious and psychological aspects of family functions. The Way of Science, 90.

4. Mukhiddinova U. (2021) Physical Activity as a Factor of Mental Development // CENTRAL ASIAN RESEARCH JOURNAL FOR INTERDISCIPLINARY STUDIES (CARJIS), ISSN: 2181-2454. Volume 1, Issue 3, November 2021. P.260-263.

5. Mukhiddinova U., Zotova E. (2021) Relationship of functional asymmetry with Individual psychological features of the personality // The Way of Science International scientific journal, № 4 (86), 2021. ISSN 2311-2158. Impact factor of the journal «The Way of Science» – 0.543 (Global Impact Factor, Australia). P.85-89

6. Xojiyeva Matluba Shukurovna , Baxtiyor Xamrayev. "Bo'lajak o'qituvchilar ma'naviy madaniyatini rivojlantirish texnologiyasi" Scientific progress 2.8 (2021): 196-202.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA KREATIV FIKRLASHGA DOIR FANLARARO ABSSESSIAL VA ORDINATAL BOG'LAB MASALALAR YECHISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda kreativ fikrlashga doir fanlararo absseksial va ordinatal bog'lab masalalar yechish haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: masala, kreativ, fikr, metod, matn, sodda, murakkab, usul, xususiyat, vaqt, masofa, tezlik, ta'lim, tarbiya.

РЕШЕНИЕ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫХ АБСЦЕССИВНЫХ И ОРИНАТНЫХ ЗАДАЧ, СВЯЗАННЫХ С ТВОРЧЕСКИМ МЫШЛЕНИЕМ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Абстрактный. В данной статье речь идет о решении междисциплинарных абсцессивных и ординатных задач, связанных с творческим мышлением в начальных классах.

Ключевые слова: задача, творчество, идея, метод, текст, простое, сложное, метод, особенность, время, расстояние, скорость, образование, воспитание.

Masala – muayyan bilim va kreativ fikrlash asosida hal qilinishi lozim bo'lgan muammo. Arifmetik masala – so'zlar bilan ifodalangan savol bo'lib, uning javobi arifmetik amallar yordamida olinishi mumkin. Matnli masalaning asosiy xususiyati unda izlanayotgan sonni topish uchun berilgan sonlar ustida qanday amalni bajarish lozimligi to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilmagan bo'lib, biror-bir ifoda tuzish yordamida yechimga keladigan yo'l ko'rsatiladi. Arifmetik masala 2 turga bo'linadi: sodda va murakkab masala. Sodda masala – bir arifmetik amal bilan bajariladi, murakkab masala – ikki va undan ortiq amal bilan bajariladi [1,3].

1-masala. Ayiq bitta bochka asalni 5 kunda yeb tugatdi. Uchta bochka asalni necha kunda yeb tugatadi? To'rt bochkanichi?

Masalaning qisqacha sharti:

1) Bir bochka asalni – 5 kunda.

3 bochkani - ? kunda

Yechilishi:

$$3 \times 5 = 15$$

2) Bir bochka asalni – 5 kunda

4 bochkani - ? kunda

$$4 \times 5 = 20$$

2-masala. Qo'ylar yomg'irda qolib ketishdi. Ular turgan joydan qo'tongacha 180 m. Hozir ular bu yo'lning to'rtidan bir qismini bosib o'tishdi. Ular yana qancha yurishlari kerak?

Masalaning qisqacha sharti:

Qo'ylardan qo'tongacha – 180 m.

Bosib o'tildi - $\frac{1}{4}$ qismi

Qoldi - ? m.

Yechilishi:

$$1) 180 : 4 = 45 \text{ (m).}$$

$$2) 45 \times 1 = 45 \text{ m.}$$

$$3) 180 \text{ m} - 45 \text{ m} = 135 \text{ m.}$$

Javob: 135 m.

Masala ustida ishlash uning mazmunini o'zlashtirishdan boshlanadi.

Shart va savol – masalaning asosiy elementlari. Sonli (yoki harfiy) ma'lumotlar masala shartida berilgan; izlanayotgan miqdor har doim masala savoliga kirgan bo'ladi. Ammo ba'zi

116 hollarda masala shunday ifodalangan bo'lishi mumkinki, unda savol shartning bir qismini oladi yoki butun masala savol shaklida bayon qilinadi [2].

Matematik kreativ fikrlash ta'lim oluvchilar bilish jarayonining muhim komponentlaridan biri hisoblanadi. Shu bois boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitish jarayonida mazkur komponentni rivojlantirish orqali matematik bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar egallanadi. Buning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashning aniq sifatlarini shakllantirishga e'tibor qaratish lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematika fanini o'qitish jarayonida matematik kreativ fikrlashni shakllantirish muhim hisoblanadi.

Kreativ fikrlashning egiluvchanligi masalani yechish usullarini o'zgartirish, odatiy harakat usullaridan chetga chiqish, masala sharti o'zgarganda uni yechishning yangi usullarini topish ko'nikmalarida namoyon bo'ladi. Matematik kreativ fikrlash xususiyatining boshlang'ich sinf o'quvchilarida namoyon bo'lishi ularda bitta masalani turli usullar bilan yechish ko'nikmasini shakllantirish imkonini beradi.

Kreativ fikrlashning maqsad sari yo'nalganlik xususiyati qandaydir muammoni hal etishda harakatlarni ongli tanlashga, uni hal etishning eng maqbul yo'lini topishga intilishni o'z ichiga oladi. Kreativ fikrlashning maqsad sari yo'nalganlik xususiyati bu oddiy usullar bilan yechish mumkin bo'lgan, ammo ko'p vaqtni talab etadigan masalalarni yanada tejamlaroq yechish usullarini izlab topishga imkon beradi. Kreativ fikrlashning maqsad sari yo'nalganligi masalani yechish uchun vaqt va vositalarni tejashga moyillikni, uni yechish jarayonida sxemalar, shartli belgilardan foydalanishga intilish bilan tavsiflanadigan kreativ fikrlash ratsionalligining namoyon bo'lishiga imkon beradi.

Kreativ fikrlash ratsionalligi ba'zi xususiyga ko'chirish va qo'llashning keng diapazoniga ega bo'lgan harakatlarning umumlashgan usullarini shakllantirishga qobiliyatlilik, muammoni butunlay qamrab olish, muammoni umumlashtirish, uni yechish jarayonida olingan natijalarning tatbiqiy sohasini kengaytirish ko'nikmasi sifatida tavsiflanadigan kreativ fikrlash kengligi mavjud bo'lganda namoyon bo'ladi.

Kreativ fikrlash chuqurligi o'rganilayotgan dalillarning boshqa dalillar bilan o'zaro bog'liqligini aniqlash ko'nikmasini tavsiflaydi. Kreativ fikrlash kengligi, eng avvalo, asosiy ikkinchi darajalidan ajratish, kreativ fikrlashning mantiqiy tuzilmasini aniqlash ko'nikmasida namoyon bo'ladi. U, ayniqsa, matematika darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan matematik sofizm kabi nostandart matematik masalalarni yechish jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi [4,7].

Yuqorida keltirilgan barcha sifatlar qandaydir matematikaga oid masalani yechishga yo'naltirilgan shartlar barqarorligi, qo'yilgan muammoni yechishga xohish, uni yechishga turlicha yondashuvlarni o'rganish, shartlar o'zgarishiga bog'liq holda, bu muammoni shakllantirishning turli variantlarini tadqiq etishni tavsiflaydigan kreativ fikrlash faolligi mavjud bo'lgandagina shakllanadi, rivojlanadi va takomillashib boradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlash faolligi, shuningdek, bir xil masalani turli xil metodlar bilan yechishga xohishda ham namoyon bo'ladi.

Tanqidiylik boshlang'ich sinf o'quvchisining matematik kreativ fikrlash xususiyatlari orasida muhim o'rinni egallaydi. Qo'yilgan muammoni yechish yo'lining to'g'ri tanlanganligi hamda olingan natijalarni ishonchlilik va ahamiyatlilik nuqtai nazaridan baholash ko'nikmasini tavsiflaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matematika bo'yicha tayyorlash jarayonida bu xususiyat induksiya, deduksiya, analogiya va intuitsiya yordamida chiqarilgan xulosalarni tekshirishga moyillikda namoyon bo'ladi [5].

Matematik kreativ fikrlashning tanqidiylik xususiyati, shuningdek, xatosini topish, uni to'g'irlash, qarama-qarshiliklarni bartaraf etish maqsadida kreativ fikrlash jarayonini qayta-qayta tekshirish ko'nikmasida yaqqol namoyon bo'ladi. Kreativ fikrlash tanqidiyligi qandaydir fikrni yuzaga chiqarish uchun yetarli bo'lgan dalillarni to'plashga sabr-toqatlilik va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish ko'nikmasi, masalani yechishning har bir qadamini asoslashga intilish, ishonchli va ishonchsiz ko'nikmalarni farqlash, asos va xulosa o'rtasidagi aloqalarning haqiqiy

sabablarini aniqlash ko'nikmasi bilan tavsiflanadigan kreativ fikrlash isbotlilik bilan uzviy bog'liq.

Matematik kreativ fikrlashning barcha qayd etilgan xususiyatlari bir-biri bilan o'zaro bog'liq, matematika o'qitish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatida yaqqol namoyon bo'ladi. Kreativ fikrlash shakllari va xususiyatlarining namoyon bo'lish imkoniyatlarini matematika fanida syujetli masalalarga oid bir necha misollar orqali qarab chiqamiz.

1-masala. 7 soatda usta 63 ta detal tayyorlaydi. Xuddi shunday 45 ta detalni u necha soatda tayyorlaydi?

Ushbu masalani yechishga turli xil yondashuvlarni qidirishda boshlang'ich sinf o'quvchisida kreativ fikrlash xususiyatlari namoyon bo'ldi va bu masalani yechishning quyidagi uchta usulini ko'rsatib o'tish mumkin:

1-usul: $45: (63:7)=5$ soat.

2-usul: $(7*45):63=5$ soat.

3-usul: $7:(63:45)=5$ soat.

2-masala. Oralaridagi masofa 80 km bo'lgan A va B punktlar berilgan. Ulardan bir vaqtda, bir xil yo'nalishda 60 km/soat tezlikda A punktdan va 50 km/soat tezlikda B punktdan ikkita mototsiklchi yo'lga chiqdi. Qancha vaqtdan so'ng A punktdan yo'lga chiqqan mototsiklchi ikkinchisini quvib yetadi?

Bu masalani yechishning quyidagi usullarini ko'rib chiqamiz:

1-usul: (arifmetik): $80:(60-50)=8$ (soat).

2-usul: (algebraik): $60x-50x=80$; $50x+80=60x$; $60x-80=50x$.

Bu usullar o'quvchilarda matematik kreativ fikrlashning aniq xususiyatlarini shakllantirishga imkon beradi.

3-masala. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini sayohatga olib borish uchun 6 ta kichik avtobusga buyurtma berildi. Har bir kichik avtobusda 12 o'rindiqli bor. Sayohatga har biridan 32 nafardan o'quvchi bo'lgan ikkita sinf boradi. Kichik avtobuslardagi o'rindiqlar barcha o'quvchilarga yetarli? Agar avtobuslarda band bo'lmagan joylar qolsa, ularning soni nechta?

1-usul:

1) $12*6=72$ – avtobuslardagi barcha o'rindiqlar soni;

2) $32*2=64$ – ikkita sinfdagi o'quvchilar soni;

3) $72>64$ – kichik avtobusdagi o'rindiqlar soni sayohatga boradigan o'quvchilar sonidan ko'p; (demak, avtobuslardagi o'rindiqlar barcha o'quvchilarga yetarli)

4) $72-64=8$ – kichik avtobuslardagi bo'sh o'rindiqlar soni.

2-usul:

1) $12*6=72$ – avtobuslardagi barcha o'rindiqlar soni;

2) $72-32=40$ – bitta sinf o'quvchilari kichik avtobuslarga joylashgan-dan so'ng ularda qolgan bo'sh o'rindiqlar soni;

3) $40-32=8$ – ikkinchi sinf o'quvchilari kichik avtobuslarga joylashgan-dan keyin bo'sh qolgan o'rindiqlar soni.

3-usul:

1) $32*2=64$ – ikkala sinfdagi o'quvchilarning umumiy soni;

2) $64:12=5$ (4 qoldiq) – ikkala sinfdagi barcha o'quvchilarni sayohatga olib borish uchun 5 ta kichik avtobus to'lib, 4 ta o'quvchi 6-avtobusga chiqadi;

3) $12-4=8$ – sayohatga boruvchi barcha o'quvchilar o'rindiqlarga joylash-gandan so'ng bo'sh qolgan o'rindiqlar soni.

4-usul:

1) $12*6=72$ – kichik avtobuslardagi barcha o'rindiqlar soni;

2) $72:2=36$ – har bir sinf uchun ajratilgan joylar soni;

3) $36-32=4$ – har bir sinfdagi band bo'lmagan o'rindiqlar soni;

4) $4*2=8$ – sayohatga boruvchi o'quvchilar kichik avtobuslarga joylashgan-dan so'ng bo'sh qolgan o'rindiqlar soni.

118

4-masala. Uchta sinfda 76 nafar o'quvchi bor. Birinchi va ikkinchi sinflarda birgalikda 51 nafar, ikkinchi va uchinchi sinflarda birgalikda 52 nafar o'quvchi bor. Har bir sinfda necha nafar o'quvchi bor?

1-usul:

- 1) $76-52=24$ (o'quvchi) birinchi sinfda;
- 2) $51-24=27$ (o'quvchi) ikkinchi sinfda;
- 3) $52-27=25$ (o'quvchi) uchinchi sinfda;

2-usul:

- 1) $76-52=24$ (o'quvchi) birinchi sinfda;
- 2) $76-51=25$ (o'quvchi) uchinchi sinfda;
- 3) $24+25=49$ (o'quvchi) birinchi va uchinchi sinfda;
- 4) $76-49=27$ (o'quvchi) ikkinchi sinfda;

3-usul:

- 1) $76-52=24$ (o'quvchi) birinchi sinfda;
- 2) $76-51=25$ (o'quvchi) uchinchi sinfda;
- 3) $51-24=27$ (o'quvchi) ikkinchi sinfda;

3-usul:

- 1) $(51+52)-76=27$ (o'quvchi) ikkinchi sinfda;
- 2) $51-27=24$ (o'quvchi) birinchi sinfda;
- 3) $52-27=25$ (o'quvchi) uchinchi sinfda

5-masala. Usta 1 soatda 64 ta detal tayyorlaydi. Agar u birinchi kuni 5 soat, ikkinchi kuni 3 soat ishlagan bo'lsa, qancha detal tayyorlagan?

1-usul. Yechimni sonli ifoda ko'rinishida yozish:

a) yakunida sonli ifodaga olib keluvchi alohida qadamlar yoziladi:

- 1) $64*5$ (dona) – usta tomonidan birinchi kuni bajarilgan detallar soni;
- 2) $64*3$ (dona) – usta tomonidan ikkinchi kuni bajarilgan detallar soni;
- 3) $64*5+64*3$ (dona) – usta tomonidan ikki kunda bajarilgan detallar soni;

b) ifodaning qiymati topiladi va yozuv chap tomonidan masala shartiga ko'ra tuzilgan ifoda va o'ng tomonidan uning qiymati joylashgan tenglik ko'rinishiga aylanadi.

$$64*5+64*3=512 \text{ (dona).}$$

Javob: 512 dona.

2. Yechimni izohsiz alohida harakatlar ko'rinishida yozish:

- 1) $64*5=320$ (dona); 2) $64*3=192$ (dona); 3) $320+192=512$ (dona).

Javob: 512 dona.

4. Rejaning har bir bandini arifmetik amallarga mos holda yozish.

- a) 1) usta tomonidan birinchi kuni bajarilgan detallar sonini topamiz: $64 * 5 = 320$ (dona);
- 2) usta tomonidan ikkinchi kuni bajarilgan detallar sonini topamiz: $64 * 3 = 192$ (dona);
- 3) usta tomonidan ikki kunda bajarilgan detallar sonini topamiz: $320 + 192 = 512$ (dona).

Javob: 512 dona.

b) 1) usta ikki kunda necha soat ishlaganini topamiz: $5+3=8$ (soat)

2) usta tomonidan ikki kunda bajarilgan detallar sonini topamiz: $64 * 8 = 512$ (dona);

Javob: 512 dona.

5. Yechimni harakatlar bo'yicha savollar bilan yozish.

1) birinchi kuni usta tomonidan nechta detal tayyorlangan?

$$64*5=320 \text{ (dona);}$$

2) ikkinchi kuni usta tomonidan nechta detal tayyorlangan?

$$64*3=192 \text{ (dona);}$$

2) ikki kun davomida usta nechta detal tayyorlagan?

$$320+192=512 \text{ (dona).}$$

Javob: 512 dona.

Ta'kidlash joizki, boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematika o'qitish jarayonida matnli va mantiqiy matematik masalalardan foydalanish ularning o'zini-o'zi boshqarish, tarbiyalash,

matematik kreativ fikrlashini takomillashtirish asosida kreativlik faoliyatiga jalb etish, matematik fikrlash va matematik qobiliyatni shakllantirish, xotiraning mukammal rivojlanganligi, matematika faniga qiziqishi e'tiborga olinadi.

Adabiyotlar

1. Tadjieva Z.G., Jumayeva M.E. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi (OO'Yu uchun darslik) -T.: "Fan va texnologiya", 2005.
2. Bikbayeva N.U. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. – T.: "O'qituvchi", 2007. -208 b.
3. Jumayev M.E. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi -T.: "Yangi asr avlodi", 2006.-186.
4. Djurayev R.H. Ta'limda interfaol texnologiyalar. -T., 2010. -87 b.
5. Qosimov F.M. Boshlang'ich sinf matematika darslarida ijodiy topshiriqlar ustida ishlash (uslubiy qo'llanma). -Buxoro, 2005. -138 b.
6. Атаханов Р.А. Соотношение общих закономерностей мышления и математического мышления //Вопросы психологии. -№5. -1995. – С. 41.
7. Телегина Э.Д., Терехов В.А. Исследование креативности как свойства мышления //Вопросы психологии познавательной деятельности. -М., 1979. -С. 20-28.

Zaripova Gulbahor Komilovna
Buxoro davlat universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi
dersuzala1972@gmail.com

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARINI MA'NAVIY-MA'RIFIY TARBIYASIDA SINIF RAHBARINING SHAXSIY VA KASBIY NAMUNASI

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'rta umum-ta'lim maktab o'quvchilarini ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasida sinf rahbarining shaxsiy va kasbiy namunasi haqida nazariy va amaliy ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, unda tarbiyaviy jarayondagi subyekt (sinf rahbari) va obyekt (o'quvchi) munosabatlarida sinf rahbari yo'naltiruvchi rol o'ynashi ko'rsatilgan. Obyekt-subyekt munosabatlari umummetodologik ahamiyatga ega, shunga ko'ra insonning butun olamni ongli nazariy va amaliy hamda bilishi mehnat faoliyati obyekt-subyekt tarzida amalga oshishi haqida boshqa muhim ilmiy-amaliy mulohazalar maqolada yoritilgan.

Kalit so'zlar: o'rta umum-ta'lim maktablari, murakkab ijtimoiy munosabatlar, tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, axloqiy, demokratik, sinf rahbari, jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti, o'quvchi munosabatlari dialektikasi.

ЛИЧНОСТНЫЙ И ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЙ ПРИМЕР РУКОВОДИТЕЛЯ КЛАССА В ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОМ ВОСПИТАНИИ УЧАЩИХСЯ СРЕДНИХ ШКОЛ

Аннотация: В данной статье представлены теоретические и практические сведения о личном и профессиональном примере руководителя класса в духовно-педагогическом воспитании учащихся средних школ, а также руководителя класса во взаимоотношениях субъекта (руководителя класса) и показано, что объект (учащийся) в образовательном процессе играет направляющую роль. Объектно-субъектные отношения имеют общеметодологическое значение, соответственно, в статье освещены и другие важные научные и практические соображения о сознательном теоретическом и практическом познании всего мироздания и трудовой деятельности в форме объекта-субъекта.

Ключевые слова: средняя общеобразовательная школа, сложные социальные отношения, образование, экономическое, политическое, моральное, демократическое, классный лидер, экономическое развитие общества, диалектика ученических отношений.

PERSONAL AND PROFESSIONAL EXAMPLE OF A CLASS LEADER IN THE SPIRITUAL AND EDUCATIONAL EDUCATION OF SECONDARY SCHOOL STUDENTS

Annotation: This article presents theoretical and practical information about the personal and professional example of the class leader in the spiritual and pedagogical education of secondary school students, as well as the class leader in the relationship of the subject (class leader) and shows that the object (student) plays a guiding role in the educational process. Object-subject relations have a general methodological significance; accordingly, the article highlights other important scientific and practical considerations about the conscious theoretical and practical knowledge of the entire universe and work activity in the form of an object-subject.

Keywords: secondary school, complex social relations, education, economic, political, moral, democratic, class leader, economic development of society, dialectics of student relations.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarbiyaviy jarayon haqida gapirar ekanmiz, uning o'quvchi shaxsiga yo'nalganligini va u o'z navbatida murakkab ijtimoiy munosabatlar bilan uzviy bog'liqlikni ta'kidlash o'rinlidir. Ijtimoiy munosabatlar va u asosda vujudga keluvchi shaxslararo

munosabatlar ko'p qirrali va murakkabdir. Shuning uchun, shaxslararo munosabatlarda hamda tarbiyada ham hamma bog'lanish va vaziyatlarni, hayotning hamma jihatlarini oldindan inobatga olib, unga retsept berib bo'lmaydi, ushbu murakkab jarayonlarda yosh kishini (o'quvchini) to'g'ri yo'nalish olishiga sinf rahbari muhim rol o'ynaydi. Chunki tarbiya ikki yoqlama jarayon tarzida munosabatlarsiz, sinf rahbari ishtirokisiz amalga oshmaydi. Bu munosabatlar jarayon sifatida o'quvchi ongi va irodasiga bog'liq bo'lmay, sinf rahbari hamda o'quvchi o'zaro munosabatga kirishib, tarbiya jarayonining subyekt va obyektlariga aylanib, ular ijtimoiy munosabatlarning ongli aloqadorligini tashkil etadilar. Shuning uchun, tarbiya jarayonida sinf rahbari va o'quvchilarining o'zaro ta'sirlari ularning tarbiyaviy munosabatlarini keltirib chiqaradi hamda o'rta-umum ta'lim maktabida tarbiyani o'ziga xos amaliy va nazariy maqsad masalalarini hal qilishga xizmat qiladi.

Bu jarayonlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, jamiyatning o'zgarishi undagi iqtisodiy, siyosiy, axloqiy, demokratik o'zgarishlar tarbiyaviy munosabatlarga ham ta'sir qiladi. Bunda sinf rahbarining rahbarlik, yo'naltiruvchilik roli tarbiyaviy jarayonni shu o'zgarishlarga moslashtirishida ko'rinadi. Tarbiya jamiyat iqtisodiy rivoji bilan bog'liq bo'lib, agar tarbiyaviy jarayon sinf rahbari tomonidan o'quvchi shaxsini shakllantirishda uni ijobiy tomonga bura olsa, natijada u jamiyat iqtisodiy rivojini tezlashtiradi. Agar aksincha bo'lsa, ya'ni sinf rahbari o'quvchi shaxsini jamiyat talablariga mos tarbiyalashni tashkil qila olmasa, jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti sekinlashadi, yoki tanazzulga yuz tutishi mumkin. Demak, jamiyat, sinf rahbari va o'quvchi munosabatlari dialektikasida sinf rahbarining ongli, kasbiy va pedagogik mahorati ikki yoqlama jarayonni tezlashtiradi, uni jamiyat ijtimoiy buyurtmasi talablariga moslashtiradi.

Bunda shunday qonuniyatdan kelib chiqish kerakki, o'quvchi shaxsiy va kasbiy sifatleri ularning ontogenetik evolutsiyasi bilan bog'liq bo'lmay, o'quvchi faoliyatini tashkil qilish shakllari sinf rahbari mahoratiga bog'liq o'zgaradi. Demak, tarbiyaviy jarayondagi subyekt (sinf rahbari) va obyekt (o'quvchi) munosabatlarida sinf rahbari yo'naltiruvchi rol o'ynaydi. Sinf rahbari va o'quvchilarning faolligi va o'zaro ishonchi, ular o'rtasida hurmat hamda hamkorlikni mustahkamlaydi. Buning oqibatida o'quvchi (obyektning) o'qish va kasb egalashida faolligi oshadi. Bu esa tarbiyaviy jarayon samaradorligini oshishiga olib keladi. Shuning uchun, subyekt va obyekt dialektikasiga batafsilroq to'xtalamiz.

Obyekt-subyekt munosabatlari umummetodologik ahamiyatga ega. Chunki insonning butun ongli nazariy va amaliy hamda bilish va mehnat faoliyati obyekt-subyekt tarzida amalga oshadi. Inson ongli subyekt sifatida o'z ongini, faoliyatini ayni vaqtda uni qiziqtirgan obyektga qaratadi. Bunda insonning o'zi subyekt, uning nigohi, ongi, faoliyati yo'naltirilgan nuqta obyekt sifatida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy hayotning hamma sohalarida insoniy munosabatlar, mehnat jarayonlari obyekt-subyekt tarzida amalga oshadi. Jumladan, kishilarning bir-biriga o'zaro ta'siri ham aynan shu zaylda namoyon bo'ladi. Kishilar o'zaro ta'sir oqibatida o'zaro fikr almashadilar, boyiydilar, yoki bir-birlariga salbiy ta'sir o'tkazadilar. Hatto, inson o'z-o'zi bilan mashg'ul bo'lganda ham uning nigohi o'zining ma'lum sifat, fazilat, xislatlarini ruhiy olamiga yo'naltirilgan bo'ladi. Bunda inson ichki hissiyotlari ma'lum sifatleri obyekt vazifasini o'taydi, yoki o'shanday namoyon bo'ladi. O'zi esa subyektga nisbatan tahlilchi sifatida ish ko'radi. Narsa obyekt, uning o'zi esa subyekt, ya'ni o'zidan tashqaridagi narsani bilish, o'zgartirish o'ziga moslashtirish nuqtayi nazaridan unga yondashadi.

Ijtimoiy hayotning hamma sohalarida insonning faoliyati turli-tuman obyekt-subyekt munosabatlari tarzida amalga oshadi. Mustaqillik va bozor iqtisodiyoti sharoitida obyekt-subyekt munosabatlari yangi metodologik asosda talqin qilinishi kerak. Chunki ozod, erkin, mustaqil bo'lgan inson ijtimoiy jihatdan ozod, ya'ni uning hayoti ma'muriy tazyiq va talab, buyruqlar bilan belgilanmaydi. U o'z hayotini ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, axloqiy jihatdan o'zi tartibga solishi zarur. Ijtimoiy ozodlik uni siyosiy, iqtisodiy, axloqiy jihatdan jamiyat talablaridan ozod qilmaydi, balki, u o'z faoliyatining shu jihatlarini o'zi tashqi aralashuvsiz tartibga solishi lozim. Bu esa insondan o'ziga va obyektga nisbatan shaxsiy faollikni talab qiladi. Obyekt bilan subyekt o'rtasidagi o'zaro munosabatning bunday o'zgarishi umumfalsafiy bo'lib, hamma sohalarida, jumladan, ta'lim-tarbiya jarayonida ham o'qituvchi va o'quvchi munosabatlariga keskin ta'sir

122 qilib, uni insonparvarlik, o'zaro hamkorlik, tenglik va oshkoralik asosida tashkil etishni taqozo qiladi.

Kommunistik tuzum sharoiti va mafkurasi ta'sirida shakllangan ma'muriy-buyruqbozlik munosabatlari mustaqillik sharoitida mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchining yakka hukmronligi o'rniga hamkorligi, o'quvchi shaxsi, g'ururini poymol qilmaslik belgilovchi mezon hisoblanadi. Bu sharoitda o'quvchi mo'rt, itoatkor, bilim va tarbiyaviy ta'sirlarni qabul qiluvchi obyektidan ta'lim-tarbiya jarayonining o'qituvchi bilan faol me'moriga aylanadi. Bu borada I.A.Karimov o'zining "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" ma'ruzasida shunday ta'kidlagan edi: "Umuman, maktablarda bolalar mustaqil fikr yuritishga o'rgatiladimi?"[1] Aminmanki, o'rgatilmaydi. Mabodo biror o'quvchi o'qituvchiga e'tiroz bildirsa, ertaga u hech kim havas qilmaydigan axvolga tushib qoladi. Maktablardagi jarayonda o'qituvchi hukmron. U boladan faqat o'zi tushuntirayotgan narsani tushunib olishni talab qiladi. Prinsip ham tayyor: "Mening aytganim-aytgan, deganim-degan.

O'qituvchi va o'quvchi munosabatidagi majburiy itoatkorlik o'rnini ongli intizom egallashi juda qiyin kechayapti. O'qituvchining bosh vazifasi o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iboratligini ko'pincha yaxshi tushunamiz, lekin, afsuski, amalda, tajribamizda unga rioya qilmaymiz [2, 17].

Ammo, ta'lim-tarbiyada obyekt-subyekt munosabatlari o'ziga xos namoyon bo'ladi. Bu esa mazkur jarayonning murakkabligi, ko'p qirraligi va o'ziga xos qonuniyatlari bilan belgilanadi.

Tarbiya jarayon sifatida sinf rahbari va o'quvchi, sinf rahbari va o'quvchilar, ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchilar va o'quvchilar, ota-onalar, jamoatchilik va jamoalar bilan o'zaro munosabatlardan iborat. Tarbiya ikkiyoqlama jarayon tarzida tarbiyaviy munosabatlarsiz amalga oshmaydi. Bu munosabatlar jarayon qatnashchilarining individual ongi va irodasiga bog'liq bo'lmay, ular o'zaro munosabatda tarbiya jarayonining subyekt va obyektlariga aylanib, ijtimoiy munosabatlarning ongda aloqadorligini tashkil etadi. O'z navbatida ular ijtimoiy munosabatlarning alohida sohasi bo'lsada, ularning xarakteri jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-huquqiy, odob-axloqiy munosabatlar darajasiga ham bog'liq bo'ladi. Tarbiya jarayonidagi sinf rahbari va o'quvchining o'zaro ta'sirlari tarbiya munosabatlarini keltirib chiqarib, tarbiyaning o'ziga xos amaliy va nazariy maqsadini hal etishga xizmat qiladi. Shu jihatdan tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish uchun uning noma'lum, yashirin xususiyat va tendensiyalarini o'rganish va hisobga olish pedagogik jarayon va hodisalarning haqiqiy ma'naviyatini ochishga, munosabatlarga aloqador umumiy tomonlar qonuniyatlarini bilishga zamin hozirlaydi. Tarbiyaviy faoliyat ijtimoiy qonuniyatlarni namoyon etib, jamiyat hayotining hamma jabhalari bilan uzviy bog'liqdir. Tarbiyaviy jarayondagi munosabatlarni o'rganishda ularning jamiyatning o'zgarib turuvchi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy, ma'rifiy tuzilishi bilan bog'liqligini unutmaslik kerak. Jamiyat hayotidagi bunday o'zgarishlar tarbiyaviy munosabatlarni ularga mos tashkil qilishni taqozo qiladi.

Tarbiyaviy jarayonda amal qiluvchi o'zaro munosabat va qonuniyatlarni aniqlash nihoyatda murakkab. Hamma vaqt ham ularni pedagogik ilmiy taqiqot metodlari bilan aniqlab bo'lmaydi.

Shuning uchun, sinf rahbari, yoki o'qituvchi ayrim muhim bo'lgan, yoki bevosita ko'zga tashlanadigan, sezish va his qilish bilan bilib bo'ladigan bog'lanishlardan munosabatlarning ichki mohiyati, muhim va zaruriy umumiy tomonlariga tafakkur orqali yondashishi lozim bo'ladi. Buning uchun tarbiyaviy jarayonni muntazam kuzatish, mashq qilish, tahlil qilish va chog'ishtirishni ham yozma, ham tabiiy hayotiy olib borish kerak bo'ladi. Shu asosda tasnif qilish, tizimlashtirish va umumlashtirish asosida tarbiyaviy fakt-hodisalar mohiyatini aniqlab, ularning qonuniyatlarini bilish mumkin bo'ladi.

Tarbiyaviy munosabatlar ularni vujudga keltiruvchi kishilar faoliyati munosabatlarini vujudga keltiradi, rivojlantiradi va tarbiya maqsadini tushuntiradi. Tarbiya maqsadlari jarayondagi o'zgarishlar asosida shakl va mazmun jihatdan yangilanib doimiy pedagogik nazoratga muhtoj bo'ladi. Tarbiyaviy munosabatlarga ko'zlangan maqsaddan kelib chiqib jarayon ishtirokchilarining o'zaro aloqadorligi ta'sir ko'rsatadi. Tarbiyaviy jarayondagi munosabatlar sinf

rahbarlarning o'quvchilar faoliyatiga, harakat va intilishlariga, faolliliga maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsata olish imkoniyatini yaratadi.

O'z navbatida, tarbiyaviy munosabatlarni jamiyat ijtimoiy munosabatlari bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Jamiyat ijtimoiy munosabatlari tarbiyaviy munosabatlarga qaraganda ancha jiddiy bo'lib, tarbiyaviy munosabatlar ularning tor sahnada namoyon bo'lishidir. Ammo, tarbiyaviy munosabatlar jamiyat ijtimoiy munosabatlarini shakllanishi, rivojlanishi va amal qilish darajasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Tarbiyaviy jarayondagi munosabatlarning jamiyat ijtimoiy munosabatlaridagi yana bir muhim o'rni avlodlar o'rtasidagi ijtimoiy tajriba, bilim, axloqiy sifatlar vositasi asosida insoniy kamolot va kasbiy malakalarga xizmat qilishidir. Bu jarayondagi avlodlararo o'zaro tajriba almashinishi birmuncha kam bilim, tajriba, kasbiy tayyorgarlikka ega yoshlar bilan ancha tajribali kishilar, yoki alohida kishilar va jamoalar o'rtasida amalga oshadi.

Kishilarning turli-tuman tajriba almashishlari ko'pchilik joylarda jamiyatning moddiy ishlab chiqarish, siyosiy va ijtimoiy hayoti sohalarida namoyon bo'ladi.

Tajriba almashish ajdodlarimizning moddiy va ma'naviy boyliklar yaratganligida o'z ifodasini topadi. Tarbiya yosh, yangi kishilarni ajdodlar yaratgan turmush sharoitiga tayyorlash orqali ularning hayot tarzini, o'zining o'zgarishida vositachilik rolini o'ynab, o'z navbatida moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish rivojiga asos bo'ladi. Ajdodlar to'plagan bilim, tajribani yangi avlod egallashida tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar pedagogik tartib amalga oshirib beradi. Ya'ni ularni yoshlar tomonidan egallanishida ruhiy va didaktik jihatdan ishlov berib, ta'sirini kuchaytiradi va qulaylashtiradi.

Tarbiyaviy munosabatlarning xarakterli tomoni shundaki, ular ishlab chiqarish, siyosiy, ijtimoiy tajribani "qayta ishlab", o'zgartirib tarbiya vositasiga aylantiradi. Shu asosda har bir kishining jismoniy va ma'naviy kuchini rivojlantirib, jamiyatning mavjud shart-sharoit va ehtiyojlariga moslashtiradi.

Tarbiyaning yaxlitligi tarbiyaviy munosabatlar majmuining yig'indisidan iborat. Tarbiyaviy munosabat mohiyatini o'rganish ularni narsalar, hodisalar, ya'ni predmetlar va kishilar o'rtasidagi munosabatlar – insonlarning o'zaro muloqotlari tarzida bo'lishini ajratishdan iboratdir.

O'zaro munosabatlar obyekt-subyekt tarzida insonning tabiatga, o'zini o'rab turgan narsalar, ya'ni ular harakatining amaliy tomonini ifodalaydi. Predmetli munosabatlar nafaqat obyekt, balki subyekt ham o'zgartiradi. Kishilar o'zaro tarbiyaviy munosabatlari jarayonida bir-biriga ta'sir qilib, boshqalarning o'ziga nisbatan ta'sirida bo'ladi. Bunda o'zaro munosabatlar subyekt-subyekt tarzida namoyon bo'ladi. Sinf rahbarining vazifasi esa predmetli va o'zaro munosabatlar hamda muloqot mohiyatini tushunib inson kamolotiga yo'naltirishdir. Ularni tarbiya maqsadlariga yo'naltirish insonlar amaliy faoliyati va muloqotini tarbiya vositasiga aylantirib, predmetli va o'zaro munosabatlarni tarbiyaviy munosabatlarga aylantiradi. Shu asosda faoliyat va muloqotni tarbiya maqsadlariga yo'naltirish insonlarni kamolotga olib keladi. Komil insonni tarbiyalash ehtiyoji faoliyat va muloqotni tarbiyaviy vazifani amalga oshirish vositasiga aylantiradi.

Asosiy ijtimoiy munosabatlarga bunday yondashish ularning rivojlanishi bilan birga tarbiyaviy yo'nalish olib, sinf rahbari bilan o'quvchi o'rtasidagi munosabatning mohiyatini ancha o'zgartiradi.

Sinf rahbarilar bilan o'quvchilarning o'zaro munosabatlarini tahlil qilganda ulardagi obyektiv va subyektiv munosabatlarning uyg'unligini va ta'sirini ta'kidlash lozim. Bu o'z navbatida pedagogik jarayon ishtirokchilarining munosabatlari subyekt-obyekt tarzida bo'lishi mumkinligini e'tirof etish lozim. Obyektiv tarbiyaviy jarayon ishtirokchilarining xohish-irodasiga bog'liq bo'lmay, yoki sinf rahbari va o'quvchilarning anglanmagan holda tarbiyaviy jarayon tendensiya va qonuniyatlarini to'la anglamay ishtirokini tushunish lozim. Subyektiv munosabatlar obyektiv ijtimoiy munosabatlarni yakka, yoki jamoaviy holda jarayon ishtirokchilarining ongida aks etishini ifodalaydi. Tarbiyaviy jarayonda bu ishtirokchilarning motivi, mayl, qiziqishi, hissiyoti kabi ongli intilishlar shaklida namoyon bo'ladi.

Agar biz keltirilgan munosabatlarga tarbiyaning amalga oshirilishi va rivoji nuqtayi nazaridan yondashsak, uning ishtirokchilari faoliyatida predmetli va o'zaro ta'sir

124 munosabatlarining maqsadga muvofiq harakat birligini ko'ramiz. Unda sinf rahbarlar va o'quvchilar o'zaro birlik va aloqadorlikda tarbiyaviy jarayon subyektlari tarzida ishtirok etsalarda, ularning bunda o'rni va ijtimoiy roli teng emas. Bunda sinf rahbarining vazifasi o'quvchida ma'lum ijobiy insoniy xislatlarni shakllantirish bo'lib hisoblanadi. O'quvchi esa tarbiya obyekti bo'lib, unda ma'lum insoniy fazilatlarini tarbiyaviy ta'sir va munosabat orqali shakllantirish muhimdir. Buning oqibatida sinf rahbari va o'quvchilar o'rtasida subyekt-obyekt munosabatlari paydo bo'lib, insonning boshqa barcha moddiy olam narsa-hodisalardagi munosabatlariga xos munosabat paydo bo'ladi. Bunda sinf rahbari bilan o'quvchining o'zaro aloqadorligi turlicha bo'lishi mumkin. Sinf rahbarining insoniy-axloqiy sabablari: tashqi ko'rinishi, shirinsuxanligi, tarbiyaviy jarayon qonuniyatlari va talablarini, tarbiyaning tarkibiy qismlari, shakl va metodlarini, maqsadi, mazmunini va ularni amalga oshirishning yo'l va vositalarini bilishi, yoki bir so'z bilan aytganda pedagogik mahorati muhim bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirish uchun tegishli moddiy baza, shart-sharoitning mavjudligini hisobga olish, o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasi, ularga qaysi sifatlarni ayni vaqtda shakllantirish zarurligi, yoshi va o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish, shulardan kelib chiqib, tarbiyaning ma'lum, shakl, usullarini bilish ham muhimdir.

Sinf rahbarining tarbiya obyektiga yuqoridagi omillarni hisobga olmay ko'r-ko'rona ta'sir qilishi, ular o'rtasidagi munosabatlarni, ya'ni o'zaro aloqadorlik zanjiri, bir-birini tushunishini qiyinlashtiradi, o'quvchida tarbiyaviy ta'sirga nisbatan salbiy munosabat, uni qabul qilmaslik, unga nisbatan ichki e'tiroz paydo bo'ladi. Oqibatda amalga oshirilishi lozim bo'lgan tarbiyaviy ta'sir ijobiy emas, salbiy natija beradi.

Demak, bu yerda sinf rahbarining shaxsiy sifatlari va pedagogik mahorati hamda o'quvchilarning psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olishda subyektning obyektga ta'siri kuchayadi va tarbiyaviy munosabat amalga oshadi, ya'ni bunda sinf rahbari o'quvchining shaxsiy subyektiv sifatlari bilan o'zining subyektiv sifatlari bilan o'zining subyektiv olamining o'zaro munosabatlari dialektikasini ko'radi.

Insoniy munosabatlarda, ayniqsa, tarbiyaviy jarayonda subyektning subyektga ta'sirida bular belgilovchi hisoblanadi. Bu pedagogika tilida sinf rahbari bilan o'quvchilar o'rtasidagi subyekt-subyekt xarakteridagi munosabat hisoblanadi, yoki o'zaro aloqadorlik, ya'ni sinf rahbari bilan o'quvchi o'rtasidagi o'zaro predmetli munosabat yuzaga keladi.

Yuqoridagi omillarni inobatga olmay, olib boriladigan tarbiyaviy ishlar har qancha ko'p va turli tuman bo'lsada kutilgan natijani bermaydi. Bir o'rta-umum ta'lim maktab kengashida sinflardagi tarbiyaviy ishlar holati ko'rilyotganda sinf rahbari kuyunib: "Men shuncha ko'p vaqt sarflab, tadbirlar olib boraman, Ammo, hech natija bermaydi", - deydi. Bu sinf rahbarining asosiy xatosi sinfning xususiyati, o'quvchilar qiziqishi, ehtiyojini, shu yoshda ular uchun nima muhim, nima ko'proq ularni qiziqtiradi kabi savollarga javob topmay ko'proq tadbir o'tkazsam, ular tarbiyalanadi, deb o'z vaqti va o'quvchilar umrini bekorga ketkazayotganligini bilmasligida edi. Insonlar o'rtasidagi munosabatlarning nozik tomonlarini bilmaslik, ruhiy va qiyoslab, so'z bilan ta'sir qila olish texnologiyasini anglamaslik va uning talab, qonuniyatlariga rioya qilmaslik kishilarning bir-biriga nisbatan salbiy munosabatlarini keltirib chiqaradi.

Munosabat eng avvalo o'zaro ta'sir. Insonlar bir-birlariga xilma-xil yo'llar bilan ta'sir qiladilar. O'zaro ta'sir insonlarning hisiyotlari, his-hayajon, ko'rish, eshitish sezgilari, ehtiros, mehr-oqibat, shafqat, andisha, chidam, sabr, tashqi ko'rinish, chiroyli so'zlash, bilimdonlik, donolik, topqirlik, sevgi-muhabbat, yoki nafrat, qo'pollik, shafqatsizlik, befarqlik, badgumonlik, badnafslilik kabi his-tuyg'ular orqali namoyon bo'ladi.

Tarbiyaviy o'zaro ta'sirda, qaysi vaqtda bu his-tuyg'uning qaysisidan foydalanish, yoki uni namoyon qilish, ya'ni o'quvchining ayni paytdagi hatti-harakatiga qaysisi bilan javob berish ancha murakkab. Bu sinf rahbaridan yuqoridagi sifatlardan birga pedagogik texnikani yaxshi bilishni ham talab qiladi.

Tarbiya jarayonidagi subyekt-obyekt, yoki subyekt-subyekt munosabatlari quyidagicha o'zaro aloqadorlikni amalga oshirishga xizmat qilishi mumkin:

1. Rivojlantiruvchi – bunda o‘zaro aloqadorlik o‘zida predmetli – o‘zaro munosabatni mujassamlashtirib, o‘quvchida shaxsiy sifatlarning kamol topishiga olib keladi.
2. Tarbiyalovchi o‘quvchida tarbiyaning maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qiladi.
3. Tashkilotchilik – o‘quvchining faoliyati va muloqotini maqsadga muvofiq tashkil qilish orqali shaxs va jamoani maqsadga muvofiq shaxsiy sifatlarini shakllantirishdir.

Mazkur rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi, tashkilotchilik funksiyalarini yagona birligini ta‘minlash tarbiyaviy jarayon yaxlitligiga olib kelib, tarbiyaviy munosabatlarning mushtarakligini ta‘minlaydi. Bu esa tarbiyaviy jarayonning ta‘sirchanligini oshirib, sinf rahbari va o‘quvchilar o‘rtasida o‘ziga xos yaqinlikni yuzaga keltiradi. Ta‘kidlanganidek, tarbiyaviy jarayonda sinf rahbari bilan o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir munosabatlar orqali amalga oshadi. Bu munosabatlarning ilmiy-pedagogik bilimlar tizimida quyidagi asosiy tiplari mavjud:

1. *Sinf rahbari bilan o‘quvchi munosabatlari.* Ularning o‘zaro ta‘siri aloqadorligida ifodalanib, u shaxsning barkamolligini ta‘minlash maqsadiga xizmat qiladi.
2. *O‘quvchilarning moddiy olam narsa-hodisalariga munosabati.* Bular tarbiya maqsadiga yo‘naltirilgan bo‘lib, tashqi olam narsa-hodisalar bilan o‘zaro ta‘sirda paydo bo‘ladi va ular sinf rahbari tomonidan o‘quvchilar kamoloti uchun tashkil qilinadi.
3. *O‘quvchilarning o‘z atrofidagilarga munosabati.* Bular tarbiya maqsadlariga bo‘ysundirilgan bo‘lib, yakka kishilar, jamoalar, jamiyatdagi kishilar bilan o‘zaro munosabatda sinf rahbari tomonidan o‘quvchi shaxsining kamoloti uchun tashkil qilinadi.

Ta‘kidlash lozimki, keltirilgan har uchala munosabatlar tarbiya maqsadlariga singdirilgan va aniq maqsadga qaratilgan bo‘lib, sinf rahbarlar orqali rejali amalga oshirilib, pedagogik jarayonni tashkil etadi. Bu esa ularni kishilar o‘rtasidagi munosabatlarning o‘ziga xos sohasiga aylantiradi. Shu bilan birga ularning hosil bo‘lishi, yoki amalga oshishi turlichadir.

Birinchisi, sinf rahbari bilan o‘quvchi o‘zaro ta‘sir aloqadorligida hosil bo‘ladi. Ikkinchisi, o‘quvchi bilan moddiy olam o‘rtasida. Uchinchisi esa o‘quvchi bilan boshqa o‘quvchilar, jamoa, jamiyat a‘zolari o‘rtasidagi aloqadir.

Tarbiyaviy ta‘sir munosabatlarning hosil bo‘lishidagi farqlar tarbiyaviy munosabatlarning o‘ziga xos xillarini keltirib chiqaradiki, ularni tahlil qilishda tipologik me‘yorlardan foydalanmoq kerak. Shuning uchun, ularni ijtimoiy munosabatlarning o‘ziga xos tipi sifatida tushunib, pedagogik jarayonda o‘ziga xos atamalarni qo‘llash lozim. Masalan, sinf rahbarlar bilan o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabat – bu pedagogik munosabat, chunki ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarbiya maqsadlarini amalga oshirishda namoyon bo‘ladi. O‘quvchilar bilan moddiy olam o‘rtasidagi munosabatlar sinf rahbari tomonidan tarbiya vositasiga aylantirilganligi bu predmetli tarbiyaviy munosabat hisoblanadi. Va, nihoyat o‘quvchilarning o‘zaro va jamoa, jamiyat bilan munosabatlari bu o‘zaro tarbiyaviy munosabatlar sirasiga kiradi. O‘z navbatida bularning har biri maxsus tadqiq qilinishi tarbiya nazariyasini boyitadi.

Tarbiyaviy jarayonning umumiy qonuniyatlari bilan xususiy, ya‘ni nuqul tarbiya tizimining o‘zida amal qiluvchi ijtimoiy va shaxsiy o‘zaro aloqadorlikni ta‘minlovchi subyekt va obyekt munosabatlarini ham muhimligini ta‘kidlash joizdir. Tarbiya obyekt sifatida yakka shaxs, oila, jamoa, sinf, qolaversa, butun jamiyat a‘zolari namoyon bo‘lishi mumkin. Uning subyekti tarzida yakka shaxs oila, pedagog korxona, muassasa, sinf, jamoa, o‘quv yurtlari, davlat va nodavlat tashkilotlari, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari tarbiyaviy ishlarni olib borish va tashkil qilish bilan shug‘ullanishlari mumkin.

Tarbiya ikkiyoqlama xarakterga ega, ya‘ni u doimo sinf rahbari (subyekt) va o‘quvchi (obyekt) tariqasida amalga oshadi. Tarbiya hamma davr va jamiyatlarda aynan shunday amal qiladi. Subyekt va obyekt munosabatlari umumiy, ichki, mohiyatli, zaruriy bog‘lanish hisoblanadi. Tarbiya bor ekan, obyekt va subyekt munosabatlari umumiy, ichki, mohiyatli, zaruriy bog‘lanish hisoblanadi. Tarbiya bor ekan, obyekt va subyekt munosabatlari ham uning ajralmas yo‘ldoshi sifatida amal qiladi. Uning aksincha amal qilishi ham mumkin emas. Demak, tarbiyaviy jarayonda obyekt va subyektning o‘zaro dialektik munosabati qonuniyat hisoblanadi. Garchi, bu umumiy qonuniyat bo‘lsada, u har bir davrda o‘ziga xos amal qiladi.

Bunda obyekt va subyekt munosabatlari o'zaro bog'liq bo'lib, ular nisbiy mustaqillikka ega va ular o'zaro o'rin almashinishi mumkin. Buning mohiyati shunadki, inson bir vaqtning o'zida ham tarbiya obyektini va subyektini bo'lishi mumkin. Tarbiya olib boruvchi kishi o'z-o'zini tarbiyalashi lozim, o'z-o'zini tarbiyalash asosida esa yana tarbiya yotadi.

Tarbiya o'z-o'zini tarbiyaga zamin hozirlashi va har bir kishi o'zini inson va kasb egasi sifatida ma'naviy, ruhiy, jismoniy, axloqiy takomillashuvini muntazam davom ettirishi lozim.

Sinf rahbari insoniy munosabatlar tizimida ba'zi hollarda tarbiyalasa, boshqa hollarda tarbiyalanadi. Ota-ona o'z farzandini tarbiyalaydi va o'z navbatida farzandlar ham ota-onani tarbiyalaydilar. Shuningdek, o'qituvchilar ham o'z o'quvchilaridan o'rganadilar va ulardagi ma'lum sifatlarni o'zlariga singdiradilar. Hayotda bunga ko'plab misollar keltirish mumkin.

Tarbiyada obyekt va subyekt munosabatlari jamoada kishilar yashash jarayonida murakkab insoniy munosabatlarda bo'ladilar. Bular oilaviy, ma'naviy-axloqiy, iqtisodiy-siyosiy, ma'rifiy-mafkuraviy, ijtimoiy kabi ko'p qirrali muloqot va munosabatlardir. Bular ta'siri ostida jamiyatda o'ziga xos ijtimoiy munosabatlar tizimi shakllandi. Buning oqibati sifatida jamiyatda shaxslararo munosabatlar tizimi shakllanadi. Mazkur tizim inson hayotining hamma tomoniga ta'sir ko'rsatib, uni o'z oqimiga oladi. Jamiyatda yashash jarayonida kishilar bir-birlariga turli-tuman ta'sir ko'rsatadilar. Kishilar yashash jarayonida o'z hatti-harakatlarini bir-birlariga nisbat berib, solishtiradilar, ibrat, namuna oladilar va taqlid qiladilar. Bu qonuniyat o'quv yurti, o'quvchilar sinfida ham o'ziga xos namoyon bo'ladi.

Shu jarayonda kishilar bir-birlariga ta'sir ko'rsatib, ijobiy, yoki salbiy xislatlarni o'zlashtiradilar. Ijtimoiy munosabatlar ta'siri ostida kishilarda ma'lum sifatlari shakllanadi, ya'ni insonlar yashash jarayonida o'zaro ta'sir etib, bir-birlariga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, subyekt va obyekt munosabatida bo'ladilar.

Sinf rahbari va o'quvchilarning o'zaro ta'siri, ular o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlar tarbiyaviy jarayonning samarasini, ta'sirchanligini belgilaydi.

Tarbiya jarayonidagi subyekt-obyekt munosabatlari dialektikasida tarbiyaviy ta'sir tarbiya subyektining ma'lum obro'yi, pedagogik mahorati, qolaversa, ijtimoiy mavqei bilan belgilanadi. Sinf rahbarining bu xususiyatlari tarbiya obyektiga ijobiy ta'sirini kuchaytiradi. Darslarda va darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning ta'lim sohasidagi fikrlari, yurtimiz kelajagi bo'lgan yoshlariga, farzandlarimizga qarata aytgan murojaatlaridan o'z o'rnida foydalanish ijobiy natijalarga yo'l ochadi. Dars va darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar o'qituvchi va o'quvchining ijobiy hamkorligiga asoslanishi lozim. Shundagina o'quvchilar mustaqil erkin fikrlay oladilar, irodalari tarbiyalanadi.

O'quvchilar o'rtasida tarbiyaviy ish olib boruvchi sinf rahbarining ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, kasbiy mahorati va pedagogik yetukligi unga obro' keltirib, tarbiyaviy ishning samarasini kuchaytiradi. Shuning uchun ham sinf rahbarining g'oyaviy-siyosiy yetukligi, uning mustaqillik mafkurasini, davlat siyosatini tushunishi, o'quvchilar tarbiyasini to'g'ri tashkil qilishi bo'lajak mutaxassislarning shaxsiy va kasbiy kamolotini kuchaytiradi.

O'qituvchi – sinf rahbarining haqiqiy obro'yi uning yuksak insoniy sifatlari va kasbini egallagan darajasi bilan belgilanadi.

Sinf rahbarining obyektga tarbiyaviy ta'siri samarasi uning pedagogik mahorati, e'tiqodi, shaxsiy namunasi, yoqimliliigi va pedagogik odobiga ham bog'liqdir. Shu bilan birga uning pedagogik texnika – nutq, qo'l, yuz, gavda harakatlari ham muhim hisoblanadi. So'z ilhomlantiradi, yoki qalbni yaralaydi, kishilarni bir-biriga dushman, yoki do'st qilib qo'yishi, yoki kishini majruh qilishi mumkin.

Tarbiyadagi obyekt-subyekt munosabatlari bir yoqlama, ya'ni faqat subyektning faolligiga bog'liq bo'lmay, balki o'quvchining ham faolligini talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida inson faoliyati obyekt-subyekt munosabatida amalga oshadi. Ta'lim-tarbiyada obyekt-subyekt munosabatlari o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Sinf rahbarining shaxsiy sifatlari va pedagogik mahorati hamda o'quvchining

psixo-fiziologik xususiyatlarini hisobga olishda subyektning obyektga ta'siri kuchayadi va tarbiyaviy munosabat amalga oshadi.

Shundan kelib chiqib, o'quvchining faolligi, uning o'z-o'zini tarbiyalashi o'z xatti-harakatini nazorat qilish va sinf rahbari ishonishiga ham bog'liq.

Mazkur maqolaning nazariy bayonini tugatib, unda sinf rahbarining o'quvchilarning mutaxassis va shaxs sifatida shakllanishida sinf va uning sinf rahbari yetakchiligini hamda bu boradagi mas'uliyat sinf rahbariga bog'liqligini ta'kidlaymiz. Chunki belgilangan hamma tadbirlar aynan sinflarda amalga oshadi. Bunda sinf rahbarining matnda bayon qilingan kasbiy-shaxsiy sifatleri bilan birga uning sinfdagi ishi markazlashgan holda uning ish rejasida o'zining moddiy ifodasini topadi. Shuning uchun, uning ish rejasi haqida muxtasar so'z yuritmoqchi edik.

Sinf rahbari tarbiyaviy ish rejasi tuzar ekan, sinf jamoasi va ayrim-ba'zi o'quvchilarni kamolotini ta'minlash loyihasini belgilaydi hamda bu jarayonni ma'lum maqsadga yo'naltirib uni boshqarish imkoniyatini yaratadi. Rejada sinf rahbari tarbiya vazifalarini belgilab qolmasdan, balki shu bilan birga, o'quvchilar tarbiyalanganligini oshirishning yo'nalishlari, shakl, metodlarini ham belgilaydi.

Rejasiz ish olib borganda esa, sinfdagi tarbiyaviy ishlar mazmuni, shakl va metodlari tanqidiy omillarga bog'liq bo'lib, stixiyali xarakter kasb etadi. Bunda tarbiyaning asosiy vazifalarini hal qilish qiyinlashadi, ba'zan esa butunlay mumkin bo'lmay qoladi. Jiddiy o'ylab tuzilgan reja tarbiya shakl va metodlarini yagona maqsad o'quvchi shaxsini barkamolligiga xizmat qiladi. Shu bilan birga to'g'ri tuzilgan reja sinf rahbari tarbiyaviy faoliyatini to'g'ri, maqsadga muvofiq tashkil etish imkoniyatini kengaytiradi. Ilmiy-amaliy asoslab tuzilgan reja tarbiya prinsiplariga, ayniqsa, g'oyaviylik va maqsadga qaratilganlik prinsipini to'la amalga oshirishga zamin hozirlaydi. Chunki reja tarbiya o'lchovi, mezoni, yoki mayoq, yo'l ko'rsatuvchi kompas vazifasini o'taydi.

Sinf rahbari tarbiyaviy ish rejasi – bu majburiy pedagogik hujjat sifatida maktab ma'muriyati va jamoat tashkilotlari oldidagi shaxsiy-tarbiyaviy javobgarligining yorqin namunasi hamdir.

Sinf rahbarining tarbiyaviy ish rejasi haqiqiy ilmiy-amaliy hujjat bo'lmog'i va sinfda olib boriladigan tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishga xizmat qilish uchun qator pedagogik talablarga javob berishi lozim. Chunonchi, birinchidan reja g'oyaviylik va maqsadga qaratilganlikka xizmat qilib, o'quvchilarni milliy istiqloq g'oyasi ruhida tarbiyalashga yo'nalgan bo'lishi, unda tarbiyaning umumiy maqsad va vazifalari, shakl va metodlari o'z aksini topsagina u amaliy qo'llanma bo'lib, sinf rahbari tarbiyaviy faoliyatini samarasini ifodalay oladi. Mazkur tarbiyaviy reja maktab tarbiyaviy rejasi bilan aloqadorlikda, birga tarbiyaviy vazifalarni umumiy maqsad – sinf o'quvchilarini har tomonlama kamol topishiga yordam beradi.

Ikkinchidan, maktab o'quvchilarini kelajak kasbiy faoliyatiga, oilaviy hayotga tayyorlash maktabi hisoblanadi. Shuning uchun, tarbiyaviy tadbirlar kasbga yo'nalganligi bilan ajralib turishi lozim. Tashkil etiladigan tarbiyaviy tadbirlarning shakl va metodlari xilma-xil bo'lib, o'quvchilarning tanlagan kasblariga mehr uyg'otishi, uni egallashga ixlos, tirishqoqligini tarbiyalashi kerak. Shu bilan birga rejadagi tadbirlarni tashkil qilish va amalga oshirishga faqat ayrim yaxshi o'qiydigan o'quvchilar emas, balki jamoani aksariyat ko'pchiligini jalb qilish zarur.

Uchinchidan, sinf o'quvchilar tarbiyasi uzluksizligi va izchilligi bilan tarbiyaviy tadbirlarni yaxlit, yagona tarbiyaviy jarayon sifatida, uzviylik va ketma-ketlikda amalga oshirish asosida tuzilmog'i lozim. Har bir tadbir oldingi tarbiyaviy tadbirning davomi bo'lishi va erishilgan tarbiya natijalariga asoslanishi kerak. Chunki erishilgan natijalarga tayanilmasa, o'tkazilayotgan ishlar natijalarini mustahkamlab bo'lmaydi. Sinf tarbiyaviy ish rejasi mavsumiy, ya'ni yil fasllari hamda makon, mamlakat, viloyat, shahar, tumandagi ijtimoiy-siyosiy tadbirlar, bayramlar, an'analar, kasb-mehnat an'alarini ifodalashi muhimdir. Shunda reja o'quvchilarni sinf doirasida o'ralib qolmasdan makon hamjamiyati, mamlakat, yashash joyidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik, demokratik o'zgarishlar mohiyatini anglash va ishtirokchisiga aylanishiga yordam beradi [4].

To'rtinchidan, reja real bo'lib, maktab va sinf kadrlar salohiyati, o'quvchilar tarbiyalanganligi va tashkilotchilik imkoniyatlariga asoslanishi lozim. Rejada haddan tashqari

128 ko'p tadbirlar qalashib qolmasdan, aniq bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar qo'yilishi kerak. Reja maroqli va o'quvchilarni qiziqitira olishi uchun unda tarbiyaviy ishlarning yakka, sinfli, jamoaviy shakllari o'z ifodasini topishi o'rinli bo'ladi.

Sinf rahbari maktabda o'quvchilar uchun eng yaqin maslahatchi, yoki ularning ota-onalari o'rnini bosuvchi shaxs, ularning kelajagi, kasbini egallashi, shaxsining shakllanishida muhim inson hisoblanadi. Shuning uchun, sinf rahbari ular holidan xabardor bo'lishi, ularning murakkab insoniy munosabat tizimida o'z o'rinlarini topishga ko'maklashish tizimida o'z o'rinlarini topishga ko'maklashishi shart. O'quvchilarning hayotiy muammolari, taqdirlarini belgilashda ongli bilim va mahorat bilan yondashishlari talab qilinadi.

Rus pedagogi V.A.Suxomlinskiy: "Aniq hayotiy tajribalarni muhokama qilish bizni pedagogik aloqalarning uyg'unligi muammosiga olib keldi. Mening nazarimda, tarbiyaning bu tub asosiy qonuniyatlaridan biridir... Tarbiyaning samaradorligi pirovard natijada bu bog'liqlik va shartlar hisobga olinishi, aniqrog'i, amalda ro'yobga chiqarilishi bilan belgilanadi"- degan edi [3].

Xulosa qilib aytganda.

1. Tarbiya-jarayonda kishilar bir-birlariga ta'sir ko'rsatib, ijobiy, yoki salbiy xislatlarni o'zlashtiradilar. Ijtimoiy munosabatlar ta'siri ostida kishilarda ma'lum sifatlar shakllanadi, ya'ni insonlar yashash jarayonida o'zaro ta'sirda bo'lib, bir-birlariga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, subyekt va obyekt munosabatida bo'ladilar. Sinf rahbari va o'quvchilarning o'zaro ta'siri, ular o'rtasida yuzaga keladigan munosabat tarbiyaviy jarayonning samarasini, ta'sirchanligini belgilaydi. Tarbiya jarayonidagi subyekt-obyekt munosabatlari dialektikasida tarbiyaviy ta'sir tarbiya subyektining ma'lum obro'yi, pedagogik mahorati, qolaversa, ijtimoiy mavqei bilan belgilanadi. Sinf rahbarining bu xususiyatlari tarbiya obyektiga ijobiy ta'sirini kuchaytiradi.

2. O'quvchilar o'rtasida tarbiyaviy ish olib boruvchi sinf rahbarining ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, kasbiy mahorati va pedagogik yetukligi unga obro' keltirib, tarbiyaviy ishining samarasini kuchaytiradi. Shuning uchun, sinf rahbarining g'oyaviy-siyosiy yetukligi, mustaqillik mafkurasini, davlat siyosatini tushunishi o'quvchilar tarbiyasini to'g'ri tashkil qilishi bo'lajak mutaxassislarning shaxsiy va kasbiy kamolotini kuchaytiradi. O'qituvchi – sinf rahbarining haqiqiy obro'yi uning yuksak insoniy sifatleri va kasbining egallagan darajasi bilan belgilanadi.

3. Tarbiyadagi obyekt-subyekt munosabatlari bir yoqlama, ya'ni faqat subyektning faolligiga bog'liq bo'lmay, balki o'quvchidan kelib chiqib, tarbiyalanuvchining faolligi uning o'z-o'zini tarbiyalash o'z xatti-harakatini nazorat qilish, o'z faoliyatini ma'lum maqsadga yo'naltirish va sinf rahbariga ishonishga ham bog'liq. O'quvchining (obyektning) o'qishda, ijtimoiy ishlarda faolligi tarbiyaviy jarayonning samaradorligini oshiruvchi omil hisoblanadi. O'quvchi va sinf rahbarining faolligi va o'zaro ishonchi, ularning o'rtasida hurmat hamda hamfikrlilikni mustahkamlaydi.

4. Tarbiya jarayoniga xos bo'lgan xususiy qonuniyatlardan yana biri – uning maqsad va vositalarning bir-biriga mos kelishidir. Maqsad va vositalarning dialektik birligi tarbiyaning tuzilishi va o'zaro funksional bog'liqligini ifodalaydi. Tarbiyaning uzoqni ko'zlagan istiqboli strategik va unga bog'liq yaqinni ko'zlagan yaqin maqsadlari taktik bo'lishi mumkin. Har bir jamiyat ijtimoiy ideallari bo'lib, u kishilarning hayot tarzida o'z aksini topadi. Jamiyat a'zolari shular asosida o'zlarini qisqa muddatli rejalarini va unga muvofiq harakat, xulq-atvorini belgilab oladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchisining uzoq maqsadi o'qishni bitirish, mutaxassis sifatida hayot yo'lini belgilash, kelajakda yetuk kasb sohibi va obro'li odam bo'lishidir. Yaqin maqsadlari – o'quv yili, birinchi, ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi choraklar hamda yakuniy imtihonlarini va o'quv yilini muvaffaqiyatli tugatishdan iboratdir. Shu asosda o'quvchi o'z jismoniy, axloqiy, ruhiy, aqliy tarbiyasi yo'nalishini belgilab, o'z faoliyatini unga bo'ysundiradi. Inson maqsadi uning harakatining xarakteri, uning usul va vositalarini belgilaydi.

5. Sinf rahbari tomonidan o'quvchiga ta'sir qilish maqsadiga mos keluvchi usul va vositalarni to'g'ri tanlashi o'quvchining shaxs va kasb sohibi sifatida barkamol shakllanishini ta'minlaydi. Tarbiya vositasi sifatida so'z ommaviy axborot vositalari, kinofilmlar, baddiy adabiyot, musobaqa, tanqid va o'z-o'zini tanqid, o'quvchiga uning shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqib oqilona talab, uning faoliyatiga xolisona baho berish, bo'lishi mumkin. Tarbiya jarayonida maqsad

va vositalarning bir-biriga adekvatligi uning muvaffaqiyatini belgilashini har bir sinf rahbari bilishi zarur.

6. Mustaqillik sharoitida komil – erkin, ozod, mustaqil shaxsni shakllantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi tarbiyaviy jarayonni yangicha tashkil qilishni taqozo qiladi. Shu asosda shaxsning kelajak istiqbolini belgilashi, milliy istiqbol mafkurasi talabi asosida unda yuksak shaxsiy sifatlar va mohir kasb sohibini xususiyatlarini shakllanishini ta'minlash kerak. Yangi tarixiy davr unga mos keluvchi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-demokratik sharoit tarbiyaviy jarayonni maqsadga muvofiq rejali tashkil qilish va boshqarishni taqozo qiladi. Jumladan, maktabda o'quvchilar tarbiyasini rejali tashkil qilish va boshqarish ham tarbiyaviy jarayonning qonuniyati hisoblanadi. O'quvchilar tarbiyaviy jarayonini tashkil qilish nihoyatda murakkab. Ammo, tartibsiz, xaotik jarayon emas. Uni ilmiy-amaliy, rejali boshqarish mumkin. Bu ko'p jihatdan mazkur jarayonni ilmiy asoslarini bilish hamda amaliy faoliyat natijalarini o'rganish, umumlashtirish bilan bog'liqdir. Bu qonuniyat obyektiv va subyektiv omillarining o'zaro birgalikda amal qilishi, inson omilining jamiyat taraqqiyotida o'rni bilan belgilanadi. Bu esa jamiyat hayotida tarbiya va sinf rahbarining rolini oshishida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I. A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: «Sharq» nashriyot – matbaa konserni. – 1997. 3-19 b.
2. Barkamol avlod orzusi. Tuzuvchilar: Sh.Qurbonov, H.Saidov, R.Ahlidinov. – Toshkent: Sharq, – 2000. – 248 b. 17 – bet.
3. Сухомлинский В.А. Воспитание и самовоспитание. /Избрание произведения в пяти томах. – Т. 5. – Киев: – 1980. – 241-252 стр.
4. Zaripov K.Z., Olimov Sh.SH. O'quvchilarda axloqiy-estetik idealni shakllantirish. // – Toshkent: «Xalq ta'limi», – 2001, – 5-son.

Ҳазратов Ўткир Ҳайдарович
Бухоро давлат тиббиёт институти
ички касалликлар пропедевтикаси
кафедраси доценти

Нарзиев Шамсидин Сайпиллоевич
Бухоро давлат тиббиёт институти
ички касалликлар пропедевтикаси
кафедраси доценти

АМАЛИЙ МАШҒУЛОТЛАРНИ ЎТИШДА ИНТЕРФАОЛ УСУЛЛАРНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШ

Мақолада Бухоро давлат тиббиёт институти 3-курс талабаларига “Ички касалликлар пропедевтикаси” фанидан ўтказилган амалий дарс жараёнида “Кластер” ва “Уч погонали интервью” интерфаол усулини қўлланилиши самарадорлиги натижалари келтирилди.

Таянч сўзлар: интерфаол, Кластер, Уч погонали интервью, ички касалликлар пропедевтикаси, амалий машғулоти.

ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ВО ВРЕМЯ ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЙ

В статье приведены результаты сравнительной эффективности интерактивных методов обучения “Кластер” и “Трехступенчатой интервью” по предмету пропедевтики внутренних болезней студентам 3- курса Бухарского Государственного медицинского института.

Ключевые слова: интерактивный, Кластер, Трехступенчатый интервью, пропедевтика внутренних болезней, практическая занятия

ASSESSING THE EFFECTIVENESS OF USING INTERACTIVE METHODS DURING PRACTICAL CLASSES

The article presents the results of the comparative effectiveness of the interactive teaching methods "Cluster" and "Three-stage interview" on the subject of propaedeutics of internal diseases for 3-year students of the Bukhara State Medical Institute.

Key words: interactive, Cluster, Three-stage interview, propaedeutics of internal diseases, practical exercises.

Олий ўқув юртлирида таълим-тарбия жараёнининг самарадорлигини оширишда илм-фаннинг сўнгги ютуқларини амалиётга жорий этиш орқали ижодкор, ижтимоий фаол, юксак маънавиятли, касб-хунарли, она-ватанга садоқат, миллий ва умум инсоний қадриятлар руҳида тарбияланган, ижодий ва мустақил фикр юрита оладиган, давлат ва жамият олдида ўз бурчи ва жавобгарлигини ҳис этадиган баркамол шахс ва юқори малакали мутахассисни камолга етказиш, уларнинг онги ва қалбига миллий истиқлол ғоясини сингдириш каби муҳим вазифаларни амалга ошириш назарда тутилади. Ушбу вазифаларнинг муваффақиятли ҳал этилиши таълим-тарбия жараёнида замонавий педагогик технологиялар, инновациялар, янги-янги педагогик –психологик тушунчалар, интерфаол усуллари таълим берувчи томонидан ўзлаштирилиб ва қўлланилиб борилиши, таълим мазмунини тубдан ўзгатириб юборади. Замонавий ўқитувчи дарс жараёнида “актёр” эмас, аксинча “режиссиёр” бўлиши кераклигини англаши лозим. У ўз ўқувчи-талабаларининг фанга ижодкорлик нуктаи назари билан қарашларини ташкил қилиши, уларда изланувчанлик ҳиссиётларини шакллантириши ва албатта, янги педагогик технология усулларидан фойдаланган ҳолда дарсни ташкил этиши керак бўлади (1). Интерфаол усуллар орқича руҳий ва жисмоний куч сарфламайди, қисқа вақт ичида юксак натижаларга эришиш мақсадини назарда тутди. Дарс мобайнида маълум назарий билимларни талабаларга етказиш унда айрим фаолият юзасидан кўникма ва малака ҳосил

қилиш, маънавий сифатларни шакллантириш, талаба билимини назорат қилиш ҳамда баҳолаш ўқитувчидан юксак маҳорат ва тезкорлик талаб қилади [5,10].

Охирги йилларда мамлакатимизда олиб борилаётган ислохотлар соғлиқни сақлаш тизими, тиббий таълим ва кадрлар малакасини ошириш тизимида ҳам ўз аксини кўрсатмоқда, бу 2019 - 2025 йилларга мўлжалланган концепция қабул қилиниши, тиббий-санитария ва фармацевтика кадрларининг узлуксиз малакасини ошириш тизимини ташкил этиш бўйича қатор меъёрий ҳужжатлар қабул қилинишида ўз ифодасини топди. Ўзбекистан Республикаси Президентининг 2019 йил 6 майдаги “Тиббиёт ва фармацевтика таълими ва илм-фани тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 4310-сонли, 2020 йил 7 апрелдаги “Тиббий-санитария соҳасида кадрларни тайёрлаш ва узлуксиз касбий ривожлантиришнинг мутлақо янги тизимини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 4666-сонли қарорлари, Соғлиқни Сақлаш вазирлигининг 2020 йил 15 июндаги 160 – сонли “Тиббий-санитария ва фармацевтика кадрларининг узлуксиз малакасини ошириш тизимини ташкил этиш бўйича қатор меъёрий ҳужжатларни янада такомиллаштириш тўғрисида» ги буйруғи шулар жумласидандир.

Мазкур ҳужжатлар тиббий-санитария ходимларини касбий ривожлантириш тизимини яхшилаш, соҳада етук ва чуқур билимга эга кадрларни замонавий таълим стандартлари асосида тайёрлаш, тиббиёт ташкилотлари, бирламчи тиббий-санитария ёрдами муассасаларини профессионал кадрлар билан таъминлаш ҳамда тиббиёт таълим муассасалари профессор-ўқитувчилари мавқеини оширишга қаратилгани билан аҳамиятли бўлди [9,11].

Бу жараёнда замонавий интерфаол усулларни қўллаш ҳозирги кунда долзарб бўлиб келмоқда. “Интерфаол” тушунчаси инглизча «Interact» («Inter»- “биргаликда” «act» “таъсир қилиш” маъносини англатади. “Интерфаол усуллар” талабаларнинг ўзаро таъсири тушунилади. “Интерфаол ўқитиш усули” талабаларнинг ҳамкорликда фаолият кўрсатиш шаклини кўрсатади. Интерфаол усулнинг моҳияти ҳамма талабалар ва ўқитувчининг ўзаро таъсиридан иборат [2]. Илмий-техника тараққиётидан ортда қолмайдиган малакали рақобатбардош мутахассисларни тайёрлашни олий ва махсус ўқув юртлари профессор ўқитувчилари олдида турган долзарб масалалардан биридир. Шунингдек, замонавий олий таълимда иқтидорли касб эгаларини етиштириб бериш учун ўқитишнинг услубларини қайта шакллантириш талаб қилинади [1]. Гуруҳларда ўқув жараёнини уйғунлаштирувчи усуллар (вазиятли масалалар, клиник иш ўйинлари, танловлар, кластер, балиқ скелети, қандай, Венн диаграммаси ва бошқалар) қўлланилади. Мазкур усулларни қўллаш шифокор амалиётида кўп учрайдиган касалликларнинг патогенези, клиникаси ва даволаш асосларини талабалар томонидан чуқур ўрганишга имкон яратади [3,4,8]. Бу усулдан фойдаланишдан мақсад талабаларни клиник фикрлашга ва ўз билимларини аниқ вазиятларда қўллай билишга ўргатишдан иборат бўлади.

Ҳозирги даврда талабалар ўзлаштириши лозим бўлган илмий ахборот оқими тўхтовсиз ўсиб бормоқда. Шу муносабат билан ўқув жараёнини ташкил қилишни такомиллаштиришнинг шундай йўллари излаб топиш талаб қилинадики, бунда талаба ва тингловчи ўз қобилият ҳамда имкониятларини максимал даражада ривожлантиришга интилсин, билимларини мустаҳкам эгаллаш учун бор кучини ишга солиши лозим бўлади. Бугунги кунда илм-фан, техника ва ахборот коммуникацион технологиялар, ишлаб чиқариш соҳаларининг тез суръатларда жадаллик билан ривожланиши таълим тизими ходимларидан таълим-тарбия сифатини мазмун жиҳатидан янги босқичга кўтариш, бунда инновацион технологиялардан самарали фойдаланишни талаб қилади, ҳар бир тизим ходими, айниқса тиббий ходимлар, педагоглар зиммасига янада юксак масъулият ва вазифаларни юклайди [9].

Умумий амалиёт шифокорини тайёрлаш жараёнида бўлажак мутахассислар томонидан ҳал қилинадиган муаммоларнинг серкирралиги таълим усуллари (клиник аудит, кўникмаларни бажариш, далилларга асосланган тиббиёт ва бошқалар) билан боғлиқ бўлади. Бу усулларни пухта ўрганиш ёрдамида талабадан шифокорлик учун муҳим бўлган юксак клиник фикрлаш қобилиятини етарли даражада эгаллаб олиши талаб этилади. Улар талабаларни машғулотга олдиндан жиддий тайёргарлигини, адабиётлар,

132 тиббий ҳужжатлар билан ишлашни, олдинги маълумотларни танқидий баҳолаш қобилятини ва аудитория олдида ўз фикрини ҳимоя қила олишини назарда тутди [7,11].

“Кластер” (тутам, боғлам) усули - бу услуб олдиндан мавжуд билимлар, мавзу бўйича тушунчалар заҳирасига асосланади. Ўқитувчи асосий (таянч) сўзни доскага ёзади, талабалар асосий сўзни тўлдирувчи ёки ушбу сўз ечимига боғлиқ сўзларни айтишади. Ўқитувчи талабалар томонидан айtilган сўзларни “Кластер” атрофига тўплаб, мантикий занжир ҳосил қилади. Ушбу ҳолда бронхиал астма касаллигига сабабчи бўлган эндоген ва экзоген омиллар таянч сўз сифатида ўқитувчи томонидан доскага ёзилиб, унинг атрофида талабалар томонидан билдирилган фикрлар занжир тартибда белгилаб борилади.

Бухоро давлат тиббиёт институтининг “Ички касалликлар пропедевтикаси” кафедрасида иккинчи курсда ўқитиладиган “ички касалликлар пропедевтикаси” фанидан талабаларга ўтказилган амалий машғулотларда интерфаол усулнинг самарадорлиги кўрсаткичлар бўйича таҳлил қилинди. Қўйилган мақсадни амалга ошириш учун рейтинг кўрсаткичлари бўйича деярли тенг ва ўтиладиган мавзулар айнан ўхшаш иккита репрезентатив гуруҳларда интерфаол усулларда ўтилган машғулотлар самарадорлик кўрсаткичлари баҳоланди. Нафас аъзоларининг хасталиклари оид 4 та амалий машғулоти натижалари қиёсланди. Ҳамма талабалар билим даражаси бўйича, рейтинг кўрсаткичлари бўйича гуруҳ фан ўқитувчиси ва кафедранинг мазкур бўлим бўйича етакчи мутахассислари томонидан баҳолаб борилди. Талабалар иккита гуруҳга ажратилди: биринчи гуруҳда 4 та мавзуда (21 талаба) “Кластер” усули, иккинчи гуруҳда (22 талаба) – “Уч поғонали интервью” интерфаол усули технологияси қўлланди.

Ўқитувчи дарсни ўтишдан олдин талабаларга асосий муҳокама принципларини айтади, максимал сонда ғоялар, сифатига эътибор қилинмаган ҳолда, қисқача муаммонинг ечими, бунда критик ва таҳлил қилинмасдан ақлга келган ҳамма ғоялар мужмал бўлса ҳам айтилади, бировларнинг ғоясини ривожлантириш мумкин, фақат танқид қилинмайди. Бунда ўқитувчида аввалдан тайёрлаб қўйилган дарсга оид саволлар тўплами лаборатор машғулоти бажариш жараёнида қўлланиши мумкин.

Ўқув жараёнини оптималлаштиришда янги педагогик технологияларни ва интерфаол усулларни қўллаш талабанинг клиник билимини баҳолашни такомиллаштиришга олиб келади [1,2,3]. Тиббиёт ўқув юртларида амалий кўникмаларни ўргатиш ва унинг бажарилишини баҳолаш алоҳида ёндошувни талаб қилади [8]. Замонавий педагогик технологияларни, ўқитишнинг янги турлари ва такомиллашган усулларини тадбиқ қилмасдан, тиббий таълимни ҳар томонлама ривожлантириб бўлмайди [4,5, 7]. Таклиф қилинган “Кластер” ва “уч поғонали интервью” усули талабаларнинг клиник билимини эгаллаши ҳамда уни такомиллаштириши учун муҳим саналади [9,10].

Ишнинг мақсади. Талабаларга ўтказилган амалий машғулотларда “Кластер” ва “Уч поғонали интервью” интерфаол усулининг самарадорлигини ўрганиш.

Материал ва усуллар. Бухоро давлат тиббиёт институтининг “Ички касалликлар пропедевтикаси” кафедрасида 3-курсда ўқитиладиган фанлардан талабаларга ўтказилган амалий машғулотларда интерфаол усулнинг самарадорлиги кўрсаткичлар бўйича таҳлил қилинди. Қўйилган мақсадни амалга ошириш учун рейтинг кўрсаткичлари бўйича деярли тенг ва ўтиладиган мавзулар айнан ўхшаш иккита репрезентатив гуруҳларда интерфаол ва анъанавий усулларда ўтилган машғулотлар самарадорлик кўрсаткичлари баҳоланди.

Нафас аъзоларининг хасталиклари оид 4 та амалий машғулоти натижалари қиёсланди. Ҳамма талабалар иккита гуруҳга ажратилди: биринчи гуруҳда 4 та мавзуда (21 талаба) “Кластер” усули, иккинчи гуруҳда (22 талаба) – “Уч поғонали интервью” интерфаол усули технологияси қўлланди. “Кластер” усулида муаммолар талабалар диққатига ҳавола қилинади, тезда биргаликда таҳлил қилишиб 1-1,5 дақиқада жавоб қайтаришади. Масалан, бронхиал астма (БА) касаллигида сабабчи омиллар, аъзоларнинг зарарланиши, йўлдош касалликларга оид маълумотлар ўрганилди. “Уч поғонали интервью” усулида ҳар гуруҳда уч кишидан иборат талабалар кичик гуруҳларга ажратилиб, бунда биринчи “шифокор”, иккинчи “бемор”, учинчи кичик гуруҳдагилар

“эксперт-шифокор” ролини бажарди, ролни ижро қилиш учун 10-15 дақиқа вақт ажратилди. Бунда “эксперт”лар гуруҳи “бемор” ва “шифокор”нинг ҳаракатларига баҳо беради, бунда “нима тўғри бажарилди”, “нима хатолик бўлди?”, “қандай бажариш лозим?” таҳлил қилади, сўнгра ўқитувчи томонидан муҳокама қилинади. “Кластер” усули фаннинг умумий қисми мавзуларини, “Уч поғонали интервью” усули махсус бўлимларини ўргатишда қўлланилди. Талабаларнинг билим даражаси ва унинг мустақамлиги савол-жавобларда, ёзма ишлар, тест натижалари, оралиқ ва якуний баҳолаш натижалари бўйича ўрганилди. “Кластер” усулида (α_1 , α_2 ва α_3) вариантдаги саволлар берилди.



1-расм. Бронхиал астма касаллигининг сабабчи омилларини аниқлаш.

Натижалар ва таҳлиллар. Текшириш натижаларининг кўрсатишича “Кластер” ва “Уч поғонали интервью” усули талабаларнинг билим даражаси шаклланишига ҳар хил таъсир қилди. Бу ҳақида академик гуруҳларда олинган назорат иши натижалари таҳлили далолат берди. Олинган далиллар асосида кўринадикки, “Кластер” усули талабаларнинг оғзаки ва тезкор фикрлашини ривожлантириши эгалланган билим назорати таҳлилида намоён бўлди. “Кластер” интерфаол усулида дарс ўтилган 14 ҳолатда (66,7%) клиник билим эгаллашда оғзаки нутқ, 6 ҳолатда (28,6%) эса клиник мушоҳада кўникмалари шаклланди, бундан англаш мумкинки, “Кластер” усули талабалар фикрлашини тезлаштиради, тез хулосалашига ёрдам беради, бунда мавзуга оид, яъни БА беморларни хавф омиллари (расм), касаллик туфайли аъзоларнинг зарарланиши, йўлдош касалликларга оид материалларни ўрганишга талабаларнинг киришиш учун айниқса фойдали, усул машғулотнинг фақат назарий қисми учун муҳим бўлиб, амалиёт кўникмаларини эгаллаш учун етарли даражада аҳамиятга эга бўлмайди.

Дарс жараёнида ўзлаштириш натижалари бўйича II гуруҳдаги талабаларда 1-гуруҳдаги талабаларга нисбатан сезиларли ижобий ўзгаришлар кузатилди. “Бемор” ролини ижро қиладиган талабалар касалликнинг белгиларини имкон қадар чуқур ўрганишга, бемор ҳақидаги субъектив маълумотларни ўзлаштириши 75% га етганлиги аниқланди, бу ролни ижро қилмаган талабалардан ишонарли даражада фарқ кузатилди ($p < 0,005$), “шифокор” ролини бажарувчи талабаларда эса субъектив маълумотлар билан бир қаторда объектив маълумотлар – пальпация, перкуссия, аускультация кўникмаларини пухта ўргандилар ва амалий кўникмани бажариш 78% га етди, физикавий текшириш усули бўйича орадаги фарқ, ушбу кўникмани анъанавий усулда қўллаганларга нисбатан сезиларли даражада бўлди ($p < 0,005$). “Шифокор” ролини ижро қилган талабаларнинг амалий кўникмани бажариш жараёнида ўзаро фаоллашуви яққол сезилди. Шунингдек, лаборатор-инструментал текширишларнинг натижаларини ўзлаштириши талабаларда 27% га етганлиги, беморнинг олдида ўзини тутишни ўрганишига ёрдам берди. “Эксперт” ролини ижро қилувчи талабалар ижобий ютуқлар билан биргаликда йўл қўйилган хато-камчиликларни ўз вақтида пайқаб, буни олдини олиш ёки бартараф қилишнинг тезкор чораларини нисбатан пухта ўргандилар. Усулнинг камчилик томони

134 шундаки, ҳамма иштирокчилар дарс жараёнига фаол қатнаша олмади. Бундан келиб чиқадики, “Уч поғонали интервью” усули талабаларни эркин фикр юритишига имкон бериб, клиник тафаккурини ва амалий кўникмаларини ўзлаштириш кўрсаткичини оширади.

I гуруҳдаги талабаларда клиник ҳолатларнинг сабабчи омиллари, белгиларини ўтганида тезкорлик 21% га ишонарли даражада ортди ($p<0,05$), дарс давомида ўзларини нисбатан эркин ҳис қилишди, ютуқ ва камчиликларни ўзаро таҳлил қилишни, мустақил фикрлашни ўргандилар, амалий билимларни ўзлаштириш кўрсаткичи II гуруҳдаги талабалардан сезиларли ортда қолганлиги аниқланди ($p<0,005$). Юқоридаги олинган натижалар таҳлили далолат берадики, “Кластер” усули талабаларни назарий билимини мустаҳкамлашга, тезкорликка ўргатади, “Уч поғонали интервью” усули эса клиник мушоҳада қилишга ва амалий кўникмаларни эгаллашига ёрдам беради.

Бундан келиб чиқадики, “Кластер” усули амалий машғулотларнинг назарий қисмини, “Уч поғонали интервью” усули эса амалий қисмини ўтиш учун қулай.

Хулоса. 1. “Кластер” ва “Уч поғонали интервью” усули талабаларнинг билимини шаклланишига турлича таъсир кўрсатади.

2. Амалий машғулотларда интерфаол усулни ҳар бир мавзу учун аниқ белгилаб, шунга мос ёндошиш лозим.

3. “Кластер” усули машғулотларнинг назарий қисмига мос келади, талабанинг тезкор фикрлашга ўргатади. “Уч поғонали интервью” усули мавзунинг махсус қисмига мос келиб, амалий кўникмани пухта эгаллашига ёрдам беради.

Адабиётлар

1. Григораш О.В. Система подготовки специалистов высшего профессионального образования // Политематический сетевой электронный научный журнал Кубанского государственного аграрного университет [Электронный ресурс]. – Краснодар: КубГАУ, 2014. - № 06(100). - С. 411-430.

2. Джаналиева Г.А. Мутахассислик фанларни ўқитишда интерфаол методларни қўлланилиши. Таълим, фан ва инновация. Ташкент, 2016.- С. 91-95.

3. Кулдашева, Г. Ш., & Хазратов, У. Х. Применение низкоинтенсивной лазеротерапии при бронхиальной астме. Science and Education, (2022), 3(3), 119-122.

4. Narziev, S. S., Khazratov, U. X., & Tosheva, K. B. (2021). Clinical and morphological features of the course of gastroesophageal reflux disease. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 10(3), 52

5. Нарзиев Ш.С. Эффективность интерактивной игры в развитии знаний студентов. Педагогик махорат. №1 2020. Стр. 40-44

6. Орзиев, З. М., Мирзаева М., Д. Б., Хазратов, У. Х., Яхёева, Ф. О., & Саидов, Ш. Б. (2013). Роль педагогических технологий в совершенствовании уровня клинических знаний студентов. Биология ва тиббиёт муаммолари, (4.1), 86.

7. Тошева, Х., Хазратов, У., & Нарзиев, Ш. (2020). Роли дисфункции почек в развитии коморбидности у больных с хронической сердечной недостаточностью. Журнал вестник врача, 1(3), 93-96.

8. Хазратов, У. Х. (2022). Особенности Течения Бронхиальной Астмы В Условиях Жаркого Климата. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 3(4), 227-233.

9. Khazratov, U. X., Narziev, S. S., & Tosheva, B. K. (2021). Effectiveness of nebuliserotherapy in reflux-associated asthma. Asian journal of multidimensional research, 10(4), 944-948.

10. Ходжиева, Г. С. Значение образовательно-педагогических технологий в формировании клинических знаний учащихся. in «Современное состояние, проблемы и перспективы медицинского образования» международная учебно-научно-практическая конференция «тиббий таълимнинг замонавий ҳолати (р. 127).

11. Kh, K. U. (2022). Evaluation of the Efficacy of Therapy for Patients Suffering From Reflux-Induced Asthma in the Arid Zone. Middle European Scientific Bulletin, 24, 269-275.

МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРДА ПАРЕМИК ЖАНРЛАР ВОСИТАСИДА ЭКОЛОГИК МАДАНИЯТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МОДЕЛИ

Аннотация: Табиат билан таништириш жараёни мактабгача таълим ташиқлотида ташиқил этилувчи барча машғулотларда амалга оширилади. Мактабгача таълим ташиқлотларидаги таълим-тарбия ишлари ҳар бир болани алоҳида ўрганиб чиқиш, ҳар томонлама гармоник ривожланган, боланинг қизиқиш ва эҳтиёжига мос тарзда таълим беришни назарда тутди. Мақолада болаларда топишмоқлар воситасида экологик маданиятни ривожлантириш модели ҳақида сўз юритилади.

Калит сўзлар: болалар, топишмоқлар, восита, экологик маданият, ривожлантириш модели, таълим-тарбия, паремик жанр, табиат, модел.

МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ ДОШКОЛЬНИКОВ ЧЕРЕЗ ПАРЕМИЧЕСКИЕ ЖАНРЫ

Аннотация: Процесс приобщения к природе осуществляется во всех мероприятиях, организуемых в дошкольной образовательной организации. Воспитательная работа в дошкольных образовательных организациях предполагает изучение каждого ребенка отдельно, обеспечивая образование гармонично развитое во всех аспектах, в соответствии с интересами и потребностями ребенка.

Ключевые слова: дети, загадки, инструмент, экологическая культура, модель, развития, образование, паремический жанр, природа, модел.

MODEL OF DEVELOPMENT OF ECOLOGICAL CULTURE OF PRESCHOOL CHILDREN THROUGH PAREMIC GENRES

Abstract: The process of familiarization with nature is carried out in all events organized in a preschool educational organization. Educational work in preschool educational organizations involves studying each child separately, providing education that is harmoniously developed in all aspects, in accordance with the interests and needs of the child.

Keywords: children, riddles, tool, ecological culture, model, development, education, paremic genre, nature, model.

Ўтган давр мобайнида мамлакатимизда ўсиб бораётган авлодни соғлом ва ҳар томонлама етук вояга етказиш, таълим-тарбия жараёнига самарали тизимли ташиқил этиш бўйича кенг кўламли ишлар амалга оширилди.

Мактабгача таълим соҳасида давлат-хусусий шерикликни ривожлантириш учун яратилган қулай шарт-шароитлар нодавлат мактабгача таълим ташиқлотлари сонини янада ошириш ва улар кўрсатадиган хизматлар турларини кенгайтириш учун мустаҳкам пойдевор бўлди. Шу билан бирга, олиб борилган таҳлил, болаларнинг мактабгача таълим қамровини ошириш, мактабгача таълим муассасаларини замонавий ўқув-методик материаллар ва бадий адабиётлар билан тўлдириш, соҳага малакали педагог ва бошқарув кадрларини жалб қилиш масалаларини ҳал этиш зарурлигини кўрсатмоқда.

Мактабгача таълим ташиқлотларидаги таълим-тарбия ишлари ҳар бир болани алоҳида ўрганиб чиқиш, ҳар томонлама гармоник ривожланган, боланинг қизиқиш ва эҳтиёжига мос тарзда таълим беришни назарда тутди.

Бу ишлар Фан ва табиатшунослик асослари/экология билан таништириш жараёнига мос келади. Бу ишлар тарбиячи-педагоглар, ота-оналар ва бошқа таълим ташкилотлари ҳамкорлигида бажарилади.

Мактабгача таълим ташкилотларида тарбияланувчиларни паремик жанрлар воситасида экологик маданиятни ривожлантириш ижтимоий-психологик, ташкилий-методик хусусиятга эга жараёндир. Бу жараён мақсад вазифалари ва моҳиятига кўра паремик жанрлар экологик маданиятни ривожлантиришга қаратилган. Мактабгача таълим ёшида болалар паремик жанрлар билан турли хил фаолиятлар, сайр ва саёхатлар мобайнида танишсалар, уларда табиатни асраб авайлашни, экологик маданият тушунчасини тез тушуниб ва англаб оладилар.

Маълумки, паремик жанрларга кирадиган топишмоқ, мақол ва афоризмлар бола ҳаётининг илк даврида ҳамроҳ бўлади. Болаларни табиат оламига олиб киришда мактабгача таълим ташкилотининг ўрни ва таъсири катта. Шу боисдан мактабгача таълим ташкилотида ўқув-тарбиявий ишларда халқ оғзаки жанрлардан кенг фойдаланилса, болаларнинг табиатга бўлган қизиқишлари эрта пайдо бўлади.

Табиат билан таништириш жараёни мактабгача таълим ташкилотида ташкил этилувчи барча машғулотларда амалга оширилади.

Табиат қўйнига сайрга олиб чиқишлар, кузатишлар асосида биз шу нарсани гувоҳи бўлдикки, тарбиячилар Фан ва табиатшунослик асослари/экология машғулотларида табиат билан таништириш ишлари олиб борилса иккаласи ҳамоҳанг мақсадга эришилади. Бошқа машғулотларда масалан, бадий адабиёт билан таништириш машғулотида бирор топишмоқ айтилса, топишмоқ жавоби яъни жумбоқни топишга бола интилади. Топишмоқ жавобини лой ёки пластилиндан шакли ясалса, топишмоқда яширинган ҳайвон ёки бирор жониворнинг нималар билан озиқланиши айтиб ўтилса, машғулотлараро интеграция ташкил қилинган бўлади.

Фан ва табиатшунослик асослари/экология машғулотлари болаларнинг ёш хусусиятлари ҳамда Давлат талабларига мос келиши лозим. Масалан, тарбияланувчида эртақ, топишмоққа қизиқиш пайдо бўлиши билан эртақдаги тасвирлар, топишмоқдаги яширинган нарса сабаб уларда табиатга қизиқиш пайдо бўла бошлайди. Болалар томонидан ҳайвонларнинг ҳаракатларини бажариш, товушларига тақлид қилиш, эртақлардаги шеър, қўшиқларни хиргойи қилиш истаги пайдо бўла бошлайди.

Мактабгача таълим ташкилоти тарбиячилари олдига муҳим вазифалар туради. Тарбиячи мактабгача ёшдаги болаларнинг мутақил фаолиятига раҳбарлик қилиб, меҳнат, ўйин, машғулотларни ташкил қилар экан болаларга тарбияловчи характер беради. Масалан, болаларнинг табиат қўйнида ўйнашларини кузатиб туриб, уларнинг мазмунини таҳлил қилади. Тасвирий фаолиятга доир машғулотда топширикни бажара бориб, расмда теварак-атрофдаги борлиққа бўлган ўз муносабатларини акс эттирадиган қилиб, мавзу танлайди, болалар меҳнатига раҳбарлик қилганда эса унинг теварак-атрофдаги кишилар учун аҳамиятини асослаб беради.

Тарбиячи болани сайрдан сўнг ечиниш ва ювинишга ўргатар экан, тарбиячи унга мустақил равишда ўз-ўзига хизмат кўрсатиш, кийим-бошини саранжомлик билан тайёрлаб қўйиш малакаларини сингдириб боради ва шу билан бирга буюмларга эҳтиёткорона муносабатда бўлиш, батартиблик, ҳаракатларнинг мақсадга мувофиқлиги, шунингдек ёнидаги тенгдошларига диққат-эътибор, уларга нисбатан жонкуярлик ва ғамхўрлик туйғуларини шакллантиради.

Тарбиячи болаларга табиат оламини очиб берар экан, болаларнинг табиат гўзаллигини ғунчадаги бир томчи шабнамда ҳам, ўтларнинг бири иккинчиси билан қўшилиб кетишида ҳам, оқшом бўёқларида ҳам кўра кўра билишларида ёрдам беради. Фақат бу гўзалликни тарбиячининг ўзи кўра билиши ва боланинг қалбига тушунарли бўлган сўзлар билан ифода этиши керак. Бунда табиат ҳақидаги паремик жанрлар намуналари унга катта ёрдам беради. Тарбиячи бу асарларни яхши билиши ва улардан моҳирона фойдалана олиши лозим.

Мактабгача таълим ташкилоти тарбиячилари болаларни сайр ва экскурсияларга олиб чиқар экан бунга пухта тайёргарлик кўради. Тўғри тайёргарлик кўрилган ва тўғри ташкил этилган экскурсиялар мактабгача тарбия ёшидаги болаларнинг экологик онг-билим доирасини кенгайтиради.

Сайр мобайнида тарбиячи болаларга атрофдаги табиат гўзаллигига болалар диққатини қаратар экан уларг турли хил топишмоқларни айтади. Масалан: “ Зар гилам заргар гилам, кўтарай десам оғир гилам ” бу топишмоқни эшитган болалар топишмоқ жавобини биринчиларда бўлиб топишга ҳаракат қиладилар.

Дарахт, ўсимларни кўриш ва бири-бирини фарқлаш, таққослай олиш ва умумлаштиришга ўргатиш орқали экологик маданият ривожлана бошлайди. Бирор мақсадга қаратилган кузатиш ва экскурсиялар жараёнида болалар эътиборини фақат бирор ҳодисанинг муҳим хусусиятига эмас, балки табиат ҳодисалари, неъматлари ва уни асраб авайлашга қаратади. Табиатнинг гўзаллиги ва ўзига хос хусусиятлари билан таништириш энг оддий ва уларга яқин бўлган нарсалар: боғча биноси, ўз кўчаларидан бошланади. Қуйида паремик жанрлар билан таништириш вазифалари кўрсатиб ўтилади ва бу вазифалар доирасида “ Мактабгача таълим ташкилотларида паремик жанрлар воситасида экологик маданиятни ривожлантиришнинг методик модели”нинг таркибий тузилмаси, омиллари, тамойиллари баён этилади. Мактабгача таълим ташкилотларида паремик жанрлар воситасида экологик маданиятни ривожлантиришнинг модели доирасида қуйидаги вазифаларни белгиладик:

1.Мактабгача таълимнинг турли ёш гуруҳларида паремик жанрлар воситасида экологик маданиятни ривожлантиришда билиш психик жараёнларини ривожлантириш;

2. Турли ёш гуруҳларида паремик жанрлар воситасида экологик маданиятни ривожлантиришда табиатга нисбатан онгли муносабатни шаллантириш;

3. Паремик жанрлар мазмунини чуқур тушуниб етган ҳолда табиатни асраш ва ахлоқий сифатларни ривожлантиришга эришиш;

4. Тарбияланувчиларда табиатга нисбатан муносабатни ўзгартириш, жанрлардаги тасвирий воситаларини тушунишга эришиш;

5.Паремик жанрларнинг оҳангдорлигини, айтилиши ва табиат гўзаллигини ҳис қилишга ўргатиш.

Мактабгача таълим ташкилотининг катта ва мактабгача тайёрлов гуруҳи тарбияланувчилари учун минимал талабларни белгилаб чиқдик.

1. Она табиатга бўлган муносабатларини аниқлаш;

2. Атроф-оламни асраб авайлашда иштирокининг муҳимлигини тушуниш.

3. Теварак-атроф ҳақидаги маълумотларни тўплаши.

4. Табиатни кузатиш орқали таҳлил қилиш, таққослаш ва солиштириш

Мактабгача таълим ташкилотларида паремик жанрлар воситасида экологик маданиятни ривожлантиришда, тарбияланувчиларни сифатли мактаб таълимига тайёрлашда юқоридаги тамойилларнинг ўрни ва роли муҳим саналади.

Экологик жанрлар воситасида экологик маданиятни ривожлантиришда дидактик таъминотнинг ҳам аҳамияти каттадир. Бунда мактабгача таълим ташкилоти тарбиячи педагогларининг паремик жанрлардан фойдаланишлари ва болалар ёшига мос бўлиши яхши самара беради, таълим олиш имкониятлари кенгаяди. Ушбу тамойилларнинг мактабгача таълим амалиётида жорий этилиши экологик ресурсларнинг мавжудлигидир. Ресурслар моделнинг асосий қисми сифатида эътироф этилади.

Мактабгача таълимда экологик ресурслар қуйидагича қўлланилмоқда.

1.Анъанавий ресурслар (расмли эртақлар, топишмоқ жавобидаги ҳайвончалар расмлари, осмон жисмлари, тарқатма материаллар, методик қўлланмалар).

2. Янги типдаги электрон ўқув адабиётлар (электрон дарслик ва дастурлар, машғулот матнлари, маълумотлар банки, мультфильмлар).

3. Болаларни ҳар томонлама гармоник, эстетик ва экологик маданиятни ривожлантириш мақсадида ташкил этилган “Ўзбек халқ мақоллари”, “Ўзбек халқ эртақлари”,

138 “Топишмоқлар” ҳамда бошқа паремик жанр намуналари ва электрон кўринишлари болалар ва педагоглар учун бир қанча енгилликлар туғдиради.

4. Паремик жанрлар тарбияланувчиларнинг дунёқарабини кенгайтиришга, экологик маданиятни ривожлантиришга, мультимедияли, аниматсияли, овозли ва расмли кўринишга эга бўлганлиги билан таърифланади.

Мактабгача таълим ташкилотларида паремик жанрлар воситасида экологик маданиятни ривожлантириш жараёнини мақсадли ташкиллаштиришда бир қатор мезонлар муҳим саналади. Булар қуйидагилар:

1. Мактабгача ёшдаги болалар учун мўлжалланган паремик жанр намуналарининг болалар ёши, ўлка табиати, миллий анъаналаримизга мослиги. Бу мезон экологик маданиятни ривожлантиришга, она Ватан табиатига меҳрли ва асраб авайлашни тарбиялашга тўғри келишини белгилайди.

2. Табиатга меҳр муҳаббатли бўлиш, яъни табиат бойлиқларидан оқилона фойдаланиш, экологик маданиятли бўлишни назарда тутати. Шу билан биргаликда паремик жанрлар кўпинча табиат ва табиат ҳодисалари ҳақида яратилганлиги ҳам шу мезон сифатларига тўғри келади.

3. Паремик жанрларнинг тарбияланувчилар ёши, яшаш тарзи ва табиатига, психологик хусусиятларига мослиги. Ҳар бир асардан фойдаланишда болаларнинг билиш психик жараёнлари ҳисобга олинади.

4. Жанрларда табиатнинг акс эттирилганлиги, аниқлиги, мавзуларнинг соддалиги, декорацияларнинг ранг-баранглиги билан бойитилганлиги. Бу жараён мазмуннинг бола томонидан тез ўзлаштириб олишини таъминлайди.

Биз тадқиқотимизда паремик жанрлар воситасида экологик маданиятни ривожлантириш методик моделини ишлаб чиқдик. Бу модел мактабгача таълим ташкилоти амалиётида методик ва педагогик жиҳатдан аҳамиятлидир.

Паремик жанрлар билан таништириш орқали экологик маданиятни ривожлантириш модели ўз ичига қатор қоидаларга амал қилишни тақозо этди.

1. Тарбияланувчида ахлоқий сифатларни янада такомиллаштириш, машғулотда қўлланиладиган паремик жанрларни тўғри танлаш;

2. Машғулотларни умумдидактик тамойиллар асосида ташкил этишга эришиш;

3. Паремик жанрлар табиат ва табиат қонунларига мослигини тўлиқ таъминлаш;

4. Табиат ҳақидаги билимларни тажрибаларда қўллаш;

Тарбиячилар мавзуга мос паремик жанрларни танлашда, асар когнетивига, ахлоқий ва эстетик сифатларга, жанрлар ранг-баранглигига, мазмунига ва табиат билан боғлиқлигига эътибор қаратишлари тарбияланувчиларда экологик маданиятни ривожлантириш учун асос бўлади.

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 майдаги ПФ-4312-сон қарори. Тошкент.

2. “Ўзбекистон Республикасининг илк ва мактабгача ёшдаги болалар ривожланишига қўйиладиган давлат талаблари” Тошкент. 2018 йил

3. Мактабгача таълим ва тарбиянинг давлат стандартини тасдиқлаш тўғрисида. Тошкент ш, 2020 йил 22 декабрь, 802-сон қарор.

4. “Экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш соҳасини трансформация қилиш ва ваколатли давлат органи фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида” ги 2023 йил 31 майдаги ПФ-81-сон фармон.

5. Ф.Р.Қодирова. Мактабгача таълимда замонавий ёндашувлар модули бўйича ўқув-услубий мажмуа. Тошкент-2018 й

Tkacheva Anastasiya Aleksandrovna
Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

TALABALARNING IJTIMOY-MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH UCHUN OLIY TA'LIM TIZIMIDA O'YIN ELEMENTLARI VA GEYMIFIKATSIYADAN FOYDALANISH (ISPAN TILI MISOLIDA)

Annotatsiya: Hozirgi vaqtda oliy ta'lim tizimida o'yin elementlaridan foydalanish va geymifikatsiya ta'limga innovatsion va samarali yondashuv sifatida keng e'tirof etilgan. Ushbu maqolada O'zbekiston oliygohlarida ispan tili bo'yicha talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish uchun o'yin elementlari va geymifikatsiyadan foydalanish ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'yin elementlari va o'yinlardan foydalanish talabalarning motivatsiyasini oshirishga, muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga, ispan tili va madaniyati haqidagi bilimlarni boyitishga va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishga yordam beradi. Shunday qilib, ushbu yondashuvni talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish, hamda O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatini yaxshilash uchun samarali vosita deb hisoblash mumkin.

Kalit so'zlar: geymifikatsiya, ijtimoiy-madaniy kompetentlik, o'yin elementlari, ispan tilini o'qitish.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИГРОВЫХ ЭЛЕМЕНТОВ И ГЕЙМИФИКАЦИИ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ ДЛЯ РАЗВИТИЯ СОЦИОКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ (НА ПРИМЕРЕ ИСПАНСКОГО ЯЗЫКА)

Аннотация: В настоящее время использование игровых элементов и геймификация в системе высшего образования широко признаны инновационным и эффективным подходом к обучению. В данной статье рассматривается использование игровых элементов и геймификации для развития социокультурной компетентности студентов испанского языка в вузах Узбекистана. Результаты исследования показали, что использование игровых элементов и игр способствует повышению мотивации учащихся, развитию коммуникативных навыков, обогащению знаний об испанском языке и культуре, развитию межкультурного общения. Таким образом, данный подход можно считать эффективным инструментом развития социально-культурной компетенции студентов, а также повышения качества образования в системе высшего образования Узбекистана.

Ключевые слова: геймификация, социокультурная компетенция, игровые элементы, обучение испанскому языку.

THE USE OF GAME ELEMENTS AND GAMIFICATION IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM (ON THE EXAMPLE OF SPANISH) TO PROMOTE THE SOCIO-CULTURAL COMPETENCE OF STUDENTS

Annotation: currently, the use of game elements in the higher education system and gamification are widely recognized as an innovative and effective approach to education. This article will consider the use of game elements and gamification to promote the socio-cultural competence of students in the Spanish language in Uzbek universities. The results of the study showed that the use of game elements and games helps to increase student motivation, develop communication skills, enrich knowledge about the Spanish language and culture, and promote intercultural communication. Thus, this approach can be considered an effective tool for

140 *developing socio-cultural competence of students, as well as improving the quality of education in the Uzbek higher education system.*

Keywords: *gamification, socio-cultural competence, game elements, Spanish language teaching.*

Zamonaviy axborot jamiyatida oliy ta'lim tizimi talabalarni o'qitish va rivojlantirishda doimiy qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ushbu tizimning bir qismi sifatida O'zbekiston universitetlari o'z talabalariga zamonaviy va mehnat bozori talablariga javob beradigan ta'lim berishga intilmoqda. Biroq, ispan tilida talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish haqida gap ketganda, an'anaviy o'qitish usullari ko'pincha o'z imkoniyatlari bilan cheklangan.

So'nggi yillarda butun dunyo bo'ylab tobora ko'proq oliygohlar o'quv jarayonida o'yin elementlari va geymifikatsiya imkoniyatlarini anglay boshladilar. Geymifikatsiya- motivatsiyani oshirish, jalb qilish va kerakli natijalarga erishish uchun o'yinga oid bo'lmagan vaziyatlarda o'yin elementlari va tamoyillarini qo'llash jarayonidir. Bunday faoliyat mukofotlar, yutuqlar, reytinglar, darajalar va qiyinchiliklar kabi o'yin mexanizmlarini ta'lim kontekstlarda qo'llashni o'z ichiga oladi, shuningdek, o'quv jarayonni yanada qiziqarli va jozibali qilishga yordam beradi. Ispan tilida talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish nuqtai nazaridan, geymifikatsiyani qo'llash O'zbekistonning oliygohlari uchun samarali bo'lishi mumkin.

Ushbu maqolaning maqsadi ispan tilida talabalarning ijtimoiy - madaniy kompetentligini rivojlantirish uchun O'zbekiston oliy ta'lim tizimida o'yin elementlari va geymifikatsiyadan foydalanishni ko'rib chiqish va tahlil qilishdan iborat.

So'nggi yillarda ta'limda o'yin elementlari, geymifikatsiya va ulardan foydalanish eng dolzarb tadqiqot mavzularidan biriga aylandi. Turli tadqiqotlar o'quvchilarning ko'nikmalarini, motivatsiyasini va faolligini oshirish uchun o'quv jarayonida geymifikatsiya samaradorligini ko'rsatadi. Quyida oliy ta'lim tizimi kontekstida geymifikatsiya bilan bog'liq eng muhim tadqiqotlar va ishlar keltirilgan:

1. D.Dicheva, C.Dichev va boshqalarning tadqiqotida [1] mualliflar ta'limdagi geymifikatsiya bilan bog'liq adabiyotlarni ko'rib chiqdilar. Natijalar shuni ko'rsatdiki, geymifikatsiya turli xil ta'lim kontekstlarida qo'llaniladi hamda talabalarning motivatsiyasi, ishtiroki va o'rganishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

2. Landers, R., & Landers, A.larning tadqiqotida [3] ta'limda geymifikatsiya nazariyasining empirik dalillarini sinovdan o'tkazildi. Natijalar vazifaga sarflangan vaqtning ko'payishi va eng yaxshi ishtirokchilar jadvali (leaderboards) kabi geymifikatsiya elementlaridan foydalangan holda talabalarning akademik ko'rsatkichlari yaxshilanganligini ko'rsatadi.

3. Hamari, J., Koivisto, J., & Sarsa, H.larning ilmiy maqolasida [2] mualliflar geymifikatsiya va uning samaradorligi bo'yicha empirik tadqiqotlarni ko'rib chiqdilar. Natijada, ular geymifikatsiya o'quvchilarning motivatsiyasi, darsda ishtiroki va o'rganishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, degan xulosaga kelishdi, ammo optimal yondashuvlar va qo'llash kontekstlarini aniqlash uchun qo'shimcha tadqiqotlar zarurligini ta'kidladilar.

4. Werbach, K., & Hunter, D. qalamiga mansub "For the win: How game thinking can revolutionize your business" kitobi [4] geymifikatsiya asoslarini va uning imkoniyatlarini turli kontekstlarda tushunish uchun muhim manba hisoblanadi. Mualliflar o'yin mexanikasiga asoslangan amaliy maslahatlar va yondashuvlarni taklif qiladilar hamda biznes va ta'limdagi ko'plab misollar orqali geymifikatsiya ta'sirini tasvirlaydilar.

Ushbu tadqiqotlar va ishlar birgalikda umumiy tendentsiyaga ishora qiladi: geymifikatsiya talabalarning motivatsiyasi, faolligi va o'rganishini oshirish uchun samarali vositadir. Shuningdek, ular oliy ta'lim tizimida geymifikatsiyani qo'llashning maqbul usullari va kontekstlarini aniqlash uchun keyingi tadqiqotlar va tajribalar muhimligini ta'kidlaydilar.

Shu sababli, ushbu maqolada biz ta'lim tajribasi va ta'lim sifatini yaxshilash maqsadida ispan tilida talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish uchun O'zbekiston oliy ta'lim tizimida geymifikatsiyani qo'llashni taklif qilamiz. Ushbu tadqiqot natijalari O'zbekiston

oliygohlarida ta'lim jarayoniga amaliy hissa qo'shishga va talabalarning ispan tili bo'yicha ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishga yordam berishi mumkin.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida geymifikatsiya konsepsiyasi va o'yin elementlaridan foydalanish talabalarning ispan tili bo'yicha ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega bo'lishi mumkin. Geymifikatsiya orqali interfaol, jozibali va rag'batlantiruvchi o'quv muhitining yaratilishi talabalarga lisoniy va madaniy to'siqlarni yengib o'tishga, shuningdek, muloqot qobiliyatlarini yaxshilashga imkon beradi.

Geymifikatsiyaning asosiy tarkibiy qismlaridan biri talabalar erishishi kerak bo'lgan maqsad va vazifalarni belgilashdir. Vazifalarning o'yin topshiriqlari shaklida tuzilishi talabalarni raqobatlashishga, yuqori natijalarga erishishga va oldinga siljishga undaydi. Buni mukofotlar tizimini joriy etish hamda ballar, nishonlar, darajalar va eng yaxshi ishtirokchilar jadvallari yordamida yutuqlarni tan olish orqali qo'llab-quvvatlash mumkin. Bunday o'yin elementlari talabalarni yanada rag'batlantirishi va sinfda raqobatbardosh muhit yaratishi mumkin.

Biroq, geymifikatsiya faqat vazifalar va mukofotlar bilan cheklanmasdan, shuningdek, talabalarga o'yin tizimi va bir-biri bilan qanday munosabatda bo'lishlari kerakligini tushunishga yordam beradigan xulq-atvor qoidalarini o'rnatishni talab qiladi. Talabalar o'zlarining taraqqiyotini ko'rishlari, rivojlanishi va ko'nikmalarini oshirishlari uchun interfaol fikr-mulohazalarni yaratish muhimdir. Bunga erishish uchun taraqqiyotni kuzatish tizimidan, o'qituvchilarning muntazam fikr-mulohazalaridan va natijalarni jamoaviy muhokama qilishdan foydalanish mumkin.

Oliy ta'lim tizimida geymifikatsiyadan foydalanish usullaridan biri zamonaviy texnologiyalar va onlayn platformalardan foydalangan holda o'yin elementlarini birlashtirish hisoblanadi. Masalan, Kahoot onlayn platformasi ispan tilini o'rgatish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan interaktiv viktorinalar va so'rovnomalarni yaratishga imkon beradi. Bunday faoliyat talabalarga faol ishtirok etish, savollarga javob berish va tezkor fikr-mulohazalarni olishni rag'batlantiradi. Ushbu yondashuv nafaqat o'quv jarayonini yanada qiziqarli qiladi, balki muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga, ispan madaniyati haqidagi bilimlarni boyitishga va madaniyatlararo tajriba almashishga yordam beradi.

O'yin elementlari ispan tilidagi ijtimoiy-madaniy kompetentligini o'rganish uchun samarali vosita bo'lishi mumkin. Quyidagi jadvalda o'yin elementlarining bir nechta misollari keltirilgan:

T/r	O'yin elementlarining turlari	Izoh
1	Viktorinalar va so'rovlar	Kahoot yoki Quizlet kabi onlayn platformalardan foydalanish talabalarga ispan madaniyati, tarixi, adabiyoti va tilning boshqa jihatlar haqidagi bilimlarini sinab ko'rish imkonini beruvchi interfaol viktorinalar va so'rovnomalarni o'tkazish imkonini beradi. Bunday mashqlar talabalarning faolligi va motivatsiyasini rag'batlantiradigan raqobatbardosh ta'lim shakli hisoblanadi.
2	Rolli o'yinlar	Talabalar Ispaniya madaniyatidagi vaziyatlar va rollarni taqlid qiladigan rolli o'yinlarni tashkil qilish ularga muloqot qobiliyatlari va madaniy xususiyatlarni tushunishga yordam beradi. Masalan, talabalar sayohatchilar, gidlar yoki mahalliy aholi rolini o'z zimmalariga olishlari hamda real vaziyatlar va dialoglardan foydalangan holda ispan tilida bir-birlari bilan muloqot qilishlari mumkin.
3	Karta o'yinlari	Ispaniya madaniyatini o'rganish uchun maxsus ishlab chiqilgan "Dominó de Cultura" yoki "Memory" kabi karta o'yinlaridan foydalanish talabalarga Ispaniya madaniyati bilan bog'liq muhim faktlar, atamalar va iboralarni o'zlashtirishga yordam beradi.

		Ta'limning ushbu o'yin shakli, shuningdek, talabalar o'rtasida jamoaviy hamkorlik va bilim almashishni rag'batlantirishi mumkin.
4	Guruh loyihalari	Ispaniya madaniyati bilan bog'liq guruh loyihalarini tashkil etish talabalarga ispan madaniyatining turli jihatlarini o'zaro ta'sir qilish, o'rganish va taqdim etish imkonini beradi. Bunga taqdimotlar, multimediya yaratish, tadqiqotlar o'tkazish yoki hatto madaniy tadbirlarni tashkil qilish kiradi.
5	Leksik o'yinlar	"Charades" yoki "Taboo" kabi o'yin turlari ispan madaniyatini o'rganish uchun moslashtirilishi mumkin. Talabalar boshqa talabalar ularni taxmin qilishlari uchun ma'lum so'zlar yoki iboralarni ishlatmasdan ispan madaniyatining turli jihatlarini harakatlar orqali ko'rsatish va tasvirlashlari mumkin. Bunday o'yin muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradi hamda ispan tili va madaniyati haqidagi bilimlarni boyitadi.
6	Interfaol lingvistik o'yinlar	"Word Association" yoki "Bingo" kabi o'yinlar ispan tilini o'rganish va bir vaqtning o'zida madaniy uyushmalardan xabardor bo'lish uchun moslashtirilishi mumkin. Talabalar so'zlarni ispan madaniy jihatlar bilan bog'lashlari yoki "Bingo" o'yinida tegishli so'zlarni topishlari mumkin.
7	Virtual ekskursiyalarni tashkil qilish	Virtual reallik texnologiyasi yoki onlayn materiallardan foydalanish talabalarga ispan madaniyatiga sho'ng'ish, muzeylar, tarixiy yodgorliklarga tashrif buyurish, mamlakat san'ati va tarixini o'rganish imkonini beradi, shuningdek, ispan madaniyati va uning kontekstiga chuqurroq kirib borishni ta'minlaydi.
8	Onlayn munozaralar	Ispan madaniyati bilan bog'liq onlayn munozaralarni tashkil qilish talabalarga asosli fikr bildirish va ijtimoiy-madaniy jihatlariga o'z nuqtai nazarini isbotlash imkonini beradi, hamda muloqot ko'nikmalarini, tanqidiy fikrlashni va madaniyatlararo tushunishni rivojlantirishga yordam beradi.
9	Kinematografiya klubi	Talabalar ispan filmlarini tomosha qiladigan hamda tomosha qilgandan keyin munozaralar olib boradigan kinematografiya klubini tashkil etish ispan madaniyati, tili va madaniyatlararo farqlarni idrok etishni chuqur o'rganishga yordam beradi.
10	Madaniy kviz	Talabalar ispan madaniyati, tarixi, adabiyoti va san'ati bo'yicha bilimlarda raqobatlashadigan madaniy kvizni tashkil etish ispan madaniy kontekstini o'rganishni va unga chuqurlashtirishni rag'batlantiradi, shuningdek, talabalar o'rtasida jamoaviy ruh va hamkorlikni shakllantirishga yordam beradi.

Viktorinalar, rol o'yinlari, karta o'yinlari va yuqoridagi boshqa narsalar kabi o'yin elementlari o'quv jarayonini sezilarli darajada boyitishi, uni yanada qiziqarli, jalb qiluvchi va samarali qilishi mumkin. Ular talabalarga ispan tilini o'rganish doirasida ijtimoiy-madaniy kompetentlik, muloqot qobiliyatlari va madaniyatlararo xabardorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

O'quvchilarning aniq ta'lim maqsadlari va ehtiyojlariga mos ravishda o'yinlar va tadbirlarni yaratish muhimdir. O'yin elementlarining moslashuvchanligi turli xil o'quv vaziyatlari va o'rganish uslublariga moslashishga imkon beradi. Bunday o'yin elementlarini tanlash va birlashtirish orqali o'qituvchilar talabalarni ispan tili va madaniyatini o'rganish jarayoniga faol jalb qiladigan, ularning ta'lim taraqqiyoti va ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishga hissa qo'shadigan ta'lim stsenariylarini yaratishi mumkin.

Yuqorida ispan tilidagi ijtimoiy-madaniy kompetentligini o'rganish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan o'yin elementlarining bir nechta namunalarini keltirilgan. Bunda talabalarning darajasi va ehtiyojlariga mos keladigan elementlarni tanlash hamda interfaol va rag'batlantiruvchi o'quv muhitini yaratish muhimdir.

Ispan tilida ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish uchun ishlab chiqilishi mumkin bo'lgan yangi o'yinlardan biri "Madaniy stol o'yini" hisoblanadi. Ushbu o'yin Ispaniya madaniyati, tarixi, adabiyoti va san'ati haqidagi bilim elementlarini strategiya va o'yinchilar o'rtasidagi o'zaro ta'sir elementlari bilan birlashtiradi. Bunday o'yin qo'yidagicha ishlab chiqilishi mumkin:

O'yin nomi	"Descubre España» (Ispaniyaning qashf qil)
O'yin maqsadi	Ispan madaniyati, tarixi, adabiyoti va san'ati haqidagi bilimlarni o'rganish va kengaytirish, hamda madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish.
O'yin komponentlari	1. O'yin taxtasi Ispaniyaning turli mintaqalar yoki shaharlarga bo'lingan xaritasini aks ettiradi. 2. Savol kartalari. Xaritalarda ispan madaniyati, tarixi, adabiyoti va san'atining turli jihatlari haqida savollar tuziladi. 3. Fishkalar yoki markerlar o'yinchilarni va ularning o'yindagi yutuqlarini ifodalaydi. 4. Diqqatga sazovor joylar xaritalari, ya'ni o'yinchilar kashf etadigan va ular haqida ko'proq bilib oladigan turli joylar va diqqatga sazovor joylarni aks ettiruvchi xaritalar. 5. Vazifalar. O'yinchilar Ispaniya madaniyati bilan bog'liq vazifalarni bajarishlari mumkin, masalan, madaniy tadbirni tashkil qilish, taniqli ispanlar haqida taqdimot yaratish yoki ispan an'analari bilan bog'liq krossvordlarni yechish. Bunday faoliyat o'yinchilarga o'z bilimlarini muayyan vaziyatlarda amalda qo'llash qobiliyatini rivojlantirish imkonini beradi. 6. Resurslar yoki "Maslahat kartalari". O'yin davomida o'yinchilar yutib olishi mumkin bo'lgan maslahat kartalari yoki resurslardan foydalana oladilar. Masalan, bunday resurslar ispan madaniyatining ba'zi jihatlari haqida ko'proq ma'lumot olish uchun ishlatilishi yoki ustunlikka erishish uchun o'yinda qo'llanilishi mumkin. 7. Madaniy topshiriqlar. O'yin o'yinchilardan ijodkorlik va vizual ko'nikmalarni namoyish etishni talab qiladigan madaniy topshiriqlarni o'z ichiga olishi mumkin. Bunga ispan madaniyati asosida kollaj, rasm yoki mini-loyiha yaratish kiradi. 8. Hamkorlik va jamoaviy topshiriqlar. O'yinchilar jamoaviy ko'nikmalarni rivojlantirish, tinglashni o'rgatish, o'zaro muloqot va hamkorlikni namoyish etish uchun juftliklar yoki guruhlardagi vazifalarni bajarishlari mumkin.
O'yin qoidalar	1. O'yinchilar ispan madaniyati, tarixi, adabiyoti va san'atining turli jihatlari haqidagi savollarga javob berish uchun o'yin taxtasi bo'ylab harakatlanadilar. 2. Har bir to'g'ri javob uchun o'yinchilar ball olishadi yoki o'yinda oldinga siljishadi. 3. O'yinchilar bilim almashish, karta almashinuvi yoki muammolarni birgalikda hal qilish kabi o'zaro aloqalarga kirishishi mumkin. 4. Eng ko'p ball to'plagan o'yinchi o'yinda g'alaba qozonadi va Ispaniya madaniyati bo'yicha "Ekspert" deb e'lon qilinadi.
O'yinning afzalliklari:	- Ispan madaniyati, tarixi, adabiyoti va san'ati haqidagi bilimlarni rivojlantirish.

	- Boshqa o'yinchilar bilan muloqot qilish orqali muloqot qobiliyatlarini yaxshilash. - Madaniyatlararo tushunishni va boshqa madaniyatlarga hurmatni rag'batlantirish. - Tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini yaxshilash.
--	---

Bunday stol o'yini talabalarga ispan madaniyati va tili haqidagi bilimlarini amalda qo'llash va kengaytirish, muloqot va ayniqsa madaniyatlararo muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi. Shuningdek, ushbu o'yin o'quvchilarning e'tiborini jalb qilish bilan birgalikda, ispan tili va madaniyatiga bo'lgan qiziqishini oshiradi, shuningdek, ijtimoiy-madaniy kompetentlikni yanada samarali o'rganish va rivojlantirishga yordam beradi.

Endi ispan madaniyatini o'rganish uchun o'yin elementlardan foydalangan holda tuzilgan dars rejasining namunasini keltiramiz:

“Ispan madaniyati: ispan milliy taomlari va an'analar”

T/r	Darsning elementlari	Amalga oshirish mexanizmi, izoh
1	Dars maqsadlari	1. Talabalarni ispan pazandachilikning asosiy jihatlari va an'analari bilan tanishtirish 2. Autentik material bilan ishlash orqali ispan madaniyatini tushunishni rivojlantirish 3. O'yin elementlaridan foydalanish orqali talabalarning motivatsiyasini va faolligini oshirish.
2	Darsning bosqichlari	1. Kirish (10 daqiqa): - Salomlashish hamda darsning maqsadlari va vazifalarni tushuntirish; - Ispan madaniyati va uning jahon pazandachilik san'atiga ta'sirini tanishtirish. 2. Topshiriq №1 “Pazandachilik krossvordi” (20 daqiqa): - Talabalarga krossvord varaqalarni tarqatish. Ular ushbu krossvordni ispan pazandachilikka oid bo'lgan so'zlari bilan to'ldirishi kerak; - Talabalar juftliklarda yoki kichik guruhlarda ishlashadi, javoblarni muhokama qiladi va bir-biriga yordam beradi. - O'qituvchi to'g'ri javoblarni tushuntirib talabalar bilan muhokama qiladi. Topshiriq №2 “Pazandachilik sayohati” (25 daqiqa): - Talabalarni guruhlariga bo'lib, har bir guruhga Ispaniyaning ma'lum hududining milliy taomlarini o'rganish bo'yicha topshiriqni berish; - Har bir guruh ushbu mintaqaga xos bo'lgan taomlar, tarixi va an'analarni tadqiq qiladi; - Guruhlar o'z tadqiqotlarni ko'rsatishadi, taomlar haqida aytib berishadi va qiziqarli ma'lumotlari bilan bo'lishadi. Topshiriq №3 “Pazandachilik tanlovi” (20 daqiqa): - Har bir guruh Ispaniyaning turli hududlaridagi taomlarning birini tayyorlash va taqdim etilishi kerak bo'lgan pazandachilik tanlovini tashkil etish; - O'qituvchi va boshqa talabalardan iborat hakamlar hay'ati taomlarni ta'm, tashqi ko'rinish va tadqiq qilingan hududga mos bo'lishiga qarab baholaydi. - Sovrinlarni topshirish va tanlovning yakunlarini yasash. 5. Xulosa (5 daqiqa): - Talabalarning savollarga javob berish va darsning yakunini yasash; - O'yin faoliyati orqali ispan madaniyatini o'rganish jarayonida talabalarning individual va jamoaviy yutuqlarni ta'kidlab o'tish.

Keyinchalik o'yin elementlari va geymifikatsiyadan foydalangan holda ishlab chiqilgan keys-stadini taqdim etamiz:

"Ispan madaniyati va san'ati"

145

T/r	Keys-stadining bosqichlari	Amalga oshirish mexanizmi, izoh
1	Maqsad	Ispan madaniyatini badiiy asarlar va me'morchilik orqali o'rganish
2	Bajarilgan mashqlar	- Pablo Pikasso, Salvador Dali va Joan Miro kabi mashhur ispan rassomlar va ularning asarlarini tadqiq qilish; - Algambra, "Sagrada Familia" kabi ispan me'morchilik namunalarni muhokama qilish; - Ispan san'at uslublari va ramzlarni tahlil qilish hamda yicha ispan madaniyatini san'at orqali aks ettirish bo'farazlarni taklif etish; - Talabalar ispan madaniyatidan ilhomlanib, turli materiallar va texnikalardan foydalangan holda o'z san'at asarlarini yaratishi mumkin; - Rassomlar, ularning san'at asarlari hamda ispan madaniyatiga ko'rsatgan ta'siri haqida taqdimotni tayyorlash.
3	Baholash va teskari aloqa	- Ispan madaniyatini tushunish darajasi va dalillarni keltirish asosidagi teskari aloqa; - Talabalarining loyihalarida til ko'nikmalari va badiiy elementlaridan foydalanish baholanishi.
4	Tavsiyalar	- Darsni geymifikatsiyalash jarayonida talabalarining ishtirokini rag'batlantirish maqsadida muqofotlar va bonuslar tizimidan foydalanish; - O'quv jarayonni maroqliroq qilishi uchun o'yinga musiqa va multimedia kabi interfaol elementlarini kiritish; - Ma'lumotlarni yig'ish hamda tadqiqot natijalarni keys-stadi jarayonida taqdim etishga alohida e'tibor berish; - Talabalar o'rtasidagi o'zaro aloqani tashkil etish hamda o'yin jarayonida muhokama qilish va fikrlarni almashtirish imkoniyati ularga yangi materialni yaxshiroq o'zlashtirishga imkon beradi.

Bunday o'yin elementlar va keys-stadi talabalarga ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish hamda ispan tili va uning kontekstini tushunishni chuqurlashtirish bilan birgalikda ispan madaniyatini interfaol va amaliy tarzda tadqiq etishga imkon beradi, shuningdek, ijodiy fikrlashni rag'batlantirgan holda tahlil, madaniyatlararo qiyoslash va muloqot ko'nikmalarni takomillashtirishga yordam beradi.

O'zbekiston oliygohlari talabalarida o'yin elementlari va geymifikatsiyadan foydalangan holda ispan tili bo'yicha ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish uchun qo'yidagi tavsiyalarni taklif etilishi mumkin:

T/r	Tavsiyaning mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi
1	Ispan madaniyatini o'yin elementlari orqali o'rganish	- Ispan madaniyati bilan bog'liq bo'lgan o'yinlar va viktorinalarni taqdim etuvchi o'yin ilovalar yoki onlayn platformalardan foydalanish; - Talabalar ispan an'analar va urf-odatlarini bilan tanishishi mumkin bo'lgan madaniy tadbirlarni o'tkazish; - Talabalar ispan shaharlar, festivallar yoki tarixiy shaxslar haqida ma'lumotni taqdim etiladigan mavzuviy kechalar yoki tanlovlarni tashkil qilish.
2	Rolli o'yinlarni o'tkazish	- Talabalarga til ko'nikmalarni qo'llashga hamda ispan madaniyatiga sho'ng'ishga imkon beruvchi vaziyatlarda mashhur ispan yozuvchilarning asarlari qahramonlarining rolini o'ynashni taklif etish;

		- Talabalar sayyohlar va mahalliy yashovchilar rollarini o'ynaydigan, ispan tilida muloqot qilish hamda turli muammolarni yechishga qaratilgan o'yinni o'tkazish.
3	Keys-stadi va tadqiqotlarni olib borish	- Talabalar ispan madaniyatining turli jihatlarini tadqiq qiladigan keys-stadini ishlab chiqish hamda ularga viktorinalar, interfaol materiallarni o'z ichiga oluvchi o'yin elementlardan foydalangan holda taqdimot yoki loyiha tayyorlashni topshirish; - Ispaniya orqali virtual sayyohatni tashkil etish yoki virtual festivallarda ishtirok etish kabi ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantiruvchi o'yin ilovalar yoki onlayn o'yinlardan foydalanish.
4	Musobaqalar va jamoada ishlash	- Talabalarni darslarda faol ishtiroki va raqobatni rag'batlantirish maqsadida ular uchun turli musobaqalar va ispan madaniy o'yinlarni tashkil qilish; - Talabalar ispan madaniyati bilan bog'liq bo'lgan topshiriqlarni bajarish maqsadida o'z bilimlar va ko'nikmalarni birlashtiruvchi jamoalarda ishlash.
5	Teskari aloqa va muqofotlar	- Talabalarga ularning bilimlarida va ijtimoiy-madaniy kompetentlikda asoslangan topshiriqlar va o'yinlarni bajarish uchun teskari aloqa berish va ularni baholash; - O'yinlarda va o'quv topshiriqlarda faolligi va yutuqlari uchun ishtirokchilarga kichkina sovrinlar va muqofotlarni berish.
6	Virtual ekskursiyalar va sayohatlar	- Talabalar ispan madaniyatiga sho'ng'ishi, diqqatga sazovor joylarni tadqiq qilishi hamda mamlakat hududlari haqida ko'proq bilishi maqsadida maxsus ilovalar yoki veb-sahifalardan foydalangan holda Ispaniya bo'ylab virtual ekskursiyalarni tashkil etish; - Talabalarga ispan shaharlari bo'ylab virtual sayohatlarni taklif etish, har bir shahar yoki hududning madaniy o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan viktorinalar yoki interfaol darslarni o'tkazish.
7	Ispan tilini mediamateriallar orqali o'rganish	- Talabalarni ispan tili va madaniyati bilan tanishtirish maqsadida ispan tilidagi subtitrlil filmlar, seriallar, qo'shiqlar va multfilmlardan foydalanish; - Talabalar o'rganilgan til ko'nikmalarni qo'llashi kerak bo'lgan filmlar va qo'shiqlardan olingan dialoglarda asoslangan o'yinlarni yaratish.
8	Interfaol veb-sahifalar va ilovalar	- Talabalarga ispan tili va madaniyatini o'rganishga mo'ljallangan interfaol veb-sahifalar va mobil ilovalardan foydalanishni taklif etish. Misol uchun, ispan milliy taomlari, bayramona an'analarni o'rganish maqsadida; - Ispan tili va madaniyatini o'rganishga mo'ljallangan turli o'yinlar, viktorinalar, interfaol mashqlar va onlayn kurslarni o'z ichiga olgan o'quv sayti yaratish.
9	Virtual hamkorlik	- Talabalar ispan tili va madaniyati bo'yicha tajriba va bilimlarni almashtirishi hamda muloqot qilishi maqsadida ispan o'quv muassasalari yoki til sohiblari bilan onlayn anjumanlar yoki forumlar orqali aloqani o'rnatish; - O'z davlatlaridagi madaniy jihatlarini tadqiq qilishi va taqdim etishi uchun xorijiy talabalar bilan birgalikdagi loyihalarni yaratish.
10	Mustaqil o'rganishni rag'batlantirish	- Talabalarga ispan tili va madaniyatini mustaqil o'rganish uchun tavsiya etilgan kitoblar, filmlar, musiqa yoki saytlarning ro'yxatini taqdim etish; - Talabalar tomonidan dolzarb yangiliklar haqida xabardor bo'lishi hamda o'z madaniy bilimlarni boyitish maqsadida yangiliklar, ommaviy axborot vositalar va ijtimoiy tarmoqlarni kuzatishni rag'batlantirish.

O'yin elementlari va geymifikatsiya orqali qiziqarli va motivatsiya beruvchi ta'lim muhitni yaratilishi talabalarga ispan madaniyatiga chuqurroq sho'ng'ish hamda o'z ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishga imkon beradi. Ushbu holat ularning til bilish darajasida hamda umumiy o'quv motivatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'yin elementlari va geymifikatsiya orqali amalga oshirilayotgan o'quv jarayon talabalarga ispan madaniyatini samaraliroq o'rganish, ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish hamda ispan tili va ispan tilida so'zlashadigan mamlakatlarga qiziqishini rag'batlantira oladi.

Xullas, ispan tili va madaniyatini o'rganish jarayonida o'yin elementlar va geymifikatsiyadan foydalanish O'zbekiston oliygohlari talabalarida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishini sezilarli ravishda yaxshilashi mumkin. Geymifikatsiya talabalarning motivatsiyasini oshirish, kommunikativ ko'nikmalarni yaxshilash hamda ispan tili va madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini anglashga yo'l qo'yadi. O'yin elementlari, rolli o'yinlar, keys-stadi va virtual ekskursiyalar orqali talabalar ispan madaniyatini chuqurroq anglashi hamda o'rganilgan til ko'nikmalarni amalda qo'llashi mumkin.

O'yin elementlardan foydalanishi nafaqat talabalarning faol ishtiroki va jalb qilinishini rag'batlantiradi, balki tanqidiy fikrlash, muloqot ko'nikmalari va hamkorlikni rivojlantirishiga imkon beradi. Yangi materialni yaxshiroq o'zlashtirish va xotirada saqlab qolishiga yordam beruvchi o'yinlar orqali talabalar o'z bilimlarni asl vaziyatlarda qo'llashi, mustaqil qarorlarni qabul qilishi mumkin.

Bundan tashqari, interfaol veb-sahifalar, ilovalar va virtual hamkorlikdan foydalanish talabalarga ispan tili va madaniyatini auditoriyadan tashqarida o'rganish hamda til sohiblari bilan o'zaro faoliyatni olib borishiga imkon berib, ularning mustaqil o'rganishiga hissa qo'shadi. Kahoot kabi onlayn-platformani qo'llab, talabalar ta'lim jarayonida faol qatnashgan holda darhol teskari aloqa olishi mumkin. Geymifikatsiyaning keyingi tadqiqotlar va amaliy joriy etilishi O'zbekiston oliy o'quv muassasalarida ta'limning sifatini yaxshilashga, shuningdek, talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Umuman olganda, o'yin elementlari va geymifikatsiyadan foydalanish O'zbekiston oliygohlari talabalarida ispan tili va madaniyatini o'rganish jarayonida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishga samarali yondashuv bo'lishi mumkin. Ushbu yondashuv noodatiy fa interfaol o'qitishga imkon berib, talabalarning qiziqishini va motivatsiyani oshirishi bilan birgalikda yangi materiallarni chuqurroq tushunish va o'zlashtirishga yo'l qo'yadi.

Adabiyotlar

1.Dicheva, D., Dichev, C., Agre, G., & Angelova, G. (2015). Gamification in education: A systematic mapping study. *Educational Technology & Society*, 18(3), 75-88. URL: <https://www.jstor.org/stable/jeductechsoci.18.3.75> (murojaat sanasi 22.11.2023).

2.Hamari J., Koivisto J. and Sarsa H., Does Gamification Work? -- A Literature Review of Empirical Studies on Gamification, 2014 47th Hawaii International Conference on System Sciences, Waikoloa, HI, USA, 2014, pp. 3025-3034, <https://doi.org/10.1109/HICSS.2014.377>

3.Landers, R. N., & Landers, A. K. (2014). An Empirical Test of the Theory of Gamified Learning: The Effect of Leaderboards on Time-on-Task and Academic Performance. *Simulation & Gaming*, 45(6), 769-785. <https://doi.org/10.1177/1046878114563662>

4.Werbach, Kevin & Hunter, Dan (2012) For the win: How game thinking can revolutionize your business. Wharton Digital Press, United States. URL: https://www.researchgate.net/publication/273946893_For_the_Win_How_Game_Thinking_can_Revolutionize_your_Business (murojaat sanasi 22.11.2023)

Karimova Gulhayo Botirjon qizi

O'zbekiston davlat jismoniy
tarbiya va sport universiteti
Farg'ona filiali
Yakka kurash sport turlari
nazariyasi va uslubiyoti
kafedrasining o'qituvchisi

OLIIY TA'LIM MUASSASALARINING O'QUV JARAYONIDA FAOL INNOVATSION O'QITISH USULLARI

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'limi muassasasida faol o'qitish usullarini joriy etish zarurligi asoslab berilgan, "pedagogik innovatsiya" va "faol o'qitish usullari" tushunchalari ochib berilgan.

Yosh mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning maqsad va vazifalari innovatsion pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va qo'llash zarurligini nazarda tutadi. O'z navbatida, faol ta'lim usullaridan foydalanish zamonaviy ta'lim texnologiyalarining ajralmas qismi hisoblanadi. Maqolada faol o'qitish usullarini tadqiq qilish, ishlab chiqish va qo'llash haqida umumiy ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiyalar, pedagogik innovatsiya, faol o'qitish usullari, kasbiy faoliyat, kognitiv tadqiqot, taqlid, taqlid qilmaslik usullari, simulyatsiya usullari, simulyatsiya bo'lmagan usullar.

АКТИВНЫЕ ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Аннотация. В статье обоснована необходимость внедрения активных методов обучения в вузе, раскрыты понятия «педагогическая инновация» и «активные методы обучения».

Цели и задачи совершенствования профессиональной подготовки молодых специалистов предполагают необходимость разработки и использования инновационных педагогических технологий. В свою очередь, использование активных методов обучения является неотъемлемой частью современных образовательных технологий. В статье представлены общие сведения об исследовании, разработке и применении активных методов обучения.

Ключевые слова: инновационные технологии, педагогические инновации, активные методы обучения, профессиональная деятельность, когнитивные исследования, имитация, неимитационные методы, симуляционные методы, несимуляционные методы.

ACTIVE INNOVATIVE TEACHING METHODS IN THE EDUCATIONAL PROCESS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Abstract. The article justifies the need to introduce active teaching methods in a higher education institution, the concepts of "pedagogical innovatson" and "active teaching methods" are revealed.

The goals and tasks of improving the professional training of young professionals imply the need to develop and use innovative pedagogical technologies. In turn, the use of active learning methods is an integral part of modern educational technologies. The article provides general information about research, development and application of active learning methods.

Key words: innovative technologies, pedagogical innovatson, active learning methods, professional activity, cognitive research, imitation, non-imitation methods, simulation methods, non-simulation methods.

Kirish. Jamiyatning yuqori malakali mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishning dolzarb muammolarini hal qilish butun mamlakat uchun, xususan, mahalliy ta'lim uchun dolzarbdir. Jahon iqtisodiyotining rivojlanishi, o'quv davrida o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan sezilarli miqdordagi nazariy ma'lumotlar, universitet bitiruvchilariga yuqori talablar - bu omillar innovatsion texnologiyalardan foydalanish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Buning uchun yuqori natijalarga olib keladigan mashg'ulotlarning muayyan shakllari va usullarini diqqat bilan tanlash muhimdir.

"Innovatsiya" tushunchasi inglizcha "novation" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, yangilik, yangi narsani almashtirish degan ma'noni anglatadi.

Innovatsiya (inglizcha: innovatson) - tizim ichidagi o'zgarish; ijtimoiy amaliyotda sezilarli progressiv o'zgarishlarni keltirib chiqaradigan turli xil innovatsiyalarni yaratish va amalga oshirish.

Ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-boshqaruv, texnik va texnologik innovatsiyalar mavjud. Ijtimoiy innovatsiya turlaridan biri pedagogik innovatsiyalardir.

Pedagogik innovatsiya - pedagogik yangilik; alohida qismlar, tarkibiy qismlar va umuman ta'lim tizimining o'zini xususiyatlarini yaxshilaydigan ta'lim muhitiga innovatsiyalarni kiritadigan progressiv o'zgarishdir.

Innovatsion o'qitish usullari interaktiv va kompyuter texnologiyalarini o'z ichiga oladi. Interfaol ta'lim texnologiyalariga ma'ruzalar (ilmiy, ijtimoiy, kasbiy, integrativ va h.k.) va seminarlar (bahslar, ta'lim munozaralari, loyiha asosidagi ta'lim texnologiyalari va boshqalar) kiradi.

Innovatsion ta'limi texnologiyalari axborotni o'qituvchidan talabaga va aksincha, yig'ish, qayta ishlash, saqlash va uzatishni o'z ichiga oladi. Turli innovatsion texnologiyalarni joriy etish bilan bir qatorda, o'quv jarayonini amalga oshirishdan talabaga rivojlanayotgan shaxs sifatida zarur imkoniyatlarni har tomonlama ta'minlashga o'tishni o'z ichiga olgan o'z-o'zini rivojlantirishni rag'batlantirish uchun sharoit yaratish kerak. Natijada o'quvchi shunchaki ta'lim sub'ekti bo'lmay, balki kasbni egallash jarayonida o'zining ichki imkoniyatlarini kashf eta oladigan shaxsga aylanadi. Ushbu muammoni hal qilish usullaridan biri faol ta'lim usullarini joriy etishdir.

Pedagogik innovatsiya tahlili. Yo'naltirilgan yondashuv o'quv jarayonida o'qitishning faol shakllaridan foydalanishga imkon beradi, bu o'z navbatida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi va aqliy faoliyatini faol rivojlantiradi, bu esa o'quvchilarning zamonaviy hayotning o'zgaruvchan sharoitlariga tezda moslashishga yordam beradi.

O'qitishning eng ommabop usullariga guruhli o'qitish, o'yin texnologiyalari, loyiha usullari, keys texnologiyalari, talabalarning hissiy va psixologik yengilligiga olib keladigan ish turlarini kiritish kiradi. Ishonch bilan aytish mumkinki, tizimda qo'llanilayotgan sanab o'tilgan usullar talabalarning o'quv materialini o'zlashtirishida, shuningdek, aqliy faolligini oshirishda yuqori natijalarga erishishga yordam beradi.

Usullarni tanlashda muvaffaqiyatga bog'liq bo'lgan ko'plab shartlarni hisobga olish kerak: vazifalarni belgilash va mutaxassislarni tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari, o'rganilayotgan materialning mazmuni, o'quv jadvali va o'qituvchiga bo'lgan vaqt, shuningdek, talabalar tarkibining o'zgaruvchanligi va o'quv qurollarining xilma-xilligi. Ko'pchilik tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, tahliliy ko'nikmalar turli kognitiv tadqiqod mashqlari, vaziyatli o'yin topshiriqlari, muammoli vaziyatlarni yechish, turli musobaqalar, viktorinalar, bahslar, rolli o'yinlarda shakllanadi. Bularning barchasi talabalarning aqliy faoliyatini, ayniqsa, taqqoslash, solishtirish, tahlil qilish, bahslash, xulosa chiqarish qobiliyatini faollashtiradi, bu esa analitik operatsiyalarning faollashishiga olib keladi.

Bu yerda ta'lim jarayonida faol o'qitish usullari muhim o'rin tutadi. Faol ta'lim asosan talabalarning faol kognitiv va amaliy faoliyat jarayonida mustaqil bilim olish, ko'nikma va malakalarni egallashini tashkil etishga qaratilgan usullar tizimidan foydalanishni belgilaydi.

150 O'qitishning faol usullarini ishlab chiqish va qo'llashni ko'rib chiquvchi ko'plab tadqiqotchilar, ularni taqlid qilmaslik va taqlid qilishga yo'naltirilganligiga qarab ajratadilar.

Taqlid bo'lmagan usullarga muammoli ma'ruzalar, o'zaro suhbatlar, o'quv muhokamalari va vaziyatni tahlil qilish kiradi. Bu, shuningdek, talabaning sinfdan tashqari mustaqil ishi, izlanish laboratoriya ishlari, kitob bilan mustaqil ishi, o'quv matni, ma'lumotnoma, konferentsiyalar, olimpiadalar, taqdimotlar va boshqalarni o'z ichiga oladi. Taqlit usullari kasbiy mahorat va ko'nikmalarni o'rgatishni o'z ichiga oladi va kasbiy faoliyatni modellashtirish bilan bog'liq - boshqacha aytganda, vaziyat simulyatsiya qilinadi, tegishli sharoitlar va kasbiy faoliyatning o'zi yaratiladi. Faol usullar o'yin simulyatsiyasi (rolli o'yin, ishbilarmon o'yinlar, amaliyot, simulyatsiya mashg'ulotlari) va o'yindan tashqari simulyatsiya usullariga bo'linadi, ular aniq vaziyatlarni tahlil qilish usuli, simulyatorlar, vaziyatli muammolarni hal qilish, mashqlar, individual topshiriqlarni (amaliy topshiriqlar) bajarishni o'z ichiga oladi.

Pedagogik innovatsining an'anaviy metodlardan asosiy farqi shundaki, ular fikrlash jarayonlariga faol ta'sir ko'rsatadi, talabalarning muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradi va o'rganishda kuchli rag'batlantiruvchi omil hisoblanadi. Bu talabaning o'zi tomonidan o'quv materialini mustaqil ravishda faol o'zlashtirishga qaratilgan muayyan usullar tizimi. Bu yerda o'qituvchi va talaba o'rtasida yaqin munosabatlar mavjud bo'lib, bu talabalarda kognitiv motivatsiyani shakllantiradigan faol o'rganishdir, lekin biz faoliyatga "majburlash" haqida emas, balki uni rag'batlantirish haqida gapirishimiz kerak, kognitiv faoliyatda shaxsiy faollikni shakllantirish uchun didaktik va psixologik shart-sharoitlarni yaratish kerak.

Tadqiqot natijalari. E.Y.Grudzinskayaning fikricha, faol o'qitish usullari talabalarning bilim faolligini rag'batlantiradigan usullardir. Ular asosan suhbatga asoslanadi, bu muayyan muammoni hal qilish yo'llari bo'yicha erkin fikr almashishni o'z ichiga oladi hamda talabalar faolligining yuqori darajasi bilan tavsiflanadi. Bu alohida pedagogik faoliyat bugungi kunda "eng yaxshi pedagogik amaliyot" sifatida e'tirof etilgan. Bu talablarga javob beradigan o'qitish usullariga evristik ta'lim, aqliy hujum, muammoli ta'lim, o'zaro munozara, loyiha usuli, qarorlar daraxti, rolli o'yinlar, biznes o'yin, biznes savat, forum, past ovozda suhbat kiradi.

Talabalar uchun faol ta'limdan foydalanish kognitiv faollikni rivojlantirish vositalaridan biridir. Muammoli va rivojlantiruvchi ta'limning amaliyotga tatbiq etilishi "faol" deb ataladigan usullarning paydo bo'lishiga olib keldi. Biroq, bu tadqiqotlar, qoida tariqasida, maktab ta'limi materiali bo'yicha olib borilganligi sababli, bu oliy ta'limiga faol usullarni joriy etishni qiyinlashtirdi, chunki oliy ta'limining o'quv jarayoniga ma'lum bir moslashuv mavjud edi. Qayd etish joizki, A.M. Matyushkin o'z asarlarida nafaqat talabalarning barcha turdagi o'quv ishlarida faol usullardan foydalanish zarurligini ta'kidlabgina qolmay, balki o'qituvchilar va talabalarning birgalikdagi faoliyati jarayonlarining mohiyatini to'liq ifodalovchi dialogik muammoli ta'lim tushunchasini ham kiritdi. Talabalar, shuningdek, ularning "sub'ekt-ob'ektiv" munosabatlari doirasidagi o'zaro faoliyati, shuning uchun tashqi dunyo ob'ektlari bilan aloqada bo'lgan odam ularni tan oladi va dunyoni bilish (o'rganish va o'z-o'zini o'rganish) va unga ta'sir qilishning amaliy tajribasi bilan boyitiladi. Yuqorida aytilganlar va olimlarning muammoga pedagogika nuqtai nazaridan yondashuvlariga asoslanib, faol o'qitish usullarini o'quvchilarning bilim faolligini rivojlantirish vositasi sifatida boshqarishda foydalanish uchun eng qiziqarli bo'lgan 3 toifaga bo'lish mumkin. Bular dasturlashtirilgan ta'lim usullari, muammoli ta'lim, interaktiv (kommunikativ) ta'limdir. Biz bitta faol o'rganish usulini ko'rib chiqamiz - interaktiv. Interfaol o'qitish usullari shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga ko'proq mos keladi, chunki ular birgalikda ta'limni (jamoaviy, hamkorlikda o'rganish) o'z ichiga oladi, shu bilan birga talaba ham, o'qituvchi ham ta'lim jarayonining sub'ektlari hisoblanadi. O'qituvchi ko'pincha faqat o'quv jarayonining tashkilotchisi, guruh rahbari, yordamchi va talabalar tashabbusi uchun sharoit yaratuvchisi sifatida ishlaydi. Interfaol ta'lim talabalarning shaxsiy tajribasiga, ularning o'zlashtirilayotgan kasbiy tajriba sohasi bilan bevosita o'zaro ta'siriga asoslanadi. Interfaol ta'lim texnologiyalarini joriy etish orqali o'qitish ta'lim jarayonining odatdagidan farq qiladigan mantiqiylikni nazarda tutadi.

Xulosa. Faol ta'lim usullari o'quvchilarni o'quv materialini o'zlashtirishda faol fikrlash va mashq qilishga undaydi. Faol ta'lim usullarining o'ziga xos xususiyatlari shundaki, ular amaliy va

aqliy faoliyatni rag'batlantirishga asoslangan bo'lib, ular yo'q bo'lganda bilimlarni o'zlashtirishda muvaffaqiyatga erishmaydi. Faol metodlarning paydo bo'lishi va shakllanishi o'qitish oldiga yangi vazifalar qo'yilishi bilan bog'liq: talabalarga nafaqat bilim berish, balki kognitiv qiziqish va qobiliyatlarni, ijodiy fikrlash, mustaqil aqliy mehnat ko'nikma va malakalarini yaratish va shakllantirishni ta'minlash. Faol ta'lim an'anaviy ta'limdan bir qator xarakterli xususiyatlar bilan ajralib turadi, bu birinchi navbatda talabalarning aqliy faoliyatini faollashtirishni o'z ichiga oladi. Faol ta'lim - bu pedagogik (didaktik) va tashkiliy va boshqaruv vositalaridan keng, asosan kompleks foydalanish orqali talabalarning o'quv va kognitiv faoliyatini har tomonlama faollashtirishga qaratilgan o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazishdir. Shunday qilib, pedagogik yangiliklarni o'zlashtirish va faol o'qitish usullarini joriy etish oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilarining muhim vazifasi hisoblanadi. O'quv jarayonida evristik, ijodiy maqsadlarni qo'yish mutaxassislar tayyorlashning butun tizimini jiddiy qayta qurishni talab qiladi. Reproduktiv faoliyatdan talabalarning samarali, mustaqil ishiga e'tiborni o'tkazish orqali o'qitishning eng yangi usullarini joriy etish, o'qitish mazmunini moslashtirish va o'quv vaqtini qayta taqsimlash kerak. Shuningdek, siz o'qituvchilarni qayta tayyorlashga va ularning shaxsiy rejalari mazmuniga zarur o'zgartirishlarga e'tibor qaratishingiz kerak.

Adabiyotlar

1. Grudzinskaya E. Yu. Oliy ta'limda faol o'qitish usullari. "Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari" malaka oshirish dasturi uchun o'quv-uslubiy materiallar / E. Yu. Grudzinskaya, V. V. Mariko // Nijniy Novgorod: Nijniy Novgorod davlat universiteti nashriyoti. N.I.Lobachevskiy, 2007. 182 b.
2. Kluster D., tanqidiy fikrlash nima? / D. Kluster // Peremena: O'qish va yozish orqali fikrlashni rivojlantirish bo'yicha xalqaro jurnal. 2001. No 4. 36–40-betlar.
3. Ogoltsova E.G., Xmel'nitskaya O.M., "Talabalarning kognitiv faoliyatini rivojlantirish vositasi sifatida faol ta'limni shakllantirish" // Zamonaviy sharoitda oliy kasbiy ta'lim sifatini rivojlantirish. Mintaqaviy ilmiy-amaliy internet konferensiya materiallari. – 2009 yil – 129-133-betlar
4. Retivkykh M.V., Simonenko V.D., "Kasb-hunar ta'limi" mutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar uchun darslik: 2 kitobda // Bryansk: Bryansk davlat universiteti nashriyoti, 2003. - 1-kitob - 174 p.
5. Panfilova A.P., O'qituvchi faoliyatida o'yinni modellashtirish: darslik. talabalar uchun yordam yuqori _ darslik muassasalar/A.P. Panfilova; umumiy ostida ed. V.A. Slastenina, I.A. Kolesnikova. – 3-nashr, rev. – M.: "Akademiya" nashriyot markazi, 2008. – 368 b.
6. Abidovich, Toshtemirov Otabek. "Modern pedagogical mechanisms of the growth of physical culture among the students trained in the higher education system of uzbekistan." European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 8.7 (2020).
7. Abidovich, T. O., and A. A. Adxamjanovich. "Modern socio -pedagogical necessity of increasing communicative competence of future physical education teachers." *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal* 10.5 (2020): 52-57.
8. Абидович Т. О. Научно-педагогическая необходимость повышения компетентности учителей физического воспитания и спорта // Журнал современной философии, социальных и гуманитарных наук «Периодика». – 2023. – Т. 14. – С. 129-132.

Po'latova Shahnoza Ikrom qizi

O'zbekiston davlat jismoniy

tarbiya va sport universiteti

Farg'ona filiali o'qituvchisi.

polatovashahnoza744@gmail.com

KASB-HUNAR MAKTABLARIDA VOLEYBOL SEKSIYASI ISHINI REJALASHTIRISH

Annotatsiya: Ushbu maqolamiz voleybol sport turida olib borilayotgan mashg'ulotlar, berilayotgan yuklamalar, to'garaklarimizni qay tarzda va qayerda o'tkazilishi, "5 tashabbus" loyihalari, shug'ullanuvchilarni guruhlariga bo'lish tartibi, o'quvchilarni psixologik – pedagogik tayyorlash, musobaqa oldi jarayonlariga tayyorlanish va ishtirok etish, jismoniy tarbiya to'g'risida qarorlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Voleybol, jismoniy tarbiya va sport, seksiya ishi, me'yoriy hujjatlar, sport, umumiy jismoniy tayyorgarligi, jismoniy, mashg'ulotlar, terma jamoa, guruh, daraja.

ПЛАНИРОВАНИЕ РАБОТЫ ВОЛЕЙБОЛЬНОЙ СЕКЦИИ В ПТУ

Аннотация: В данной статье будут рассмотрены проводимые занятия по волейболу, задания, как и где будут проходить наши кружки, проекты "5 инициатив", порядок разделения занимающихся на группы, психолого – педагогическая подготовка учащихся, подготовка и участие в предсоревновательных процессах, решения по физической культуре.

Ключевые слова: волейбол, физкультура и спорт, секционная работа, нормативные документы, спорт, общая физическая подготовка, физкультура, тренировки, сборная, группа, уровень.

PLANNING THE WORK OF THE VOLLEYBALL SECTION IN VOCATIONAL SCHOOLS

Annotation: This article reflects on the activities carried out in the sport of volleyball, the downloads given, in what way and where our clubs will be held, projects "5 initiatives", the procedure for dividing participants into groups, psychological and pedagogical training of students, preparation and participation in pre – competition processes, decisions on Physical Education.

Keywords: volleyball, physical education and sports, section work, Regulatory Documents, Sports, general physical fitness, physical, training, national team, group, level.

Kirish. O'zbekiston Respublikasining amaldagi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning tashabbusi bilan tashkillangan "5 tashabbus" loyihalari O'zbekistonda voleybolni tubdan o'zgarishi va rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

Voleybol sport turi o'zining hamma bobligi, go'zal va betakrorligi, kattayu kichikka birdek yoqishi bilan yurtimiz shaharu-qishloqlarida, mahallayu-ko'chalarda, to'y va bayramlarda bahs-raqobat, sihat-salomatlik jismoniy va ruhiy barkamollik vositasi sifatida xizmat qilib kelmoqda. Voleybol sport turini futbol sport turidan kam yaxshi ko'rishmasa kerak meningcha.

O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgach, barcha sohalar kabi jismoniy tarbiya va sport ham tamomila yangicha maqom yo'nalishida shakllanib, jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Darhaqiqat, hukumatimiz rahbarligi ostida jismoniy tarbiya va sport rivojini xattoki davlat siyosati darajasiga chiqargani buning oddiy bir isbotidir. Hamdo'stlik davlatlari ichida mamlakatimizda birinchi bo'lib, "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" Qonun (1992, 2000, 2015), "O'zbekistonda

jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risida 2017-yil 3-iyundagi PQ-3031 sonli qarori qabul qilindi.

Voleybol sport turi barcha o'quv muassasalarda faqat to'garak, sport seksiya ishlari sifatida emas, endilikda mustaqillikka erishganimizdan so'ng jismoniy madaniyat darslariga darslik sifatida fan o'quv dasturiga ham kiritildi. Endilikda maktablarda, litsey, kollej hamda oliy o'quv yurtlarining asosiy qiziq sport turi sifatida alohida o'rin tutgan. Mustaqil vatanimizda hozirgi kunda 700 mingdan oshiq sportchilar, voleybol sport turi bilan muntazam shug'ullanib kelmoqdalar.

Asosiy qism. Har qanday sport seksiyasi o'z faoliyatini shu seksiyaning byurosi faoliyatini yo'lga qo'yish orqali izga soladi. Voleybol seksiya ishini tashkillashdan avval o'quvchilar uchun e'lon beriladi. Hamda seksiya ishi avvalo 3 guruhga bo'lib olib boriladi, ya'ni 1-kurs (tayyorlov guruhi - 18-22 nafar), 2-kurs (kattalar guruhi - 18 nafar) va 3-kurs (terma jamoa guruhi - 18 nafar) tarzida olib boriladi. Mashg'ulotlar haftasiga 2-3 marta 60-90 minutdan o'tkaziladi. Seksiyalarga yozuv sinfning jismoniy tarbiya tashkilotchilari orqali yoki maktabdagi e'longa ko'ra, sport seksiyalariga "Umumiy yozilish kuni" degan kunlari o'tkaziladi. Seksiyaga yozilgungacha o'quvchilar tibbiy nazoratdan o'tib bo'lgan bo'lishlari lozim. Musobaqalardan oldin yoki ma'lum kasallikdan tuzalgandan so'ng, seksiyaga qatnaydigan o'quvchi maktabning tibbiy xodimini yoki poliklinikaning tibbiy nazoratidan o'tishi zarur. Me'yoriy hujjatlarni asosan yillik reja, oylik reja, haftalik va kunlik rejalar bilan amalga oshirilib, mashg'ulotlar olib boriladi.

Tayyorlov guruhi – uchun mashg'ulotlar 60 daqiqa davom etadi. Mashg'ulot asosan kattalar guruhiga tayyorlov sifatida faoliyat olib boradi va haftasiga 2-3 marta mashg'ulot yetarli hisoblanadi.

Kattalar guruhi – uchun mashg'ulotlar birinchi yarim yil ichida 60 daqiqa, ikkinchi yarim yilidan boshlab 90 daqiqa olib boriladi. Ushbu guruhning asosiy vazifasi terma jamoa uchun tayyorlov vazifasini o'tab beradi.

Terma jamoa guruhi – uchun mashg'ulotlar 90 daqiqa davom etadi. Bu guruhdagi o'quvchilarga jismoniy yuklamalardan tashqari taktik sxemalar va uslublar alohida olib boriladi, sababi bu guruhdagilar asosan musobaqalarda ishtirok etish uchun tayyorlov guruhi hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi. Umumiy olganda sport seksiyasi o'quvchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligini oshirish, salomatligini mustahkamlash hamda voleybol sport turini targ'ib qilishdan iboratdir.

Tadqiqot vazifalari. Uning vazifasi o'quvchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligini oshirishdan iborat bo'lib, mashg'ulotlarida vosita sifatida maktab jismoniy tarbiya dasturiga kiritilgan o'quv materialidan foydalaniladi. Bu seksiyalarga asosan kichik va o'rta maktab yoshidagi o'quvchilar jalb qilinadi. Ayrim guruhlar faoliyati fakultativ tarzda tashkil qilinishi mumkin. Kasb-hunar maktablarida esa barcha kurs o'quvchilarini jalb qilish mumkin.

Kasb-hunar maktablari o'qituvchilari uchun sport seksiya mashg'ulotlari o'quvchilarni shug'ullantirish uchun ancha qo'l keladi, sababi kasb maktablari o'quvchilari yoshidagi farq umumta'lim maktablariga qaraganda sezilarli katta va nisbatan voleybolni tushunadiganlar anchagina bo'ladi orasida. Ikki yil davomida bimalol musobaqalar uchun sportchi tayyorlash mumkin deb hisoblasa bo'ladi.

Tayyorlov guruhi – uchun mashg'ulotlar 60 daqiqa haftasiga 2-3 kun davom etadi hamda asosan jismoniy madaniyat darslarida o'tiladigan mashqlardan bimalol foydalansa bo'ladi. Shu asnoda sentyabrda boshlangan sport seksiya toki aprel oyiga qadar davom ettirsa bo'ladi. May oyidan boshlab asta sekinlik bilan yangi mashqlarni qo'shimcha qilib olib borilsa bo'ladi. Asosan bu guruh uchun oldiga qo'yilgan asosiy maqsad jismoniy sifatlarni rivojlantirish va voleybol texnikalari hamda qoidalarini chuqur o'rgatishdan iborat.

Kattalar guruhi – uchun mashg'ulotlar birinchi yarim yil ichida 60 daqiqa haftasiga 3-4 kun mashg'ulotlar olib boriladi, ikkinchi yarim yilidan boshlab esa 90 daqiqa haftasiga 3-4 kun mashg'ulotlar olib boriladi. Bu guruhdagilar uchun asosiy maqsad shundan iboratki, asosan texnika hamda taktikaga tayangan holda mashg'ulotlar olib boriladi. Bundan tashqari taktik sxemalar ham qo'shimcha o'rgatib boriladi.

Terma jamoa guruhi – uchun mashg'ulotlar 90 daqiqa haftasiga 4-5 kun mashg'ulotlar olib boriladi. Mashg'ulotlarda asosan kuchli yuklamalarni oshirib boorish, taktik sxemalardan tortib musobaqada hakamlik darajasiga qadar nazariy tushunchalar berib boriladi. O'z nomi bilan

154 terma jamoa guruhi bo'lganligi uchun bu guruhdagi sportchi o'quvchilar asosan musobaqalarga tayyorlanadilar, ularning oldiga qo'ygan maqsadi bitta, musobaqalarda ishtirok etish hamda yaxshi natijalarga erishishdan iboratdir.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, barcha guruhlarda mashg'ulotlar asta sekinlik bilan olib borilgani bilan hamma guruhlar uchun o'z oldiga qo'ygan alohida vazifadan iboratdir. Agarda barcha mashqlardan aniq va unumli foydalansa, o'qituvchi yoki murabbiy ko'zlagan maqsadiga albatta erishadi. Jismoniy tayyorgarlikdan tashqari barcha guruhlar uchun alohida ruxiy tayyotgarlik ishlari ham olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Barcha guruh o'quvchi sportchilari bilan albatta haftada bir marotaba o'rtoqlik uchrashuvlari olib borilishi amaliyotda o'z isbotini topgan. Shuning uchun albatta barcha guruhlarda o'rtoqlik mashg'ulotlari olib borilish shart deb hisoblanadi, Bu sportchini musobaqalarga ham jismoniy, ham ruxiy hamda amaliyot vazifasini ham o'tab beradi.

Umuman olganda voleybol sport turi bilan shug'ullangan barcha o'g'il-qizlar birinchi navbatda o'zini sog'ligini mustahkamlaydi, qolaversa mamlakat sportini ham asta sekinlik bilan cho'qqi sari ildam qadam tashlashga majbur qilgan bo'ladi. Buni sababi qilib shuni ko'rsatishimiz mumkinki barcha sport sektsiyalari, sport maktablari hamda shu sport turiga ixtisoslashgan maktablarda olib borilgan mashg'ulotlar orqali yetishib chiqqan ko'plab sportchilar bir birlari bilan o'zaro ijobiy raqobat muhitini keltirib chiqaradi. Bundan faqatgina sport yutadi, mamlakat yutadi, bu orqali saviyali sportchilar ko'payadi.

Adabiyotlar

1. А.Абдуллаев, Р.Расулов, А.Хасанов. Умумий ўрта ва касб-хунар таълими тизимларида жисмоний тарбиядан синфдан ташқари ишлар// Ўқув қўлланма // Toshkent – 2009.-210 b
2. Po'latova Shahnoza Ikrom qizi. Voleybol bilan shug'ullanishning inson organizmiga ijobiy ta'siri. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10009881>. International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers
3. Voleybolchilar tayyorlash jarayonini boshqarish. issn 2181-351 volume 2, special issue 12 october 2023, <https://erus.uz/>
4. Pulatov A.A., Isroilov SH.X., Qurbanova M.A. Voleybol // J.T. III kurs talabalari uchun ixtisoslik fanidan ma'ruza matnlari. – T., 2003. - 44 b.
5. Po'latova Shahnoza Ikrom qizi Voleybol o'yini o'rgatishning pedagogik asoslari. Vol. 2 No. 11 (2023): Educational Research in Universal Sciences (ERUS).
6. Po'latova Shahnoza Ikrom qizi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya o'qituvchisi kasbining o'ziga xos xususiyatlari va talablari. E Conference Zone. 2022/11/22
7. Po'latova Shahnoza Ikrom qizi. Umumta'lim maktablarida o'quvchilarni jismoniy tarbiya o'qituvchisi kasbiga qiziqishini shakllantirish samaradorligini oshirish shartlari va metodlari. [vol. 2 no. 8 \(2023\): theory and analytical aspects of recent research](#).
9. Po'latova Shahnoza Ikrom qizi. Ways to determine students' interest and abilities in the profession of a physical education teacher. [2023: icde-turkey-jan](#)
10. Po'latova Shahnoza Ikrom qizi. Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarini jismoniy tayyorgarligini oshirishda sport to'garaklarining o'rni. [2022: icde-turkey-september](#).
11. Po'latova Shahnoza Ikrom qizi. Принадлежность к разным возрастным группам особенности тренировки волейболистов. ISSN 2181-0664 Doi journal 10/26739/2181-0664 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0850-2023-7-2>
12. Abidovoch, Toshtemirov Otabek. "Modern pedagogical mechanisms of the growth of physical culture among the students trained in the higher education system of uzbekistan." European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 8.7 (2020).
13. Abidovich, T. O., and A. A. Adxamjanovich. "Modern socio -pedagogical necessity of increasing communicative competence of future physical education teachers." *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal* 10.5 (2020): 52-57.
14. Абидович Т. О. Научно-педагогическая необходимость повышения компетентности учителей физического воспитания и спорта // Журнал современной философии, социальных и гуманитарных наук «Периодика». – 2023. – Т. 14. – С. 129-132.

MASHG'ULOTLARDA YOSH VOLEYBOLCHILARNI TAYYORLASHNING PEDAGOGIK - PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. Maqolada mashg'ulot jarayonida voleybol o'yinchilarining o'zaro qarashlari, psixologik holatlarini o'rganish orqali ularni musobaqaga tayyorlash yo'llari o'rganilgan.

Tayanch so'zlar: psixologik tayyorgarlik, voleybol, voleybolchilarni tayyorlash, psixologik hissiyotlar, musobaqaoldi vaziyatlar.

ПОДГОТОВКИ ЮНЫХ ВОЛЕЙБОЛИСТОВ К СОРЕВНОВАНИЯМ ИЗУЧЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ

Аннотация. В статье рассматриваются взгляды и отношение волейболистов во время их тренировок и способы их подготовки к соревнованиям.

Ключевые слова: психологическая подготовка, волейбол, тренировка волейболистов, психологические эмоции, предсоревновательные ситуации.

WAYS TO PREPARE YOUNG VOLLEYBALL PLAYERS FOR COMPETITIONS BY STUDYING THE PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF TRAINING

Annotation. The article explores the views and attitudes of volleyball players during their training and how to prepare them for the competition.

Key words: psychological preparation, volleyball, volleyball players training, psychological emotions, pre-competitive situations.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida malakali kadrlar tayyorlash, ta'lim jarayonini xalqaro standartlarga moslashtirish va boshqaruv tizimini raqamlashtirish, pedagogik va ilmiy salohiyatni yanada oshirish hamda ilmiy-tadqiqot ishlari sifatini tubdan yaxshilash, ilg'or xorijiy sport-ta'lim texnologiyalarining transferini amalga oshirish orqali yuqori natijalarga erishish bugungi kunning muhim shartlari dan biri hisoblanadi. Respublikada jismoniy tarbiya va sportni faol rivojlantirish, aholining barcha qatlamlarini, ayniqsa yoshlarni jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb qilish, jamiyatda sog'lom turmush tarzining foydasi va ustunligini keng targ'ib qilish, mamlakatda yaratilgan jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport infratuzilmasidan to'laonli va samarali foydalanishni ta'minlash, shuningdek, yanada takomillashtirish maqsadida aholining barcha qatlamlarini, ayniqsa yoshlarni jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan keng qamrab olishni ta'minlaydigan innovatsion shakllar va mexanizmlarni ishlab chiqish va joriy etishni tashkil etish;

- ilg'or jahon tajribasi asosida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirishni ilmiy-metodik ta'minlashni takomillashtirish;
- yangicha fikrlaydigan trener kadrlarni tanlash va tayyorlashni tashkil etish;
- innovatsion tafakkurli ma'muriy kadrlarni tayyorlash va tanlashni tashkil etish;
- sport tibbiyotini takomillashtirish, sog'lom turmush tarzini va sog'lom ovqatlanishni targ'ib qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- selektsiya yo'li bilan iqtidorli sportchilarni tanlash, selektsioner trenerlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini kuchaytirish;

156 - jismoniy tarbiya va ommaviy sportni, sog'lom turmush tarzini ommalashtirish ishlarini tashkil etish va amalga oshirish jarayonida axborotlashtirishning yuqori darajasini ta'minlash va multimedia mahsulotlaridan foydalanish;

- energiya va resurslarni tejaydigan texnologiyalarni faol joriy etish asosida davlat sport muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;

- jismoniy tarbiya va ommaviy sportni hamda sog'lom turmush tarzini ommalashtirish bo'yicha innovatsion chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish kabi bir qancha vazifalar turadi [2].

Bugungi kunda respublikamizning barcha hududlarida, hatto uzoq-uzoq qishloq manzillarida ham jismoniy mashqlar yoki sport turlari bilan shug'ullanishga barcha imkoniyatlar va shart-sharoitlar yaratilgan. Ta'kidlash joizki, yurtimiz bo'ylab ommaviy sog'lomlashtirish ishlarini jadallashtirishda sportning voleybol turi beqiyos ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat, voleybol Yer kurrasida eng ommaviylashgan sport turi deb tan olingan.

Bizga ma'lumki, sport o'yinlarida har bir o'yinchining jismoniy va ruhiy holati, jamoada o'zaro munosabatlar musobaqa natijasiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biridir. O'yinchilarning jismoniy va ruhiy tayyorgarlik holatlari o'zaro chambarchas bog'liq hisoblanadi. Mashg'ulot va musobaqalarga xos yuklamalar hajmi, shiddati va o'yin mazmuni mukammal shakllangan jismoniy hamda funksional imkoniyatlarni talab qiladi. Faqat shunday imkoniyatlarga asoslanilsa yuksak texnik-taktik mahorat musobaqa taqdirini belgilaydi. Shu bilan bir qatorda bugungi voleybolning yana bir ustuvor xususiyatlari shundan iboratki, har bir o'yinchi va jamoa jismoniy hamda texnik-taktik jihatlaridan yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'la turib, lekin ularning psixologik imkoniyatlari zaif bo'lsa, musobaqa davomida foydali natijaga erishish mushkul bo'ladi.

O'yin sharoitida bajariladigan texnik harakatlarning samarasi musobaqa sharoitida butunlay boshqacha bo'ladi. Shuning uchun musobaqa sharoitida bajariladigan harakatlarni nazorat qilish va baholashda turli usullardan foydalaniladi. Ekspert bahosi, video yozuvlar va boshqalar shular jumlasidandir [5].

Jumladan, ko'p yillik sport trenirovkasi jarayonida psixologik sifatlar va qobiliyatlarni shakllantirish masalasi boshqa tayyorgarlik turlari kabi ustuvor ahamiyat kasb etadi [3].

Psixologik tayyorgarlikning bosh maqsadi muhim psixik sifatlar – xotira, diqqat, hissiyot, tafakkur, ong, iroda, ko'rish kengligi va chuqurligi kabi xislatlarni mustaqil mashq qildirishdan iborat bo'lishi lozim. Bu borada shug'ullanuvchilarda matonat, shijoat, qat'iyatlik, zukkolik, «makkorlik» va ixtirochilik fazilatlarini shakllantirish lozim [4].

Psixologik tayyorgarlik uzoq muddatli pedagogik jarayon bo'lib, bunda psixik sifatlar nafaqat mashg'ulot va musobaqa jarayonlarida shakllantiriladi, balki ular maxsus uslub va vositalar (mashqlar) yordamida rivojlantirish talab etiladi.

Voleybolchilarni tayyorlash amaliyotida psixologik tayyorgarlik quyidagi ikki yo'nalishda olib boriladi [4]:

- umumiy psixologik tayyorgarlik;
- muayyan musobaqaga maxsus psixologik tayyorgarlik.

Voleybol maydonchasi gandbol, basketbol va tennis maydonlaridan nisbatan kichik bo'lgani va unda har bir jamoada 6 o'yinchining o'zaro tezkor va o'zgaruvchan vaziyatlarda harakat qilishi hamjihatlik, oraliq-vaqtni his qilish, tezkor fikrlash, o'z jamoadoshi va raqib harakatlarini tezkor payqash hamda idrok qilish va boshqa psixologik xislat (xotira, diqqat, tafakkur va h.k.)larning shakllangan bo'lishini talab qiladi.

Quyida berilgan psixologik test orqali trener har bir o'yinchining psixologik holatlarini o'rganish uchun juda qulay hisoblanadi.

T- jadval metodikasi (J.A.Po'latov)

Maqsad: Mazkur metodika asosida jamoada psixologik muhit, shaxslararo munosabat jarayonlari, guruh a'zolarining o'zaro qarashlari, ularda individual psixologik xususiyatlarinin o'rganish va aniqlash maqsad qilib olingan.

Materiallar: T-jadval, marker.

Ko'rsatma: Trener guruhda ishtirokchilarning barchasiga maxsus tayyorlangan T – jadvalini guruh a'zolarining har birini orqa yoqasiga qadab qo'yadi va jadval bo'yicha ijobiy va salbiy sifatlarimizni o'zaro yozib berish ko'rsatmasi beriladi. 30 daqiqa berilgan reglament vaqt ichida guruh a'zolari bir-birlarini navbat bilan ijobiy va salbiy sifatleri t-jadvalida qayd qilinadi. Belgilangan vaqt tugaganidan so'ng har bir ishtirokchilarning t-jadvali yig'ib olinadi. T-jadvalida keltirilgan har ishtirokchining ijobiy va salbiy sifatleri trener tomonidan tanishib chiqiladi hamda har bir ishtirokchilarning guruhda tutgan mavqei, o'zni haqida tavsif bilan tanishtiriladi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

T-jadval	
Ijobiy sifat	Salbiy sifat
Ijodkor	Ochko'z
Tashabbuskor	Jahldor
Kuchli	Yolg'onchi
Rostgo'y	Ikkiyuzlamachi
Mehribon	Baxil
Kamtar	Mansabparast
Shirinso'z	Xudbin
Saxiy	Qo'pol
Chaqqon	Sust
Harakatchan	Toshbag'r
G'amxo'r	Maqtanchoq
.....	

Voleybolchiga xos ushbu psixologik xislatlar mashg'ulotlar davomida o'z holicha ham shakllanishi mumkin. Masalan, shug'ullanuvchilarda jismoniy va funksional imkoniyatlar hamda texnik-taktik mahorat shakllangan sari, jamoa tarkibida mashg'ulot va musobaqalarda o'yin tajribasi ortgan sari ularda iroda, oraliq-vaqtni his qilish, ko'rish doirasi, to'pni yo'nalishi, tezligi, baland-pastligini oldindan bashorat qilish, vaziyatga mos va raqib taktikasi qarama-qarshi foydali taktikani tanlash xislatlari sayqal topib boradi. Agar bunday psixologik xislatlarning shakllanish mexanizmi va qonuniyatlari nazariy-uslubiy mashg'ulotlarda tushuntirilsa, amaliy mashg'ulotlarda ularni maxsus yo'naltirilgan mashqlar (farazlar, ishtirish, mo'ljal, ehtimollar va bashorat qilish mashqlari) yordamida shakllantirilib borilsa, foydali natija yanada salmoqliroq bo'lishi mumkin.

O'yin taktikasi va taktik fikrlash o'yinchining psixologik imkoniyatlari bilan bevosita bog'liqdir. Agar texnika (usullar-harakatlar texnikasi) o'yinchi organizmining markaziy (nerv sistemasi) va periferik-ijrochi organlari mahsuli bo'lsa, taktika (usul-harakat taktikasi, taktik kombinatsiyalar, taktik fikrlash, oldindan bashorat qilish va h.k.) oliy nerv faoliyati – intellektual va harakat birligining mahsulidir. Demak, psixologik-jismoniy, psixologik-funksional, psixologik-texnik va psixologik-taktik tayyorgarlik integral mazmunli mashg'ulotlarda shakllantirilishi maqsadga muvofiqdir.

Bo'lajak musobaqa o'tkazish joylari, iqlim sharoitlari, kun-tun bioritmi modellashtirilgan sharoitlarda o'zlashtiriladi.

Muayyan musobaqaga tayyorgarlik ko'rish o'ta murakkab va mas'uliyatli jarayondir.

Ma'lumki, har bir sportchi musobaqalarda ancha barvaqt va musobaqa oldi vaziyatlarda mahorati va tajribasidan qat'iy nazar, turli xil psixologik holatlar (lixoradka – talvasaga tushish, apatiya – tushkunlikka tushish, jangovor holat, hayajonlanish va h.k.)ga duchor bo'ladi. Agar o'yinchi va jamoa uchun bo'lajak raqibning o'yin va psixologik modeli (jismoniy, funksional, texnik-taktik, psixologik imkoniyatlar) yaxshi, batafsil tanish bo'lmasa, salbiy psixologik hissiyotlar kuchayishi, hatto o'z-o'zini boshqara olmaslikka olib kelishi mumkin. Shuning uchun

158 musobaqaoldi mashg'ulotlarda bo'lajak raqibning barcha imkoniyatlari, shu jumladan uning psixologik imkoniyatlari puxta o'rganiladi. Bunda videofilmlar, «sport razvedkasi» taqdim etgan ma'lumotlar va boshqa ma'lumotlardan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Imkoniyatlar va vaziyatlar o'zlashtirilganidan so'ng, ular modellashtirilgan mashg'ulotlar tarkibida mashq qilinadi.

Salbiy psixologik hissiyotlarni bartaraf etish va jangovor psixologik holatlarni shakllantirish uchun quyidagi mashq-formulalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

1. Musobaqaoldi vaziyatlarida ro'y beradigan salbiy holatlarni bartaraf etish:
 - menga tashqi va ichki «stress-qo'zg'atkichlar» ta'sir etmayapti, men ulardan xalos bo'ldim;
 - o'zimni a'lo his qilayapman;
 - ertangi musobaqa meni qiziqtirmaydi, men toza havo bilan nafas olayapman;
 - bugun tinch va osoyishta uxlayman, butun ichki a'zolarim, mushaklarim, diqqatim va xotiram chuqur dam oladi;
 - uyqudan a'lo kayfiyat, a'lo hissiyot, yorqin xotira bilan uyg'ondim;
 - o'rnimda bajargan qayishqoqlik va nafas mashqlarim kayfiyatimni yanada ko'tardi, o'zimni yengil his qilmoqdaman, «uchishga tayyorman»;
 - biroz yengil yugurganim, asta-sekin bajargan badantariya – chigilyozdi mashqlarim, toza nafas olish meni «qushdek» yengil qildi;
 - yuvinish mashqlari menga yangi kuch, a'lo kayfiyat va ishtahamni kuchaytirdi;
 - ertalabki modellashtirilgan yengil mashg'ulot meni a'lo «sport formasida» ekanligimni eslatdi;
 - tushlikdan so'ng biroz dam oldim, tanam, ruhim va mushaklarimning dam olganligi menga orom bag'ishladi;
 - musobaqa joyiga yetib keldim, asta-sekin kiyindim va yotib, ko'zim yumilgan holatda jangovor holatga erishish mashqiga kirishdim;
 - mening xotiram, nerv tolalarim, asabim, ichki a'zolarim osoyishta dam olmoqda;
 - nafaslarim ravon, yuragimni urishi me'yorida, mushaklarimda energetik zaxiralar jamlanmoqda;
 - raqibim kamchiliklari va zaif jihatlarini esladim, ko'z oldimga keltirdim, ularga qarshi kuchli va sirli imkoniyatlarim shaylandi;
 - hozir chigilyozdi, qayishqoqlik va maxsus o'yinoldi mashg'ulotida raqibga qarshi imkoniyatlarimni «charxlayman»;
 - o'yinoldi mashg'ulotida barcha imkoniyatlarimni raqib kamchiliklari, zaif jihatlarini va kutilmagan vaziyatlarga qarama-qarshi kurashga shaylantirdim;
 - jangovor holatga keldim, «jangga» tayyorman;
 - barcha imkoniyatlarim yuksak psixologik faollik asosida tayyor![4,5].

Xulosa qilib aytganda, voleybol o'yinchilarining mashg'ulot jarayonida o'zaro psixologik qarashlarini o'rganish orqali musobaqaoldi va musobaqa jarayonlarida kuzatiladigan psixologik faktorlar, ularni o'rganish, sport mashg'ulotlarini qiziqarli, optimal metodlar yordamida olib borish - kelajakda ushbu sport turi bo'yicha namunali, malakali, iqtidorli sportchi yetishib chiqishiga asos bo'ladi.

Maqoladagi izlanishlar tahlili shuni ko'rsatdiki, voleybolchilarning psixologik va texnik tayyorgarligi darajasi ko'plab omillar bilan belgilanadi: voleybolchilarning o'zaro qarashlari va bir-birlarini tushunib yetishlari, umumiy va maxsus tayyorgarlik ko'rsatkichlari, tezlikni kuchaytirish xususiyatlarini rivojlantirish, sakrash qobiliyati, motor reaksiyalari tezligi va qo'lning mushak kuchini oshirish, hujumni amalga oshirish va hokazolar. Tadqiqot natijasida olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, dasturlash ko'nikmalarini shakllantirish, o'yinchilar o'zaro bir-birlarini aniq tushungan holda va raqib bilan o'yinda harakat qilish paytida vosita harakatlarini tuzatish yangi yo'nalish, sport tayyorgarligi tizimini sifat jihatidan yaxshilash uchun qo'shimcha imkoniyatlar ochib beradi. Ushbu yondashuv sport mahorati o'sishi uchun muhim omil sifatida vosita harakatlarini boshqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Adabiyotlar

1. Сатторов А. Э., Ибрагимов А. К. Спорчиларда ҳиссий-иродавий сифатлар шаклланишининг психологик хусусиятлари // Ж. Психология. – №. С2. – с. 112-118.
2. Сатторов А.Е., Рустамов А. Пути укрепления здоровья студентов путем организации трехэтапных спортивных соревнований в Узбекистане //web of scientist: international scientific research journal. – 2022. – т. 3. – №. 02. – с. 1121-1127.
3. Родионов А.В. Психофизическая тренировка. М.: тоо дар, 1995.
4. Гаппаров З.Г. Спортивная психология. - Т.: ооо «Меҳридарё», 2009.
5. Ashrapovich, N. F. (2022). Forms of control over the professional and pedagogical activity of the trainer and its pedagogical significance. Web of scientist: international scientific research journal, 3(1), 372-379.
6. Azimovna, F. M. (2021). The quality assessment technology and development techniques in volleyball players. Web of scientist: international scientific research journal, 2(04), 242-248.
7. Савенков Г.И. Причинная обусловленность осознанной регуляции двигательных действий при формировании интеллектуальной готовности спортсмена. / Материалы V международной научно-практической конференции психологов физической культуры и спорта «рудиковские чтения» (2-5 июня 2009 г.). - м: «Анита пресс», 2009. -с. 22-25.

OLIY TA'LIMDA MUTAXASSISLIK FANLARNING ELEKTRON-DASTURIY VA METODIK TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: Maqolada talabalarni kasbiy faoliyatga tashyorlashda, umumkasbiy fanlar blokidagi "Materialshunoslik (materialshunoslik va konstruksion materiallar)" fanidan talabalarni tasavur qilish imkoni bo'lmagan mavzular bo'yicha tayyorlangan 3D animatsiyalar, virtual reallikni loyihalash, matematik modellash, axborotlarni aks ettirish nazariyasi, kompyuter muhitini his qilishning asosiy tamoyillari asosida elektron darslik ishlab chiqilganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan

Kalit so'zlar: kredit-modul, model, komponent, uzluksiz nazorat va monitoring, elektron platforma, dasturiy ta'minot, innovatsion, kreativ, kommunikativ, sillabus, tamoyillar.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЭЛЕКТРОННОГО ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ И МЕТОДИЧЕСКОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРОФИЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: В статье при подготовке студентов к профессиональной деятельности используются 3D-анимация, проектирование виртуальной реальности, математическое моделирование, теория отражения информации, компьютерная среда, подготовленная по темам, которые студенты не могут себе представить из предмета «Материаловедение (материаловедение и конструкционные материалы)». » в блоке общепрофессиональных наук. Представлена информация о разработке электронного учебника, основанного на основных принципах восприятия.

Ключевые слова: кредитный модуль, модель, компонент, непрерывный контроль и мониторинг, электронная платформа, программное обеспечение, инновационный, творческий, коммуникативный, учебный план, принципы.

IMPROVEMENT OF ELECTRONIC SOFTWARE AND METHODOLOGICAL SUPPORT OF SPECIALIZED SUBJECTS IN HIGHER EDUCATION

Abstract: In the article, 3D animation, virtual reality design, mathematical modeling, information reflection theory, and a computer environment prepared on topics that students cannot imagine from the subject "Materials Science (Materials Science and structural materials)" are used to prepare students for professional activities. " in the block of general professional sciences. Information is provided on the development of an electronic textbook based on the basic principles of perception.

Keywords: credit module, model, component, continuous control and monitoring, electronic platform, software, innovative, creative, communicative, curriculum, principles.


Kirish. Dars mashg'ulotlarini amalga oshirish jarayonidagi tizimli tahlillar va kuzatishlardan ayon bo'ldiki "Texnologik ta'lim" yo'nalishi talabalarini kredit-modul tizimi asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish real holatdagi o'quv-metodik va didaktik ta'minoti hamda moddiy-texnik bazasi respublikamizda bugungi kunning innovatsion talablariga javob bera oladigan kompetentli pedagogik kadrlar tayyorlash darajasida shakllantirilmagan. Yuqorida ta'kidlangan fikrlar asosida dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar hamda talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishning didaktik imkoniyatlarini dasturlashtirilgan ta'lim vositalari orqali

rivojlantirish maqsadida “Materialshunoslik (Materialshunoslik va konstruksion materiallar)” fanining elektron-dasturiy va metodik ta’minoti ishlab chiqilib, qayta optimallashtirilib, amaliyotga tadbiq qilindi.


Oliy ta’lim muassasalarining “Texnologik ta’lim” yo’nalishi o’quv rejasidagi “Materialshunoslik (Materialshunoslik va konstruksion materiallar)” fanining mazmuni, fanni o’qitishdan maqsad – talabalarga materialshunoslik va konstruksion materiallar bo’yicha bilimlarning nazariy asoslarini, metall va metalmas materiallarning tuzilishi, ularning xossalari, qotishmalar nazariyasi, qora va rangli metallar, nometal materiallar, hamda metallarni termik va kimyoviy termik ishlov berish, metallarni korroziyalanishini oldini olish, konstruksion materiallarni ishlab chiqarishning innovatsion usullari, ularning xossalarini takomillashtirish hamda detallar tayyorlash to’g’risida, metallarni payvandlash, kesish va kavsharlash, kesib ishlash asoslari, metalmas materiallar va ulardan detallar tayyorlash texnologiyasiga oid materiallar bilan tanishtirib, ularni amaliyotga tadbiq etish ko’nikmasini hosil qilishdan iborat bo’lib, misol sifatida ta’kidlash joizki “Cho’yan olish usullari” mavzusini o’qitishda talabalar domna pechini ko’rmasdan, unda bajariladigan va amalaga oshiriladigan texnologik jarayonlarni qanday tasavvur qilishi mumkin.

Bizga ma’lumki domna pechi respublikamizning metall ishlab chiqarish va unga qayta ishlov berishga ixtisoslashgan korxonalar mavjud emasligi va ta’lim muassasalarining o’quv jarayonida domna pechidan foydalanish imkoniyati yetarli darajada emas.


60112300 - Texnologik ta’lim yo’nalishi o’quv rejasining majburiy fanlar blokidagi “Materialshunoslik” fanining o’qitish bo’yicha dasturiy metodik ta’minoti ishlab chiqilib, tajriba-sinov dars mashg’ulotlari ushbu dasturiy metodik ta’minot asosida o’tkazildi va o’quv jarayoniga amaliy tadbiq etildi. Quyida Materialshunoslik (Materialshunoslik va konstruksion materiallar) fani dasturiy metodik ta’minoti komponentlari izohlangan.




1-rasm. “(Materialshunoslik va konstruksion materiallar) fani dasturiy metodik ta’minoti”ning komponentlari




2-rasm. “(Materialshunoslik va konstruksion materiallar) fani dasturiy metodik ta’minoti”ning ma’ruza mashg‘ulotlariga kirish jarayonidan lavha



3-rasm. “Materialshunoslik (materialshunoslik va konstruksion materiallar)”fani dasturiy metodik ta’minoti”ning amaliy mashg‘ulotlariga kirish jarayonidan lavha



4-rasm “Materialshunoslik (materialshunoslik va konstruksion materiallar)”fani dasturiy metodik ta’minoti”ning laboratoriya mashg’ulotlariga kirish jarayonidan lavha



6-rasm. “Materialshunoslik (materialshunoslik va konstruksion materiallar)”fani dasturiy metodik ta’minoti”ning taqqimotlariga kirish jarayonidan lavha

Domna pechlarida cho‘yan ishlab chiqarish bir necha bosqichlardan iborat murakkab texnik jarayonidir. Domna pechi 8-10 yil davomida uzluksiz ishlovchi shaxta pechi bo‘lib, hajmi 5000 m³ va undan ortiq bo‘lishi mumkin. Pechning tashqi qobig‘i po‘latdan tayyorlangan, ichki qismi esa shamot g‘ishtlar bilan o‘rab chiqilgan. Masalan, 1974 yildan boshlab Krivoy Rog metallurgiya kombinatida hajmi 5000 m³ li domna ishlayotgan. 1986 yilda Cherepovets metallurgiya kombinatida “Severyanka” deb atalgan domna pechi ishga tushirildi. Bu domna pechi dunedagi eng yirik pechlardan bo‘lib, hajmi 5580 m³, bo‘yi 100 metrdan ortiq, diametri 19

164 m bo'lib, zamonaviy avtomatik mexanizmlar bilan jihozlangan. Har sutkada 10000 -12000 t cho'yan ishlab chiqariladi.

Domna pechining asosiy qismlari bunker, kaloshnik, shaxta, raspar, zaplechnik, gorn va lishchatdan iborat. Lishchat grafit g'ishtli bloklar yoki yuqori sifatli shamot g'ishtlardan ishlanadi. Aglomerad, temir rudasi va flyus va koksdan iborat bo'lgan shixta maxsus ko'targichlar yordamida bunkerga pechning yuklash apparatiga yuboriladi. Kaloshnik qismidagi yuklash mexanizmining kichik va katta konuslari ketma-ket ochilib yopilganda shixta pechga tushadi. Mexanizmning bunday ishlashi natijasida, pechning ichidagi chang va tutun yuklash jarayonidan tashqariga chiqib ketmaydi. Domna pechiga yuklangan shixta pastga qarab harakat qiladi. Unga qarama-qarshi yo'nalishda yoqilg'ining yonish natijasida hosil bo'lgan gaz oqimi harakat qiladi.

Shlakning ajralishi uchun pechga flyus sifatida kiritilgan ohaktosh 900 °S temperaturali zonada CaO va CO ga parchalanadi. CaO raspar zonasida va boshqa begona jinslar bilan birikib, dastlabki shlak ajrala boshlaydi. Shlakda juda oz miqdorda FeO bo'ladi.

Ajraluvchi shlaklarning hosil bo'lishi shlakning kimyoviy tarkibi, suyuqlanish temperaturasiga bog'liq. Domna pechidan olinadigan asosiy mahsulotlarga cho'yan, shlak, domna gazi va koloshnik changi kiradi.

Domna pechidan olinadigan cho'yanlarning kimyoviy tarkibi va ishlatish sohalarga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi.

1. Qayta ishlanadigan cho'yan. Bu cho'yan domna pechida ishlab chiqariladigan cho'yanning 70 - 80 % ni tashkil etadi.

2. Quyma cho'yanlar domna pechida olinadigan cho'yanlarning 10-12 % ni tashkil qiladi. Bu cho'yan o'zining asosiy quyidagi xususiyatlari bilan ya'ni, oquvchanligining yuqoriligi, qotganda hajmining kam kirishishi, suyuqlanish temperaturasining pastligi, oson kesib ishlanishi bilan boshqa cho'yanlarga nisbatan afzaldir.

Quymakorlik cho'yanlarining GOST-4832-80 ga ko'ra LK-1 -LK7 markalari mavjud.

Maxsus cho'yanlar. Bu cho'yanlarning tarkibida Si, Mn ning miqdori odatdagi cho'yanlarga nisbatan ko'proq bo'ladi. Maxsus cho'yanlar uch turga bo'linadi, ya'ni yaltiroq cho'yanlar, ferromarganeslar va ferrosilitsiyalarga ajratiladi.

Yaltiroq cho'yanlarning quyidagi markalari 3Ch1, 3Ch2, 3Ch3, mavjud. Bu cho'yanlarning tarkibida 10-25 % Mn va 2 % Si bo'ladi.

Ferromarganes tarkibida 70-75 % Mn va 2,5 % gacha Si bo'ladi. Ferromarganeslarning quyidagi markalari mavjud. CMn10, CMn14, CMn 20 va boshqa. Ferrosilitsiyalar tarkibida kremniy (Si) 19-92 % bo'lib, qolgan qismi AL, Mn, Cr, C, S, P dan iborat. GOST 1415-78 ga ko'ra ferrosilitsiyning FS92, FS90, FS75L, FS75E va boshqa markalari bor. Maxsus cho'yanlar olinayotgan cho'yanlarning 1-2 % ni tashkil etadi. Maxsus cho'yanlardan po'latlar olishda temir oksidlaridan temirni qaytarishda qaytaruvchilar va ligerlovchi elementlar sifatida foydalaniladi.

Bog'lanuvchan cho'yanlar olish uchun oq cho'yan quymalari maxsus rejimda yumshatiladi. Domna gazi. Bu gazning tarkibida 26-32 % SO, 2-4 % H₂, 0,2-0,4 % CH₄, 8-10 % CO₂ va 56-63 % N₂ bo'ladi. Domna gazidan havo qizdirigichlarda, bug' qazonlarida va boshqa joylarda yoqilg'i sifatida foydalaniladi. Koks changi tarkibida 40-50 % gacha temir bo'ladi. Domna gazlari maxsus gaz tozalash apparatlaridan o'tkazilib, yig'ilgan chang aglomerat tayyorlovchi mashinalarida aglomeratga aylantiriladi.

Qayta ishlanadigan cho'yanlarning bir qismi mashinasozlik zavodlariga "chushka" deb ataluvchi quymalar (og'irligi 45 - 50 kg) tarzida yuboriladi.

Domna pechining texnik iqtisodiy ko'rasatgichlari

Domna pechlarining ishiga baho berish uchun uning bir sutkada qancha cho'yan ishlab chiqara olishini va buning uchun qancha yoqilg'i sarflanishini bilish lozim. Pechning asosiy texnik-iqtisodiy ko'rasatgichi uning foydali hajmdan foydalanish koefitsienti (Kf) va yoqilg'ining solishtirma sarflanish koefitsienti (Ke) orqali aniqlanadi.

$$Kf = \frac{V}{T}, \text{ m}^3/\text{t}$$

bu yerda: V - pechning foydali hajmi, m^3 , T - o'rtacha bir sutkada ishlab chiqarilgan cho'yan miqdori, t. Ko'pchilik domna pechlarida K_f teng 0,5 - 0,7 oralig'ida bo'ladi.

Domna pechlarida yoqilg'ining solishtirma koeffitsienti (K_e) ni aniqlash uchun yoqilg'ining bir sutkadagi sarfi (A) eritilgan cho'yan miqdori (T) bo'linadi. Domna pechlarining ish unumdorligini oshirish uchun shixta materiallarini suyuqlantirishga tayyorlash, aglomerat va okatish konsentrlardan foydalanish, qizdirilgan havo temperaturasi hamda bosimini ko'tarish bilan uni kislorodga to'yintirish va ish jarayonida temperaturaning bir me'yorda bo'lishini ta'minlash kabi kompleks ishlar olib borilmog'i lozim. Bundan tashqari og'ir ishlarni mexanizatsiyalashtirish va texnologik jarayonlarni avtomatlashtirgan holda boshqarish kabi ishlarga katta e'tibor berish kerak. Hozirgi vaqtda domna pechining texnik - iqtisodiy ko'rasatgichlarini hamda ish unumdorligini oshirish maqsadida tozalangan domna gazlarini to'g'ridan-to'g'ri domnaga haydashni yo'lga quyish masalalari ustida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Oliy ta'limda mutaxassislik fanlarni o'qitishda fanlarning elektron-dasturiy va metodik ta'minotini takomillashtirish orqali talabalarni tasavvur qilish imkoni bo'lmagan mavzular bo'yicha tayyorlangan 3D animatsiyalar, moddiy-texnik bazasi mavjud bo'lmagan laboratoriya mavzulari bo'yicha tayyorlangan virtual laboratoriyalar, talabalarni mustaqil ta'lim olishini yanada kengaytirishning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish maqsadida audio va vizual materiallar, virtual reallikni loyihalash, matematik modellash, konstruktorlik, axborotlarni aks ettirish nazariyasi, kompyuter muhitini his qilish psixologiyasi, didaktikaning asosiy tamoyillariga asoslangan elektron darslik ishlab chiqilib, ta'lim jarayonida amaliy qo'llash maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar

1. Muxamedov Sh.M., Yangi O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar // Евразийский журнал академических исследований, 3(8), 108–111. Извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/19727> DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.8268209>
2. Muxamedov Sh.M., Kredit-modul tizimi asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning takomillashtirilgan modeli // "Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar" jurnali. Buxoro. 2023 y. 3-son. – 169-176 b.
3. Методология совершенствования программы материаловедения на основе кредитно-модульной системы // International Congress on Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences. Bilbao, Spain. March 27th 2022 conferencezone.org. P.198-201
4. Muxamedov Sh.M., Organization of independent work on the subject "material designing" in the field of technological education in the credit-module system // "Journal of Contemporary Issues in Business and Government." (Web of science). 2021, Volume 27, Issue 4, Pages 144-154 10.47750/cibg.2021.27.04.016
5. Жўраев А. Р., Сайфуллаева Д. А., Бахронова Ш. Замонавий таълим технологиялар асосида ташкил қилинадиган шахсга йўналтирилган таълим жараёни // Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 8. – С. 169-176.

Samiyeva Surayyo Oripovna
Termiz davlat pedagogika instituti,
Boshlang'ich ta'lim nazariyasi
kafedrası o'qituvchisi.
surayyo2576@gmail.com

TABU VA EVFEMIZM O'ZBEK VA TOJIK TILLARIDA

Annotatsiya: Maqola o'zbek va tojik tillaridagi tabu va evfemizmlarni o'rganishga bag'ishlangan. Ushbu maqolada evfemizm boshqa lingvistik-madaniy belgi - tabu bilan taqqoslanadi. O'zbek va tojik tillarining tegishli birliklari faoliyatidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlashga alohida e'tibor qaratilgan. Maqola evfemizmning asosiy vazifalaridan birini taqiqlangan narsalar nomini almashtirishni ko'rsatadi, shuningdek, psixologik motivlarni tahlil qiladi, chunki lingvistik adabiyotda evfemizm masalalari, qoida tariqasida, tabu fenomeni bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Bu lingvistik hodisaning o'ziga xosligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Maqolada hozirgi o'zbek va tojik tillarida ijtimoiy evfemizmlarning amal qilish muammosi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: evfemizm, disfemizm, tabu, polineziya, xudo, argo, tilshunoslik, ibora, o'zbek tili, tojik tili, nutq madaniyati, dag'al so'zlar, muloyim so'zlar.

ТАБУ И ЭВФЕМИЗМЫ В УЗБЕКСКОМ И ТАДЖИКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация: Статья посвящена изучению табу и эвфемизмов в узбекском и таджикском языках. В данной статье эвфемизм сравнивается с другим лингвокультурным знаком – табу. Особое внимание уделено выявлению сходств и различий в деятельности соответствующих единиц узбекского и таджикского языков. В статье показано, что одной из основных функций эвфемизма является замена названий запрещенных вещей, а также анализируются психологические мотивы, поскольку в лингвистической литературе вопросы эвфемизма, как правило, рассматриваются в связи с явлением табу. Возможно, это связано с уникальностью языкового явления. В статье рассматривается проблема употребления социальных эвфемизмов в современных узбекском и таджикском языках.

Ключевые слова: эвфемизм, дисфемизм, табу, Полинезия, бог, сленг, лингвистика, идиома, узбекский язык, таджикский язык, культура речи, грубые слова, вежливые слова.

TABOOS AND EUPHEMISMS IN THE UZBEK AND TAJIK LANGUAGES

Abstract: The article is devoted to the study of taboos and euphemisms in the Uzbek and Tajik languages. In this article, euphemism is compared with another linguocultural sign - taboo. Particular attention is paid to identifying similarities and differences in the activities of the corresponding units of the Uzbek and Tajik languages. The article shows that one of the main functions of euphemism is to replace the names of prohibited things, and also analyzes psychological motives, since in linguistic literature, issues of euphemism are usually considered in connection with the phenomenon of taboo. Perhaps this is due to the uniqueness of the linguistic phenomenon. The article examines the problem of using social euphemisms in modern Uzbek and Tajik languages.

Key words: euphemism, dysphemism, taboo, Polynesia, God, slang, linguistics, idiom, Uzbek language, Tajik language, culture of speech, rude words, polite words.

So'nggi o'n yilliklarda tadqiqotchilarning evfemizatsiya muammosiga qiziqishi ortdi. Kishilik jamiyati taraqqiyotining turli bosqichlarida, ayniqsa, kishilik jamiyatining ibtidoiy

bosqichlarida ba'zi bir narsalar, harakatlar man etilgan. Ana shunday man qilish hodisasi **tabu** deb ataladi.

Tabu so'zi polineziya tilidan (Tinch okeandagi orollarda yashovchi ko'chmanchi elatlar tili) olingan bo'lib, shaxsiy va diniy odatlar jihatdan biror narsani man etish, jumladan, ma'lum hayvonni ov qilish yoki o'simlikni sindirishni man etish bilan bog'liqdir. Bu hodisa tilda ham uchraydi. Jamiyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida kishilar o'rtasida jin, arvoq va shunga o'xshash ilohiy narsalarga ishonish juda kuchli bo'lgan. Bunday xalqlar jin va arvoqlarga yaqin bo'lgan shaxs yoki predmetning nomi tilga olinmasa, ulardan saqlanish mumkin, deb o'ylashgan.

Tabu insoniyatning yozilmagan eng qadimiy qonuni sifatida ta'qiqlar vositasida paydo bo'lgan. Bu terminni ilk bor ingliz kapitani J.Kuk 1777-yilda qo'llagan. Polineziya tilidagi ma'nosi asli "**tapu**", **ta:** (ishoratlamoq, belgilamoq) va **pu:** (diqqatni tortuvchi, insonni chalg'ituvchi) deganidir. Tabu ta'qiqni, jamiyat rivojlanishining turli xil bosqichida yuzaga keladigan muhitni bildiradi. Turli xil shart-sharoitdan kelib chiqqan holda, bunday ta'qiqlar til asosida ham vujudga kelishi mumkin. Din yoki axloq ta'qiqlaridan farqli hisoblangan tabuning paydo bo'lish ildizlari ham uzoq tarix sahifalarida yashiringandir.

J.J. Varbotning ko'rsatishicha, "tabu" so'zi bizning zamonimizda ikki ma'noda qo'llaniladi:

- 1) ibtidoiy odamlarning diniy ta'qiqlari, ya'ni yuqori kuchlardan vujudga keladigan zararli oqibatlardan qochishni belgilash;
- 2) sotsial-siyosiy, tarixiy, madaniy, etnik yoki ta'sirchan dalillar o'zaro bog'liq belgilangan so'z qo'llashni ta'qiqlash (1,552).

J.J. Varbot keltirgan belgilarda diniy va sotsial tabular aniq keltirilgan. Shuningdek, I.S.Kon tabuni "diniy sanksiya bilan mustahkamlangan sotsial madaniy ta'qiq" deb belgilagan.

Qadimgi xalqlarda, shuningdek, hozir ham qabila bo'lib yashayotgan xalqlarda qabila boshliqlari o'lgandan keyin ularning narsalariga tegish, ularning nomini tilga olish man etilgan. Agar ularning narsalariga tegilsa yoki bu narsalarning nomi tilga olinsa, arvoqlar, jinlar urib ketadi, biror zarar yetkazadi, deb tasavvur qilganlar. Xuddi shuningdek, ayrim yirtqich, zaharli hayvonlarning nomlarini aytish ham man etilgan. Go'yo bunday hayvonlarning nomi tilga olingach, zarar etkazishi mumkin emish. Tabu tushunchasining qoldiqlarini hozir ham uchratish mumkin.

Masalan, musulmon ayollari orasida erlarini o'z ismi bilan chaqirishsa, bunday holat erga nisbatan hurmatsizlik sanalgan. Oqibatda, man etilgan so'zlar o'rniga tushunchani ifodalovchi boshqa so'zni ishlatish zaruriyati tug'iladi. Masalan: Er va xotinning evfemizmlari (tojik tilida-zanosh'o'i)

Tojiklar va O'rta Osiyoning boshqa xalqlarining urf-odat va an'alariga ko'ra, Oktyabr inqilobigacha va qisman undan keyin ham xotin erining ismini, er esa xotinining ismini to'g'ridan-to'g'ri aytmaydi: **dadosh, dadajonash, Otesh, ochesh, Onesh, buvesh, apesh**, lekin boshqasi yo'qligida murojaat shakli o'zgartiriladi (undovlar) - i hoy, ey. Agar oilada to'ng'ich farzand bo'lsa unda **dadoi Rahim (otai Rahim), ochai Malika (onai Malika)** ba hokazo. Hatto boshqalar oldida **er** mafhumini (tojik tilida **sho'**) shaklida emas, balki **sharik (shariki hayot) yo ki sherik, oshno, rafiq, on kas, un kas, onho; ayol (zan)** o'z qarindoshiga nisbatan: tojik tilida **pochoton, yazneton**; erkak o'z qarindoshlariga nisbatan ayoilini: **xo'jayin, xo'jayinzan, hamsaram, oila, sohibxonazan, kadbonu, yo kaybonu** deb bayon etiladi.

Shuningdek, bu tushunchalar adabiy nutqda shaklda **hambolin, hambistar, ba yak bolin sar mondan (zindagii yakjoya), hamqadami hayot, rafiqi hayoti** va hokazo ishlatiladi. Misol: Man turo hambolinam, behtarin rafiqi hayotam mepindoshnam, vale afsus! (2,14). Xo'jayin dar xona nestan, pagoh biyoed! (2,9). Bist sol meshavad, ki onho dar yak bolin sar memonad. (2,41).

e) Oilaviy evfemizmlar.

Ayollar nutqida er yoki xotin, ona, ota, aka-uka, opa-singil qarindoshlariga nisbatan qo'llanadigan maxsus so'z va iboralar ko'proq qo'llaniladi: **xusur** (kuyov va kelinning otasi), **xushdoman** (kuyov va kelinning onasi), **qayni** (kuyovning akasi), **qaysingil** (kuyovning singlisi), **avsun** (kuyov akasining xotini), **boja (qaysingilning eri)**: **In avsun man soyai maro**

168 **az devor taroshida gashtaast.**(2,17). Gov kunjoraro boja bojaro do'st medorad.(xalq maqollaridan).

Ana shunday man etilgan soʻzlar oʻrniga boshqa soʻzlarning ishlatilishi evfemizm deb ataladi.

Masalan: **qizamiq** soʻzi oʻrniga **gul** soʻzi, **chayon** soʻzi oʻrniga **eshak**, oti yoʻq soʻzlarining ishlatilishi evfemizm hodisalaridandir. Jamiyat taraqqiyotining keyingi davrlarida dagʻal, qoʻpol, noqulay soʻzlar oʻrniga yoqimliroq, muloyimroq, silliqroq soʻzlarni ishlatish hodisasi ham evfemizm koʻrinishlaridandir. Masalan, **oʻldi**(tojik tilida **"murd"**) soʻzi oʻrniga **vafot etdi(vafot kard)**, **qazo qildi(qazo kard)**, **dunyodan oʻtdi(az dunyo guzasht)**, **dunyodan ketdi(az dunyo raft)**, **jonini egasiga topshirdi(jonashro ba sohibash suporid)**, **koʻzi yumildi(chasm po'shid)** kabi soʻz yoki soʻz birikmalari ishlatiladi. Evfemizm adabiyotda stilistik vosita sifatida katta rol oʻynaydi. Jamiyatning baʼzi bir ijtimoiy guruhlar, mehnat qilmay tekinoxʻrlik bilan hayot kechiruvchilar, chunonchi, oʻgʻri, bezori va qimorbozlar oʻzlarining yomon niyatlarini boshqalardan yashirish uchun soʻzlarga har xil maʼno berib qoʻllaydilar. Bunday soʻzlarga **argo** deyiladi. Masalan, **ogʻirlamoq** soʻzi oʻrniga **ovqatlanmoq(tojik tilida- vazh ziyod kardan)**, **oʻldirmoq** soʻzi oʻrniga **sallasini olib kelmoq(tojik tilida sallaashro ovaridan)** soʻzlarini ishlatadilar.

Aksariyat hollarda tabular soʻz va iboralar, hatto ularning tavazzoʻ jumalari kabi lisoniy vositalar bilan ifodalanadi. Chunki tabu tushunchalar nutqda qoʻllanilganda odamlar oʻrtasidagi muloqot rozilikning jimjimador harakatlari va imo-ishora va mimikalardan foydalanishni yoqtirmaydi. Masalan, insonlar ongida azaldan mavjud boʻlgan **xudo, shayton, jin, dev, pari** ismlarini ifodalovchi tushunchalar muqarrar ravishda "shevo", "maleh" soʻzlari bilan almashtiriladi. Oʻta uzoq oʻtmishda odamlar tabiatning rivojlanish qonuniyatlari sir-asrorlarini hali bilmaganliklari uchun turli tabiat hodisalari oldida ojiz boʻlib, yaxshi hodisalar Axuramazda kuchlari, yomon hodisalar esa uning taʼsiri natijasidir, deb hisoblar edilar. Ahriman kuchlari. Bunday xususiyatga ega boʻlgan narsa va hodisalarga sigʻinish, ularga qurbonliklar keltirish. Masalan, "Oriono Hasrati Zardusht" tarixiy romani mualliflari Jumʼa Quddus, Muhammadrahimi Karim bu mavzuda quyidagicha tasvirlagan:

Tojik tilida faqat Ahuramazdo nomini ulugʻlash maqsadida oʻnlab evfemistik soʻzlar qoʻllangan boʻlib, ular Xudo soʻzining sinonimi hisoblanadi: **Ofarinanda, Pushtibon, Peshvo, Ahuro, Mazdo, Ashavon, Farahmand, Dubnanda, Pushtu panoh, Dodor, Nigahdoranda, Shinosanda, Patvaranda, Shahriyori dodgar, Nofireftor, Baxshandai dihissho, Baxshoishgar, Podoshrason, Nekikunanda, Sudmand, Neroʻmand, Dono, Chorasoz, Hastibaxsh, Sarvari geti va gʻayra** (3, 186).

Zardusht zohir boʻlib, jinlarni yolgʻon deb eʼlon qilganida, "Bu jinlarning hammasi xalqning oʻziga xos xunuk sifatlaridir (4,137). Biroq, ibtidoiy odamlarning fikricha, xudolarning ismlarini tilga olish va turli hodisalar xudolarning gʻazabini keltirib chiqaradi, ularning gʻazabi tufayli odamlarning hayoti, taʼlimi va faoliyatida muvaffaqiyatsizliklar va tartibsizliklar sodir boʻladi. Bu harakat tabu hodisasining boshlanishiga va uning kontekstida evfemizm paydo boʻlishiga sabab boʻldi. Tilshunoslar "evfemizmlar nutqda taqiqlangan soʻzlar oʻrniga qoʻllanadigan soʻz va iboralardir" (5, 58) deb hisoblaydilar. Yoki: "Tabu etnografik hodisa boʻlib, man qilmoq maʼnosini bildiradi (5, 57).

Dastlab, voqealar va baʼzi narsalarning nomlari tabu edi, chunki odamlar mifologik hikoyalarga ishonishgan. Ular ism, tushuncha va u ifodalagan narsa va hodisa oʻrtasida bogʻliqlik borligiga ishonishgan. Bunday tushuncha qadimgi Yunonistonda keng tarqalgan va Geraklit nomi bilan bogʻliq edi. "Tabu soʻzi (polineziya tilidan) - xurofotlar, diniy urf-odatlar va boshqalar taʼsirida aytish taqiqlangan yoki cheklangan soʻz, ibora yoki ibora". Tabu – etnografik hodisa boʻlib, u kishilar xulq-atvorining, diniy faoliyatining yoki xurofotning ayrim tomonlarini qonuniylashtirishga asoslangan boʻlib, predmetlar, harakatlar va soʻzlarning ochiq oqimiga cheklash va toʻsiqlar keltirib chiqaradi.

Tabu bilan bogʻliq evfemizmlar guruhiga quyidagilar kiradi:

a) **fantastik va mavhum (xayoliy) mavjudotlar o'rnida qo'llanuvchi evfemizmlar;** quyidagi so'zlar tojik tilining shevalarida va ayniqsa, haqiqiy ma'muriy-madaniy markazlardan uzoqda joylashgan xalq shevalarida tabuli tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladi. narsa, dev(Isfara-Tojikiston), pari - ziyon// ziyun); parivara - arqavara; devqomat- dev; qora(toj.siyohi) - jin; balo – g'ul; devon//degdon (yomon suq kirgan-tojik tilida suqi bad rasidan)- koz tegdi; aqldan begona bo'lgan(devona)- pari qo'shilgan; hatto xalq orasida maqollar ham mavjud: Gapi dev zadam, dev rasid. Misollar: Mo'ysafedro balo zadagi barin, yak tarafi ro'yash sip-siyoh.

Ziyon-zarar, oseb, ziyon olish-sar' kasaliga chalish: **In bacharo ziyon zer kardaast. Mullo chilyosin xonad, xudo xohad durust meshavad.** (3,22).

Xudo nomini ifodalashda – quyidagi evfemistik so'z va iboralar ishlatilgan : **Hastibaxsh, Yakto, Ofaridgor, Sarvari kulli geti, Xudoi dono;**

Hastibaxshi yakto, Ofaridgori yaktoi hasti, Sarvari kulli geti va jahoni neko'i, Xudoi dono-Ahuramazdost (3,284).

Islom dinida Illoh-Alloh nomi hurmat va ehtirom yuzasidan birnecha unvonlar ko'rsatilgan:

Rab - Xudovand – murabbi, tarbiyagari olamiyon:

Ki nigoh dor obi moro az xason,

Yo rab, on gavhar bad-on dare rason. (Rumi)

Rabbul'olamin:

O' miyon bastu biyomad to zamin,

To guzorat amri Rabbul'olamin. (Rumi)

Sone':

Chunki Sone' xost ejodi bashar,

Az baroi ibtidoi xayru shar. (Rumi)

Rahmon- baxshida, rahmkunanda:

On chi ba dasturii Rahmon dihand,

Kay zi payi g'orati shayton dihand. (Xusravi Dehlavi)

Xoliq xalqkunanda, ofarinanda;

Dodor – adolatpesha, odil; majozan Xudo:

Tug'roi suxan ba nomi dodor,

K – o' dod maro zi ishq ozor. (Shohin)

Ruh va xudo nomini tabulashtirish hozir ham Tojikistonning pomirik va afrikalik qabilalar o'rtasida mavjud.

b) zaharli hasharotlar va zaharli chaquvchilar bevfemizmi; unday harakatni tegishli otlar, hayvon nomlari, qishloqlar, tabiat hodisalari va shunga o'xshash so'zlar o'rniga ishlatilganda kuzatish mumkin.

Evfemizmi ifodalashning turli lisoniy vositalari mavjud bo'lib, ularni ko'rinish turlariga ko'ra quyidagicha ajratish mumkin: 1) nomlash usuli; 2) tarkibiy usuli; 3) uslubiy bo'yoq

Tabu etnik tushuncha bo'lib, qandaydir narsa yoki harakatning nomini aytishni man qilishdir. Bunday odatning tilga tatbiq qilinishi bilan lingvistik tabu yuzaga kelgan. Tojik tilida L.S. Peysikovning "Leksikologiya sovremennogo persidskogo yazika" asarida chayonning nomi tabulanib, uning o'rnida **"oti yo'q"(benom)** nomi yo'q, **ayiqqa** nisbatan **"kajpo"**, **tulkiga** nisbatan **"do'zde dumdaroz"**, **bo'riga** nisbatan **"jondor"** so'zlari ishlatiladi. Cho'chqa ham ziyon yetkazadigan va shariatda harom sanalgani uchun tabulashtirilgan. Uni Afg'nistonda **"jonvare bad"(o'zbek tilida yomon hayvon).** Bo'riga nisbatan Tojikistonda **"go'sfande safed"** (**o'zbek tilida oq qo'y**) (7, 46) nomlashadi.

Insonning nutq faoliyati axloqiy normalarga rioya qiladi. Axloqiy va madaniy jihatdan qo'llanishi ta'qiqlangan yoki noqulay deb topilgan so'zlar o'rniga boshqa so'z va iboralarning qo'llanishi evfemizmlar (grekcha euphemeo –"yumshoq gapiraman" ma'nosida) deb ataladi. Misol: yolg'on gapirmoq o'rnida xato gapirmoq, xato qilmoq iboralari qo'llaniladi. Evfemizmlarning ma'no va xususiyatlari turlichadir. Ular qo'llanish maqsadlariga ko'ra ham turlicha qiymatga ega bo'ladilar.

d) kasalliklar evfemizmlari; evfemizmlarning ma'lum qismi tabu bilan bog'liq bo'ladi. Evfemizmlarning ko'pchilik qismi axloqiy va madaniy jihatdan aytilishi noqulay deb topilgan so'zlar o'rnida qo'llanuvchi so'z va iboralardir. Masalan: jigar kasalliklaridan **qizamiq** o'rnida **oynoma** (Samarqand viloyatining ayrim tumanlarida), Tojikcha –o'zbekcha nomi **guli qazomuq**; **Nag'zak** kasalligi turkiy-o'zbekcha **chechak** o'rnida **gul, gul-gulak; sil, o'pka (tuberklyoz)** o'rnida **uzun og'riq; Tomog'og'riq xafakon –tojik tilida gulo'zindonak, (angina)** o'rnida **gulo'dard, pes** o'rnida **oq(safed); kal, siyqabosh** o'rnida **odamsar, tossar; cho'loq** o'rnida **ma'yub; sariqkasal zardparvin, zarda;** devona o'rnida noqisulaql, **xafakon** o'rnida –**nafasgir** ishlatiladi.

e) er va xotinlik evfemizmlari; xotin o'rnida **umr yo'ldoshi, rafiq, qalliq, oila; xotin olmoq** o'rnida **uylanmoq; qizimni erga beraman** o'rnida **qizimni uzataman, qizimni turmushga chiqaraman** kabi so'z va iboralarning qo'llanishi evfemizmdir.

Tabu va evfemizmlar nafaqat adabiy-badiiy asarlarda ishlatiladi, balki ularni qo'llash so'zlovchidan katta san'atni talab qiladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, evfemizmlar termini ostida qo'pol, beadab so'z, ibora va tabu o'rnida qo'pol botmaydigan so'z (ibora)ni qo'llash tushuniladi. Evfemistik iboralarning ishlatilishi ta'qiqlash natijasi emas, balki "ekspressiv-stilistik va ijtimoiy omillar" tufaylidir. Shunday millardan biri etika va xushmuomalalikka oid evfemizmlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq.

Eronshunos olim L.S.Peysikovning fikricha, bunday evfemizmlar fors tilida juda keng tarqalgan bo'lib, mazkur jamiyatda shakllangan axloq qoidalariga zid beadab so'z va iboralarni almashtirish uchun xizmat qiladi (6, 124).

Murojaatda xushmuomalalik, odob-axloq qoidalariga rioya qilish, kishining xatti-harakatiga munosabat bildirish yoki uni tavsiflash jarayonida betakalluf tuyulgan so'z va iboralarni mulozamat so'zlariga o'zgartirishga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, u yoki bu so'zni evfemistik qo'llash, uni maqbul variantga almashtirish nafaqat voqea-hodisaga munosabat bildirish istagi, balki gapirayotgan (bayon qilayotgan) yoki yozayotgan kishining huquqiy holat (status)iga ham bog'liq.

Adabiyotlar

1. Варбот Ж.Ж. Табу. Русский язык. Энциклопедия. – М., 1998. – С.552.
2. Икромй.Ч.Асарҳои мунтахаб. Чилди 2. –Душанбе: Адиб. 1987.-448.
3. Чумъа Қуддус, Муҳаммадраҳими Карим. Ориён. Ҳасрати Зардушт.-Душанбе.- 2007.-290
4. Кацев А.М. Языковое табу и эвфемия. СПб.: Просвещение, 1988. 80 .
5. Норматов М. Мукаддимаи забоншиносӣ. Душанбе: Маориф.1995.-176
6. Пейсиков Л.С.Лексикология современного персидского языка. – М.: Наука, 1975. – С.124
- 7.Зеленин Д.К. Табуитических слов у народов Северной Европы и Северной Азии.- М.: Высшая школа, 1929.
8. Азимов Юнус. Забони адабии ҳозираи тоҷик (Лексикология). Бухоро 2023.

O'QUVCHILARNING PRAGMATIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA YANGI AVLOD DARSlikLARINING AHAMIYATI

Maqolada "4K" modeli asosida yaratilgan yangi avlod darsliklari, ularning o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirishdagi ahamiyati haqida so'z boradi. "4K" modelining kommunikativlik tamoyili asosida o'qitish orqali o'quvchilarda pragmatik kompetensiyani shakllantirish bayon qilingan. Boshlang'ich sinf ona tili darsligidagi o'quvchilarda pragmatik kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan ayrim mashqlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: "4K" modeli, tamoyil, kritik (tanqidiy) fikrlash, kreativlik (ijodiy yondashuv), kommunikatsiya (muloqot qilish), kooperatsiya (jamoadi ishlash), pragmatik kompetensiya.

ЗНАЧЕНИЕ УЧЕБНИКОВ НОВОГО ПОКОЛЕНИЯ В ФОРМИРОВАНИИ ПРАГМАТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ

В статье говорится об учебниках нового поколения, созданных на основе модели «4к», их значении во всестороннем развитии учащихся. Описано формирование прагматической компетентности студентов посредством обучения по коммуникативному принципу модели «4к». Проанализированы некоторые упражнения, направленные на формирование прагматической компетентности учащихся по учебнику родного языка начальной школы.

Ключевые слова: модель «4К», принцип, критическое (критическое) мышление, креативность (творческий подход), коммуникация (коммуникация), сотрудничество (работа в команде), прагматическая компетентность.

THE IMPORTANCE OF NEW GENERATION TEXTBOOKS IN THE FORMATION OF PRAGMATIC COMPETENCE OF STUDENTS

The article talks about new generation textbooks created on the basis of the "4k" model, their importance in the comprehensive development of students. The formation of pragmatic competence of students through training according to the communicative principle of the "4k" model is described. Some exercises aimed at developing students' pragmatic competence using a primary school textbook in their native language are analyzed.

Key words: "4K" model, principle, critical (critical) thinking, creativity (creative approach), communication (communication), cooperation (teamwork), pragmatic competence.

Kirish. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida zamonaviy bilim va yangicha yondashuvlarga ehtiyoj mavjud. Shu bois, ta'lim sifatini oshirishda o'quv jarayonini davr talablariga mos holda tashkil etish, davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlarini takomillashtirish, yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish, zamonaviy innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, mavjud muammolarni bartaraf qilish ertangi istiqboldagi yutuqlarimiz kafolatidir.

Fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ko'plab ilmiy bilim, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib boradi. Bu, bir tomondan, fan-texnikaning yangi sohalari rivojlanishi tufayli uning differentsiallashtirishini ta'minlayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, fanlar orasida integratsiya jarayoni vujudga keladi.

Dinamik nuqtayi nazardan, ta'lim darajasining oshishi jamiyatda ish haqi tengsizligi, ishsizlik kamayishi Jahon banki o'tkazgan tadqiqotlarda isbotini topgan. O'quvchilarning maktabni mehnat bozoriga xos ko'nikmalar bilan tamomlashlari hamda kelajakda ularning

172 o'zlarini ish bilan ta'minlash, qo'shimcha ish o'rni yaratishlari o'rtasida bog'liqlik mavjud. Shundan kelib chiqib, Milliy o'quv dasturida ta'limni zamon bilan bog'lashga oid jihatlarni ko'rish mumkin.

XXI asr ehtiyojlariga ko'ra o'quvchida shakllanishi zarur bo'lgan ko'nikmalardan kelib chiqib, har bir fan oldiga aniq maqsad qo'yildi. Misol uchun, o'quvchida Ona tili fani orqali og'zaki va yozma muloqot ko'nikmalari, Matematika orqali mantiqiy fikrlash va muammolarga yechim topishi, Tabiiy fanlarda tadqiqotchilik ko'nikmasining rivojlanishi, Tarix fani orqali davrlarni solishtira olishi, shuningdek tarixiy hodisaning sabab va oqibatlarini aytib berishi, Tasviriy san'atda ijodiy fikrlashi va tasavvurini vizual aks ettirishi, Informatika fanida "foydalanuvchidan raqamli kontent ishlab chiqaruvchi"ni tayyorlash belgilab olingan. Yangi o'quv dasturida o'qitish metodikalari har bir fan kesimida o'quvchida kognitiv, ijobiy xulq-atvor va ijtimoiy-emotsional, tanqidiy va ijodiy fikrlash, ko'p savodlilik (o'qish, yozishdan tashqari axborot texnologiyalari savodxonligi hamda mediasavoxonlik), jamoada ishlash kabi ko'nikmalarini rivojlantirishga asoslangan.

2023-2024-o'quv yilidan boshlab amaliyotga joriy qilingan yangi darsliklarda nafaqat fanlar, balki 21-asrda zarur bo'lgan hayotiy ko'nikmalar ham o'rgatiladi, o'quvchilarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantiradi.

Yangi avlod darsliklari o'quv-metodik komplekslar (O'MK) asosini tanqidiy fikrlash, jamoaviy ishlash, ijodkorlik (kreativlik) va muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish (4K) tamoyili tashkil etadi.

Darslikdagi ma'lumotlar rang-barang rasmlar, grafikalar, sodd matnlar orqali berilgan. U o'quvchini zeriktirib qo'ymaydi, aksincha yanada qiziqtiradi.

1-3-sinflar uchun taqdim etilgan darsliklarning bir qismi kengaytirilgan reallik texnologiyalaridan foydalangan holda ishlab chiqilgan. Hozirgi bolalar zamonaviy texnologiyalarni bizdan yaxshiroq tushunadi. Shu sababli gadjetlar orqali ta'lim olish ularni fanga yanada qiziqtiradi.

O'quv metodik komplekslar faol o'quv jarayoni uchun to'liq materiallar to'plami: darsliklar, mashq daftarlari, o'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanmalarni o'z ichiga oladi.

Ayni damda kitoblar yosh psixologiyasini hisobga olgan holda, ishlab chiqilgan. Masalan, birinchi sinfda ta'lim jarayoniga ko'proq o'yin orqali yondashiladi, ma'lumotlar asosan ko'rsatish-vizual tarzda yetkaziladi.

Darslik va o'quv-metodik qo'llanmalarni nashrga tayyorlashda ularni mazmun va sifat jihatidan xalqaro talablarga qay darajada javob bera olishiga yanada jiddiy e'tibor qaratildi, amaliyotchi o'qituvchilar, fan metodistlari hamda salohiyatli olimlar tomonidan chuqur ekspertizadan o'tkazildi. Darsliklarni tayyorlashda o'quvchilarning yoshi va psixo-fiziologik xususiyatlari alohida inobatga olindi. Darslik mazmunida mavjud bo'lgan takrorlanishlar bartaraf etilib, xalqaro tajribaga tayangan holda darslikning dizayni va foto-illyustratsiyalariga o'zgartirish kiritildi. Yana bir e'tiborli holat shuki, fanlar kesimida fanlararo bog'liqlik hamda sinflararo uzviylik ta'minlanishiga yanada jiddiy e'tibor qaratildi. Darslik va o'quv metodik adabiyotlarning yangi avlodini yaratishda ular mazmuniga xalqaro baholash dasturi -TIMSS, PIRLS talablari o'quvchilar yoshiga mos tarzda chuqurroq singdiriladi.

Asosiy qism. Bugungi shiddatli globallashuv jarayonida ijodkor, keng dunyoqarash va tafakkurga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash masalasi har qachongidan ham ko'ra muhim maqsadga aylangan. Shu maqsadga amalga oshirish uchun ta'lim tizimiga xalqaro tajribalardan o'tgan, natijaviyligi yuqori darajada bo'lgan yangi innovatsion yondashuvlar joriy qilinmoqda. Boshlang'ich ta'limni innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etishda Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya, Estoniya kabi ta'lim tizimi rivojlangan mamlakatlarning tajribalari o'zganildi. O'ragnishlar natijasida bu mamlakatlarda o'quvchilarda "4K" tamoyilini o'z ichiga olgan XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratilishi aniqlandi. Natijada esa bu mamlakatlar PISA, PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallagan. Bu mamlakatlarning ta'lim jarayonida o'quvchilarda "4K"ni o'z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko'nikmalarga alohida urg'u berilgan. Ilg'or tajribalarni o'ranish, yangicha ta'lim tizimiga o'tish

maqsadida yurtimiz maktablarida ham 2023-2024-o'quv yilidan boshlab kritik (tanqidiy) fikrlash, kreativlik (ijodiy yondashuv), kommunikatsiya (muloqot qilish), kooperatsiya (jamoada ishlash) kabilarni o'z ichiga olgan "4K" tamoyili asosida ishlab chiqilgan yangi avlod darsliklari asosida ta'lim berilmoqda. Darsliklarni ishlab chiqishda xalqaro dasturlar tomonidan o'quvchilarning muvaffaqiyatlarini baholashda qo'llaniladigan namunaviy topshiriqlar o'rganib chiqildi va asos qilib olindi (PISA, PIRLS, TIMSS, EGMA, EGRA).

4"K" tamoyilning ahamiyatli jihati shuki, bunda quruq ma'lumotlarni yodlatish yoki shunchaki o'qish/yozishni o'rgatish bilan cheklanilmaydi. O'quvchilarning mantiqiy tafakkuri, ijodkorligi, kommunikativligi ustida ham ishlanadi. O'quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo'lgan hayotiy ko'nikmalarni ham o'rganadi.

2023-2024-o'quv yilidan "Ona tili" va "O'qish savodxonligi" darsi alohida o'qitiladi. Har bir fanni o'qitish natijasida o'quvchilarda bir qancha ko'nikmalar shakllanadi. O'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning nutq so'zlash ko'nikmasi rivojlantiriladi. Ular quyidagilar:

1. Adabiy talaffuz qoidalariga rioya qilgan holda ravon so'zlay olish.
2. Muloqot odobiga rioya qilish.
3. O'z fikrini bildirib olish.
4. Suhbat jarayonida savollar bera olish.
5. Asar mazmunini qayta hikoyalash, gaplarni to'g'ri tuzish.

O'quvchilarda bunday ko'nikmalarning shakllanishi kommunikativlikning rivojlanishiga xizmat qiladi.

"4K" modeliga asoslangan innovatsion yondashuvda o'quvchilarning muloqot qilish ko'nikmasini shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Kommunikatsiya (muloqot qilish)ni shakllantirish orqali o'quvchilarning quyidagi qobiliyatlari rivojlantiriladi:

- muloqotdan cho'chimaslik va muloqotni uyushtira bilish qobiliyati, savollar berish va ularga javob berishga tayyorlik.

- muloqot maqsadi va mazmuniga, shuningdek, suhbatdoshga moslashish qobiliyati;
- muloqotchanlik maqsadlariga erishishda verbal va noverbal vositalardan foydalanish qobiliyati;

- muloqot qoidalarini ma'nosini tushunish va ishonch darajasini oshirish;
- boshqa odamlarning fikrini tinglashni o'rganish;
- o'zining ijobiy obrazi shakllanishini ta'minlash;
- o'z fikr va his-tuyg'ularini ifodalash amaliyoti;
- taqdim etish, qabul qilish va qayta aloqani aks ettirish amaliyoti;
- o'z fikrlari va mulohazalarini aniq dalillash amaliyoti;
- katta va kichik jamoada boshqalar bilan ishlash amaliyoti.

Natijada o'quvchilar o'z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o'rganadi. Shu bilan birgalikda, o'quvchilarda pragmatik kompetensiya ham shakllanadi.

Pragmatik kompetensiya – o'quvchining nutq sharoiti, nutq vaziyatida, nutq uslublari (so'zlashuv, ilmiy, badiiy, publitsistik)dan oqilona, samarali foydalana olish malakasiga ega bo'lishini bildiradi.

Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan ona tili fani ko'p qirrali va murakkab fan hisoblanadi. Ona tili darslarida o'quvchilarning lug'at hajmi oshiriladi, nutq qoidalarining o'zlashtirilishiga e'tibor beriladi, fikrini ongli ravishda izchil bayon qila olish qobiliyati rivojlantiriladi, suhbatdoshiga munosib javob bera olish, eshitganlariga munosabat bildirish, og'zaki muloqot shakllarini bilish darajasi o'stiriladi, o'qish sur'ati, yozma nutq ko'nikmalari tarkib toptiriladi, kognitiv qiziqishlari shakllantiriladi, ularning dunyoqarashi kengaytiriladi.

Mazkur talablarni amalga oshirish uchun ona tili ta'limida pragmatik yondashuvga asoslangan turli nutq vaziyatiga mos fikr ifodalash imkonini beruvchi, o'zaro muloqotning samarali bo'lishiga xizmat qiluvchi o'quv topshiriqlar tizimini ishlab chiqish lozim.

O'quvchilarning darsga qiziqishi, bilim olishga intilishida ularga berilgan turli xil rag'batlar muhim ahamiyatga ega. Chunki rag'bat o'quvchilar uchun motivatsiya vazifasini bajaradi. Odatda

174 dars jarayonida savollarga to'g'ri javob bergani uchun o'quvchilarga rag'bat beriladi. Agar noto'g'ri javob bersa qandaydir tanqid yoki cheklovga uchraydi. Bu holat o'quvchilarning muloqotga kirishishda bir to'siq bo'ladi. Dars mashg'ulotida o'quvchini o'qituvchiga savol berishga undash juda muhim. Chunki o'quvchi qancha ko'p savol bersa uning dadilligi shuncha ortadi, muloqot qilishdan cho'chimaydi. Muloqot jarayonida javob savolning qanday berilganiga bog'liq bo'ladi. Fikrlash qobiliyati faqat savollarga javob berish qobiliyati bilan emas, balki ularni so'rash qobiliyati bilan ham belgilanadi. O'quvchilarda to'g'ri va mantiqli savol bera olish ko'nikmasini hosil qilish zarur. Bu kelajakda to'g'ri qaror qabul qiladigan fikrlovchi kishilarni tarbiyalash uchun juda muhim. O'quvchilar tomonidan o'qituvchiga savol berilsa, aksariyat holatda rag'batlantirilmaydi. Ona tili mashg'ulotlarida va boshqa fanlarda ham o'quvchilar, asosan, javob beruvchidir. Bu o'quvchilarda pragmatik kompetensiyaning shakllanishida katta to'siq bo'ladi.

Muhokamalar va natijalar. Ona tilining pragmatik ta'limida til bo'yicha bilimlar o'quvchi kundalik hayotida duch keladigan aniq hayotiy vaziyatlar bilan bevosita bog'langan holda beriladi. Ayniqsa boshlang'ich sinflarda beriladigan topshiriqlar o'quvchilarning hayotda ko'rgan, kundalik faoliyati bilan bog'liq voqea hodisalar bilan bog'liq. O'quvchilarning nutqiy vaziyatni to'g'ri, xolis baholay olishga yordam beradi.

Yangi darsliklarda o'quvchilarda pragmatik kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan ko'plab amaliy mashq va topshiriqlar berilgan. Masalan 2-sinf ona tili darsligining 13-betida berilgan 10-, 11- va 15-betidagi 14-mashqlar orqali o'quvchilarda pragmatik kompetensiyani shakllantirish mumkin.

10-mashq shartiga ko'ra o'quvchilar bitta tovush bilan farqlanadigan so'zlarni topib, ular ishtirokida uchtdan gap tuzishlari kerak. Mashq quyidagicha bajarilishi mumkin:

Dala – chala, bola – lola; gul – kul.

Havo aynib, yomg'ir yog'gani uchun daladagi ishlar chala qoldi. Bolalar adirdan quchoq-quchoq lola terishdi.

11-mashq. Matnni o'qing. Bir tovush bilan farqlanuvchi so'zlarni ajratib yozing.

O'zbekiston - ozod va obod diyor. Tabiati chiroyli. Ayniqsa, bahor fasli qir va adirlarida alvon lolalar ochiladi. Bolalar esa dovuchcha yeyish uchun o'rik shoxlariga osiladilar.

Matn o'qib tahlil qilinadi. Bir tovush bilan farq qiluvchi so'zlar aniqlanadi.

ozod – obod; lolalar – bolalar; ochiladi – osiladi.

Mashq topshirig'iga ko'ra so'zlarni bir-biridan farqlab turgan tovushlar tagiga chiziladi.

ozod – ohod; lolalar – bolalar.

Bundan tashqari matndagi *diyor, bahor, fasl, qir, adir, ochiladi, yeyish, o'rik, shox* kabi so'zlar ham bir tovush bilan farq qiladi: *diyor - diydor, bahor - nahor, fasl - nasl, qir - bir, adir-adib, ochiladi - sochiladi, yeyish - yemish, o'rik – o'rim, shox – shoh.*

14-mashq. Berilgan gaplarda bir tovushni almashtirish orqali gap mazmunini almashtiring.

Darsliknin 15-betida uchta gap va har bir gap uchun mos bo'lgan rasmlar keltirilgan. Gaplardagi almashtirish lozim bo'lgan harf ko'k rang bilan ajratib ko'rsatilgan.

Mazali non.

Uzoqdan katta bog' ko'rindi.

Bolg'a – duradgor uchun eng kerakli asbob.

O'quvchilar gaplarning mazmunini quyidagicha o'zgartirib yozishadi:

Mazali nok.

Uzoqdan katta tog' ko'rindi.

Bolta – duradgor uchun eng kerakli asbob.

Bir tovush bilan farq qiluvchi so'zlarning ma'nosini izohlash, farqini tushuntirish va ular ishtirokida gaplar tuzish topshirig'i bajarilishi bilan o'quvchida pragmatik kompetensiya shakllanadi.

Shuningdek, nutqda "Bu yoqqa kel!", "Bir kelgin!", "Bir kelib ket!" "Kelasanmi!", "Kelaqol!", "Keling-dal!", "Hoy, bu yerga!", "Ey, bu yoqqa!", "Menga qara(ng)!", "Bir daqiqa!" "Mumkinmi?" "Falonchi (jon/xon/aka/opa)!" kabi yuzlab ifodalar, har xil imo-ishoralar bor. Lekin

ular qanday nutqiy vaziyatda, kimga nisbatan ishlatilishi, qanday samara berishi jihatidan keskin farqlanadi.

Ona tili ta'limida pragmatik kompetensiyani rivojlantirish o'quvchida nutq vaziyatini to'g'ri baholashni, unga mos so'zlash shaxsiy sifatlarini qaror toptirishni ko'zda tutadi. Mashq va topshiriqlar yordamida o'quvchilarning faolligi tashkil etiladi va uning ijobiy motivlari (topshiriqlar, talablar, musobaqalar shaklida alohida va guruh faoliyati uchun turli xil vazifalar, namunalar va misollar ko'rsatish, muvaffaqiyatli vaziyatlarni yaratish) rag'batlantiriladi.

Xulosa. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning kommunikativligini rivojlantirish ustida ishlash o'qituvchining asosiy vazifalaridan biridir. Darsliklardagi topshiriqlar mazmuni ham o'quvchilarning o'z fikrini ifodalash, turli vaziyatlarni baholash, ma'lumotni yetkazish, harakatga undash, suhbatdoshga ta'sir qilishga yo'naltirilgan. Mashqlarni bajarish, matnlarni chuqur tahlil qilish o'quvchilarning nafaqat kommunikativligini, balki pragmatik kompetensiyasini ham rivojlantiradi.

Adabiyotlar

1. Kuranov S.D. Ona tili. 2-sinf uchun darslik. 1-qism. –Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023. – 88 bet.
2. M.E.Toirova. Ona tili. 4-sinf uchun darslik. 1-qism. –Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023. – 88 bet.
3. Olloqova O'g'iljon, M. (2022). Development of Students' Pragmatic Competence through Phonetic Knowledge. International Journal of Trend in Scientific Research and Development, 6(6), 1541-1545.
4. Mamanazarovna, O. O. (2023). Forming pragmatic competence through teaching students to communication. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(5), 720-723.

Jumayeva Habiba G‘aforovna
Buxoro davlat universiteti
boshlang‘ich ta‘lim kafedrası
stajyor-tadqiqotchisi
h.g.jumayeva@buxdu.uz
habibajumayeva89@gmail.com

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODIKASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘qitishning zamonaviy metodikasi, bugungi jamiyatda kichik maktab yoshidan boshlab bolalarning ijodiy faolligini rivojlantirishning dolzarbligi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodkorlik faoliyatiga o‘rgatishning pedagogik imkoniyatlari va ahamiyati, zamonaviy ta‘lim yondashuvlari asosida o‘quvchilar ijodiy qobiliyatini tashkil etish samaradorligi haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: o‘quvchi, o‘qituvchi, sinf, axborot, 4“K” modeli, elektron texnologiyalar, boshlang‘ich ta‘lim, o‘quv motivlari, tafakkur, xotira, intellekt, mantiq, inson, muammo, shaxs, tuyg‘u, pedagogika, yondashuv.

СОВРЕМЕННАЯ МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация: В данной статье рассматривается современная методика преподавания в начальных классах, актуальность развития творческой активности детей в современном обществе, начиная с младшего школьного возраста, педагогические возможности и значение обучения младших школьников творческой деятельности, на основе современных образовательных технологий. подходы. Установлено об эффективности организации творческих способностей студентов.

Ключевые слова: ученик, учитель, класс, информация, модель 4 «К», электронные технологии, начальное образование, мотивы обучения, мышление, память, интеллект, логика, человек, проблема, личность, чувство, педагогика, подход.

MODERN METHODOLOGY OF TEACHING IN PRIMARY CLASSES

Abstract: In this article, the modern methodology of teaching in primary classes, the relevance of developing children's creative activity in today's society from the age of small school, the pedagogical possibilities and importance of teaching primary school students to creative activities, based on modern educational approaches It is stated about the effectiveness of organizing students' creative abilities.

Key words: student, teacher, class, information, 4"K" model, electronic technologies, primary education, learning motives, thinking, memory, intellect, logic, human, problem, personality, feeling, pedagogy, approach.

Kirish. Respublikamizda 2020-yil 23-sentabrdagi yangi tahrirdagi “Ta‘lim to‘g‘risida” gi qonunni qabul qilinganligi, maktab ta‘lim tizimining ma‘naviy - axloqiy tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5712-son Farmonida 2030-yilga kelib xalqaro baholash reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta‘lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan Biz raqamli texnologiyalar asrida, ta‘lim karyerada muvaffaqiyat qozonishning, turmush farovonligini

oshirishning bosh omiliga aylangan davrda yashayapmiz. Zamonaviy ta'lim bizning nafaqat bilim va ko'nikmalarimizni belgilab beruvchi mezon, balki bizning dunyoqarashimizni, bizning dunyo taraqqiyotiga qo'shadigan hissamizni ham aks ettiruvchi muhim qadriyatdir.

Zamonaviy ta'lim dunyodagi tinimsiz o'zgarishlarga ko'nikkan, turli muammo va to'siqlarga tayyor turadigan professionallarning yangi avlodini shakllantirmoqda. Bunday ta'lim o'quvchilarni nafaqat amaliy ko'nikmalar bilan, balki o'quvchilarga bugungi kunda zarur bo'lgan zamonaviy kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan o'quv texnikalari bilan ta'minlaydi. Bugun dunyoda "ijtimoiy ko'nikmalar"ga (soft skills) ega bo'lgan mutaxassislariga ehtiyoj ortib, ayni paytda "kasbiy ko'nikmalar" (hard skills) o'zining birinchi darajali ahamiyatini yo'qotib bormoqda. Boshlang'ich sinflarda, ayniqsa, birinchi sinfda o'quvchilarga o'qitishda o'quvchining yoshi, fiziologik, texnikaviy axborot olish kerak Hozirgi davr o'qituvchi va o'quvchi oldiga katta talablar qo'yimoqda, bu talablarning eng asosiysi - darsning samaradorligi, uning sifatligi, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalariga, maktablardagi turli xil o'quv mashg'ulotlari, ularni tashkil qilinishi va u orqali o'quvchilarni turli bilim va ko'nikmalarni egallab olishidir. Bugungi kunda ta'lim jarayonini to'g'ri va samarali tashkil qilishda innovatsion texnologiyalar, texnik vositalarning, jumladan, zamonaviy kompyuterlarning o'rni beqiyosdir.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Zamonaviy ta'lim bugungi kun o'quvchilariga quyidagilarni o'rgatishi kerak: Kompleks vazifalarni hal qilish; Bilimlar, mantiq, tahlil, mushohadaga tayangan holda tanqidiy fikrlash, fikr-mulohazalarni shakllantirib, qaror qabul qilish; Ijodiy fikrlash; Insonlar bilan hamkorlik qilish; Jamoada ishlash; O'zining va boshqalarning emotsiyalarini (his-tuyg'ularini) to'g'ri baholash, ularni boshqarish, emotsional intellektga ega bo'lish; Diqqatni bir vazifadan boshqasiga tez qarata olish, moslashuvchan bo'lish.

Buning uchun ta'lim jarayonida "4K" modelini qo'llash kerak.

Yangi o'quv yilidan boshlab boshlang'ich sinf o'quvchilari yangi avlod darsliklari asosida ta'lim oladi. Darsliklarning asosiy xususiyatlaridan biri – ularning 4K tamoyili asosida ishlab chiqilganidadir. Ya'ni bu tamoyilda quruq ma'lumotlarni yodlatish yoki shunchaki o'qish/yozishni o'rgatish bilan cheklanilmaydi. O'quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo'lgan hayotiy ko'nikmalarni ham o'rganadi.

Yangi innovatsion yondashuvni O'zbekiston maktablarida joriy etishdan oldin xorijiy tajribalar ham o'rganildi. Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya, Estoniya kabi ta'limi ilg'or mamlakatlar o'quvchilarda 4K tamoyilini o'z ichiga olgan XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratadi.

4 "K" modeli

1. Kritik (tanqidiy) fikrlash (Critical Thinking);
2. Kreativlik (ijodiy yondashuv) (Creativity);
3. Kommunikatsiya (Communication);
4. Kollaboratsiya: (Collaboration:).

4K ko'nikmalar

Tanqidiy fikrlash, tahlil – topshiriqni alohida kichik vazifalarga bo'lish, masalalarni yechishning yakuniy algoritmlarini yaratish qobiliyati; baholash – kirish va chiqish ma'lumotlarining sifati va muvofiqligini baholash qobiliyati; tushuntirish – o'z nuqtayi nazarini dalillash, mantiqiy-bog'liq izchil matnlar qurish; maqsadlarni belgilash – erishish mumkin bo'lgan maqsadlarni to'g'ri shakllantirish, zarur ma'lumotlarni va uning yetarliligini aniqlash, shu asosda mustaqil xulosalar chiqarish qobiliyati; o'zini boshqara bilish – o'z-o'zini tekshirish, xulosalarni

178 tuzatish va mulohaza yuritish (refleksiya); modellash – amaliy vaziyatni sifatli tahlil qilish va vazifalarni hal qilish uchun vaziyatni mavhum modeli bilan almashtirish qobiliyati; o'rganilayotgan predmetga turli nuqtaliy nazardan qarash amaliyoti; kuzatish va o'lchovlarni rejalashtirish va amalga oshirish amaliyoti; muammolarni hal qilish malakalarini rivojlantirish; dalillarni ajrata olish, ularni shakllantirish va baholash qobiliyati; strategik fikrlash.

Kreativlik (Ijodkorlik) ko'nikmasi, qiziquvchanlik – tevarak-atrofdagi olamga qiziqish va u haqida ko'proq bilishga intilish, dunyo obyektlari o'rtasidagi sabab-natija munosabatlarini aniqlash, axborotni mustaqil izlash va o'z savollariga javob topish qobiliyati; tasavvur – ko'plab original va nostandart g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyati; optimallashtirish – maqsadga tez va samarali erishish uchun bir nechta usullarni solishtirish qobiliyati; g'oyalarni rivojlantirish - g'oyalarni turli nuqtaliy nazardan baholash, ularning kuchli va zaif tomonlarini izlash, o'zgaruvchan sharoitlarda va yangi ma'lumotlarning paydo bo'lishida o'z faoliyatini tezda qayta qurish qobiliyati.

Muloqot qilish ko'nikmasi, muloqotdan cho'chimaslik va muloqotni uyushtira bilish qobiliyati, savollar berish va ularga javob berishga tayyorlik, muloqot maqsadi va mazmuniga, shuningdek, suhbatdoshga moslashish qobiliyati; muloqotchanlik maqsadlariga erishishda verbal va noverbal vositalardan foydalanish qobiliyati; muloqot qoidalarini ma'nosini tushunish va ishonch darajasini oshirish; boshqa odamlarning fikrini tinglashni o'rganish; o'zining ijobiy obrazi shakllanishini ta'minlash; 'z fikr va his-tuyg'ularini ifodalash amaliyoti; taqdim etish, qabul qilish va qayta aloqani aks ettirish amaliyoti; o'z fikrlari va mulohazalarini aniq dalillash amaliyoti; katta va kichik jamoada boshqalar bilan ishlash amaliyoti.

Jamoaviy ishlash ko'nikmasi umumiy maqsadlarni o'z maqsadidek qabul qilish qobiliyati, ularga erishish uchun birgalikda harakat yo'nalishini qurish qobiliyati; ijtimoiy o'zaro ta'sir, ya'ni umumiy maqsadlarni muhokama qilish, muzokaralar olib borish, o'z harakatlarini boshqa odamlarning harakatlari bilan muvofiqlashtirish; o'z rejalari va g'oyalarini amalga oshirish uchun yetakchilik ko'nikmalarini va o'z jamoasini shakllantirish qobiliyatini rivojlantirish; o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish; mustaqillik va avtonomiya va tashabbuskorlik.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Ta'limni tashkil qilish shakllari o'quvchilar soniga qarab ta'limning jamoaviy, guruhli shakllari, kichik guruhlarda ishlash, juftliklarda ishlash va individual (yakka tartibda) ishlash kabi shakllari bo'ladi.

Jamoaviy ta'lim shaklida vazifalarni bajarish va muhokama qilishda butun sinf ishtirok etadi. Bunda "Ko'tarilgan qo'l qoidasi"ni qo'llash va unga rioya qilish, shuningdek, "Gapirayotganni hurmat qilish" tamoyillariga rioya qilish muhimdir. Bu shakl munozara va bahslar, ochiq muhokamalarga to'g'ri keladi.

Guruhli ta'lim shaklida sinflar 5–6 kishilik guruhlariga, jamoalarga bo'linadi. Bu shakl sinfda va sinfdan tashqari ishlashda, loyiha, tadqiqot va ijodiy faoliyatlarga mos keladi. Kichik guruhli shaklda o'quvchilar 3–4 kishilik uncha katta bo'lmagan guruhlariga bo'linadi. Bunday shakl ham sinfda va sinfdan tashqari ishlarda, loyiha, tadqiqot va ijodiy faoliyatlarda qo'l keladi. Shuningdek, bu shakl masala va vazifalarni muhokama qilish, jamoaviy esse va dokladlar yozishda ham qo'llash mumkin.

Juftliklarda ishlash shaklida o'quvchilar ikki kishi bo'lib ishlaydi. Bunda o'quvchilarni "yeldosh sherik" hamda "yuzma-yuz sherik" tamoyili bo'yicha bo'lib chiqish mumkin. Individual shaklda esa o'quvchi vazifalarni mustaqil ravishda, boshqalarning ishtirokisiz, o'zi bajaradi.

Ta'lim texnologiyalari, metodlari, o'qitish texnikalari

Klaster – bu axborotni grafik (chizma shaklida) tashkil qilish shakli bo'lib, unda asosiy ma'no birliklari ajratilib, ular o'rtasidagi barcha aloqalar chizma shaklida ifodalanadi. Klaster o'quv materialini tizimlash va umumlashtirishga imkon beruvchi tasvirdir.

Klaster usulini quyidagi istalgan bosqichlarda qo'llash mumkin: Klaster usulining afzalliklari va uni qo'llash natijalari. Klaster usulini qo'llashning quyidagi afzalliklari bor: katta hajmdagi axborotni qamrab olishga imkon beradi; jamoaning barcha a'zolarini ta'lim jarayoniga

jalb qiladi, bu jarayon ular uchun qiziqarli bo'ladi; bolalar faol, ochiq bo'ladi, chunki ularda xato qilib qo'yishdan, noto'g'ri fikr aytib qo'yishdan qo'rquv bo'lmaydi;

Bu usul davomida quyidagi ko'nikmalar shakllanadi va rivojlanadi: savollarni to'g'ri qo'yish; asosiy masalani aniqlash; sabab-oqibat aloqalarini o'rnatish, xulosa chiqarish; muammoni yaxlit tushunib, umumiydan xususiyga o'tish; solishtirish va tahlil qilish; qiyoslash.

Klaster usuli tizimli fikrlashni rivojlantiradi; bolalarga nafaqat o'quv materialini, balki o'z baholovchi fikrlarini ham tizimlashni o'rgatadi; kuzatuvlar, tajribalar va olingan yangi bilimlar asosida o'z fikrini ishlab chiqish va uni ifodalashni o'rgatadi; bir paytning o'zida bir necha pozitsiyalarni ko'rib chiqish, axborotni ijodiy qayta ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Venn diagrammasi – grafik usul bo'lib, uning yordamida solishtirilayotgan sohalardagi mushtarak jihatlarni aniqlash, tafovutlarni (farqlarni) qayd etish va tanlangan mavzuga oid bilimlarni umumlashtirish mumkin.

"Eyler-Venn diagrammasi" usuli bilan ishlash algoritmi. Darsda qiyoslash kerak bo'lgan ikki yoki undan ko'proq tushunchalar, istilohlar (terminlar), hodisalar ajratib olinadi. O'quvchilar halqalar chizib, kataklarni to'ldirib chiqadi. Anglash (materialni mustahkamlash) bosqichida (juftliklarda, guruhlarda) tuzilgan diagrammalar muhokama qilinadi.

Esse – bu erkin shakldagi insho bo'lib, u muallifning biror masalaga munosabatini ifodalab, uni asoslab beradi. Essening mazmuni puxta o'ylangan, mantiqan to'g'ri tuzilgan, tarkiblangan (kirish, asosiy qism va xulosadan iborat) bo'lishi kerak. Muallif esseda murojaat qilgan ma'lumotlar, faktlar, raqamlarning manbayi ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Esseda ijodiy yondashuv sezilib turishi kerak.

Essening tuzilishi: masalani qo'yish – fikrlash – rejalashtirish – yozish – tekshirish – takomillashtirish.

Vaziyatlar tahlili (keys-stadi) – bu quyidagi sohalarda olingan ko'nikmalarni takomillashtirish va tajriba orttirish uchun mo'ljallangan o'quv metodi: muammolarni aniqlash, tanlab olish va yechish; axborot bilan ishlash – vaziyatdagi detallarning ahamiyatini anglash; axborot va asoslarning tahlili va sintezi; taxmin va xulosalar bilan ishlash; muqobil variantlarni baholash; qaror qabul qilish; boshqalarni tinglash va tushunish – jamoaviy ishlash ko'nikmalaridir.

Case-studies – bu faktlar asosida maxsus ishlab chiqilgan va o'quv mashg'ulotlarida tahlil qilinadigan muayyan o'quv vaziyatlari. Vaziyatlarni tahlil qilish jarayonida bolalar jamoada ishlashni, tahlil qilishni va boshqaruv qarorlarini qabul qilishni o'rganadi.

Keysni yechish – bu taklif qilingan vaziyatni (keysni) tadqiq etish, axborotlarni to'plab va tahlil qilish, qilish mumkin bo'lgan harakatlar variantlarini taklif qilish va ularning ichidan eng maqbulini tanlash.

Chalkash mantiqiy zanjirlar – bu asosiy tushunchalarni mantiqiy tuzish orqali o'quv materialidagi asosiy muammoni aniqlashning pedagogik usuli. Bunda o'qituvchi mantiqiy ketma-ketligi buzilgan bir qator tushuncha va terminlarni taqdim qiladi. O'quvchilarning vazifasi xatoni topib, uni tuzatish va buni asoslab berishdir.

Usulning ketma-ketligi: o'rganilayotgan mavzuga tegishli termin yoki tushunchalar yozilgan qog'ozni ilib qo'yamiz; o'quvchilarga tasodifiy, tartibsiz berilgan asosiy tushunchalarning mantiqiy ketma-ketligini aniqlashni, so'ng barcha asosiy tushunchalardan foydalangan holda yozma matn tayyorlashni taklif qilamiz;

o'qituvchi asosiy tushunchalar bo'yicha hodisalar ketma-ketligining o'z variantini bayon qiladi; o'quvchilar o'z variantlarini o'qituvchining varianti bilan solishtirib ko'radilar.

Munozara – bu bahsli masalalarni muhokama qilish va munozara qilish usuli. Bugungi kunda munozara ta'lim faoliyatining eng muhim shakllaridan biri bo'lib, o'quvchilarning tashabbuskorligini oshirishga, refleksiv fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa. Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'limning poydevori hisoblanadi. Shu bois mamlakatimizda boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishga alohida e'tibor berilmoqda. O'qituvchilar darsda ilg'or pedagogik texnologiyalar va o'qitishning interfaol usullaridan keng foydalanmoqda. Har bir ta'lim muassasasida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun qiziqarli o'quv-metodik adabiyotlar, jumladan, elektron resurslarning katta zaxirasi mavjud. Sifatli ta'limiy faoliyatni

180 multimedia materiallari orqali tashkil etish an'anaviy uslublarga nisbatan afzalligini o'qituvchilar anglab yetdi.

Boshlang'ich sinflarda ona Vatanga muhabbat va sadoqat, ona tilini o'qitishda tilga hurmat, shu bilan birga o'zbek tilining qanchalik boy til ekanligini anglash, o'qish va orfografik til me'yorlariga amal qilishni dars jarayonida tadbiq etish lozim.

Adabiyotlar ro'xati:

1. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. O'RQ-637-son 23. 09. 2020. Ta'lim to'g'risida (lex.uz)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash" to'g'risida 2019-yil 29-aprel, 5712-sonli Farmoni.
3. Adizov B. R., Khamroev A. R. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students // Ilmiy xabarnoma. – C. 69.
4. Abdullayeva Q., Ochilov M., Nazarov K., Fuzailov S., Bikboyeva N. Boshlang'ich maktab darsliklarini yaratish mezonlari. – T.: OzPFITI, 1994. – 29 b. 5. Адизов Б. Р. Бошланғич таълимни ижодий ташкил этишининг назарий асослари. Пед. фан. док... дисс. – Бухоро, 2002. – 276 б.
5. Hamroev A. R. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – T. 2019.
6. Hamroyev R.A Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish (Ped.fan.dok. diss.). Buxoro; 2020.
7. Hamroev A. R. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students
8. //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – T. 2019.
9. Hamroyev R.A Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish (Ped.fan.dok. diss.). Buxoro; 2020.
10. Quldoshev, R. A. "Assistant pedagogue to children left-handed reading in the last year." Globe Edit.–2020 (2020).
11. Qoldoshev A. R. Psychological aspects of left-handedness: concept, causes, and peculiarities //Psychology and Education Journal. – 2021. – T. 58. – №. 1. – C. 4981-4988.
12. Gaforovna J. H. The Importance of Project Education in Improving the Creative Activity of Students in Primary Grade Mother Tongue Education //American journal of science and learning for development. – 2022. – T. 1. – №. 2. – C. 203-206.
13. Jumayeva H. G. Methodology for Improving the Creative Abilities of Students in Primary School Native Language Education //International journal of inclusive and sustainable education. – 2022. – T. 1. – №. 6. – C. 236-238.
14. Jumayeva H. G. Boshlang'ich sinf ona tili talimida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini takomillashtirish metodikasi //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – T. 1.– №. 6.–C.

Элов Зиёдулло Сатторович
Бухоро давлат университети доценти,
психология фанлари доктори (DSc)
elovziyo2021@gmail.com

РУҲИЙ-ЖИНСИЙ БУЗИЛИШЛАР ШАХСДА ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК МУАММО СИФАТИДА

Аннотация: мақолада девиант хулқ-атворли ўсмирлар шахсида учрайдиган руҳий-жинсий бузилишларнинг ижтимоий психологик сабаблари ва унинг муаммолари илмий таҳлилларда муҳокама қилинган. Турли олимларнинг ушбу муаммо юзасидан фикрлари ва қарашларига алоҳида тўхталиб ўтилган бўлиб, девиант хулқ-атворли ўсмир шахсида ушбу муаммонинг юзага келиши сабаб бўлувчи асосий сабаблар таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: девиация, жинсий майл, бузилиш, либидо, агрессия, тажовус, шахс, дискомфорт, озорланиш, эмоция, нафрат, транссексуализм – гонадалар, уrogenитал транссексуализм, гонадалар, уrogenитал, онанизм, аутоидентификация, эrogen зона, эҳтиёж, манифестация, эрекция.

ПСИХОПОЛОВЫЕ РАССТРОЙСТВА КАК СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА ЛИЧНОСТИ

В статье рассматриваются социально-психологические причины сексуальных расстройств личности подростков с девиантным поведением и проблемы ее научного анализа. Отдельно были обсуждены мнения и взгляды различных ученых на данную проблему, а также проанализированы основные причины возникновения данной проблемы у подростка с девиантным поведением.

Ключевые слова: девиация, сексуальная ориентация, расстройство, либидо, агрессия, агрессия, личность, дискомфорт, обида, эмоция, ненависть, транссексуальность - гонады, уrogenитальный транссексуализм, гонады, уrogenитальный, онанизм, самоидентификация, эrogenная зона, потребность, проявление, эрекция.

PSYCHO-SEXUAL DISORDERS AS A SOCIAL PSYCHOLOGICAL PROBLEM IN THE PERSON

The article discusses the socio-psychological causes of psycho-sexual disorders in the personality of adolescents with deviant behavior and its problems in scientific analysis. The opinions and views of various scientists regarding this problem were discussed separately, and the main reasons for the occurrence of this problem in a teenager with deviant behavior were analyzed.

Key words: deviation, sexual orientation, disorder, libido, aggression, aggression, personality, discomfort, hurt, emotion, hatred, transsexualism - gonads, urogenital transsexualism, gonads, urogenital, onanism, self-identification, erogenous zone, need, manifestation, erection.

Кириш. Руҳий-жинсий девиациялар – жинсий майл йўналиши ёки уни қондириш усуллариининг бузилишидир. Илгари уларга жинсий ахлоқнинг мазкур жамиятдаги умумэтироф этилган моделидан фарқ қилувчи ҳар қандай жинсий эҳтиёж ва ҳаракатларни киритишган, зеро улар нафақат бузилишлар ҳисобланган, балки маънавий жиҳатдан қораланган ҳам. Ҳозирда кўпгина мутахассислар жинсий девиацияларнинг фақат бир

182 қисмига аниқ нуқсон деб қарайдилар. Рухий-жинсий девиация деганда либидонинг сифатли ўзгариши назарда тутилади.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Қатор олимлар томонидан ўтказилган тадқиқотлар жинсий бузилишларнинг юзага келишида агрессия сабаб қилиб кўрсатилганлигини кўришимиз мумкин. Агрессия атамаси лотин тилидан олинган бўлиб, «aggredi» – «тажовуз қилмоқ» маъносини англатади. Психологияда «агрессия» атама- сига нисбатан турли ёндашувлар мавжуд бўлиб, Х.Дельгадо, А.А.Басс, Л.М.Семенюк, Г.Паренс, А.Бандура, Р.Уолтерс, Ю.Можгинскийлар томонидан агрессия салбий баҳоланади[1].

Л.Бендер агрессияни инсоннинг ўз-ўзини намоён қилишга интилишидир, деб таъкидлайди. Мотивлаштириш нуқтаи назаридан, Л.Бендер агрессияни ихтиёрий ва инструментал турларга ажратади. Р.Бэрн ва Д.Ричардсон агрессивликнинг ривожланишига олиб келувчи шахс хусусиятларини қуйидагича ифодалаган:

➤ импульсив хулқ кўринишларининг намоён бўлишига мойиллик, эмоционал таъсирчанлик – дискомфорт, ўз-ўзидан қоникмаслик, озорланиш ҳислари, психологик қулайликнинг йўқотилиши;

➤ турли ўй-фикрларга берилиш (инструментал агрессия), диққатнинг бузилиши (эмоционал агрессия);

➤ душманлик ёндашуви – барча стимулларни уларнинг табиатидан қатъий назар ўзи учун хавфли, деб қабул қилиш[2].

Т.Г.Румянцева, И.Б.Бойко агрессияни ижтимоий хулқ кўриниши деб ҳисоблайдилар. Бу борада агрессияни келтириб чиқарувчи икки ҳолат тавсифланади:

қурбон учун вазиятлар натижаси хавфли деб ҳисобланганда;

қабул қилинган ижтимоий меъёрларга амал қилинмаганда.

Шахс хусусиятлари эмоционал танглик ҳолатларида яққолроқ намоён бўлади. Шунинг учун психологлар индивидни фрустрация жараёнида ўрганишга алоҳида эътибор қаратадилар[3].

Ғ.Б.Шоумаров фикрига кўра, ўсмирлик даврининг оғир, мураккаб давр эканлиги кўплаб психологик, физиологик, ижтимоий омиллар билан боғлиқ.

Таҳлил ва натижалар (analysis results). Либидо (лотинча libido - майл, истак, интилиш) – жинсий майл, жинсий алоқага интилиш ҳохишидир. Ўзида микдорий ўзгаришларни ифодаловчи фригидлик, сатириазис, нимфомания, эротомания ва жинсий майлнинг бошқа турлари уларга кирмайди. Онанизм тўғрисида бир хил маънодаги фикрлар мавжуд эмас. У шунчалик тарқалиб кетганки, кўпчилик муаллифлар уни жинсий ривожланишнинг бузилиши сифатида тавсифлашдан бош тортадилар[4].

Онанизм (библияда келтирилган персонаж Онан номи бўйича) – эроген зоналарни механик кўзғатиш ёки рухий тўлқинлантириш йўли билан ўзини жинсий қаноатлантиришдир.

Рухий-жинсий девиация ривожланишининг қуйидаги турлари ажратилади:

Транссексуализм – гонадалар, урогенитал йўллари ва иккиламчи жинсий белгиларнинг тўғри шаклланишига қарамай ўзини қарама-қарши жинсга тегишли деб ҳисоблаш.

Бугунги кунда транссексуализмнинг тарқалиши ҳолати аҳолининг 1:37 000 қисмига тўғри келмоқда, ваҳолаки у эркакларда 2-3 марта кўп учрайди[5].

1-жадвал

Аҳолиси ўртасида транссексуализмнинг тарқалиши ҳолати

(ҳар 100.000 аҳолига нисбатан)

давлатлар	эркаклар ўртасида жинсни ўзгартириш	аёллар ўртасида жинсни ўзгартириш	фарқлар
Сингапур	35	12	3.0:1
АҚШ	1.0	0.25	4.0:1
Швеция	2.7	0.97	2.8:1
Англия	5.0	2	2.5:1
Австралия	4.7	0.62	6.1:1
Ш.Ирландия	2.8	1.0	3.0:1


Бу рухий-жинсий ривожланишдаги оғиш жинсий ахлоқ учун жавобгар бўлган мия тузилиши дифференцировкасидаги, биринчи навбатда, гипоталамуснинг қўпол бузилиши билан боғлиқ бўлиб, тўғри жинсий тарбия олганига қарамасдан, аутоидентификациянинг бузиб кўрсатилишига ва бошқа жинсга мансублигини ҳис қилишга олиб келади. Жинсий дифференцировка бузилишининг ифодаси кенг доираларда ўзгариши мумкин. Жинсий ўзини-ўзи англаш шаклланиши босқичида бундай болалар ўзларини қарама-қарши жинс номлари билан атайдилар, қариндошларидан бировларнинг олдида уларни ўғил бола эмас, балки қиз бола деб айтишларини, ёки аксинча, илтимос қилишади. Болалар ҳеч бўлмаса, жинсий муносабатлардаги бетараф (*нейтрал*) бўлган кийимда юриш ҳуқуқини олишга ҳаракат қиладилар, лекин қарама-қарши жинснинг кийимларини кийишни мақсад қилиб қўядилар. Дастлабки вақтда бундай ахлоқ катталар томонидан болаларча ҳазил, тентаклик ёки инжиқлик деб қабул қилинади. Ҳолатнинг жиддийлиги ва кўндиришларнинг самарасизлигини англагач, ота-оналар янада «*таъсирчан*» чораларни қўллашга ҳаракат қиладилар, лекин, одатда мақсадга эриша олмайдилар. Аслида транссексуал болаларнинг ҳаёти - бу доимий, фожиага тўла бўлган ўз «Мен»и билан жинсини ўзгартириш, шахсий жинсий ўзини англаш ва ўзининг атрофдагилар томонидан қабул қилиниши ўртасида мувофиқликка эришиш ҳуқуқи учун курашдир. Жинсий аутоидентификациянинг бузилиши ифодаланган барча ҳолатларда транссексуализм 5 ёшгача манифестация (намоиш) қилади. Ахлоқнинг жинсий роли шаклланиши босқичида, кўпинча, катталарнинг азобларига зид равишда, бошқа жинсга мансубликни ҳис қилиш жинсий ролдаги ахлоқнинг тегишли шаклларига бурканади ва транссексуализм намоён бўлиш учун кўп имкониятларга эга бўлади.

Рухий-жинсий йўналишлар шаклланишининг босқичи транссексуализмда тўғри жинсий ривожланишдан кўра янада мураккаброқ ва масъулиятлироқдир.

1-расм

Аҳолиси ўртасида транссексуализмнинг тарқалиши ҳолати

(дунё миқёсида 2019 йил ҳолати)



Унинг бошланиши иккиламчи жинсий белгилар ва жинсий аъзолар ривожланишининг чўққисига етган, шунингдек, жинсий майл шаклланиши содир бўладиган пубертатли даврга тўғри келади. Жинсий безларнинг фаол ишлаши бошланиши билан қарама-қарши жинсга мансублик ҳисси кескин ортади, «бегона» майдондаги ҳаёт кийноққа айланади, бошқа жинс кийимини кийиш доимий тус ола бошлайди. Жинсий аъзолар ва иккиламчи жинсий белгиларнинг ривожланиши ниҳоятда кескин қабул қилинади, чунки улар «ўзга» жинсга мансубликдан далолат беради ва улар «нотўғри» ахлоқининг далили бўлиб хизмат қилади. Қизларни сут безлари каттариши хавотирга солади ва улар кўкрагини маҳкам сиқиб боғлайдилар. Кечаси уларга муз боғлаб қўядилар, «сунъий муз» ёки хлорэтил билан музлатиб қўядилар. Йигитлар жинсий аъзолар ўсиши,

184 юзларида туклар пайдо бўлиши, илк эрекциялардан ғоятда ташвишланидилар. Эрекцияни бартараф қилиш учун жинсий аъзоларини боғлаб қўядилар ва бутун бинт ҳамда арқонлар ёрдамида оёқлар оралиғига маҳкамлаб қўядилар. Айрим ҳолатларда транссексуал ўспиринлар ўзини ўзгартиришга: жинсий аъзосини кесиб ташлаш ёки уни тўлиқ бичиб қўйишга қарор қилишади.

Шу ўринда, З.Фрейднинг психоанализининг моҳиятини яна бир бор ўрганиш лозимлигини бугунги замонавий психология кўрсатиб бермоқда. Унинг фикрича онгсиз психик жараёнлар ва мотивацияни диққат марказига қўяди. Инсон хулқи асосини лаззат олиш (либидо)га нисбатан, айниқса, илк болаликда пайдо бўлган сексуал (жинсий) майл ташкил қилади деган ғояни илгари суриб, одам хулқдаги ижтимоийлик, онглиликни инкор этади. Онгдан унга мувофиқ келмайдиган (асосан, сексуал) майллар ва руҳий кечинмаларни сиқиб чиқариш психоанализда ҳар хил неврозлар ва турли патологик ҳодисалар (унутиш, янглиш ҳаракатлар ва ҳ. к.)нинг асосий манбаи сифатида қаралади[6].

Деярли ҳамма ёрқин транссексуаллар ҳар қандай, ҳатто алдов йўли билан бўлса ҳам жинсини ўзгартиришга интиладилар. Руҳий-жинсий девиациянинг шаклланиши босқичида фақат паспортдаги жинсни ўзгартиришнинг ўзи етарли бўлмайди ва транссексуалнинг атрофдагилар томонидан уни ўзи «истаган» жинс вакили сифатида тўлиқ эътироф этишларини талаб қиладилар. Жинсий майлнинг шаклланиши аксарият ҳолларда жинсий ўзини-ўзи англашга мос келади, яъни жинсий мойиллик эркакча аутоидентификацияли аёлларда аёлларга нисбатан, аёлларча аутоидентификацияли эркакларда эса - эркакларча юзага келади. Ташқаридан бундай мойиллик гомосексуаллик каби қабул қилинади, лекин мазмунан бундай эмас. Зеро, жинсий ўзини ўзи англаш билан келишган ҳолда у қарама-қарши жинсга қаратилган. Эркак-транссексуаллар шерик сифатида гетеросексуал эркакларни афзал кўришади ва уларнинг жинсий фаоллиги гомосексуал эканлиги тўғрисидаги фикрларни рад этишади. Аммо аёллар билан алоқа қилиш улар томонидан ғайритабиий ҳолат, масалан, гомосексуаллик каби қабул қилинади. Аксарият транссексуаллар ўзлари мансуб жинс вакиллари билан жинсий алоқага киришадилар. Жинсий майл қарама-қарши жинс вакилларида ҳам шаклланиши мумкин, лекин, гарчи ташқаридан гетеросексуал бўлиб кўринсада, уни гомосексуал деб баҳолаш лозим [7,8].

Хулоса ва таклифлар. Эҳтиёж ва атрофдагиларнинг фикрига боғлиқлик ўртасидаги ўзининг «нуқсони» билан доимий кураш шахснинг дисгармониясига, унинг ҳатто руҳий-нуқсонли малолликларсиз патохарактерологик шаклланишига олиб келади. Бундай аёллар ва эркакларнинг катта қисми қарама-қарши жинсга хос бўлган ишга мослашади. Аёллар шунчаки эркакча касбни эмас, балки улардан энг нуфузлилари бўлган: учувчилар, узоқ масофаларга сузувчилар, геологлар, терговчилар, жарроҳлар ва ҳоказо касбларни танлашади. Бунда улар нафақат ўзлигини намоён қилиш, балки "тенг ҳуқуқларда" эркаклар жамиятида айланиш имкониятига эга бўладилар. Касб уларнинг эркакча одатлари, ўзларини тутишлари, кийиниш услубларига мос бўлади. Транссексуал эркакларга ижтимоий мослашиш аёлларга нисбатан қийинроқ бўлади. Болаликдан уларнинг назокатлилиги пичингларга, менсимасликка ва ҳатто тенгдошлари томонидан таъқиб қилинишига олиб келади. Назокатли ўғил бола тенгдошларининг иерархик зинапоясида энг паст поғонага эга бўлади, «иккинчи навли» одам бўлиб қолади. Улар келгусида танлайдиган аёлларнинг касблари нуфузли эмас ва эркакларнинг ҳайратини ҳамда пичингларини юзага келтиришда давом этади. Бироқ қизлар, келгусида эса аёллар уларга хайрихоҳ муносабатда бўладилар, «кучли» жинс камчиликларидан холи бўлган бундай юмшоқ табиат ва кўнгилчан эркакларни ўз жамоаларига жон деб қабул қиладилар.

Транссексуализмни дифференцияли диагностика қилишнинг қийинчиликлари шу билан боғлиқки, беморнинг жинсини ўзгартириш ҳақидаги илтимоси шифокорлар томонидан бемаъни деб, руҳий касалликнинг кўриниши каби қабул қилинади. Жинсни ўзгартириш ҳақидаги ғоят қимматли ва ҳатто бемаъни ғоялар ҳақиқатда турли руҳий бузилишлар натижасида, кўпинча паранойяли синдром ва бош мия органик жароҳатланиши ҳолатларида ҳам учрайди.

Интерсексларнинг кузатишларича, эркак жинсини аёл жинсига ўзгартиришдан кўра, аёл жинсини эркак жинсига ўзгартириш анча осонроқ экан. «Эркакча» юришнинг ўзига хос

хусусиятлари узоқроқ сақланади ва «аёлларча» хусусиятларга нисбатан тезроқ ўзлаштирилади. Эркаклар кийимини кийиш одати ҳам осонроқ юзага келади. Эркак жинсидан аёл жинсига ўтган айрим шахслар, аёллар нарсаларини орттиришади, париклар, шиньонлар, ҳамма мумкин бўлган пардоз буюмларини (*косметикани*) курол қилиб олишади. 20-21 ёшдан кейин жинсни ўзгартириш мақсадида ижтимоий сабабларга кўра кийинлашади: аксарият индивидлар мутахассисликка эга бўлишган, маълум ижтимоий мавқега эга бўлганлар ва ҳоказо. Нафақат ҳужжатларни расман алмаштириш, балки турар жойини ўзгартириш (*одатда бошқа шаҳарга кўчиб кетиш*), эски таниш-билишларга ва қариндошлар билан учрашувларга тўлиқ барҳам бериш, янги мутахассисликка эга бўлиш ва шу қабилир талаб қилинади. Аввалги жинсда гўёки ижтимоий "ўлим" ва янги жинсдаги "туғилиш" содир бўлади[10,11].

Жинсини ўзгартиришга фаол интилувчи ёрқин транссексуаллар бундай имкониятни топа олмаган ва уларнинг паспорт бўйича жинслари ва жинсий ўзини-ўзи англаш ўртасидаги номувофиқлик ҳал бўлмаган ҳолатларни олдиндан айтиш нокулайдир. Бундай ҳолларда узоқ давом этадиган депрессив ҳолатлар, ўз жонига қасд қилиш фикри ва уринишлар учраб туради. Жинс ўзгартиришнинг барча мураккабликларига қарамай унга эришган транссексуаллар ўзларини анча яхши ҳис қиладилар, жинсий жиҳатдан мослашиб ҳатто никоҳга кира оладилар.

Адабиётлар

1. Агрессия в подростковом возрасте. – Санкт-Петербург: «Питер», 2007; Семенюк Л.М. Психологические особенности агрессивного поведения подростков и условия его коррекции. – Воронеж: «Научная книга», 2010.
2. Бэрн Р., Ричардсон Д. Психология человеческой агрессии. – М.: «Вузовская книга». –С. 147.
3. Румянцева Т.Г., Бойко И.Б. Понятие агрессии и агрессивности в подростковом возрасте. – Минск: «Университетское», 2002. –С. 72
4. Шоумаров Ғ.Б. Оила психологияси. – Т.: «Ўқитувчи», 2000. –24-б.
5. Ҳақимова И.М. Девиант хулқ-атвор психологияси. – Т. 2014
6. Ибодуллаев З. Асаб ва руҳият. – Т. 2015
7. Элов З.С. Девиант хулқ – атворли ўсмирларда кузатиладиган психологик ўзгаришларининг ёш билан боғлиқ хусусиятлари (Вояга етмаганларга ижтимоий ҳимоя кўрсатиш маркази тарбияланувчилари мисолида). PEDAGOGIK MAHORAT. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 6. 72-75
8. Elov Z. [Deviant xulq-atvorli o'smirlarda suitsidial holatlarni keltirib chiqaruvchi omillar:\(Ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida\)](#). Pedagogik mahorat. Ilmiy jurnal. 2023
9. Elov Z.S. [Suitsidial xulq-atvorning zamonaviy psixologiyada o'rganilishi: tahlillar va nazariyalar](#). Science and Education. 2023/10/30. 326-342
10. Элов З.С. [Девиант хулқ-атворли ўсмирлар орасида суицидал ахлоқ тушунчаси ва илмий таҳлиллар](#). Педагогик ва психологик тадқиқотлар. 2023/1/9 150-157
11. Elov Z.S. [Suitsidal xulq-atvor haqida tahlillar va nazariyalar](#). PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR. 2023 y. 11-22
12. Narziyeva, S. (2023). PSYCHOLOGICAL VIEWS ON THE CHOICE OF PROFESSION. Modern Science and Research, 2(10), 333-336.
13. Kozimova, N. A. (2023). Bugungi ta'lim tizimida zamonaviy o'quvchi shaxsining ijtimoiy va psixologik jihatlari. Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 44-46.V
14. Kozimova, N. (2023). Use of hadiths as therapy in studying the problems of raising children of parents applying for psychological consultation. Modern Science and Research, 2(9), 61-63.

Qodirov Obid Safarovich

Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
psixologiya kafedrası
mudiri, psixologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

O'ZBEKISTONDA TARBIYASI QIYIN O'SMIRLARGA E'TIBORNI KUCHAYTIRISHNING PSIXOLOGIK MUAMMOSI

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlashning psixoprofilaktik mexanizmlari xos qonuniyatlar, yoshlar tarbiyasida yuzaga kelayotgan ba'zi bir qiyinchilik va kamchiliklarning ijtimoiy psixologik sabablari, barkamol yoshlarni tarbiyalashda ijtimoiy- madaniy va milliy-psixologik omillarning tarbiyaviy ta'siri haqida fikr bildirilgan. So'nggi yillarda jamiyatning barcha sohalarida (iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy) global o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan bu davrda yosh avlodning, ayniqsa, o'smirlarning xulqiga ko'proq ta'sir qilib, turli o'zgarishlarga sabab bo'lib ularda ma'naviy bo'shliq hosil bo'lishiga olib keldi.

Tayanch so'zlar: psixika, aql-idrok, intellektual salohiyat, aqliy taraqqiyot, o'z-o'zini anglash, turmush tarzi, salbiy o'zgarishlar, hamkor tarbiya, etnopsixika, psixoprofilaktika.

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА ПОВЫШЕНИЯ ВНИМАНИЯ К ПОДРОСТКАМ С ТРУДНЫМ ОБРАЗОВАНИЕМ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация: В статье рассматриваются психопрофилактические механизмы работы с трудно обучаемыми подростками, конкретные закономерности, социально-психологические причины некоторых трудностей и недостатков в воспитании молодежи, воспитательное влияние социокультурных и национально-психологических факторов в образование всесторонне развитой молодежи. В последние годы во всех сферах жизни общества (экономической, политической, духовной) стали происходить глобальные изменения. В этот бурно развивающийся период оно оказало большее влияние на поведение молодого поколения, особенно подростков, вызывая различные изменения и приводя к формированию в них духовного разрыва.

Ключевые слова: психика, интеллект, интеллектуальный потенциал, психическое развитие, самосознание, образ жизни, негативные изменения, совместное обучение, этнопсихика, психопрофилактика.

THE PSYCHOLOGICAL PROBLEM OF INCREASING ATTENTION TO ADOLESCENTS WITH DIFFICULT EDUCATION IN UZBEKISTAN

Abstract: In this article, psychoprophylactic mechanisms of working with difficult-to-educate adolescents, specific laws, socio-psychological reasons for some difficulties and shortcomings in the education of young people, the educational influence of socio-cultural and national-psychological factors in the education of well-rounded young people are expressed. In recent years, global changes have begun to take place in all spheres of society (economic, political, spiritual). In this rapidly developing period, it had a greater impact on the behavior of the young generation, especially teenagers, and caused various changes, leading to the formation of a spiritual gap in them.

Key words: psyche, intelligence intellectual potential, mental development, self-awareness, lifestyle, negative changes, co-education, ethnopsychiatry, psychoprophylaxis.

Mamlakatimizda yoshlarning bilimi va ma'naviy dunyosini boyitish, intellektual salohiyatini oshirish borasida ko'pgina ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Aksariyat yoshlar yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanishyapti. Shu bois, ular orasida jannatmakon yurtimiz dovrug'ini olamga yoyayotgan iqtidorli, iste'dodlilari ko'p. Biz bundan faxrlanamiz. Biroq, ... Guruch kurmaksiz bo'lmaganidek, hayotda o'z yo'lini topa olmagan va buning natijasida bilib-bilmay jinoyat ko'chasiga kirib qolganlari ham bor. Ular yoshlikning jo'shqinligini, kuch-g'ayratini nomaqbul ishlarga sarflamoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "bitta bo'lsa ham jinoyat bo'lgani hammamizni tashvishga solishi kerak". Eng achinarlisi shuki, ushbu jinoyatlarning aksariyati yoshlar tomonidan sodir etilgan. Bu esa, ulg'ayib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi borasida hali o'z yechimini kutayotgan muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Zero, buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir» degan so'zlari bir asr avval millatimiz uchun qanchalik muhim va dolzarblik kasb etgan bo'lsa, hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yuqotgani yo'q.

Turg'unlik yillaridagi "so'z bilan ishning nomuvofiqligi", axloq tarbiyasidagi qo'pol xatolar o'smirlarning ruhiy dunyosiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Insonning ruhiy dunyosini tubdan qayta qurish, shaxsni shakllantirishni insonparvarlashtirish harakati boshlangan hozirgi kunda o'smirlar taqdiri masalasi ham g'oyat jiddiy tus oldi. O'smirlik davri taqlidchanligi, muqim nuqtai nazarning shakllanmaganligi, hissiyotlilik, mardligi, tantiligi bilan farqlanadi. Shuning uchun tashqi ta'sirlarga beriluvchan o'smir o'g'il-qizlarga alohida e'tibor berish zarur.

O'smirlar muammosiga e'tiborni kuchaytirish zarurligining asosiy sabablari: 1) fan va texnika rivojlanishi natijasida madaniyat, san'at va adabiyot, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning o'zgarayotgani; 2) ommaviy axborot tizimining kengayishi tufayli o'smirlar ongliligi darajasining ko'tarilgani; 3) o'g'il va qizlarning dunyo voqyealaridan, tabiat va jamiyat qonunlaridan, tarixdan yetarli darajada xabardorligi; 4) ularning jismoniy va aqliy kamoloti jadallashgani; 5) o'smirlar bilan ishlashda g'oyaviy-siyosiy, vatanparvarlik va baynalmilal tarbiyaga alohida yondashish zarurligi; 6) oshkoralik, ijtimoiy adolat, demokratiya muammolarining ijtimoiy hayotga chuqur kirib borayotgani; 7) o'quvchilar uchun mustaqil bilim olish, ijodiy fikr yuritish, o'zini o'zi boshqarish, anglash, baholash va nazorat qilishga keng imkoniyat yaratilgani.

O'smirlik yoshida bolalikdan kattalik holatiga ko'chish jarayoni sodir bo'ladi. O'smirda psixik jarayonlar keskin o'zgarishi bilan aqliy faoliyatida ham burilishlar seziladi. Shuning uchun shaxslararo munosabatda o'quvchi bilan o'qituvchining muloqotida, kattalar bilan o'smirlarning muomalasida qat'iy o'zgarishlar vujudga keladi. Bu o'zgarishlar jarayonida qiyinchiliklar tug'iladi. Bular avvalo ta'lim jarayonida ro'y beradi: yangi axborot, ma'lumotlarni bayon qilish shakli, uslubi va usullari o'smirni qoniqtirmay qo'yadi. O'qituvchining yangi mavzuni batafsil tushuntirishi, darslar ma'ruza shaklida olib borilishi o'quvchilarni zeriktiradi, ularda o'qishga loqaydlik tug'iladi. Ilgari o'quv materialini ma'nosiga tushunmay yodlab olishga odatlangan o'smir endi zarur o'rnlarni mantiqiy xotira va tafakkurga suyangan holda o'zlashtirishga harakat qiladi, o'zlashtirilgan bilimlarni talab qilinganda o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasida anglashilmovchilik paydo bo'ladi, tahsil oluvchi unga qarshilik ko'rsata boshlaydi. Odobli, dilkash o'smir kutilmaganda qaysar, intizomsiz, qo'pol, serzarda bo'lib qoladi. Kattalarning yo'l-yo'riqlariga, talablariga muloyimlik bilan javob qaytarib yurgan o'smir ularga tanqidiy munosabatda bo'ladi. Uning fikricha, kattalarning talablari, ko'rsatmalari mantiqan ixcham, dalillarga asoslangan, yetarli obyektiv va subyektiv omillarga ega bo'lishi kerak. O'smirda shaxsiy nuqtai nazarning vujudga kelishi sababli u kattalarning, o'qituvchining qayg'urishi, koyishiga qaramay, o'zining fikrini o'tqazishga harakat qiladi. Uning o'z qadr-qimmatini haqidagi tasavvuri, narsa va hodisalarga munosabati oqilonalikdan uzoqlasha boshlaydi, u ayrim ma'lumotlarni tushuntirib berishni yoqtirmaydigan bo'lib qoladi. Serzardalik kundalik hatti-harakatning ajralmas qismiga aylanadi. O'smir xulqidagi bunday o'zgarishlar tajribasiz o'qituvchi yoki ota-onani qattiq tashvishga soladi, asabiylashtiradi va ularning o'quvchiga munosabatini o'zgartiradi. Natijada kelishmovchiliklar, anglashilmovchiliklar, nizolar kelib chiqadi.

Ayrim pedagoglar o'smirlik davri inqirozi to'g'risida kuyinib gapiradilar, ba'zi illatlarni tanqid qiladilar va ularning ijtimoiy-psixologik ildizini topishga intiladilar. Aslida esa o'smirlarga yondashishda metodologik kamchilikka yo'l qo'yadilar. Mazkur illatlarning oldini olish chora va tadbirlari tizimini ishlab chiqa olmaydilar. Bu masalaga to'g'ri yondashish ayrim ilmiy tadqiqotlarda asoslab berilgan va o'smirlik davri inqirozi haqida mulohaza yuritishdan ko'ra, kattalar bilan o'smirlar muomalasining inqirozi haqida gapirish to'g'riroq bo'ladi, deb xulosa chiqarilgan.

Xo'sh, o'smirning psixik o'sishini harakatga keltiruvchi kuch nima? O'smirning psixik o'sishini harakatga keltiruvchi kuch – uning faoliyatini vujudga keltirganligi ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar tizimining namoyon bo'lishidir. Mana shu dialektik qarama-qarshiliklar ortib borayotgan jismoniy, aqliy hamda axloqiy imkoniyatlar bilan barqarorlashgan stereotipga aylangan tashqi olamni aks ettirishning shakllari o'rtasida sodir bo'ladi. Vujudga kelgan ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarni, psixologik kamolotni ta'minlash, faoliyat turlarini murakkablashtirish orqali o'smir shaxsida yangi psixologik fazilatlarni tarkib toptirish bilan asta-sekin yo'qotish mumkin. Bu davr insonning kamoloti yuqoriroq bosqichiga ko'tarilishi bilan yakunlanadi. Kamol topish o'smirdan umumlashtirish, hukm va xulosa chiqarish, mavhumlashtirish, obyektlar o'rtasidagi ichki munosabatlarni o'rnatish, muhim qonun, qonuniyat, xossa, xususiyat, mexanizm va tushunchalarni anglash, ixtiyoriy diqqat, barqaror qiziqish, ongli motiv va mantiqiy eslab qolishni talab qiladi. Bularning barchasi fanlarga doir bilimlar tizimini vujudga keltiradi, amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi, o'zini o'zi nazorat qilish, baholash, anglash singapi xususiyatlarni tarkib toptiradi.

Venalik psixolog Z.Freyd va uning shogirdlari o'smirlik davrini baholashda insonga azaldan berilgan qandaydir ilk mayl nishonasi sifatida vujudga keladigan o'z mavqyeini belgilashga ongsiz intilishni eng muhim asos deb hisoblaydilar. Bu intilish go'yoki xudbinlik, boshqa kishilarni mensimaslik, paydo bo'lishga, atrof-muhit bilan kelisha olmaslikka, hatto nizolarga olib kelar, ongsizlik ehtiyojlari va mayllari shaxsning faolligini belgilar emish. Sobiq sovet psixologlari Z.Freyd nazariyasining mutlaqo asossizligini ta'kidlab, o'smirda imkoniyat bilan talabchanlik o'rtasidagi kelishmovchilik, o'zini ko'rsatishga moyillik va o'z ichki dunyosiga qiziqishning namoyon bo'lishi bilan tavsiflanishini asoslab berdilar.

Ayrim psixologlar biogenetik o'sishning biologik omillariga, ya'ni jinsiy yetilishga alohida ahamiyat beradilar. Ularning fikricha, o'smirning psixik jihatdan inqirozga yetaklovchi, hayajonga soluvchi subyektiv ichki kechinmalari o'g'il va qizlarni tanholik psixologiyasiga tortar emish. O'smir uchun xarakterli norozilik, qo'pollik, qaysarlik, shafqatsizlik, tajanglik, ginaxonlik, tajovuzkorlik kabi illatlar jinsiy yetilishning mahsuli yangi tuyg'ular, mayllar, kechinmalar o'smir hatti-harakatida hukmron bo'lib, uning xulq-atvorini boshqaradi deb tushuntirilmoqda. O'smirlikning psixologik qiyofasi, holati, imkoniyati yagona sof biologik omilga bog'liq emasligi hammaga ayondir.

Amerikalik psixolog R.Kulen o'smirlik davri haqidagi biogenetik nazariyani qattiq tanqid qilib, o'smirlik davri ijtimoiy-axloqiy kategoriyadir, degan g'oyani ilgari suradi. Ammo noto'g'ri nuqtai nazardan o'smirlikni biologik va psixologik kategoriyadan tashqari deb hisoblaydi. R.Kulenning fikricha, o'smirlik davrida uchta asosiy ijtimoiy-axloqiy tamoyil mavjud bo'lib, ular emansipasiya (kattalar ta'siridan qutulish) va mustaqillikka erishish, hayot yo'li va kasb-hunar tanlashga jiddiy munosabatda bo'lish, zarur ijtimoiy-axloqiy normalarni o'zlashtirishdan iboratdir. Uning fikricha, bola yuqoridagi muammolarga e'tibor bermas ekan, o'smirlik davri qancha bo'lishidan qat'i nazar, u bolaligicha qolaveradi. R.Kulen o'z nazariyasida biologik omillarni ham, o'smirlik davridagi o'sishning psixologik xususiyatlarini ham hisobga olmaydi, aksincha, ularni batamom inkor qiladi.

Psixologlarning fikricha, o'smirlarga real ijtimoiy turmush shart-sharoitlari va shaxs faoliyatining mahsuli deb qarash mumkin emas, chunki o'sishning biologik va psixologik qonuniyatlarini inkor qilishga haqqimiz yo'q. Shuningdek, o'smirlik davrining muayyan hyech o'zgarmas xususiyati va xarakteristikasi mavjud emas. O'smirlar o'rtasidagi o'ziga xos tipologik farqlarni ijtimoiy omillarning ta'siri bilan, ta'lim va tarbiya sharoitlarining xususiyatlari bilan

izohlash mumkin. Shu bilan birga, o'smirning jismoniy o'sishi xususiyatlari, jinsiy yetilishining iqlim va milliy-etnografik omillari ham bor.

Mamlakatimizda yoshlarning bilimi va ma'naviy dunyosini boyitish, intellektual salohiyatini oshirish borasida ko'pgina ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Aksariyat yoshlar yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanishyapti. Shu bois ham ular orasida jannatmakon yurtimiz dovru'ini olamga yoyayotgan iqtidorli, iste'dodlilari judayam ko'p. Biz bundan faxrlanamiz. Biroq "guruch kurmaksiz bo'lmaganidek", hayotda o'z yo'lini topa olmagan, natijada bilib-bilmay jinoyat ko'chasiga kirib qolayotgan tarbiyasi qiyin o'smirlarni uchratish mumkin. Ular yoshlikning jo'shqinligini, kuch-g'ayratini nomaqbul ishlarga sarflamoqda.

Hozirgi maktab ta'limining bosh vazifasi o'quvchilarning fan asoslarini faol va ongli o'zlashtirishini ta'minlashdan iborat. O'zlashtirish hamisha faol aqliy jarayon natijasi bo'lib, odamning bilishga oid olamdagi xilma-xil noma'lum narsa va hodisalar mohiyatini anglash bilan belgilanadi. Psixologiya fani nuqtai nazaridan no'malum narsa va hodisalar mohiyatini anglash, bilish yoki uni ijodiy o'zlashtirish jarayoni asosan uchta yo'nalishga bog'liq bo'ladi.

Birinchidan, o'zlashtirilayotgan materialning mazmun-mohiyati o'zlashtiruvchi uchun qay darajada mos va tushunarlilikiga, ahamiyatliligiga va u qanday usulda yetkazilayotganligiga bog'liqdir.

Ikkinchidan, ta'lim jarayonini boshqarayotgan mas'ul kishining shu sohadagi bilimi va tajribasiga, malaka va mahoratiga, shaxsiy va kasbiy fazilatlariga bog'liq.

Uchinchidan, o'quvchining aqliy taraqqiyoti darajasiga, emotsional-irodaviy holatiga, o'qishga nisbatan unda qaror topgan individual psixologik xususiyatlariga, qiziqishi va havaslariga bog'liqdir. Ana shu uchta yo'nalish to'la ta'minlangan ta'lim jarayonidagina samarali o'zlashtirish hosil bo'lishi allaqachonlar isbotlangan. Shu bois mamlakatimiz istiqlolining dastlabki kunlaridanoq buyuk ma'naviyatimizni tiklashga, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga, uning milliy zaminini mustahkamlab, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarishga alohida ahamiyat berib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuniga binoan, ta'lim tizimida Davlat ta'lim standartlarining ishlab chiqilishi va uning tarkibiy qismi sifatida o'quv dasturi va darsliklarning tayyorlanishi hamda ularning amalda joriy etilishi ta'lim tizimini jahon andozalariga xos takomillashtirishning dastlabki bosqichi bo'ldi. *Biroq ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan fidoyi insonlar va o'qituvchilar jamoasi har qancha urinmasin, baribir ta'lim jarayonida tarbiyasi qiyin o'smirlarning uchrab turishi hammani ajablantiradi.*

Ana shunday tarbiyaviy muammolarni hal etishning qanday yo'llari va choralari mavjud? Hozirgi kunda psixologik olimlar tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha tarbiyasi qiyin, injiq, o'zi bilganicha ish tutadigan, quloqsiz, xulqida salbiy illat va ko'rinishlar oshkor ifodalanib turadigan bolalarning kelib chiqishida ijtimoiy sabablardan tashqari pedagogik, psixologik, iqtisodiy, etnomadaniy va hududiy sabablarning ham muhim ta'siri borligi isbotlandi. Ana shu muammolarni o'rganish borasida olib borayotgan tadqiqotlarimiz natijalarining tahliliga ko'ra o'smirlar tarbiyasida, xulq-atvorida, munosabatlarida, maqsad-intilishlarida nojo'ya xatti-harakatlar paydo bo'lishining sabablari va motivlari (turtkilari) har xilligi aniqlandi. Jumladan, shaxsning biologik o'sishidagi nuqsonlar, sezgi organlarining kamchiliklari, o'qishga salbiy ta'sir etuvchi oliy nerv faoliyati va temperamentning shakllanishidagi qusurlar ham tarbiyasi qiyinlikka olib kelishi mumkin. Shaxsning psixik o'sishidagi kamchiliklar, chunonchi, aql-idrokning zaif rivojlangani, irodaning bo'shligi, hissiyotning kuchsizligi, zarur ehtiyoj va qiziqishlarning mavjud emasligi, o'smirning intilishiga xos mavjud imkoniyati o'rtasidagi nomutanosiblik va hokazolar xatti-harakatni izdan chiqaradi.

Shaxsning fazilatlarini tarkib topishidagi nuqsonlar:

- axloqiy hisslarning yetishmasligi,
- o'qituvchi, sinf jamoalari, oila a'zolari bilan noto'g'ri muloqot,
- ishyoqmaslik, bo'sh vaqtni to'g'ri taqsimlamaslik ham salbiy qiliqlarni vujudga kelishiga asos bo'ladi.

Shaxsning bilim, o'quv faoliyatidagi kamchiliklari:

• aqliy faoliyat usullaridan keng foydalana bilmaslik, eng muhimi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashdagi uzilishlar;

maktab faoliyatidagi kamchiliklar:

• o'qitishdagi nuqsonlar,

• tarbiyaviy chora va tadbirlardagi xatolar ham shular jumlasiga kiradi.

Maktabdan tashqari muhitning ta'siridagi kamchiliklar, xususan,

• oilada pedagogik-psixologik bilimlarning yetishmasligi,

• oilaviy nizolar, ajralish, ota-onaning ichkilikka va noaxloqiy hayotga berilishi

• balog'atga yetmagan tengqurlarining ta'siri,

• madaniy-ma'rifiy ishlab chiqarish jamoalari hamda jamoatchilik qurshovidagi kamchiliklar ham tarbiyasi qiyin o'smirlar ko'payishiga sabab bo'ladi.

So'nggi yillarda jamiyatning barcha sohalarida (iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy) global o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan bu davrda yosh avlodning, ayniqsa, o'smirlarning xulqiga ko'proq ta'sir qilib, turli o'zgarishlarga sabab bo'lib ularda ma'naviy bo'shliq hosil bo'lishiga olib keldi. Buning uchun:

– o'smirlarni zamonaviy kasbiy yo'nalishlar, boshqalarga zarari tegmaydigan, biroq foydali bo'lgan qiziqarli mashg'ulotlar bo'yicha xabardorligini oshirish maqsadida umumta'lim maktablari, mahallalarda uchrashuvlar, davra suhbatlari o'tkazish;

– aynan shu toifadagi bolalarda entuziazm kuchli ekanini inobatga olgan holda ularni ixtiyoriy ravishda "keksalarga yordam", "nogironligi bo'lgan farzandi bor oilalarga ko'mak" aksiyalariga jalb qilish;

– o'smirlarning bo'sh vaqtlarini oqilona tashkillashtirish yuzasidan maqsadli yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Ma'lumki, yoshlarning ma'naviy-ahloqiy tarbiyasi bilan oila, mahalla, ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, xuquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar, ilmiy-pedagogik kadrlar shug'ullanadilar. Tarbiya jarayoni barcha ishtirokchilarining bahamjihatlik bilan olib boradigan ishlarigina o'zining ijobiy natijalarini berishi mumkin. Tarbiyasi og'ir bolalar va o'smirlarni e'tibor, g'amxo'rlik orqali tarbiyalash kelgusida ularning hayotga muvaffaqiyatli moslashishida muhim o'rin tutadi.

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, hozirgi davrda o'smirlarni voyaga yetkazishning o'ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari, imkoniyatlari, hatti-harakat motivlarining ifodalanishi va vujudga kelishining murakkab mexanizmlari mavjud. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'smirlarni kamol toptirishda ularning xususiyatlarini to'la hisobga olgan holda ta'limiy-tarbiyaviy tadbirlarni qo'llash shaxslararo munosabatda anglashilmovchilikni vujudga keltirmaydi, sinf jamoasi o'rtasida iliq psixologik muhitni yaratadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida". Qonunchilik palatasi tomonidan 2010 yil 12 avgustda qabul qilingan. Senat tomonidan 2010 yil 28 avgustda ma'qullangan.// Qalqon. 2010. № 10 B- 2-13.

2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2018. - 80 b.

3. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, 2016 yil 14 sentyabr. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 37-son, 426-modda.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017. - 6 (766)-son.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojatnomasi. 2022 yil 20 dekabr. // www.uza.uz

6. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2018. – B.254.

7. Karimova V.M. Yoshlarda o'zbek oilasi to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlar. Psix. fan. dok. diss. - T.: ToshDU, 1994. - B.309.
8. Qodirov O.S. "O'smirlarda (11-15 yosh) jinoyat motivlari shakllanishining psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi" // Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. T.: 2020, - 155 b.
9. Abdurasulova Q. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi va uning oldini olish muammolari. // Qonun himoyasida. 2001, 1- son, 23-26- b.
10. Feldshteyn D.I. "Общие вопросы образovanja" Obrazovanie i nauka. 2013. № 9 (108).
11. Safarovich Q.O. et al. Tarbiyasi qiyin o'quvchilarning xulq-atvori bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish masalalari // PEDAGOG. – 2023. – T. 6. – №. 2. – S. 367-371.

Olimov Laziz Yarashovich
Buxoro davlat universiteti
Psixologiya va sotsiologiya
kafedrası dotsenti,
psixologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)

SUD-PSIXOLOG EKSPERTI KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNIING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada sud psixolog eksperti faoliyatida kompetentlik omillarining namoyon etilishi va rivojlanishini tadqiq etish hamda uning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik omillarini takomillashtirish haqida fikr yuritilib, sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar, komponentlarini aniqlash, sud psixolog ekspertidagi kommunikativ, emotsional va shaxslilik komponentlarining namoyon bo'lishi va rivojlanishini tadqiq qilish; sud psixolog ekspertlarining sotsial-psixologik kompetentligini rivojlantirishda ularning sud-huquq tizimi bilan bog'liqligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: sud psixolog eksperti, ijtimoiy-psixologik kompetentligi, sud psixologik ekspertizasi, kasbiy kompetentlik, kompetentlik, emotsional intellekt, kasbiy faoliyat.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОВЫШЕНИЯ КОМПЕТЕНТНОСТИ СУДЕБНОГО ПСИХОЛОГА-ЭКСПЕРТА

Аннотация: В данной статье рассматривается исследование проявления и развития факторов компетентности в деятельности судебного психолога и совершенствование ее конкретных социально-психологических факторов, выявление компонентов, исследование проявления и развития коммуникативных, эмоциональных и личностных компоненты судебного психолога; в развитии социально-психологической компетентности судебных психологов раскрывается их связь с правовой системой.

Ключевые слова: судебный психолог-эксперт, социально-психологическая компетентность, судебно-психологическая экспертиза, профессиональная компетентность, компетентность, личность эксперта, эмоциональный интеллект, профессиональная деятельность.

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF IMPROVING THE COMPETENCE OF A FORENSIC PSYCHOLOGIST EXPERT

Abstract: This article discusses the study of the manifestation and development of factors of competence in the activities of a forensic psychologist and the improvement of its specific socio-psychological factors, the identification of components, the study of the manifestation and development of communicative, emotional and personal components of a forensic psychologist; in the development of socio-psychological competence of forensic psychologists, their connection with the legal system is revealed.

Key words: forensic psychologist-expert, socio-psychological competence, forensic psychological examination, professional competence, competence, personality of an expert, emotional intelligence, professional activity.

Kirish. Sud doimiy ham real voqelikni adekvat aks ettiruvchi u yoki bu shaxslar tomonidan yetkaziladigan ish uchun muhim bo'lgan faktlar haqida ma'lumotlarga to'liq ega bo'la olmaydi. Bu esa turli sabablar va odatda sub'ektiv sabablar bilan izohlanadi (masalan, qabul qilish sharoitlarning xususiyatlari va sub'ektning shaxsiy fazilatlar, umuman xulq-atvor vaziyatining

psixologik spesifikasi bilan). Ushbu sabablarni aniqlash obyektiv haqiqatga erishish uchun o'ta muhimdir. Bundan tashqari, bir qator psixologik omillar mavjud bo'lib, ularni bilish sudning ish ko'rish predmetiga to'g'ri huquqiy baho berish uchun zarurdir. Va bunday holatlarni aniqlash uchun psixologiya sohasida maxsus bilimlarga ega bo'lish talab qilinadi. Odatda bunday bilimlarga psixologik ekspertizani o'tkazadigan mutaxassislar ega bo'ladilar.

Agar psixik sog'lom inson avval kelishib, keyinchalik sudda o'z harakatlarini boshqara olmaganligini (ongli tarzda amalga oshirmaganligi) va ularning mazmunini tushunmaganligini ta'kidlab tursa, chunki bunga qattiq ruhiy iztirob sabab bo'lgan va u hammasini oqilona o'ylab chiqmagan bo'lsa – bu vaziyatda nima qilish kerak? kabi savollarni yechimini topish o'ta muhim masalalardan biri hisoblanadi va bu borada bir necha yillik tajribaga ega bo'lgan sud psixolog ekspert(lar)i holatga adekvat baho bera olishadi.

Bunday arzni e'tiborsiz qoldirish mumkinmi yoki sud uni tekshirish chiqishga majburmi? "Ha", – degan taqdirda ham, – qanday dalillar eng samarali bo'lishi mumkin? Aynan ana shu yerda maxsus psixologik bilimlar sud ekspertizasining jarayon shaklida bo'lishi zarurdir.

Psixologik tadqiqotning umumiy usullariga asosan: eksperiment, psixodiagnostika, taxmin qilish, modallashtirish, ta'sir o'tkazish usullarini kiritish mumkin. O'z navbatida, umumiy usullarning har bittasi maxsus usullar majmuidan iborat bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologiya rivojlanishining zamonaviy ko'rinishlaridan biri bu - sud psixologik ekspertizaning katta imkoniyatlarga ega bo'layotganligi hisoblanadi. Albatta, bu imkoniyatlar chegarasiz degani emas. Bu borada O'zbekistonda yechilmagan muammolar hali juda ham ko'p. Masalan, ayrim ishlarda psixologik sababni aniqlash imkoniyati yetarli emas, ammo shaxsning asosiy sabab chiziqlari ierarxiyasini va mazmunini aniqlash real holatdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Jahon va respublikamizdagi psixologiya maktablarida inson omilini tahlil qilish, ularni har tomonlama rivojlantirishda turli xil psixologik usullardan foydalanishga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, xorijiy va mahalliy adabiyotlarda «Kompetentlik» tushunchasini ta'riflashda yagona yondashuv mavjud emas. Kompetentlik so'zining ma'nosi lotinchadan olingan bo'lib, «competo» «erishayapman, munosibman» degan ma'nolarni anglatadi, hamda ma'lum faoliyat turidan xabardorligini bilishini bildiradi. «Kompetensiya» bu – inson faoliyatiga namoyon bo'ladigan, yetarli darajada boxabar faoliyat yoki sohada insonning amaliy jihatdan qodirligi, shuningdek, kasbiy faoliyatning ma'lum bir tizim bo'yicha shakllanganligini belgilovchi xususiyat hisoblanadi. Shunga qaramay, aksariyat mualliflar tomonidan kompetentlik faoliyat yoki harakatning samarali ishlashi bilan bog'lanadi.

Nazariy manbaalarning tahliliga ko'ra qo'riqlash xizmati xodimlarining «kompetensiya» va «kompetentligi» bo'yisha aniq talqin juda kam ushraydi. Bu esa ushbu atamani zamonaviy psixologik mazmundagi muammolarni o'rganishda dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

«Kompetentlik» tushunshasi dastlab kognitiv psixologiya sohasi vakillari tomonidan qo'llanila boshlagan. Ushbu tushunsha shaxsning o'zini-o'zi anglashi, o'z-o'zini hurmat qilishini belgilovchi omil bo'lib hisoblanadi va shaxsning umumiy xususiyatlari hamda uning kasbiy faoliyati xususiyatlaridan ko'ra ko'proq bog'liqligini bildiradi.

Shunday qilib, kompetentlik insonning yuksak xislatlaridan biri bo'lib, uning shakllanishi zamonaviy ta'lim-tarbiyaning asosi hisoblanadi.

Ijtimoiy-psixologik kompetentlikni shakllanish shart-sharoitlari va uni kasbiy faoliyat samaradorligiga ta'siri masalalari A.K.Markova, N.A.Kuzmina, L.A.Petrovski, A.A.Bodalev, Ye.SMixaylova., P.A.Shavir tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Shuningdek, Yevropalik olim Dj.Raven ijtimoiy-psixologik kompetentlikni «ijtimoiy donishmandlik» deb ta'riflaydi.

V.N.Kunitsina sotsial-kompetentlik tuzilishini quyidagicha belgilaydi:

1. Verbal kompetentlik;
2. Kommunikativ kompetentlik;
3. Ijtimoiy-professional kompetentlik;
4. Ijtimoiy-psixologik kompetentlik;
5. Ego-kompetentlik.

Bugungi kunda mazkur muallifning Koskom-1, Koskom-2 metodikalari keng ko'lamda amaliyotda qo'llanilmoqda. Chunki, mazkur metodika imkoniyatlari aynan xodimlardagi ijtimoiy-psixologik omillarni ochib berishga xizmat qiladi.

Hozirgi paytda O'zbekistonda ko'pgina tadqiqotshilar V.N.Kunitsina tomonidan ishlab chiqilgan Koskom-1, Koskom-2 metodikalari juda ko'plab tadqiqot ishlarida qo'llab, turli soha vakillarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini tadqiq qilib kelishmoqda. Qolaversa, ushbu metodika imkoniyatlari aynan xodimlardagi ijtimoiy-psixologik omillarni ham oshib berishga xizmat qiladi.

Jumladan, psixologiya fanlari doktori Sh.H.Abdullayeva ham o'z tadqiqotlarida ushbu metodikani qo'llab, pedagogning kompetentligi masalalariga, D.A.Sobirova tibbiyot xodimlarining, F.F.Ganjiyev maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining ijtimoiy-psixologik, Sh.Sh.Rustamov amaliyotshi psixologlarning kasbiy kompetentligini, L.Y.Olimov sud-psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligini aniqlashda qo'llashgan.

Umuman, kompetentlik muammosi va uning ijtimoiy-psixologik tamoyillari respublikamiz olimlari tomonidan ham o'rganilganligini e'tirof etish o'rinli. Bunda muloqot, pedagogik jamoadagi o'zaro munosabatlar, muloqot madaniyati masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Xususan, respublikamiz psixologlaridan Sh.H.Abdullayeva, M.G.Davletshin, D.G.Muxamedova, Z.T.Nishonova, E.G'.G'oziyev, B.R.Qodirov, F.B.Shoumarov rahbarligida olib borilgan tadqiqotlarda shaxsning muloqotmandlik, muomalaning turli faoliyatlarni boshqarishdagi roli, turli soha vakillarining ijtimoiy-psixologik va kasbiy kompetentligini yoritishga qaratilgan tadqiqotlarini alohida qayd etish mumkin.

Sh.R.Baratov rahbarligida olib borilgan tadqiqotlarda turli tashkilotlarda psixologik xizmatni tashkil etish orqali xodimlarning kasbiy, kommunikativ va ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratiladi.

Sh.H.Abdullayeva esa o'zining ilmiy izlanishlarida pedagog professional kompetentligini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini tadqiq etgan. Xususan, mazkur dissertatsion tadqiqotda pedagogning professional kompetentligini belgilab beruvshi predmetli faoliyatlilik, shaxslilik, ijtimoiy-kommunikativlik komponentlarining o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi aniqlanib, pedagogda professional kompetentlikning shakllanishi tolerantlik, muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi, «Men-pedagog» konsepsiyasining professional jihatdan aniqligi, pedagogdagi sintezlovshi refleksiyaga qobiliyatlilik, faoliyatni loyihalash va amalga oshirishga qobiliyatlilik kabi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarga bog'liqligi asoslab berilgan. Aynan, pedagogning professional kompetentligi negizida ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikning mohiyatini oshib berilganligi, uni shakllantirish mexanizmlari tizimlashtirilganligi pedagogik faoliyatdagi kompetentlik muammosiga o'ziga xos yondashuvni shakllantirgan.

D.G.Muxamedova tomonidan menejerlar va pedagoglarning innovatsion faoliyatga tayyorligining ijtimoiy-psixologik komponentlari asoslab berilgan. Muallif tomonidan ta'lim menejerida innovatsion faoliyatga salbiy ta'sir etuvshi ijtimoiy-psixologik to'siqlarni aniqlash so'rovnomasining modifikatsiyalashtirilgan shakli ishlab shiqilgan hamda amaliyotga tadbiq etilgan.

F.F.Ganjiyev maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari ijtimoiy-psixologik kompetentligini o'rganish davomida tarbiyachilar ijtimoiy-psixologik kompetentligida kommunikativ qobiliyatlari ular faoliyat moslashuvchanligining asosiy omili sifatida namoyon bo'lishi muloqotdagi hamkorlik pozitsiyasini shakllanishi ularda frustratsiyani yengishga yo'nalganlikni hissiy-bilish jihatiga ustuvorlik berilishi sababli kasbiy nizolarni oldini olish ko'nikmasini tarkib toptirishning muhim jihati ekanligini, «tarbiyachi – ota-ona», «tarbiyachi – tarbiyachi» munosabatlaridagi o'zini-o'zi anglash mexanizmining ta'siri natijasida konstruktiv (ijobiy natijali) muloqot o'rnatish uchun muvaffaqiyatga erishish motivining hissiy-baholovchi xususiyatini kuchaytirish zarurligi sababli sotsial-perseptiv kompetentlikni rivojlantirish mumkinligini, tarbiyachilar emotsional barqarorligi va xavotirlanish darajasi pasayishi orasida teskari proporsional bog'liqlik mavjudligiga ko'ra ularda ijtimoiy vaziyatga yo'nalganlik,

insonlarni tushunishga to'g'ri yondashish zaruratini yuzaga keltirishi sababli ijtimoiy-psixologik kompetentlikni rivojlantirishga ijobiy ta'sir etish mumkinligini, tarbiyachilarning shaxslararo muloqotida vaziyatni to'g'ri idrok qilish jarayoniga sezgirlikni singdirish muhimligi sababli ulardagi muloqotga yo'nalganlik, kirishimlilik, hamfikrlilik va qo'llab-quvvatlash hissini rivojlanishiga ta'sir etishiga ko'ra, ijtimoiy-psixologik kompetentlikni shakllantirish zarurati asoslab bergan.

D.A.Sobirova tibbiyot xodimlari faoliyatida sotsial-psixologik kompetentlik omillarining namoyon etilishi va rivojlanishini tadqiq qilib, tibbiyot xodimlarining sotsial-psixologik kompetentligiga ta'sir etuvchi ijtimoiy identifikatsiya, ijtimoiy persepsiya, ijtimoiy adaptatsiya, ijtimoiy refleksiya va altruizm kabi ijtimoiy-psixologik omillar, tibbiyot xodimlari sotsial-psixologik kompetentligini belgilovchi "sotsial intuitsiya", "sotsial xotira", "sotsial voqelikni bashorat qila olish" kabi kognitiv, "sotsial ifodalilik", "birgalikda qayg'urish", "o'z-o'zini tartibga solish" singari emotsional hamda "sotsial idrok", "sotsial o'zaro ta'sirlashuv", "sotsial moslashuvchanlik" kabi xulqiy komponentlari, tibbiyot xodimlari sotsial-psixologik kompetentligi tarkibiga kiruvchi kommunikativ (insonlarni tushunish, vaziyatlarni tushunish, uddaburonlik, axloqiy ustanovkalar, muvaffaqiyatga erishganlik motivatsiyasi, emotsional barqarorlik, imidj, sotsial-psixologik kompetentlik, verbal kompetentlik, operativ sotsial-psixologik kompetentlik, egokompetentlik, ishonchlilik, barqaror insoniy munosabatlar), emotsional (emotsional bilimdonlik, o'z emotsiyasini boshqarish, o'z-o'zini rag'batlantirish, empatiya, o'zga insonlarning kechinmalarini sezish), adekvat muloqotchanlik (muloqot ishtirokchisining hissiyoti, fikri va niyatlarini tushunish, noverbal muloqot harakatlarini tushunish, verbal muloqot harakatlarini tushunish, shaxslararo o'zaro ta'sirlashuvni tahlil etish) komponentlar o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik ko'rsatkichlari, tibbiyot xodimlaridagi sotsial-psixologik kompetentlik ko'rsatkichlarining namoyon etilishi va rivojlanishi muayyan darajada shaxs xususiyatlari (muloqotmandlik, hissiy barqarorlik, ijtimoiy dadillik, ijtimoiy yetuklik, o'ziga ishonish, o'zini nazorat qilish), faoliyat davomiyligi (besh yil, o'n yil) hamda gender xususiyatlari (erkak tibbiyot xodimlari, ayol tibbiyot xodimlari) bilan bog'liqligi, tibbiyot xodimlari sotsial-psixologik kompetentlik mexanizmlari (kommunikativ kompetentlik, verbal kompetentlik, empatiya, emotsional barqarorlik) psixodagnostik, psixokorreksion, psixoprofilaktik yondashuvlar asosida takomillashtirilgan va asoslab berilgan.

Sh.Sh.Rustamov amaliyotshi psixologlar kasbiy kompetentligini rivojlantirishda matematik usullardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilgan. Xususan, amaliyotshi psixologlardagi matematik savodxonlikning rivojlanganlik darajasi induktiv, deduktiv xulosa shiqarish ko'nikmalarini kognitiv, mantiqiy kompetentlik xususiyatlarini differensialashuviga ko'ra shakllantirilishi tufayli psixodagnostik, psixokorreksion ishlar samaradorligini ta'minlovshi indikator ekanligi, amaliyotshi psixologlarning ma'lumotlarni qayta ishlash paketidan foydalanishi kontent-tahlil, natijalarini birlamshi guruhlash va talqin qilish ko'nikmalarining namoyon bo'lishi kreativ kompetentlik, divergent fikrlash omillarining integrativ ta'sirida matritsalar rangi bilan ishlash malakasini shakllantirilganligiga ko'ra yoshga oid differensial farqlarga bog'liqligi, kreativ fikrlashni rivojlanishini ta'minlovshi kognitiv omil ekanligi isbotlab berilgan.

G.Sh.Salomova madaniyatlararo kompetentlikning ijtimoiy-psixologik tahlili borasida ilmiy izlanishlar olib borib, uning sotsiologiyistik jihatlarini oshib bergan.

Ta'kidlash joizki, amaliy psixologiyada yuridik amaliyot ehtiyojlari uchun uning qo'llanilishi asosan jinoiy jarayon ishtirokchilari ko'rsatmalarining haqiqiylikni aniqlash metodikalarini ishlab chiqish uchun qo'llanilgan. T.V.Saxnova yozishicha, bir tomondan bu qonunbuzar shaxsini o'rganib chiqishga e'tibor kuchayishidan darak bergan (ilgari u faqat qonunbuzarning o'zini o'rganilishida to'xtalgan), bu esa o'z navbatida, obyektiv va subyektiv tomonlarni inobatga olgan holda, sodir etilgan qonunbuzarlikka aniq va to'g'ri baho berishga imkon bergan. Boshqa tomondan, jarayon ishtirokchilarining ko'rsatmalarini haqiqiy ekanligini isbotlash uchun, sud psixolog eksperti sud yoki tergov jarayonida berilgan ma'lumotlar qay darajada haqiqiy ekanligini aniqlash bo'yicha vazifani o'z zimmasiga yuklatadi.

T.V.Saxnova yondashuvlarning tipik misollarini keltiradi, ular haqiqatni aniqlash ekspertizasi doirasida shaxsga tashxis qo'yish uchun qo'llanilgan. Respondentning erkin hikoyasi (o'zi bilan sodir bo'lgan holat yoki hodisa to'g'risida bildirgan fikrlari) va ekspert bergan savollarning javoblari asosida, ob'ektiv u yoki bu shaxs tipi bilan shartlangan, yolg'onchilik belgilari mavjudligi (yoki mavjud emasligi) haqida xulosa qilinadi. Taxmin qilinishicha, sovuqqon, xo'mraygan va yopiq odam oldindan uylab qo'ygan yolg'onni aytishga tayyor bo'lishadi. Shuning uchun u bergan ko'rsatmalar ahamiyatli emas. Bajarilmagan istak-xohishlar majmui mavjud bo'lgan shaxsning ko'rsatmalari ham to'la haqiqiy, deb tan olinmasligi mumkin, biroq boshqa sabablariga ko'ra: sub'ekt boshqalar nigohida o'z mavqeiga ega bo'lishi uchun, tilaklarini qiziq tarzda amalga oshiradi. Bu turdagi ekspertizalar voyaga yetmagan guvohlarga nisbatan samaralidir. Bu borada shuni ta'kidlash joizki, o'sha paytda ishonchli, ilmiy asoslangan shaxsni tadqiq etish bo'yicha metodikalar ishlab chiqilmagan edi, shu tufayli ekspert vazifasini ob'ektiv tarzda hal etish imkoni bo'lmagan [3].

O'rganish jarayonida keltirilgan vajlarning haqiqiyligini aniqlash ekspertizaning asosiy kamchiligi bundan iborat bo'lmagan. Ko'rsatmalarning haqiqiyligi haqida savolga javob berayotganda, sud psixolog eksperti o'zining maxsus bilimlari chegarasidan, jarayondan tashqari, o'z vakolati doirasidan chiqib ketgan va sud vakolati chegaralariga kirgan. Rivojlanishining birinchi bosqichida sud psixologik ekspertizasi imkoniyatlariga vakolatidan ortiqcha baho berish, ehtimol qonuniydir, chunki amaliy psixologiya darajasi yuridik amaliyot ehtiyojlaridan ochiq-oydin orqada qolgan edi. Bu esa o'z navbatida vazifalarni noto'g'ri, xato belgilashga va ularni yechish uchun vositalarni noadekvat tanlashga olib kelar edi.

Sud psixologik ekspertizaga huquqiy holatlarni aniqlash vakolati berilib, faqatgina ko'rsatmalar haqiqiyligini tekshirish emas, balki ularni isbotlash, qonunbuzarlikni sodir etgan shaxs hatti-harakatlarida aybdorlikni aniqlash vositasi sifatida mustahkamligini tekshirish ham kiritilganligini ko'rishimiz mumkin. Garchi bunga asos bo'lmasa ham, qandaydir ishonchsizlik haligacha ham oxirigacha bartaraf etilmagan. Aksincha, qonuniy sud ishida mukammalashib borayotgan amaliyotning, o'sib borayotgan ehtiyojlari sharoitida, zamonaviy psixologiya fanining imkoniyatlariga yetarlicha baho bera olmaslik o'rindir.

Olimlarning jiddiy tadqiqot ishlari (xususan, A.R.Luriya, M.M.Kochenov, A.R.Ratinov, V.L.Vasilev, V.F.Pirojkov, A.V.Dulov, V.F.Yengalichev, S.S.Shipshin va boshqalarning) jinoiy va fuqarolik ishlari bo'yicha sud jarayonlarining maqsadlariga nisbatan sifatli darajada psixologik vazifalarni qo'yish va hal etish imkonini beradi.

Sodir bo'lgan jinoyatni tergov qilish jarayonida, shuningdek uni sud muhokamasida tekshiruv vaqtida ish uchun ahamiyatli bo'lgan qator holatlar yuzasidan maxsus bilim, ya'ni fan, texnika, san'at yoki kasbni qo'llab, tekshiruv o'tkazish va shuning asosida tegishli ma'lumotlarni olish zarur bo'ladi. Bunday tekshiruvlar maxsus jihozlangan laboratoriya va ilmiy-tekshirish muassasalarida maxsus bilimga ega bo'lgan mutaxassislar tomonidan o'tkaziladi.

Hozirgi vaqtda sud psixologik ekspertiza nazariyasida, mavjud bo'lgan hal etilmagan muammolarga qaramay, yetarli darajada ilmiy vositalar mavjud. Ular yuridik faoliyatning turli sohalarida amaliy vazifalarni hal etish uchun psixologiya fanining yutuqlaridan foydalanish imkonini beradi.

Ekspert oldiga qo'yilgan savollar va uning bergan xulosasi ekspertning maxsus bilimlari doirasidan tashqari chiqishi mumkin emas.

Ekspertizani ushbu Kodeksda belgilangan tartibga xilof ravishda o'tkaziladigan tekshiruv bilan almashtirishga yo'l qo'yilmaydi. Idoraviy tekshiruv xulosasi, taftish hujjatlari, mutaxassislar maslahati ekspertiza o'tkazish zaruratini istisno etmaydi", - deyilgan. Umuman olganda, sud psixolog ekspertining sudga doir psixologik ekspertizasi yuzasidan vakolatlari to'g'risidagi yetarli darajada ma'lumotga ega bo'lishi sifatli sudga oid psixologik ekspertizalarni o'tkazish uchun juda muhimdir.

Natijalar. Endi bevosita nazorat tajribadan keyin sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligi va emotsional intellekti o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar tahliliga o'tamiz.

Besh yilgacha ish stajiga ega bo'lgan sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligi bilan emotsional intellekti umumiy ko'rsatkichlari orasidagi korrelyatsion bog'lanish natijalari (n=41, nazorat tajribadan keyin)

Shklalar	Emotsional intellekt (N.Xoll metodikasi bo'yicha)				
	Emotsional bilimdonlik	O'z emotsiyasini boshqarish	O'zini-o'zi rag'batlantirish	Empatiya	O'zga insonlarning kechinmalarini sezish
Insonlarni tushunish	0,638**	-0,080	0,304	0,482*	0,639**
Vaziyatlarni tushunish	0,692**	0,507*	0,263	-0,103	0,706**
Uddaburonlik	0,220	0,049	0,098	0,203	0,276
Axloqiy ustanovkalar	0,259	0,604*	0,502	0,703**	0,091
Muvaffaqiyatga erishganlik motivatsiyasi	0,572*	-0,036	0,508*	0,402	0,506*
Emotsional barqarorlik	0,302	-0,123	0,096	0,208	0,341
Imidj	0,403*	0,635*	0,506*	0,108	0,631*
Sotsial psixologik kompetentlik	0,603**	0,528*	0,654*	0,100	0,709**
Verbal kompetentlik	0,489*	-0,032	0,482	0,282	0,509*
Operativ ijtimoiy-psixologik kompetentlik	0,422	0,573*	0,681**	0,512*	0,444
Ego kompetentlik	-0,090	0,353*	-0,098	0,622	-0,068
Kommunikativ kompetentlik	-0,108	0,516*	0,621*	-0,011	-0,091
Ishonchlilik	-0,101	0,262	0,013	0,746**	-0,101
Barqaror insoniy munosabatlar	0,009	-0,024	-0,063	0,712**	0,012
Shaxslilik kommunikativ imkoniyati	0,603*	0,082	0,096	0,701*	0,625*

Izoh: * $r \leq 0,05$, ** $r \leq 0,01$

Olib borilgan trening mashg'uloti natijasida aniqlovchi tajribada qo'lga kiritilgan natijalarning ijobiy tomonga o'sganligini ko'rishimiz mumkin. Nazorat tajribasidan olingan ma'lumotardan ko'rinib turibdiki, sud psixolog ekspertlarining emotsional intellekti bilan ijtimoiy-psixologik kompetentlik ko'rsatkichlarining ijobiy shakllanayotganligini belgilovchi bir qancha statistik ahamiyatga ega bo'lgan alomatlar o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlikda o'z aksini topgan. Besh yilgacha ish stajiga ega bo'lgan sud psixolog ekspertlaridagi bunday ijtimoiy-psixologik imkoniyatning mavjudligi kasbiy faoliyatni to'g'ri tashkil qiluvchi omillardan biri sifatida xizmat qiladi. Natijada sud psixolog ekspertlari ekspertiza jarayonida vujudga kelishi mumkin bo'lgan turli nizoli holatlar va o'zaro ziddiyatlarni bartaraf etish qobiliyatiga ega bo'lishni biladilar.

Yuqoridagi jadvaldan bilishimiz mumkinki, besh yilgacha ish stajiga ega bo'lgan sud psixolog ekspertlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligi bilan emotsional intellektini o'zaro bog'lovchi jihatlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularda insonlarni tushunish bilan o'zga insonlarning kechinmalarini sezish ($r=0,639$, $p \leq 0,01$) va emotsional bilimdonlik ($r=0,638$, $p \leq 0,01$) bilan yuqori ijobiy korrelyatsiya bergan bo'lsa, o'z emotsiyasini boshqarish ($r=-0,080$, $p \leq 0,01$) shkalasi bilan salbiy, vaziyatlarni tushunish o'zga insonlarning kechinmalarini sezish ($r=0,706$, $p \leq 0,01$), emotsional bilimdonlik ($r=0,692$, $p \leq 0,01$) bilan yuqori ijobiy, empatiya ($r=-0,103$, $p \leq 0,01$) bilan salbiy, axloqiy ustanovkalar empatiya ($r=0,703$, $p \leq 0,01$) o'z emotsiyasini boshqarish ($r=0,604$, $p \leq 0,05$) bilan yuqori ijobiy, muvaffaqiyatga erishganlik motivatsiyasi emotsional bilimdonlik ($r=0,572$, $p \leq 0,05$) bilan yuqori ijobiy, o'z emotsiyasini boshqarish ($r=-0,036$) bilan salbiy, emotsional barqarorlik o'z emotsiyasini boshqarish ($r=-0,019$) bilan salbiy, verbal

198 kompetentlik o'zga insonlarning kechinmalarini sezish ($r=0,509$, $p \leq 0,05$) bilan yuqori ijobiy, o'z emotsiyasini boshqarish ($r=-0,032$) bilan salbiy, ego kompetentlik, kommunikativ kompetentlik uchta, ishonchlilik va barqaror insoniy munosabatlar ikkita shkala bilan salbiy korrelyatsiya namoyon qilgan bo'sa, uddaburonlik, axloqiy ustanovkalar, imidj, sotsial psixologik kompetentlik, operativ ijtimoiy-psixologik kompetentlik va shaxslilik kommunikativ imkoniyati barcha emotsional intellekt shkalalari bilan ijobiy korrelyatsion bog'liklik kuzatilganligi qo'llanilgan psixotexnikalarning samarali ta'siri ostida rivojlanganligidan dalolat beradi va bu holat sifati sud psixologik ekspertizalarni amalga oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi (1-jadval).

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha o'quv modulini amalda qo'llash natijasida qator samaradorlikka erishildi, deyish mumkin. Dissertatsion tadqiqotimizning samaradorligini aniqlash uchun qayta diagnostik tadqiqot ishlarini amalga oshirish natijasida olingan ma'lumotlar tahlili o'quv moduligacha va undan keyingi holat bo'yicha o'rtacha miqdoriy ko'rsatkichlar diapazonida qiyosiy jihatdan taqqoslandi. Bu esa sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillariga aloqador bo'lgan kasbiy kompetentlikning o'ziga xos tarzda o'zgarganligini ko'rsatadi. O'quv modulida sud psixolog eksperti kasbiy kompetentligini ta'minlovchi sohaga oid qonun va qonun osti hujjatlari yuzasidan huquqiy, hamda psixodiagnostik ishlarni qo'llay olish bo'yicha bilimdonligini oshirish nazarda tutilgan. Buni barcha sud psixolog ekspertlarining o'quv modulini qo'llashdan keyingi natijalari ham tasdiqlaydi (2-jadval, 1-rasm).

2-jadval

**Sud psixolog eksperti kasbiy kompetentligi namoyon etilishining qiyosiy tahlili
(ijtimoiy psixologik so'rovnoma asosida)**


Savol- lar	besh yilgacha ish stajiga ega bo‘lganlar n ₁ =41				O‘shish farqi	besh yildan ortiq ish stajiga ega bo‘lganlar n ₂ =61				O‘shish farqi
	Aniqlovchi tajriba		Nazorat tajriba			Aniqlovchi tajriba		Nazorat tajriba		
	M ₁	S	M ₂	S		M	M ₁	S	M ₂	
1	4,61	2,17	7,00	2,04	2,39	6,34	2,19	8,23	1,27	1,89
2	5,15	2,34	6,68	2,32	2,24	6,20	2,37	8,69	1,72	2,49
3	4,44	2,43	6,12	2,64	1,68	6,43	2,28	8,30	1,58	1,87
4	5,37	3,42	7,80	3,09	2,43	7,28	2,92	8,69	2,19	1,41
5	4,10	2,03	6,90	2,41	2,80	6,61	2,30	8,57	1,12	1,96
6	5,27	2,74	7,98	2,20	2,71	6,16	2,29	8,75	1,39	2,59
7	5,73	2,31	8,05	2,05	2,32	6,87	2,16	8,92	1,33	2,05
8	5,93	2,25	8,15	1,97	2,22	6,49	2,12	8,62	1,56	2,13
9	5,32	2,71	7,88	2,40	2,56	6,20	2,25	8,87	1,12	2,67
10	5,15	2,42	7,71	2,47	2,56	6,00	2,14	9,00	1,25	3,00
11	5,73	2,30	8,10	2,07	2,37	6,38	2,49	8,26	2,42	1,88
12	6,24	2,42	7,83	2,08	1,59	6,84	2,23	9,13	1,27	2,29
13	6,63	1,93	8,37	2,03	1,74	6,13	2,28	8,98	1,50	2,85
14	4,66	2,34	8,54	2,19	3,88	5,74	2,45	8,98	1,52	3,24
15	6,71	1,95	8,02	2,33	1,31	6,93	2,00	8,90	1,49	1,97
16	3,95	2,02	8,46	2,20	4,51	6,05	2,25	7,70	1,80	1,65
17	4,88	2,29	8,66	1,97	3,78	7,02	2,19	9,21	1,29	2,19
18	5,68	2,39	8,59	2,04	2,91	7,08	2,47	9,36	1,13	2,28
19	3,95	2,32	8,73	1,90	4,78	6,30	2,64	9,18	1,36	2,88
20	5,95	2,27	8,29	2,03	2,34	6,85	2,23	9,21	0,90	2,36
21	5,61	2,27	8,56	1,73	2,95	6,44	2,25	9,10	1,11	2,66

Izoh:


M – o'rtacha qiymat

S – standart xatolik

Yuqoridagi jadvaldan ham ko'rinib turibdiki, o'quv moduli qo'llanilishdan oldingi ko'rsatkichlar bilan o'quv modulini o'zlashtirgandan so'ng besh yilgacha va besh yildan ortiq ish stajiga ega bo'lgan sud psixolog ekspertlarida barcha ko'rsatkichlarga o'sish kuzatildi (*aniqlovchi tajriba o'rtacha ko'rsatkich M_1 3,95dan 6,71 gacha standart og'ish $S=0,80$ ga teng holatda namoyon bo'lgan bo'lsa, nazorat tajribada esa o'rtacha ko'rsatkich M_2 6,12 dan 8,73 oralig'ida o'sishga erishilib, standart og'ish $S=0,70$ ga teng holatda namoyon bo'ldi*).



1-rasm Sud psixolog eksperti kasbiy kompetentligi namoyon etilishining qiyosiy tahlili (besh yilgacha ish stajiga ega bo'lganlar n=41)



2-rasm. Sud psixolog eksperti kasbiy kompetentligi namoyon etilishining qiyosiy tahlili (besh yildan ortiq ish stajiga ega bo'lganlar n=61)

Besh yilgacha ish stajiga ega bo'lgan sud psixolog ekspertlarida ayniqsa Respondentning ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarni idrok qila olishini baholash usullarini qo'llay olishi ($M_1=6,30$ dan $M_2=9,18$ gacha, o'sish $M=2,88$), xulosa berishning iloji yo'qligi to'g'risidagi hujjat tayyorlash bo'yicha ($M_1=3,95$ dan $M_2=8,46$ gacha, o'sish $M=4,51$), sud ekspertizasini o'tkazish asoslari va muddatlarini tushuntirishga doir bilimi ($M_1=4,66$ dan $M_2=8,54$ gacha, o'sish $M=3,88$) kabilarda ko'rsatkichlarda yuqori darajadagi o'sishga erishilgan.

Besh yildan ortiq ish stajiga ega bo'lgan sud psixolog ekspertlarida ayniqsa, respondentning ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarni idrok qila olishini baholash usullarini qo'llay olishi ($M_1=3,95$ dan $M_2=8,73$ gacha, o'sish $M=4,78$), sud ekspertlarining malakasini va huquqiy bilimlarini oshirish bo'yicha ($M_1=6,00$ dan $M_2=9,00$ gacha, o'sish $M=3,00$), sud ekspertizasini o'tkazish asoslari va muddatlarini tushuntirish doir bilimi ($M_1=5,74$ dan $M_2=8,98$ gacha, o'sish $M=3,24$) kabilarda ko'rsatkichlarda yuqori darajadagi o'sishga erishilgan (*aniqlovchi tajriba o'rtacha*

200 ko'rsatkich M_1 5,74 dan 7,28 gacha, standart og'ish $S=0,41$ ga teng holatda namoyon bo'lgan bo'lsa, nazorat tajribada esa o'rtacha ko'rsatkich M_2 6,12 dan 8,79 oralig'ida o'sishga erishildi. Standart og'ish $S=0,41$ ga teng holatda namoyon bo'ldi) (3.1.6-jadval, 7-rasm).

Yuqoridagi natijalarga tayangan holda shuni qayt etish mumkinki, "Sud psixolog eksperti kasbiy kompetentligi o'quv moduli"ni qo'llash asosida sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirishda ularning kasbiy kompetentlik bilan ijobiy aloqadorlikda to'g'ri proporsionalligi, malaka va kasbiy bilimdonligiga ko'ra sifatli sud psixologik ekspertizalarni o'tkazish uchun ustivor xarakterga ega ekanligi isbotlandi.

Umuman olganda, sud psixolog eksperti kasbiy kompetentligi ko'rsatkichining o'sishi bilan ularning ijtimoiy-psixologik kompetentligi yuqori bo'lishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Shaxsning kasbiy rivojlanishi bilan bog'liq ravishda yuzaga keladigan psixologik xususiyatlarni rivojlantirishga qaratilgan psixotexnika, hamda o'quv modulining samaradorligini baholashda aniqlovchi va nazorat tajribalaridan olingan natijalarning tahlillariga asoslanib, qolaversa, sud psixolog ekspertlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirish dasturi va uni sud psixolog ekspertlarining kasbiy faoliyatiga ta'siri natijasini tadqiq qilish bo'yicha quyidagilar aniqlandi:

1. Ijtimoiy-psixologik va kasbiy kompetentlik sud psixolog ekspertining samarali faoliyat yuritishini ta'minlovchi sohaga oid bilim, ko'nikma va malakalari majmui sifatida sud psixolog ekspertining kasbiy faoliyatida ahamiyatli ekanligi aniqlandi.

2. Sud psixolog ekspertining kasbiy faoliyatida ijtimoiy-psixologik kompetentlikning namoyon etilishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar professionallik darajasini takomillashuviga xizmat qilishi mumkin.

3. Sud psixolog ekspertining u yoki bu insonlar bilan o'zaro adekvat munosabatga kirisha olishi, xususan, sudga oid psixologik ekspertizalarda yuqori darajada muloqotmandligi, muloqot vaziyatlarini tahlil etuvchanlik, suhbatdoshning xulq-atvori, hatti-harakatlari, ruhiy kechinmalariga nisbatan adekvat sezuvchanlik va turli xil vaziyatlarga nisbatan muayyan darajada moslashuvchanlik sifatlarining namoyon etilishi bilan xarakterlanadi.

4. Sud psixolog ekspertlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligining namoyon etilishi, har bir sud psixolog ekspertida o'ziga xos tarzda shakllangan kasbiy va kommunikativ kompetentlik kabi omillarga bevosita bog'liqligi ijtimoiy-psixologik kompetentlik, kasbiy faoliyati samaradorligini belgilashga va shaxs barkamolligini ta'minlashga xizmat qiladi.

5. Sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligi va kasbiy kompetentlik omillariga bog'liq ravishda namoyon bo'lishi sud psixologik ekspertizasini yuqori samaradorlik asosida tashkil qilish va uni o'tkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

6. Sud psixolog ekspertining sud psixologik ekspertizalarni belgilangan me'yorlar asosida tashkil qilishi va uni o'tkazishi ularning sohaga oid bilimdonligiga bevosita bog'liq. Shu nuqtai nazardan sohaga oid tushunchalar haqida bilimga ega bo'lishi va uni amaliyotga qo'llay olishi imkoniyatlarini baholash orqali ularning ijtimoiy-psixologik kompetentligini aniqlash imkoniyati yaratildi.

7. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha o'quv modulini amalda qo'llash natijasida qator samaradorlikka erishildi, sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillariga bog'liq bo'lgan kasbiy kompetentlikning yuqori diapazonda ko'tarilganligini ko'rsatadi. O'quv modulida sud psixolog eksperti kasbiy kompetentligini ta'minlovchi sohaga tegishli bo'lgan me'yoriy hujjatlar bo'yicha savodxonligi, shuningdek psixodiagnostik ishlarni amalga qo'llay olishi, sudga oid psixologik ekspertizasi xulosasini sifatli tarzda rasmiylashtirish bo'yicha bilimdonligini oshirishga erishildi.

8. Sud psixologik ekspertizasi ishlarida faoliyat olib boradigan ekspertlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligi omillarini namoyon etilishi va rivojlanishi masalasini chuqurroq tahlil qilish uchun kelgusida ijtimoiy-psixologik kompetentlikning sud psixolog eksperti sifatidagi faoliyatiga tayyorlik darajasi bilan bog'liqlik tomonlarini tadqiq etish maqsadga muvofiq.

1. Golniiz G., Schulz-Wulf G. Rhythmisches psychomotorische Musiktherapie. Yena, 2004.- 112 p.
2. Glassman A. H., Shapiro P.A., Depression and the course of coronary artery disease. Am J Psychiatry. 1998. – P. 4-11.
3. Gmott H.G. between Parent and Children. N.Y., 2003. P – 219.
4. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. O`smirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish. Monografiya. “Buxoro viloyat bosmaxonasi MChJ” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 160.
5. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. [Psychodiagnostics](#). O`quv qo`llanma. “Turon zamin ziyo” nashriyoti. Toshkent 2014. -B. 298.
6. Olimov L.Ya. [Psixodiagnostika va psixometrika asoslari](#). Darslik. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.
7. Olimov L.Ya. [Umumiy psixodiagnostika](#). “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.
8. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M.. [Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o`quv qo`llanma](#). “Turon zamin ziyo” nashriyoti. T. 2020. -B. 820.
9. Olimov L.Ya., Nazarov A.M.. [Xulqi o`gishgan bolalar psixologiyasi](#). O`quv qo`llanma. “Tafakkur avlodi” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 490.
10. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. [O`smirlarda psixologik himoya mexanizmlarining namoyon bo`lishining o`ziga xosligi](#). Psixologiya ilmiy jurnali. 2021 yil, 4 son 103-112 b.
11. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. Psixologicheskie mexanizmi deviantnogo povedeniya. Psixologiya XXI veka. Yaroslavl., 2020. –S. 125-127.
12. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. [Stressli vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlari va koping xulq-atvor namoyon bo`lishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari](#). Psixologiya. Uchrediteli: Buxarskiy gosudarstvenniy universitet, 31-38.
13. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. [Stressli vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlari va koping xulq-atvor namoyon bo`lishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari: stressli vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlari](#). Psixologiya ilmiy jurnali. 2020 yil, 4 son 109-115 b.
14. Plutchik R., Kellermann H., Conte H.R. A structural theory of ego defences and emotions // Isard C. E. (ed.) Emotions in personality and psychopathology. N.Y.: Plenum, 1979. – P. 229-257.
15. Pratt L.A. Ford D.E., Crum R.M., et al. [Depression](#), psychotropic medication, and risk of myocardial infarction: prospective data from Baltimore ECA follow-up. Circulation 1996; 94:3123-3129.
16. Reynolds C.K., Gutkin T.B. School Psychology: Essentials of theory and Practice – IV.V., 1984.
17. Satir V. The new peoplemaking. – California: Science and Behavior Books, Inc., Mountain View, 2003. - 400 p.

Boltayev Sardor Ibodovich
Nizomiy nomidagi Toshkent
davlat pedagogika
universiteti tadqiqotchisi

ZAMONAVIY PSIXOLOGIYA FANIDA QARISH MUAMMOSINING O'RGANILISHI

Annotatsiya: Psixologik yosh sifatida kechki kamolotga etish (kattalik) qarilik — bu insonning jamiyatdagi va hayot ssikli tizimida o'zining o'ziga xos rolini o'ynaydigan pozitsiyalarining o'zgarishini o'z ichiga qamrab oladigan, hayotning yakuniy davridir. Qarilik murakkab bioijtimoiy psixologik hodisa sifatida talqin qilinadi. Biologik fenomen (hodisa) sifatida qarilik organizm zaifligining ortishi, o'lim ehtimolining oshishi bilan bog'liq. Ijtimoiy hodisa sifatida qarilik odatda nafaqaga chiqish, ijtimoiy mavqening o'zgarishi (pasayishi), muhim ijtimoiy rollarni yo'qotish, ijtimoiy olamni torayishi bilan assotsiatsiya qilinadi.

Tayanch tushunchalar: qarilik, gerontopsixologiya, fiziologik qarish, ijtimoiy qarish, psixologik qarish, jismoniy faoliyat, kasbiy mashg'ulot, katta yosh inqirozi.

ИЗУЧЕНИЕ ПРОБЛЕМЫ СТАРОСТИ В СОВРЕМЕННОЙ ПСИХОЛОГИИ

Аннотация: Старость (взрослость) как психологический возраст - это завершающий период жизни, охватывающий изменение позиций человека, играющего свою роль в обществе и системе цикла жизни. Возраст трактуется как сложное биосоциальное психологическое явление. Старение как биологический феномен (явление) связано с ростом слабости организма, повышением вероятности смерти. В качестве социального явления старение обычно ассоциируется с уходом на пенсию, изменением (уменьшением) социального положения, потерей важных социальных ролей, расцветом социального мира.

Основные понятия: старение, геронтопсихология, физиологическое старение, социальное старение, психологический возраст, физическая деятельность, профессиональное занятие, кризис старческого возраста.

STUDYING THE PROBLEM OF OLD AGE IN MODERN PSYCHOLOGY

Abstract: Old age (adulthood) as psychological age is the final period of life, encompassing the changing positions of a person playing a role in society and the life cycle system. Age is interpreted as a complex biosocial psychological phenomenon. Aging as a biological phenomenon (phenomenon) is associated with an increase in weakness of the body, an increase in the likelihood of death. As a social phenomenon, aging is usually associated with retirement, a change (decrease) in social position, the loss of important social roles, the heyday of the social world.

Basic concepts: aging, gerontopsychology, physiological aging, social aging, psychological age, physical activity, professional occupation, crisis of senile age.

Kirish. Mamlakatimizdagi mustaqil, huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyat qurish yo'lidagi ulkan ishlar inson mohiyatini yangidan kashf qilishga, uning o'zligini anglashdagi imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga yangi shart-sharoitlar yaratib bermoqda.

Hozirgi davr psixologiya fanining asosiy e'tibori sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish, ruhan, ma'nan, jismonan sog'lom avlodni tarbiyalash va kasalliklarni oldini olishga qaratilgan. Taraqqiy etgan mamlakatlarda uzoq, to'laqonli umr ko'rishning yagona yo'li sog'lom turmush tarzi hamda ruhiy salomatlik ekanligi isbotlangan. Odatda, qarilik haqida so'z ketganda, beixtiyor xayolga ojizlik, qaramlik, kasallik holati keladi. Yo'q, qarilik — kasallik emas, komillik pallasi.

Dolzarbli. Qarilik - umrning eng mazmunli, serhosil fasli. Insonning umr davomida yig'ilgan yashirin imkoniyatlari yoshi ulg'ayganda ochilib, aqli to'lishib teran fikrlaydi, kashfiyotlar qiladi. Qarilikdan qo'rqishmas, hayot davomida orttirgan tajribaga tayanib, aqlu shijoat bilan ishlash va yashash lozim.

Insonning qarish jarayonini o'rganishdan maqsad keksayish paytida sog'lom turmush kechirish, o'zini o'zi mustaqil parvarish qilish, ruhiy noqisliklarni oldini olishga erishishdan iborat. Keks yoshdagi odamlarda kasalliklarning kechish jarayoni ularning yoshi va ruhiy holatga bog'liq.

Qarilik (keksalik)-organizmda yetuklik davridan so'ng keladigan yoshga bog'liq muayyan davr. A'zo va tizimda o'ziga xos o'zgarishlar ro'y beradi. Bu esa organizmni hayotga moslashuv imkoniyatlarini cheklanishga olib keladi. Odamlarning keksalik davri-75-90 yosh hisoblanadi. 90 yoshdan oshgan kishilar uzoq umr ko'ruvchilardir. Qarilik-yoshlik lazzatining xumori, yigitlikdagi sog'lomlikni hasratla qo'msash davri.

Odamlarning aksariyati uzoq yashashni istaydilar, qarishni xohlamaydilar. Ammo qarish-bu tug'ilgan zahoti boshlanadigan va umr bo'yi davom etadigan jarayon. Odamlar qarib borganlari sari ularda qanday holatlar sodir bo'lishini yaxshi bilamiz. Organizmning barcha xizmat vazifasi va tashqi ta'sirga javobi sustlashadi. Ayrimlarda kuchdan qolish, sezgirlikning yo'qolishi, bo'y va og'irlikda yo'qotishlar ro'y berishi bilan namoyon bo'ladi. Qarishga ko'zning xiralashishi, quloqning yaxshi eshitmasligi yo'ldosh bo'ladi; sochlar oqaradi, teri burishadi, suyaklar o'z elastikligini yo'qotadi.

Hamma ham bir xil qarimaydi. Ammo yosh o'tib borgan sayin ma'lum o'zgarishlardan qochib qutilib bo'lmaydi. Bu tana to'qimalari va a'zolaridagi o'zgarishlardir. Masalan, buyrak, jigar, oshqozon osti bezi va taloq to'qimalarining hujayralari buzila boshlaydi. Bu qon tomirlarining qariy boshlashi, egiluvchanligining yo'qolishi, to'qimalar ta'minotining yomonlashuvi tufayli sodir bo'ladi. Qalqonsimon va boshqa bezlarning faoliyati ham xuddi shu yo'sinda yomonlashadi. Organizmdagi barcha aylanuvchi tizim yosh o'tishi bilan o'zgarib, qiyinchilik bilan faliyat ko'rsata boshlaydi. Bu o'zgarishlar tufayli yashash murakkablashadi. Ko'z, quloq, suyak va bo'g'imlar, qon, teri, soch, tirnoq, va tishlar barchasi ishdan chiqa boshlaydi.

Qarish jarayonida oshqozon tizimida oshqozon shirasining miqdori kamayadi. Oshqozon va ichak muskullarining tonusi yo'qoladi, qon aylanishi buziladi. Ana shuning uchun ham keksalarga maxsus parhez tayinlanadi.

Bunday o'zgarishlar biologik xususiyatga ega bo'lib, ularning oldini to'la olish mumkin emas. Sodda qilib aytganda, to'qima va a'zolar o'z faoliyatini bajara olmay qoladi. Ammo bunda bir xillik bo'lmaydi. Oltmish yoshli kishida ayrim to'qima va a'zolar sakson yoshli kishinikiga o'xshash bo'lishi mumkin. Boshqa a'zolar juda yaxshi holatda xuddi qirq, o'ttiz va hatto yigirma yoshli odamnikidek bo'lishi ham mumkin.

Psixologiyaning dolzarb muammolaridan biri bo'lgan "Gerontopsixologiya" insonning qarish jarayonini o'rganadigan fan bo'lib, yunoncha «geros» — qari va «logos» — bilim, psixologiya – ruhiyatni o'rganish degan ma'nolarni anglatadi. "Gerontopsixologiya"ning asosiy maqsadi insonning faol va to'laqonli hayotini uzaytirish yo'llarini izlab topishdir. Keks yoshdagi kishilarga psixologik xizmat ko'rsatish aksariyat psixologlarning kundalik vazifasi, chunki psixologik xizmatga xizmatga muhtoj barcha kishilarning 25-30 foizi keks yoshdagi kishilardir.

Adabiyotlar tahlili. Keksalik umrning qonuniy tarzda yuz beradigan yakunlovchi davridir. Biroq muddatidan oldin qarish hodisasi ham hayotda bor haqiqatdir. Shu sababdan S. P. Botkin va I. I. Mechnikovlar fiziologik va barvaqt qarish mavjudligi haqidagi tushunchalarni yoqlab chiqqanda haq edilar.

Barvaqt qarish boshdan kechirilgan kasalliklar yoki tashqi muhitning zararli omillari ta'sirida yosh bilan bog'liq o'zgarishlarning bir muncha erta rivojlanishi bilan xarakterlanadi.

Fiziologik qarish aqliy va jismoniy sog'lomlikni, ma'lum darajadagi ish qobiliyatini, dangasalikni, tevarak-atrofdagi hodisalarga qiziqishni saqlab qolish bilan belgilanadi.

Tashqi muhit ta'siri va organizmning ichki omillari qarish jarayonining tezlashuviga, organizmning erta qarishiga olib keladi, bu jarayon organizmning o'sish va rivojlanishi to'xtaganidan keyin boshlanadi.

Bugungi kunda jahonda genetik olimlarning chuqur izlanishlari natijasida, qarish jarayoniga ta'sir etuvchi genlar borligi taxmin qilinmoqda. Agar bu taxmin tasdiqlansa, "Gerontologiya" fanida keskin o'zgarishlar yuz berishi va insonning hozirdan ham uzoqroq umr ko'rishiga erishiladi. Genetikaning rivojlanishi juda ko'p geriatric kasalliklarning kamayishiga sabab bo'ladi.

Jahon ilm fanida qarilikni o'rganishga katta qiziqish kuzatiladi. F.Ariesning fikriga ko'ra, ijtimoiy tushuncha sifatida qarilik 20 asrdagina kiritilgan. Bu, birinchi navbatda, oxirgi 100 yillikda Yer kurrasida hosil bo'lgan demografik vaziyatdan yuzaga kelgan. Dunyo aholisining qarishi sodir bo'ladi, ya'ni populyatsiyada keksa odamlar sonining ortishi kuzatiladi. Ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda bu muqarrardir. Aholining qarish sabablari orasida tug'ilishning qisqarishi, sog'liqni saqlashni yaxshilash, go'daklik va katta yoshlardagi insonlar o'rtasida o'lim darajasining pasayishi — hayotning individual davomiyligini ortishi qayd etiladi.

Hayot davomiyligining ortishining tarixiy tendensiyasi o'tgan asrda, ayniqsa, yaqqol paydo bo'ldi. Bronza asrida hayotning o'rtacha davomiyligi atiga 18-20 yoshni, o'rta asrlarda 35 yoshni, 19 asrda 44 yoshni tashkil qilgan. 20 asrda hayotning o'rtacha davomiyligi 68-72 yoshgacha o'sgan. Shu bilan birga deyarli har bir avlodda hayotning me'yoriy individual davomiyligi ham ortmoqda.

Aholining qarish fenomeni jamiyatning soch-soqoli oqarganlarga "qari odamlar olamiga" aylanishi, yangi tibbiy, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy hamda boshqa masala va muammolarni yuzaga keltiradi.

Mahsulot va xizmatlarning talabgorlari va iste'molchilarining asosiy qismini endi keksalar tashkil qiladi. Bu barcha tizimlarni qayta mo'ljalga olishini talab qiladi. Biz barchamiz ko'proq keksa odamlar uchun maxsus tayyorlangan siyosiy va tijorat reklamalarini ko'ramiz. Eng dolzarb muammo qarilikdagi ijtimoiy yordam va nafaqa ta'minotini tashkillashtirishdir. Buning uchun katta boylik moddiy boylik (!) bu esa jamiyatning ishlayotgan a'zolarida zo'riqishning ortishi) va insoniyat resurslari (ijtimoiy ishchilarning ulkan safi) zarur. Yevropa va Amerikaning hatto iqtisodiy barqaror davlatlari ham bu muammoni bartaraf etish ularga qanchalik qiyin mashaqqatli kechishini taxmin qilmoqdalar (hatto uni yotib-yotib portlaydigan demografik "bomba deb ataydilar"). Ayrim davlatlarda nafaqa yoshini qaytadan ko'rib chiqish haqidagi masala allaqachon qo'yilgan (misol uchun, Buyuk Britaniyada 2010 yildan keyin ayollar uchun nafaqa yoshi 65 yoshga qadar cho'ziladi). Yosh davri sifatida qarilik ommaviy hodisaga aylandi. Nafaqaga chiqqanidan so'ng yana 15-20 yil hayot kechirish haqiqatga juda yaqindir, bu taxminan chorak hayotni tashkil qiladi. Qarish ham ijtimoiy, ham shaxsiy muammo sifatida ko'rib chiqiladi. Qarish qonuniyatlarini anglash to'laqonli hayot faoliyati va faol mehnatga qobiliyatlilikning yoshga bog'liq chegaralarining kengayishi, qarishni optimallashtirish usullarini ishlab chiqish gerontologiya, gerontotibbiyot, gerontopsixologiyaning muhim majmuaviy muammosidir.

Gerontopsixologiya — yaqin orada ajralib chiqqan va yetarli darajada o'rganilmagan, biroq keyingi o'n yillikda tadqiqotchilarning tobora ko'proq diqqat-e'tiborini jalb qilayotgan qarish muammolariga bog'ishlangan yosh davrlari psixologiyasining bir bo'limidir. Psixik qarish qanday kechishi, biologik va psixik qarishning o'zaro aloqasi, qarish xarakteriga jamiyat munosabati ijtimoiy stereotiplarning ta'siri qandayligi, qarish va kasbiy faoliyatning turli ko'rinishlari o'rtasidagi bog'liqlik ijtimoiy hayotning turli sohalariga keksalarni jalb qilish istiqbollari qarilikda o'zini o'zi namoyon qilish va psixologik farovonlik imkoniyati bular hali to'liq bo'lmagan masalalar ro'yxatidir. Ularning yechimidan keksalarga nisbatan ijtimoiy siyosatning strategik yo'nalishlarini va uni amalga oshirishning aniq shakllarini ishlab chiqish bog'liqdir.

Qarish va qarilik nazariyalari. Qarilikni tushunish va o'rganishga doir ko'pgina yondashuvlar mavjud, u yoki bu yondashuvning asosida qarilik haqidagi qanday asos, tasavvur yotganligini bilish juda muhim, chunki qarilikni idrok qilishning o'ziga xosligi bir vaqtning o'zida nazariy masalalar spektrini talab qiladi va ko'pgina amaliy muammolarni hal qilish yo'llarini belgilab beradi.

Biologik muammo sifatida qarilik. Qarilik barcha tirik organizmlarning asosiy biologik xususiyati sifatida "dasturlashtirilgan" va "dasturlashtirilmagan" qarish nazariyalarida "yoyilish", "hujayra qoldiqlari" immun tizimlarining qarishi vassitologiya nazariyalarida ko'rib chiqilgan. Ushbu nazariyalardan har birida organizm qarish mexanizmining modeli asoslanadi.

Biologik nazariyalarga rus gerontologiyasi asoschisi A.A. Bogomolsning nazariyasini hamda I.I. Mechnikovning intoksikatsiyalar (organizmning zaharli moddalar bilan zaharlanishi) sifatida qarish nazariyasini ham kiritish mumkin. A.A. Bogomols organizmning fiziologik jarayonlari uyg'unligini buzilishini qarishning asosiy omili deb hisoblagan. Gerontolog V.V. Frolkis qarilikni organizmning moslashuvchan imkoniyatlarini qisqarish vaqti sifatida ta'riflagan [4]. V.V. Frolkis qarishning fundamental mexanizmlarini tahlil qilib, nafaqat organizmning moslashuvchan imkoniyatlarini pasayishi asosini aniqlagan, balki organizmning hayot faoliyatini barqarorlashtirishga va hayot davomiyligini uzaytirishga qarama-qarshi bo'lgan buzilishlarga qarshi turadigan o'zini o'zi nazorat qilish tendensiyalarini ko'rsatgan. Qarishga qarshilik yoki "vitaukta" (lotinchadan olingan bo'lib, "vita" — hayot, "auktum" — uzaytirish degan ma'nolarini anglatadi) tushunchalari ular tomonidan taklif etilgan qarishning moslashuvchan boshqariladigan nazariyasining muhim jihatini tashkil qiladi. Evolyutsion dasturlashtirilgan genetik kodga kiritilgan qarilik haqidagi tasavvurlar asosida yotgan yondashuv (dasturlashtirilgan qarish) hamda hujayralarning zararlanishi genetik belgilanmaganligi, balki tasodifan buzilishlar natijasida sodir bo'lishi to'g'risidagi yondashuv ("dasturlashtirilmagan qarish") qarilikdagi involyutsiya sabablarini tushuntirishda nihoyatda (juda) umumiy biologik xarakterga ega. Muhimi, qarishning talqin qilinayotgan mexanizmidan bog'liqlikda organizmning keyingi holatini oldindan faraz qilishi, tuzishi, salbiy oqibatlarni profilaktika qilish chora-tadbirlari ishlab chiqiladi, bunda insoniyat hayotini uzaytirishda psixologik omillarning rollarini hisobga olmaydilar.

Jamiyatdan uzoqlashish nazariyasida ijtimoiy aloqalarni muntazam buzilish jarayoni muqarrar hisoblanadi. Jamiyatdan uzoqlashish hodisasi motivatsiyalar o'zgarishida, o'z ichki olamiga yo'nalganlikda va kommunikativlikni pasaytirishda kuzatiladi. Obyektiv jihatdan "jamiyatdan uzoqlashish" avvalgi ijtimoiy rollarni yo'qotganda, salomatlik holati yomonlashganda, foyda kamayganda, yaqin odamlardan judo bo'lganda yoki uzoqlashganda namoyon bo'ladi.

Subyektiv jihatdan bu holatda individ tomonidan hech kimga keraksizlik, qiziqishlar doirasining torayishi, o'z-o'ziga yo'nalganlik sifatida boshdan kechiriladi. Nazariyaning mohiyati shundaki, jamiyatdan uzoqlashish jarayoni biologik hamda psixologik asoslangan va muqarrardir. Jamiyat va shaxs o'rtasidagi uzilish nafaqaga chiqqandan so'ng tez orada sodir bo'ladi (faoliyatsiz) bolada inersiyasiga ko'ra keksa odam eski aloqalarni davom ettiradi (saqlab qoladi) ishda nimalar sodir bo'layotganligiga qiziqadi. Keyinroq bu aloqalar sun'iy lashib boradi va asta-sekin uziladi. Insonga kelayotgan axborotlar miqdori kamayadi, uning qiziqishlar doirasi torayadi, qarish jarayonining tezligi bilan bog'liqlikda faollik pasayadi. Faollik nazariyasi ("yangi mashhurlik") jamiyatdan uzoqlashish nazariyasiga qarama-qarshidir. U hayotdan qoniqish va faollik darajalarining ijobiy o'zaro aloqasini juda muhim deb hisoblaydi. Faollik nazariyasi keksa odamlar jamiyat hayotiga jalb qilinishlari kerakligini ko'zda tutadi. Bu shaxs qanchalik faol bo'lsa, shunchalik uning qoniqqanligini anglatishi kerak. Uzluksiz hayot yo'li ta'minoti qarilikni avvalgi hayot tarzini saqlab qolish uchun jang maydoni sifatida talqin qiladi. Qarilikka oid (doir) ijtimoiy yondashuvlarga keksa insonlar va boshqa odamlarning (uning oila a'zolari, ijtimoiy xodimlar) o'zaro munosabatini birmuncha shaxsiy muammolari muhokamasini kiritishi mumkin. Bu "yordamchini zo'riqtirish", keksalarga shavqatsiz munosabat oilaviy zo'rlikning juda dolzarb muammolaridir.

Ushbu yondashuvning asosida emotsional va intellektual qobiliyatlarning susayishi yoki boy berish (yo'qotish) jarayoni - "tanqislik modeli" yotadi.

Ingibitsiya (to'xtab qolish) nazariyasi keksa odamlar tashqi axborotlarni idrok qilishda qiyinchilikka duch kelganliklarini, kamroq uquvli bo'lishlarini va shu sababli ular "qo'l ishlari" darajasidagi vazifalarga diqqat qaratishlarini nazarda tutadi. "Foydalanilmagan" nazariyaga muvofiq kechki hayotda intellektual bilim (o'quv) yetarli darajada foydalanilmaganligi natijasida yomonlashadi. Qarish kognitiv nazariyasining boshqa ko'rinishi qarishning shaxsiy alohida, o'ziga xos tomonlariga taalluqlidir. Unda keksa inson u bilan sodir bo'layotgan o'zgarishlarni qanday tarzda izohlashi ko'rib chiqiladi. Bunda uchta soha asosiy rol o'ynaydi:

- shaxsiy kechinmalar (ahvolning yomonlashishi, jozibadorlikning kamayishi),
- ijtimoiy mavqening o'ziga xos xususiyatlari (integratsiya yoki izolyasiyaga kiritish),
- shaxsiy borliqning yakunini (nihoyasini) anglash.

Qarish tomonlaridan biriga urg'u beriladigan nazariyalar qarama-qarshi qo'yiladi. Qarish ko'p qirrali, u bir qancha o'zaro bog'langan **biologik, ijtimoiy, psixologik** jarayonlardan iboratdir. Oddiy qarish bo'lmaydi, qarish umuman, har bir insonda shaxsiy, alohida o'ziga xos yo'l mavjud.

Shunday qilib, inson uchun Dj. Terner va D. Xelmslar uchta o'zaro bog'liq hamda bir-birini to'ldiruvchi jarayonlarni ajratgan [7]:

➤ **psixologik qarish** — individ qarish jarayonini qanday his qiladi, o'zining qarish jarayoniga, uni boshqa odamlar qarishi bilan taqqoslab, qanday munosabatda bo'ladi;

➤ **biologik qarish** — yosh ortishi bilan organizmning biologik o'zgarishi (involyutsion);

➤ **ijtimoiy qarish** — individ qarishini jamiyat bilan qanday bog'laydi, ijtimoiy rollarni qanday bajaradi.

P. Baltesning nazariy modelida ta'kidlanishicha, rivojlanish "barcha yoshga bog'liq" xarakterga ega, butun hayot mobaynida davom etadi, o'sishga (ega bo'lish) va pasayish (yo'qotish) jarayonlarini o'z ichiga oluvchi, egiluvchan, ko'p o'lchamli, keng yo'nalgan jarayon hisoblanadi [1]. Ushbu nazariyaga muvofiq rivojlanish qator omillarning murakkab o'zaro ta'siri bilan determinlashgan:

- tashqi (ijtimoiy muhit),
- ichki (biologik)
- ijtimoiy sintezi.

Bu omillar rivojlanishning 3 yo'nalishini tashkil qiladi: hayotning me'yoriy yoshga bog'liq, me'yoriy tarixiy va me'yoriy bo'lmagan rivojlanishi. Me'yoriy yoshga bog'liq rivojlanish bir bosqichdan boshqasiga o'tishi bilan bog'liq: biologik qarish (pubertat yoki menopauza davrining boshlanishi) va ijtimoiy qarish (nafaqaga chiqishning xulq-atvoriga ta'siri) nuqtai nazaridan me'yoriy tarixiy rivojlanish butun yosh guruhida boshdan kechirilgan, o'sha dolzarb ijtimoiy-tarixiy hodisalar doirasida sodir bo'ladi (misol uchun, aksariyat 60 yoshli britaniyaliklar kartochka bo'yicha mahsulotlar olish tajribasiga ega, ularning 20 yoshli hamyurtlari buni bilmaydilar). Me'yoriy bo'lmagan hayotiy rivojlanish aniq bir individning hayoti uchun o'zgacha bo'lgan hodisalar ta'siri bilan asoslanadi. (5 yoshda kinoda bosh rolni ijro qilish, Nobel mukofotini olish) muallifning fikriga ko'ra, olimlarning ta'sir kuchi yoshga bog'liq holda farqlanadi. Keksalik yoshida me'yoriy yoshga bog'liq omillar ta'siri yuqori, me'yoriy bo'lmagan shaxsiy hodisalarni jamlagan ta'sirini hisobga olish zarur.

P. Baltes barcha odamlar rivojlanishidagi odatiy, ma'lum bir avlodlar uchun umumiy va alohida shaxslarning hayotdagi o'ziga xoslikni aniqrog'i, shokoterapiya deb aytadi [1].

Turli kasb olimlari (antropologlar, gerontologlar, psixologlar) insoniyat hayotini davrlashtirishda va qarishning yoshga bog'liq hisobini ajratishda har xil nuqtai nazarlarga ega, lekin ko'pchilik qariyalikning boshlanishi sifatida 60-65 yoshni amaliy tanlaydilar.

Namuna sifatida bir qancha nuqtai nazarlarni kiritish mumkin. Chexiyalik professor B. Prjigodning: qarish 60 dan 75 gacha, qarish Yoshi – 75 dan 100 gacha.

E.B. Xarlok: qarilik yoki qarish – 60 dan o'limga qadar. Dj.Birren: kechki etuklik 50–75 yosh, qarilik 75 yoshdan.

D.B. Bromley: Angliya sharoitlarida qarish davri 3 bosqichdan: ishdan uzoqlashish 65–70 yosh; qarilik – 70 yoshdan va undan yuqori; kuchsizlik, kasalmand qarilik va o'lim – 110 yoshgacha.

Rossiya gerontologiyasining asoschilaridan biri I.V. Davidov qarilik boshlanishini hech qanday kalendar sanasi mavjud emasligini ta'kidlagan [2]. Biologik qonuniyatlar va tendensiyalar nuqtai-nazaridan qarish muammosiga doir yondashuvni ishlab chiqqan, boshqa mashhur gerontolog N.F. Shaxmatov psixik qarishni markaziy nerv tizimlarining oliy (yuqori) qismlaridagi yoshga bog'liq destruktiv o'zgarish natijasi sifatida ko'rib chiqqan. N.F. Shaxmatov garchi qarish jarayoni – bu qarilikka olib boruvchi, ontogenez jarayonidagi organlar va tizimlardagi yoshga bog'liq o'zgarishlarning qonuniyatli jarayoni bo'lsa-da, lekin u yaqqol ifodalangan individual xarakterga egaligini isbotlashga harakat qilgan [5]. Yuzaga kelish mahali va vaqti, ko'proq tarqalishi, rivojlanish tezligi psixik qarishning turli shakllari yoki qonuniyatlarini, shuningdek hayot davomiyligini ham aniqlaydi. Shu bois, hatto biologik nazardan ham qarilik boshlanishining biror sanasini ajratish qiyin. Butun jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (BJSST) tomonidan taklif etilgan "qariyotgan" (termini) atamasi jarayonining asta-sekinligi va uzluksizligini ko'rsatadi.

BSShning Evropa regional (hududiy) byurosining (organi) klassifikatsiyasi bilan muvofiqlikda, qarish (kasallik yoshi) erkaklarda — 61 dan 75 yoshgacha, ayollarda 55 dan 74-75 yoshgacha cho'ziladi. 75 yoshdan qarilik (keksaygan yosh) boshlanadi. 90 yoshdan yuqori davr – uzoq umr ko'rishdir. Qarilikka o'tishning ijtimoiy mezonlarini nafaqaga chiqishning rasmiyat uchun qabul qilingan (rasmiy) yosh bilan bog'laydilar. Biroq turli mamlakatlarda har – xil kasb guruhlariga uchun, erkak va ayollar uchun nafaqa yoshi bir xil emas (asosan 55 yoshdan 65 yoshgacha). Yuqori yoshga o'tish, "bo'sag'asi"ning boshqa ijtimoiy – iqtisodiy ko'rsatkichlari – bu asosiy foyda manbaining o'zgarishi, ijtimoiy rollar doirasining toraytirishidir. "Yosh qarilik", "uchinchi" yosh (odamda 75 yoshgacha) hamda keksa qarilik, "to'rtinchi yoshni" (75 yoshdan keyin) farqlash juda muhim hisoblanadi. Farqlash funksional mezonlarning tadbiq etilishiga – ya'ni keksa inson faol va erkin hayot kechirishi yoki atrofdagilar g'amxo'rlikiga muhtoj bo'lishi ehtimoliga asoslangan.

Yetuklilik va qarilik chegarasidagi inqiroz taxminan 55-65 yoshlarga to'g'ri keladi. Psixologiyada uning tuzilishi mazmuni) nihoyatda tushunarsiz va turli xil taqdim etilgan. Metaforik (serkinoya) tavsif ("qarilik yoshligi", "so'lg'inlik yoshi", "psixik hayotning keskin burilishi", "o'z qariligi bilan kurashish" va h.k.) inqiroz sabablari sifatida ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan, aniq omillarga urg'u berish bilan kuzatiladi.

Shunday qilib, ba'zan katta yosh inqirozini eng asosiy determinantlar sifatida nafaqaga chiqish kabi shunday ijtimoiy omillarni ajratgan holda, "nafaqa oldi" deb ataydilar. Darhaqiqat, zamonaviy tarixiylik bosqichida qarilik davri boshlanishini daraklovchi hodisa, "obyektiv belgi" sifatida rasmiy nafaqa yoshiga etish xizmat qiladi. Nafaqaga chiqish jamiyatdagi ahamiyatli o'rin va muhim ijtimoiy rolga yo'qotish, inson o'zining referent guruhlaridan ajralishi muloqot doirasining torayishi, moddiy holatni og'irlashtirishi, ba'zan "iste'fo shoki"ning jiddiy holatini yuzaga keltiruvchi psixik vaqt tuzilishlarini o'zgarishi bilan birga, insonning hayot tarzini ahamiyatli darajada o'zgartiradi. Bu davr salbiy emotsional kechinmalarni yuzaga keltirib, aksariyat qariyotgan odamlar uchun qiyindir. Nafaqa yoshini boshdan kechirishning individual ifodalanganligi va keskinligi mehnat xarakteridan, uning individ uchun (qadrligidan) ahamiyatlilikidan, insonning psixologik tayyorlilikidan, o'tgan yillar davomida shakllangan, uning shaxs xususiyatlari va hayotiy pozitsiyalaridan bog'liqlikda juda ham farqlanadi.

Shunday qilib, og'ir jismoniy faoliyatdan yoki sevimli bo'lmagan kasbiy mashg'ulotdan ajralish mutlaqo qiyinchiliksiz, ozod bo'lish va boshqa birmuncha yoqimli biror nima bilan mashg'ul bo'lish imkoniyati sifatida, hatto quvonchli o'tishi mumkin. L.I. Aseferova tavsiflar yig'indisiga ko'ra (faollik darajasi, qiyinchiliklarni yengib o'tish strategiyalari, olamga va o'ziga nisbatan munosabat, hayotdan qoniqqanlik) keksa odamlarning ikkita asosiy shaxs tipini ajratish mumkin. Birinchi tipga mansub keksa odamlar nafaqaga ketishni mardonavor boshdan kechiradi, yangi qiziqarli ish-mashg'ulotlariga diqqatini qaratadi, yangi do'stona aloqalarni o'rnatishga moyillar, o'z atrofidagilarni nazorat qilishda davom etadi. Bularning barchasi ular hayotdan qoniqish hissini his etishlariga sabab bo'ladi va hatto uning davomiyligini uzaytiradi. Ikkinchi tipga mansub keksa odamlar atrofdagilar tomonidan begonalashishni his qilayotgan, hayotga sust munosabatda bo'luvchilar sifatida tavsiflanadi. Ularda qiziqishlar doirasining torayishi, testlar bo'yicha intellekt ko'rsatkichlarining pasayishi, o'ziga nisbatan hurmat hissining yo'qolishi, hech kimga keraksizlikni va o'z noadekvatligini his qilishi kuzatiladi. Iste'fodagi inqiroz holatlarini kamaytirishda ko'proq natija beradigan strategiya sifatida "antitsipatik egallash" texnikasi tan olingan. Yangi ijtimoiy pozitsiyaga psixologik tayyorlikni hosil qilish bo'sh vaqtni oldindan rejalashtirishni, yangi hayot tarzini, jamiyatga qo'shilishning yangi yo'llarini qidirishni, salbiy holat va voqea-hodisalarni oldindan payqashni, "iste'foni tizimlilik va vaqtga bog'liqligiga ko'ra, qat'iy cheklavlarga ega bo'lgan faoliyatdan xalos bo'lish sifatida insonning yangi qobiliyatlarini yuzaga chiqarishiga yordam beradigan, birmuncha erkin hayotga o'tish sifatida ijobiy jihatdan qabul qilishga intilishni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy qarishga qarshi harakat kasbiy faoliyat yakunlangan keyin hayotni oldindan rejalashtirish, o'z hayoti va tegishli (mos keluvchi) faoliyat xususida sinchiklab, puxta o'ylab ko'rishning murakkab jarayonidir.

Qarilikka o'tish inqirozga doir boshqa nuqtai-nazar bu, eng avvalo, (identiklik) muvofiqlik inqirozi, shaxs ichki inqirozi ekanligidan iboratdir. Uning asosi qarish alomatlarini odatda, subyektning o'ziga emas, balki atrofdagilarga ertaroq va aniqroq bilinishi (sezilishi) bilan bog'liq.

Fiziologik qarish jarayonlari ularning asta-sekinligi sababli uzoq muddat anglanmaydi, o'z-o'zidagi "o'zgarishni payqamaslik" illyuziyasi yuzaga keladi. "Hayotning har bir davri o'zining shaxsiy ma'nosiga, o'zining shaxsiy bazasiga ega. Ularni va ularni o'zini topish hayotga moslashishning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi" – deb yozgan edi E.Shternberg [6]. Qarilik davridagi rivojlanishning yoshga bog'liq vazifalari quyidagi tarzda jamlangan bo'lishi mumkin:

- Yoshga bog'liq tanadagi psixofiziologik o'zgarishlarga moslashish;
- Qarilikni adekvat qabul qilish (salbiy stereotiplarga qarshilik ko'rsatish);
- Vaqtni oqilona taqsimlash va qolgan umr yo'llaridan maqsad yo'lida foydalanish;
- Rollarning qayta orientatsiyasi, eskilaridan voz kechish va yangi rollar pozitsiyasini izlash;
- Yaqin odamlarni yo'qotish va farzandlardan ayrilish bilan bog'liq bo'lgan affektiv qashshoqlikka qarshi tura bilish;

- Emotsional elastiklikni saqlab qolish;
- Ruhiy elastiklikka intilish (ruhiy rigidlikni bartaraf qilish xulq-atvorning yangi shakllarini qidirish;

- Ichki barqarorlikka va yashab o'tilgan hayotni anglashga intilish.

Xulosalar. Adabiyotlar tahlilidan ko'rinib turibdiki, qarilik yosh davrining muayyan bir davri bo'lib, yakuniy bosqich sifatida kuzatiladi. Tabiiyki, o'lim oldi qo'rquvlarning namoyon bo'lishi, ijtimoiy qarish sifatida jamiyatdan uzoqlashish, biologik qarish sifatida organizmning qarishi, unda qarish jarayoni kechishi bilan bog'liq turli xastaliklar, yo'qotishlar hamda psixologik qarish sifatida inson ruhiyatidagi jiddiy o'zgarishlarni sanab o'tish mumkin.

Zamonaviy psixologiya oldida turgan asosiy muammolar sifatida shuni e'tirof etish zarurki, gerontopsixologiya psixologiyaning yosh davrining keksalik va qarish hodisalarini o'rganuvchi, shaxsning bu davrda o'ziga xos ruhiy o'zgarishlarini o'rganuvchi, tadqiq etuvchi muhim tarmoq sifatida namoyon bo'ldi va albatta, uni chuqur o'rganish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Zero, gerontopsixologiya — yetarli darajada o'rganilmagan, biroq keyingi o'n yillikda tadqiqotchilarning tobora ko'proq diqqat-e'tiborini jalb qilayotgan qarish muammolariga bog'ishlangan yosh davrlari psixologiyasining bir bo'limidir. Psixik qarish qanday kechishi, biologik va psixik qarishning o'zaro aloqasi, qarish xarakteriga jamiyat munosabati ijtimoiy stereotiplarning ta'siri qandayligi, qarish va kasbiy faoliyatning turli ko'rinishlari o'rtasidagi bog'liqlik ijtimoiy hayotning turli sohalariga keksalarni jalb qilish istiqbollari qarilikda o'zini o'zi namoyon qilish va psixologik farovonlik imkoniyati — bular hali to'liq bo'lmagan masalalar ro'yxatidir. Ularning yechimidan keksalarga nisbatan ijtimoiy siyosatning strategik yo'nalishlarini va uni amalga oshirishning aniq shakllarini ishlab chiqish bog'liqdir.

Adabiyotlar

1. Балтес Б. Пауль. Всевозрастный подход в психологии развития: исследование динамики подъёмов и спадов на протяжении жизни./ Пауль Б.Бальтес. Перевод с англ. И. Ариевича/ Психологический журнал. – Т. 15. №1. – 1994.
2. Давыдов В. В. И др. Возрастная и педагогическая психология. – 1979. – с. 286.
3. Слободчиков В.И. Психология человека. Введение в психологию субъективности 2013. – 360 с.
4. Фролькис В.В. Старение и биологические возможности организма. – М.: Наука, 1975. – 272 с.
5. Шахматов Н.Ф. Психическое старение: счастливое и болезненное. – М.: Медицина, 1966. – 304 с.
6. Штернберг Э.Я. Геронтологическая психиатрия, 2002. – 272 с.
7. Тёрнер Джон. Причины конфликта. – Питер, 2001. – с. 67

**Buxoro davlat universiteti muassisligidagi
 "PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA"
 xalqaro ilmiy-metodik jurnali
 barcha ta'lim muassasalarini
 hamkorlikka chorlaydi.**

**"PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA" xalqaro ilmiy-metodik jurnalida o'zbek, rus, ingliz
 tillarida maqolalar chop etiladi.**

**Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi 11-uy
 Buxoro davlat universiteti**

Tahririyat rekvizitlari:

«Садриддин Салим Бухорий» МЧЖ

Манзил: Бухоро, Муҳаммад Иқбола кўчаси, 11

Р/с 20208000104858465002

Бухоро шаҳри Ҳамкорбанк МФО 00966

ИНН 301637939 ОКНХ 87100

PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA Xalqaro ilmiy-metodik jurnal 2023-yil 5-son (7) 2022-yil avgust oyidan chiqa boshlagan. Нашр индекси: 1397	Buxoro davlat universiteti nashri Jurnal davlat va nodavlat oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, kasb-hunar maktablari hamda maktab o'qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo'ljallangan. Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi. Nashr uchun mas'ul: Alijon HAMROYEV. Musahhih: Muhiddin BAFAYEV.	Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar. Bosishga ruxsat etildi 01.12.2023 Bosmaxonaga topshirish vaqti 07.11.2023 Qog'oz bichimi: 60x84. 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog'i – 27,0 Adadi – 100 nusxa Buyurtma № 670 Bahosi kelishilgan narxda. “Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahri M.Iqbol ko'chasi 11-uy.
--	--	--